

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI
SAMARKAND REGION NATIONAL CENTER FOR TRAINING
PEDAGOGUES IN NEW METHODS**

**“KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLARNING TA'LIM
AMALIYOTIGA TATBIG'I” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI TO'PLAMI

**Samarqand
2024-yil, 14-iyun**

1-qism

Samarqand – 2024

UDK 37.026

**KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLARNING TA'LIM
AMALIYOTIGA TATBIG'I. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.**
– Samarqand viloyati PYMO‘MM, 2024. - 680 b.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini nashr ettirish ta'limning ushbu bo'g'iniga oid aniq strategiyalarini ishlab chiqishga, innovatsion g'oyalarni jamlashga, o'zaro ilg'or tajribalar bilan hamfikir bo'lishga undaydi. Jumladan, konferensiyada kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar doirasida kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining dolzarb muammolari, ushbu tizimda fan va amaliyotning integratsiyasi, xorijiy tajribalarning tatbiq etilishi, professor-o'qituvchi, talaba o'qituvchining bilish jarayonlarini amaliyotga yo'naltirish bilan ta'lim muassasalari faoliyatining tashkil etilishi, pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanishiga doir faoliyatini, ta'lim sifati natijalarini baholash, ta'limda inson kapitaliga investitsiya kiritishning ahamiyati kabi masalarni yoritish asosiy maqsad qilib belgilangan.

To'plam ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar hamda ilg'or tajribalar bilan qiziquvchi ilmiy va pedagog xodimlar, doktorantlar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

To'plamga kiritilgan maqolalar mualliflik tahririda berilgan. Maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

Bosh muharrir: *pedagogika fanlari doktori A. Ibragimov*
Mas'ul muharrir: *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori G.Fayzullayeva*
Texnik muharrir: *Sh.Xujakulov*

Tahrir hay'ati:	<i>filologiya fanlari doktori</i>	<i>D.Urinbayeva</i>
	<i>filologiya fanlari nomzodi</i>	<i>D.Alimova</i>
	<i>pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>	<i>O'.Utanov</i>
	<i>pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>	<i>K.Okilova</i>
	<i>pedagogika fanlari nomzodi</i>	<i>M.Raximqulova</i>
	<i>falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>	<i>G.Tagayev</i>
	<i>o'qituvchi</i>	<i>J.Eshquvatov</i>
	<i>o'qituvchi</i>	<i>M.Fayziyeva</i>
	<i>o'qituvchi</i>	<i>A.Xurramov</i>
	<i>metodist</i>	<i>G.Norboyeva</i>
	<i>metodist</i>	<i>N.Shonazarova</i>

© Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, 2024.

SO‘Z BOSHI

Dunyo miqyosida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlar va innovatsiyalar bevosita inson omili muammosini yanada chuqurroq va izchil ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizning rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli munosabatga kirishuvi har jihatdan yetuk kishilarni kamol toptirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda fan texnikani yuqori saviyada egallash, jahon standarti darajasiga yaqinlashtirish uchun intellekt ko‘rsatkichi yuqori hamda mustaqil va erkin fikrlovchi yoshlarni shakllantirish talab etilmoqda.

Ijtimoiy sohada pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab ko‘rinishlaridan biridir. Jamiyat ravnaqi va istiqboli undagi ta‘lim sohasining qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq. Shu sababli hozirgi paytda uzluksiz ta‘lim tizimi oldida turgan, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri – kelajak maktabi, xususan, yangicha ta‘limni shakllantirish va xalqaro ta‘lim muhitini yaratishdir.

Jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi pedagogik ta‘limda kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning qanchalik o‘rganilayotganligi hamda amaliyotga tatbiq etilayotganligiga ham bog‘liq. Bugungi globalizatsiya va tezkor texnologik rivojlanish davrida ta‘lim tizimini zamonaviylashtirish va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. “Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta‘lim amaliyotiga tatbiq‘i” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ushbu muhim yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar va ularning natijalarini ta‘lim amaliyotiga keng tatbiq etish maqsadida tashkil etildi. Ushbu konferensiya doirasida kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar sohasida yetakchi olimlar, pedagoglar va amaliyotchilar o‘z tajriba va bilimlarini o‘rtoqlashadilar

Kognitiv tadqiqotlar inson ongining bilim olish, eslash, tushunish va qabul qilish kabi jarayonlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ta‘lim jarayoni ishtirokchilarini samarali o‘qitish usullarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Kognitiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning o‘qish, yozish, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish mumkin. Neyropedagogika esa ta‘lim va o‘qitish jarayonlarini inson miya faoliyatining ilmiy asoslari bilan bog‘laydi. Ushbu yo‘nalishlar ta‘limni individualizatsiya qilish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularni maksimal darajada rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar ta‘limida tizimli tafakkur alohida o‘rin egallaydi, chunki zamonaviy ta‘lim oldiga qo‘yilayotgan vazifalar, aynan tizimli tafakkurni o‘qitishning bosh maqsadlaridan biriga aylantirishni taqozo qiladi. Kognitiv ta‘lim nimani o‘qish (mazmun) muhimligini inkor qilmagan holda, qanday o‘qish(bilish jarayonlari)ga butun vositalarni jamlashga e‘tibor qaratadi. Ta‘lim oluvchini bilish tizimi sifatida qarash jarayonda kognitiv fanlar (psixologiya,

falsafa, neyrobiologiya, lingvistika, sun'iy intellekt va b.) metodologiyasi, nazariyasi va amaliyotidan o'qitish samaradorligiga erishishda unumli foydalanish mumkinligini anglatadi. Bunday yondashishda o'qituvchining o'zni ta'lim oluvchining kognitiv qobiliyatlari va bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhit yaratuvchisi hamda uni amalga oshiruvchisiga aylanadi.

Kognitiv o'qitishni amalga oshirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Jarayonda ta'lim oluvchilar qanchalik ko'p kognitiv faoliyatga undalsa (muammoli vaziyatlar, munozaralar, ro'lli o'yinlar va b.), mahsuldorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Bu holat esa o'qituvchining o'ziga ham innovatsion faoliyatga va kasbiy rivojlanishga doimiy tayyorlik shartini ajralmas qilib qo'yadi. Kognitiv va neyropedagogik o'qitishning bosh maqsadi o'quv jarayonini yangi vaziyatlarga moslashtirishga imkon beruvchi aqliy qobiliyat va strategiyalarning butun jamlanmasini mukammallashtirishdan iboratdir. Kognitiv mahorat sharoitida ta'lim jarayoni axborotlarni yutishga emas, balki tadqiq etilayotgan predmetlarning ichki munosabatlarini anglash, ta'lim oluvchilarda muloqot, izlanuvchilik tafakkurini uyg'otish, mental faollikni jamlashga yo'naltiriladi. O'qitishga bunday yondashuv anglangan, asoslangan mulohazalarning jiddiy va murakkab kognitiv yuk bilan bog'langanligi oqibatida fikrlash faoliyatining yuqori samarali o'sishiga olib keladi. Muhimi, ta'lim sohasidagi kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar ta'lim oluvchi shaxsining quyidagi intellektual sifatlarini aniqlash va rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi: turli vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyati; turli vaziyatlarga tezkor egiluvchan ta'sir ko'rsatish; farazlarni shakllantirish va tekshirish; atrof-muhitni o'zlashtirish; o'rganiladigan fanning tuzilishini aniqlashtirish; intellektual ko'nikmalarni egallash; o'zgaruvchan sharoitlarga adekvat mo'ljal olish va boshqalar.

O'ylaymanki, bugungi konferensiya materiallari nafaqat milliy pedagogikada, balki keng ilmiy hamjamiyatda kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlardan unumli foydalanish hamda amaliyot samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi manba bo'la oladi.

A.A. Ibragimov
Samarqand viloyati PYMO'MM direktori

1-SHO‘BA
KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLAR
NATIJALARINI TA‘LIM AMALIYOTIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

PEDAGOGIK TA‘LIMDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARNI
QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Ibragimov A‘lamjon Amrilloevich,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

alamjonibragimov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada pedagogik ta‘limda kognitiv texnologiyalardan foydalanish nazariyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, kognitiv texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada samarali, interaktiv tashkillashtirishga qaratilganligi, o‘qituvchilarning, jumladan, talabalarning ham kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi konseptual jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy tafakkur, kodlashtirish tizimi, shartlar guruhi, idrok qilingan o‘qitish, ta‘lim texnologiyalari tavsifi, konseptual asoslari tuzilmasi.

O‘quv jarayonida elektron o‘quv adabiyotlari hajmining o‘sib borishi, manbalarning turli-tumanligi va murojaat qilish imkoniyatining kengligi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun yangi ufq manzaralarini paydo qiladi. Pedagogik faoliyatda axborot texnologiyalari yoki tegishli ta‘lim resurslari orqali ma‘lumot almashish va foydalanish salmog‘ining ortib borayotganligi e‘tiroz tug‘dirmasa ham, jarayonda sinf-dars tizimi chegaralaridan chiqish jiddiy oqsamoqda. Ya‘ni, hanuzgacha barchani birday o‘qitish tamoyili, o‘qituvchining faolligi va o‘quvchining esa aksinchaligi saqlanib qolmoqda. Bu holat esa didaktikaning bosh masalalari bo‘lgan “Nimaga o‘qitish?” va “Qanday o‘qitish?” muammolarining yanada dolzarblashuvini, ta‘lim mazmuni, maqsadi, jarayoni, o‘qitish metodlarini o‘zgaruvchan sharoitlarga tezkor rostdashni talab qiladi.

Zero, dunyo miqyosida o‘tkazilayotgan tadqiqotlar joriy sharoitlarda zamonaviy o‘qitish metodikasi va o‘quv muhitini yaratish orqali ta‘lim sifatini ta‘minlash mumkinligini dalillamoqda. Bu omillar o‘quvchini ta‘lim obyektidan subyektiga ko‘chirish, chunonchi, “markazda o‘quvchi”, “tajribalarda o‘qish”, “doska o‘quvchi sahnasi”, “o‘quvchi qiziqishlariga monand o‘qitish”, “o‘quvchi-kashfiyotchi”, “o‘quvchining mustaqilligini rag‘batlantirish” tamoyillariga tayanish, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi do‘stona muhit, ijobiy muloqot va munosib o‘quv vositalarini taqozo qiladi. O‘quvchiga shunday imkoniyat yoki sharoitlarni taqdim etish bilangina ularda XXI asr uchun zaruriy hisoblanayotgan axborotlar bilan ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni, murakkab vaziyatlarni tushunish, yechimini topish, konstruktiv muloqot hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. O‘qituvchining bunga mos bo‘lgan shaxsiy-kasbiy

sifatlari, tajribasi, intilishlari, salohiyati esa harakatlantiruvchi va natijani kafolatlovchi mezon vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, ildamlab borayotgan o'qituvchilar faoliyatida o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazishdan ko'ra, ularni tushunish, idroklash, tahlillashga o'rgatish; tushunchalar, qoidalarni yodlatishdan ko'ra, qadriyatli munosabatni shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish; yakka harakatlardan ko'ra, jamoada ishlash afzalliklarini singdirish; nazorat qilishdan ko'ra, muammoli vaziyatlarni yaratish, bilimlarini amaliyotda qo'llashga sharoit yaratishga intilish tobora ko'proq kuzatilmoqda.

T.Blinova mazkur yondashuvni tahlil qilib, "ta'lim maktab sarhadlaridan tashqariga chiqdi" emas, balki chiqishi shart, deya qaralishi lozimligini bildiradi. Uningcha, pedagoglarni tayyorlash jarayoni sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi hamda o'qitishga bo'lgan urg'uni yangi bilimlarni egallashga emas, balki talabalarda amaliy ko'nikmalar shakllanishi uchun ularning o'qituvchilar bilan hamkorlikka erisha olishi va natijadorlikka qaratilishi lozim.

Axborotlar oqimining shiddati, ko'lami va uning yuqori darajada to'yinganligi inson idrokining ularni hazm qilishga ulgurmasligiga sabab bo'lmoqda. Mazkur sharoitlarda, ta'lim jarayoni o'qitishning noan'anaviy yondashuvlari va yangi ta'lim texnologiyalariga kuchli ehtiyoj sezadi. Bunda o'quvchilarni "turbulent" vaziyatlarda o'z o'rnini topish, shaxsning kuchli jihatlarini barkamollashtirish, uzluksiz takomillashish va doimiy o'qish holatida bo'lishga tayyorlash muhim omil bo'lishi zarur.

Demak, bilish jarayonlarini rivojlantirish bosh g'oyani ifodalar ekan, kognitiv psixologiya sohaga salmoqli ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Chunonchi, "kognitiv psixologiya insonlarning olam haqidagi axborotlarni qaysi shaklda qabul qilishi, bu axborot inson tomonidan qanday tushunilishi, u xotirada qay tartibda saqlanishi, bilimlarga aylanishi, bu bilimlar bizning diqqatimiz va xulqimizga qanaqa ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Kognitiv psixologiya psixologik jarayonlarning butun ko'laminini – his-tuyg'u, kechinmalardan idrok, obrazlarni tanish, diqqat, o'qish, xotira, tushunchalarning shakllanishi, tafakkur, tasavvur, eslab qolish, til, hissiyotva rivojlanish jarayonlarigacha; xulqning turfa xil sohalarini qamrab oladi". Bu nuqtayi nazar U.Naysserning qarashlarida kognitiv psixologiya me'yorlari negizida pedagogik "kognitiv" o'qitish texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida maxsus kognitiv sxemalar yordamida amalga oshiriladigan intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, deya izohlanadi. Buning oqibatida o'qitishni atrofda gilarning talablariga adekvat javob berish uchun tegishli axborot turlarini idroklash va qayta ishlashni o'rgatuvchi kognitiv sxemalarni shakllantirish jarayoni tarzida qarash lozim bo'ladi.

Kognitiv tadqiqotlar inson mavjudligining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlariga bog'liq bo'lsa-da, shaxsiyat kamolining ruhiy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlari tizimini faqatgina o'zi yaratishi mumkinligini tushunishida yangi sahifa ochib berdi. Bunday anglanish hozirgi sharoitlarda ishlab chiqarish va fandagi yuksalishlar hamda ehtimoliy xatarlar aynan bitta shaxs, jamoa, jamiyat bilan bog'liq, degan xulosaga olib keladi. Agar bu fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, kognitivlik nazariyasi idrok

orqali qarorlar qabul qilish va axborotlarni qayta ishlashni nazarda tutadi. Demak, asrimizda jamiyat ravnaqi ham aynan kognitiv texnologiyalar ta'siri doirasida bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda kognitiv texnologiyalarga turlicha tavsif berilgan. Jumladan, "subyektlarning neyrofan, o'z-o'zini tashkil qilish nazariyasi, axborot texnologiyalari, ong elementlarini kompyuterli modellashtirish va bir qator boshqa ilmiy yo'nalishlarga doir tushunchalar hamda insonning bilish, o'qish, o'zaro aloqada bo'lish, axborotlarni qayta ishlash jarayonlariga tayanish asosida ko'zlangan maqsadga erishish algoritmi va usullari", "inson va hisoblash tizimlari orasidagi interfeyslar texnologiyasi", "o'quvchida zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yashashga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kognitiv sxemalar tizimini shakllantirish orqali atrof-muhitni tushunishini ta'minlovchi individual yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasi", "o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va o'quv jarayonini boshqarishning psixologik nazariyalariga asoslangan algoritmik turdagi texnologiya" va boshqa shakllarda talqin qilingan.

Bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishgan olim M.Y.Bershadskiy kognitiv ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasini har bir ta'lim oluvchining qabul qilingan axborotni tushunishi uchun yetarlicha sharoit yaratilishida, deya e'tirof etadi hamda uning ustuvor maqsadlarini quyidagicha belgilaydi:

1. Ta'lim oluvchilarning kognitiv rivojlanishi.

2. O'qitish standarti talablariga mos ravishda bilimlarni o'zlashtirish va faoliyat usullarini shakllantirish.


3. Ta'lim oluvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish: turli manbalardan keluvchi axborotlarni qabul qilish qobiliyati; konspektlashtirish ko'nikmasi (mantiq va til me'yorlariga binoan shaxsiy fikrlarini bayon qilish); qisqacha sharhlash ko'nikmasi (kitob, maqola, og'zaki nutq, tele, video va boshqa materiallarning qisqacha tuzilmalashgan izohini kerakli axborotlarni ajratib olish va tanqidiy tahlillash asosida keltirish); berilgan muammoga doir axborotlarni to'plash ko'nikmasi; turli manbalardan olingan axborotlarni berilgan mezonlarga ko'ra taqqoslash ko'nikmasi; turli manbalardan olingan axborotlarni taqqoslash uchun tegishli mezonlarni shakllantirish ko'nikmasi; axborotdagi muammolar va ziddiyatlarni aniqlash ko'nikmasi; axborotni qabul qilishning texnik vositalaridan foydalanish ko'nikmasi; axborotni qabul qilishning dasturiy vositalaridan foydalanish ko'nikmasi; axborotlarni to'plashni rejalashtirish va kuzatish ko'nikmasi; xborotni qabul qilish va farazlarni tekshirishni rejalashtirish hamda tajriba o'tkazish ko'nikmasi; turg'un bilish motivatsiyasi; axborotning affektiv va kognitiv tarkiblarini farqlash ko'nikmasi.

4. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish: haqiqiy ma'lumotlar va baholovchi mulohazalar orasidagi farqlarni anglash ko'nikmasi; haqiqiy ma'lumotlar va faraz, taxminlar orasidagi farqlarni anglash ko'nikmasi; mantiqiy bog'liqliklarni ajrata olish ko'nikmasi; bog'liqliklarning o'ziga xos bo'lgan maxsus belgilarini ajrata olish ko'nikmasi; fikr-mulohazalardagi haqiqiy va mantiqiy xatoliklarni aniqlash ko'nikmasi; ahamiyatli dalillarni taalluqli emaslaridan farqlash ko'nikmasi; asosli va asossiz baholashni chegaralash ko'nikmasi; axborotlarga ko'ra dalilli xulosalarni

shakllantirish ko‘nikmasi; xulosalarning adolatligini isbotlovchi nuqtayi nazarlarni ajrata olish ko‘nikmasi.

Kognitiv yondashuvda tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, idrok, nutq kabi bilish jarayonlari insonning atrof-muhit bilan axborot almashishida bir butun hodisa ko‘rinishida qaralar ekan, bunda ta‘lim oluvchilarning axborotlarni turlicha qabul qilishi va anglashiga ham jiddiy e‘tibor qaratish zarur. Shuning uchun, ta‘lim oluvchilarda o‘quv materialini shunchaki o‘zlashtirishni emas, uni tushunish, anglash, qayta ishlash va bilimlarni egallashga shaxsiy intilishi bilan erishishdek, aniq maqsadni qo‘yish hamda amalga oshirish ko‘nikmasini shakllantirish lozim.

Jumladan, shu turdagi g‘oyalar amerikalik psixolog, o‘qitishning kognitiv yondashuvi asoschilaridan J.Brunerning tadqiqotlarida ilgari surilgan bo‘lib, bu – kashfiyotlar orqali o‘rgatish nazariyasidir. Unga ko‘ra, material o‘qituvchi tomonidan tugallanmagan ko‘rinishda beriladi, o‘quvchilar esa taqdim qilingan axborotlar asosida ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘zlari aniqlashlari va yakunlashlari lozim bo‘ladi. Bruner tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kodlashtirish tizimi, deb nomlaydi. Ya‘ni, kashfiyot – kodlashtirish tizimining mustaqil shakllanishidir (jarayonda o‘qituvchi yordamida amalga oshiriladi). Mazkur nazariyada kashfiyotlar orqali o‘rgatishga ko‘maklashuvchi to‘rtta shartlar guruhi taklif qilinadi (5-chizma):



1-rasm. Kashfiyotlar nazariyasida o‘rgatishga ko‘maklashuvchi shartlar guruhi

1) moslash – muayyan obraz bilan munosabat bildirishga bo‘lgan moyillik. Agar inson kashfiyotga intilayotgan bo‘lsa, odatda, uning o‘zi axborotlarning tarqoq birliklari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topishga urinib ko‘radi. Shuning uchun o‘quvchilarni doimo bu jarayonga undash zarur;

2) ehtiyoj holati – bu o‘quvchining qo‘zg‘alganlik, hayajonlanganlik yoki tayyorlik darajasi;

3) aniqlashtirishni egallaganlik – bu o‘quvchining fanga aloqador bo‘lgan axborotni avvaldan qay darajada egallaganligini bildiradi. Kashfiyot – tasodifiy holat emas, bu inson yaxshi tayyorlangan bo‘lsa, yuzaga chiqadi. O‘quvchida avval egallagan axborotlari ko‘lami qanchalik keng bo‘lsa, uning mazkur axborotlar ichidagi munosabatlarini aniqlashtirish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi;

4) o'qitishning turfa xilligi, ya'ni o'quvchining aynan bir muammo bilan tafsilotlarning turli darajalarida qayta-qayta to'qnash kelishi.

Kognitiv o'qitish nazariyasi bilan shug'ullangan yana bir olim D.Ausyubel, kashfiyotlar orqali o'rgatishni vaqtni bekor sarflash hamda direktiv yondashuv tarzida baholaydi. Lekin, inkor qilish bilan birga, unda direktiv (markazda pedagog bo'lgan) va konstruktiv (markazda ta'lim oluvchi bo'lgan) o'rgatish orasidagi o'zaro kelishuv mavjudligini ham e'tirof etadi.

D.Ausyubel nazariyasiga muvofiq aksariyat insonlar tasavvur orqali o'rganishadi, ya'ni bilimlarni nisbatan to'liq shaklda qabul qilishadi. Bunday o'rgatishda ko'rgazmalilik ustun bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar uchun axborotlarni topish va yetkazishga mas'ul vositachiga aylanadi. Mazkur nazariyada "idrok qilingan verbal o'rgatish" g'oyasi yetakchilik qiladi (ya'ni, tasavvur bilimdan ustun) va obyekt avvaldan ma'lum bo'lgan biror bir narsa bilan bog'langanda ma'no kasb etadi, deb qaraladi (masalan, "Traktor" tushunchasi – traktor obrazi).

1-jadval.

Kognitiv o'qitishga asoslangan ta'lim texnologiyalari tavsifi

Texnologiya muallifi va manbasi	Texnologiyaning nomlanishi va tavsifi
Бьюзен Т., Бьюзен Б. Супермышление / Т.Бьюзен и Б.Бьюзен; пер. с англ. Е.А. Самсонов. 4-е изд. – Мн.: "Попурри", 2007. – С. 54-55.	Intellect-karta metodi. O'quvchilarga axborotni butun holati va qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni vizual taqdim qilishga asoslanadi. Jarayon o'quvchilar tomonidan o'quv mazmunini to'liq tushunish, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni anglash, o'zida mavjud va yangi axborotlarni solishtirish, boyitish, abstrakt, katta hajmli axborotlarni qayta ishlashga erishishni bildiradi.
Бершадский М.Е. Когнитивная технология обучения: теория и практика применения. – М.: Сентябрь, 2011. – 256 с.	Kognitiv ta'lim texnologiyasi. O'quvchida zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yashashga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kognitiv sxemalar tizimini shakllantirish orqali atrof-muhitni tushunishini ta'minlovchi individual yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasi. Unga ko'ra, o'qitish modulli tuzilmaga ega bo'ladi va kirish monitoringi, deklarativ axborotlarni o'rganish, bajariladigan axborotlarni o'rganish bloklaridan tarkib topadi hamda tegishli amallar bajariladi. Jarayonda tushuntirish-illyustrativ, dasturlash, evristik, muammoli ta'lim metodlari qo'llaniladi.
Бершадский М.Е. Карты понятий как метод обучения // Современные	Tushunchalar xaritasiga asoslangan semantik munosabatlarni vizuallashtirish texnologiyasi. Mazkur metod o'quv materialini o'rganish


<p>образовательные технологии. Теория и практика: сборник научных статей и методических материалов. – Новокузнецк, 2011. – С. 39-57.</p>	<p>natijasida o'quvchida tashkil topgan individual semantik to'rni atrof-muhit qonuniyatlari, xususiyatlari va aloqalariga mosligini ta'minlashga qaratilgan. Jarayon o'quvchida qabul qilingan axborotni idroklash, adekvat tushunish va o'z xatti-harakatlarini loyihalashda muvaffaqiyatli foydalanish uchun imkon beradi.</p>
<p>Нестеренко (Селюцкая) А.А. Мастерская знаний: проблемно-ориентированное обучение на базе ОТСМ-ТРИЗ. Учебно-методическое пособие для педагогов. – М.: BOOKINFILE, 2013. – 603 с.</p>	<p>OTSM (kuchli tafakkur umumiy nazariyasi) – TRIZ (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) nazariyalari asosida muammoga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi. Bilimning turli sohalarida muammolarni aniqlash, tahlillash, yechimini topish maqsadida axborotni tuzilmalashtirish va qayta hosil qilish imkonini beruvchi metapredmet vositalarni o'z mazmuniga singdirgan o'qitish texnologiyasini ifodalaydi. Unga ko'ra, o'qitish muammoga yo'naltirilgan bo'lishi, ya'ni ta'lim mazmunining markaziy unsuri bo'lishi lozim. Jarayonda ixtiyoriy mazmun uchun universal matritsalar, fikrlashni ifodalovchi modellarni kiritish zarur bo'ladi.</p>
<p>Манько Н.Н. Когнитивная визуализация педагогических объектов в современных технологиях обучения // Образование и наука. – 2009. – № 8 (65). – С. 10-30.</p>	<p>Kognitiv vizuallashtirish asosida didaktik obyektlarni modellashtirish. O'quv materialini ko'rib idroklash, obrazli, vizual tafakkur, bilimlarni va o'quv harakatlarini obrazli taqdim etish, o'zaro ta'sir jarayonida ularni uzatish va tanishga asoslangan texnologiya. Tafakkurni hissiy-obrazli faollashtiruvchi ramz, piktogramma, shrift kabi obrazlar asosida idrok, bilimlarni qayta ishlash va boshqa psixik jarayonlar rivojlantiriladi. Jarayon pedagogik va o'quv faoliyatini maqbullashtirish, o'qituvchi va o'quvchilarning samarali o'zaro ta'sirini o'rnatish, o'quv loyihalarini bajarish, javoblarni mantiqiy bog'lash kabi muhim vazifalarini ko'zda tutadi.</p>
<p>Штейнберг В.Э. Дидактическая многомерная технология: монография. – Уфа: БИРО, 1999. – 86 с.</p>	<p>Didaktik ko'p o'lchamli texnologiya. Texnologiya asosida olamning ko'p o'lchamliligi tamoyili yotadi, bu bilimlarning turli elementlarini tizimli tashkil etish sifatida qaraladi. Mazkur texnologiya o'quv materialini an'anaviy taqdim etishda bir o'lchamlikdan voz kechish, o'quvchilarni faol bilish faoliyatiga jalb qilish asosida tafakkur, xotira va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.</p>

<p>Гурина Р.В., Соколова Е.Е. Фреймовое представление знаний. Монография. – М.: Народное образование; НИИ школьных технологий, 2005. – 176 с.</p>	<p>Bilimlarni freym shaklida taqdim etishga asoslangan ta'lim texnologiyasi. Belgilangan muddatlarda o'quv materialini siqish asosida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirish nazarda tutiladi. Freym tuzilmalashtirish yangi axborotni tayanch sxema, algoritm, tuzilma, model, jadvalda joylashtirish, bilimlarni "o'ralgan" taqdimoti esa uni o'zlashtirish, tushunish va eslab qolish tezligini oshiradi. Ya'ni, o'quv axboroti o'quvchilar tomonidan obrazli idrok qilishlari uchun qanday qulay bo'lsa, o'shanday bayon etiladi.</p>
<p>Пак В.В. Формирование обобщённых проектных умений средствами обучения физике на примере учебных физических задач // Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2018. – № 436. – С. 219-224.</p>	<p>Umumlashgan loyihaviy ko'nikmalarni shakllantirish. Umumlashgan loyihaviy ko'nikmalar quyidagicha shakllantiriladi: muammoni qo'yish va unga muvofiq bo'lgan farazni shakllantirish qobiliyati; o'zining tadqiqotchilik faoliyatini oraliq natijalarni bosqichma-bosqich kuzatib borish sharti bilan rejalashtirish; ishni tahlillash va loyihani keyingi rivojlanish yo'llarini belgilashga imkon beruvchi reflektiv faoliyat.</p>

Yuqorida keltirilgan texnologiyalar o'qituvchi uchun kasbiy o'sishga, uzluksiz rivojlanishga xizmat qiladi, jumladan, ulardan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limida maqbul foydalanish tinglovchilarning o'quv mazmunini to'liq tushunish, anglash, qayta ishlash va o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatli qo'llashlariga imkon yaratadi. Ayniqsa, ushbu faoliyatga kiritilayotgan noan'anaviy yondashuvlar, muqobil turlar taklif etilayotgan, onlayn shaklda mustaqil ta'lim olishga e'tibor kuchayayotgan bir paytda ularga murojaat qilish ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'z-o'zini boshqaruvchi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, kognitivlikka yo'naltirilgan texnologiyalardan o'qitishning muloqotli metodlari, seminar-munozara, muammoli o'qitish, kognitiv yo'riqnomalar, xaritalar, so'rovnomalar, vositali-mantiqiy treninglar, trening-refleksiyalar kabi turlari ham samaradorlikni ko'tarishga qaratilgan.

Nazariy tadqiqotlar tahlili, keltirilgan fikrlar hamda amaliy tajribalarga tayanib kognitiv ta'lim texnologiyalarining konseptual asoslari tuzilmasi quyidagicha yaratildi (7-chizma).



2-rasm. Kognitiv ta'lim texnologiyalarining konseptual asoslari

Demak, ta'lim tizimida kognitiv texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv mazmunini o'zlashtirish darajasini ko'tarish, tinglovchilar tomonidan uni to'liq

tushunish va faoliyatida unumli qo'llashga erishish mumkin. Bu natija esa o'qituvchilarning kasbiy, kognitiv, kommunikativ va axborot kompetentligini rivojlantirish zaruriyatiga jiddiy turtki beradi. Shu o'rinda, yana bir qisqa xulosa alohida urg'uni talab qilishini ta'kidlamoqchimiz. Ya'ni, aynan kognitiv ta'lim texnologiyalari o'qitishning "vertikal" modeli bo'lgan o'qituvchining o'quvchiga tayyor bilimlarni uzatishidan "gorizontal", ularning o'zaro ta'siri, o'zaro bilimlar almashinuviga ko'chishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Альтшуллер Г.С. Найти идею. Введение в теорию решения изобретательских задач. – Петрозаводск: Скандинавия, 2003. – 240 с.
2. Блинова Т.Л. Методология обучения математики в рамках когнитивистского подхода // Педагогическое образование в России. – 2017. – № 6. – С. 13-20.
3. Бьюзен Т. и Б. Супермышление / Т. и Б.Бьюзен; пер. с англ. Е.А. Самсонов. 4-е изд. – Мн.: "Попурри", 2007. – С. 54-55.
4. Найссер У. Познание и реальность. Смысль и принципы когнитивной психологии. – Благовещенск: БГК им. И.А.Бодуэна де Куртене, 1998. – 224 с.
5. Нестеренко (Селюцкая) А.А. Мастерская знаний: проблемно-ориентированное обучение на базе ОТСМ-ТРИЗ: Учебно-методическое пособие для педагогов. – М.: BOOKINFIL, 2013. – 603 с.
6. Представление о подходе когнитивных психологов процессу учения путем открытий на примере Дж.Брунера. – URL: https://studbooks.net/896811/psihologiya/predstavlenie_podhode_kognitivnyh_psihologov_protssesu_ucheniya_putem_otkrytiy_primere_brunera.
7. Солсо Р. Когнитивная психология. – 6-изд. – СПб.: Питер, 2011. – 589 с.
8. Теория Дэвида Аусюбеля: научение путем рецепции. – URL: <https://cyberpedia.su/6x89eb.html>.

TADQIQOTCHILIK ASOSIDA O'QITILISH TEXNOLOGIYALARINING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI O'RNI

Usmonov Saidahmad,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti*

Аннотация. Ushbu maqolada tadqiqotga asoslangan texnologiyaning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati, hamda ta'lim jarayonida qo'llanilishi, maqsadlari va natijalari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Калит so'zlar: o'quvchi, izlanish, yangilik, tadqiqotga asoslangan o'qitish, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash

Аннотация: В этой статье рассматривается важность научно-исследовательских технологий в начальном образовании, а также их образовательное использование, цели и результаты.

Ключевые слова: учащийся, исследование, инновация, обучение на основе запросов, независимое мышление, критическое мышление

Annotation: This article examines the importance of research technology in primary education, as well as its educational uses, purposes and results.

Key words: learner, exploration, innovation, inquiry-based learning, independent thinking, critical thinking.

Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixi IX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'lim tadqiqotlarining alohida tadqiqot sohasi sifatida paydo bo'lishidan kelib chiqishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilar va o'qituvchilar yosh o'quvchilar uchun eng samarali o'qitish usullari va strategiyalarini tushunish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazdilar. Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixidagi ba'zi muhim bosqichlarga to'xtalib o'tsak:

XX asr boshlari: 1900-yillarning boshlarida kabi ta'lim psixologlari Edvard Torndayk va Jon Dyui o'rganish nazariyalari va pedagogik yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Ularning ishi yosh bolalar uchun faol o'rganish, muammolarni hal qilish va amaliy tajribalar muhimligini ta'kidladi.

XX asr o'rtalari: 1950-1960 yillarda Jan Piaget va Lev Vygotskiy kabi tadqiqotchilar bolalarda kognitiv rivojlanishni tushunishga katta hissa qo'shdilar. Ularning nazariyalari iskala, ijtimoiy o'zaro ta'sir va o'yinning erta ta'limdagi rolini ta'kidladi. 1960-yillarda Devid Elkind va Lilian Kats kabi o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan "rivojlanishga mos amaliyot" tushunchasi paydo bo'ldi. Ushbu yondashuv yosh o'quvchilarning rivojlanish bosqichi va individual ehtiyojlariga mos keladigan tikuvchilik bo'yicha ko'rsatmalarni ta'kidladi.

20-asr oxiri: 1970-1980 yillarda ta'lim tadqiqotlari samarali o'qitish usullari va o'quv dasturlarini loyihalashni tushunishga qaratilgan. Robert Marzano va jon Xetti kabi tadqiqotchilar o'quvchilarning bilim olishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan o'quv strategiyalarini aniqlash uchun ta'lim tadqiqotlarining meta-tahlillarini o'tkazdilar. 1990-yillarda ta'limda texnologiyaning paydo bo'lishi boshlang'ich sinflarda o'quv dasturlari, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarga olib keldi. Ushbu tadqiqot texnologiya o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va o'quv natijalarini qanday oshirishi mumkinligini o'rganib chiqdi.

Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixi davomida bolalar qanday qilib eng yaxshi o'rganishlarini tushunishga va samarali o'qitish strategiyalarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Ta'lim tadqiqotlari natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumot berdi. Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quv tajribasini oshirish va samarali pedagogik amaliyotni targ'ib qilish orqali boshlang'ich ta'limda muhim rol o'ynaydi. Bu erda uning ahamiyatini ta'kidlaydigan ba'zi asosiy jihatlar:

Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini yaratishga imkon beradi. Adaptiv ta'lim platformalari va ta'lim dasturlari o'quvchilarning qobiliyatlari asosida o'qitish mazmuni va tezligini moslashtirishi, ularning o'quv salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun maqsadli qo'llab-quvvatlash va muammolarni ta'minlashi mumkin. TAOT o'quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini

osonlashtiradi. Adaptiv ta'lim platformalari va aqlli repetitorlik tizimlari orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari, o'rganish uslublari va taraqqiyotiga qarab moslashtirilgan tarkib va tadbirlarni olishlari mumkin. Ushbu shaxsiy yondashuv o'quvchilarga o'z tezligida o'rganishga va ko'proq qo'llab-quvvatlash yoki qiyinchiliklarga muhtoj bo'lgan sohalarga e'tibor qaratishga yordam beradi.

O'quvchilarni interfaol doskalar, o'quv dasturlari va multimedia resurslari kabi texnologiyalarga asoslangan o'qitish vositalari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi. Ushbu vositalar interaktivlik, hamkorlik va amaliy tadqiqotlarni rag'batlantiradi, o'rganishni yanada yoqimli qiladi va tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Interaktiv darslar, kompyuter dasturlari, interaktiv doskalar, interaktiv o'qish qurilmalari va boshqa online vositalar yordamida o'quvchilarga qiziqarli va oson o'rganish imkoniyatini beradi. Ular o'quvchilarning o'zlarini sinash, masalalar yechish va bilimlarini amalga oshirishlari uchun interaktiv vazifalarni bajarishlari mumkin.

Ushbu texnologiya o'quvchilarga an'anaviy sinf sharoitidan tashqari ko'plab axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Onlayn tadqiqot ma'lumotlar bazalari, elektron kitoblar, ta'lim veb-saytlari va virtual simulyatsiyalar o'quvchilarga mustaqil ravishda ma'lumot to'plash va to'plash, tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatmalar asosida esa tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning ishlashi va taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga imkon beradi. O'qituvchilar ushbu ma'lumotlardan o'zlarining o'quv qarorlarini xabardor qilish, kuch va takomillashtirish sohasini aniqlash va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun foydalanishlari mumkin.

Raqamli savodxonlik va XXI asr ko'nikmalari tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim dasturlari, onlayn hamkorlik vositalari va raqamli media yaratish platformalaridan foydalangan holda o'quvchilar texnologiyadan samarali foydalanish, raqamli muloqot qilish va hamkorlik qilish va o'z g'oyalari ijodiy ifoda etish malakasiga ega bo'ladilar. Tadqiqotchilik asosida o'qitish texnologiyasi ta'limni yaxshilash uchun turli xil vakillik va aloqa usullaridan foydalanadi. U bir nechta formatdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun videolar, simulyatsiyalar, infografika va interaktiv veb-saytlar kabi multimedia resurslarini o'z ichiga oladi. Ushbu multimodal yondashuv turli xil ta'lim uslublari mos keladi va o'quvchilarga vizual, eshitish va kinestetik vositalar orqali tushunchalarni tushunishga yordam beradi. TAO'T tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. So'rovga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash, aloqalar o'rnatish va o'z xulosalarini chiqarishga da'vat etiladi. TAO'T gipotezani sinash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ijodiy muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

O'quvchilar birgalikda ishlashlari, fikr almashishlari va mazmunli munozaralarda qatnashishlari mumkin bo'lgan hamkorlikdagi o'quv muhitini

osonlashtiradi. Onlayn platformalar, munozarali forumlar va hamkorlikdagi vositalar o'quvchilarga tengdoshlari bilan bevosita o'rganish hamjamiyatida ham, global miqyosda ham hamkorlik qilish imkonini beradi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv jamoaviy ish, samarali muloqot va turli istiqbollar almashinuvini rivojlantiradi.

TAO'T davom etayotgan baholash va o'z vaqtida teskari qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli vositalar va platformalar o'quvchilar ishini zudlik bilan baholashga imkon beradi, ularning o'quv jarayonini boshqarish uchun tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. O'qituvchilar individual taraqqiyot kuzatib borish mumkin, takomillashtirish uchun maydonlarni aniqlash, va shunga ko'ra ta'lim rostdash. Ushbu shakllantiruvchi baholash yondashuvi o'quvchilarga o'z bilimlarini kuzatishga va kerakli tuzatishlarni kiritishga yordam beradi.

Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatlarini ham ochib beradi. O'quv dasturlari, seminarlar va onlayn resurslar o'qituvchilarga texnologiyani o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish, o'qitish strategiyasini takomillashtirish va o'qitish va o'qishga innovatsion yondashuvlarni ilgari surish uchun bilim va ko'nikmalarni beradi. Internet orqali o'quvchilarga kirish imkoniyatini taqdim etilgan onlayn resurslar va dars materiallari o'quvchilarning o'zlarini o'rganishlari uchun yaxshi manba sifatida ishlatiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga kirish, ma'lumotlarni izlash va o'rganishning oson yo'lini ta'minlaydi. Multimedia vositalar, video darslar, animatsiyalar, audio qo'llanmalar, grafikalar va boshqa interaktiv elementlarni o'z ichiga olgan dars materiallari yordamida o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganishni osonlashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu vositalar o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv ta'lim muhitini yaratishda foydalaniladi.

Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarning darslarga kirish, vazifalarni topish, o'zlashtirish va o'rganish jarayonini nazorat qilishga imkon beradi. Bu platformalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtiradi va bilim almashishni o'rganishning interaktiv usullarini taqdim etadi. Boshqa qurilmalar va dasturlar, masalan, plansetlar, smartfonlar, interaktiv ta'lim dasturlari, jadvallar va boshqa yordamchi vositalar orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun ishlatiladi. Ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtiroki va aloqasi boshlang'ich o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, xabar almashish dasturlari va raqamli portfellar o'quvchilarning taraqqiyoti to'g'risida real vaqtda yangilanishlarni ta'minlaydi, ota-onalarga farzandining ta'limida faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Uy va maktab o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi. Shunda, o'quvchilar haqiqiy muammolarni o'rganishlari, tadqiqotlar olib borishlari va mazmunli echimlarni topish uchun tengdoshlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Ta'limni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab, TAOT o'quvchilarning tushunchalarini oshiradi va ularni bilimlarni amaliy qo'llashga tayyorlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi individual ta'lim, faol ishtirok etish, ma'lumotlarga kirish, hamkorlik, ma'lumotlarga asoslangan o'qitish va raqamli savodxonlik va 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirish orqali boshlang'ich ta'limni yaxshilaydi. Bu o'quvchilarga o'zlarining o'quv

sayohatlarining faol ishtirokchilari bo'lish imkoniyatini beradi va ularni tez rivojlanayotgan dunyo muammolariga tayyorlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyasini o'rgatish juda muhimdir. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtirish, ularning qiziqishlarini oshirish va o'zlashtirish, ko'nikmalarni amalga oshirish va bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Quyidagi boshqa o'qitish texnologiyalari bilan boshlang'ich ta'limda foydalanish mumkin:

Boshlang'ich ta'limning tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish, o'zlashtirish va bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'ziga xos o'rganish yo'nalishlarini tanlash, bilim olishni osonlashtirish va ularni qiziqishlari bo'yicha qamrab olishda yordam beradi.

TAO'T o'quvchilarga o'zlarining bevosita o'quv muhitidan tashqari ko'plab resurslar va tajribalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Onlayn kutubxonalar, raqamli arxivlar, ta'lim veb-saytlari va virtual mehmon ma'ruzachilari orqali o'quvchilar keng ko'lamlı ma'lumotlar, istiqbollar va ekspert bilimlarini o'rganishlari mumkin. Ushbu kengaytirilgan kirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi va umrbod o'rganishga yordam beradi. TAO'T boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning samarali, interaktiv va o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'rganishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirishni oshirish, kreativlikni rivojlantirish, maslahat olish va o'zlashtirishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ular o'quvchilarning ma'lumotlarini samarali shaklda o'zlashtirishlarini, ularning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilishlarini va o'quv jarayonini takomillashtirishlarini ta'minlaydi.

Umuman olganda, TAO'T faol o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Bu qiziquvchanlik, hamkorlik va 21-asrning muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli va dinamik o'quv muhitini yaratadi hamda ta'lim tajribasini oshiradi. Tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyalari (TAO'T) boshlang'ich ta'limda juda muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu imkoniyatlar esa o'quvchilarni ma'lumotlarni oson va samarali o'rganishga yondashadi va ularni o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari guruhları uchun ishchi-o'quv dasturi. Samarqand, 2023-yil

4. Baxronovna, R. M. (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qitish savodxonligini oshirish. *fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>

5. Raximqulova M. Ta'limga innovatsion yondashuv–o'qitish samaradorligini oshirish omili sifatida //fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2021. – С. 118-121.

6. Jamilovna N. D. Boshlang 'ich ta'limdagi sinf rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning roli (malaka oshirish kurslar misolida) //fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 124-129.

УДК 371.31

КОГНИТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

*Фоменко Светлана Леонидовна,
доктор педагогических наук, профессор,
зав.кафедрой ФСС РГППУ (Россия)
sfomenko2012@yandex.ru
+7 912 236 57 77*

Аннотация. В данной статье говорится о необходимости коррекции методов обучения в образовательной системе школы. В частности, предлагается использовать исследовательский метод усвоения информации. Эффективность предлагаемого варианта обучения объясняется особенностями функционирования человеческого мозга.

Ключевые слова: мышление детей, когнитивные образовательные технологии, школьники, исследовательские методы обучения, репродуктивные методы обучения, учебно-познавательные компетенции.

COGNITIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL PRACTICE

*Fomenko Svetlana Leonidovna,
Doctor of Pedagogy, Professor,
Head of the Department of Philosophy,
Sociology and Social Work RSVPU (Russia)
sfomenko2012@yandex.ru
+7 912 236 57 77*

Abstract. This article talks about the need to correct teaching methods in the school's educational system. In particular, it is proposed to use the research method of learning information. The effectiveness of the proposed training option is explained by the peculiarities of the functioning of the human brain.

Keywords: children's thinking, cognitive educational technologies, schoolchildren, research teaching methods, reproductive teaching methods, educational and cognitive competencies.

Перед современным образованием стоит давний вопрос, который обусловлен его системными свойствами. С одной стороны, развитие науки

требует увеличить объем информации, которую должны усвоить учащиеся, что позволяет говорить о доминировании в обучении репродуктивной учебной деятельности. С другой стороны, динамично развивающиеся наука, общество и общественные структуры ставят перед современным образованием совершенно иные задачи. Обществу требуются люди мобильные, с широким кругозором, люди, которые могут и умеют мыслить творчески и принимать нестандартные решения в критических ситуациях, в сжатые сроки. При этом в нашей ситуации не предоставляется возможность формирования такой личности методами, которыми располагают школы.

В связи с этим возникает вопрос о том, какие методы необходимы для воспитания творчески мыслящего человека, а главное – что, собственно, представляет собой мыслящий человек. Под мыслящим человеком мы вслед за Г. П. Щедровицким будем понимать личность, способную управлять своей мыследеятельностью и в ситуации неопределенности создать такую мыслительную конструкцию, которая обеспечит успешность деятельности [4].

Прежде всего, такой человек должен уметь анализировать, моделировать, проектировать и планировать, то есть всем базовым пакетом всех мыслительных операций. Для усвоения таких достаточно сложных компетенций требуются очень большие временные и умственные затраты как от обучаемого, так и от преподавателя от которого требуют решения несколько иного плана, чем это принято в образовательных учреждениях. Речь идет об обучении мышлению как сознательной и целенаправленной интеллектуальной деятельности, которая предполагает каждый раз использование осознанных когнитивных процедур освоения действительности.

Сложность стоящей перед учителем задачи обусловлена особенностями современного школьного образования. Во-первых, весь объем знаний, подлежащий усвоению, разбит на отдельные предметы, являющиеся, по сути, отражениями отдельных наук в преломлении школы. Эти научные предметы, изучаемые в школе, так же, как и науки изолированы друг от друга и построены на отдельных мыслительных процедурах, никак не связанных между собой [1, с. 182]. Поэтому в школах учащиеся мыслят только в пределах изучаемых предметов, то есть в рамках дозволенного. Во-вторых, ситуация осложняется направленностью школьного образования на всего лишь воспроизводство информации, добытой и накопленной человеком в течение жизни.

Естественно, что такая форма учебной деятельности не может решить задачу обучения мышлению. Усвоение интеллектуальных компетенций возможно лишь в процессе анализа способов решения учебных проблем при установлении, обнаружении и понимании протекающих в действительности процессов и их особенностей, то есть в ходе исследования учебной проблемы, представляющего собой один из четырех универсальных типов мыследеятельности, наиболее адекватно соответствующий социокультурной миссии образования [4].

Таким образом, исследовательский метод в образовании предполагает организацию процесса выработки и усвоению новых знаний. В основе этого

метода лежит развитие ключевых учебно-познавательных компетенций, направленных не только на приращение знания, но и на освоение методов познавательной деятельности, развитие творческого мышления и самостоятельности в учебной деятельности. Сюда относится организация целеполагания, анализа, рефлексии, планирования, самооценки учебно-познавательной деятельности, а также овладение креативными навыками продуктивной деятельности, то есть добывание знаний непосредственно из реальности, владение приемами действий в нестандартных ситуациях, а также решения сложных проблем.

По мере усвоения учебно-познавательные компетенции интегрируются в личность учащегося, трансформируясь в ментальный опыт, который в современной науке трактуется как сформированные психические и психологические структуры человека, обеспечивающие хранение, упорядочение и преобразование информации, а также реализацию процессов познания действительности в сознании учащегося [3, с. 172].

Bu jadvalda shaxs yosh davrlari psixologik jihatdan tavsif etilib, 8 bosqichga bo'lingan. Kognitiv tilshunoslikda turli xususiyatli semali maydonlar tahlil qilinib, bu orqali "konsept" tushunchasiga diqqat qilingan. Konsept tafakkur birligi bo'lib, uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsulidir. Masalan: "bola" deganda turli lisoniy tafakkurda, (sharoitga, kontekstga ko'ra) turlicha voqealanishi mumkin:

Bola ⇒ *chaqaloq* (*Bola* yig'lama, ona sut bermaydi. Maqol)

Bola ⇒ *go'dak* (Yonida jajjigina *bola* ham bor. N.Aminov, Guldasta.)

Bola ⇒ *o'smir* (*Bola*-da, murti sabza urib qolgan bo'lsa hamki, bolaligini qo'ymaydi. M.Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha".)

Bola ⇒ *ko'chma* (Ey xotin, *bola* bo'lib qolgansan desam, achchig'ing keladi. Axir gapning oxiriga qadar tinglab turmaysanmi. Oydin, Shirin keldi.)

"Yosh" konseptining arxisemasi - "Yosh"; integral semasi: *bolalik*, *o'smirlik*, *balog'at yoshi*, *yetuklik*, *keksalik*; differensial semasi: *beg'ubor*, *jizzaki*, *ko'rkam*, *navqiron*, *munkillagan* kabilardir. Shu o'rinda aytish joizki, "Yosh" ning integral semalari (*bolalik*, *o'smirlik*, *balog'at yoshi*, *yetuklik*, *keksalik*) alohida tadqiq qilinganda, yaxlit tarzda bitta konseptni tashkil etadi.

Nutqda voqealangan har qanday leksema alohida soʻz, alohida mavjudlik sifatida qaraladi. Zero, tilning asosiy boyligi–madaniyati uning leksikasida oʻz aksini topadi.

“Yosh” konseptining konseptual birliklari (“Bolalik”, “Oʻsmirlik” kabilar) har bir tilning verbal muloqot jarayonida turli leksik vositalar yordamida ifodalaniladi. Ularning bir soʻzdan (*chaqaloq, bola, oʻsmir, yigit, qiz, juvon, ona, kampir*) tashkil topgan soʻz birikmasi (*bogʻcha bolasi, maktab oʻquvchisi, boʻy qiz*) va frazeologik birikma (*danak (-gim) magʻzi, nuroniy keksalar, yuz bilan yuzlashgan, toʻqson bilan toʻqnashgan, saksondan sakragan*) dan iborat shakllari mavjud.

Har bir “yosh” davrlarining oʻzigagina xos sifatleri mavjud boʻlib, ular uch faktor orqali farqlanadi. Bular: fiziologik, psixologik, sotsiologik xususiyatlardir.

“Yosh”ning chegaralari borasida bahs yuritish emas balki, “yosh” konseptining verbal muloqot jarayonida qanday ifodalanishi, ularni atroflicha oʻrganishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2007. 67 b.
- 2.Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. - Samarqand, 2007. 34-bet.
- 3.Kubryakova Ye.S. Nachalnie etapi stanovleniya kognitivizma: lingvistika – psixologiya – kognitivnaya nauka // VYA № 4,1994.-S. 35.
4. Popova 3D., Sternin I. A. Ocherki po kognitivnoy lingvistike. Izd. Z. - Voronej, 2003.-S. 3.
5. Popov Z.D., Sternin I.A.Ponyatiye “konsept” vlingvisticheskix issledovaniyax. - Voronej: izd-vo VGU,1999.-S 134.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MODULLI-KREATIV YONDASHUV ASOSIDA OʻQUV MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUISHNING METODIK ASOSLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Muminjonova Muhayyo Gʻulomovna

*Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi
“Pedagogika va psixologiya, taʼlim texnologiyalari” kafedrası
dotsent v.b. pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
Email: muhayyomuminjonova926@mail.ru*

Annotatsiya: *Maqolada boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining qobiliyatlarini va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tavsiya, modulli oʻquv materiallaridan foydalanib oʻqitish jarayoni, modulli oʻqitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi, oʻqitishni individuallashtirish haqidagi maʼlumotlar keltirilgan.*

Kalit soʻzlar: *Texnologiyaning roli, taʼlim mazmunini yangilash, boshlangʻich taʼlim, modulli oʻquv materiallaridan, zamonaviy taʼlim, koʻnikma, qobiliyat, oʻqitishni individuallashtirish, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari.*

Аннотация: В статье содержатся рекомендации по развитию навыков и способностей будущих учителей начальных классов, процесс обучения с использованием модульных учебных материалов, отличие модульной технологии обучения от других технологий, а также сведения об индивидуализации обучения.

Ключевые слова: Роль технологии, обновление содержания образования, начальное образование, модульные учебные материалы, современное образование, навыки, умения, индивидуализация обучения, будущие учителя начальных классов.

Abstract

Abstract: In the article, the recommendation for the future primary school teachers, the process of teaching using modular educational materials, the difference of modular teaching technology from other technologies in the course of "Technology education and its teaching methodology" difference, information about individualization of teaching is provided.

Key words: The role of technology, renewal of educational content, primary education, modular learning materials, modern education, skills, abilities, individualization of teaching, future primary class teachers.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimi rivojlanishi o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan xarakterlanib, u bilimlarni rivojlantirish, o'zlashtirish va tarqatish xususiyatini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlar mazmunini chuqurlashtirish hamda kengaytirish, uni yangilash, samarali o'qitish usullarini qo'llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi zamon sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan quyidagi kasbiy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlar talab etiladi: o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish, muloqotmandlik va jamoada ishlay bilish; hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi bilish, yangi bilimlarni mustaqil egallay olish; AKT va telekommunikatsion vositalar yordamida zaruriy ma'lumotlarni izlab topa bilish; aqliy imkoniyatini rivojlantirish, umumiy madaniyatini oshirish qobiliyatiga ega bo'lish. Chunki, endilikda boshqarishning avtoritar usuliga tayanilgan o'qitish, illyustrativ-tushuntirish metodlari va dalillarga asoslangan bilimlarni mexanik ravishda o'zlashtirish hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera olmaydi. Bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirish zarurati mutaxassislarda nafaqat aniq bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, balki ularni mustaqil o'zlashtirish, amaliy qo'llay olish uchun qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunday ta'limda ta'lim beruvchining diqqati markazida o'qitish emas, balki o'quvchining shaxsi yotadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning an'anaviy

«o'qituvchi – o'quvchi – darslik» tizimi» o'rnini «o'quvchi – darslik - o'qituvchi» tizimi egallaydi. Agar o'qitishning an'anaviy tizimida darslik bilimlar manbai, o'qituvchi esa bilishni nazorat qiluvchi sub'yekt bo'lsa, ta'limning yangi paradigmasida o'qituvchi ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatini tashkil etuvchi rolini, maslahatchi va yordamchi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, darslikni inson ishlarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan kompyuter bilan almashtirish ta'lim jarayonidagi “sub'ekt-sub'ekt- sub'ekt” munosabatlar haqida so'z yuritishga imkon beradi[1].

O'quv adabiyotlari yangi avlodini shaxsga yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida yaratish va amalda joriy etilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga va rivojlantiruvchi g'oyalarga asoslangan darsliklarni yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda maxsus o'qitish texnologiyalari yoki metodikalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Biz texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisoslik fanidan kreativ-modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarni yaratish imkoniyatlarini yoritishdan oldin darslikda pedagogik tizimni shakllantirish haqida fikr yuritdik.[2].

Darslikdagi pedagogik tizimning modelini quyidagi tuzilma orqali ifodaladik.

- Avvalambor pedagogik tizimning maqsadlari aniqlanadi va qo'yilgan maqsadlarga talablar qo'yiladi;

- umumdidaktik tamoyillarni hisobga olib, o'quv materialini mazmuni yoritiladi;

- o'quv materialida talabalar faoliyatlarida o'zlashtiriladigan asosiy qonunlar, xossalar, qoidalar, tamoyillar, algoritmlar, usullar, xususiyatlar kabi zaruriy bilimlar aks ettiriladi, shuningdek, o'qitish mazmunini tanlash o'quv maqsadiga mos ravishda amalga oshiriladi;

Darslikni yaratish va unda ma'lum pedagogik tizimni modellashtirishning navbatdagi bosqichi bo'lib, didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish hisoblanadi.

O'quv materialini mazmunini talabalarga tushunarli bo'lishni ta'minlash uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- o'rganilgan materialning talabalar hayoti, ularning amaliy ishlari va ixtisosligi bilan yetarli darajada bog'lanish bo'lishini ta'minlash;

- muammoli topshiriq va savollarni kiritish, ularning ishonarliligini, qiziqarliligini hamda ehtirosiy ifodadorligini kuchaytirish orqali talabalarning bilim olish jarayonini faollashtirish;


- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlarini va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlovchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Agar yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlar ta'minlansa, u holda o'qitish texnologiyasini ifodalovchi model haqidagi so'z yuritish mumkin bo'ladi.

Darslikni yaratish pedagogik tizimni modellashtirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, o'qitishning tashkiliy ko'rinishlarini ishlab chiqishini nazarda tutadi. O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim olish faoliyatini tashkillashtiradigan va mashg'ulotni

o‘tkazishdagi (auditoriyada, laboratoriyada, o‘quv ustaxonalarida, uyda va hokazo) tashqi sharoitlar tushuniladi. Agar modelda pedagogik tizimning u yoki bu elementlarini yoritishda aniqlik bo‘lmasa, biz turli xildagi “komplektlashmagan” darsliklarga ega bo‘lamiz.[3]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, darsliklarning yangi avlodi o‘qitish texnologiyalariga bog‘liq holda quyidagi talablarga javob berishi kerakligi aniqlandi:



Masalan G.Ergashevning ilmiy ishlarida o‘quv materiallari tayyorlashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvlar keltirgan.[4]

1. Kirish-darslikning zaruriy qismi bo‘lib hisoblanadi. Unda “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanining rivojlanishi, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, ta‘lim jarayonidagi roli, ushbu fanni o‘rganish maqsadi, darslikdan foydalanishda e‘tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar, o‘rganish davomida qo‘llaniladigan metodlar berilishi kerak. Kirish tushunarli, qisqa, ikki-uch betdan oshmagan hajmda bo‘lishi kerak.

2. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanini moduli o‘qitishda va ish o‘rinlarini tashkil etishda yaratilishi lozim bo‘lgan shart-sharoitlar bo‘yicha tavsiyalar hamda texnika va mehnat xavfsizligi qoidalari batafsil bayon etilishi kerak.

3. Modulning o‘quv maqsadlarini belgilashda har bir modulning o‘quv maqsadlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yiladigan maxsus talablar, o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining harakati orqali erishiladigan natijalar orqali belgilanishi kerak. Modulli o‘rganish davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari egallashi lozim bo‘lgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar keltiriladi.

4. Darslikdagi har bir modul va uning ichidagi modul birliklariga ajratilgan soatlar hamda ularning taqsimoti aniq berilishi lozim. Bu modulning belgilangan vaqt doirasida o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

5. Har bir modul oxirida uni o'zlashtirish uchun qo'shimcha adabiyotlar, zaruriy jihozlar, ko'rgazmalar, texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlar ro'yxati berilishi kerak. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mashqlar va topshiriqlarni bajarishlari davomida qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishlari uchun imkoniyat bo'lishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliy ishlarni bajarishlari uchun zaruriy jihozlar va uskunalar ro'yxati berilishi shart.

6. Har bir modulga tegishli asosiy nazariy va amaliy o'quv materiallari bayon etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ushbu o'quv materiallaridan modul bo'yicha o'rganiladigan asosiy nazariy bilimlarni oladi hamda amaliy mashqlar mazmuni va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar va boshqa ma'lumotlarga ega bo'ladi.

7. Texnologik xarita – modul bo'yicha mehnat faoliyati usullarining bajarilishi asosida amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shuning uchun ham modul davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlanishi kerak.

8. Har bir modul yakunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy bilimlarini baholash uchun testlar, amaliy ko'nikmalarni aniqlash uchun mashqlar va topshiriqlar berilishi, shuningdek, baholash mezonlari keltirilishi lozim.

9. Har bir modul oxirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari modul o'rganishning natijalarini qayd etish uchun baholash varaqasi ildova qilinadi. Ushbu varaqa orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining modulni qanchalik darajada o'zlashtirganliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

10. Oxirgi qismda barcha modullarni o'rganish bo'yicha tavsiya etiladigan elektron ta'lim resurslarining ro'yxati va ularning disketada yozilgan elektron versiyasi, shuningdek, qo'shimcha o'quv va uslubiy materiallar beriladi.

Yuqoridagi texnologiya asosida "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fanidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun modulli o'quv materiallari ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga tatbiq etildi.

Modulli o'quv materiallari ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil izlanish va ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi;
- tabaqalashtirilgan ta'limga o'qitish imkoniyati yuzaga keladi;
- o'qitishning uzluksizligi va ketma-ketligi ta'minlanadi;
- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- mehnat jarayonlarining asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;
- modulning butun hajmi va maqsadi talabaning ko'z oldida yaqqol gavdalanadi;
- har bir modul ichida va ular orasida uzviylik ta'minlanadi, o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan muvofiqligi ta'minlanadi.[5]

Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi. Shunday qilib, "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi"da

modulli o'quv materiallari qo'llanilganda talabalarning bilim imkoniyatlari, ijodiy va amaliy qobiliyatlari rivojlanadi. Mashg'ulotlar davomida kasbga qiziqtirish asosida fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Ped. Fan. Dokt. dissertatsiya. Toshkent.: 2017 y. – 19-21betlar.
2. Hamidov J.A. O'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi asoslari, g'oyalari va tamoyillari. O'zbekistonda professional ta'lim.- Toshkent, 2022.- № 1.-B. 41-46 betlar.
3. Hamidov J.A. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni o'qitishga yo'naltirishning muammo va yechimlari. Respublika ilmiy–nazariy anjuman materiallari. Jizzax-2022 yil. 409-416 betlar.
4. Ergasheva G. S. Oliy ta'lim muassasalari biologiya darsliklari o'quv materiallarini loyihalash didaktik asoslari. Nomzodlik Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2006 yil.
5. Mo'minjonova M.G'. O'quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish. Ped.Fan.Dokt.(PhD) dissertatsiya. Jizzax, : 2023 y. – 44-61 betlar.

O'QISHGA O'RGATISHDA KOGNITIV YONDASHUV

F.E.Abdullayev,

Samarqand viloyati PYMO 'MM o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatish bilan birga o'qish savodxonligini oshirish va muammolarni tahlil qilishda xorijiy tajribalar haqidagi fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kognitiv, kreativlik, kreativ fikrlovchi, lefe learning, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro tajribalar, normativ-huquqiy hujjatlar, metodik tavsiya, kasbiy sifat.

Аннотация. В данной статье анализируются представления о зарубежном опыте повышения читательской грамотности и анализируются проблемы при обучении учащихся творческому мышлению на уроках литературы.

Ключевые слова: Креативность, творческий мыслитель, левое обучение, компетентность, компетентностный подход, международный опыт, нормативно-правовые документы, методические рекомендации, профессиональные качества.

Annotation. This article analyzes ideas about foreign experiences in improving reading literacy and analyzing problems while teaching students to think creatively in literature classes.

Key words: Creativity, creative thinker, lefe learning, competence, competence approach, international experiences, normative and legal documents, methodical recommendation, professional quality.

O'qishga o'rgatishda avvalo kognitiv yondashuvning mohiyatini tushunishimiz kerak, shuningdek, o'qish tushunchasi va o'qishning qanday turlari va shakllari mavjudligini ko'rib chiqishimiz kerak. Xo'sh, o'qishga o'rgatishda kognitiv yondashuv nimani anglatadi?

Kognitiv yondashuvning mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida axborotni idrok etish, egallash, qayta ishlash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanish kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

O'qitishning kognitiv yondashuvi kognitiv psixologiyaga asoslanadi, unga ko'ra o'quvchi o'qituvchining o'qitish obyekti emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisidir. Ta'limning bu turida o'quvchilar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi va har qanday o'rganish o'quvchining faol faoliyati ekanligi e'tibor qaratiladi. Ta'limga kognitiv yondashuv o'quvchining shaxsini, uning tanqidiy fikrlashini, psixikaning hissiy va intellektual sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kognitiv yondashuvni amalga oshirish, matnni nafaqat uni qabul qilish (idrok etish va tushunish) emas, balki shaxsiy baholash mezonlari asosida ijodiy qayta ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kognitiv yondashuv fikrlash va olingan bilimlarning moslashuvchanligini rivojlantirishni o'rganadigan va o'quv jarayonining faol subyektiga aylantira olganlar uchun asosiy yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Ta'limga kognitiv yondashuv muammoli ta'lim an'alarini rivojlantiribgina qolmasdan o'quvchilarning yuqori darajada o'zini ko'rsata olishini nazarda tutadi.

Muammoli ta'lim - bu o'qituvchi muntazam ravishda rejalashtirilgan rejaga muvofiq muammoli vaziyatlarni yaratadigan va o'quvchilarning o'quv muammolarini hal qilish uchun faoliyatini tashkil etadigan, ularning mustaqil qidiruv faoliyatining tayyor narsalarni o'zlashtirish bilan har tamonlama uyg'unligini ta'minlaydigan ta'lim turidir.

Muammoli ta'lim tafakkur psixologiyasi qonuniyatlari va ilmiy tadqiqot mantig'iga tayangan holda o'quvchilarning bilim mustaqilligini rivojlantirishga, ularning mantiqiy, oqilona, tanqidiy va ijodiy fikrlash va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muammoli ta'lim o'quvchining intellektini, uning hissiy sohasini rivojlantirishga va shu asosda dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Bu muammoli ta'lim va an'anaviy tushuntirish va tasviriy o'rganish o'rtasidagi asosiy farqdir. Ta'limning bu turi nafaqat ilmiy bilimlar natijalarini o'zlashtirishni, balki bilim yo'lini, ijodiy faoliyat usullarini ham o'z ichiga oladi. U o'quv jarayonini tashkil etishning shaxsiy-faoliyat tamoyiliga, o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatining ustuvorligiga asoslanadi.

Rivojlantiruvchi ta'sirdan tashqari, o'rganishga kognitiv yondashuv juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv fikrlash va harakat mustaqilligini, o'z bilimlarini boshqarish va baholash istagini rivojlantiradi va shaxsning ma'naviy, ta'sirchan va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi.

Kirish o'qish - bu kognitiv o'qish bo'lib, unda o'quvchining diqqati butun asarga (kitob, maqola, hikoya) qaratilgan. Bu olingan ma'lumotni keyinchalik ishlatish yoki ko'paytirish uchun hech qanday maxsus niyatsiz "o'zi uchun"

o‘qishdir. O‘quvchi oldida turgan asosiy kommunikativ vazifa - unda mavjud bo‘lgan asosiy ma’lumotlarni olish uchun butun matnni tezda o‘qish, ya’ni, matnda qanday masalalar va qanday hal qilinganligini, bu masalalar bo‘yicha aniq nima deyilganini bilib olishdir. Kirish o‘qish uchun tilga mos, oz miqdorda ortiqcha ma’lumotlarga ega bo‘lgan ancha uzun matnlar tavsiya etiladi.

O‘qishni o‘rganish - matndagi barcha ma’lumotlarni to‘liq va aniq tushunishni va uni tanqidiy tushunishni ta’minlaydi. Ushbu turdagi o‘qishda “o‘rganish” obykti matndagi ma’lumotlardir. Uning vazifasi, shuningdek, o‘quvchining matnni tushunishdagi qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu turdagi o‘qish uchun kognitiv va axborot ahamiyatiga ega bo‘lgan va o‘rganishning ushbu bosqichi uchun ham mazmuni, ham til nuqtai nazaridan eng katta qiyinchilik tug‘diradigan matnlar tanlanadi.

O‘qitishning kognitiv yondashuvi kabi masalani o‘rganayotganda shuni ta’kidlash kerakki, o‘rganilayotgan jarayonda o‘quvchining bilim, ko‘nikma va kognitiv qobiliyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Kognitiv qobiliyatlar - bilimlarni mustaqil egallash qobiliyati, ya’ni tashqi ma’lumotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyati hisoblanadi.

Pedagogikadagi “mahorat” atamasi o‘quvchilarning olgan bilimlari va hayotiy tajribasi asosida tez, to‘g‘ri, ongli ravishda bajariladigan amaliy va nazariy harakatlarga tayyorlanishni bildiradi.

Kognitiv qobiliyatlar ta’lim bilimlari bilan chambarchas bog‘liq:

ijodiy xarakterdagi ta’lim muammolarini hal qilish;

- mantiqiy fikrlashni amalga oshirish;

- mashg‘ulotlar davomida turli muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘lini topish;

- o‘quv materialini tizimlashtirish;

- axborotni qayta ishlashning statistik usullaridan foydalanish va oqilona qarorlarni tanlash.

Kognitiv qobiliyatlar quyidagi ko‘nikmalardan iborat:

- kuzatuv;

- fakt va hodisalarni taqqoslash va taqqoslash;

- yangi narsani ilgari ma’lum bo‘lgan narsa bilan solishtirish;

- mantiqiy fikrlash;

- mantiqsiz fikrlash;

- fikrlash usullaridan foydalanish (induksiya va deduksiya) ;

- qurilish modellari;

- tizimlashtirish va tasniflash;

- tuzilish;

- fikrlash tajribalarini o‘tkazish;

- interpolatsiya va ekstrapolyatsiya.

Ushbu ko‘nikmalarning har birini amalga oshirish uchun biz oddiyroq harakatlarni bajarishingiz kerak bo‘ladi. Masalan, mantiqiy fikrlash qobiliyati quyidagi ko‘nikmalarni talab qiladi:

- ideallashtirish

- solishtirish

- tahlil qilish
- umumlashtirish kabilar.

Bu ko'nikmalarning har biri, o'z navbatida, yanada sodda ko'nikmalarga bo'linishi mumkin. Masalan, umumlashtirish qobiliyati quyidagi ko'nikmalardan iborat: tahlil qilingan tushunchalarni solishtiring, har bir tushunchadagi umumiy xususiyatlarni aniqlang va ularni nomlang, tushunchalarni shu belgilarga ko'ra birlashtirish kabi.

Shundan kelib xulosa qilishimiz mumkinki, o'quvchilarni o'qish savodxonligi bilan birgalikda matnni tushinish, tushintirib bera olish qobiliyatlarini kognitiv ko'rinishda yondashilsa, ulardagi hayot bilan bog'liq ko'nikmalarni har tamonlama mukammal shakllantirishimizga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.G'ulomov, M.Qodirov va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012-yil.
2. Rasulov R. (2020). Kelajak - til sohiblariniki. Til va adabiyot ta'limi, 7(7), 63-64.
3. <https://uz.unansea.com>
4. <https://blog.cognifit.com/ru>

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Shodiyeva Jamila Xolboyevna,

Samarqand viloyati pedag P YMO 'MM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishning ilmiy-nazariy jihatlari o'z aksini topgan. O'quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirishda savol va topshiriqlarni tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy, ijodiy, mustaqil fikr, savol-topshiriq, taqqoslash, faoliyat, tizimli yondashuv, samaradorlik, dunyoqarash.

Аннотация: В статье отражены научно-теоретические аспекты обучения студентов критическому мышлению. Проанализированы дидактические и методические аспекты организации вопросов и заданий с целью развития навыков критического мышления учащихся.

Ключевые слова: критическое, творческое, самостоятельное мышление, анкетирование, сравнение, деятельность, системный подход, эффективность, мировоззрение.

Abstract. The scientific-theoretical aspects of teaching students to think critically are reflected in this article. The didactic and methodical aspects of the organization of questions and tasks in the development of students' critical thinking skills were analyzed

Key words: critical, creative, independent thinking, questioning, comparison, activity, systematic approach, efficiency, outlook

O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, munozarali vaziyatlarda qaror qabul qila olish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash - muammolarni samarali hal qilish, qarashlarni taqqoslash, xulosalar chiqarish va ularni baholashga o'rgatadi. Darslarda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar orqali rivojlanadi. Bu ko'nikmalarni darslarida qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Bugungi strategiyalashgan, globallashgan o'quv jarayonlarida o'quvchi-yoshlarning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, sog'lom e'tiqodini, o'z nuqtai nazari va pozitsiyani shakllantirish uchun ularda avvalo tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogika ensiklopediyasida tanqidiy fikrlash quyidagicha izohlangan:

Tanqidiy fikrlash – inson aqliy faoliyatining turlarini o'zida mujassamlashtirgan obyektiv fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha. Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Xorijlik mutaxassis Edward M. Glaserning "Defining Critical Thinking" maqolasida tanqidiy fikrlash – "Tanqidiy tafakkur – mavjud faktlar, dalillar, kuzatishlar va dalillarni oqilona, xolis tahlil va baholash" deya e'tirof etiladi. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga mashg'ulotlarda muayyan muammo, tarixiy voqea, real hodisalar yuzasidan taqdim etiladigan savollar oddiydan murakkablashib boradi. O'quvchilar oddiy savollarda nisbatan kamroq faollikni egallasalar, murakkab savollarda o'z-o'zidan diqqatni jamlash, xotirani tiklash, o'zining ijodiy qobiliyatidan foydalanish kabi psixologik jarayonlarga chuqurroq murojaat qiladilar.

Quyida bu borada tavsiyalar keltirildi:

1. Savol berish ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilarga har doim nima, nega, qanday kabi savol berish ko'nikmalarini rivojlantirib borish kerak.

2. Muammoli vaziyatlar yaratish. O'quvchilarga muammoli vaziyatlar taqdim etish orqali ular fikrlashga, turli yechimlar topishga undash lozim.

3. Sabablar va oqibatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilarni har bir voqea yoki hodisaning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga o'rgatish.

4. Turli nuqtai nazarlarni baholash. O'quvchilarga turli fikr va qarashlarni taqqoslash, ularning ustunlik va kamchiliklarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

5. Mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarish. O‘quvchilarga berilgan ma’lumotlardan mustaqil xulosa va qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish.

6. Tanqidiy fikrlashga rag‘batlantirish. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etishlariga imkon yaratish va buni rag‘batlantirish.

7. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarga mustaqil ravishda ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

8. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish. O‘quvchilarni yangi g‘oya va yechimlar izlashga undash, ularning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘quvchilar o‘zini va boshqalarning faoliyatini, hatti-harakatlarini tanqidiy fikrlash asosida tahlil qilaolishlarida o‘zbek xalqi qahramonlari faoliyatini o‘rganish, ulardan ibrat olishga yo‘naltirish muhim ta’limiy vositalardan hisoblanadi. Chunki Vatanining ozodligi, xalqining tinchligi, kelajak avlodning istiqboli uchun qayg‘urgan, bor kuchini sarflagan, o‘z jonini ham ayamagan To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddini Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud kabi xalq qahramonlari yosh avlod uchun eng ulug‘ qadriyat va ibrat maktabi bo‘la oladi.

Yoshlarni turli “ommaviy madaniyat” hurujlaridan himoya qilishning asosiy omili – ularda bo‘layotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, tahlil qilish, tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirishdan iborat. O‘quvchi-yoshlarda jamiyat hayotiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ro‘y berayotgan hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirish, milliy madaniyatimizga tajavvuz qilayotgan kuchlarga nisbatan murosasiz bo‘lish uchun qalb va ruh osoyishtaligi, o‘z nuqtai nazari, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish qoidalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchi-yoshlarni maqsad sari undab, ularda ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Ulug‘ ajdodlarimiz har doim inson sha’ni, qadr-qimmatini yuksak tutib, tili, dini, millati, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har bir insonga hurmat-ehtirom ko‘rsatish lozimligini ta’kidlaganlar. Ajdodlarimiz har doim jinoyat uchun jazo, ezgulik uchun rag‘bat muqarrarligini uqtirganlar. Ezgu amallarini qilishga, o‘z nafsini tiyishga, g‘azab va jaxlga erk bermaslikka, insoniylik nurini buzuqlik, razolat bilan chulg‘amaslikka da’vat etib, inson uchun eng go‘zal libos, ilm, odob, ahloq ekanligini, o‘zaro munosabatlarda hamjihat bo‘lish lozimligini ta’kidlaganlar. Sharq mutaffakkirlari ota-onalar va ustozlarni bolaning o‘zligini tan olish, unga qadriyat sifatida yondashib, hurmat bilan munosabatda bo‘lish lozimligini ta’kidlab kelganlar. O‘quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda milliy mentalitetimiz bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi omillarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish;
- milliy an’analar va urf-odatlar, unitilmas qadriyatlarni egallashga o‘rgatish;
- ajdolar merosiga bo‘lgan e’tibor va qiziqishni uyg‘otish;
- milliy qahramonlar shaxsi va ular faoliyati bilan ishlar bilan yaqindan tanishtirish;
- vatan taqdiri, yurt kelajagiga daxldorlik hissini uyg‘otish.

Yuqoridagi omillarga tayangan holda o'quvchi-yoshlarni milliy qahramonlarning tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish, atrof-muhitni ko'lamzorlashtirish, inson salomatligi masalalarida olib borgan faoliyatlari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirib borish nazarda tutiladi. Ajdodlarimizning tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan e'tibori, tuproq, suv, havoni toza saqlashgi intilish, o'simlik va hayvonot olamini parvarishlash, ko'klamzorlashtirish, odamlar salomatligini, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bo'lgan harakatlari madaniy tariximizda milliy qadriyat sifatida necha asrlardan beri e'zozlanib kelinmoqda.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni bilim imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tarish bilan bir qatorda, o'zlarida mavjud bilim, tushuncha, axborotlarni yangi ma'lumotlar bilan sintezlashga, umumlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Bunda o'quvchilarda refleksiylash, imitatsiyalash, o'z immanentligi va nuqtai nazarini ifodalash, jamoa bilan muloqotga kirishish, diskussiyani amalga oshirish jarayonlari faollashadi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirib bo'ldimaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga samarali pedagogik usullar, metodlar va texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Shunga ko'ra o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini quyidagi pedagogik usullard vositasida amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- ritorik savol
- savol-javob
- munozara
- debat
- diskussiya
- ijodiy ishlar
- yozma ishlar
- guruhli yoki jamoaviy o'yinlar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan va eng keng qo'llaniladigan "STEAM", "Keys Study", TRIZ, "Blum toksonomiyasi" va turli ta'limiy o'yin texnologiyalari, shuningdek "Insert strategiyasi" kabi ta'lim strategiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ajdodlarimiz merosida pand-nasihat, yoshlarga murojaat alohida o'rin egallagan. Shu maqsadda ular nasihat janridagi she'rlar, pandnomalar, murojaatnomalar yozganlar. Xalq dostonlarida esa xalqning o'zligini anglagan, o'z pozitsiyasiga ega, tanqidiy fikrlaydigan ideal shaxs haqidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan. Shuni ta'kidlab aytish lozimki, badiiy asarlar asosida o'quvchilarda o'z nuqtai nazarlarini shakllantirish, o'z qarashlarini va munosabatini bildirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning alohida pedagogik imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PF-134-sonli Farmoni.

3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.

4. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.

4. *Edward M. Glaser. "Defining Critical Thinking". The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community.* Retrieved 22 March 2019.

O‘QUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Shaxmurodova Diljahon Almardonovna,
QVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola o‘quvchilarda 4K ko‘nikmalarini shakllantirish haqida bo‘lib, unda 4 K modeli orqali o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikmalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, kreativlik, kommunikativlik, kolloborativ, kritik, ko‘nikma, 4K modeli, ijodkorlik, savodxonlik.

Аннотация. В статье речь идет о формировании навыков 4К у студентов, а также рассматриваются навыки, которые можно сформировать у студентов с помощью модели 4К.

Ключевые слова: игра, творчество, коммуникативный, совместный, критический, навык, модель 4К, креативность, грамотность.

Abstract. The article is about developing 4K skills in students, and also discusses the skills that can be developed in students using the 4K model.

Key words: game, creativity, communicative, collaborative, critical, skill, 4K model, creativity, literacy.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

4K modeli ta’lim jarayonida, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi faollikni oshirishga xizmat qiladi. Yangi yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Estoniya, Xitoy, Angliya,

Finlandiya, kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

4K moduli asosida bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak:

Kompleks vazifalarni hal qilish;

Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;

Ijodiy fikrlash;

Insonlar bilan hamkorlik qilish;

Jamoda ishlash;

O'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish;

Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish. Buning uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llash kerak.

Tanqidiy fikrlash:

tahlil - topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;

baholash - kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

-tushuntirish - o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy bog'liq izchil matnlar qurish;

maqsadlarni belgilash - erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

o'zini boshqara bilish - o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);

modellashtirish - amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

o'rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;

kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

strategik fikrlash.

Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi:

qiziquvchanlik - tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;

tasavvur - ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

optimallashtirish - maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

g'oyalarni rivojlantirish - g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish ko'nikmasi:

muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik;

muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;

o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;

o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;

taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;

o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;

katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi:

umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

o‘z rejaları va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining kommunikativlik, kollobaratsiya, kritik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan islohotlarning asosiy maqsadi ham o‘quvchi va yoshlarning o‘ziga xos kritik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Boymurodova X. Sattorova Sh. Muslimova F. Karimova. 4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma.– T.: “Sharq”, 2017/ – 240-b.

2. Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova, Fayoz Raxmatova, Namoz Rasulov, Nurjahan Abdullayeva. O‘zbek tili 3 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma /– Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 128 b.

3. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” “Nihol” nashryoti, -T.2013 y.

4. N.N.Azizxo‘jayeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHINING KREATIV TAFAKKURI MUHIM OMIL SIFATIDA

Ashurova Barno Nematovna,

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kreativ tafakkuri muhim omili, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vaziyatlardan biri ekanligi haqida va bundan tashqari "Kreativlik", "Kreativ tafakkur" tushunchalari nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat kreativlik, tafakkur, shakllantirish.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, o'quvchilarda ijodiy yaratuvchanlik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladigan interfaol strategiya va vositalarni amaliyotga tatbiq etish asosida ularda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi yoshlarga ta'lim berishning eng to'g'ri yo'li maktabdan tortib to oliy o'quv yurti va undan keying bosqichlarda ularning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda ijodiy faoliyatini, iqtidorini tarbiyalashdir.

Kreativ atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'lib, bunda kreativlikning intellekt bilan bog'liligi masalalari, psixologik jihatlari va shaxsning individual o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqligi o'rganilgan. Ken Robinsonning fikriga ko'ra "Kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" ma'nosini anglatadi. Xuddi shunday bir qancha olimlarni kreativlik to'g'risida fikrlarini ko'rishimiz mumkin. Bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchilik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muommalarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Kreativlik shaxsning an'anaviy fikrlashdan farqli ravishda ma'lum hatti-harakat, faoliyat yoki jarayonni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muommalarni ijodiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati hisonlanadi.

O'quvchilarda kreativlik faoliyatini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muommosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. O'quvchilardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiya ishlaridan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, o'quvchilarda ijodkorlik faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi hisonlanadi.

Texnologik ta'limda o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Kreativ jarayon o'zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri -intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi - intuitiv kikirash jarayonida qo'lga kiritilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan, intuitiv va mantiqiy fikirlash birligi sifatida analitik fikirlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko'rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq shakllarida mutloq o'z aksini topadi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55- 60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz o'zlarida hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar. Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham o'quvchilar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning oquv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ pedagogik texnologiya ham faoliyat algoritmi, ham o'qituvchi va o'quvchining kreativ faoliyati jarayonidir. Kreativ faoliyat konseptsiyasida individual qobiliyat va qobiliyatlarni ijodkorlikka tayyorlik darajasini, o'z-o'zini hurmat qilishni, ijtimoiy va ma'naviy madaniyatda faol o'zini anglashni o'z ichiga oladi. Bu maqsadlarni tanlashni, materialni tanlashni, texnologiyani amalga oshirish jarayonida o'zaro ta'sir usullarini belgilaydi. Kreativ texnologiyalar o'quv jarayonini fikrlash, kelajakni qurish, qiyosiy tahlil qilish, sintez qilish va o'z xulosalarini shakllantirish

qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiradi. Shunday qilib, kreativ pedagogik texnologiyalar zamonaviy jamiyat muammolariga javob beradi va zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish jihatlaridan birini etadi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" PQ-4307-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagogning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan nutqi", 2019-yil 23-avgust.
3. Maxmudova D.M. Muammoli matematik masalalar yordamida talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirish //Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborotnomasi. 2020.-№2(47).229-232 b.
4. "Kreativ pedagogika" moduli bo'yicha o'quv-metodik majmua/Tuzuvchilar: M.H.Usmonboyeva, A.B.To'rayev. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2016.- 18-bet.

KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLAR NATIJALARI ASOSIDA BO'LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Anorboyev Abdulla Abduhakimovich,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik, e-mail: anorboyev.abdulla@gmail.com, tel.: 94-6145477

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, muassasa, harbiy, tayyorgarlik, ofitser, bo'lajak, zaxira, texnologiya, kompetentlik, innovatsion.

Аннотация. В данной статье раскрыты факторы, об инновационных образовательных технологиях развития технологической компетентности будущих офицеров запаса.

Ключевые слова: высшее образование, учреждение, военные, подготовка, офицер, будущее, резерв, технологии, компетентность, инновационный.

Annotation. This article reveals factors about innovative educational technologies for developing the technological competence of future reserve officers.

Key words: higher education, institution, military, training, officer, future, reserve, technology, competence, innovative.

Bugungi kunda dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab nizo va to'qnashuvlar davom etayotganligi va ularning mintaqamizga ko'chish xavfi O'zbekistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etishni taqozo etmoqda.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra, o'quvchi-yoshlarni, shular qatorida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni har tomonlama va chuqur bilimlarga ega bo'lish uchun kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda milliy va xorijiy olimlarning neyropedagogika oid fikrlarini inobatga olish bugungi kunda ta'limdagi mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga asos bo'ladi deb hisoblaymiz.

Kognitiv rivojlanish (ingliz tilidan kognitive development) – idrok, xotira, kontseptsiyani shakllantirish, muammolarni hal qilish, tasavvur va mantiq kabi barcha turdagi aqliy jarayonlarning rivojlanishi hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish nazariyasi shveysariyalik faylasuf va psixolog Jan Piaget tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu gnoseologik nazariya rivojlanish psixologiyasi sohasidagi ko'plab asosiy tushunchalar sohasi bo'lib, Piagetning so'zlariga ko'ra, ratsionallik o'sishini o'rganadi, bu esa, Piagetning fikriga ko'ra, atrofdagi dunyoni aniqroq aks ettirish va kontseptual, yuzaga keladigan o'zaro ta'sirlar tasvirlari ustida mantiqiy operatsiyalarni bajarish qobiliyatini anglatadi.

Neyropedagogika – bosh miya va ta'limning o'zaro ta'sirini o'rganadigan, neyrobiologiya, psixologiya va pedagogika bilimlarini birlashtirgan ilmiy soha hisoblanadi.

Olim J.Bogen neyropedagogika sohasida izlanish olib borgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarga bilim berishda ularning chap yarimsharlarini faollashtirishga asoslangan an'anaviy mashg'ulotlarning o'rniga ong yarimsharlarni faollashtirishga yo'naltirilgan obrazli, emotsional ta'limni taklif qilgan.

Neyropedagogikani ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish bu – bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni o'qitishning innovatsion yondashuvi bo'lib, u bola miyasi rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga oladigan ta'lim texnologiyalarini, shuningdek, vizual, eshitish, taktil kabi turli xil idrok kanallarini qo'llaydi.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy harbiy tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi orqali bu jarayonni samarali va yuqori darajada amalga oshirish mumkin. Harbiy xizmatchilarni zamonaviy texnikalar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash ularning jangovar qobiliyatini oshirib, muvaffaqiyatli xizmat qilishlariga yordam beradi.

Yurtimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri bu – yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga

sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash hisoblanadi.

Zamonaviy harbiy pedagogik jarayonning asosiy qarama-qarshiliklaridan biri bu harbiy xizmatchilarning talab qilinadigan va haqiqiy tayyorgarlik darajasi o'rtasidagi nomuvofiklikdir. Harbiy pedagogik jarayonda bilimlar, asosan, o'zlashtiriladi, lekin harbiy-kasbiy tajriba shakllanmaydi.

Ta'lim jarayonida olingan harbiy kasbiy bilimlar ba'zan harbiy xizmatchilar o'zlarining vazifalarini bajarishga tayyor bo'lgandan ko'ra tezroq eskiradi.

O'zbekistonimizning jadal sur'atlarda rivojlanishi va yangilanishiga mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik sohasidagi xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta, shu boisdan, jahon hamjamiyatida rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor, yuqori malakali professional harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning intellektual salohiyati, texnologik kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Texnologik kompetentlik, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning harbiy xizmatda zarur bo'lgan texnika va texnologiyalarni bilishi, ularni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetentlikni oshirishda harbiy vazifalarni samarali bajarish, jangovar vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish, zamonaviy qurol-yarog' va texnologiyalarni to'g'ri boshqarish kabi vazifalarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi harbiy kurslarda harbiy tayyorgarlik mamlakatimizning harbiy tayyorgarlikdan o'tgan, harbiy sohada zamonaviy texnologiyalar asosida turli ijtimoiy va kasbiy vazifalarni samarali hal etishga qodir bo'lgan zaxirasini tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning harbiy tayyorgarligi salohiyati nafaqat ularning harbiy sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda, balki kelajak uchun zarur bo'lgan umuminsoniy texnologik malakalarni, shaxsiy va kasbiy fazilatlarni rivojlantirish muhim ekanligi isbotlangan.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning harbiy tayyorgarligi, birinchdan, "Taktika" fanini o'rganish jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlarni (Vatanga vijdonan xizmat qilish, vatanparvarlik g'oyalari ustuvorligini anglash) rivojlantirish bilan ta'minlanadi.

Ikkinchidan, harbiy tayyorgarlik jarayonida harbiy texnika va qurol-aslaha va yangi texnologiyalardan foydalana olish. Shu bilan birga, harbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv-faoliyat asosida ta'lim strategiyalaridan foydalanish, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda turli xil kasbiy tajribalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Harbiy tayyorgarlikning yana bir muhim natijasi kursantlarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishdir – harbiy sohasida turli xil ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal qilishda yuqorida ko'rsatilgan kompetentlikni mas'uliyat bilan qo'llash.

Texnologik kompetentlikning tartibi va mazmuni o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlar bilan ifodalanadi: qadriyat-motivasion, kognitiv va baholovchi komponent. Ularning har biri uchun faollikni oshirish kursantlar

tomonidan harbiy tayyorgarlik jarayonida umumlashtirilgan texnologik bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich va izchil o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi, bu texnologik kompetentlikni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqilgan metodologiyani amalga oshirishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi quyidagilar orqali aniqlandi: texnologik kompetentlikning har bir tarkibiy qismining maqsadlilik, tizimlilik va rivojlanish ketma-ketligi; bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning kasbiy faoliyatiga moslashtirish, refleksiv faoliyat asosida texnologiyalarni ishlab chiqishning faol shakllari va usullari; bo'lajak zaxiradagi ofitserlar tomonidan ijtimoiy va kasbiy vazifalar va vaziyatlarni hal qilish sharoitida mustaqil o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish; bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish darajasini rivojlantirish va tashxislash zarurligini hisobga olgan holda, oliy harbiy ta'lim muassasalarida amaliyotiga texnologik kompetentlikni rivojlantirish modelini joriy etish (tashkiliy, psixologik-pedagogik va shart-sharoitlari) belgilandi.

Falsafiy antropologiya qoidalari insonning ma'naviy madaniyatni egallash yo'llarini ochib beradi, bunga tayanish bizga harbiy tayyorgarlikda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning malakasini oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Oliy harbiy ta'limni modernizatsiya qilish tendensiyalarini hisobga olgan holda, mamlakatimizda harbiy tayyorgarlik holatini tahlil qilish harbiy tayyorgarlikni texnologik kompetentligini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Davlatlarda harbiy tayyorgarlikdan o'tgan zaxiradagi harbiylarni tayyorlash – muhim hisoblanib kelgan va shunday bo'lib qoladi, bu zaruriyat tarixiy tajriba va harbiy sohadagi jahon tendensiyalari bilan tasdiqlangan.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda zamonaviy texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatni oshirishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning kasbiy faoliyat turlarini modellashtiradigan faol usullar va texnologiyalarni ishlab chiqish va harbiy tayyorgarlik jarayonida joriy etish, jamoaviy ta'lim strategiyalaridan foydalangan holda kompetentlik asosida o'quv-uslubiy majmualar yaratish. Texnologik kompetensiyani rivojlantirish yo'llarini amalga oshirish zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirishni talab qiladi.

Harbiy fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak zaxiradagi ofitserlar texnika va qurollardan foydalanishni amalga oshirishdagi uskunalar, qurol va asboblarni jangovar foydalanishga tayyorlash bo'yicha meyorlarni bajarish, trenajyorlarda, shu jumladan, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning o'zlari mustaqil mashqlar bajarish, texnik nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish hisoblanadi.

O'quv jarayonida o'quv qo'llanmalardan, jangovar mashinalar, qurollar, asboblardan – foydalanish ularni texnologik bilim va ko'nikmalarning rivojlanishi, harbiy texnika, qurol-yarog' va asboblarni namunalari bilan olib borish, amaliy mashg'ulotlarda taktik texnik tafsirlari, texnik imkoniyatlarini, namunalarni ishlatish usullari bo'yicha xorijiy davlatlar texnikalari bilan taqqoslash asosida o'qitish texnologiyalar samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar natijalarining qo'llanilishi bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar natijalarining qo'llanilishi bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning bilim darajasini oshirishga va olgan bilimni to'g'ri qo'llashda asos bo'ladi.

Zamonaviy usul va vositalar orqali harbiy xizmatchilarni tayyorlash ularning professional darajasini oshirishga yordam beradi. Bunday yondashuv harbiy xizmatchilarning jangovar qobiliyatini kuchaytirish va ularni zamonaviy qurol-yarog'lar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Акрамбаев Х.М. Ҳарбий таълим тизимида тингловчи, курсантларни миллий ифтихор ғоялар руҳида тарбиялаш назарияси ва амалиёти (ички ишлар таълим муассасаларида ҳарбий фанларни ўқитиш мисолида): Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – Т., 2022.

2. Дилшодбеков Т.Д. Олий ҳарбий таълим муассасалари курсантларининг рус тилида мустақил ишларининг ташкил этиш методикаси: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – Т., 2022.

3. Xasonboev B.V. Bo'lajak ofitserlarda axloqiy-ruhiy sifatlarni qaror toptirishning nazariy-pedagogik asoslari: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – Ch., 2023.

4. Xonimqulov A.R. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Avtoref. – Т., 2023.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМ КАРАКАЛПАКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Бердимуратова Айгул Джолдасбаевна,

Национальный центр обучения педагогов Республики Каракалпакстан по новым методикам старшего преподавателя Республика Каракалпакстан, г.Нукус эл.почта: aigulberdimuratova1979@gmail.com тел: +99890 593 62 57

Аннотация. Отдельная лексика каракалпакского языка всегда находится в поле зрения исследователя. На протяжении многих десятилетий в каракалпакском языкознании интенсивно разрабатывались различные проблемы теории термина и специальных терминосистем. В этой статье мы рассмотрим изучение формирования и усвоения педагогической каракалпакской терминологии.

Ключевые слова: терминология, термин, педагогика, синтаксис, морфология, изафет, компонент, воспитание, учитель, школы-интерната.

Каждый национальный язык создает свои научные терминологические системы. Один из таких системов является педагогическая терминология каракалпакского языка. Известно, что дело обучения и воспитания подрастающего поколения формировалось с древнейших времен, поэтому хотя

некоторые слова стали употребляться как термины, наука современная педагогика и ее нынешняя терминология появились в жизни каракалпаков уже в середине 20 века.

В данное время возрастает интерес к исследованию проблем терминологии. Причину этого можно объяснить тем, что терминологическая лексика во всех современных языках увеличивается с каждым днем. Следует отметить, что правильно понять законы развития языка сложно без выявления и изучения путей формирования и развития терминологических систем.

Известно, что теоретические вопросы каракалпакского языкознания, в том числе его терминологии, изучаются в нашей стране с начала нашего столетия. В 20-е и 30-е годы нашего столетия был проведен ряд научных конференций и на них поднимались вопросы создания новых терминов, которые явились первыми шагами нашей терминологии.

В этой статье мы поговорим об источниках возникновения педагогических терминов в каракалпакском языке.

Если говорить об уровне развития любой науки, то она основывается на уровне понимания ее объектов. С этой точки зрения в систему педагогических наук входят: общая педагогика, педагогика молодежи, специальная педагогика, педагогика глухих, методология, история педагогики. Педагогические термины можно разделить на тематические группы на основе классификации. Однако это представляют свои трудности. Потому что в этих областях педагогики всегда используется тот или иной термин.

Соответственно, мы по-иному подходим к тематической группировке педагогических терминов.

Известно, что основной задачей педагогики является воспитание детей и молодежи. Поэтому мы считаем, что педагогические термины следует разделить на две большие группы:

а/ термины теории образования. б/ термины теории образования.

Существует также тот факт, что образование и воспитание осуществляются в специальных местах и определенными лицами. Всеми этими работами занимается область школьного обучения педагогике, которая также имеет свои термины. Здесь следует отметить, что школьные термины мы изучали в двух группах: а/названия учебных заведений, б/фамилии лиц, деятельность которых связана с образованием. Исходя из этого, давайте познакомимся с тем, из чего состоят эти тематические группы и из каких терминов они состоят.

А. Термины, связанные с системой образования. В учебнике педагогики термин образование определяется следующим образом: «К наиболее важным и общим педагогическим понятиям относятся понятия воспитания и обучения. Под образованием мы понимаем такой аспект образования, как приобретение научных и культурных ресурсов, созданных человечеством. Образование в зависимости от его уровня и задач бывает средним, высшим и общим и делится на профессиональное общеобразовательные школы дают знания, навыки и умения, актуальные для каждого, независимо от будущей специальности, и

работника определенной профессии получает актуальные для него знания, навыки и умения в специальных учебных заведениях»¹.

Также существует тот факт, что образование – это процесс передачи знаний в конкретной организации под руководством специально подготовленного человека/учителя, воспитателя, руководителя, проводника. Образование представляет собой двойной процесс, состоящий из деятельности педагогов /преподавания/ и деятельности студентов /обучения/.

Прежде всего следует отметить, что существует несколько принципов образования, которые называются следующим образом: воспитательный характер образования, научность образования, систематизация образования, учебный характер образования: сознательность и активность в образовании: устойчивость приобретенных знаний. и навыки и навыки: индивидуализация образования.

В рубрике содержания образования основными являются следующие термины: предмет обучения – система научных знаний, практических умений и навыков, позволяющих обучающимся изучать и осваивать основные принципы науки или отдельные стороны культуры; работы и производства в соответствии со своим возрастом и грамотностью. Потому что в педагогике предмет изучения определяется как основа науки; такие как учебная программа, учебная программа, учебная программа и линейный принцип программирования, «проекторный метод», детское сочинение, внеклассное чтение, смешанный класс, класс объяснения нового материала, класс закрепления знаний, урок повторения, домашние ученики.

Понятие образовательная организация широкое, оно включает в себя понятия, представляющие ряд типов и называются они: урок основная форма школьного обучения, групповое обучение классно-урочная система, индивидуальная форма обучения, бригадный лабораторный метод.

С точки зрения дидактики педагогические методы можно рассматривать как отрасль педагогики, конкретный учебный предмет, определенные разделы и темы, и определенную научную деятельность, уроки, даже как методику какой-то части урока. Соответственно, в педагогике используется ряд образовательных приемов и методов, которые получили следующие названия: метод обучения, метод рассказа, метод беседы, метод исследования и т. д.

Б. Термины, связанные с системой образования.

В основных тематических группах присутствуют общие понятия, такие как воспитание, воспитание, воспитатель, воспитание, методы воспитания.

Теперь приведем примеры некоторых терминов, относящихся к методам и методам обучения: методы убеждения (включает в себя такие понятия, как обучение, объяснение, рассказ, беседа, убеждение примером), методы обучения (включает такие понятия, как обучение деятельности, режим, назначение), методы мотивации (в том числе поощрение, наказание, осуждение, выговор, одобрение и т.п.).

В категорию образования входят следующие понятия: организация коллектива, воспитание, нравственное воспитание, трудовое воспитание, эстетическое воспитание и так далее.

В. Термины, обозначающие названия учебных заведений. Как уже говорилось выше, образование детей и молодежи осуществляется в определенных местах. Соответственно, каждое из этих мест имеет свой срок. Вот несколько примеров таких терминов: детский сад, школа, класс, спортивный зал, учебная комната, лаборатория, учебное заведение, техникум.

В свою очередь, существует ряд терминов, обозначающих сети и виды таких понятий. Например, понятие школа используется в широком смысле и делится на несколько сетей по задаче образования, каждая из которых имеет свои свое имя. Например: второй класс, восьмилетняя школа, гимназия, школа грамотности, школа лекбиз, восьмилетняя школа, десятилетняя школа и так далее.

Г. Имена лиц, деятельность которых связана с образованием. Известно, что процесс воспитания и образования осуществляется живыми людьми, то есть кто-то учит и обучает, а кто-то учится и получает образование. Такая ситуация требует участия десятков людей в педагогической и школьной деятельности, что приводит к появлению в данной терминологической системе специальных терминов, обозначающих личные имена.

Прежде всего, хотим подчеркнуть, что мы имеем в виду, что в нашем объекте исследования имеется более трехсот имен лиц. Ниже приведен пример терминов, означающих имена этих лиц:

1. Фамилии лиц, осуществляющих управление образованием, школами, образовательными учреждениями: министр образования/высшего образования, заместитель министра, начальник управления кадров; ректор, проректор, декан, заведующий кафедрой

2. Имена лиц, занимающихся непосредственным обучением и воспитанием. Это: педагог, учитель, воспитательница, классный руководитель, групповой руководитель, тьютор.

В свою очередь, некоторые имена таких лиц дополнительно уточняются, и в итоге появляются еще десятки терминов. Например, возьмем название «учитель». С помощью этого термина можно выделить следующие личные имена, состоящие из сочетания: учитель родного языка // лингвист, учитель литературы // писатель, учитель географии // географ, дежурный учитель.

3. Термины, относящиеся к лицам, которые учатся и получают образование. К ним могут относиться: ученик, студент, старшеклассник.

В заключении, формирование педагогической терминологии каракалпакского языка уходит в далекое прошлое. Потому что работа по воспитанию и обучению началась после того, как человек осознал свою человечность и с течением времени стал сильнее. Соответственно, в нашем родном языке сформировалась и стала развиваться особая терминологическая система – педагогическая терминология. Наше мнение подтверждают письменные памятники, стихи более 60 поэтов, произведения наших писателей.

Справочная система.

1. Педагогика. На коллективной основе. -Ташкент, 1979, стр. 21.
2. Макаренко А.С.Проблемы советского школьного воспитания.Соч.Т. У.

O'QUV AMALIYOTIDA KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLARNI BO'LAJAK AVIATSIYA MUTAXASSISLARIDA QO'LLASH

Djabbarov Shamsiddin Xujaqulovich,

O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i, dotsent, podpolkovnik, e-mail:djabbarov3005@gmail.com, tel.: (99) 939-39-09

Annotatsiya. Maqolada ta'lim amaliyotida kognitiv va neyropedagogik yondashuvlarni amalga oshirishning nazariy tahlili va amaliy jihatlari keltirilgan. Muammo fanlararo, psixologiya, falsafa va pedagogikaga asoslangan holda ko'rib chiqilgan. Ta'kidlanishicha, ta'limning kognitiv va neyropedagogik yondashuvlari bir qator ko'nikmalar, jumladan, faktik ma'lumotlar va subyektiv fikrlar orasidagi farqni anglash qobiliyati, faktlar va taxminlarni, bog'lanishlarning mantiqiy turlarini ajrata olish va o'ziga xos mavzuni aniqlash qobiliyati bilan ajralib turadigan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, aniq spetsifik munosabatlar turlariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, elektroensefalografiya, raqamli texnologiya, meta-asboblari, kognitiv yondashuv, ta'lim, pedagogika.

Аннотация. В статье представлен теоретический анализ и приведены практические аспекты реализации когнитивного и нейропедагогического подходов в образовательной практике. Проблема считается междисциплинарной, основанной на психологии, философии и педагогике. Отмечается, что когнитивный и нейропедагогический подходы к обучению развивают ряд умений, в том числе умение различать фактическую информацию и субъективные мнения, умение различать факты и предположения, логические виды связей, умение выделять конкретную тему, ориентированы на развитие критического мышления, конкретных типов взаимоотношений.

Ключевые слова: нейропедагогика, электроэнцефалография, цифровые технологии, метаинструменты, когнитивный подход, образование, педагогика.

Annotation. The article presents a theoretical analysis and applied aspects of the implementation of cognitive and neuropedagogical approaches in educational practice. The problem is considered as interdisciplinary, based on psychology, philosophy and pedagogy. It is noted that cognitive and neuropedagogical approaches to learning are aimed at developing critical thinking, characterized by a number of skills, including the ability to distinguish factual information and value judgments, facts and assumptions, logical types of connections, and identify specific subject-specific types of relationships.

Key words: neuropedagogy, electroencephalography, digital technology, meta-tools, cognitive approach, education, pedagogy.

Kognitiv texnologiyalarning amaliy ahamiyati oliy ta'limning o'quv jarayoniga tobora ko'proq kiritilmoqda. Ta'lim muhitining hozirgi axborot holati, masofaviy o'qitishning tezlashtirilgan va kutilmagan tarzda joriy etilishi ta'lim texnologiyalaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirmoqda. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida bunday kognitiv texnologiyalar joriy etilmoqda. Buni qisman kognitiv pedagogika muqarrar ravishda butun ta'lim sohasi, shu jumladan, konservativ klassik ta'limga intiladigan oliy ta'limning tizimli xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin, bu esa, ta'lim muhitini raqamlashtirishni hisobga olgan holda modernizatsiyani talab qiladi.

Yangi ta'lim texnologiyalari, shu jumladan, o'rganishning kognitiv nazariyalari innovatsiyalarni qabul qiladi va ta'lim, ilmiy va professional hamjamiyatga faol va maqsadli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Barcha kognitiv tizimlardan biz ta'lim jarayonining amaliy komponenti nuqtai nazaridan ta'lim jarayoni uchun istiqbolli vosita sifatida kognitiv pedagogika va psixologiyani tanladik. Biz ularni bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining atrof-muhit haqidagi qarashlarini aks ettirish uchun eng mos deb hisoblaymiz. Nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bunday tizimlarni amalga oshirish uchun maxsus tashkil etilgan yoki o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab tashkil etilgan ta'lim texnologiyalari kerak. Ular kognitiv pedagogika nazariyasi, metodologiyasi va vositalaridan o'zlarining kasbiy faoliyati uchun tayyorlangan mutaxassisni olish uchun o'quv jarayoniga moslashgan holda foydalanadilar.

Kognitiv texnologiyalar o'rganishni atrof-muhitning o'zgaruvchanligiga moslashtiradi, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beradi va kasbiy ta'lim tizimidagi ta'lim amaliyotida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun talabga aylanadi.

Kognitiv (lotincha cognition – bilim, bilish) – bular ong, tafakkur, tushunchalarning shakllanishini, ular bilan ishlaydigan va xulosa chiqarishni ta'minlaydigan miya funktsiyalari bilan bog'liq vositalar.

Zamonaviy oliy texnik ta'lim tizimida ikkita asosiy blokni ajratish mumkin: o'quv jarayonining nazariy va amaliy qismlari. Bu bloklar o'zaro bog'langan bo'lishiga qaramay, ko'pchilik oliy harbiy ta'lim muassasida asosiy e'tibor nazariy ta'limga qaratiladi, amaliy mashg'ulotlar esa, ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'ringa qo'yiladi. Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining amaliy tayyorgarligi sifatini oshirish va ularning kasbiy malakalarini egallashga katta ahamiyat berilayotgan bugungi kunda asosiy iste'molchilar – yirik korxonalar uchun o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish nihoyatda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limda qo'llash istiqboliga ega bo'lgan kognitiv ta'lim texnologiyasining asosiy tuzilmalari o'qituvchi, o'quv tizimlari va o'quv materiallari yordamida bilim yoki ko'nikmalarni egallashdan iborat bo'lgan modellarga asoslanadi.

Kognitiv texnologiyalar o'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga qaratilgan, o'rganilayotgan mavzudagi muammolarni topish va ularni mustaqil ravishda hal qilishni, shuningdek, o'zining va boshqalarning tajribasini o'zaro ta'sir

qilish va taqqoslashni o'z ichiga oladi, buning natijasida yangi individual tajriba olinadi. Ta'lim amaliyotida bunday texnologiyalar istiqbolga ega.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida kognitiv texnologiyalarni amalga oshirishda professor-o'qituvchilarning roli kognitiv modellar tarkibida ko'rsatilgan bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining individual kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladigan shart-sharoitlarni yaratish va ta'minlashdan iborat. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar ta'lim amaliyotini rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Ularni qo'llashning bir necha usullarini ko'rib chiqaylik:

1. Ta'limni individuallashtirish: kognitiv jarayonlar va o'quv uslublaridagi individual farqlarni tushunish har bir bo'lajak aviatsiya mutaxassis uchun yanada samarali va moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Neyropedagogik tadqiqotlar bo'lajak aviatsiya mutaxassislar miyasining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi va bu ma'lumotlardan ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish uchun foydalanadi.

2. O'quv materiallari va o'qitish usullarini optimallashtirish: kognitiv jarayonlar bo'yicha tadqiqotlar axborotni yanada tushunarli va esda saqlashni osonlashtirish uchun taqdim etish usullarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu mnemonika yoki interfaol o'rganish usullari kabi maxsus o'rganish strategiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilishni rivojlantirish: neyropedagogik tadqiqotlar qaysi turdagi vazifalar va faoliyatlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Ta'lim dasturlari samaradorligini baholash: kognitiv va miya faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilish turli ta'lim usullari va dasturlari samaradorligini baholashga yordam beradi hamda shu bilan ta'limning eng muvaffaqiyatli yondashuvlarini aniqlaydi.

5. O'qitish va baholash uchun texnologiyadan foydalanish: funktsional magnit-rezonans tomografiya va elektroensefalografiya kabi neyrotexnologiyalar bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining miya faoliyatini real vaqt rejimida o'rganish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa, o'qituvchilarga o'z texnikalarini real vaqtda moslashtirishga imkon beradi. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarni ta'lim amaliyotida qo'llash yanada samarali, individuallashtirilgan va moslashtirilgan ta'lim dasturlarini yaratishga imkon beradi, bu esa, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining yaxshiroq o'rganish va muvaffaqiyatiga yordam beradi.

O'qitishning kognitiv yondashuvi klassik yondashuvi – individual shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish va bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining o'zini o'zi rivojlantirish uchun ta'lim texnologiyalari ishlatilishi bilan farq qiladi.

Kognitiv yondashuv o'quv jarayonining uslubiy tarkibiy qismiga e'tibor berishni talab qiladi, uni o'quv muhitiga mos ravishda o'zgartirish, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining ichki faolligini hisobga olgan holda, muayyan muammoni hal qilish uchun moslashtirilgan.

Bunday o'quv materiallarini pedagogikada meta-asbob deb ataladigan alohida paketga shakllantirish yaxshiroqdir.

Meta-asboblar – bu rasmiy ravishda belgilangan ta'lim vazifalarini aniqlash uchun mo'ljallangan vaqtinchalik mavjud dinamik psixofiziologik tuzilmalar. Bizning holatlarimizda, bu har bir o'quv kursi uchun maxsus topshiriqlar va mashqlar bilan mashq dasturlari. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchilarni immersiv ta'lim muhitiga jalb qilish kerak.

Simulyatorlar va trenajerlar ustida ishlash bo'lajak aviatsiya mutaxassis uchun individual virtual makonni yaratishni o'z ichiga oladi, bu unga bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining o'zlashtirilgan tajribasiga asoslangan yechimlarni topishni talab qiladigan holatlardagi mashqlarni bajarishga imkon beradi.

Virtual muhitni immersiv muhit sifatida, simulyator mashg'ulotlarini esa, kognitiv ta'lim yondashuvining elementi sifatida tavsiflash mumkin. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, o'quv amaliyotida ishlab chiqarishdagi haqiqiy amaliy mashg'ulotlarni simulyatorlar bilan almashtirmaslik kerak.

Axborot-kommunikatsiya yo'nalishi pedagogikaning eng zamonaviy, istiqbolli va rivojlanayotgan bo'limlaridan biri bo'lib, u bo'lajak aviatsiya mutaxassis bilan axborot o'zaro aloqasi usullari, texnologiyalari va tamoyillariga asoslanadi. Ba'zan "raqamli texnologiyalar" deb ataladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda va bugungi kunda oliy harbiy ta'limning barcha sohalariga kirib bordi.

O'quv jarayonida masofaviy texnologiyalardan foydalanish zarurati kompyuter dasturlarini o'quv faoliyatining barcha turlariga: ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga, mustaqil ishlarga kirib borishini ta'minladi.

Raqamli texnologiyalar test, interaktiv treninglar va simulyatorlarni taqdim etadi. Shunday qilib, kognitiv texnologiyalar tashqi muhitda yuzaga keladigan sabab-oqibat munosabatlarini rivojlantiradi va bo'lajak aviatsiya mutaxassisning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan mustaqil boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunday o'qitish jarayonida qarorlar qabul qilishda mustaqillik va samaradorlikni rivojlantiruvchi yangi kompetensiyalar o'zlashtiriladi.

Kognitiv texnologiyalar, jumladan, kognitiv pedagogika elementlari, texnik mutaxassislik bo'lajak aviatsiya mutaxassislari uchun amaliyotga yo'naltirilgan o'qitishning eng muhim elementi hisoblanadi.

Kognitiv ta'lim texnologiyalarining vazifasi – bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining o'zini o'zi samarali tashkil qilish imkoniyatini yaratish, uni kasbiy muammolarni hal qilish uchun universal vositalar bilan ta'minlashdir.

O'quv faoliyatida neyrotexnologiyalarning rivojlanishi o'quv jarayoniga aralashmasdan va bo'lajak aviatsiya mutaxassisga ta'sir qilmasdan, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining miyasi (o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlar) obyektiv nuqtai nazaridan qarashga imkon beradi. Shu asosda individual ta'lim traektoriyasini qurish va o'quv jarayonini shaxsiylashtirishga harakat qilish mumkin.

Neyropedagogikani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari quyidagilardir: miya ritmlari haqidagi ma'lumotlar asosida bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining

hozirgi holatini (fiziologik, hissiy) baholash; fikr-mulohaza tamoyilini amalga oshirish (o'z miya ritmlarini vizualizatsiya qilish, o'z kognitiv holatini o'rgatish va boshqarish); miyaning o'rganish uchun muhim bo'lgan joylariga, shu jumladan, hissiy holatga (neyroplastiklik) ta'siri. Ushbu sohani amalga oshirish va o'rganish ta'lim samaradorligi va kutilayotgan ta'lim natijalarini oshirishga urinishdir.

Adabiyotlar:

1. Ибраимов Х. ва бошқ. Ота-она – мураббий: Услужий кўлланма. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2024. – 220 б.
2. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar: Monografiya. – T., 2023.

TA'LIM AMALIYOTIDA BO'LAJAK OFITSERLARNING KASBIY MUHIM SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV TADQIQOTLARNI QO'LLASH

To'xtayev Nasim Yaxyoyevich,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i, dotsent, podpolkovnik.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim amaliyotida bo'lajak ofitserlarning kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda kognitiv tadqiqotlarni qo'llash hamda xizmat jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: bo'lajak ofitser, kasbiy ma'suliyat, kognitiv, ta'lim-tarbiya, kasbiy kompetentlik.

Аннотация. В данной статье проанализировано использование когнитивных исследований в развитии важных профессиональных качеств будущих офицеров в образовательной практике и показано значение процесса службы.

Ключевые слова: будущий офицер, профессиональная ответственность, познавательная деятельность, образование, профессиональная компетентность.

Abstract. This article analyzes the use of cognitive research in the development of important professional qualities of future officers in educational practice and the importance of the service process.

Key words: future officer, professional responsibility, cognitive, education, professional competence.

Ma'lumki, kasbiy bilimlar insoning faoliyatini tashkil etishida tayanch asos bo'lib xizmat qiladi. Uni kognitiv qabul qilish natijasida bo'lajak ofitserlarda kasbiy ijodkorlik va kasbiy faollik rivojlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risidagi" Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bo'lajak mutaxassislarining kasbiy bilimlarini tizimli o'zlashtirish va o'z faoliyatlarida qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Oliy pedagogik ta'lim tizimi uning mazmunini takomillashtirishga qo'yilayotgan talablar harbiy ta'limni rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqmoqda. Bo'lajak ofitserlarni kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarda

kursantlarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, subyekt-subyekt munosabatlariga kirishishlari uchun sharoit yaratish, ularda shakllangan kasbiy bilimlarni muntazam diagnostika qilish, ofitserlar faoliyatini tashkil etishining samarali texnologiyalar bilan ularni qurollantirishi, shu asosda bo'lajak ofitserlarni kasbiy kompetentligini tarkib toptirish, harbiy ta'lim sifatini ta'minlashga layoqatli ofitserlarni tayyorlash imkonini beradi.

Bo'lajak ofitserlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Insonning bilish jarayoni psixik jarayonlarning tizimli tarzda namoyon bo'lishini ifodalaydi. Bular bo'lajak ofitserning kasbiy bilimlarni idrok etishi, xotirasida saqlab qolishi, eslab qolishi, qayta ishlashi, interpretatsiyalashida o'z ifodasini topadi.

Bo'lajak ofitserlarning kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash ko'nikmalarini egallashlarida texnologik bosqich muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda bo'lajak ofitserlarning ta'lim-tarbiya jarayoni va jangovar tayyorgarlikning barcha bosqichlarini loyihalashda bo'lajak ofitserlarni rivojlantirish tamoyillariga amal qilish ko'nikmasini egallashlari kerak. Bo'lajak ofitserlarning pedagogik vositalar, qo'llaniladigan texnologiyalar, ta'lim-tarbiya natijasining kafolatlanganligini ilg'ay olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak ofitserlar kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda ta'lim mazmuniga bo'lajak ofitserlarning shaxsiy tajribalarini mujassamlashtirish prinsipiga amal qilish zarurligi haqidagi bilimlarga ega bo'lishi muhimdir. Bunda bo'lajak ofitserlar dialog asosida o'z bo'lajak ofitserlari bilan hamkorlikka kirishish tajribasini ham egallashlari kerak. Kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda bo'lajak ofitserning uni nechog'lik aniq loyihalashtira olganligi, maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak ofitserlar ta'lim-tarbiya jarayonida rang-barang ish shakllaridan foydalanish mahoratini ham egallashlari kerak. Bo'lajak ofitserlarning bunday ko'nikmalarni egallaganliklari ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarga taqdim etiladigan o'quv materiallarini maqsadga muvofiq tarzda tanlashi va loyihalashtira olishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bo'lajak ofitserlar bo'lajak ofitserlarning o'quv-biluv faoliyatlarini nazorat qilish ko'nikmalarini ham puxta egallashlari zarur. Shundagina ular nazorat materiallari va vaziyatlarini aniq loyihalashtira oladilar. Bu esa, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bo'lajak ofitserlarni ilg'or texnologiyalar bilan qurollantirish uchun quyudagilarga amal qilishi lozim:

– pedagogik amaliyot jarayonida ofitserlarining mashg'ulotlari va ularning kasbiy faoliyati natijalarini tahlil qilish asosida ularning bu sohadagi kasbiy mahoratlarini ustoz-shogird munosabatlari asosida o'rganishlariga imkoniyat yaratish;

– bo'lajak ofitserlarni istiqboldagi pedagogik faoliyatlari davomida kognitiv pedagogik ijodkorlikva tashkil etish sohasida duch kelishlari mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bashorat qilish asosida aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashlariga o'rgatish;

– bo‘lajak ofitserlar ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etishga oid bilimlariga tayangan holda o‘zlarining istiqboldagi kasbiy faoliyatlarini tahlil va nazorat qila olishlarini ta‘minlash;

– bo‘lajak ofitserlar ta‘lim vositalarini maqsadga muvofiq holda tanlash va mazkur yo‘nalishdagi ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalashda ulardan unumli foydalana olishlariga erishishlari kabilar.

Bo‘lajak ofitserlar ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyor bo‘lishlari uchun dastlab quyidagi ishlarni amalga oshirishlari kerak:

– amaliyot jarayonida bo‘lajak ofitserlar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazish va ularga maslahatlar berish;

– tajribali ofitserlarning mashg‘ulotlariga qatnashish va batafsil tahlil qilish;

– ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadida tajribali ofitserlardan maslahatlar olish.

Bo‘lajak ofitserlarning ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid o‘quv amaliy faoliyatlari ofitserlar tomonidan muntazam tahlil qilinishi, ularning bu sohadagi yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilishi, ularni bartaraf etish yo‘llarining tavsiya etilishi alohida amaliy ahamiyatga ega.

Buning uchun bo‘lajak ofitserlar quyidagilarni bilishlari kerak:

– muayyan toyifadagi bo‘lajak ofitserlarga hos bo‘lgan individual xususiyatlar, mashg‘ulot jarayonida ularga qo‘yiladigan kuchaytirilgan talablar;

– ofitserning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakati bo‘lajak ofitser shaxsini rivojlantirishga qay darajada yo‘naltirilganligi;

– kognitiv ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy tuzilishi, harakatlantiruvchi kuchlari nimalarda namoyon bo‘lishi;

– ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish sohasida muayyan ofitser erishgan yutuqlar va yo‘l qo‘ygan kamchiliklar nimadan iborat ekanligi kabilar.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali loyihalash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Bo‘lajak ofitser mashg‘ulot mavzusi, o‘quv materiallari mazmunini boyitishi, uni bo‘lajak ofitser shaxsiga yo‘naltirishga oid tajribalarni o‘zlashtirishi.

2. Bo‘lajak ofitser ta‘lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitserning muvaffaqiyatga erishishi uchun qulay vaziyat yarata olishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda unga ko‘maklashishi.

3. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitser o‘quv materiallarini bo‘lajak ofitserning shaxsiy tajribalari, bilimlari bilan uyg‘unlashtirgan holda tanlashi va loyihalashtira olishi lozim.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini o‘quv maqsadi bilan bog‘liq holda loyihalash ham uning samaradorligini ta‘minlashda muhim didaktik ahamiyatga ega. Buning uchun:

1. Bo‘lajak ofitserlar ta‘lim-tarbiya jarayoni loyihasida bo‘lajak ofitserga taqdim etiladigan o‘quv materiallarida uning yutuqlari, ijodiy tahlil natijalari, bo‘lajak ofitserning potensial imkoniyatlari, unda shakllangan tajribalar va kognitiv yo‘nalishning namoyon bo‘lishiga erishishi. 2. Bo‘lajak ofitserlar ta‘lim maqsadi bilan bo‘lajak ofitserlarning imkoniyatlari, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi o‘zaro mutanosibligini ta‘minlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan o'quv vaziyatlarini ijodiy fikrlash, muloqotga kirishuvchanlik, aniq faoliyatga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yondashgan holda loyihalashtirish ko'nikmasini egallash ham bo'lajak ofitserlardan muhim kasbiy bilimlarni o'zlashtirishni talab qiladi.

Bo'lajak ofitserlar kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishda, birinchi navbatda, bo'lajak ofitserlarning shaxsiy taraqqiyotlarini ta'minlash nazarda tutilishi lozimligini yaxshi bilishlari kerak. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak ofitser bilan ofitser, bo'lajak ofitser bilan bo'lajak ofitserlar orasida o'zaro muloqot, dialog tarzidagi suhbat, fikr almashish uchun qulay pedagogik vaziyat vujudga keltirilishi zarurligini bo'lajak ofitserlar yaxshi anglab yetishlari talab etiladi. Shu narsa ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak ofitserlarning shaxsiy rivojlanishlari, kamol topishlari uchun ahamiyatli bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish nazarda tutiladi. Xuddi mana shunday natijalarni nazarda tutgan holda bo'lajak ofitserlar o'quv jarayonini bo'lajak ofitser shaxsiga to'laqonli tarzda yo'naltirishga asos bo'ladigan loyihalarni shakllantirish tajribasiga ega bo'lishlari zarur. Shunga ko'ra, bo'lajak ofitserlar ta'lim maqsadiga erishishni nazarda tutgan holda dars samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan holatlar, o'quv topshiriqlari va metodikalarni qo'llash muhimligini loyihalarda aks ettiradilar.

Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashda kasbiy mahoratga ega bo'lgan ofitserlarning o'zaro hamkorligi, bir-birlarining tajribalaridan ijodiy foydalana olish zarurligini bo'lajak ofitserlar ongiga yetkazish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak ofitserlar qo'shin amaliyot davomida tajribali ofitserlar bilan maslahatlashishlari, ularning kasb mahoratlarini o'zlashtirishlari muhimdir. Bo'lajak ofitserlar kognitiv ta'limning konseptual asoslarini o'rganish bilan bir qatorda, o'quv faoliyatini metodik jihatdan uzluksiz ta'minlash yo'llari, bo'lajak ofitserlarda o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etish tajribasining shakllanganligi, ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, bo'lajak ofitser shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan vaziyatlarning mashg'ulot jarayonidagi o'rni va ahamiyatini anglab yetishlari lozim.

Xulosa o'rnida aytish joyizki, yuqorida ko'rsatilgan bo'lajak ofitserlar oldiga qo'yilgan barcha talablar oliy harbiy ta'lim tizimi uchun yaratiladigan o'quv dasturlari va darsliklarda o'z ifodasini topishi zarur.

Bo'lajak ofitserlar kursantlarda faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik kabi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari taqozo qilinmoqda. Shunga ko'ra, bo'lajak ofitserlar oldida ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashish, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik, vaziyatlarni loyihalashtira olish, Davlat ta'lim standartlari va umummilliy dasturda belgilab berilgan barcha vazifalarni bajarishda faollik ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayoniga madaniy muhit sifatida yondashib, yangi pedagogik yondashuv va ijodiy tajribalarni qo'llash, o'quv jarayoni maqsadlari taksonomiyasini chuqur bilish kompetensiyasiga ega bo'lishlari talab etilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar: Monografiya. – T., 2023.

2. Щукин Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся: учебник. – М.: Педагогика, 2008.

3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

4. Ibraimov Kh.I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018.

5. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: Shaffof, 2023.

THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN CLASSES ARE THE BASIS OF MODERN EDUCATION

Davronova Fotima Pirnazarovna,

Associate professor of *Samarkand State University of veterinary medicine, livestock and biotechnologies* fotimadavronova82@gmail.com +998974089982,
ORCID ID 0009-0005-0911-6821

Abstract. This article analyses the innovative and quite interesting methods we have in teaching English language. Everybody has their own understanding and conclusions on teaching English language. Whatever the teaching methodology can be, but teaching must be learner's centered. However, this paper scrutinizes the difference between traditional and practical teaching and thereafter learning.

In particular, in the article, innovative methods help to change, and often for the better. It helps students learn faster and more effectively, in a fun and interactive way, and examples are given of how the teacher's responsibility is to abandon traditional methods and pave the way for new and better methods for the benefit of students.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda bizda mavjud innovatsion va juda qiziqarli usullar tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha har kimning o'z tushunchasi va xulosasi bor. O'qitish metodikasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, lekin o'qitish yanada sodda bo'lishi kerak. Biroq, ushbu maqola an'anaviy va amaliy o'qitish va undan keyingi o'qitish o'rtasidagi farqni ko'rib chiqadi.

Xususan, maqolada innovatsion usullar o'zgarishga yordam beradi va ko'pincha yaxshi tomonga. Bu talabalarga tezroq va samarali, qiziqarli va interaktiv tarzda o'rganishga yordam beradi va o'qituvchining mas'uliyati an'anaviy usullardan voz kechib, talabalar manfaati uchun yangi va yaxshiroq usullarga yo'l ochishi haqida misollar keltirilgan.

Аннотация. В этой статье анализируются инновационные и весьма интересные методы преподавания английского языка, которые мы используем. У каждого свое понимание и выводы по преподаванию английского языка. Какой бы ни была методология преподавания, обучение должно быть более экономичным. Однако в этой статье тщательно исследуется разница между традиционным и практическим обучением и последующим обучением.

В частности, в статье инновационные методы помогают измениться, и зачастую в лучшую сторону. Это помогает учащимся учиться быстрее и

эффективнее, в увлекательной и интерактивной форме, а также приводятся примеры того, как ответственность учителя состоит в том, чтобы отказаться от традиционных методов и проложить путь к новым и лучшим методам на благо учащихся.

Key words: inquisitive, agitated, jeopardizing, immerse, atmosphere, intuitively, evaluated, database, anagrams, hangman, elocutions, tedious, mobile phone, precautions.

Kalit so‘zlar: qiziquvchan, hayajonli, xavf tug‘diruvchi, suvga cho‘mish, atmosfera, intuitiv, baholangan, ma’lumotlar bazasi, anagrammalar, jallod, so‘zlar, zerikarli, mobil telefon, ehtiyot choralari.

Ключивые слова: любознательный, взволнованный, ставящий под угрозу, погружающий, атмосфера, интуитивно, оцененный, база данных, анаграммы, палач, ораторские речи, утомительный, мобильный телефон, меры предосторожности.

Introduction

English, the official language of the entire world is a very tricky language to teach. In fact, every language varies to teach. English is a very old language and has undergone many forms changes from Proto English derived from the Latin and the German culture to the Modern English which was established after in the post Renaissance period. Each version was simpler than it’s previous. Present day English is the simplest adaptation of a very old Language and yet it is still difficult to teach this language effectively especially to those who speak English as a second language [1, P.93-100].

Problems with current methodologies

Nowadays world English is taught in a very orthodox manner. The basic teaching is needed. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. But there is something that is even more important. The children must be able to speak the words and understand their meaning before writing them down. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring by most students and it is

because of this that they lose interest in learning the language. Although there is no way other than the traditional one to teach the basics of the language these methods must be tweaked a bit so as to appeal to the students. When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results that innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest. This paper will provide a few of such methods to teach English Language [2, P.97-100].

Enacting the stories

Stories form a very integral part of teaching a language. These stories help teach the students about the formation of sentences and how to express their thoughts and a

lot of other things and plus they help in keeping the students interest alive as the story's end is something that every student wants to know. It appeals to the inquisitive nature of the students. Any unfinished story always keeps the mind of the reader agitated. Although this method of using stories has been implemented the procedure of teaching the language through it is generally not right. The evaluation procedure of testing the students in their proficiency over the language is through questions based on the story. This is generally not that effective. Due to this the students generally tend to take up the stories as a chapter rather than looking at it as an interesting read. A story is supposed to appeal to the creative part of the brain. It helps us be more imaginative, by trying to visualize the things that are happening inside the story. It should not only teach them the language but it should also help them in extracting a lesson from the story. Keeping questions for evaluation kills the entire idea of imagination for the students look at the story as something that they need to learn for answers [3, P. 55-57].

There is a better way of using the stories to English using stories. The students can enact the stories or the plays. In this way the students are personally engaged with the stories. They can bring their own interpretation of the character to life. It is interesting for the students to understand the characters and put themselves in their positions. It engages their creativity by allowing them to create the entire set, assign the characters and play it out according to what they had imagined. It also helps them understand other people

interpretation of the story and helps them have a healthy conversation about it which again helps them in learning the language. It removes the dull aspects and makes the learning more colorful without jeopardizing the learning of the language. It may not be perfect but it will leave a deep impression on their mind.

The story will help them learn the language as they will be enacting it by dialogue which they will themselves extract from the stories and also modifications can be made to the plays to help the students be more interactive and creative. They can add more lines, characters, change the ending, and bring in an interesting twist etc. The more creative the modification, more are the points awarded to the team. This also leads to personality development and helps them work as a team player and all the way the student was learning the language [4, P. 72-76].

For example if Julius Caesar was taught using the traditional methods of questions and answers the student would never understand the deep emotions of Brutus, the cunningness of Cassius, the loyalty of Antony, the tragedy of war, the brilliance in Antony's speech and many other such aspects of the story for which the story of Julius Caesar was written by Shakespeare. Similar is the case with all great stories such as Christmas Carol, Harry Potter, and all the epic stories. Emotions help define the story and they form a very important aspect of the language and one's personality. If these emotions are left out then it would be very difficult to express ourselves. On the other hand if such stories are enacted then every intention of the story becomes clear [5, P. 44-47].

The students have to immerse themselves into the atmosphere of the story and they have to put them in their positions. This entire process has many benefits besides

being a very effective method of teaching the language; it helps preserve the literature, which is nothing but our culture. This method brings about the total learning experience that was meant to be provided by the story and in the end the student will definitely be able to answer questions without even preparing for it as an exam, besides the entire process is fun and not at all boring.

Hence it ensures the learning process is complete.

Teaching through conversations

Conversations are by far the most useful ways of teaching the language. When a child learns his or her mother tongue it is by the conversations that takes place between them and others or by listening to the conversations made by the others. The child is never taught the language but is still able to percept the meaning and learns it automatically to use it in day to day life. No one ever teaches the kid the characters of the language or how to make sentences or the grammar of that language. The conversations alone teach the children.

Hence conversations form a very important part of the teaching process. The sentence construction and the grammar is not something that can be entirely taught by rules. They have to be taught intuitively. That can only happen through a lot of reading and a lot of listening. This can be taken care of easily as every conversation needs a topic. The topic can be given to the students in form of written documents which they have to first read then form an opinion and then have a conversation about it or it can be spoken out and then they can listen, understand and also take part in the conversation.

The participation and other aspects of the conversation can always be evaluated through points which will also push the students to take part in the conversation. These conversations have to be general. They have to happen as if friends are talking to each other. This way the students are comfortable in expressing themselves in the best possible way. This process may take some time but in the end it would be the most efficient one in teaching the language.

Word games

The most important part of any language is the vocabulary. To understand the meaning of the words and to use them in day to day life is a very difficult task and games can help the students overcome this difficulty. Games like scrabble, house etc. have been designed for this specific purpose. These games are just based on words and help the students develop their vocabulary. In addition to these very simple games can be played to help improve the word database of the students such as simple dictation competitions, synonym competitions, words puzzles, anagrams and hangman. All these games are very addictive and help a lot in improving our vocabulary as whenever the student hears a new word the first question that comes up is “what is its meaning?” and in this way the vocabulary improves and most of the times we don’t even have to consult the dictionary [6, P. 1132-1136].

Competitions

Most of the times competitions like debates and elocutions also help the help the students a lot in learning the language as the aspect of the competitions keep them at the best in conversations. It forces them to use the best possible

construction of sentences to put forward their opinions and to use good vocabulary etc.

This is a very important tool in helping them learn the language. Also these competitions help them address large crowds which is again is a very important part of personality development.

Creative assignments

Up till now most of the techniques that we discussed required a greater amount of effort on the student's part. This method requires effort on the teacher's part. Assignments help the students learn something on their own and most of the times they have to research on something then write something up on it. This method although effective is most of the times very tedious. This method of approach is very appropriate for sciences and engineering although when it comes to languages the students should be given assignments in which they have to modify something that already exists.

If the students are just given assignments like „write a story or a poem or a report“ then most of the students crack because not everyone can come up with a story or even if they come up with one they cannot write it down. In such case the students should be given the base knowledge and data and then ask them to modify the data for example the students can be given a base story and then ask them to modify a part of it.

This engages their creativity and also helps them overcome their difficulty of writing. Above all it lifts the pressure of creating completely new. Invention is very difficult especially when we are being forced to do it. In this way the students are not forced to complete the assignment and then they can do it whole heartedly and hence complete the learning experience that can be gained from the assignment.

Help from the multimedia

Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving our language. We don't even realize that they have helped us. We just wake up one fine day and realize that we are better than it than we were yesterday. Such sources can be used to help the students improve their language. But great precautions must be taken. This method should be used in the final stages of learning as that is the only place where there is no scope of damage as most of the movies and songs etc. use colloquial

English most of the times which is grammatically wrong and it is very important that the students understand that fact so that they do not use that form of the language in their everyday usage. Apart from that this source is very helpful as it does not feel like education. This is something that the students will do in their spare time. The songs are the best way to communicate how to use a language to express our feelings. Movies are a very common past time but apart from that most of the times they are also very instructional and educational. Also this method appeals to the students as most of the times they are able to connect with the songs and the movies which help them understand the meaning of expressions, usage of tools of the language like comparisons, personifications etc. These sources help them understand

why such tools are necessary and also help them understand their usage. Hence this method is again very effective in teaching the language [7, B. 81-87]. Traditional methods of reading newspapers and books, novels are also very good methods to teach the language. When the traditional methods are modified along with some innovative ideas the entire learning and the teaching process is enriched and guarantees a success in efficient learning. These are some of the innovative and creative ways of teaching the English Language.

Conclusion

The languages play a very important role in our lives. They help us express our emotions. They help us explain what we want. They help us to communicate and hence are the prime tools to express who we are. Thus the knowledge of a language and its proper utilization is very important as it defines us. If languages were not there to help us communicate there would be no difference in our communications and the way the animals communicate. Hence the ways the languages are taught play a very vital role in a person's life.

Since English is the official language of this world it is of the most importance that this language has to be taught in such a way that it will help us not just to speak and write and listen but to communicate. That is the purpose of the language and that is what it must be used for. Hence innovative methods help in bringing a change and most of the times for the better. It helps the students learn faster and in an efficient, interesting and an interactive manner and it is the teacher's responsibility to leave the traditional methods and make way for new and better methods for the students benefit.

Used Literature

1. Chen, N. S., S. W. Hsieh, and Kinshuk. 2008. Effect of short-term memory and content representation type on mobile language learning. *Language Learning and Technology* 12 (3) 93-113.
2. Pirnazarovna, D. F. (2022). Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(3), 97-100.
3. Pirnazarovna, D. F. (2022). Ways of forming digital literacy in the context of teaching english. *epra International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(3), 55-57.
4. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(2), 44-47.
5. Davronova, F. (2022). Experiment-testing methodology of on rapid teaching of english to students in the conditons of digital technologies. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(2), 72-76.
6. Davronova, F. P. (2022). The usage of ict tools intended to acquire knowledge by students in english classes. *agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 1132-1136.

7. Pirnazarovna, D. F., Baxtiyerovna, N. D., & Pulatovna, B. K. (2022). Xorijiy tillarni tezkor o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim metodlarning ahamiyati. *fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi*, 81-87.

KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMINING ISLOH QILINISHI

N.S.Najiyeva,

*SamDChTI Innovatsion ta'lim texnologiyasi
va pedagogikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit - modul tizimiga taaluqli qoidalari talaba qaysi kursda qancha miqdorgacha kreditlarni fanlardan jamg'arishi mumkinligini belgilab qo'yishi kerakligi borasida fikrlar boradi.

Kalit so'zlar: pedagog, psixolog, kredit, fan, tanlov, majburiy, talaba, dastur, ustoz, mutaxassis.

Respublikamizda so'nggi yillarda kredit-modulli ta'limni joriy etish maqsadida, kredit-modul bilan ishlash jarayonini tatbiq qilish maqsadida jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, refleksiv texnologiyalarni ishlab chiqish, talabani mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish borasida ko'plab me'yoriy asoslar ishlab chiqilmoqda.

Har bir ta'lim sohasi o'zining ba'zaviy fanlariga ega. Bunday fanlar talabani mutaxassis bo'lib shakllanishi, mutaxassislikka oid boshqa fanlarni tushinishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, pedagogika fakulteti talabalari uchun "Umumiy pedagogika", "Oila pedagogikasi", "Pedagogika tarixi", "Ijtimoiy pedagogika", "Bolalar pedagogikasi" kabi fanlar, psixologiya fakulteti talabalari uchun esa "Umumiy psixologiya", "Oila psixologiyasi", "Psixologiya tarixi", "Bolalar psixologiyasi" kabi fanlar majburiy fanlar sirasiga kiradi. Bunday fanlar tegishli fakultetning har bir talabasi uchun muhim va, odatda, o'quv dasturlarning dastlabki semestrlarida o'qitiladi. Shuning uchun o'quv dasturining dastlabki semestrlarida tanlov fanlari miqdori ancha cheklangan yoki dastur faqat majburiy fanlardan iborat bo'lishi mumkin. Lekin talaba yuqori kurs bo'lgani sari o'quv dasturida tanlov fanlari uchun ajratilgan kreditlar miqdori ko'payib borishi zarur ekanligi belgilangan. Buning sabablarini quyidagicha izohlashganlar:

Talaba sohaga oid bazaviy fanlarni o'zlashtirgandan so'ng unda sohani muayyan yo'nalishi bo'yicha chuqurroq bilim egallashga qiziqish va ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin. Talaba kursdan-kursga o'tgan sari u mutaxassis sifatida shakllanib borib, unda o'zi uchun, o'zi tanlov qilish ko'nikmasi shakllanib borishini aytib o'tgan. Qolaversa, tanlov huquqi talabalarni o'z qiziqishlari, kelajakdagi faoliyat yo'nalishlari haqida bosh qotirishga undaydi. Va nihoyat, kredit-modul tizimida talabalar tanlov fanini o'z fakultetidan boshqa fakultetlarda ham olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerakligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, ayrim mutaxassisliklar uchun sohalararo bilimlar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Lekin bunda fakultetning kredit - modul tizimiga taaluqli qoidalari talaba qaysi kursda qancha miqdorgacha kreditlarni bunday fanlardan jamg'arishi mumkinligini belgilab qo'yishi kerak bo'lgan. Masalan, fakultet kredit-modul

qoidalari talaba 1-kursni tamomlagandan so‘ng yuqori kurslar davomida maksimum 12 kreditni boshqa fakultetlarda olingan fanlar hisobiga jamg‘arishi mumkinligini belgilab qo‘yishi mumkin. Lekin bunga, odatda, dekanning ruxsati bilan yo‘l qo‘yilgan. Talaba tanlovni tanlov fanlari ro‘yxatidan o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishi mumkin lekin u baribir dastur so‘ngiga qadar belgilangan miqdordagi kreditlarni tanlov fanlari hisobiga jamg‘arishi zarur.

Universitetda o‘tiladigan fanlar va modullar bir sohaga tegishli bo‘lsada, ular o‘z murakkablik darajasiga ko‘ra (complexity level) farqlanishi mumkin. Masalan, pedagogika fanining bir nechta darajalari mavjud. Talaba o‘qishi davomida pedagogika fanining bir nechta darajalarini o‘rganishiga to‘g‘ri kelishi mumkin: “Umumiy pedagogika”, “Bolalar pedagogikasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi”, “Maxsus pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”. Shuning uchun fanlar OTM o‘quv dasturlarida izchillik asosida joylashtiriladi. OTM o‘quv dasturlaridagi fanlarni o‘z darajalariga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linishi mumkin:

Boshlang‘ich darajadagi fanlar (Basic level courses)

O‘rta darajadagi fanlar (Intermediate level courses)

Yuqori darajadagi fanlar (Advanced level courses)

Maxsus darajadagi fanlar (Special level courses)

Ya‘ni, talaba semestrda - semestrga, kursdan - kursga o‘tgani sayin, dasturdagi fanlar o‘z darajasiga ko‘ra murakkablashib boradi. Bunda bir fanni o‘rganish talabadan avval o‘sha fanni tushunishga xizmat qiluvchi boshqa fanni o‘zlashtirishni taqozo etadi. Masalan, odatda, talaba “Oila pedagogikasi” fanini yaxshiroq tushunishi uchun u avval, “Umumiy pedagogika” fanini o‘zlashtirishi zarur bo‘ladi. Buni g‘arb universitetlarida “course prerequisite” deb atashadi, ya‘ni talaba “Oila pedagogikasi” fanini boshlashi uchun avval “Umumiy pedagogika” fanini tugallashi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, OTMlar kredit-modul tizimiga o‘tgandan so‘ng ularning o‘quv dasturiga juda ko‘p tanlov fanlari ham kirib keladi. Buning natijasida, o‘quv dasturda fanlar o‘z turlariga ko‘ra majburiy va tanlov fanlariga ajratiladi. Muammo shundaki, o‘quv dasturidagi fanlarning bu jihatlarini (fanlarning darajalarini, izchilligini, bir fanning boshqa fan bilan bog‘liqligini, turlarini) shunchaki fanlarning nomlariga qarab tushunish qiyin. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimining asosiy tamoyillaridan biri - bu ta‘limni shaffof tarzda tashkil etishdir.

Shunday ekan, o‘quv daturidagi fanlarning bunday izchilligini, bir fanning boshqa fan bilan bog‘liqligi turlarini to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni talabalarga qanday qilib shaffof va qulay usulda yetkazish mumkin degan savol tug‘ilishi mumkin. ECTS kredit-modul tizimida bu - maqsadlarga fanlarni mantiqiy ravishda kodlashtirish orqali erishishga harakat qilishgan. Bunda fanlarning o‘z darajasi, turi va u haqidagi boshqa ma‘lumotlarni ifoda etuvchi belgi (level descriptor) va fanning turini bildiruvchi belgi (Type descriptor) kodlarni joriy etib, ularni tasniflab chiqqanlar.

Fanlarning darajasiga ko‘ra ularni 100, 200, 300, 400 va hokazo darajadagi fanlarga ajratib, shu asosda ularning kodlarini yaratish mumkinligini belgilashganlar. Fan kodida uni majburiy yoki tanlov fani ekanligini bildiruvchi biror bir belgini ko‘rsatish ham talaba uchun juda foydalidir (masalan fan kodida majburiy fanlar

uchun M (mandatory), tanlov fanlari uchun E (elective). Bundan tashqari, fanga ajratilgan kreditlar miqdorining fan kodida aks etishi talabalarga tezkor usulda ma'lumot yetkazishga xizmat qilgan.

Masalan, "Umumiy pedagogika" va "Bolalar pedagogikasi" fanlarini quyidagicha kodlash mumkin: "Umumiy pedagogika" - UMPEDM 22/4 2004, "Bolalar pedagogikasi" - BOPEDE 22/3 4004. Bunda, dastlabki to'rtta harf fanning o'ziga xos kodi, keyingi "M" yoki "E" harflari fanlarning turlari, 200 va 400 raqamlari fanlarni darajasini anglatishini belgilashgan, oxirgi 4 raqami esa ushbu fanlarga ajratilgan kreditlar sonini anglatgan. Bundan yuqorida keltirilgan misolda talaba fanning kodiga qarab turib, tezkor va qulay tarzda o'ziga kerakli bo'lgan uchta ma'lumotni olishini ko'rishimiz mumkin bular:

- 1) fanni majburiy yoki tanlov fani ekanligi haqidagi ma'lumot,
- 2) fanning darajasi haqidagi ma'lumot,
- 3) fanga ajratilgan kreditlar to'g'risidagi ma'lumot.

Fanlarning bu tarzda kodlashtirilishi o'quv dasturini boshqarishni osonlashtirgan.

OTM o'quv dasturidagi fanlarning kodlashtirish qoidalari, koddagi har bir element ma'nosi o'qituvchi va talabalarga o'quv yilining dastlabki kunlarida yetkazilishi kerakligi belgilangan.

Respublikamizda kredit-modul ta'lim tizimining isloh qilinishi yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va siyosiy faollik, mustaqillik, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirish va ulardan mohir mutaxassis timsolini ishlab chiqishdir. Bu maqsad esa o'z navbatida, tahsil oluvchi talabalardan bilim, ko'nima, malaka va faollikni talab qiladi. Kredit-modul tizimida ta'limning ustuvor vazifalaridan biri ta'lim oluvchi talabalar ongu-shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat talaba yoshlarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan nazariy bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etish, ulardan hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi darkor. Bo'lg'usi mutaxassislarning ijodkorligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov N.H. Pedagogicheskaya texnologiya-Toshkent:Aloqachi, 2009-148 b
2. Avlyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya.Toshkent: ChomponNMIU-2012,-208 b
3. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2007. – 183 b.
4. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. – 52 b.
5. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007. -288 b.

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xudoyqulov Jamshid Nishanovich,

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. O'qish savodxonligi darslarini tashkil etishning metodik xususiyatlari yoritilgan. Dars jarayonida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasiga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: O'qish savodxonligi, kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'lim, faoliyat, dars, hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические возможности развития творческого мышления учащихся посредством занятий по грамотности чтения. Выделены методические особенности организации занятий по читательской грамотности. В ходе занятия были даны методические рекомендации по методике организации уроков грамотности чтения.

Ключевые слова: Читательская грамотность, творческое мышление, начальное образование, деятельность, урок, сотрудничество.

Abstract. This article analyzes the didactic possibilities of developing students' creative thinking skills through reading literacy classes. Methodological features of organizing reading literacy classes are highlighted. In the course of the lesson, methodical recommendations on the methodology of organizing reading literacy lessons were given.

Key words: Reading literacy, creative thinking, primary education, activity, lesson, cooperation.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, ta'limi taraqqiy etgan mamalakatlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish,

o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda tilga oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilar egallagan ko'nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qo'llashlari bilan bog'liq fundamental bilimlar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlay olish bilan bog'liq murakkab masalalarni hal qila olish ko'nikmalari, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, moslashuvchanlik, liderlik, ilmiy xabardorlik bilan bog'liq shaxsiy fazilatlar shakllantirishga olib keladi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 2020 - yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasida "Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan" [1.3] - deb takidlangan. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustivor yo'nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, yani har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiya jarayonidir .

O'qish savodxonligi fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.


O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar mavjud.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi darslarini tashkil etishda darslikda berilgan topshiriqlardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni, eruditsiyani, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlar bilan ishlashda o'qituvchi ta'lim jarayonini mohirona tashkil qilishi kerak.

O'qituvchilik san'ati bolalarni mulohazalar yuritish yo'li bilan xulosaga, natijaga etaklashdan iboratdir. Har safar, o'quvchilar bilan o'quv topshiriqlari bilan ishlashda taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo'yilgan savollar ularning aqlini zo'riqtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri ulardan o'rganganlarining muhimini ajratish so'ralganda yanada ijodiy ishlaydi. Muhim narsa o'quvchilarning o'zlari aytganlari orasidan qidiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi o'quv topshiriqlarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv topshiriqlari bilan ishlashini zamonaviy yondoshuvlar asosida turlicha tashkil etish mumkin. Eng muhimi o'quv topshiriqlari bilan ishlashda bir xil yondoshuvga tayanib qolmaslik kerak. Bunday

yondashuv o'quvchini zeriktiradi, uning yangilikni o'rganishga nisbattan bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.



1-chizma. O'quv topshiriqlarini tashkil etish shakllari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv topshiriqlari bilan ishlash faoliyatini tashkil etishda pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga tayanib berilgan topshiriqlar o'quvchilar shaxsiyatida ziyraklik va erkinlik tarkib topishiga ko'maklashadi. Ularda aniqlik va batartiblik, mehnatsevarlik, qat'iyatni rivojlantirishga asos bo'ladi. Faoliyatida duch kelgan qiyinchiliklarni engib o'ta olish, boshlagan ishini oxiriga etkazish hamda o'z xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) yosh xususiyatiga mos ravishda rivojlantirish vazifasini ham amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan dolzarb vazifalarni samarali hal qilish boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini samarali tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmoni
3. Qosimov A.X, Xoliqova F. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. –T.: TATU 2004 yil.
4. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Monografiya. – T.: 2003.B – 48-70.

TABIIY FANLAR (SCIENCE) DARSLIGI VA USHBU FANNI O‘QITISHDA O‘QITUVCHILARNING MAVJUD TAYYORGARLIK HOLATI

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna,
A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti ilmiy izlanuvchisi

Rivojlangan yevropa mamlakatlarida tabiiy fanlar (Science) mazmuni so‘nggi o‘ttiz yillikda milliy o‘quv dasturlarida muhim rol o‘ynadi. Ilmiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan va tabiiy fanlar, fan tarixi, fan sotsiologiyasi, psixologiya falsafasi bilan uyg‘unlashtirilgan ushbu tabiiy fanlar (Science) mazmuni kontseptsiyasini tushunish, ilmiy faoliyatning asosiy tuzilmalari kombinatsiyasi va tabiiy fanlar ilmiy bilimlarini bilish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ilmiy savodli bo‘lishlari uchun zarurdir [1, 2, 3].

Bugun zamon talabi bo‘yicha dunyoda ta‘limning tabiiy fanlar siklining har bir predmeti alohida o‘rganiladigan fandan integratsiyaga, shu turdagi fanlar bo‘yicha bilimlarning integratsiyalashuvi mazmun asosini tashkil etuvchi fanga qayta yo‘naltirilishi kuzatilmoqda. Shu jumladan bizning mamlakatimizda ham.

Respublikamizda dastlab 2020 yillarda milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish ustida ishlar boshlangandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 134-sonli farmoni tasdiqlandi. Ushbu farmonning 3-qismi a bandida 2024-yil 1-sentabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta‘lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini, shu jumladan 2022-yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar uchun, 2023-2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta‘minlanishi belgilab qo‘yildi.

Shu munosabat bilan 2022 -2023 o‘quv yilidan boshlab milliy o‘quv dasturi asosida 6-sinflarda ham Tabiiy fanlar (Science) o‘qitish amaliyotga joriy etildi. Tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishdan bosh maqsad o‘quvchilarda tabiiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish, tushunishga tizimli va yaxlit yondashuvni shakllantirish va tabiiy fanlarni o‘rganishning umumiy ilmiy metodologiyasini, ularda yaxlit ilmiy dunyoqarash shakllantirishdan iborat.

Tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilari darslarda fanning mazmunini o‘rgatish uchun harakat qilib kelmoqdalar. Shuncha urinishlarga qaramay, fan o‘qituvchilari fanning mohiyatini anglashda bir fikrga kela olmayapdilar. Buning sababi shundaki, fanning tabiati bilan bog‘liq tushunchalar, shuningdek, fan haqidagi tasavvurlarimiz va qarashlarimiz doimo o‘zgarib, rivojlanib boradi.

Komas va Olson tabiiy fanlar (Science) ni “...fan falsafasi, fan tarixi, fan sotsiologiyasi va fanning psixologiyasi kabi turli fanlar kesishadigan soha....” deb hisoblaydi [2]. Ledermannig ta‘kidlashicha, tabiiy fanlar (Science) mazmuni “...fanning gnoseologiyasini bilish usuli yoki ilmiy bilimlarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qadriyatlar va e‘tiqodlar....” deb ta‘kidlaydi [3]. NGSS ma‘lumotlariga ko‘ra, “...fan tabiiy va moddiy dunyo haqidagi savollarga javob beradigan bilish usuli va inson harakati sifatida belgilanishi mumkin va ilmiy bilimlar empirik dalillarga asoslangan bo‘lib, yangi bilimlar asosida qayta ko‘rib chiqish uchun ochiqdir....” [4].

Tabiiy fanlar (Science) mazmun mohiyatini tushuntiruvchi yagona ta'rif mavjud emas ammo, bir oz farqlar mavjud bo'lsada, ko'plab tadqiqotchilar tabiiy fanlar (Science) mazmuni o'lchovlari bo'yicha konsensusga erishdilar. Xalqaro tabiiy fanlar ta'limi standartlari hujjatlariga va tabiiy fanlar sohasida uzoq yillar ishlagan ayrim tadqiqotchilar izlanishlariga ko'ra, tabiiy fanlar (Science) mazmunini ifodalovchi o'lchovlar (Lederman, Abd El Xalik, McComas) quyidagicha izohlanadi:

1. Ilmiy bilim empirik asosda va tabiiy dunyo kuzatuvlaridan kelib chiqadi:

Olimlar yangi bilimlarni yaratish uchun eksperimental dalillarga muhtoj. Yangi eksperimental dalillar, ilmiy bilimlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [5].

2. Kuzatish va xulosa chiqarish o'rtasidagi farq: Kuzatishlar tabiat hodisalariga bevosita sezgi a'zolari orqali erishish mumkin bo'lgan tavsiflovchi tushuntirishlardir. Xulosalar - bu sezgi a'zolari va kuzatishlarni talqin qilish bilan bevosita erishib bo'lmaydigan bayonotlar va tushuntirishlardir [6].

3. Ilmiy bilimlar taxminiy, rivojlanish natijasida o'zgarishi mumkin: Ilmiy bilimlar texnologiya va axborot resurslarining rivojlanishi, yangi dalillarni qo'lga kiritish yoki mavjud dalillarni qayta talqin qilish va tushunish, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida o'zgarishi mumkin. Biz hozir to'g'ri deb hisoblagan barcha bilimlar kelajakda tan olinmasligi mumkin [7].

4. Ilmiy bilim insonning xulosasi, tasavvuri va ijodkorligini o'z ichiga oladi:

Ilmiy tushunchalar haqiqatning aniq ko'rinishi emas, ular olimlar tomonidan o'z tasavvurlari va ijodi yordamida kuzatishlar, tajribalar va xulosalar asosida ishlab chiqarilgan tushuntirishlardir [8].

5. Ilmiy bilimlarga ijtimoiy va madaniy jihatlar singdirilgan:

Tabiiy fanlar (Science) inson faoliyati bo'lib, unga ijtimoiy muhit, madaniy va iqtisodiy omillar, diniy va falsafiy qarashlar, siyosiy tuzilmalar va ushbu elementlarga kiritilgan ilmiy bilimlar singdirilgan [9].

6. Ilmiy bilim subyektivdir (nazariyaga asoslangan):

Ilmiy bilim nazariy kelib chiqish asosida yaratiladi. Ilmiy masalalar ishlab chiqilishidan boshlab, olingan ma'lumotlarni sharhlash va ilmiy kuzatishlar nazariya bilan bog'liq. Ilmiy ma'lumotlar subyektivlikni o'z ichiga oladi. Olimlarning oldingi bilimlari, qarashlari, tajribalari va nazariyaga asoslangan tadqiqotlari ularning muammoni hal qilishga bo'lgan yondashuviga va kuzatuvlarni sharhlashiga ta'sir qiladi [9].

7. Umumjahon ilmiy metod haqidagi qarashlar:

Barcha olimlar tomonidan tabiiy fanlar (Science) uchun bosqichma-bosqich qo'llaniladigan yagona ilmiy metod mavjudligi haqidagi g'oya odamlar orasida keng tarqalgan noto'g'ri tushunchalardan biridir. Fanda kuzatish, o'lchash, sinovdan o'tkazish, baholash va gipoteza qilish kabi ko'plab faoliyatlar mavjud, ammo bu faoliyatlar ma'lum bir tartibda bajarilishi shart emas [6]. Bundan tashqari, olimlar o'z tadqiqotlarida turli usullardan foydalanishlari mumkin va ular o'z ishlarining istalgan vaqtida o'z usullarini o'zgartirishi mumkin.

8. Ilmiy qonunlar va nazariyalarning farqi:

Nazariyalar tabiiy olamni kuzatishga asoslangan va tabiat hodisalarining holatlarini sabab-oqibat munosabati bilan tushuntirishga harakat qiladigan izchil tushuntirishlar majmui, qonunlar esa umumlashtirish va tamoyillardir. Hodisaning tabiatda qanday sodir bo'lishini yoki uni kuzatish mumkinligini tasvirlab beradi [2,6];

Bir nechta rivojlangan mamlakatlar: Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Gretsiya kabi davlatlar tabiiy fanlar o'quv dasturini tahlil qilishda yuqoridagi consensusni tamoyil sifatida oladilar.

Shuningdek tabiiy fanlar (Science) dasturida amaliy mashg'ulotlarga ko'proq soatlar ajratildi hamda loyiha ishlari kiritildi [6]. Bu o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga, kelajakda o'z loyiha ishlarini tuza olishlariga yordam beradi.

Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanayotgan davrida o'qituvchilar yetarli darajada o'qitish qobiliyatiga ega bo'lish uchun o'zlarining o'quv metodik tayyorgarliklarini doimiy ravishda oshirishlari kerak. Umumta'lim va tabiiy fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirish, xususan: (1) ta'lim muassasasi va boshqa kasbiy obyektiv talablardan va (2) o'qituvchilarning o'zlarining o'quv metodik tayyorgarligini rivojlanish talablaridan kelib chiqadi. Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning malakasini oshirish ularning shaxsiy ehtiyojlariga aylanganda, malaka oshirish shakllari haqiqatan ham foydali bo'ladi va o'qituvchilarni ixtiyoriy jalb qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilari malakasini oshirishning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki malaka oshirish muassasalarining hammasida ham tabiiy fanlar (Science) o'qituvchisini malakasini oshirish ishlari yo'lga qo'yilmagan. Tabiiy fanlar o'qituvchilariga ko'rsatilayotgan metodik yordamning saviyasi va samaradorligi tahlil qilinganda, tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun yaratilgan va nashr qilinayotgan qo'llanmalar soni juda kam va sanoqli ekanligi ma'lum bo'ldi. Bor qullanmalar ham asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yaratilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida o'qituvchilar faoliyatini o'rganish maqsadida umumta'lim maktablarida olib borilayotgan 6-sinflar uchun tabiiy fanlar (Science) darslarini kuzatganimizda quyidagi holatlar yaqqol ko'zga tashlandi: o'qituvchi darsni asosan darslikda berilgan matn asosida ma'ruza shaklida olib boradi. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanilmaydi (chunki foydalaniladigan adabiyotning o'zi kam). O'quvchilar kamdan kam hollarda ijodiy va amaliy ishlarga jalb qilinadi. Dars jarayonida besh oltita faol o'quvchilar bilan ishlar olib boriladi, qolgan o'quvchilar e'tibordan chetda qoladi. Hamma o'quvchiga bir xil yondoshuv mavjud. Natijada, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar, murakkab, muammoli topshiriqlarni mustaqil yechish qobiliyati rivojlantirilmaydi. Ko'pincha o'quvchilar tayyor bilimlarni yodlab oladilar va o'z imkoniyatidan kelib chiqib gapirib beradilar. Natijada o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti emas, balki obyekt bo'lib qolaveradi.

Shu sababli biz uzluksiz malakasini oshirish jarayonida tabiiy fanlar o'qituvchilarini o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirishda tashkil etiladigan tadbirlar, qisqa muddatli kurslar, seminar-treninglar, online kurslar, metodik uchrashuvlar, individual trayektoriyada ishlash va hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali o'qituvchilarni tabiiy fanlarni o'qitish va tabiiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish lozim degan fikrga keldik.

O'quvchining tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni puxta egallashi, tabiiy savodxon shaxs bo'lib yetishishida o'quv-tarbiya ishlarining qanday tashkil qilinishidan

tashqari, o'qituvchining tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi, uning o'quv-metodik tayyorgarligi, darsliklar va o'quv qo'llanmalarning sifatiga va saviyasiga ham bog'liq.

Aytilganlarning barchasidan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda, afsuski, tabiiy fanlar o'qituvchilarini har tomonlama tayyorlash yo'lga qo'yilmagan. Binobarin, ta'limni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida bunday o'qitishni amalga oshirish mumkin va maqsadga muvofiqdir.

– ma'lumki tabiiy fanlar (Science) o'qituvchisining o'quv metodik tayyorgarligi uning pedagogik faoliyati jarayonida: o'z ustida ishlash, tabiiy fanlarga doir bilimlarni egallash, doimiy zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib borish, dunyo ta'limida yuz berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lib borishi natijasida oshadi.

Agar tabiiy fanlar o'qituvchilarini o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirish malaka oshirish jarayonida amalga oshirilsa, amaliyotda umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish ancha samarali bo'ladi hamda tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish tizimi kutilgan natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Suchting W. A. (1995). The nature of scientific thought. *(Science) and Education*, 4(1), 1–22.

2. Meichtry Y. (1998). Elementary (Science) methods: Developing and measuring student views about the nature of (Science). 231-242 Dordrecht, The Netherlands: Kluwer.

3. Lederman N. G. (1992). Students' and teachers' conceptions of the nature of (Science): A review of the research. *Journal of Research in (Science) Teaching*, 29, 331- 359.

4. NGSS Lead States (2013). *Next Generation (Science) Standards: For states by states*. The National Academies Press.

5. Abd-El-Khalick F., Bell R. L., Lederman N. G. (1998). The nature of (Science) and instructional practice: Making the unnatural natural. *(Science) Education*, 82, 417–436.

6. Lederman N. G., Abd-El-Khalick F., Bell R. L., Schwartz R. S. (2002). Views of nature of (Science) questionnaire: Toward valid and meaningful assessment of learners' conceptions of nature of (Science). *Journal of Research in (Science) Teaching*, 39(6), 497–521.

7. Lederman, N. G., Lederman J. S., Antink A. (2013). Nature of (Science) and scientific inquiry as contexts for the learning of (Science) and achievement of scientific literacy. *International Journal of Education in Mathematics, (Science) and Technology*, 1(3), 138–147.

MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV YONDASHUV

A.I.Kudratova,
Samarqand VPYMO'MM

Анотасија. Insonlarning tez o'zgaruvchan dunyoda moslashishi, raqobatbardosh hamda talab etiladigan kasb egasi bo'lishi uchun u nafaqat o'qish, yozish va matematika kabi an'anaviy ko'nikmalarga, balki XXI asrda zaruriy deb topilgan kompetensiyalarga ham ega bo'lishi lozim. Maqolada XXI asr kompetensiyalarning 4K modeli hamda undagi kreativ yondashish ko'nikmasi keltirilgan. Matematika darslarida kreativ yondashuv imkoniyatlari tahlil qilingan.

Калит so'zlar. XXI asr ko'nikmalari, 4K modeli, ijodiy yondashuv, matematika, o'quvchi.

Аннотация. Чтобы адаптироваться в быстро меняющемся мире и стать конкурентоспособным также востребованным специалистом, необходимо владеть не только традиционными навыками, такими как чтение, письмо и математика, но и компетенциями которые считаются необходимыми в XXI веке. В статье рассмотрена модель 4К и навык творческого подхода в ней. Анализируются возможности творческого подхода на уроках математики.

Ключевые слова. Навыки XXI века, модель 4К, творческий подход, математика, ученики.

Annotation. To adapt to a rapidly changing world and become a competitive and in-demand specialist, it is necessary to master not only traditional skills such as reading, writing and mathematics, but also competencies that are considered necessary in the 21st century. The article discusses the 4K model and the skill of a creative approach in it. The possibilities of a creative approach in mathematics lessons are analyzed.

Key words. 21st century skills, 4K model, creativity, mathematics, students.

Dunyoda global o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda insonlarning munosib yashashlari uchun XXI asr zarurriy ko'nikmalarning 4K modeli ishlab chiqildi.

Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking)- ma'lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, muammolarni hal qilish va faktlar va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmasi.

Muloqotga kirishish (Communication) - fikrlar, g'oyalar va his-tuyg'ularni og'zaki va yozma ravishda samarali ifoda etish ko'nikmasi.

Hamkorlik (Collaboration) - jamoada ishlash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, bilim va tajriba almashish, turli nuqtai nazarlarni qabul qilish va umumiy maqsadlarga erishish ko'nikmasi.

Ijodiy yondashuv (Creativity) – noan'anaviy fikrlash, yangi g'oyalarni topish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni hayotning turli sohalarida qo'llash ko'nikmasi.

Kreativ fikrlash (Creativity) o'quvchilarga yangi yondashuvlar va yechimlarni topish, muammolarni hal qilish va ishni boshqarish uchun kerakli g'oyalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Ta'limda ijodiy yondashuv - bu o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va innovatsion tafakkurini rivojlantirish uchun ularning individual ijodiy salohiyatini rag'batlantirishga asoslangan nazariy asoslangan pedagogik strategiya. Ushbu pedagogik kontsepsiya insonparvarlik, konstruktivizm va ta'limni

differentiallashtirish tamoyillariga asoslanadi, bu har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Ushbu ko'nikmaning ta'lim jarayonida zarurligi:

1. Fikrlash va innovatsiyalar uchun muhit yaratadi. Kreativ fikrlash, o'quvchilarga fikr va tushunchalarni ifodalash, yangi yondashuvlarni topish va innovatsiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu, ularning muammolarga yangi yechimlar topish uchun yaratuvchanlik muhitini shakllantirishga imkoniyat beradi.

2. To'g'ri mulohazalar yuritish hamda muammolarga yechim topishga undaydi.

3. O'quvchilarda mas'uliyat va yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, ularning muammolarga yangicha yechimlar topish, yangi yondashuvlarni izlash va inovatsiyalarni amalga oshirishlari uchun muhimdir.

4. Bir-birini qo'llab-quvvatlash, birgalikda yechimlar qidirish va mavaffaqiyatlaridan quvonish imkoniyati.

6. O'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqish darajasini oshiradi.

Matematika darslarida kreativ yondashun o'quvchilarning matematik tafakkur va yondashuvlarini rivojlantirishda juda muhimdir. Buning uchun:

- o'quvchilarga matematik qonuniyatlarni o'rgatish hamda muammolarni hal qilishning nostandart yechimlarni izlab topishga yo'naltirish;

- bir matematik masalani hal qilish uchun turli usullarni ishlab chiqish;

- o'quvchilarni kreativ fikrlashga ilhomlantirish uchun matematik o'yinlar, viktorinalar hamda kechalar tashkil etish;

- o'quvchilarni matematik savollar orqali tasavvur qilish va ilhomlashlari uchun ilhomlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish. Ularni savollarga turli turdagi yechimlar qidirish va topish uchun qiziqtirishni oshirish;

- matematik ma'lumotlarini tahlil qilish, o'z tushunchalarini ifodalash va ma'lumotlarini amaliyotga o'tkazishlari uchun jadval va grafiklarni muhokama qildirish. Bunda, o'quvchilarda ma'lumotlar bilan ishlash va hayotda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi.

Kreativ fikrlash, matematika darslarida o'quvchilarning matematik fikrlashlarini va yondashuvlarini rivojlantirishning kuchli vositasi bo'lib, ularni matematik muammolarni hal qilish uchun tajribalar o'tkazish orqali kompleks yechimlar ishlab chiqish yo'naltiradi.

Masalan, funksiyalar mavzusini o'tishda o'quvchilarda kreativlikni qanday rivojlantirish mumkinligini tahlil qilaylik.

ИССЛЕДОВАНИЕ АНАЛИЗА ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЧЕБНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ КЛЮЧЕВЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Абдурахмонов Азизжон Махмуджон угли,

*Джизакский политехнический институт, aziz_zver1998@mail.ru,
+998 94 340 61 22*

Аннотация. В данной работе рассматривается внедрение искусственного интеллекта (ИИ) в учебные процессы и его влияние на развитие ключевых профессиональных навыков студентов. Анализируются преимущества и вызовы интеграции ИИ в образовательную среду, а также предоставляются данные о результатах исследования, проведенного на базе использования адаптивных обучающих систем. В рамках исследования оцениваются такие аспекты, как улучшение академической успеваемости, повышение уровня вовлеченности студентов, развитие критического мышления и навыков решения проблем, а также снижение уровня академической неуспеваемости.

Abstract. This paper examines the introduction of artificial intelligence (AI) into educational processes and its impact on the development of key professional skills of students. The advantages and challenges of integrating AI into the educational environment are analyzed, and data on the results of research conducted on the basis of the use of adaptive learning systems is provided. The study evaluates aspects such as improving academic performance, increasing student engagement, developing critical thinking and problem-solving skills, and reducing academic failure rates.

Annotatsiya. Ushbu ishda o'quv jarayonlariga sun'iy intellekt (SI) joriy etilishi va uning talabalarining asosiy kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. SI ni ta'lim muhiti bilan integratsiya qilishning afzalliklari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi, shuningdek, adaptiv o'quv tizimlaridan foydalanish

asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltiriladi. Tadqiqot doirasida akademik muvaffaqiyatning yaxshilanishi, talabalar ishtirok darajasining oshishi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanishi, shuningdek, akademik muvaffaqiyatsizlik darajasining pasayishi kabi jihatlar baholanadi.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, студенты, навыки, адаптивные системы, успеваемость, вовлеченность, преподаватели, технологии, исследование

Key words: artificial intelligence, education, students, skills, adaptive systems, academic performance, engagement, teachers, technology, research

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim, talabalar, ko'nikmalar, adaptiv tizimlar, muvaffaqiyat, ishtirok, o'qituvchilar, texnologiyalar, tadqiqot

Введение. В современном мире искусственный интеллект (ИИ) приобретает все большее значение во всех сферах человеческой деятельности, включая образование. Внедрение ИИ в учебные процессы открывает новые возможности для повышения эффективности обучения, адаптации образовательных программ к индивидуальным потребностям студентов и развития ключевых профессиональных навыков. ИИ может способствовать более глубокому пониманию учебного материала, улучшению успеваемости и формированию навыков, необходимых для успешной профессиональной деятельности. Однако, несмотря на очевидные преимущества, интеграция ИИ в образовательные процессы сталкивается с рядом проблем, требующих комплексного анализа и поиска эффективных решений. Одной из основных проблем внедрения ИИ в учебные процессы является недостаток подготовленности преподавателей и образовательных учреждений к использованию новых технологий. Многие преподаватели не имеют достаточных знаний и навыков для эффективного применения ИИ в обучении, что ограничивает возможности его использования и снижает потенциальную эффективность. Кроме того, образовательные учреждения часто сталкиваются с нехваткой ресурсов и инфраструктуры, необходимых для интеграции ИИ в учебный процесс. Это может включать отсутствие необходимого программного обеспечения, оборудования и поддержки со стороны администрации. Для решения данной проблемы необходимо разработать комплексную программу подготовки преподавателей и модернизации инфраструктуры образовательных учреждений. Программа подготовки должна включать обучение преподавателей основам ИИ, методам его применения в учебном процессе, а также предоставление практических навыков работы с ИИ-инструментами. Важным аспектом является также создание платформы для обмена опытом и лучшими практиками среди преподавателей. Модернизация инфраструктуры должна предусматривать обеспечение учебных заведений необходимыми техническими средствами и программным обеспечением, а также создание условий для постоянного обновления и улучшения материально-технической базы.

Методология. Одной из методик, способствующих успешной интеграции ИИ в учебные процессы, является использование адаптивных обучающих систем на базе ИИ. Эти системы могут анализировать индивидуальные особенности каждого студента, включая уровень знаний, скорость усвоения материала и предпочтительные методы обучения. На основе полученных данных адаптивные системы могут создавать персонализированные учебные программы, которые учитывают сильные и слабые стороны каждого студента, что позволяет оптимизировать процесс обучения и повысить его эффективность. Примерами таких систем могут быть адаптивные онлайн-курсы, интеллектуальные репетиторы и системы анализа учебных достижений студентов.

Результат. Проведенное исследование по методике использования адаптивных обучающих систем на базе ИИ в учебных процессах показало значительные положительные результаты. Исследование включало выборку из 200 студентов различных специальностей, которые использовали адаптивные обучающие системы в течение одного учебного года. Основные результаты исследования можно представить следующим образом:

Улучшение академической успеваемости:

В результате использования адаптивных обучающих систем средний балл студентов повысился на 15%. Если до внедрения ИИ средний балл составлял 70%, то после внедрения он вырос до 80,5%. Это свидетельствует о более глубоком и качественном усвоении учебного материала студентами.

Увеличение уровня вовлеченности:

Исследование показало, что 85% студентов отметили увеличение интереса и вовлеченности в учебный процесс. До внедрения ИИ около 60% студентов считали учебный процесс интересным, тогда как после внедрения это число возросло до 90%.

Развитие ключевых профессиональных навыков:

Одним из важных аспектов исследования было измерение развития ключевых профессиональных навыков, таких как критическое мышление, решение проблем и навыки работы с данными. Оценка этих навыков проводилась на основе тестов и проектов, выполненных студентами. Результаты показали, что у 70% студентов наблюдалось значительное улучшение этих навыков. В частности, навыки решения проблем улучшились на 20%, а критическое мышление - на 18%.

Снижение уровня академической неуспеваемости:

До внедрения ИИ процент академической неуспеваемости составлял 12%. После внедрения адаптивных обучающих систем этот показатель снизился до 5%, что свидетельствует о повышении эффективности обучения и лучшей адаптации студентов к учебному процессу.

Положительная оценка преподавателей:

В ходе исследования также было проведено анкетирование преподавателей, использующих адаптивные обучающие системы. 90% преподавателей отметили улучшение качества учебного процесса и удобство

использования таких систем. 80% преподавателей выразили готовность продолжать использовать ИИ в будущем и рекомендовать его своим коллегам.

Заключение. Внедрение искусственного интеллекта в учебные процессы является перспективным направлением развития образования, которое может существенно повысить качество обучения и способствовать развитию ключевых профессиональных навыков студентов. Однако для достижения этих целей необходимо решить ряд проблем, связанных с подготовкой преподавателей и модернизацией инфраструктуры образовательных учреждений. Применение адаптивных обучающих систем на базе ИИ представляет собой эффективную методику, которая позволяет персонализировать учебный процесс и адаптировать его к индивидуальным потребностям студентов. Комплексный подход к интеграции ИИ в образование, включающий обучение преподавателей, модернизацию инфраструктуры и использование передовых технологий, позволит максимально реализовать потенциал ИИ и обеспечить качественное образование для студентов.

Литература.

1. Ахметова Л.В. Социально-педагогическая адаптация и профессиональное развитие личности в педагогическом вузе // Вестник ТГПУ 2010. № 4. С. 131.

2. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. In *НОВАЯ НАУКА: История становления, современное состояние, перспективы развития* (pp. 142-143).

3. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2023). Исследования знаний и навыков в области компьютерных технологий у будущих педагогов доо. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 624-627.

4. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2023). РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОО В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 628-631.

5. Зайнутдинова Л.Х. Создание и применение электронных учебников (на примере общетехнических дисциплин): монография. Астрахань: Изд-во ЦНЭП, 1999. 364 с.

6. Никифоров В.И., Сурыгин А.И. Теория и практика высшего профессионального образования. Термины, понятия и определения. СПб.: Изд-во Политех. ун-та, 2009. 141 с.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA MOTIVATSION TAYYORLIK

Oqilova Kamola Sadullayevna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalatga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti"*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, kompetentlik va kompetensiyalar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit soʻzlar. motiv, kompetentlik, motivatsiya, taraqqiyot, bilim, tajriba, rivojlanish, texnologiyalar.

Yangi Oʻzbekistonning mustahkam poydevori taʼlim tashkilotlarida yaratilishini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Yangi Oʻzbekistonning ostonasi maktabdan boshlanishi”ga urgʻu berish orqali taʼkidladi. Shunga muvofiq bugungi kunga kelib taʼlim maqsadlari tadrijiy rivojlanib, taraqqiyot tomon bormoqda. Bunday rivojlanishning jadal borishida esa oʻqituvchi bosh omil hisoblanadi.

Oʻqituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish yoʻnalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mazkur jarayonga ularning qiziqishlarini oshirish hamda koʻzlangan natijalarga erishishda dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarni tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, liderlik, ijtimoiy moʻljallanganlik, taʼlimni metodik jihatdan tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilishlik, moslashuvchanlik, masʼuliyat, uzluksiz va mustaqil bilim olishini ifodalovchi motivatsion tayyorlik kompetentligiga ega boʻlish majburiyatini belgilaydi.

Bu oʻz navbatida pedagog xodimning yangicha yondashuvlar, oʻzgarishlar, tamoyillar, chaqiriqlarga samarali munosabat bildirishi hamda mustaqil holda ongli va ijodiy oʻzgartirishlar kirita olish kompetentligini ham zaruriy koʻnikma tariqasida belgilash ehtiyojini vujudga keltiradi. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oʻqituvchilar uchun “taʼlim berishning zamonaviy nazariyalarini oʻzlashtirishni, pedagogik-psixologiyani tushunishni, taʼlim berishga kompetentlik hamda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvlarni egallash” va “xalq taʼlimini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib ilgʻor yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish” dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanishi bejiz emas.

Oʻz-oʻzini rivojlantirishga kompetentlik oʻqituvchining oʻz kasbiga nisbatan munosabatini ifodalaydi va unga faoliyatining konseptual loyihasi timsolida qaralishi pedagog xodimning doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar hamda pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan boʻlishini talab qiladi. Demak, ayni shu jarayon oʻqituvchidan oʻz faoliyatiga munosabatini oʻzgartirishni, zaruriyat tugʻilganda, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar, sohaga daxldor adabiyotlar tahlili xalq taʼlimi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan oʻqituvchining amaliy faoliyati hamda oʻz-oʻzini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligi oʻrtasida quyidagicha ziddiyatlar mavjudligini koʻrsatdi:

- uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida oʻqituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosiga pedagogik-psixologik jihatdan tegishli darajada eʼtibor qaratilmagan;

- jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq maktab taʼlimida oʻqituvchilarning yangiliklarga intiluvchanlik, oʻzgarishlarga qayishuvchanlik, ayni taʼlimiy jarayon va

bugungi kun o'quvchisiga moslashuvchanligi, ilmiy-metodik salohiyatini rivojlantirish bo'yicha pedagogik talablarning ortishi taqozosi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan;

- o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari aniqlanmagan;

- o'tkazilgan davra suhbatlari va tajriba-sinov ishlariga ko'ra, o'qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlanishga oid malaka oshirishning turli shakllari, jumladan, tashkil etiluvchi qisqa muddatli kurslar yuzasidan yetarli ma'lumotga ega emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, UKRga kompetentli yondashuvni amalga oshirish, o'qituvchining o'z kasbi doirasidagi talablarga muvofiq kompetentlik darajasini ko'tarish, jumladan, ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganish talab etiladi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish biroz murakkab, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, ularda yetarli darajada talqin etilgan, o'rganilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Pedagogik tushunchalar tarkibiga esa nisbatan keyingi yillarda kirib kelgan bo'lib, didaktik, metodik, xususan, ta'limda o'qitish tizimiga to'laqonli singdirilmagan va bu holat pedagogik tadqiqotlar davomida ularning ko'plab ta'riflari hamda talqinlari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, tadqiqotimiz davomida kompetentli yondashuv, kompetentlilik tushunchalariga to'xtalib o'tish motivatsion tayyorlik kompetentligining mohiyatini yoritishda ma'lum ma'noda xizmat qiladi. O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga kompetentli yondashuv kasbiy malaka talablarida ko'zda tutilgan shaxsiy samaradorlik, ta'lim mazmunini boyitish, ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bunda motivatsion tayyorlik, o'qituvchilarning qiziqishlarini orttirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarini yangi vaziyatlarda qo'llash, kuzatishlar yuzasidan xulosalar chiqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga turtki beradigan, kasbiy ehtiyojlarni qondiradigan o'quv dasturlarini taklif qilish malaka oshirishning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim – o'qituvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amalda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan birgalikda, ularda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb tanlash va unga to'g'ri munosabatda bo'lish kabi sog'lom raqobat ko'nikmalarini shakllantiradi, nafaqat o'quvchilarga ta'lim berishda, balki o'z-o'zini o'qitib borishda ham uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilishni ta'minlaydi.

Olimlarning fikriga ko'ra, "kompetensiya" shaxs mukammal biladigan predmet – soha bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi uchun tayyor ekanligi o'lchovi hisoblanadi. "Kompetentlik" tushunchasini esa undan farqli o'laroq, shaxsning yo'nalitirilgan

tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat ko'rsata olish ko'nikmasi ekanligini ta'kidlaydilar.

O.Qo'ysinov kompetentlikni bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ulardan kerak vaqtda hamda o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida foydalana olish demakdir, deya ta'riflaydi. Tadqiqotchi kompetentlikning murakkab, integral xarakterini tavsiflar ekan, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko'rsatilganligini ta'kidlaydi:

1) integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

2) ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehn-idrok, odamlarning xulq-atvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadaliigi;

3) boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo'yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar.

Sh.S.Sharipovning fikricha, kompetentlik – shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarini uning ijtimoiy professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga yetarliligi hamda haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi [9].

Boshqa bir holatda kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogik tashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik singari kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar bilan bir qatorga qo'yadilar. Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadigan kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi .

Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan hamda o'rganib chiqilgan.

Demak, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin bo'lgan faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyatida yuzaga chiqadi. Umuman, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan, kasb sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofda obyektlar va subyektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar hamda kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasidir. Kompetentlikning shakllanganligi borasida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentliligi darajasi uning bajargan ishi shu

kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-son.

2. Sharipov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchisi kompetentligini ta’minlashda ilmiy-metodologik yondashuvlar. /<http://dr-sharipov.com/2014/03/02>.

3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

4. Pedagogika / V.A.Slasyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov; Pod red. V.A.Slasyonina. – M.: «Akademiya», 2002. – 576 s.

5. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.

6. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.

7. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: diss. ... ped. fan. dok. (DSc). – Toshkent, 2019. 237 b.

8. Elektron resurs: <http://www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm>.

MAMLAKATIMIZDAGI TA’LIMGA OID ONLAYN TA’LIM PLATFORMALARNING TAHLILI

Xujakulov Sherzod Amankulovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga

o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi. E-mail: timlandiya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limga oid platformalar hamda mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohatlar, pedagoglarni axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash haqida tuxtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, axborot, axborot-metodik, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash, platformalar, portallar, veb-saytlar.

Hozirgi kunda ta’lim tizimini axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi hamda turli xil resurslardan, jumladan, veb-saytlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda ta’lim faoliyatini axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan veb-saytlar (platformalar) ko‘payib bormoqda. Ushbu veb-saytlar dars rejalari, onlayn kontentlar, davomatlar, mashg‘ulotlar va baholashlar kabi keng ko‘lamli resurslarni taklif etadi.

Xalqaro ta’lim bozorida onlayn o‘qitish salmog‘ining oshib borayotganligi mazkur soha imkoniyatlari, rivojlanish istiqbollari, ilmiy, nazariy va amaliy asoslarini

o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Jumladan, Garvard Kennedi maktabi iqtisodchisi, doktor Devid Deming onlayn ta'lim inqilobining xususiyatlari, Garvard Biznes maktabini professori Ashley Whillans onlayn ta'limning inson hayotini o'zgartirishiga ta'siri, Josh Bersin onlayn ta'limning istiqbollari, Matthieu Cisel, David Pontalier] bilim bozorlarida biznes modellarining o'qituvchilar motivatsiyasi va strategiyalari ta'siriga doir izlanishlar olib borishgan.

O'quv jarayonlarini axborot-metodik qo'llab-quvvatlashga doir platformalar turli imkoniyatlarni, ya'ni videolar, maqolalar va amaliy masalalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamlı ta'lim resurslarini taklif qilishi, o'quvchilarga yangi materialni o'rganishi, o'qituvchilarga kasbiy mahoratini oshirish, mutaxassisligiga oid so'nggi yangiliklar va ilg'or tajribalardan xabardor bo'lishga yordam berishi bilan bog'liq respublikamiz olimlari tomonidan tadqiqot obyekti sifatida birmuncha o'rganilgan. Ularning sirasiga T.I.Abdukarimov [1], F.M.Rahimov, S.H.Yuldasheva [2], S.A.Xamraev, S.A.Sattorov [4], Z.B.Abdukarimova, S.N.Nabieva [5], D.S.Usmonova, S.S.Navruzova [3], R.S.Abdurahmonov, F.Sh.Ubaydullaevlarni [6] kiritish mumkin. Tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari asosida o'quv jarayonini axborot-metodik qo'llab-quvvatlashda veb-saytlarning ahamiyatini yuqori baholashadi hamda o'qituvchilar, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilarini ma'lumot va resurslar bilan ta'minlashda samarali vosita bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelishadi.

Mamlakatimizda onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish birmuncha orqada ekanligini milliy qidiruv tizimiga murojat qilganimizda guvohi bo'ldik. Quyida keltirilgan ro'yxatda ta'limga oid saytlarning birortasi murojaatlar bo'yicha yuqori 40 talikka kirmaganligi ham mamlakatimizda sohaga daxldor platformalarning nufuzini oshirish kerakligini ifodalaydi (1-rasm)

Saytlar reytingi

23.07.2023

O'rin	Resurs nomi	TAS-IX	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar	Barcha yo'nalishlar
1	Qalampir - Правда бывает горькой		94 178	258 117	Ta'lim
2	CA - новости футбола Центральной Азии		91 213	443 107	Ilm
3	Stadion.UZ - Новости футбола		57 554	276 453	Madaniyat
5	Gov.uz - Правительственный портал Республики Узбекистан.	tas-ix	42 134	414 140	Sport
6	Единый портал интерактивных государственных услуг	tas-ix	40 084	407 670	Jamiyat
7	OLAMSPORT - новости спорта Центральной Азии		34 639	77 979	IT-industriya
8	Mover.uz - Видеоролики онлайн	tas-ix	32 040	113 298	Biznes
9	Lex.uz - Законодательство Узбекистана	tas-ix	27 487	74 215	E-tijorat new
10	Агентство по оценке знаний и квалификаций		24 323	48 025	Yangiliklar va OAV
11	Golden Pages - Золотые страницы Узбекистана		23 819	39 131	Hordiq

umumiy ro'yxat →

1-rasm. O'zbekistonda eng ko'p murojaat qilingan saytlar reytingi (<https://www.uz/uz>)

Ta'limga oid saytlarning reytingi bilan qiziqib ko'radigan bo'lsak, bu holatda ham, asosan, ko'proq so'rovlar universitet va ma'lumot beruvchi saytlarga ekanligini ko'rish mumkin. (2-rasm)

O'rin	Resurs nomi	TAS-IX	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar	Barcha yo'nalishlar
1	Портал открытый бюджет Республики Узбекистан		13693	24320	Ta'lim
2	Андижанский государственный медицинский институт		11413	47336	Ilm
3	IDUM.UZ - Портал для учителей и учеников		8922	16485	Madaniyat
4	ZiyoUz - Культурно-просветительский портал		7700	15324	Sport
5	Архив.уз		5052	18737	Jamiyat
6	Ферганский филиал ТУИТ		4401	7724	IT-industriya
7	Ташкентский Университет Информационных Технологий		4238	9104	Biznes
8	Grantlar.uz - Гранты на обучение		3864	7896	E-Ijorat new
9	Гулистанский Государственный Университет		3832	7589	Yangiliklar va OAV
10	Бухарский государственный университет		3091	4720	Hordiq

umumiy ro'yxat →

2-rasm. Ta'lim yo'nalishidagi saytlar tahlili https://www.uz/uz?cat_id=289

Ta'lim jarayonlarini axborot-metodik qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ta'lim platformalarining samaradorligini baholash uchun ularning mazmuni va funktsionalligini tahlil qilish muhimdir. Ushbu tahlillar quyidagi omillarga qaratilishi maqsadga muvofiq:

kontentning sifati – platforma mazmunan aniq, dolzarb va foydalanuvchilarning ta'lim ehtiyojlariga mos bo'lishi;

foydalanuvchilar uchun qulayligi – qidiruv tizimining qulayligi, ekranga moshlashuvchanligi, ko'rinishi jihatidan o'ziga jalb qilishi hamda tuzilmaviy yaxshi tashkil etilgan va ma'lumotlarni topish oson bo'lishi;

interaktivligi – kontent bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatini taklif qilishi, faoliyat, baholash, admin, o'qituvchi yoki boshqa ishtirokchilar bilan onlayn muloqat qila olishi;

kirishning osonligi – qisqa va kichik hajmli ma'lumotni taqdim etgan holda ro'yxatdan o'tish yoki ochiq holda foydalanish imkoniyatini taqdim qilishi;

maqsadli auditoriyasi – o'qituvchilar, talabalar yoki ota-onalar kabi ma'lum bir toifa auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lishi;

multimediadan foydalanish – video, tasvir va audio yozuvlar kabi multimedia elementlaridan keng va o'rinli foydalanilishi;

qo'llab-quvvatlashning mavjudligi – foydalanuvchilarni doimiy qo'llab-quvvatlash, FAQ bo'limi yoki aloqa formasi kabi murojaat imkoniyatlari tashkil etilgan bo'lishi.

Bu omillarning barchasini inobatga olgan holda, ta'lim faoliyatini yuqori sifatli axborot-metodik qo'llab-quvvatlovchi veb-saytlarni aniqlash mumkin. Ushbu veb-saytlar o'z bilimini qo'llab-quvvatlash uchun manbalar izlayotgan o'qituvchilar, talabalar, ota-onalar va boshqa foydalanuvchilar uchun qimmatli vosita bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim jarayonlarini axborot-metodik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan veb-saytlar (platformalar) tahlili ushbu resurslarning mavjudligi ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim qadamdir. Yuqorida sanab o'tilgan omillarni hisobga olgan holda sifatli kontent, foydalanuvchilarga qulay funktsionallik va interaktiv xususiyatlarni taklif qiluvchi veb-saytlarni aniqlash

mumkin. Ushbu veb-saytlar ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun qimmatli vositalar bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdukarimov T.I. O'zbekistonda ta'lim jarayonini axborot ta'minoti: muammolar va ularni hal qilish yo'llari // Toshkent davlat universiteti axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 147-152.

2. Rahimov F.M., Yuldasheva S. H. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ta'lim jarayonlarini axborot-metodik ta'minlash // "Fan va ta'lim axborotnomasi". – Toshkent, 2019. – № 22-3. – B. 120-122.

3. Usmonova D.S., Navruzova S.S. Universitetda O'quv jarayonini axborot-metodik ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish // "Fan va ta'lim axborotnomasi", – Toshkent, 2019. – № 21-2. – B. 112-114.

4. Xamraev S.A., Sattorov S.A. Universitetda O'quv jarayonlarini axborot-metodik ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish // "Fan va ta'lim axborotnomasi". – Toshkent, 2019. – №18-2. 117-119.

5. Абдукаримова З.Б., Набиева С.Н. "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida Ўқув жараёнини ахборот-методик таъминлаш // Фан ва таълим ахборотномаси. – Тошкент, 2019. – №20-2. – Б. 114-116.

6. Абдурахмонов Р.С., Убайдуллаев Ф.Ш. (2019). "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida Ўқув жараёнини ахборот-методик таъминлаш // Фан ва таълим ахборотномаси. – Тошкент, 2019. – № 23-2. – Б. 110-112.

7. Ashley Whillans [Elektron resurs]. – URL: <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/profile.aspx?facId=943704&view=featured-work>

8. David Deming. "The Online Learning Revolution" [Elektron resurs]. – URL: <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.p20151024>.

9. Josh Bersin [Elektron resurs]. – URL: <https://joshbersin.com/2015/12/the-use-of-moocs-and-online-education-is-exploding-heres-why/>

10. Matthieu Cisel, David Pontalier. "Knowledge Marketplaces: An Analysis of the Influence of Business Models on Instructors' Motivations and Strategies" [Elektron resurs]. – URL: <https://www.irrodl.org/index.php/irrodl/article/view/5459/5554>

PEDAGOGIK KREATIVLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHALARI TALQINI

Eshkuvatov Jasur Buribayevich,

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktranti

Annotatsiya. Maqolada turli pedagogik adabiyot va manbalarni to'plash, o'rganish va tahlil qilish asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan kreativlik hamda pedagogik kreativlik tushunchalari bo'yicha keltirilgan nazariy-ilmiiy ta'riflar tavsifi hamda mohiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, tahliliiy yondashuvlarimiz asosida pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish bo'yicha tegishli tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch soʻzlar: pedagogik kreativlik, kreativ tafakkur, tezkor fikrlash, ijodkorlik, kreativlik, pragmatika, kompetensiya, kritik tafakkur, kommunikatsiya, kolloboratsiya, akmeologik.

Annotation: In the article, based on the collection, study and analysis of various pedagogical literature and sources, detailed information is provided about the description and essence of the theoretical-scientific definitions given by research scientists on the concepts of creativity and pedagogical creativity. Also, on the basis of our analytical approaches, appropriate recommendations for the development of creativity among pedagogues are presented.

Key words: pedagogical creativity, creative thinking, quick thinking, creativity, creativity, pragmatics, competence, critical thinking, communication, collaboration, acmeological.

Аннотация: В статье на основе сбора, изучения и анализа различной педагогической литературы и источников дана подробная информация об описании и сущности теоретико-научных определений, данных учеными-исследователями понятиям творчества и педагогического творчества. Также на основе наших аналитических подходов представлены соответствующие рекомендации по развитию творческих способностей педагогов.

Ключевые слова: педагогическое творчество, творческое мышление, быстрота мышления, креативность, креативность, прагматика, компетентность, критическое мышление, общение, сотрудничество, акмеологическое.

Mamlakatimizning kelajagi, istiqboli va islohotlarning muvaffaqiyati koʻp jihatdan taʼlim sohasida olib borilayotgan oʻqituvchi-pedagoglarning kreativligi, saviyasi, fidoyiligi, tayyorgarligi hamda yosh avlodga taʼlim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bogʻliq. Uzluksiz taʼlim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni samarali natijalarga olib keluvchi ilmiy-nazariy bilimlar bilan birgalikda kreativ faoliyatga undovchi amaliy koʻnikmalar bilan ham doimiy qurollantirib borish zamon talabidir. Pedagogik taʼlimda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning imkoniyatlaridan foydalanishga ustuvorlik berish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda uzluksiz taʼlimni, jumladan, umumiy oʻrta taʼlim tizimini modernizatsiya qilish taʼlim va tarbiyaning anʼanaviy usullarini ijodkorlikka yoʻnaltirilgan usullarga almashtirish zarurati paydo boʻlmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Jamiyatimizda bogʻcha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-oʻqituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning toʻrt tayanch ustuni deb eʼtirof etmoqdamiz”. Darhaqiqat, mamlakatimizda soʻnggi yillarda ilm-fan va taʼlim-tarbiya sohasini davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, “Taʼlim sohasining yana bir muhim vazifasi – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlgan, Vatan va xalq manfaatlarini qatʼiy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat” [1] deb, tariflashida ham katta hur maʼno mujassam.

Bugun zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, kreativ, yuqori salohiyatli va yaratuvchan pedagog bo'lish davr talabi bo'lib kelmoqda.

Jamiyatimizda pedagoglar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunda hamda "Pedagoglar malakasini oshirish ularga o'z kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilab borish" ta'kidlanadi [2], deyilgan moddada ham aniq belgilab berilgan.

Butunjahon iqtisodiy forumida taqdim etilgan ta'lim modelining bosh g'oyasini "4K: kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolloboratsiya" ko'nikmalari tashkil etishi ham ta'lim sohasida yuqori natijalar ko'rsatayotgan davlatlarda bu kompetensiyalarning prerogativligiga [3] mutanosibligini ko'rsatadi.

YuNESKO kattalar ta'limini XXI asrda "eshiklarni ochuvchi kalit" [4] deb e'tirof etdi. Jahon miqyosida pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, akmeologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o'qitishning an'anaviy hamda zamonaviy metodlaridan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [5].

Pedagogik ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning imkoniyatlaridan keng foydalanishga ustuvorlik berish, uzluksiz ta'lim tizimini jumladan, umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'lim va tarbiyaning an'anaviy usullarini ijodkorlikka yo'naltirilgan usullarga almashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash, faoliyatlarini loyihalashtirish, ular orqali o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, egallagan bilimlarini ijodiy qo'llash, kreativlikni rivojlantirishga doir kompetensiyalarini mustahkamlash ehtiyoji mavjud.

Shu o'rinda kreativlik, ijod, kreativ tafakkur tushunchalariga alohida to'xtalib o'tsak.

Kreativ shaxslarning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Tadqiqotchi olim R.E. Goldsmithning ta'kidiga ko'ra kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishdagi asosiy vositadir. Zero, kreativlik zamonaviy dars mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil sanaladi [6; 4 b].

Bir vaqtning o'zida bir nechta turli masalalarning yechimini topishga erishish, o'z faoliyatida innovatsion yangiliklarni, noodatiy g'oyalarni qo'llay olish malakasiga ega bo'lish bugungi kun pedagogiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biridir. Bu esa ulardan kreativ kompetentlikka ega bo'lishni taqozo etadi.

Kreativlik insonning ijodiy qobiliyatlari orqali yangilik yaratish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bunday ijodkorlik umuman boshqa-boshqa, turli faoliyat sohalarida, muloqot davomida, fikrlash jarayonida va hatto his-tuyg'ularda namoyon bo'lishi ham mumkin. Kreativlik – bu qobiliyatlilik, yangi g'oyalarga nisbatan o'tkir

zehnlilik, masala va muammolarni noodatiy usullar orqali hal eta olish hodisasidir. Kreativ inson yuqori ustunlikka ega bo‘lib, ishdagi hamkasblaridan ajralib turadi, u qiziqarli suhbatdosh va eng qiyin vaziyatlarda yengil yechim topa biladigan inson hisoblanadi. Kreativ inson atrofdagilarga nisbatan o‘ta sabrli, og‘ir-vazmin, dunyoni o‘z qarashlari bilan kuzatadi.

Falsafiy ensiklopediya lug‘atida kreativlik (lot. *Creo* - ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarning noodatiy ko‘rinishda yechimini topishga yo‘naltirilgan ijodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi [7].

“Psixologiyada kreativlik insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi (fikrlash, his - tuyg‘ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini”, [8;7 b] ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi.

G‘arbda kreativlik ijodning texnologik elementi sifatida talqin etiladi. Axborot davriga qadar kreativlik va kreativ texnologiyalar haqida kamdan kam odamlar ma‘lumotga ega bo‘lgan.

Jumladan, Suqrot kreativlikni yo‘qlikdan borliqning tug‘ilishi sifatida baholaydi. Uningcha, ijod – insonning asl faoliyat jarayoni bo‘lib, uning natijasida sifat jihatidan yangi moddiy va ma‘naviy qadriyatlar yaratiladi, yangi buyumlar, xulq, muloqot usullari, tasavvurlar va bilimlar shakllanadi. Ijod jarayonida nafaqat obyektiv borliq hodisalari va buyumlari, balki, ularning mavjudligi yoki vujudga kelish maqsadi, shartlari va sabablari anglanadi [9]. Aflotunning qarashlarida kreativlik insonning turli tushunchalar yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati bo‘lsa, kreativ tafakkur uni kundalik amaliy faoliyatga tatbiq zarurati tarzida qaraladi [10]. Arastu esa “ijod o‘z-o‘zini anglashdagi determinallashgan faoliyat bo‘lib, u bilimning yangidan yangi sifat ko‘rsatkichlarini yuzaga keltiradi”, deya ta‘riflaydi hamda “kreativlik” va “kreativ tafakkur” tushunchalarini ajratishga harakat qiladi, uning fikricha “kreativlik” ijodiy imkoniyatning ijodiy voqelikka o‘tish jarayoni, “kreativ tafakkur” esa shu jarayonning pirovard natijasini ko‘rsatadi. Lekin, faylasuf keyingi mulohazalarida ushbu fikrlarini rivojlantirmaydi va ularni bir-biriga o‘xshash, o‘zaro to‘ldiruvchi mazmunida foydalanadi [11].

G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan‘anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e‘tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma‘noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabar bo‘lishlari mumkin.

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuyi” sanaladi [12].

Gardner “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”, deb izohlaydi [13].

Emebayl esa kreativlikni “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishdir” deb tushuntiradi [14].

G.M.Kodjaspirovaning pedagogik lug‘atida kreativlik ijodiy qobiliyat va shaxsning barqaror xarakteristikasini tashkil etuvchi omil sifatida talqin qilinadi [15]. Abraxam Maslouning so‘zlariga ko‘ra [16], kreativlik – o‘z-o‘zini yuksaltirish, ya’ni o‘z shaxsiy imkoniyatlarini butunlay rivojlantirishga qodir bo‘lgan insonlarning universal xususiyati hisoblanadi. Birgina ijodda inson o‘zining ichki imkoniyatlarini bir qolipga tushib qolgan holatda emas, balki original tarzda harakatlanib, namoyon qilishi mumkin.

Ushbu ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, kreativlik har bir shaxs, ayniqsa, o‘qituvchi pedagogning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. Kreativlik – bu mavjud bilim va ko‘nikmalarga tayangan holda kutilmagan qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bundan kelib chiqadiki, kreativlik – insonga biron-bir yangilik yaratishda yordam beradigan, uning ijodiy imkoniyatlari hisoblanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatdir.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talaba o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Dunyo ta’limida barcha sohalarning mutaxassisleri kabi o‘qituvchilarga ham kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab borish muhim, deb qaraladi. Buning natijasida ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tkaziladi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original) lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanoatlantirishi lozim [17].

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” [18] tushunchasi negizida quyidagi muammolar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlar.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil

etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda [19].

Pedagogikada kreativlik (ijodiylik) “qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon, shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati” [20; 198-b.] sifatida ta’riflanadi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Ushbu xususiyatlar ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli ravishda yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Ba’zan “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalari sinonim tarzda ham qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin, lekin ijodkorlik – bu jarayon, kreativlik esa – ijod bilan shug‘ullanishga yordam beruvchi qobiliyatdir. Ya’ni, biror kishida kreativlik rivojlangan bo‘lsa, o‘sha inson uchun ijod qilish bir muncha oson kechadi. Insondagi ushbu xususiyat, undagi psixik jarayonlar bilan bog‘liq.

Psixologiyada belgilanishicha kreativlik – insonning ijodiy qobiliyatlarini aniqlovchi o‘ziga xos xususiyat sifatida ta’riflanadi [21]. Ijodkorlik – bu muallifning ilhomi va qobiliyatidir. Barchamizga ma’lumki, kompozitorlar, rassomlar, yozuvchilar va boshqa ijodkorlar, faqat o‘zining his-tuyg‘ulari va kayfiyatiga qarab san’at asarlarini yaratadilar.

Kreativ jarayon esa pragmatik element, pragmatik maqsadlarga ega. Kreativ inson o‘z buyum yoki mahsulotini yarata turib, nima uchun, kim uchun, kimga foydasi tegishi, uni qanday yasash va buning uchun aynan nima qilish kerakligi haqida aniq biladi. Masalan, kreativ rassom o‘z kartinasini yarata turib, ma’lum mavzuni tanlagan holda, kartina kimlar uchun qiziq bo‘lishi, tomoshabinlar diqqatini tortishi uchun qanday ramkada bezashi va qaysi muzey yoki dargohda uni namoyish qilishi kerakligi haqida oldindan biladi.

Shu tufayli, ijodkorlik va kreativlik bir-biridan tubdan farq qiluvchi tushunchalardir. Kreativlik yoki kreativ texnologiyalar haqida ma’lumotlar berilishidan avvalgi davrlarda hech kim, hech qachon u haqida so‘z ochmagan. Insoniyat uchun “ijodkorlik” tushunchasining o‘zi yetarli bo‘lib, antik davrlardan boshlab o‘ta yuqori darajada qadrlangan. Ijodga bo‘lgan ehtirom va qiziqish XXI asrga kelib yanada muhim ahamiyat kasb etdi. Insonda ijodiy imkoniyat va qobiliyatlarning shakllanishi haqida bir necha farazlar mavjud. Ba’zi olimlar, insonda ijodiy qobiliyatlar asta-sekin uzoq vaqt davomida rivojlangan, deb hisoblaydi. Ushbu

qobiliyatlarning paydo bo'lishi insoniyatning demografik va madaniy o'zgarishlariga borib taqaladi.

Boshqa qarashlar, ya'ni Stendford universiteti antropologi Richard Klaynning 2002-yilda bildirgan so'zlariga ko'ra, kreativlik va ijodkorlik sakrash tarzida rivojlangan va kutilmagan genetik mutatsiya natijasi hisoblanib, bu hodisa taxminan ellik ming yil avval sodir bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga xulosa sifatida, ijodkorlik – birlamchi, kreativlik esa ikkilamchi tushuncha ekanligini ta'kidlash mumkin. Kreativlik – ijodkorlikka tayangan va usiz mavjud bo'lishning o'zi ilojisiz, bu shunchaki ijodkorlik jarayonini tashkillashtirish texnologiyasi hamdir. Ijodsiz kreativlik mevasiz daraxt kabidir, kreativliksiz ijod esa mashhurlikka erisha olmaydi, shuning uchun ijodkorlik va kreativlik o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Yangi o'zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazeta 2021-yil, 30-sentyabr № 145 (451).
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi 901-sonli Qonun, 10-modda.
3. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, UNESCO, 2016 [Elektron resurs] – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000244022> (murojaat vaqti 20.11.2023 y.).
4. Kattalarni o'qitishning mazmuni va kelajagi to'g'risidagi YuNESKO deklaratsiyasi. 1997 y. URL: <http://unesdoc.unesco.org/245179r.pdf>.
5. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. - Гамбург. - 2011. URL: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694>.
6. Goldsmith R. E. Creative level and creative style // British Journal of Social Psychology. (1987) № 26. – pp. 317-323.
7. Философия: Энциклопедический словарь. — М.: Гардарики. Под редакцией А.А.Ивина. 2004. Большой психологический словарь. — М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г. Мещерякова, акад. В.П. Зинченко. 2003.
8. Большой психологический словарь. - М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г. Мещерякова, акад. В.П. Зинченко. 2003.
9. Грекова В.С. Творчество и креативность – компаративный анализ [Электронный ресурс] – URL: <https://articlekz.com/article/10617> (дата обращения: 9.03.2023 й.).
10. Sherov M.B. Kreativ tafakkur haqidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasi [Elektron resurs] – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-tafakkur-a-idagi-falsafiy-arashlar-evolyutsiyasi> (murojaat vaqti 12.03.2023 y.).
11. Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. Изд.3. – М.: УРСС, 2009. – 368.
12. Кен Робинсон «Школа будущего» М.ООО «Манн Иванов и Фербер» 2016, 167 б.
13. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта// Психология мышления. – М., 1965. – 534 с. – С. 433-456.

14. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта// Психология мышления. – М., 1965. – 534 с. – С. 433-456.

15. Терминологический словарь современного педагога. М.: 1999. <http://didacts.ru/dictionary/1032>.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Turapov Voxid Mamadiyorovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqlik, sifat va ta'sirchanlikni ta'minlash, axborotning dunyo bo'ylab keng yoyilishi imkoniyatini yaratishda "butun jahon o'rgimchak to'ri"ning ahamiyati katta va aynan mana shu omil undan foydalanish ehtiyojini to-bora orttirmoqda. Yangi yuz yillikda O'zbekistonga ham internet shiddat bilan kirib keldi va kundalik hayotda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: Axborot, jamiyat, internet, fan-texnika, inson, kinofilm, gazeta, jurnal, kitob, radio, kitob, mobil telefon, kompyuter.

Abstract: In this article, in the process of information transmission, exchange and reception, ensuring speed, accuracy, quality and effectiveness, creating the possibility of wide distribution of information around the world, the importance of the "worldwide spider web" is great, and this is precisely this factor. the need to use it is increasing. In the new century, the Internet entered Uzbekistan rapidly and took its place in everyday life.

Key words: Information, society, internet, science and technology, human, film, newspaper, magazine, book, radio, book, mobile phone, computer.

Аннотация: В данной статье в процессе передачи, обмена и приема информации, обеспечении скорости, точности, качества и эффективности, создании возможности широкого распространения информации по всему миру значение «всемирной паутины» велико, и это Именно этот фактор увеличивает потребность в его использовании. В новом веке Интернет стремительно проник в Узбекистан и занял свое место в повседневной жизни.

Ключевые слова: Информация, общество, Интернет, наука и техника, человек, фильм, газета, журнал, книга, радио, книга, мобильный телефон, компьютер.

Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg'or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta'minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi.

2008 yilga kelib mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 2 million 200 ming kishidan oshib ketdi. Fan-texnika yutuqlari inson manfaatlarini, ezgu maqsadlar yo'lida xizmat qilishi lozim, albatta. Biroq ayrim kuchlar virtual olamdan g'arazli niyatlari yo'lida foydalanyotgani ham ayni haqiqatdir. Psixologlarning fikriga ko'ra, axolining faqat 15-25 foizi axborotni tan qidiy nuqtai na-zardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa olingan axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi. Buning oqibatida ommaviy axborotning hozirgi zamon vositalari va usullari jamiyat boshqaruvchanligini ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishidan qat'i nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeyini egallash ekani ayon bo'lib qoldi. Jahonda "axborot urushi" ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmogsa, deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Postindustrial inqilob, axborotlashuv va globallasuv jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz axolisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashmoq zarur. Davlatimiz rahbari

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanayotir.

Ammo, G'arb madaniyatiga taalluqli ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Ayni o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joiz. "Oynai jahon" seriallar bilan to'lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko'rishga sarflashi ta'lim sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Darvoqye, gazeta va jurnal sahifalarida chop etilayotgan axborot hamda ma'lumotlarning mazmunan sayozligi ham yoshlarimiz tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XXI asr boshida hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi oqibatida avtoritet - nufuz masalasi xam yangicha ma'no kasb etayotir. Ba'zi yoshlar o'zining bilim olish va hayotga munosabatini belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiyni emas, OAV hamda internetni avtoritet sifatida e'tirof etishi, ulardagi axborot va ma'lumotlarni mutlaq chin deb ishonishi tashvishlanarli holdir.

Tajribasi ham bo'lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan OAV hamda internet shakllantirmokda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'yimokda. Axborotning katta oqimi

sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigak axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi.

Ongli inson borki, hayotining har lahzasida yo axborot oladi, yo uni idrok etadi va yoki uzatadi. Ushbu uch jarayonning to'rtinchisi — keraksiz axborotdan xalos bo'lish. Biz axborot erkinligi haqida juda ko'p gapirdik, endi esa keraksiz axborotdan qutulish muammosi yo'limizda ko'ndalang bo'lib turibdi. Afsuski, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda mulkingizga aylangan axborot yig'indisi xonadoningizda hosil bo'lgan chiqindi emaski, undan osongina voz kechsangiz. Axborot madaniyati mazkur to'rt bosqichli jarayon ichida eson-omon yashash hamda faoliyat yuritishga zamin yaratadi, doimiy yordamchiga aylanadi. Murakkabdan-murakkab, serqatlam axborot almashinuv jarayoni sohalar, jamiyatlar, mamlakatlar, mintaqalar va dunyo miqyosida keng ko'lamlarda kechayotganini tasavvur qilib ko'rsak, so'z yuritilayotgan mavzuning ham ilmiy, ham amaliy ahamiyati naqadar ulkanligi ayonlashadi. Biroq mazkur haqiqatni to'la anglashga tasavvurimiz hamda aql-idrokimiz imkoniyatlari qodirmikan?

Qodir bo'lmagani uchun ham inson bu qadar mislsiz, zalvorli yukni axborot vositalari zimmasiga yukladi. Gazeta, jurnal, kitob, radio, televideniye, telefon, faks, kompyuter, internet, mobil telefon sharofati bilan Yer yuzi mo'jaz "qishloq"qa aylandi-qo'ydi. Ikki dunyoni bir qadamga aylantirgan ham axborot, globallashuv jarayonlari maxraji, ustqurmasi ham axborot. Zamonaviy taraqqiyot, farovonligu farog'atning noni, suvi, havosi ham shu! Sanab o'tilgan axborot vositalarining ko'zga ko'rinmas changalidan tashqarida yashayotgan odam yo'q hisobi. Ularning barchasi oddiy turmush tarzining ajralmas zaruratiga, ta'bir joiz bo'lsa, tanamizning "a'zosi"ga aylanib bo'ldi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Veb-sayt:www.president.uz Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. 26.01.2022
2. Otamurodov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik. T., "O'zbekiston", 2015.
3. UmarovaN. Globallashuv sharoitida axborot hurujlariga qarshi kurash. - T.: Akademiya, 2005.
4. S.G'ulomov, S.Shermuhammedov, B. Begalov. Axborotlashgan jamiyatning mujassamlanishi. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", 1999., yanvar-fevral. -B.7.

YURTIMIZ MAHALLALARIDA DAVLATIMIZ TOMONIDAN AYOLLARGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR VA ULARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Davletova Dilshoda Bahodir qizi,
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti Pedagogika-
Psixologiya kafedrasida 1-bosqich tayanch doktoranti*

Anotatsiya. Ushbu maqola orqali bugungi kunda yurtimizdagi mahallalarda istiqomat qilayotgan ayollarning bugungi kundagi imkoniyatlari, ularning jamiyatda ko'rsatayotgan tashabbuslari, barcha hotin-qizlarga davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va boshqalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: "Ayollar daftari", "Ishbilarmon ayol", "Xotin-qizlar jamg'armasi", "Mahalla ayollari", kashtachilik, gilamchilik,

Rivojlanib, kundan kunga mukammalashib borayotgan bugungi davrni ayollarning har bir sohadagi ahamiyatli bo'lgan o'rnisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi zamonaviy va ishbilarmon, keng dunyoqarashli o'zbek ayoli kechagisidan farq qiladi. Ayollarning jamiyat rivojiga qo'shayotgan xissasi bugungi kunga kelib nafaqat oila va ro'zg'or uchun balki butun jamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz tomonidan ularga berilayotgan e'tiborning esa chek-chegarasi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 1-mart, PF-81-sonli Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni fikrimiz dalili bo'la oladi.

Farmonga asosan bugungi kunda ayollarga bo'lgan har taraflama qo'llab – quvvatlashni ko'rish mumkin. Oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish kabi vazifalar bugungi kunda barcha mahallalarda amalga oshirilib kelinmoqda. Bulardan tashqari Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasini Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etish hamda qo'mita tuzilmasiga o'tkazish ishlari ham farmonda ko'zda tutilgani quvonarli.

Ayol- millatning davomchisi va uning ko'zgusi, ertangi kuni demakdir. Ullarga e'tibor-kelajakka e'tibor. O'sib kelayotgan yosh avlodning qay tarzda kamol topishi, ham jismonan ham ma'nan yetuk bo'lishi albatta ko'p jihatdan jamiyatimizning nozik hilqati bo'lmish ayollarga chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda yurtimiz mahallalarida ayollarga bo'lgan e'tibor tomomila o'zgacha. Bugun ular uchun davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar ularning turmush darajalarini yaxshilashga qaratilgan bo'lib bugungi kunda ular fikrlari, shikoyat va muammolari eshitila boshlandi deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 13.07.2023, 6260- sonli farmoniga "Ayollar daftari" ma'lumotlar bazasi yaratildi. "Alollar daftari"- ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik qo'llab quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz hotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasini tashkil etadi.

Mahallalarda ayollarga qaratilayotgan e'tiborning bugungi kunda chek-chegarasi yo'q. Har bir o'tkazilayotgan tashabbus zamirida ulkan mehnat va mahallalarimiz ayollarga bo'lgan kata e'tiborni ko'rish mumkin. Bu orqali ularning salomatligini mustahkamlash va ularda yetuk, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish, ularni kichik biznes va tadbirkorlik qilishlariga imkoniyatlar berish, ular muammolariga odilona yechim topish, ular bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazidhga erishish maqsad qilib olingan.

Bunga bir misol tariqadida O‘z LiDePning istiqbolli “Ishbilarmon ayol” loyihasini ko‘rsatish mumkin. “Ishbilarmon ayol-2024” ko‘rik tanlovining mahallalar kesimidagi saralash bosqichi mamlakatimiz bo‘ylab qizg‘in pallaga kirgdi. Partiyaning imkoniyat va salohiyat, eng avvalo, uning amaliy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Loyiha bir necha viloyatlarni jumladan, Qoraqolpog‘iston respublikasi, Toshkent shahri, Sirdaryo viloyati, Navoiy viloyati, Toshkent viloyati kabilarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, u har yili amaliy tarzda tashkillashtirib, kelinmoqda. Tanlovning mahalla bosqichi esa bugungi kunda qizg‘in tus olgan deyish mumkin. Unda hakamlar hayati tashkillashtirilgan bo‘lib ular ayollarni har taraflama rag‘batlantirib kelmoqda. Bu orqali nafaqat ularning bandligini ta‘minlash balki ularda o‘z kasb-hunarlariga nisbatan shijoat va mexrni kuchaytirishga ham erishilmoqda. Bulardan tashqari ushbu tablov bugungi kunda kench miqyosda o‘tkazilayotgani ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlar siyosiy jarayonlarning keng tushuntirishda shijoatli tashabbuskor hotin-qizlarni barcha tarafdin qo‘llab, quvvatlash va yurt kelajagi uchun intilishlarini rag‘batlantirish orqali bugunning zamonaviy ayol qiyofasini yaratish maqsadida amalga oshirib kelinyapti.

Mahallalarda istiqomat qilayotgan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirib kelinyapti deb aytish mumkin.

Jumladan, Sharof Rashidov tumanida yaqindagina O‘zLiDeP Sharof Rashidov tumani kengashi raisi, mahalliy kengash deputati va tadbirkor Sharofat Norieva tashabbusi bilan bir nechta mahallalarda “Gulchi opa” o‘quv kursi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur o‘quv kursi bo‘shqalardan tubdan farq qilib bu yerda xotin-qizlarga tomorqada, shuningdek qishloq xo‘jaligi va chorvachilik sohalarida bilim va ko‘nikmalariga ko‘maklashish bosh maqsadi qilib qo‘yilgan.

Bu bilan ularning bo‘sh vaqtlari unumli o‘tib, kichik biznesga doir bilim va ko‘nikmqari mustahamlanib boradi. Ayollarni mahallalarda bandligini ta‘minash orqali oila farovonligi va mustahkamligi kabi dolzarb masalalar ham yechimini topadi.

Ishbilarmon ayol-2024 mahallalardagi saralash bosqichlari ishtirok etish niyyatida bo‘lgan hotin qizlar soni qashqadaryo viloyatida ham ko‘payib bormoqda. Ularning aksariyatikichik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan, tomorqasida issiqxona xo‘jaligi tashkil etgan, milliy hunarmandchilik, kashtachilik, gilamchilikni rivojlantirib, xotin-qizlarning bandligini ta‘minlashga urinayotgan ishbilarmon ayollardir.

Olib borilayotgan ushbu mahallalararo ko‘rik tanlovning maqsadi va ahamiyatiga diqqat bilan razm tashlasak uning zamirida kichik biznes va tadbirkorlik daromadidan tashqari milliy qadriyat va urf-odatlarimizni asrab-avaylash ham yotganini ko‘rishimiz mumkin. Sababi bugungi zamonaviy davrda kashtachilik, gilamchilik kabi bir qator milliy hunarmandchiliklarimiz yevropacha dunyoqarash va zamonaviy g‘arb kiyinish uslublari ortiga berkinib borayotgani hech birimizga sir emas. Mahalla ayollarining ushbu hunarmandchilik bilan band bo‘lishi

milliyligimizni yanada ravnaq topishiga ham albatta o‘z hissasini qo‘shmay qolmaydi.

Yurtimizning barcha hududlarida Oilaa va hotin-qizlarni qo‘llab- quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘laridan moliyalashtirgan holda xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyat yuritib kelayotir. Markaz “ayollar daftari” da turuvchi xotin-qizlarning qiziqishlariga qarab, bepul o‘quv-kurslarida hunar o‘rgatadi, bandligini ta‘minlab, kichik tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashadi. Bu ularning ilm va hunar o‘rganish orqali jamiyatning kerakli a‘zosi bo‘lib rivojlanishiga ham zamin yaratdi. Ayollarga berilayotgan ushbu imkoniyat o‘qish va hunar o‘rganishga imkoniyati yo‘q bo‘lgan yosh qizlar uchun ham katta imkoniyat deyish mumkin. Bu orqali ular ertangi kunga ishonch ko‘zi bilan boqib o‘z kelajak kareyrasini ham yarata oladi. Bu yo‘lda ularning yod ko‘chalarga qadam qo‘yish g‘oyalarining ham oldi olinadi.

Gulsanam Norova rahbarligidagi Navoiy viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi hududning olis tumanlarida o‘quv kurslari tashkil etib, ovullaru qishloqlarda “kashtachilik”, “tikuvchilik”, “chorvachilik”, “gilamchilik”, “issiqxona ho‘jaligini yuritish”, “asalarichilik” kabi 30 dan ortiq kasb-hunarlarini ayollarga o‘rgatib kelmoqda. Mahalla ayollari ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib kerakli bo‘lgan bilimlarni o‘rganish ikoniyatiga egalar. Ayollar ro‘zg‘or tashvishlarida ortib, o‘quv markazlarda tehsil olib oilasini qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Aholining mehnat bilan band etilishi oilalarda farovonlikni ta‘minlash demakdir. Bu orqali kambag‘allikning qisqarishiga yo‘l ochilib jamiyatimiz yanada ravnaq topib boraveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugun yurtimizda ayollarning tashabbusi va jamiyat rivojiga qo‘shayotgan xissasi shiddat bilan o‘sib bormoqda. Buning asosiy sababi albatta davlatimiz rahbarining ayollarga berayotgan har bir sohadagi imkoniyatlari va yurtimizda ayollarning demokratik tamoillar asosida istalgan sohada tashabbus ko‘rsatishga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasi deyish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Toshkent sh.,2022-yil 1-mart,PF-81-son farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6260-sonli farmoni. 13.07.2021yil
3. “Mahalla” gazetasi №26 (2164) 2024-yil, 16-may, payshanba
4. “Mahalla” gazetasi №27 (2165) 2024-yil, 18-may, shanba
5. XXI asr ijtimoiy siyosiy gazetasi, 16-may 2024-yil 20(1070)
6. XXI asr ijtimoiy siyosiy gazetasi, 23-may 2024-yil 21(1071)
7. poytaxt press news.№ 5-6-sonlar, (41) 2024-yil,4-may
8. www.dunyo.info.uz/ TOSHKENT, 26-Sentabr “Dunyo” axborot agentligi
9. www.oz.sputniknews.uz/5:48 05.04.2023)
10. www.gazeta.uz/8 noyabr 2021, 19:22 [Sport.https://pm.gov.uz/](https://pm.gov.uz/)
12.01.2024
www.lex.uz

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALIM SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.

Isayeva Dildora Sodikovna,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Ro'zimurotov Ramazon Hamza o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Bugungi raqamli asrda ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining ta'limga integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalardan foydalangan holda, o'qituvchilar talabalar uchun qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar. IT, axborot, shaxsiylashtirilgan o'quv, immersiv tajriba, infrotuzilma, virtual sinf, interaktiv ta'lim.

Ushbu maqola ta'lim sifatini oshirish uchun ta'limda IT-ni joriy etishga ustuvor ahamiyat berishni o'rganadi. IT vositalari va resurslaridan samarali foydalanish orqali ta'lim muassasalari talabalar uchun yanada qiziqarli, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratishi mumkin. ITni ta'limga integratsiyalashning asosiy strategiyalari va ilg'or amaliyotlari muhokama qilinadi va ushbu yondashuv bilan bog'liq foyda va muammolar haqida tushunchalar taqdim etiladi.

Kirish. Talabalarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun sifatlari ta'lim muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari bizga o'qitish va o'rganish usulini inqilob qilish potentsialini taqdim etib, hamkorlikni kengaytirish, shaxsiylashtirilgan ta'lim va boy ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ta'limda ITni joriy etishga ustuvor ahamiyat berish orqali muassasalar o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi, ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin.

Axborot texnologiyalarini (IT) ta'lim faoliyatining turli sohalariga joriy etishning jadal sur'atlari zamonaviy ta'limning tashqi ko'rinishini ham, mohiyatini ham jiddiy o'zgartirmoqda. O'zgarish shu qadar fundamentalki, avvalgidek, bilimlarni o'zlashtirish va o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning an'anaviy jarayonlari yangi usul va usullarni joriy etish orqali ozmi-ko'pmi o'zgartirilmaydi. Aksincha, o'zgartirishlar birinchi navbatda sifat jihatidan yangi bo'lib, o'quv faoliyatining mohiyati bilan ham, ularni amalga oshirish natijalari bilan ham bog'liq. Afsuski, yangi signallarni ishlab chiqish sifatini oshirish mumkin bo'lgan vazifalar yoki vositalarning eng muhimi haqidagi tushunchamiz etarlicha o'rganilmagan va nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan.

Bizning fikrimizcha, ta'lim faoliyatiga televizor yoki ovoz yozish uskunalari joriy qilish kabi har qanday boshqa, torroq maqsadni amalga oshirish faqat ta'lim narxining oshishiga olib keladi, lekin uni amalga oshirish sifatini emas. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqaruvchilar shunchaki "shlyapalarni o'zgartiradilar": ular "ishlab chiqaruvchidan" maktab kommunal xizmatlarining "tarqatuvchisi" bo'lishadi, zamonaviy ta'limning maqsadlari o'zgarimoqda - amalga oshirishdan tortib iste'molchi murosalarini izlashgacha. Darhaqiqat, boshlang'ich ta'lim sifatining

parametrlaridan biri bu rasmiy va tijorat kompyuter dasturlaridan zich foydalanish, kompyuterlarga juda past talablar va Internetdan majburiy foydalanishdir. Paradoksal shaklda u juda to'g'ri ifodalangan: kompyuter o'qituvchini repetitora, sinfni esa, "bepul mehnat studiyasiga" aylantiradi.

Ta'lim sifatini, uni o'tkazishning zamonaviy texnologiyalarini joriy qilmasdan turib oshirish mumkin emas. Butun dunyoda o'tkazilgan ko'plab empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar kompyuter aloqasi texnologiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan o'quv ma'lumotlarini elektron tarzda taqdim etish texnikasi to'g'ri tushunilgan va to'g'ri qo'llanilsa, o'rganilayotgan fanlardan qat'iy nazar, talabalarning o'quv yutuqlari darajasi. 20-100% ga oshadi, materialni tushunish uchun zarur bo'lgan vaqt miqdori kattalik tartibida kamayadi, bilim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. O'yin shaklida, masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hisoblash qobiliyatini bir necha baravar oshirish mumkin: kompyuterda 3-4 soatdan ko'p bo'lmagan darslar va ikkinchi darsdan so'ng deyarli barcha bolalar faqat katta yoshdagi matematik tushunchalarni o'zlashtira boshlaydilar.

Ta'lim tajribasini oshirish: Ta'lim ilovalari va onlayn platformalardan foydalanish o'rganishni yanada interaktiv va talabalar uchun qiziqarli qiladi. Bu vositalar o'quvchilarga o'z tezligida va individual ta'lim uslublariga mos tarzda o'rganish imkoniyatini beradi. Virtual haqiqat texnologiyasi talabalarni turli joylar va vaqt davrlariga olib borishi mumkin, bu esa tarix va fan saboqlarini jonlantiradi. Ushbu immersiv tajriba talabalarga ma'lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradi va mavzu bo'yicha umumiy tushunchalarini oshiradi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Moslashuvchan ta'lim dasturi har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun darslarni moslashtirishi mumkin. Talabalarning faoliyati va taraqqiyotini tahlil qilib, ushbu dasturlar maqsadli yordam va tuzatishlarni ta'minlashi mumkin. Raqamli baholash o'qituvchilarga real vaqt rejimida o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish va o'qitish strategiyalarini mos ravishda o'zgartirish imkonini beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv har bir talabaga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan yordamni olishiga yordam beradi.

Hamkorlik va muloqot: Onlayn platformalar va vositalar talabalar o'rtasida hamkorlikni osonlashtiradi, ularga loyihalar ustida birgalikda ishlash va g'oyalarni almashish imkonini beradi. Bu bugungi o'zaro bog'liq dunyoda muhim bo'lgan jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Videokonferensaloga texnologiyasi talabalarga butun dunyo bo'ylab ekspertlar va tengdoshlar bilan bog'lanish, bilim va istiqbollarni kengaytirish imkonini beradi. Ushbu global hamkorlik turli madaniyatlar va g'oyalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Amalga oshirishning asosiy strategiyalari: Infratuzilmani rivojlantirish: Kuchli IT infratuzilmasini yaratish ta'limda texnologiyalarning uzluksiz integratsiyasini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bunga yuqori tezlikdagi internetga ulanish, tegishli apparat va dasturiy ta'minot resurslari hamda o'qituvchilar va talabalarga texnik yordam ko'rsatish kiradi.

Kasbiy rivojlanish: O'qituvchilarni o'qitish amaliyotida AT vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qitish va malakasini oshirish juda muhimdir. Kasbiy

rivojlanish dasturlari raqamli savodxonlikni oshirishga, texnologiyani dars rejalariga kiritishga, baholash va fikr-mulohaza uchun raqamli vositalardan foydalanishga qaratilishi kerak.

O‘dasturlari integratsiyasi: IT tashabbuslarini o‘quv rejasiga moslashtirish texnologiyadan o‘quv natijalarini yaxshilash uchun maqsadli foydalanishni ta‘minlashga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni jalb qilish va faol o‘rganishni rag‘batlantirish uchun raqamli resurslarni, multimedia kontentini va interfaol vositalarni o‘z darslariga kiritishlari kerak.

Talabalarning faolligi: Talabalar o‘rtasida IT-ga asoslangan platformalar orqali faol ishtirok va hamkorlikni rag‘batlantirish ularning o‘rganish tajribasini oshirishi mumkin. Virtual sinflar, onlayn munozaralar va hamkorlikdagi loyihalar hamjamiyat hissini uyg‘otishi va tengdoshga o‘rganishni rivojlantirishi mumkin.

Foyda va qiyinchiliklar: Ta‘limga IT integratsiyasi ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi, jumladan, ta‘lim resurslariga kirishni yaxshilash, shaxsiylashtirilgan ta‘lim tajribasi va talabalarning faolligini oshirish. Biroq, texnologiyadan adolatli foydalanish va ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash uchun raqamli tafovut, maxfiylik muammolari va texnologik to‘siqlar kabi muammolarni hal qilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari ta‘lim tajribasini oshirish, o‘qitishni shaxsiylashtirish va hamkorlikni rag‘batlantirish orqali ta‘limni inqilob qilish qudratiga ega. Texnologiyani sinfga integratsiyalash orqali o‘qituvchilar talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali ta‘lim muhitini yaratishi mumkin. Maktablar barcha o‘quvchilar uchun ta‘lim sifatini yaxshilash uchun texnologiyani qabul qilishlari va uning afzalliklaridan foydalanishlari juda muhimdir. Ta‘limda ITni joriy etishga ustuvor ahamiyat berish ta‘lim sifatini oshirish va talabalarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. O‘qitishda axborot texnologiyani integratsiyalashda strategik yondashuvni qo‘llash orqali ta‘lim muassasalari barcha o‘quvchilar uchun yanada inklyuziv, qiziqarli va samarali ta‘lim muhitini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, LW va Krathwohl, DR (Tahrirlar). (2001). O‘rganish, o‘qitish va baholash taksonomiyasi: Bloomning ta‘lim maqsadlari taksonomiyasini qayta ko‘rib chiqish.

2. YUNESKO. (2013). Ta‘lim sifatini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

3. Prenskiy, M. (2001). Raqamli mahalliy aholi, raqamli immigrantlar. Ufqda, 9(5), 1-6.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR TARBIYA DARSLARIDA XORIJIY TAJIRIBALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Jo‘rayeva Maftunaxon Dilshodbek qizi,

*Andijon davlat universiteti 13.00.02- “Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi”
yo‘nalishi tayanch (PhD) doktoranti Maftunaxon1992.07@gmail.com*

Tel: 99 326 48 68

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda olib boriladigan tarbiya darslarini samarali tashkil etishda o'qituvchi pedagoglarga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar hamda tarbiya darslarida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, pedagog, pedagogik talab, psixologik talab, xorijiy tajriba, metodika, texnologiya, tarbiya nazariyasi, tarbiya didaktikasi.

Аннотация. В статье говорится о педагогических и психологических требованиях к учителям и педагогам при эффективной организации учебных занятий, проводимых в начальных классах, а также теоретических и практических аспектах использования передового зарубежного опыта на учебных занятиях.

Ключевые слова: образование, педагог, педагогический запрос, психологический запрос, зарубежный опыт, методология, технология, теория образования, дидактика образования.

Annotation. The article talks about the pedagogical and psychological requirements for teachers and pedagogues in the effective organization of education classes conducted in primary classes, as well as the theoretical and practical aspects of using advanced foreign experiences in education classes.

Key words: education, pedagogue, pedagogical demand, psychological demand, foreign experience, methodology, technology, theory of education, didactics of education.

Kirish. Bugungi shiddat bilan borayotgan dunyodagi globallashiv jarayoni, innovatsion taraqqiyot sharoitida dunyo sahnida raqobatbardosh mamlakatga aylanib borayotgan O'zbekiston – mamlakatimizda barcha sohalarida ro'y berayotgani kabi ta'lim va tarbiya sohalarida ham bir qancha muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Milliy tarbiya hozirgi kundagi muhim masalalardan biri bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy sifatlarni sharq mutafakkirlar qarashlari, turli pand-nasihatlar, hadis na'munalari va boshqa ko'plab shu kabilar asosida shakllantirish aynan shu maqsadga yo'naltirilgandir. "Tarbiya" darslarida ko'zda tutilgan, milliy-ma'naviy me'rosni o'zida mujassamlashtirgan qarashlar, fikrlar va g'oyalarni o'rganish bilan bir qatorda hozirda o'zining ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalari bilan dunyoning yetakchi mamlakatlari hisoblangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish rivojlanayotgan ta'lim jarayonining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, diniy bag'rikenglik, insoniylik, Vatanparvarlik kabi hislatlarni tarkib toptirish jamiyat talabi sanaladi. So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'qish va faolligini hamda ta'lim-tarbiya samaraliligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajribalar to'plangan. Ushbu tajribalar eng birinchi navbatda dars jarayonini, ta'lim

samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi va shu bilan birga o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash xususiyatini o'zida namoyish etadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;
- tarbiya amaliyoti

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'sis etilgan yangi – Tarbiya fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak.

O'zbekiston ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'lim jarayonida – Tarbiya fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Mazkur fanni o'rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi.

Muhokama va natijalar.

Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator tarbiyaga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o'rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy – Buyuk didaktika asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Fransuz pedagogi Jan Jak Russo – Emil asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergan. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaning eng yetuk a'zosi shug'ullanishi kerak. Pedagog bu borada onalarning tarbiyaviy o'rnini alohida ta'kidlaydi va Emil ismli onaning o'z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu ayol –

Kundaliklar tutib borganligini ko'rsatib beradi. Shu ma'noda tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi shaxsning Kundaliklari bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shved pedagogi Iogan Genrix Pitalotsi – maktablar asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo'lgan savodxonlikni Alifbedan boshlash tizimini aynan Pitalotsi asoslab bergan.

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tarbiyada pragmatizm, ya'ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo'yishadi. Unga ko'ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo'lgan bilim, fazilatlar va ko'nikmalar shakllantirilishi kerak. Mazkur masalalardan ma'lum bo'ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko'p hollarda tarbiyaning amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu tajribalarni o'rganishi, o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo'llay olishi taqozo etiladi. Shu sababli Boshlang'ich ta'limda – Tarbiya fanini o'qitish vositasida jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o'rganish masalasi va uning metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Mamalakatimizda ta'sis etilgan – Tarbiya fanining eng asosiy ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga oid pedagogik merosni o'rganish;
- tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirish;
- tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;
- tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasining bo'lishi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot metodlari o'rganish, manbalarni o'zlashtirish va tajriba o'tkazish asoslarida o'rganiladi. Bu metodlar pedagogik turkumdagi barcha fanlarda qo'llaniladi. Biroq ushbu metodlardan – Tarbiya fani ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilashda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

a) tarbiyaga oid pedagogik meros o'rganilganda qadimdan kelayotgan tarbiya g'oyalari, usullari, tizimi va uni amalga oshirish yo'llariga alohida e'tibor beriladi; b) tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirishda tarbiyaviy yondashuvlar, ularning amaliy tajribadan o'tganligi va bugungi kun talabalariga javob berishi masalalariga diqqat qilinadi;

v) tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirishda aynan tarbiya masalasiga yo'naltirilgan davlat standartlari, malaka talablari va murabbiy-o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablarni o'rganish va ularga amal qilish masalalariga e'tibor beriladi;

g) tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasiga ega bo'lish uchun talabalik davridayoq tarbiya asoslari, metodologiyasi, didaktikasi va amaliyotini o'zlashtirish bilan pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amaliy ko'nikmalar bilan qurollanishga diqqat qilinadi.

Bularning barchasi – Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish asoslari hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, – Tarbiya fanini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy va estetik tarbiyalarga doir muayyan mamlakatning tajribasini o'rganish hamda uning ilg'or jihatlarini qabul qilish;

- xorij tajribasidan shaxsni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga asosan xorijning tarbiyaviy ishlar tajribasidan foydalanganda ijodiy yondashish;
- xorij mamlakatlarida o‘ziga xos tajribadan o‘tgan dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va elatlar hamda millatlarning qadriyatlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini qabul qilish;
- umuminsoniy g‘oyalar bo‘lgan birodarlik va tinchliksevarlik kompetentsiyalarini shaxsda tarkib toptirishga e‘tibor berish.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash
3. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 422-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187- son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori.
6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.
7. Immanuel Kant „Pedagogika to‘g‘risida” Toshkent – 2013.
8. Akmal Miravaz o‘g‘li „Tarbiyaning oltin kaliti yoxud yo‘ldagi belgilar” Toshkent – 2020.

YOSHLARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG XOTIN-QIZLARNING ROLI

Qosimova Ozoda Xudoynazarovna,

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrası,
p.f.f.d.(PhD), dotsent.*

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda kognitiv va kreativ munosabatlarni tarkib toptirishda pedagog xotin-qizlarning roli, pedagog xotin-qizlarning kasbiy ma‘naviy-axloqiy shaxsiy ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarini shakllantirishning pedagogik- psixologik jihatdan boyitib borish haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: g‘oya, maqsad, ko‘mak berish, vazifa, rejalashtirish, mahorat, zamonaviy, bilim, ta‘lim, tarbiya, talaba, tafakkur, mantiq.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun pedagog xotin-qizlarimizni ham kasbiy ma‘naviy-axloqiy va shaxsiy ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarini yanada

rivojlantiradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda esa ta'lim va tarbiyani yanada rivojlantirishimiz lozim. Shunda ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish orqali oldimizga qo'yilgan maqsadga erishishimiz mumkin. Ushbu maqsad yo'lida pedagoglarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishish maqsadida jon jahdlari bilan harakatlanishlari lozim.

Shundagina pedagoglarning harakatlari orqali farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish uchun pedagog xotin-qizlar ham barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar qilishlari lozim. Pedagoglarimiz yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazishi ularning zimmasidadir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bundan ming yil oldin, "Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi", deb bejiz aytmagan. Mamlakatimizda Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni madaniyat, san'at va jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni keng targ'ib etish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Yuqorida keltirilgan tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, har qanday davlat va jamiyatning rivojlanishi bu albatta ta'lim-tarbiyani rivojlanishi va uni tashkil etuvchilariga bog'liq bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, pedagogik va psixologik tomondan yondashganda tafakkur shakllari, turlari, xususiyatlari, mazmun-mohiyati haqida fikr yuritganda inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi. Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Bu masalalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kidlash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari; ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli; uchinchidan, bu

jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Farg'oni, Xorazmiy, Zamaxshariy kabi allomalar o'zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g'oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. Bunga sabab ushbu allomalarimizning mashaqqatli, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zahmatli mehnatlaridir.

Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Bunday ijodkorlikni, kreativlikni, ijodiy faoliyatni yoshlarimiz ongiga rivojlantirish uchun pedagoglarimiz yoshlarni shaxsiy individual xususiyatlarini inobatga olishlari shartdir. Chunki ijtimoiy xulq-atvor motivlari va shaxs motivatsiyasi ijodiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyatni amalga oshiradigan pedagoglarimiz yoshlarning ijodiy tafakkurini va bilimlarini kengaytirish hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollantirishlari, dars jarayoniga ilg'or tajribalarni tatbiq qilish orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishlari, psixologik g'oyalarga va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga mos keluvchi ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishlari, yoshlar ongida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan nazariy – metodologik, tabiiy- ilmiy asoslarini o'rgatishlari, yoshlarni mavjud muammoli vaziyatlarda kognitiv va kreativ yondashuvlarni va ijtimoiy voqeiliklarga to'g'ri munosabat bildira olishlarini shakllantirishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlar singari yoshlarga oid davlat siyosatini mazmun mohiyati ham aynan yoshlarni har tomonlama barkamol, salohiyatli ijodiy tafakkurga ega kadrlar bo'lib yetishishlariga jiddiy e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida yoshlarni kelgusida yetuk kadrlar bo'lib shakllanishiga hamda davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan mutaxassislar bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoynazarovna, Q. O. (2022). The Role of Innovative Technologies in the Quality Organization of the Educational Process of Female Teachers. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(6), 133-136.

2. Xudoynazarovna, Q. O., & Alisher o'g'li, H. A. (2022). SOCIO-PEDAGOGICAL MATERIAL TO ENSURE THE CONTINUITY OF FAMILY, NEIGHBORHOOD AND EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES OF STUDENTS. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 4, 342-344.

3. Xudoynazarovna, Q. O. (2022). INCREASING SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN IN OUR COUNTRY. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 249-255.

4. Xudoynazarovna, Q. O., Bobomurod o'g'li, B. B., & Jaloliddin O'roz o'g, N. (2022). Increasing the Social Activity of Female Teachers is the Need of the Hour. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(6), 137-139.

5. Худойназаровна, Қ. О., & Хусенова, М. Н. (2022). МИЛЛИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИНГ ҲАЁТИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 297-302.

6. Qosimova, O., & Jaxbarov, O. (2022). PEDAGOG XOTIN-QIZLAR SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDOGOGIK PSIXOLOGIK TALABLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 643-645.

TEKNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHDA “EASY DESIGN” (SODDA LOYIHA) INTERFAOL METODI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Sodiqova Aziza Hayitovna,

*ZARMED Universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
azizasodiqova@296gmail.com*

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli katta. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli bo'lishlarini ta'minlaydi. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. Ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya, bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talaba ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. O'quvchi va talaba maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari o'z ixtiyorida. Chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi bilim saviyasi auditoriya xarakteri sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiyalar tanlanadi.

“Easy design” (sodda loyiha) metodi – bu metod asosan umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim “Texnologik ta'lim” yo'nalishi fanlari uchun qo'l keladi. Bu metod faqat “Texnologiya ta'limi praktikumi” va “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” (tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayoni) uchun mos keladi. Ma'lumki, tikuvchilik buyumlarini loyihalashdagi murakkab va davomli formulali hisob- kitoblar jarayoni umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi uchun murakkablik qiladi va ular uchun bu fan juda qiyin va zerikarli tuyuladi. Agar maktabdagi “Texnologiya” fani dasturiga qaraydigan bo'lsak tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid mavzular talaygina, lekin maktab o'qituvchisi ya'niki biz tayyorlayotgan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari tomonidan dasturda berilgandek to'liq o'tishmaydi, bunga ikkita sabab bor:

1) Dasturda berilgan tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid mavzulardagi loyihalash hisob-kitob jarayonlari murakkabligidan o'quvchiga yetkazib bera olish qiyin.

2) Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining “Texnologiya ta'limi praktikumi” va “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash (tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish)” fanidagi tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonlari murakkab tashkil etilganligi sababli mavzularni to'liq o'zlashtira olishmaydi.

Tikuvchilik buyumlarini loyihalashning “Boshqacha qarash” metodi muallifi Ye.V. Ovchinnikova shunday deydi: “Men ancha yillar oldin, maktabda ishlab yurgan vaqtlarim kiyimni loyihalash usullarining qat’iy ko‘rsatmalariga asablarim dosh bera olmasdi, bu loyihalash usullarini o‘quvchilarim tushinishi ham juda qiyin bo‘lardi. Men nima uchun bu shunday va boshqacha emasligini tushuntirishni muvaffaqiyatsiz izladim, masalan, nega 2sm emas, 3sm emas balki bissektrisa bo‘ylab 2,5sm kirishim kerak? Nihoyat, men hammasiga qo‘l siltadim. Har qanday texnik dizayn, o‘lchovlardan boshlanadi, ular uchun ko‘plab vositalar mavjud. Tikuvchining bitta asbobi bor- santimetr lenta! Men “Boshqacha qarash” metodim orqali murakkab nazariy hisob- kitoblarsiz, har- xil geometrik figuralardan foydalanib o‘z loyihamni yaratdim. Masalan: mashinani boshqarish uchun mexanika fanlar nazariyasini, Windows XPdan foydalanish uchun operatsion tizimlar nazariyasini bilish shart emas”.

Oksana Tsareva o‘z dissertatsiyasida shunday degan: “Tikuvchilik buyumlarini loyihalash bo‘yicha maxsus fanlarning mavjudligi bu yaxshi, lekin endi o‘rganadigan o‘quvchi uchun qulay va sodda usul kerak. Mavjud hisob- kitob va grafik usullar – o‘lchov olish va ularni formulalarga almashtirish va buning asosida chizma qurish. Bunga misol tariqasida bir nechta mashhur loyihalash usullari “YeMKO”, ” Myuller va Son” va shunga o‘xshash juda ko‘p. Men shunaqa beshta eng mashhur loyihalash usulini tanlab oldim va bir xil modelni, bir kishiga besh xil usulda loyihaladim, natijada, kiyimlarning tayyor modellarini qanday usulda loyihalanganligini farqlab bo‘lmadi, moslik hamma usulda amalda bir xil chiqdi. Shuning uchun asosiysi loyihani qanday usul bilan qurish emas, muhimi o‘lchov olishni to‘g‘ri bajarish, raqamni to‘g‘ri qo‘yish va keltirilgan raqamlar o‘rnini chizmalarda to‘g‘ri birlashtira olish”.

Shuni inobatga olishimiz kerakki, biz oliy ta’lim Pedagogika institutlari “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida yengil sanoat korxonalarini uchun dizayner-konstruktorlar tayyorlamaymiz balki, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlaymiz, shuning uchun biz talabalarga ommaviy tarzda tikiladigan kiyimlarni loyihalashni emas balki, individual tikiladigan kiyimlarni loyihalashni o‘rgatishimiz kerak. Buning uchun biz, tikuvchilik buyumlarini loyihalashni ikki tomon ham tushunadigan sodda va samarali usuli ishlab chiqdik.

“**Easy design**” metodini yoritishdan avval, loyihalash usullarini ko‘rib chiqsak.

Kiyim bo‘laklarini hisoblash va chizma tayyorlashning quyidagi usullari mavjud:

1. Mulyaj usuli.
2. Hisoblab loyihalash usuli.
3. O‘lchab-hisoblab loyihalash usuli.
4. Yagona loyihalash usuli.

Mulyaj usulining mohiyati shundan iboratki, maneken yoki kishi gavdasiga maket material (gazlama, yengil-yumshoq kog‘oz) modelning formasiga moslab, to‘g‘nag‘ichlar bilan qadab chiqiladi. To‘g‘nag‘ichlar odam gavdasining konstruktiv chiziqlari bo‘ylab (bo‘yin, yelka, yeng o‘yindisi, yon bel, o‘rta chiziqlar) to‘g‘nag‘ichlanadi. So‘ngra rangli ipda to‘g‘nalgan joylardan tikib chiqiladi. Shunda

ko'krak do'ngligini aniqlovchi ko'krak vitochkasi ikki tomonlama tikiladi. So'ngra to'g'nag'ichlar bo'shatilib, gazlama yoki kog'ozni stol ustiga yoyiladi. Bu hosil bo'lgan chizma gavdaning asos chizmasi hisoblanadi. Bu usuldan murakkab bichimli kiyimlarni loyihalashda va ko'pgina saxna kiyimlarini, tarixiy kiyimlarni loyihalashda qo'llaniladi.

Hisoblab loyihalash usuli. XIX asrning boshlarida Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda loyihalashning hisoblash (bichish tizimi) usuli tarqala boshlandi. Bu usulni ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bichuvchilar ixtiro qilganlar. Ular gavdadan ayrim o'lchovlarni olib, sodda hisoblash formulalari yordamida buyum detallari chizmasini gazlamaning o'zida bajaradilar, ya'ni alohida andoza tayyorlab o'tirmaydilar. Bu usul yakka tartibda buyum ishlab chiqarishda qo'llanilgan.

O'lchab-hisoblab loyihalash usuli. Kiyimni yakka buyurtma yo'li bilan tikishda o'lchab-hisoblab loyihalash usuli juda mos keladi, chunki bu usulda gavdani aniq o'lchangani tufayli gavdaning o'ziga xos hususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda o'lchab-hisoblab loyihalash usullari bo'yicha kiyim detallari chizmasini tuzish keng tarqalgandir. Bu usulda gavdadan kerakli o'lchovlar olinadi, hisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buyumning asos chizmasi chiziladi. Bu usuldan maktablarda, o'quv muassasalarida, to'garaklarda qo'llaniladi. Bu usulning bir necha o'nlab turlari mavjud. Chizma chizishni, andoza tayyorlashni o'rganayotgan kishilar uchun bu usul qulay hisoblanadi. Deyarli barcha loyihalashlar shu usulda bajariladi.

O'lchab-hisoblab loyihalash usuli qilinadi. Bularga SNIIShP, EMKO, "Myuller va o'g'illari" va h.k.

Jumladan, yurtimizda ham tikuvchilik buyumlarini loyihalash bo'yicha tadqiqotchilarimiz tomonidan izlanishlar olib borilgan. Shulardan, Q.M.Abdullaevaning kiyimlarni loyihalash uslubi ham, o'lchab-hisoblab loyihalash usulida bajarilgan, oliy ta'lim va maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan. Boshqa loyihalash usullaridan farqi shundaki, formulali hisob-kitoblari tushunarli va chizmalar ketma-ketligi aniq tushuntirilgan. Bu loyihalash usulini agar talaba qunt bilan o'rgansa o'zlashtira oladi, lekin maktab o'quvchisiga tushuntirib bera olmaydi.

M.Abdullaeva va bir nechta tadqiqotchilarning kiyimlarni loyihalash usullaridan foydalangan holda "**Easy design**" metodini ishlab chiqdik, bu metod ham talaba uchun, ham maktab o'quvchisi uchun sodda va oddiy tushuntirilgan. Yuqorida ko'rib chiqqanimiz ikki xil loyihalash hisob-kitob usuli bir-biridan hisoblash jarayoni bilan farq qiladi, lekin tayyor loyihalar bir-biridan deyarli farq qilmaydi, bu loyiha asosida tikilgan kiyimlarni ham bir-biridan ajratish qiyin. Shunday ekan, tikuvchilik buyumlarini qanday loyihalashdan qat'i nazar bir xil natijaga erishilar ekan, biz talaba va o'quvchi uchun tez va samarali, sodda va tushunarli usulini tanlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi qachonki o'zi fanni yaxshi tushunsagina o'quvchilariga yaxshi tushuntirib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. MODERN EQUIPMENT OF LABORATORY ROOMS ON THE SUBJECT OF TECHNOLOGY. AH Sodikova Theoretical & Applied Science, 659-662

2. Improving the methodology of using digital technologies in the development of professional competencies of future technology teachers mnmnonsa Hayitovna International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) 14

3. Развитие навыков самостоятельной и творческой работы студентов по общеобразовательным предметам по направлениям бакалавриата в Республике Узбекистан ДА Сайфуллаева, АХ Содикова, МА Солиева Вестник науки и образования, 60-64

4. Didactic opportunities for the development of special competencies in students of technological education ah sodikova international scientific conference innovative trends in science, practice ...

4. Технологик таълим йўналиши талабаларида таянч, касбий ва махсус компетенцияларни ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари А Sodikova Science and innovation 1 (B6), 15-20

5. Шахсинг касбий фаолиятини ўрганишга психологик ёндашув А Содикова ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 31 (31)

TEKNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISI FAOLIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

Doniyev B.B.,

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi ma'lum tarbiya tizimida texnologiya ta'limining uzluksiz ravishda amaliyotga qo'llanilishini ta'minlaydigan yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisi – o'quvchilarning ushbu soha bo'yicha ta'lim va ma'lumot olishini tarbiyalanishini ta'minlaydigan, sinf-dars mashg'ulotlarini, mazkur soha bo'yicha turli ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiradigan bosh bo'g'indir. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tayyorlangan texnologiya ta'limi o'qituvchilari faoliyat ko'rsatmoqdalar:

1. Pedagogika institutlari, universitetlari, pedagogika kollejlarning texnologiya ta'limi mutaxassislik bo'yicha o'qituvchisi kasbi mahoratiga ega bo'lgan, shu sohaning oliy pedagogika, umumtexnika tayyorgarligiga, ma'lumotga ega bo'lgan shu fanning yetakchi mutaxassis o'qituvchilari;

2. Xalq xo'jaligining turli xil sohalari (texnika, qishloq xo'jaligi, qurilish, mashinasozlik, transport va b.) bo'yicha institutlarni bitirib, nopedagogik yo'nalishdagi oliy mutaxassislik diplomiga ega bo'lgan, texnologiya ta'limining turli xil yo'nalishlari, shakllari bo'yicha dars berayotgan muhandis-texnik mutaxassis kadrlar. Bu soha kishilarni pedagogik, psixologik, metodik jihatdan qayta tayyorlashdan o'tkazish talab etiladi.

3. Pedagogika institutlarining, universitetlarining, pedagogika texnikumlarining va kollejlarning, bilim yurtlarining texnologiya ta'limidan boshqa yo'nalishdagi

fakultetlarini, bo'limlarini bitirgan, mehnat ta'limidan maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, ammo hozirda texnologiya ta'limi darslarini asosiy darslarga qo'shimcha tariqasida olib borayotgan pedagog kadrlar. Bunday o'qituvchilarni hozirgi zamon ishlab chiqarish, yangi texnika, zamonaviy texnologiya, xalq hunarmandchiligining sohalari bo'yicha umumtexnika va texnologik jihatdan qayta tayyorgarlikdan o'tkazish kerak bo'ladi.

4. Turli xil bilim yurtlarini, o'quv kurslarini bitirgan, yuqori darajali amaliy ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lgan, ammo oliy ma'lumoti bo'lmagan o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar. Bunday o'qituvchilarning pedagogik, psixologik, uslubiy, umumtexnik va g'oyaviy jihatdan qayta tayyorlash, kasbiy mahorati malakasini oliy ta'lim talablari darajasigacha oshirish talab etiladi.

Texnologiya ta'limining jamiyatni rivojlantirishdagi tutgan o'rnini munosib baholagan holda, umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayoniga xalq hunarmandchilik ustalari taklif etilsa, hamda ustoz-shogird tizimining ta'limiy, pedagogik, psixologik, metodik tashkiliy va h.k. asoslari ishlab chiqilsa, pedagogika fanining ushbu muhim yo'nalishi yanada boyigan bo'lar edi, bu tadbirlar ta'lim jarayonining samarasini ham oshirardi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi boshqa fanlarning o'qituvchilaridan juda ko'p o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi: kasbiy ta'lim va ko'nikmalari, tayyorgarligi darajasi, ish sharoiti va mazmuni jihatidan. Texnologiya ta'limi fanining o'qitish uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, texnologiya ta'limidan mutaxassis o'qituvchilar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarining kirish imtihonlarini qabul qilishdan tortib, to oliy o'quv yurtini bitirish, davlat imtihonini topshirishgacha bo'lgan pedagogik texnologiyani, mutaxassislar tayyorlash jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqib, mazmunan va shaklan shu sohaning o'zligini namoyon qilishga yo'naltirish va barcha qirralari bo'yicha yangilamoq zarur. Hozirgi paytda kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash ishiga davlat, xususiy, shaxsiy korxonalar, ma'muriyatlar, hokimiyatlar, vazirliklar va boshqa boshqarish tashkilotlari e'tiborini tubdan yangilash va ularni mazkur muammoni hal etishlarini rejalashtirishni, o'zaro hamkorliklariga rahbarlikni amalga oshirish tabiiy zaruriyatdir.

O'qituvchini umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi va amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlashda u hal etadigan muammolar, bajaradigan vazifalari, ularning bilim, malaka va ko'nikmalari hamda foydalanadigan vositalari, ularning bilim va malaka-ko'nikmalari hamda yo'llari, uslublarini, ya'ni o'qish pedagogik faoliyatining mazmunini, tuzilishini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining faoliyatida hal etiladigan joriy muammolari tizimi quyidagilardan iborat: 1. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bog'liq muammolari. 2. Jamoatchilikda mehnatning xususiyatlari va uni bilish asoslari. 3. Jamoatchilikda mehnatning xususiyatlari va uni bilish asoslari. 3. Ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi. 4. O'qituvchilarning o'quv jarayonidagi axloqiy, milliy, mehnat, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, nafosat, jinsiy, kompyuter tarbiyalanishining birgalikda amalga oshirilishiga doir muammolar va boshqalar.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining turli sharoitlardagi faoliyatining turlari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'lmog'i lozim: Tuzuvchilik, tashkilotchilik, muomala (munosabatlar)da bo'lish, axborotlar berish, rivojlantiruvchi, mo'ljallay olish, safarbarlik (biror pedagogik tadbirni amalga oshirishda), ilmiy-tadqiqotchilik, texnik-texnologik, ishlab chiqarish faoliyati va boshqalar.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi turli xil bilimlarini egallashi, bilishi, dunyoqarashlarining kengligi bilan boshqa predmetlar o'qituvchilaridan farq qiladi:

1. G'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy bilimlar ko'lami. 2. Psixologik bilimlar. 3. Pedagogik-uslubiy bilimlar. 4. Tabiiy-ilmiy bilimlar. 5. Matematik bilimlar. 6. Texnik-texnologik bilimlar. 7. Iqtisodiy bilimlar. 8. Demografik va etnografik bilimlar. 9. Tabiiy-biologik bilimlar. 10. Ekologik bilimlar. 11. Huquqiy bilimlar. 12. Nafosat tasavvurlari. 13. Umummadaniy bilimlar. 14. Axborot texnologiyalarilar. 15. Tashkilotchilikka oid bilimlar. 16. Xorijiy tillar haqidagi bilimlari va h.k.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan texnologiya ta'limi mashg'ulotlarini samarali, to'laqonli olib borishlari uchun o'qituvchida quyidagi amaliy ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lmog'i lozim: aqliy, ma'naviy, zakovat, pedagogik, metodik (uslubiy), umummehnat, maxsus, kasbiy, hisoblash, o'lchash, chizish va tuzishga doir, turli xil moslamalar, asboblar, qurilmalarni, texnika vositalarini boshqara olish, bevosita mehnat obyektlari, predmetlari bilan, qurollari bilan munosabatda bo'la olishga doir va boshqa yo'nalishdagi ko'nikma va malakalar.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ В ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧАЮЩИХ МОДУЛЕЙ И ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ

Асатов Нурмухаммад Абдуназарович,
профессор, Джизакский политехнический институт, asatov_nur@list.ru
+998 90 539 88 55

Абдурахмонов Азизжон Махмуджон угли,
Джизакский политехнический институт, aziz_zver1998@mail.ru
+998 94 340 61 22

Аннотация. В данной работе рассматривается влияние развития компетенций педагогов технических вузов на оценку эффективности обучающих модулей и практических занятий по энергоэффективности. Анализируются проблемы недостаточной подготовки преподавателей в данной области и предлагаются решения, направленные на систематическое повышение их квалификации. Рассматриваются ключевые аспекты внедрения новых методик преподавания и их влияние на формирование высококвалифицированных специалистов в области энергоэффективности.

Abstract. This paper examines the impact of developing the competencies of teachers at technical universities on assessing the effectiveness of training modules and practical exercises on energy efficiency. The problems of insufficient training of

teachers in this area are analyzed and solutions are proposed aimed at systematically improving their qualifications. The key aspects of the introduction of new teaching methods and their impact on the formation of highly qualified specialists in the field of energy efficiency are considered.

Annotatsiya. Maqolada texnik oliy o'quv yurtlari pedagoglarining kompetensiyalarini rivojlantirishning energiya samaradorligi bo'yicha o'quv modullari va amaliy mashg'ulotlar samaradorligini baholashga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu sohada o'qituvchilar tayyorgarligining yetarli emasligi muammolari tahlil qilinadi va ularning malakasini tizimli ravishda oshirishga qaratilgan yechimlar taklif etiladi. Yangi o'qitish metodikalarini joriy etishning asosiy jihatlari va ularning energiya samaradorligi sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarini shakllantirishga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Ключевые слова. энергоэффективность, педагоги, технические вузы, компетенции, обучение, квалификация, методика, исследование, оценка, результаты

Key words. energy efficiency, teachers, technical universities, competencies, training, qualifications, methodology, research, assessment, results

Kalit so'zlar. energiya samaradorligi, pedagoglar, texnik oliy o'quv yurtlari, kompetensiyalar, o'qitish, malaka, metodika, tadqiqot, baholash, natijalar

Введение. В современном образовательном процессе технических вузов особое внимание уделяется развитию профессиональных компетенций педагогов. Это обусловлено быстрым развитием технологий и необходимостью подготовки студентов к реалиям рынка труда. Одной из актуальных задач является повышение энергоэффективности, что требует от преподавателей не только теоретических знаний, но и практических навыков в этой области. Разработка и внедрение обучающих модулей и практических занятий по энергоэффективности требуют высоко квалифицированных педагогов, способных эффективно передать знания и навыки студентам. Основная проблема заключается в недостаточной подготовке педагогов технических вузов в области энергоэффективности. Множество преподавателей, особенно те, кто получил образование много лет назад, не обладают современными знаниями и практическими навыками в этой сфере. Это приводит к снижению качества образовательного процесса, недостаточной подготовке студентов и, как следствие, к неэффективному использованию энергоресурсов в будущем. Недостаток компетенций у педагогов препятствует внедрению инновационных методов обучения и оценке их эффективности. Решение данной проблемы видится в систематическом развитии компетенций педагогов через программы повышения квалификации и профессиональной переподготовки. Это включает в себя обучение новым технологиям, методикам преподавания и оценке эффективности обучающих модулей по энергоэффективности. Важно создать условия для постоянного профессионального роста педагогов, обеспечивая доступ к современным образовательным ресурсам и практическим тренингам.

Также необходимо внедрение систематической оценки эффективности данных программ для обеспечения их актуальности и результативности.

Методология. Одной из эффективных методик повышения компетенций педагогов является проведение специализированных курсов и тренингов по энергоэффективности. Эти курсы могут включать в себя следующие компоненты:

Теоретическая подготовка: изучение современных подходов и технологий в области энергоэффективности.

Практическая подготовка: выполнение лабораторных работ и участие в реальных проектах по повышению энергоэффективности.

Методические семинары: разработка и внедрение новых обучающих модулей, обмен опытом с коллегами.

Оценка и анализ: проведение регулярных тестирований и оценок эффективности преподавания, использование обратной связи от студентов и экспертов для улучшения образовательного процесса.

Примером такой методики может служить курс, включающий лекции по современным энергосберегающим технологиям, практические занятия в лабораториях с использованием новейшего оборудования, а также участие в проектах по оптимизации энергопотребления в учебных заведениях.

Результат. Проведенное исследование по методике повышения компетенций педагогов технических вузов в области энергоэффективности показало значительные положительные изменения в качестве образовательного процесса и подготовки студентов. В исследовании приняли участие 50 преподавателей из различных технических вузов, которые прошли специализированные курсы и тренинги по энергоэффективности.

Основные результаты:

Повышение уровня знаний и навыков педагогов:

85% участников отметили значительное улучшение своих теоретических знаний в области современных энергосберегающих технологий.

78% педагогов сообщили о повышении своих практических навыков в применении этих технологий на практике.

Улучшение качества образовательного процесса:

70% студентов, обучавшихся у педагогов, прошедших переподготовку, отметили улучшение понимания и восприятия материалов по энергоэффективности.

65% студентов отметили, что практические занятия стали более интересными и полезными для их профессионального развития.

Внедрение новых методик преподавания:

60% преподавателей внедрили новые обучающие модули, разработанные в рамках тренингов, в свои учебные программы.

55% педагогов стали активнее использовать лабораторные работы и проекты, связанные с энергоэффективностью, что способствовало лучшему усвоению материала студентами.

Оценка эффективности обучающих модулей:

75% студентов, участвовавших в новых обучающих модулях, продемонстрировали улучшение своих оценок по дисциплинам, связанным с энергоэффективностью.

68% студентов отметили, что новые методы преподавания способствовали лучшему пониманию практических аспектов энергоэффективности и их применения в реальных условиях.

Обратная связь и удовлетворенность:

80% преподавателей выразили высокую степень удовлетворенности проведенными курсами и тренингами.

72% студентов дали положительные отзывы о качестве преподавания и отметили значительное улучшение взаимодействия с педагогами.

Заключение. Развитие компетенций педагогов технических вузов в области энергоэффективности является ключевым фактором повышения качества образования и подготовки специалистов, способных эффективно работать в современных условиях. Систематическое обучение и профессиональная переподготовка педагогов, внедрение инновационных методик преподавания и оценка их эффективности позволят создать прочную основу для формирования высококвалифицированных кадров, способных вносить значительный вклад в улучшение энергоэффективности различных отраслей. Успешная реализация данных мер зависит от комплексного подхода, включающего как теоретическую, так и практическую подготовку, что обеспечит устойчивое развитие образовательного процесса и достижение поставленных целей.

Литература.

1. Зиновкина, М.М. Креативное инженерное образование. Теория и педагогические инновационные технологии: монография / М.М. Зиновкина. - М.: Изд-во МГИУ, 2003. - 350 с.

2. Рындак, В.Г. Педагогика креативности: монография / Рындак В.Г. - М.: Изд. дом. «Университетская книга», 2012. - 284 с.

3. Игамбердиев, Д. Х., & Абдурахманов, А. М. (2020). РОЛЬ РУКОВОДИТЕЛЯ ПРИ СОЗДАНИИ УСЛОВИЙ ДЛЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА. *ББК 94.3+ 65 О 753*, 34.

4. Игамбердиев, Д. Х., & Абдурахманов, А. М. (2020). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ. *ББК 94.3+ 65 О 753*, 38.

5. Abdurakhmanov, A., & Pak, D. A. (2020). TO THE PROBLEM OF THE CONTENT OF TEACHING A PROFESSIONAL FOREIGN LANGUAGE AT A TECHNICAL INSTITUTE IN THE CIRCUMSTANCES OF INNOVATIVE CREATION ON THE MODEL OF TPU. In *Человекознание* (pp. 4-6).

6. Abdurakhmanov, A. M., & Pak, D. A. (2021). Analysis of a research of a technique of construction of reinforcing frameworks. *Сборник статей подготовлен на основе докладов Международной научно-практической, 3.*

7. Kobilov, B. U., & Abdurakhmanov, A. M. (2021). theoretical justification of criteria of capacity of Knots and components of the equipment. In *концепции,*

теория и методика фундаментальных и Прикладных научных исследований (pp. 136-137).

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Пак Диана Александровна,
Джизакского государственного педагогического университета,
tumangroz@gmail.com, +998932906122

Аннотация. В данной работе рассматривается вопрос цифровизации образования и развития профессиональных компетенций педагогов дошкольного образования. Автор анализирует проблемы, возникающие в процессе цифровизации образования, особенно в контексте дошкольной педагогики, а также предлагает эффективные решения. Освещаются различные аспекты внедрения цифровых технологий в педагогическую практику, а также приводятся результаты исследования, демонстрирующие положительное влияние данной методики на профессиональное развитие педагогов.

Abstract. This paper examines the issue of digitalization of education and the development of professional competencies of preschool teachers. The author analyzes the problems arising in the process of digitalization of education, especially in the context of preschool pedagogy, and also offers effective solutions. Various aspects of the introduction of digital technologies into teaching practice are highlighted, and the results of the study are presented, demonstrating the positive impact of this methodology on the professional development of teachers.

Annotatsiya. Ushbu ishda ta'limni raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif ta'limni raqamlashtirish jarayonida, ayniqsa maktabgacha ta'lim pedagogikasi kontekstida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi va samarali yechimlarni taklif etadi. Raqamli texnologiyalarni pedagogik amaliyotga joriy etishning turli jihatlari yoritiladi hamda ushbu metodikaning pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadigan tadqiqot natijalari keltiriladi.

Ключевые слова: цифровизация, образование, профессиональные компетенции, педагоги, дошкольное, методика, интеграция, технологии, развитие, анализ

Keywords: digitalization, education, professional competencies, teachers, preschool, methodology, integration, technology, development, analysis

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lim, kasbiy kompetensiyalar, pedagoglar, maktabgacha ta'lim, metodika, integratsiya, texnologiyalar, rivojlanish, tahlil

Введение. В современном информационном обществе цифровизация играет ключевую роль в различных сферах жизни, включая образование. Она проникает в каждый уголок образовательного процесса, изменяя не только методы обучения, но и подходы к развитию профессиональных компетенций

педагогов дошкольного образования. В данном контексте, становится необходимым рассмотреть проблемы, связанные с этим процессом, а также предложить соответствующие решения и методики для успешной адаптации педагогов к новым вызовам. Одной из основных проблем, стоящих перед цифровизацией образования и развитием профессиональных компетенций педагогов дошкольного образования, является отсутствие достаточного оснащения учреждений дошкольного образования современными технологическими ресурсами и недостаточная подготовка педагогов к использованию цифровых инструментов в образовательном процессе. Это приводит к недоиспользованию потенциала цифровизации и замедляет развитие профессиональных компетенций педагогов. Для преодоления данной проблемы необходимо внедрение комплексного подхода, включающего в себя не только обновление технической базы дошкольных учреждений, но и систематическую подготовку педагогов к использованию цифровых технологий. Это включает в себя проведение специализированных курсов и тренингов, организацию мастер-классов и практических занятий по использованию цифровых инструментов в образовательном процессе.

Методология. Одной из эффективных методик, способствующих развитию профессиональных компетенций педагогов в условиях цифровизации, является принцип "обучение на примере". Эта методика предполагает интеграцию цифровых технологий в сам процесс обучения педагогов. Путем ознакомления с современными образовательными платформами, приложениями и программным обеспечением педагоги могут освоить новые методики обучения и разработать собственные уроки, адаптированные к потребностям детей дошкольного возраста.

Результат. Результаты проведенного исследования показали значительное улучшение профессиональных компетенций педагогов дошкольного образования после применения методики "обучение на примере". Согласно данным исследования:

Уровень уверенности в использовании цифровых инструментов: Более 80% участников исследования выразили повышенную уверенность в своих навыках работы с цифровыми технологиями после завершения обучения по методике "обучение на примере".

Уровень интеграции цифровых инструментов в педагогическую практику: Более 70% опрошенных педагогов отметили, что начали активно использовать цифровые инструменты в своей педагогической деятельности после обучения по данной методике.

Качество образовательного процесса: Более 90% родителей отметили улучшение качества образовательного процесса для их детей после внедрения цифровых технологий в дошкольные учреждения, что свидетельствует о положительном влиянии методики на обучение и воспитание детей.

Профессиональное развитие педагогов: Почти 75% участников исследования отметили, что обучение по методике "обучение на примере"

способствовало их профессиональному развитию и повышению квалификации в области использования цифровых технологий в образовательном процессе.

Результаты исследования подтверждают эффективность методики "обучение на примере" в развитии профессиональных компетенций педагогов дошкольного образования и успешной адаптации образовательной системы к вызовам цифровой эпохи.

Таблица дает обзор результатов исследования, подчеркивая положительное влияние методики "обучение на примере" на профессиональные компетенции педагогов и качество образовательного процесса.

Таблица 1.

Оценка цифровизации в дошкольном образовании и её влияние на профессиональное развитие педагогов

Показатель	Процент	Оценка
Уверенность в использовании цифровых инструментов	80%	Высокая уверенность (+)
Интеграция цифровых инструментов в педагогическую практику	70%	Положительная интеграция (+)
Качество образовательного процесса	90%	Положительное влияние (+)
Профессиональное развитие педагогов	75%	Положительное развитие (+)

Заключение. Цифровизация образования и развитие профессиональных компетенций педагогов дошкольного образования представляют собой важное направление современной педагогики. Решение проблем, связанных с этим процессом, требует комплексного подхода, включающего в себя не только обновление технической базы и проведение специализированных мероприятий, но и активное вовлечение педагогов в процесс цифровизации через методику "обучение на примере". Подобные усилия позволят создать условия для качественного развития профессиональных компетенций педагогов и обеспечат успешную адаптацию образовательной системы к вызовам цифровой эпохи.

Литература.

1. Горвиц Ю. М. Новые решения Apple для образования / Ю.М. Говриц // Информатика и образование. - 2003. - № 2. - С. 69.
2. Крицук Т.В. Принцип наглядности в процессе использования интерактивного оборудования / Т.В. Крицук // Веск адукаци. - 2013. - № 1. С. 29-34.
3. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2023). РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОО В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 628-631.
4. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2023). ИССЛЕДОВАНИЯ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ В ОБЛАСТИ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОО. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 624-627. Пак, Д. А., Абдурахм

5. НОВ, А. М., & Рафиев, Ф. А. (2021). СОЦИАЛЬНАЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *Advances in Science and Technology* (pp. 78-79).

TA'LIM MAYDONIDA O'QITUVCHINING KASBIY SUBYEKTIVLIGINING SHAKLLANISHI

Ilmurodov Samadjon Xolberdiyevich,
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda barcha sohalar qatorida ta'lim sohasida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan o'qituvchi pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, maktab ta'limini yanada takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

O'qituvchilarning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish uchun o'qituvchiga xos bo'lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o'z salohiyatini amalga oshirish istagi, o'zini anglashi va shuningdek, o'zini o'zi boshqarish orqali o'z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ta'lim maydonida subyektivlik tushunchasi kasbiy-pedagogik sohada dolzarbligi sababli, ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biri – o'qituvchining subyektivligi asoslarini, shuningdek dinamikasini aniqlash ham muhim hisoblanadi.

Subyektivik - bir shaxsning, subyektning o'zigagina xos, o'zigagina tegishli xususiyati hisoblanadi. Har bir pedagogda ham xuddi shunday xarakter xususiyat bo'lib, u kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Professional subyektivlik tushunchasi haqidagi yondashuvlarni tahlil qilib, uning quyidagi umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: faol, tashabbuskor, ijodiy, tashkiliy; bilish, fikrlash va harakat qilish; rivojlanishining ma'lum bir bosqichida vujudga keladigan va uning jarayonida dinamik ravishda o'zgarib turadigan; o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini tashkil etish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi amalga oshirish, o'zini o'zi takomillashtirishga qodir; tizimlilik, birlik, yaxlitlik xususiyatlariga ega; boshlash; avtonom.

Ushbu sifatlar qatorini S.D.Deryabo tadqiqotlari orqali davom ettirish mumkin. U insonning zarur qobiliyatlarni rivojlantirish orqali haqiqiy subyektga aylanishi mumkinligiga ishonadi:

1) o‘z-o‘zini tartiblash – inson o‘zini xususiyatlarini atrofdagi dunyoning xususiyatlari bilan muvofiqlashtirish layoqati.

2) o‘zini o‘zgartirish – o‘zining hayotiy faoliyatini boshqarish va o‘zgartirish qobiliyati;

3) o‘z-o‘zini rivojlantirish – o‘z chegaralaridan tashqariga chiqish qobiliyati[1].

Yuqoridagilarga asoslanib, I.V.Vachkov “subyektivlik subyektning muhim sifatlaridan biri” deb ta’riflaydi. Bunda inson subyekt sifatida o‘zining ichki dunyosini atrof-muhitga, jamiyatga namoyon qiladi [2].

V.I.Stepanskiyning fikricha subyektivlik “o‘zini, birinchi navbatda, fiziologik shaxs (somatik men) sifatidagi refleksiv anglash; ikkinchidan, jamoat a’zosi sifatida (ijtimoiy men); uchinchidan, o‘zining ruhiy dunyosi (psixik men) bilan tavsiflangan shaxs sifatida” [3].

O‘qituvchi yuqorida qayd etilgan fazilatlariga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs bo‘lib, u o‘z faoliyatini o‘zining ichki jarayonlari orqali obyektни modellashtirishga yoki o‘zgartirishga yo‘naltirishi mumkin. Ya’ni, uning faolligi tashabbuskorligi, ijodkorligi, o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati tufayli qayta yaratuvchi va o‘zgartiruvchi prinsipga, pedagogik o‘zaro ta’sir subyektiga aylanishi mumkin.

Shubhasiz, o‘qituvchi-pedagogda subyektivlikni uning faolligi yuzaga chiqaradi, subyektivlikni stimulyatori sifatida harakat qilish, intilish yuzaga chiqadi. Bu subyekt hayotida doimiy, mavjudligi intensivligi bilan izohlanadi. O‘qituvchi subyektivligini amalga oshirishda predmetning umumiy xususiyatlarini tashkil etuvchi komponentlar ikkita asosiy komponentni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Vaqt o‘tishi bilan pedagogni kasbiy sohada intensivligini nazarda tutuvchi amalga oshirish dinamikasi. Bunda harakat progressiv va regressiv shaklda namoyon bo‘ladi. Ushbu komponent doirasida bir jarayondan ikkinchisiga o‘tish izchil amalga oshirilmasligi mumkin.

2. Pedagogning o‘zgaruvchanligining determinizmi – xabardorlik shartlilik va ta’sir etuvchi omillarni qabul qilishga yo‘naltirilganlik, o‘zidagi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish. Ushbu komponentning maydonida asosiy konsentratsiyalar tashqi sharoitlarning real yoki sezilgan bosimi ostida subyektning o‘zgarishi yotadi.

Shunday qilib, ko‘rsatilgan markazlashtirishlarni aks ettiruvchi jarayonlar bir tomondan moslashish va o‘z-o‘zini tuzatish, boshqa tomondan o‘zini o‘zi anglash bo‘ladi.

O‘qituvchi - bu alohida subyekt. Uning subyektivligi shaxsiy sifatleri bilan bir qatorda boshqa odamlar bilan bo‘lgan muloqotida ham namoyon bo‘ladi. Subyektivlikning yana bir muhim komponenti bu - katalitiklik.

3. Katalitiklik - boshqalarni namoyon bo‘lishga undash qobiliyati. Katalitiklik erkinlik va direktivlik bilan namoyon bo‘ladi. Natijada, o‘qituvchining kasbiy subyektivligi modeli uchta asosiy komponentlar (rivojlanish dinamikasi, subyektning o‘zgaruvchanligi determinizmi, katalitiklik), ularning har biri markazlashtirish va o‘z-o‘zini qurishda subyektivlikning namoyon bo‘lish jarayonlari bilan belgilanadi.

O‘qituvchining subyektivligi darhol paydo bo‘lmaydi, balki subyektning individual, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishi jarayonida asta-sekin shakllanadi. O‘qituvchining subyektivligi - yaxlit, dinamik ravishda shakllangan shaxs, jamiyat va

ta'lim muhitida o'zini o'ziga, boshqalarga hamda kasbga bo'lgan munosabatlarni kengaytirish jarayonida rivojlanadi.

An'anaviy tarzda o'qituvchining kasbiy subyektivligini shakllantirishning to'rt bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi davr - fanning shakllanishi - quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) individual psixofiziologik asosning shakllanish bosqichi. Ushbu bosqichdan o'tish natijasi shaxsni shakllantirish uchun psixofiziologik shart-sharoitlarni yaratiladi. Bu yerda subyektivlikning shakllanishini tavsiflovchi asosiy jarayonlar fiziologik, aqliy, psixofiziologik, psixologik xususiyatlarning yetukligi, rivojlanishi va shakllanishidir.

2) ijtimoiy va atrof-muhit ta'sirida shaxs va subyektning shakllanish bosqichi. Bu yerda subyektning shaxsiy, individual va ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarini shakllantirishdir. Butun davrning maqsadi shaxsiy rivojlanish va uning kasbiy faoliyatidan qat'i nazar, shaxsning subyektivligini faollashtirishdir.

Ikkinchi davr - kasbiy subyektning shakllanishi - quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

3) kasb-hunar ta'limi va ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan kasbiy-obyektiv bosqich. Uning maqsadi kasbiy kompetensiyalarni va faol professional-subyektiv pozitsiyani shakllantirish bo'ladi. Natijada, birinchi navbatda, professional ahamiyatga ega bo'lgan vakolatlarning individuallashtirilgan to'plami shakllanadi; ikkinchidan, subyektiv faoliyatda professional rahbarlik paydo bo'ladi. Ushbu bosqichning obyektivligi pedagogik faoliyatda kasbiy subyektivlikni amalga oshirish imkoniyati yo'qligi, bu subyektivlik shakllari va elementlarining parchalanishi bilan izohlanadi.

4) kasbiy pedagogik faoliyatni maqsadli va bevosita amalga oshirish sharoitida amalga oshiriladigan kasbiy-subyektiv bosqich. Uning maqsadi kasbiy subyektivlikni yaxlit shakllantirish va amalga oshirishdir. Natijada integral kasbiy subyekt shakllanadi.

O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bachkov I.V. Pedagogik o'zaro ta'sirga ko'p subyektiv yondashuv. // Psixologiya savollari. - 2007. - 3-son.

2. Deryabo S.D. Tabiiy obyektlarning subyektivlashuv hodisasi: Muallif konspekti. dok. dis. M., 2002-yil.

3. Stepanskiy V.I. Subyektivlik xususiyatlari shaxsiy aloqa shaklining zaruriy sharti sifatida // Psixologiya savollari. - 1991-yil - 5-son.

GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Anvar Samyayev,
Samarqand VPYMO 'MM o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada xalq ta'limidagi islohatlar, geografiya fanini o'qitishdagi muammolar, ta'lim jarayonida multimedia vositalarining o'rni, Kvest texnologiyasi, texnologiyaning darslarda qo'llashning afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islohatlar, multimedia vositalari, Power Point dasturi, kvest, Kvest texnologiyasi.

So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar, tom ma'nodagi islohatlar amalga oshirilmoqda. Viloyat va tumanlarda Prezident maktablari, ixtisoslashgan maktablar qurilib, faoliyat ko'rsatmoqda. Umumta'lim maktablari qaytadan ta'mirlanib, zamonaviy o'quv jihozlari bilan jihozlanmoqda. Ta'lim muassasalarida axborot olishning zamonaviy vositalari: kompyuterlar, Internet, interfaol doskalar va boshqalar keng qo'llanilib boshlandi. Bunday sharoitda ta'limda yangi yondashuvlarni faol qo'llash bugungi kunning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda o'quv jarayonida barcha ishtirokchilardan foydalanish va ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish imkonini beradigan zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish kundan-kunga ommalashib bormoqda. XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, har bir ta'lim muassasasida o'qitish va o'qish jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishni hamda boshqarish va ta'lim muassasasi faoliyatini raqamlashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasini modernizatsiyalash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahorati hamda ularning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, elektron manbalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanilgan holda dars o'tish bugungi kunning talabi bo'lib qolmoqda. Ta'limda uzoq vaqt an'anaviy dars o'tish usullaridan foydalanib kelindi. Bunday dars o'tish usuli bugungi kunda samara bermay qo'ydi. Shuning uchun bugungi kunda ta'limda an'anaviy dars o'tish usullari bilan birgalikda, zamonaviy dars o'tish usullaridan ham keng foydalanilmoqda. Ta'limga rivojlangan xorijiy davlatlarning mutaxassislari jalb etilmoqda. Ta'limda bugungi kunning asosiy talabi o'quvchilarni innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ta'lim metodlari orqali mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'qitishning bu usulini ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha tadbiriq qilinib kelinmoqda. Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar samarali bo'lmoqda. Mazkur vosita

yordamida o‘qitishda an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan o‘rtacha 30 % gacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar o‘quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma’lumki, eshitgan materialning to‘rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo‘lsa, o‘quvchilarga beriladigan materialning video (ko‘rish) orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30 % gacha ortadi. Shuningdek, mazkur o‘quv materiallari audio, video, grafika ko‘rinishida mujassamlashtirilgan holatda o‘quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortishi kuzatilmoqda.

Geografiya darslarida ma’ruza, og‘zaki bayon, tushuntirish orqali ko‘p samaraga erishib bo‘lmaydi. Biz o‘qituvchilar har bir darsda o‘quvchilarni lol qoldirishni unutmasligimiz kerak. Zero, donishmandlar aytganidek “donolikga intilish lol qolishdan boshlanadi”. Har bir geografiya o‘qituvchisi o‘z darslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi zarur. Bugungi kunda darslar videoroliklar, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitilgan holda taqdimotli o‘tkazilishi kerak. “Power Point” dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin. Og‘zaki berilgan ma’lumot o‘quvchining ehtiyojini qoniqtirmaydi. Masalan “ Avstraliyaning tabiat zonalarini ” mavzusini o‘tayotganingizda xaltali hayvonlar haqida , ayniqsa xaltali iblis, xaltali bo‘ri(juda kam sonli, qirilib ketish xavfi ostidagi hayvon) haqidagi ma’lumotlar o‘quvchilarning katta qiziqishlariga sabab bo‘ladi. Agar biz darsni Power Point dasturi orqali, yani taqdimotli qilib o‘tsak , o‘quvchi darsni yaxshi tushunadi va ortiqcha savollar bo‘lmaydi.

Geografiya fanini o‘qitishdagi dolzarb muammolardan yana biri-bu mashg‘ulotlarda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanmaslikdir. Mohirona foydalanilgan har qanday ta’lim texnologiyalari sifatli darsni kafolatlaydi. Shunday ta’lim texnologiyalariga Kvest-texnologiyalarini ham kiritish mumkin. “Kvest” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib - “ izlamoq, qidiruv, sarguzasht ” ma’nolarini anglatadi. O‘tgan asrning 90-chi yillarida kompyuter texnologiyalari va ular bilan bog‘liq turli xil o‘yinlar dastlab g‘arb mamlakatlarida, XXI asr boshlarida bizning hayotimizga kirib keldi. Kompyuter o‘yinlari ayniqsa sarguzasht o‘yinlari o‘quvchi yoshlarni kundun-kunga o‘ziga jalb qila boshladi. Maktablardagi odatiy o‘tiladigan darslar ularni qiziqitirmay boshladi.

Sunday bir davrda ,yani 1995 yilda San-Diego universiteti professorlari Berni Dodj va Tom March kompyuter o‘yinlari orqali o‘quvchilarni darslarga qisqitirish taklifini berdi. Ular taklif etgan o‘yin “ kvest”, keyinchalik “ Kvest texnologiyasi” deb atala boshlandi . Kvest texnologiyasidan foydalanib o‘tilgan darslar-bu kechagi zerikarli darslardan butunlay farq qilib, sinfdagi o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga to‘liq sho‘ng‘ishga imkon beradi va darslarning juda jonli o‘tilishiga olib keladi.

Kvest texnologiyasining afzallik tomonlari quyidagilardan iborat:

- turli sarguzashtli o‘yinlar orqali o‘quvchini dars mashg‘ulotlariga qiziqitirish;
- o‘quvchini jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish ;
- o‘yindagi turli jumboqlar orqali o‘quvchini muammoli vaziyatga tushurish va muammoni echishga o‘rgatish;

- dars mashg'ulotlarida olgan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishga o'rgatish ;

- topshiriqlarni bajarish orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Geografiya darslarida Kvest texnologiyalaridan foydalanilsa darslar yanada qiziqarli o'tiladi. Buning uchun dars beradigan o'qituvchi tajribali bo'lishi, kompyuterni yaxshi bilishi va mavzuga sarguzashtli o'yinni bog'lay olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// <https://lex.uz/docs/5030957>

2. Samyayev A. Geografiyani o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni// Ta'limda xalqaro baholash tadqiqotlari: amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar.- Samarqand, 2022

TA'LIM JARAYONIDA XXI ASRDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA INNOVATSION, INTERFAOL VA DIDAKTIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Azizova Dilnoz Yo'ldashevna,

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida XXI asrda yosh avlodni tarbiyalash innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi haqida.

Tayanch so'zlar: Innovatsiya, interfaol, didaktik, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В образовательном процессе воспитание молодого поколения в XXI веке – это система совершенствования образовательного процесса на основе инновационных педагогических технологий, передовых средств, методов, технических средств и методов.

Ключевые слова: Инновации, интерактив, дидактика, технологии, современные педагогические технологии.

Annotation. In the educational process, educating the young generation in the XXI st century is about the system of improving the educational process based on innovative pedagogical technologies, advanced tools, methods, technical tools and methods.

Keys words: Innovation, interactive, didactic, technology, modern pedagogical technologies.

Bugungi bolajonlarning ertaga qanday inson bo'lishi ko'p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o'tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog'liqdir. XXI asrda yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati va prinsiplari.Bola tarbiyasi prinsiplari.Masalan: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, tarbiya berish, unga munosabatni o'zgartirish, ishontirish, rag'batlantirish, kabi usullar.

Interfaollik, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchi – o‘quvchi (sub’yekti – sub’yekti) suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi .

Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bu muammoni hal etishning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, ularda bilim olishga qiziqish, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish, ma’naviyatini shakllantirishni ko‘zda tutadigan o‘qitish metodlari hamda o‘quv-metodik materialni ishlab chiqish va tatbiq etishdan iboratdir. Shu sababli o‘quv jarayonining tuzilishi, uning metodlari va tashkiliy shakllarini doimo takomillashtirish, o‘quv topshiriqlarining bajarilish usullarida yangi elementlarni kiritib borish zaruriyati paydo bo‘ladi. O‘quvchilar faolligini oshirishda metodlarni to‘g‘ri tanlab, bilish faoliyatini oqilona boshqarish yordamida erishiladi.

“Innovatsiya – yangilik” so‘zining qachon paydo bo‘lganligi aniq bo‘lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga, tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo‘lib, unga turli ta’riflar va fikrlar bildirilmoqda.

Innovatsiya jamiyat paydo bo‘lishidan boshlab o‘zgarib kelinmoqda. Ba’zi pedagoglar innovatsiya so‘zini tor ma’noda ta’limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda. Ta’lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o‘qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Talim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Zamonaviy ta’limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg‘or texnologiyalarni hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonning didaktik ta’minotini yaratish, ta’lim mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak. Bu muhim vazifani ijobiy hal etilishi ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha

yondashuvni taqozo qiladi. boshlang'ich ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish zarurdir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalarining qo'llanilishi nafaqat o'qituvchi faoliyatiga, balki o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi hamda shakllanishiga asos bo'lmoqda.

Darslikning multimedia ilovasida videolavhalar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, mashq-topshiriqlar, rebus va krossvordlar berilgan bo'lib, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantiradi, mantiqiy fikrlash va hozir-javoblik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qish darslarida lug'at ustida ishlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, dars samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda darslik materiallarini o'rganish bilan bo'g'liq holda olib boriladi. lug'at ustida ishlashda o'quvchilar matn ichidagi ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ochib beriladi. Shu bois so'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamaydi, asar mazmunini ochib beruvchi zarur bo'lgan so'zlarga qisqacha izoh beriladi. Bu esa o'quvchilar so'z bo'yligini oshiradi va ravon nutqni rivojlantiradi. Demak, dars jarayonida o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash va muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish ko'nikmalari shakllanadi. Darslarning yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilishi «o'qish» fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshiradi.

Interfaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfdagi har tomonlama muhokama etiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Interfaol usullar xilma-xil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq.

Interfaol metodlarning qo'llanilishi darslarda beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilda olingan bo'sh o'quvchilarni ham bir oz bo'lsada, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfdagi kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. Demak, o'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o'quvchiga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak.

Dars jarayonida "Charxpalak", "Insert", "Blis-o'yin", "Rezyume" kabi interfaol metodlardan o'rinli foydalanish, dars samaradorligini oshiradi.

Insert – o'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan vositadir.

"Rezyume" texnologiyasi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi.

“Blis-o‘yin” texnologiyasi quyidagicha tashkil qilinadi. O‘quvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra o‘quvchi javobi bilan to‘g‘ri javob o‘qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

“Charxpalak” metodi o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgata tish hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Interfaol metod ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta‘sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari norasmiy bahs munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiyatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta‘minlagan bo‘lar edi. Endi ta‘lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amallarga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi .

Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi .

Ta‘lim – tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta‘lim olish motivlarini, ularni turi yo‘lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda talil qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mutaql qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. Mualliflar guruhi. Toshkent? 2008.
2. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008 y.
4. Nishonaliev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. Xalq ta'limi. 1999. № 6. 28-31 b.
5. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. /Monografiya. -T.: Fan, 1995 y. -127 b.
6. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING O'RNI

Boymatov Bekzod Xidirboyevich,

A.AVLONIY nomidagi MTI tayanch doktranti
e-mail: [bekzodboymatov 1985@gmail.com](mailto:bekzodboymatov1985@gmail.com)

Annotasiya. Hozirgi globallashtirish va axborot asrida ta'lim jarayonlari o'qituvchilardan ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, pedagogik bilimlarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etishda elektron axborot ta'lim resursi o'rni juda katta. Chunki elektron axborot resurslardan integrativ yondashuv asosida foydalanish, maktab o'quvchilarning fanlarni anglash va tushunish kabi imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, metod, elektron axborot ta'lim resurslar, axborot texnologiyalari, axborotlashtirish, zamonaviy ta'lim, media va mediakompetentlik, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, mediatexnologiyalar, axborot resurslar majmuasi, asosida o'qitish.

Аннотация. В современный век глобализации и информации роль электронного информационного образовательного ресурса очень важна в развитии научного мировоззрения учителей, выявлении педагогических знаний и практической реализации образовательных процессов. Потому что использование электронных информационных ресурсов на основе интегративного подхода расширяет возможности школьников в понимании и понимании предметов.

Ключевые слова: Образовательная система, метод, электронные информационные образовательные ресурсы, информационные технологии, информатизация, современное образование, медиа и медиакompetentность,

обучение на основе педагогических технологий, инновационные технологии, медиатехнологии, комплекс информационных ресурсов.

Abstract. In the current globalization and information age, the role of electronic information educational resource is very important in the development of scientific outlook of teachers, identification of pedagogical knowledge and practical implementation of educational processes. Because the use of electronic information resources based on an integrative approach expands the capabilities of schoolchildren to understand and understand subjects.

Key words: Educational system, method, electronic information educational resources, information technologies, informatization, modern education, media and media competence, teaching based on pedagogical technologies, innovative technologies, media technologies, information resource complex.

Kirish. Umumta'lim maktablarda tabiiy fanlarni o'qitish metodologiyasini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslari ham muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Hozirgi kunda tabiiy fanlarni o'qitish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan bo'lsa-da, o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'rganishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, xaritalar ustida ishlashda o'quvchilarning bilish va ijodiy fikrlash faoliyatini shakillantirishga doir bir qancha tadqiqot ishlari yaratish lozim.

Yurtimizning barcha umumta'lim maktablarda elektron ta'lim resurslari asosida o'quvchilarning tabiiy va umummadaniy savodxonligini rivojlantirish borasida ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy pedagogika axborot texnologiyalari va elektron ta'lim resurslardan foydalanib, umumta'lim maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarining dasturiy vositalari, ayniqsa fanga oid mediakompetentligini rivojlantirish va innovasion texnologiyalardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-conli[2], 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmon [3]larida ta'lim jarayonlarini zamon talablariga mos tashkil etish borasida asosiy vazifalar belgilab berilgan. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'plab adabiyotlarda Tabiiy fanlar (Science) tushunchasiga bir qancha ta'riflar berilgan. Jumladan, "Science" - atamasi ham keng, ham xalqaro fan sifatida mo'ljallangan takliflarni tavsiya etuvchi, zamonaviy ta'limga yo'naltirilgan hamda fanlararo integratsiyalarni amalga oshiruvchi ta'lim vositasi [4], O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 24-dekabrda 414-sonli buyrug'ga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2022-2023-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash [5]., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoniga ko'ra, STEAM ta'limini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari[6].

Ta'lim jarayoniga yangi metodlarni samarali joriy etishda ta'lim muassasalari pedagoglariga yordam beruvchi ta'lim texnologiyalar markazini tashkil etib, unda

o'qituvchi o'z ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda bir qancha metodik tavsiyani birlashtirgan, ya'ni turli yangi metodlarni taqqoslash, tinglay olish, fikrlar xilma-xilligi va ularning nisbiyligi turli metodlardan foydalana olish mahoratini o'z ichiga olsa, boshqa tomondan esa tabiiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasini tashkil etish tamoyillari haqidagi ta'lim mazmunini aniqlash mahorati tashhishlash kabi bilimlar nazarda tutiladi [7]

Tabiiy fanlar(science)ni umumta'lim maktablarda o'qitishda elektron ta'lim resurslarini kiritilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro amaliyotda va O'zbekistonda olib borayotgan tajribalar o'rganildi. Yani tabiiy fanlar(science)ni o'qitishda ayniqsa, o'quvchilarga olam va borliqqa nisbatan bilimlarini oshirishga yordam beradi. Kelajakda o'quvchilar kimyo, fizika, biologiya kabi fanlar qiyin emasligini, balki ularning juda ham qiziqarli ekanligini anglab va ta'lim samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Odatda, maktab o'quvchilari bu fanlarni o'zlashtirish juda ham qiyin deb tasavvur qilishadi, zero, bu fanlarning barchasi hayotimizga juda ham bog'liq. Tabiiy fan (science) qaysidir fanlarning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Aksincha, u ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integrativ tarzda o'qitilishini ta'minlaydi. Masalan, yomg'ir yog'ish jarayonini kuzatish orqali o'quvchi uning tarkibini (biologiyaga oid tushunchalar), qanday hosil bo'lishi (fizik xususiyatlari), qaysi fasllarda qayerlarda ko'proq yog'ishi (geografik xususiyati), yomg'ir ta'sirida yerda qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Tabiiy fanlar(science)ni umumta'lim maktablarda o'qitish metodologiyasini yanada takomillashtirish uchun elektron ta'lim resurslaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Tabiiy fanlar(science)ni o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslari asosida vujudga kelgan bir qancha turga ajratish mumkin:

1. Elektron ta'lim resurslarining o'quvchilar uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashuviga yordam beradi;
2. Tabiiy fanlar(science)da amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati;
3. Tabiiy fanlar(science)ni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

Tabiiy fanlar(science)ni o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatmoqda-ki, umumta'lim maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda ayniqsa, elektron ta'lim resurslardan foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlar, amaliy yondashuvlarning xorijiy manbalarni o'rganishlar, elektron ta'lim resurslar, asosan, milliy ahamiyatga molik fanlar, ustuvor tarzda tabiiy fanlar(science)ni o'rganish jarayonida foydalanilgan. Shuningdek, tabiiy fanlar(science)ni o'qitish samaradorligini hozirgi kunda yanada rivojlantirish uchun elektron ta'lim resurslarning quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

- 1) ta'lim muassasalarini zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va ulardan tabiiy fanlar(science)ni o'qitish jarayoni samaradorligini oshiruvchi yangi metodik o'quv qurol sifatida foydalanish;

2) zamonaviy elektron ta'lim resurslarining ma'lumotlar bazasidan foydalanib, tabiiy fanlar(science)ni o'qitish jarayonini qo'llab, ilmiy, o'quvmetodik axborotlar bilan ta'minlashda foydalanish;

3) tabiiy fanlar(science)ni o'qitish jarayonining yangi shakllarini keng rivojlantirish, ta'lim jarayoni miqyosini kengaytirish, o'quvchilarning dunyo mamlakatlari ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

4) o'quvchilarni faqat tabiiy fanlar(science) bo'yicha tayyorlash emas, balki tabiiy fanlar(science)ni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish uchun zaruriy malakani shakllantirish.

Umumta'lim maktablarda tabiiy fanlar o'qituvchilari elektron ta'lim resurslaridan dars vaqtida ham darsdan tashqari vaqtlarda ham foydalanishlari uchun keng ko'lamda ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, tabiiy fanlar o'qituvchilari o'quv faoliyatida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, ma'lumotlar bankida kerakli bo'lgan didaktik materiallarni yig'ishga imkoniyat yaratib beradi. Bunda avvalo nazorat ishlari va imtihon savollar variantlarini, mustaqil ishlar, misol turlari va testlarni blanka kabilarni misol qilish mumkin. Bir guruh olimlarning ta'kidlashlaricha dars vaqtida tabiiy fanlardan katta miqdordagi raqamli ta'limga oid (raqamli ta'lim resurslari-RTR) va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ma'lumotlar bazasining mavjudligini va ulardan o'qituvchilarga darsning istalgan vaqtida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish xalq ta'limi tizimini axborotlashtirish talablariga muvofiq quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qitishning shaxsga yo'naltirilganligi;
- ma'lumotlar bazasini ilmiy va kasbiy talablarga muvofiqin interaktiv egallashga erishish;
- o'quvchilarni intellektual va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatiga, o'zaro bilimlarni o'rtoqlashish va hamkorlikka intilishlarini orttirish;
- multimedia texnologiyasining zamonaviy imkoniyatlari yordamida o'quvchi faoliyati motivatsiyasini orttirish;
- o'quvchilarni o'qitishning axborot muhitini yaratish.
- muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari - ko'rgazmali material sifatida;
- o'quvchilarning guruhli va individual ishlarini tashkillashtirishda;
- o'quvchilarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda.

O'quvchilarning tabiiy fanlardan komptentligini oshirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'rganilayotgan o'quv-ma'lumotlarni animatsiya, audio va video shaklda taqdim etish;
- o'quvchi idrok va bilish jarayonining to'liq ishtirokchisiga ayladigan o'quv jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning interfaol hamkorligi;
- har xil tashqi axborot manbalari bilan mustaqil ishlash imkoniyati;

- o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni onlayn test sinovlari tizimlari orqali doimiy monitoring qilish va baholash.

Umumta'lim muassasalarida zamonaviy elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minot bilan jihozlash, o'z navbatida, elektron ta'lim resurslarning keng foydalanish va ta'lim jarayonida qo'llay olish alohida ahamiyatga ega. Ushbu turkum global, mintaqaviy va mahalliy kompyuter tarmoqlarining, shu, jumladan Internet axborot tarmog'ining asosi bo'lib, resurslarga umumiy kirishni ta'minlaydigan yagona axborot makonini yaratadi. Ta'limga bunday yondashish o'quvchining tabiiy fanlarga qiziqishini oshiradi, eng muhim ma'lumotlardan batafsil xabardor bo'lish imkon beradi va o'rganilgan materialni amalda qo'llash kompetensiyasi yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari elektron ta'lim resurslardan foydalangan holda didaktik o'quv jarayonini to'liqligini va uzluksizligini ta'minlash talabi axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ishlash davomida ta'limning barcha bo'g'inlarini anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar: Tabiiy fanlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan elektron ta'lim resurslardan foydalanishda usullar va texnologiyalar, grafik organayzerlar juda ko'p va ular yuqori natijaga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga kelajakda tabiiy fanlar o'qitish metodikasida yangidan-yangi o'qitish usullari va texnologiyalari shakllanishi shubhasizdir. Umuman olganda tabiiy fanlarning o'qitishda foydalaniladigan usullardan dars samaradorligini oshirishda turli xil variantlarni qo'llash o'quvchilarning darslarga va tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarni oshishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda tabiiy fanlar o'qituvchilari darslarda elektron ta'lim resurslardan foydalanishda quyidagi taklif va tavsiyalarni berib otadamiz:

-birinchidan, darslarga hamisha tayyor holatda kirish, o'tilgan dars va yangi mavzuni bir-biri bilan bog'lay olish;

-ikkinchidan, darsni ko'rgazmaligini ta'minlay olish(garchand bu ko'p vaqt va mehnat talab qilsada),ulardan o'z o'rnida foydalanish;

-uchinchidan,tabiiy xaritalarni o'qiy olishni o'rgatish hamda yirik tabiiy obyektlarni joylashuvi haqida ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlash;

-to'rtinchidan, yozusiz xaritalar bilan ishlashi doimiy yo'lga qo'yish va berilgan vazifalarni bajarilishini nazorat ostiga olish;

-beshinchidan, tabiiy fanlar darslarida laboratoriya va amaliy ishlarga chuqur e'tibor qaratish hamda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'z ustuda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

-oltinchidan, tabiiy fanlar o'qituvchining hamda iqtidorli o'quvchilarni doimiy o'z ustida ishlash darajasiga olib chiqish va bu borada uni rabg'atlantirish usullarni izlab topish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-conli Farmoni.

2. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2021-yil 24-dekabrda 414-sonli buyrug‘ga muvofiq umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash [5].,

4. Qurboniyozov R. Geografiya ta‘limi metodikasi. T., Universitet, 1994 yil.

5. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2005 yil.

6. B.E.Turayev, X.Isayev, G.O.Akbarova // Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi // o‘quv qo‘llanma. -T.: “Barkamol fayz media”, 2018 yil.

7. Abdullayeva D Fanlarni o‘qitishda ta‘lim metodlaridan foydalanish. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiyalar 2021 yil.

8. UNESCO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In Education for the Media and the Digital Age Vienna pp 273-274.

9. Abduqodirov.A.A., Ishmuxamedov R., Pardayev.A., Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste‘dod, 2008 yil.

13. S.S.Jumanazarov, M.P.Masharipov Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik. T.:2022yil O‘quv uslubiy majmua 193 bet.

14. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T.:“Nihol”, 2013 yil.

15. Hamidov V.S., Tigay O.E. “Fizikani o‘qitishda simulyatorlardan foydalanish. Fizika va astronomiya muammolari”. O‘qitish metodikasi. Respublika ilmiy va ilmiy-metodik konferensiya materiallari to‘plami, 2010 yil.

<http://ta'lim.uz>, <http://pedagog.uz>. <http://ziyonet.uz>. <http://media.ru>.
<http://ziyonet.uz>. <http://science.uz>. <http://pedagog.uz>

BO‘LAJAK MUSIQA TA‘LIMI O‘QITUVCHILARINI XOR DIRIJORLIGIGA OID KASBIY KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH.

Boliyev Uchqun Ismatovich,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institut San‘atshunoslik fakulteti “Musika ta‘limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Omanqulova Shohida Nematillo qizi,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institut San‘atshunoslik fakulteti “Musika ta‘limi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Oliy pedagogik ta‘limning musiqa ixtisosligidagi amaliy ijrochilik bilan bog‘liq fanlar (vokal ijrochiligi, dirijorlik, cholg‘u ijrochiligi xor va xorshunoslik asoslari) o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, darslarda talabalarni fan bo‘yicha maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yo‘naltirilgan vazifalardan tashqari ularni amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olish, ya‘ni ijodiy ijrochilik malakalarini egallashlari ham talab etiladi. Bu ayniqsa

talabalarni maktab faoliyatiga eng muhim bo'lgan xor ijrochiligiga ko'proq talluqlidir. [2.7]

Respublikamizda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlod tarbiyasiga, ayniqsa, bo'lajak pedagog kadrlarni umummadaniy, g'oyaviy – siyosiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama yetuk shaxs va mutaxassis kadrlar qilib yetishtirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

Xor san'ati shunday bir san'atki, unda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Bu san'at vujudga kelishi bilan xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq. Uning bir tarmog'i sifatida o'zi mansub bo'lgan xalq musiqi madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga muhim ro'l o'ynab kelgan.

Jamoaviy qo'shiq kuylash xalqimiz qo'shiqchilik madaniyati tarixida ham o'zining qadimiy ildizlariga egadir. Chunki, jamoaviy ijrochilik uzoq tarixga egadir. Kishilar o'zining mehnat faoliyati turmushidagi turli mehnat va marosim, mavsumlarga bog'lab qo'shiqlar kuylashgan. Bu qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib sayqallanib, mukammallashib kelgan. Ayollarni yor-yorlari, laparlari, beshqarsak, ramazon qo'shiqlari, marsiyalar jamoaviy tarzda aytilgan. "Shashmaqom" ning vokal qismidagi taronalar ham ko'pchilik ijrochilar tomonidan kuylangan. Ularning barchasi o'zbek professional xor san'ati rivojlanishiga zamin yaratgandir desam aslo xato bo'lmaydi.

Xor san'atida, umuman olganda maktab musiqi darslarida ham ishtirokchi-xonandalar jamoasi uchun musiqiy asar tanlash eng muhim shartlardan biridir. Asar mavzusi, janri, o'quvchilar ijrochilik imkoniyatlariga mosligi muhimdir.

Hozirgi vaqtda xor san'ati maktab musiqi darslarida yetakchi faoliyat bo'lib, maktabda sinfdan tashqari xor to'garaklari tashkil qilishiga ham e'tibor kuchayib bormoqda. Chunki xor to'garaklari ko'p sonli o'quvchilarni qamrab olish bilan ham alohida ajralib turadi. Musiqi darslarida esa bir sinf bir xor jamoasi hisoblanadi. Sinf kesimida yaxshi yo'lga qo'yilgan vokal-xor, ishlari, badiiy ijrochilik, ovoz jarangdorligi, qo'shiq aytish malakalarini egallash namunasidir. Musiqi darslarida o'quvchilarni qo'shiq kulaylashga, jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish yosh va musiqiy ijrochilik imkoniyatlarini aniqlash va nazariy jihatdan aniqlangan prinsip va metodlarga tayanib ish tutishini talab qiladi. Bo'lajak musiqi o'qituvchilari bu faoliyatda xorda kuylashning eng muhim unsurlari, ya'ni vokal xor malakalarini egallash bilan bir qatorda o'zlari ham xor jamoasi bilan ishlashga tayyorlanib borishlari kerak bo'ladi. Manba musiqi darslarida xor bo'lib kuylash eng yetakchi va darsning asosiy qismini tashkil etuvchi, o'quvchilarni yalpi qamrab oladigan faoliyat hisoblanadi. Bundan tashqari bu ancha murakkab jarayon bo'lib, xor rahbarida ko'p qirrali bilim, tajriba, malakalarni talab qiladi. O'z – o'zidan ravshanki, jamoaviy ijrochilik dirijorlik boshqaruvisiz bo'lmaydi. Bu faoliyatda o'qituvchi ham xor rahbari, ham dirijor, ham xonanda, ham konsertmystr (cholg'uchi akkompanimator) vazifalarini bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun oliy ta'limdagi tahsil jarayonida dirijorlikka tayyorlashning eng muhim usul va shakllari haqidagi bilimlar ular uchun ortiqchalik qilmaydi, aksincha ular bu borada bilim va malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlariga to'g'ri keladi.

Musiqiy ta'limning oliy pedagogika tizimdagi mavjud bosqichida musiqa fanlarining o'qitishning asosiy vazifalaridan biri – ijodkor shaxsni shakllantirish hisoblanadi. Bu vazifa musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega, zero har qanday mustaqil faoliyat – ijoddir. Shu o'rinda talaba va o'quvchilarning tashabbuskorligini, ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga nimalar ijobiy ahamiyat kasb etadi yoki asosiy turtki bo'ladi degan savolga kengroq to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. [3.21]

Masalan, o'quv jarayoniga taniqli dirijor – pedagog G.G.Golik tavsiya etgan uslubga binoan bastakorlik ijodi elementlarini ko'rsatish mumkin. Bular talabalarning xor asarlarining she'riy matnlari, xor aranjirovkalari asosidagi mustaqil izlanishlari bo'lishi mumkin. Bu esa dirijyorlik qilayotgan asarga o'z ijodiy "qarashlari", "fantaziyasi" ni yaratishga, tashabbuskorligini, ijodiy tasavvur qilish, o'z kuchiga ishonchini oshirishiga yordam beradi. Xor dirijyorligi o'quv kursidagi pedagogik jarayoniga o'qitishning muammoli texnologiyalarini kiritish ham sezilarli darajada foydali ahamiyat kasb etadi. O'qitishning bu shaklida talabaga asarning shakli, tuzilishi, o'lchovi, lad – tonalligi, xarakteri haqidagi muammoli savol tashlanadi va sinfdagi talabalar unga o'zlarini javoblarini bildirishadi va amaliy ko'rsatib berishlari so'raladi. Xor asarlarini tahlil qilish ham talabalarni asarlarga dirijyorlik qilishda asarni to'laligicha idrok qilish, eng muhim jihatlarni tushunish, bilish va dirijyorlik jarayonida e'tiborda tutish, qolaversa asarni dirijyorlik yo'nalishida oson o'zlashtirishlarida qo'l keladi. Chunki, asarni nazariy tomondan yaxshi o'zgarimasdan turib unga amaliy yondashish, ya'ni dirijyorlik qilish bilan ko'zlangan maqsadga erishish to'g'risida fikrlash mantiqan noto'g'ridir.

Bunday uslublar talabalarning musiqiy tafakkurini faollatiradi, kuzatuvchanligini oshirib, mustaqil faoliyat yuritishga o'rgatadi. Dirijyorlikka tayyorlashda talabalarning ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab mustaqil ishlash, topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Oliy pedagogika ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini "Dirijyorlik" fani bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagilar alohida ahamiyatga ega. Dirijyorlik bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida talabalarni fan sirlarini puxta egallash, xor asarlariga dirijyorlik qilish, asarlarni mustaqil o'rganish, ovoz partiyalarini yod olish, asarlarga dirijyorlik qilish rejasini tuzib chiqish, xor bilan ishlash va xor jamoasini boshqarish va boshqalar. [1.46]

Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg'uloti o'qituvchidan musiqa nazariyasi, tarixi, solfedjio, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik va xor bilan ishlash bo'yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiiyki, bu san'at yo'nalishlari bo'yicha yitarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg'u asbobida chalish, dirijyorlik qilish, vokal – xor malakalari xor bilan ishlash) bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari bir xil darajada bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqiy ta'lim-tarbiya mazmunida xor bo'lib qo'shiq kuylash eng qulay, ommaviy ya'ni o'quvchilarni qamrab oluvchi san'at turi bo'lib xor ijrosi uchun yozilgan asarlar yoshlarni ma'naviy, ma'rifiy estetik ruhda tarbiyalashda kuchli ta'sirchanlik kasb etadi. Bugungi kunda umumta'lim maktab musiqa o'qituvchilarini xor dirijyorligiga tayyorlash dolzarb

vazifalardan bo'lib, maktab musiqa darslarini yuqori sifat va samaradorlik kasb etishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor ijrochiligi amaliy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi yetakchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qudratov I. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil qilish va ishlash metodikasi. -Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti 2006y. 126 b
2. Oliy ta'lim bakalavrlar tayyorgarligining minimal darajasiga qo'yilgan talablar. Musiqiy ta'lim, DTS.-T.: O va O'MTV, 2022y.
3. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa. -T.: Ta'lim taraqqiyoti, 6-7-maxsus sonlar, 2022y
4. Azimov K. O'zbekiston dirijorlari. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2011yil.

MUSTAQIL TA'LIM OLISH JARAYONIDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

J.T.Mannabov,

*Samarqand viloyat pedgoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti
E-mail: mannabov@umail.uz*

Annotasiya. Ayni zamondagi kasbiy muammolarni hal qilish o'qituvchilarning internet texnologiyalari sohasidagi kompetentligini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa Internet texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: texnologik, kompetentlik, internet-texnologiyalar, kasbiy, pedagogik, faoliyat, o'qituvchi.

Annotasiya. В настоящье время профессиональное решение проблемы напрямую связано с формированием у учителей компетентности в области интернет-технологии. Это можно сделать путем развития и совершенствования знаний и навыков в области интернет-технологии.

Ключевые слова: технологический, компетентность, интернет-технология, профессиональный, педагогический, деятельность, учитель.

Abstract. At present, professional problem-solving is directly related to the formation of teachers' competence in Internet technology. This can be done through the development and improvement of Internet technology knowledge and skills.

Key words: technology, competence, Internet technologies, professional, school, activities, teacher.

Masofaviy ta'limda o'qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini, shakllantirish jarayonida o'qituvchilar uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan tizim va qayd etilgan sohada texnologik kompetentlikni takomillashtirish uchun malaka oshirishni masofadan turib amaliyotga tadbiiq etish sharoitlariga mos keladigan aniq pedagogik shart-sharoitlar zarur.

O'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi kompetentligini takomillashtirish muammolari bo'yicha mavjud nazariy tadqiqotlar, yuqoridagi qayd etilgan sohada muammoni qo'yish va hal qilish imkonini beradi.

Falsafiy lug'atda "shart" atamasi obyektning uning atrofidagi hodisalar bilan munosabatini izohlaydigan kategoriya sifatida ta'riflangan va ularsiz uning mavjudligi qabul qilinishi mumkin emas. Ya'ni, shartlar - o'rganilayotgan obyekt faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan muhitni tavsiflovchi so'zlar va omillardir. Buni mazkur muhitda faoliyat yuritishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan holatlar deb hisoblash mumkin.

"Shart" tushunchasining pedagogika sohasiga tadbiiq etilishi, shuningdek, "o'quv faoliyati shartlari" ga qo'shimcha ta'rif berilishi mumkin - vaziyatlarning umumlashtirilgan to'plami, u amalga oshiriladigan muhit va uning subyekt faoliyatini ta'minlovchi omillar mavjud. Ularning ikkalasi ham muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiluvchi mavjud holatlar prizmasidan kelib chiqadi".

Muayyan pedagogik shartlarga rioya qilish o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi yuqori darajadagi bilimlariga erishish uchun asosdir. Ushbu fikr bizning tadqiqotlarimizning mazmunini tashkil etadi.

Tahlillar asosida, biz "vaziyat" tushunchasiga, vaziyatga yoki muayyan vaziyatda sodir bo'layotgan narsaga har qanday bog'liqlik sifatida qaraymiz.

Nazariy pedagogikada o'quv jarayoni hozirgi vaqtda uning tarkibiy elementlariga, bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqiladi, ularni bir necha guruhlarga birlashtirish mumkin:

- talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini tavsiflovchi shart-sharoitlar;

- o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro munosabatlari shartlari;

- pedagogik jarayonni tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan moddiy-texnik baza.

Masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi texnologik kompetentligini takomillashtirish malaka oshirish tizimiga aloqador bo'lmagan boshqa shartlar bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida o'rganilayotgan obyektga ta'sir qiladigan shartlarni taqdim etamiz.

Tahlil etilayotgan pedagogik shart-sharoitlar - kasbiy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni uchun masofaviy ta'lim orqali o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotimizning tayanch kategoriyasini mazmun va mohiyatini tahlil qilish, ya'ni, "internet texnologiyalari sohasidagi o'qituvchilarning texnologik kompetentligi", muammoning holati, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning internet texnologiyalari sohasidagi malakasini oshirish quyidagi shartlarda samarali bo'ladi:

- Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning doimiy va uzluksiz tarzda kasbiy malakasi va mahoratini oshirib borish;

- Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish

jarayonida loyihalashtirish metodlaridan keng foydalanish;

- Internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchini malakaasini oshirish uchun ta'limni o'ziga xosligini hisobga olgan holda blok-modulli tuzilmani ishlab chiqish.

“Mazmun” - obyektlarning asosini tashkil etadigan va ularning shakllari mavjudligi, rivojlanishi va o'zgarishi uchun shart bo'lgan jarayonlar elementlarining yig'indisidir.

Mazmun deyilganda talabalar egallashi kerak bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalarning jamlangan tizimi sifatida tushunish kerak, bu ularning qobiliyatlari va aql-idrokining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Fikrimizcha, turli sohalarda o'qituvchilarning texnologik kompetentligini oshirishni tashkil etishni shakllantira turib, jumladan Internet texnologiyalaridan ham, birinchi navbatda o'qituvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, faqatgina kasbiy malaka oshirish ta'lim muassasalarining imkoniyatlariga asoslanmaslik kerak. Ushbu tamoyilga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimi mazmuni pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari va talablariga javob beradi.

Hozirgi vaqtda mavjud an'anaviy kunduzgi ta'lim shakllari faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar malaka oshirish kurslari tinglovchilari axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishga qodir emaslar. Masofaviy ta'lim bilan birga, moslashuvchan ilg'or o'quv dasturlarini tuzish va amalga oshirish vazifalari, shuningdek o'qituvchilarning tegishli ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlari, jumladan individual, bir vaqtning o'zida «amalga oshirilayotgan ish mazmuniga mos keladigan ma'lumotni olish zarurligini belgilaydigan shaxs yoki jamoaning mulki» degan ma'noni anglatuvchi Internet texnologiyalari sohasida muammolar o'z yechimini topishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan yondashuvga bo'lgan ehtiyoj o'qituvchilarni malaka oshirish tizimidagi ko'p darajali mazmunida hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining dasturiy tarkibini belgilaydigan tavsiyalar, ta'lim tuzilmalari xodimlariga tegishli bo'lgan kurslar dasturlarining mazmuniga qo'yiladigan quyidagi talablarni qarab chiqamiz:

- zamonaviy ta'limdagi asosiy konsepsiya va yo'nalishlarni, gumanitar fanlar, tabiiy bilim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari, axborot texnologiyalarini joriy qilish uchun aloqa infratuzilmasini takomillashtirish shakllari hamda yo'nalishlarini yoritish;

- o'qituvchilarning axborot va tahliliy materiallarga bo'lgan ehtiyoj darajasini tashhishtirish, o'quv dasturlarini modulli tarkiblashtirilishi;

- mustaqil ta'lim olishni davom ettirish bilan bog'liq tadqiqotlar va muammolarni aniqlash;

- o'quv-tematik rejalar hamda dasturlarning modulli tuzilishi, variativ va invariant modullarning mavjudligi;

- o'quv guruhlari bo'yicha o'qituvchilarni shakllantirish va taqsimlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish.

O'qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirish va uning faoliyat yuritishi uchun yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, Internet texnologiyalari sohasida bilimlari va mahoratini oshirish nuqtai nazaridan malakasini

o'shish tizimi mazmunida modulli tarkib variantini taklif etamiz. Modulli dastur deyilganda - blokni o'rganish uchun batafsil jadvalning mavjudligi, u butun blokni o'rganishning umumiy maqsadi, o'rganilayotgan materiallarning ro'yxati va ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar, bosqichma-bosqich o'ziga xos maqsadlar, ma'lum bir darsda talabning faoliyati turini ko'rsatish, o'zini o'zi nazorat qilishi uchun nazorat savollari va topshiriqlar ro'yxati hamda o'qituvchilar nazorati tushuniladi.

Modul - dastur va masofaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u o'zida ta'lim metodikasi mazmunini namoyon etgani holda mustaqillik darajasi va bilish faoliyati intensivligini o'qitish metodologiyasining individual tarkibiy qismi sifatida o'qituvchilarni tayyorlashda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Masofaviy modulli ta'lim o'quv jarayonida aniq maqsadlarga erishishda to'liq mustaqillikni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog internet texnologiyalari sohasida yuqori darajada kompetentlikka ega bo'lishga zarur. Pedagog mazkur texnologiyalardan o'quv jarayonini optimallashtirishda, ta'lim oluvchilarda shaxsiy kompyuterdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda va o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda faol foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – T., Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b. .
2. Askarov.A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori. dissertasiya avtoreferati. T., 2017.-37 b.
3. Ursova O.V. Razvivayushiy potentsial informatsionnokommunikatsionnykh texnologiy v sisteme povysheniya kvalifikatsii uchiteley-predmetnikov: avtoref. dis. kand. ped. nauk: 13.00.08 / O.V. Ursova; Novgorodskiy gosudarstvennyy universitet imeni Yaroslava Mudrogo. - Velikiy Novgorod, 2006. 24s.
4. Smolyaninova, O.G. Formirovaniye informatsionnoy i kommunikativnoy kompetentnosti buduyeyego uchitelya na osnove multimediyных texnologiy /O.G. Smolyaninova // Informatika i obrazovaniye. - 2002. - № 9.S. 116-119.

O'ZBEKISTONDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ravshanova Muxayyo Tolibovna,

Toshkent xalqaro kimyo universiteti Samarqand fililali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu orqali bolalar tabiatni asrash va ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha ongli fuqarolar sifatida tarbiyalanadi. Ushbu jarayon har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi va rivojlantirilishi lozim.

Kalit soʻzlar: Maktab, daraxt, ekologiya, bogʻ, plastik, multfilm, qoʻshiq, tibbiyot, oʻrmon, matematika, ona tili.

Abstract: In this article, the formation of environmental culture of elementary school students is important for the future of Uzbekistan. Through this, children are educated as conscious citizens in nature conservation and solving environmental problems. This process should be fully supported and developed.

Key words: School, tree, ecology, garden, plastic, cartoon, song, medicine, forest, mathematics, mother tongue.

Аннотация: В данной статье формирование экологической культуры учащихся младших классов имеет важное значение для будущего Узбекистана. Благодаря этому дети воспитываются как сознательные граждане, заботящиеся об охране природы и решении экологических проблем. Этот процесс следует всемерно поддерживать и развивать.

Ключевые слова: Школа, дерево, экология, сад, пластик, мультфильм, песня, медицина, лес, математика, родной язык.

Oʻzbekistonda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish muhim masalalardan biridir. Bu jarayon oʻquvchilarni atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish haqida ongli ravishda oʻylashga oʻrgatishdan iborat.

Yosh avlod taʼlim-tarbiyasi har bir davrda ham muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanib kelgan. Shu sababli ham yoshlarning taʼlim olishiga doimo katta eʼtibor qaratib kelingan va kelinmoqda. Hozirgi kunga kelib Oʻzbekistonda taʼlim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini yanada oshirish, maktabgacha taʼlim tarbiyalanuvchilari, boshlangʻich sinf hamda yuqori sinf oʻquvchilari va oliy taʼlimda bilim olayotgan talaba yoshlarda zamonaviy bilim va koʻnikmalarni shakllantirish, taʼlim tizimi hamda ilm-fan sohasi oʻrtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, erkin ijodiy fikrlashni, taʼlimning uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlarini qayta koʻrib chiqilayotgan bir paytda shu narsa malum boʻldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi inson ongidagi oʻzgarishlar bilan bevosita bogʻliq. Shunday ekan, oʻquvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularda ekologiyaga oid bilim va tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Quyida bu borada amalga oshirilishi mumkin boʻlgan asosiy qadamlar va usullar bayon etiladi:

Ekologik taʼlimni integratsiya qilish:

Darsliklarga ekologik mavzularni kiritish: Boshlangʻich sinf darsliklariga ekologik mavzularni integratsiya qilish muhimdir. Masalan, tabiiyot, ona tili va matematika kabi fanlarda ekologik mavzularni muhokama qilish, misollar keltirish mumkin.

Ekologik oʻyinlar va mashgʻulotlar: Oʻquvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda oʻyinlar va amaliy mashgʻulotlar katta rol oʻynaydi. Ochiq havoda

o‘tkaziladigan ekologik ekskursiyalar, bog‘ va o‘rmonlarda o‘tkaziladigan tadbirlar orqali bolalar tabiat bilan bevosita tanishadilar.

Amaliy faoliyatlar:

Axlatni saralash va qayta ishlash: Boshlang‘ich sinflarda axlatni saralash va qayta ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. Bu o‘quvchilarda chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Eko-loyihalar: O‘quvchilar uchun kichik ekologik loyihalar tashkil qilish. Masalan, maktab hududida daraxt ekish, kichik bog‘ yaratish yoki plastik chiqindilarni yig‘ish kabi faoliyatlar.

Ma‘rifat va targ‘ibot:

Multimedia materiallar: Bolalar uchun mo‘ljallangan ekologik mavzulardagi multfilmlar, videoroliklar va qo‘shiqlar orqali ekologik bilimlarni oshirish. Bu materiallar bolalarning qiziqishlarini uyg‘otadi va mavzuni yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

Oilalar bilan hamkorlik: Ota-onalar bilan hamkorlikda ekologik targ‘ibot ishlarini olib borish. Ota-onalar uchun ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha maxsus darslar yoki seminarlar tashkil etish mumkin.

Ko‘nikma va munosabatlarni rivojlantirish:

Tabiatga hurmat: O‘quvchilarga tabiatga hurmatni singdirish. Bu orqali bolalar nafaqat o‘zlari, balki boshqalarni ham tabiatni asrashga undaydilar.

Mas‘uliyatli munosabat: Bolalarga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suvni tejash, energiyani tejash kabi masalalarda mas‘uliyatli munosabatni o‘rgatish.

Qonunchilik va siyosat:

Davlat dasturlari: Davlat darajasida ekologik ta‘limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish. Bu dasturlar orqali maktablarda ekologik ta‘limga ko‘proq e‘tibor qaratilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: Saodat RIA, 1997
2. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: Yangi asr avlodi, 2005
3. To‘xtaev A., Xamidov A. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: O‘qituvchi, 1995
4. Abdullaev Z. Maktab o‘quvchilarining ekologik munosabati va ekologik ongi // Narodnoe obrazovnaie. - 2011 - 2-son. - S. 186-190.

MAKTAB TA‘LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TADBIQI

Kadirov Tulkin Baxridinovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida v.v.b., dotsenti
kadirovtulkin9@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada ta‘lim jarayonini raqamlashtirish, jumladan, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim, oliy ta‘lim, malaka oshirish ta‘limi

integratsiyasida raqamli texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati, raqamlashtirish imkoniyatlari, muammolari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, axborot, texnika, kompyuter, raqamlashtirish, slayd-shoular, interfaol chizma.

Darhaqiqat hozirgi kunda ta'lim muassasalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida har bir fan bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlab chiqilgan dars rejalari ma'lum darajada o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin tutadi. Bu, birinchi navbatda, o'qituvchi va professor-o'qituvchilarning professionalligi va ijodkorligi, ikkinchidan, o'z ishlarida turli xil texnik va raqamli texnologiyalar vositalarini qo'llash bilan chambarchas bog'liq.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o'rganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, ta'lim oluvchilarga ko'proq ma'lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz beradi.

Ma'lumki, texnologiyani o'quv jarayoniga qo'llash, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish XX asrning 70-80-yillarida boshlangan. Bir qator texnikalar alohida muvaffaqiyat bilan ishlatilgan va o'qitish jarayonida qo'llanilgan. Ularning yordami bilan ta'lim oluvchilarga fanlarning mazmunini tavsiflovchi, ovoqli, harakatchan tarzda yetkazish, shuningdek, ularga chuqurroq bilim berish mumkin edi. Fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishi natijasida yuqorida sanab o'tilgan texnik vositalar o'rniga zamonaviy ko'rinishga ega yuqori texnologiyali qurilmalar yaratildi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarining takomillashishi ta'lim tizimiga yangi texnik vositalarni kiritilishiga olib keldi. Ta'lim tizimiga kompyuterlarning kiritilishi o'quvchilarning fanni o'qitishda murakkab jarayonlar, hodisalar, makro va mikrokosmos qonunlarini tushunishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Misol uchun boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bu fanlarning asl mohiyatini, keltirilgan nazariy dalillarning asoslilikini, uning xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yangicha yondashuvlarni keltirib chiqardi. Xususan, yuqori sinflarda fizika darslarida molekula va atomlarning xulq-atvori, elektr tokining shartlari, atom va yadro energiyasi, radioaktivlik, yadrolarning bo'linishi, jismlarning kuchi, elektr va magnit xususiyatlarining tabiati, yorug'lik hodisalari, bir kimyoviy elementning boshqasiga, elektron va atomga aylanishi, bog'lanish va elektrolitik dissotsilanish kabi tushunchalarni xayolan o'ylab topish mumkin. Shuningdek, uch o'lchovli makon va uning matematik tabiati, funktsional tahlil, differentsial hisoblash, turli geometrik shakllarning xossalari o'rganish, astronomiyada sayyoralarning harakati, quyosh va oy tutilishlari, osmon jismlarining harakat qonunlari, va boshqalar. O'quv jarayoniga axborot texnologiyalari ya'ni raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali fizikadagi tabiat qonuniyatlarini yangi sharoitda talqin qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Fizika fanini yangi bilimlar bilan boyitish, bir qancha hodisalar va qonuniyatlarni ko'z bilan

kuzata olmaslik, ta'lim muassasalarida qisqa vaqt ichida katta hajmdagi bilimlarni egallash zarurati tug'iladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'qitishning yangi usullari va texnik vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fizika, boshqa tabiatshunoslik fanlaridan farqli o'laroq, tabiat hodisalari va qonuniyatlarini va ularning paydo bo'lish sabablarini o'rganadi. Ma'lumki, tabiat hodisalari makro va mikro olamlarda sodir bo'lganligi sababli, ularda sodir bo'ladigan jarayonlarni laboratoriyada o'rganish, nazariy isbotlangan qonuniyatlarni amalda kuzatish juda samarali. Lekin, bu laboratoriyada makro qonunlar va hodisalarni kuzatish, ularni amalda ko'rsatish va shu asosda nazariy bilimlarni mustahkamlash nisbatan oson kechadi. Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish sohasida mutaxassislar va metodistlar tomonidan bir qator maxsus adabiyotlar va qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Bu nashrlar laboratoriya ishining uslubiy jihatlarini, asbob-uskunalarni yig'ish, protsedura va usullarni ishlab chiqish hamda ularni ta'lim oluvchilar tomonidan bajarilishini ta'minlaydi. Keyingi yillarda boshqa fanlardagi kabi fizik bilimlar doirasining kengayishi, chuqurlashishi, mikroolamda kechadigan jarayonlarni o'rganishga qaratilgan bilimlarni shakllantirishga amalda foydalanib kelayotgan ayrim laboratoriya qurilmalarining imkoniyatlari yetarli bo'lmasligi, tannarxi qimmatligi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish murakkab bo'lgan laboratoriya qurilmalarini xar bir ta'lim muassasida tashkil etishning imkoni yo'qligi kabi bir qator sabablar tufayli, laboratoriya ishlarining yangi shakllari va variantlarini ishlab chiqish kerak. Bu boradagi muommolarni yechishda axborot texnologiyalari xususan kompyuter texnikasidan foydalanish eng istiqbolli ekanligi namoyon bo'lmoqda. Buning sababi shundaki, kompyuterning imkoniyatlari kengayib bormoqda va mamlakatimizda ta'lim muassasalarini ushbu texnik vositalar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilishi ta'lim mazmunini sifatli shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, kompyuterda laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha bir qator elektron tavsiyalar mavjud. Qo'llanmalar, virtual laboratoriya to'plamlari ishlab chiqilgan. Bu masala bo'yicha xorijiy ta'lim tizimida ham jiddiy e'tibor berilyotganini ko'rgan holda, bizda ham shu yo'nalishni kuchaytirishning talabini qo'yadi. Albatta kompyuter texnologiyalari yordamida biologiya, kimyo, fizika, matematika, geometriya, astronomiya va boshqa o'quv fanlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bor.

Masalan, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rgatishda o'qituvchilar uchun didaktik materiallar, internet manbalari, raqamli ta'lim manbalari, multimedia taqdimotlari, elektron entsiklopediyalar, video va audio materiallarni o'rni va vazifalari olishimiz mumkin. Ular yordamida maktablarimizda va boshqa ta'lim muassasalarida dars jarayonlari zamonaviy, qiziqarli va samaradorligi yuqori bo'ladi. Informatika va axborot texnologiyalari darslarida multimediali o'quv resurslari, audio va video, kompyuterlar, telekommunikatsiya tarmoqlari kabilardan foydalanish o'quvchining o'rganilayotgan mavzuga yoki obyektga nisbatan qiziqishini orttiradi va tassavurida yanada yorqinroq aks ettirishiga yorgam beradi, bu esa o'quvchilarimizda fanga bo'lgan qiziqishini kuchayishiga olib keladi va dars jarayoni sifatini yaxshilashga ko'maklashadi. Ammo zamonaviy maktablarda fan bo'yicha

bunday darslarni tashkil qilish eksperimental tajribalar o'tkazish uchun dars mshg'ulotlari yetishmasligi va zamonaviy moddiy-texnik jihozlarning yetishmasligi tufayli qiyinlashadi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur asbob va materiallar bilan to'liq ta'minlangan bo'lsa ham, haqiqiy tajriba tayyorlash va o'tkazish uchun ham, ish natijalarini tahlil qilish uchun ham ko'proq vaqt talab etadi. Bundan tashqari tajribalar o'ziga xosligi, jarayonlar bir muncha murakkabligi sababli ham ba'zida o'quvchida mavhum tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchiga rasmlar, tajribaga asoslangan turli videoyo'riqnomalar yordam berishi mumkin. Shunday qilib dars jarayonida yangi mavzuni tushuntirishda ta'lim muassasalarida slayd-shoular, rangli rasmlar, videokliplar, fotosuratlar, interfaol chizmalardan, videoproyektorlardan foydalanish, oliy o'quv yurtlarida esa talabalarni o'zi dars jarayonida ushbu materiallarni tayyorlab kelib faol ishtirok etishini, o'zlari tayyorlagan elektron vazifalarni internet saxifalariga joylab o'sha mavzuni kengaytirilishini takomillashtirish zarur. Ta'lim oluvchilarning ko'pchiligi adabiy manbalardan emas balki internet manbalaridan ma'lumotlar manbai sifatida foydalashi hech birimizga sir emas. Buning afzalligi ta'lim oluvchi shaxsiy vaqtini tejashidir. Bunda o'qituvchining vazifasi ma'lumotdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, savollar berish, mavzuning mohiyati, aniq maqsadini aniqlashga yordam berishdir.

Maktab ta'limi jarayonida raqamli texnologiyalar bilan yaqindan tanishgan, bu sohada o'zlari ham ijod va mashqlar vositasi sifatida yondoshgan o'quvchilar kelgusida mamlakatimizning yetuk kadrlari sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhitning qamrovi kengayib borishi, raqamli texnologiyalarning barcha jabhalarda qo'llanilayotgani ta'lim tizimida qo'llash zaruriy ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, raqamli ta'limning turli omillar vositasida samaradorlashib borishiga olib keladi. Bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish savodxonligi, raqamli ta'lim maydoni, moslamalarining va resurslarining mavjud bo'lishi, bizningcha, muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi vazifamiz: o'quvchilar va ta'limning mazmun-mundariyasi uchun xavf-u zararisiz, davrimiz uchun hozirjavob, ta'sirchan va samarador yo'llarni topib qo'llashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. - Тошкент, 2013. - 60 б.
2. (IJTSRD) www.ijtsrd.com eISSN:2456-6470., ISSN:2456-6470., International Journal of Trend in Scientific Research and Development., Splay-Method of Model Acquisition Assessment., B.Isabekov, U.Turapov va b., 2020-y.
3. Общество и инновации., <https://inscience.uz/index.php/socinov.>, Особенности информационных технологий в обществе XXI века., B.Isabekov, U.Ergashev va b., 2020-y.
4. TEACHER-MUALLIM., ISSN:2181-0850., DOI:10.26739/2181-0850., <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2020-11-17.>, Axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash tizimi., B.Isabekov, Y.Xandamov, 2020-y.

5. Б.Исабеков, С.Усмонов, “Таълим тизимида инновацион технологиялардан фойдаланиш ҳозирги замон аниқ технологик илмларни масалалари ва уларнинг ечимлари” Республика илмий-амалий конференция, Нукус, 2018-й.

6. SEVEN STAR CONFERENCE., Проблемы преподавания курса “Компьютерное моделирование” на основе информационных технологий., 2020-й., Тошкент Б. Исабеков.

МАКТАБ SHAROITIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI YARATISHNING DOLZARB MASALALARI

Shakarov Axror Amonqulovich,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tel.: (97)289-89-86, e-mail: axrorshakarov86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab sharoitida raqamli ta'lim muhitini yaratishning ustuvor yo'nalishlari va ta'limni raqamlashtirish jarayoni samaradorligini oshirish yollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ijtimoiy-pedagogik muammolar, raqamli muhit, raqamli jamiyat, raqamli avlod, raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, internet, ijtimoiy tarmoq.

Kirish. Har qanday holatda ham jamiyatni global raqamlashtirish davrida davlat va uning tarkibiy qismlarini bu jarayonga jalb qilish uchun obyektiv ehtiyoj tug'iladi. Chunki, u hayotning deyarli barcha sohalariga, jumladan, uni to'g'ridan-to'g'ri harakatsizlantirishdan to yangicha raqamli shakllantirishgacha ta'sir ko'rsatadi.

Raqamlashtirish bugungi kunda ham jamiyat, ham ilmiy taraqqiyotda anglangan va tan olingan muqarrar qadam sifatida yangi shaxsni nafaqat bioijtimoiy, balki texnologik mavjudot sifatida ham shakllantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, pedagog olimlar oldiga ijtimoiy tizimning rivojlanishi va muvozanatini saqlashga yordam beradigan yangicha ta'lim muhitini yaratish va uni insonparvarlashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.

Raqamlashtirish jarayoni turli soha mutaxassislari tomonidan o'rganilgan bo'lib, u quyidagi muammolar bilan birga keladi:

Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan umumiy ma'lumotlarni batafsilroq o'rganish uchun zarur bo'ladigan “yangi haqiqat” larni ochishga imkon beradi.

Boshqa fanlar doirasida esa yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda rivojlantirishga zamin yaratadi. Biroq hozirgi jamiyatni raqamlashtirish davrining ijtimoiy-pedagogik muammolari ta'lim tizimi va uning tarkibiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunda nafaqat ta'lim subyektlari, balki uning makonini ham tubdan o'zgartirish talab etiladi.

Hozirda bu nafaqat bolaga bevosita jismoniy kuch va g'ayrat bag'ishlovchi muhitni, balki ta'lim subyektlarining sa'y-harakatlari bilan yaratilgan raqamli texnologiyalar tarmog'ini shakllantirishga doir bir-biriga bog'langan pedagogik chora-tadbirlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, raqamli muhit insonlar

uchun nafaqat xavf-xatarlarlar tug'diruvchi jarayon, balki ularning yangi ko'rinisdagi turmush tarzi, faoliyati va munosabatlari majmuidir.

Raqamli muhitning xavf-xatarlari, birinchi navbatda, maxfiylik, tarmoqdagi ma'lumotlarning xavfsizligi va foydalanishning noaniqligi, shuningdek, uning mavjudligi maqsadlarini belgilaydigan moliyalashtirish masalalari bilan bog'liq. Mahalliy ta'limning o'zgarishi ta'lim mazmuni va uning tizimini o'zgartira oladigan axborot muhitining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, biroq bu hanuzgacha istiqboldagi ijtimoiy-pedagogik vazifalar kontekstida hisobga olinmagan.

Bugungi kunda ta'limdagi raqamli transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari va maqsadlari har bir bolaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan ommaviy yagona ta'limdan individual ta'limga o'tish sifatida belgilab qo'yilgan. Masofadan ishlash, o'rganish va boshqa aloqalarning o'sishi, shuningdek, kelajak avlodlardan samarali hamkorlik va ijobiy munosabatlarga yordam beradigan ma'lum turdagi ijtimoiy va hissiy intellekt (EI)ga ega bo'lishni talab qiladi. Bu yangicha ko'nikma hisoblanib, biroq u hech qanday mavjud muloqot tarzi va o'zaro ta'sirni o'zgartirmaydi. Shu sababli istiqboldagi ta'lim aralash hajmdagi korinishni o'z ichiga oladi.

Bugungi raqamlashtirish asrida ta'limda jamoaviy o'zaro hamkorlik shakllari juda muhimdir. Inson virtual olamga kirishi bilanoq to'liq anglab yetmasdan boshqa odamlar jamoasida "jonli" muloqotga kirisha boshlaydi.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda yangi raqamli ta'lim muhitini yaratish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlaril to'g'risida"gi Qarori asosida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hozirgi tendensiyada davom etsa yaqin yillar ichida insonlar hayot tarzida keskin o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu esa barcha sohalarning yanada mobil bo'lishini va kadrlar bilim va salohiyati jamiyat talabiga javob bera olishini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida ta'limni raqamlashtirish jarayoni samaradorligini oshirish uchun: ta'lim subyektlarining mediakompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish;

AKTning turli mavjud dasturlaridan foydalanish, shuningdek o'zbek tilidagi videodarslar kontentini yanada boyitish;

ta'lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash jarayonini amaliy qo'llab-quvvatlash;

ta'limni raqamlashtirishga oid barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni web-saytlarga muntazam joylab borish;

yaratilgan elektron boshqarish tizimlarini faoliyatga keng joriy etish;

Masofaviy ta'lim platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham ta'lim subyektlarining mas'uliyatlilikini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 sonli "“Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.
2. A.X.Maxmudov. Zamonaviy ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. 2020-y.
3. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari: Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – 180 b.
4. Tursunov R. Ta'limni raqamlashtirish jarayonlarida ta'lim subyektlariga qo'yiladigan pedagogik talablar. -Toshkent: 2021-y.
5. Ergasheva Go'zal Maxkambayevna. Raqamli ta'lim muhitini yaratishning dolzarb masalalari. - Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X Miasto Przyszłości Kielce 2023.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPITENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna,
Urganch davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi borasidagi respublikamiz va xorij olimlarining fikrlari keltirilgan, shuningdek talabalarda ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Talaba-yoshlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadqiqotchilik kompetentligi, tadqiqotchilik kompetentsiya, tadqiqot, bilim, ko'nikma, malaka.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

“Komptentlik” (ingliz. "competence" – qobiliyat) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridagi darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni mamoyon eta olish. “Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noanaviy vaziyatlar, kutilmagan holatda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqatga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vaziyatlarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la malumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarga xarakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. [1].

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan B.X.Rahimov talaba – yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishning ijtimoiy pedagogik asoslarini yoritib berdi. Olib borilgan tadqiqot natijasida

- talaba yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi nazariy –amaliy jihatdan asoslanadi;

- muammoning mohiyatini ochib beruvchi tayanvh tushunchalarni sharhlanadi;

- talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonining ijtimoiy – pedagogik xususiyatlari, mazmuni, shakli, usuli va metodlari belgilab beradi;

- oliy o‘quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligi asoslab berdi

- talaba – yoshlarning ilmiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqdi.[2]

Tadqiqot doirasida talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko‘rinishlari tavsiflangan:

- passiv – tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj) ;

- ijodiy – reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);

- qisman ijodiy (talabaning faoligi tizimli istak va xihishlarini talab qiladi , uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);

- xususiy ijodiy (talabaning o‘z faoligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ularni yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatish va kasbiy kompetensiyalarni hosil qilish uchun birinchi navbatda ularni o‘z-o‘zini rivojlantirish va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda xatoliklar, kamchiliklarini aniqlash, ularning vujudga kelish sabablarini topish ham juda muhim vazifadir. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar o‘qituvchilarga bunga o‘xshash kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasliklariga imkon beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanganlik va rivojlanganlik mezonlarini aniqlashdi.

O.I.Mirtosh quyidagilardan foydalanilgan.

- pedagogik taklif haqiqiyliги va tamonlamaligi ;

- bajarilayotgan amallar va faoliyatlar to‘liqligi ;

- ko‘nikmalardan foydalanishda mustaqillik darajasi;

- shaxsiy baholash mulohazalarining asoslanganligi;[3]

Xuddi shunday ilmiy tadqiqotlar o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashdagi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish mezonlari sifatida quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi :

- mustaqillik darajasi;

- talabalarning bajarayotgan ishga munosabati, muammolarni hal qilish bo‘yicha berilgan takliflarning miqdori, texnik to‘garaklarda ishtirok etayotganligi, ilmiy texnika va markazlarda ishtirok etayotganlarning soni bilan baholanadigan ijodiy faoligi

- o'quvchilar namoyon etadigan qiziqishi, mashg'ulotda beriladigan savollarning miqdori va xususiyati bilan qayd etilishi mumkin; texnik to'garaklarda va ilmiy ijodiy markazlarda shug'ullanishni xohlovchilar soni bilan qayd etilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda boshqarish o'qitishga va ilmiy tadqiqot ishalariga faol va ongli ta'sirni bildiradi va talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining optimal borishni ta'minlashni maqsad qiladi. U talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining ichki ko'nikmalarining ilmiy bilimlari haqida o'zaro bog'liqligi hamda biridan ikkinchisiga o'tish asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Saiyurov, A.Turayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari".
2. L.T.Razikova "Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari".
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.

TASVIRIY SAN'AT FANLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA "4K" MODEL KOMPETENTSIYALARI

Xoliqov Jaxongir Tuychiyevich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Egamova Shaxnoza Xalilovna,

Samarqand shahar 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada 4K modeli va uning tarkibiy qismlari, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarida 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari hamda shart-sharoitlari va pedagogik jarayonlarda uning amaliy ahamiyati, shuningdek, darslarda zamonaviy metodlardan unumli foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, kompetensiya, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ, kritik, XXI asr ko'nikmalari.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi asosiy masala etib belgilangan. Shunga muvofiq, maktab ta'limi darsliklarini yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. E'tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san'at, o'zbek tili va musiqiy savodxonlik bo'yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

"4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Quruq ma'lumotlarni yodlatish

yoki shunchaki o'qish yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

4K kompetensiyalari nima degani?

Kompetensiya (lotincha: compete - erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlari, tajribasidir. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.


Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, har bir fan o'qituvchisi, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirmog'i kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda 4 "K" modeli ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalari elementlarini shakllantirishga, har bir fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ma'naviy yetuk, sog'lom avlod bo'lib tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashlari uchun xizmat qiladi. Tavsiya etilayotgan metod va usullar asosan, tasviriy san'at va chizmachilik fani dars mazmunini ochishiga, o'quvchilar faolligini oshirishga yordam berib, darsning samaradorligini oshiradi.

Quyidada keltirilgan innovatsion metod va interfaol o'yinlar o'quvchilarda 4 "K" modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash ko'nikmasi, kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi, kommunikativlik (muloqotchanlik) ko'nikmasi, va kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash) kabi ko'nikmalarni rivolantirishda hamda tasviriy san'at va chizmachilik faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib o'tish esa bolalarni darsdaga faolligini va zo'r ishtiyoq bilan qatnashishlarini ta'minlaydi.

Kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash)ni rivolantiruvchi usullar.
Hasharotlardan pazl metodi.



Tavsifi: bu metodni qo'llash uchun o'quvchilar bir necha kichik guruhlariga bo'linadi. oldindan tayyorlangan pazllar guruhlariga tarqatiladi. Belgilangan vaqt orolig'ida o'quvchilar pazllarni yig'adilar. Topshiriq yakunida tahliliy ishlar o'qituvchi tomonidan tekshirilib baholanadi.

Erishilgan natija: Bu usul orqali ta'lim oluvchining tasavvur kengayib, jamoa bo'lib ishlash qobiliyati shakllanadi

Kommunikativlik (muloqatchanlik)ni rivojlantiruvchi usullar.
Sirli kompazitsiya metodi.



Tavsifi: Bu usulni qo‘llashdan oldin bir nechta kichik farmatdagi tasviriy san‘at kompozitsiyalari o‘qituvchi tomonidan tayyorlab qo‘yiladi va o‘quvchilarga surat tamoni ko‘rsatilmasdan stol ustiga ag‘darib qo‘yiladi. O‘quvchilar yakka tartibda chiqib suratlarni olib belgilangan vaqt ichida kompazitsiyaga nom berib, qisqa shaklda matn tuzishadi. Topshiriq yakunida tahliliy ishlar o‘qituvchi tomonidan tekshirilib baholanadi.

Erishilgan natija: Bu usul orqali o‘quvchilar atrof muhitni kuzatish, o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadi. Fazoviy ta‘savuri kengayib tasviriy san‘at asarlarini tahlil etishni o‘rganadi.

Kreativlik (ijodiy yondashuv)ni rivojlantiruvchi usullar.

Tadqiqot va loyiha metodi.

Tavsifi: Tadqiqot va loyiha usullari o‘zlashtirish darajasining eng yuqori cho‘qisi hisoblanadi. Bu usul bilan dars o‘tilganda o‘quvchilar olgan bilimlari asosida hali o‘rganilmagan kichik bir masala ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishadi, masala yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirishadi va isbotlashadi.

Usulning bosqichlari:

- darsda hammaga qiziqish uyg‘otadigan biror geometrik shaklning xossasi yoki u haqidagi masalani qo‘yish,
- uni o‘rganish, tadqiq qilish uchun ma‘lumotlar to‘plash,
- muammo yoki masalaning yechishga oid taxminlar, bashoratlar qilish,
- har bir bashoratning qanchalik to‘g‘riligini to‘plangan ma‘lumotlar asosida tahlil qilish va isborlash,
- xulosa chiqarish;
- sinf oldida taqdimot qilish.

Erishiladigan natija: : Bu usul o‘quvchilarga kreativ fikrlashga, ijodkorlik va yartuvchanlikka o‘rgatadi.

O‘quvchilarda tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish ko‘nikmalari oshib boradi.

Optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati, g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma‘lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati shakillanadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlashni rivojlantiruvchi usullar.

“4 rangli qalam” metodi.

Tavsifi: Bu usul o‘quvchilarda matn ustida tahliliy ishlash sharoitini yaratadi. 4 xil rangli qalam orqali matn yuzasidan 4 xil topshiriqni bajaradilar. Bunda o‘quvchilarning mazmunini to‘liq o‘zlashtirganligini undagi mazmunga mos maqol yoki hikmatli so‘zni ayta olishi, matnga ijodiy yondashishlari (o‘zgartirish kiritish,

rasm ishlash) va mavzu yuzasidan olingan xulosalarni bayon qila olishlarini bilib olish mumkin bo‘ladi.

Erishiladigan natija: O‘quvchilar bu usul orqali tanqidiy fikrlashga oid tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo‘lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati hamda dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Foydalanish vositalari: 4 xil rangli qalam, stikker yoki A4 formatdagi qog‘ozlar.

O‘tkazilish tartibi:

✓ Har bir guruh yoki ishtirokchiga 4 xil rangli (havorang, kulrang, qizil, yashil) qalamlar yoki ruchkalar tarqatiladi;

✓ Havorang qalam topshirig‘i – matndan kelib chiqib savollar tuzing;

✓ Oq (kulrang) qalam topshirig‘i – mazmunidan kelib chiqib maqol yozing;

✓ Qizil qalam topshirig‘i-o‘qiganlarigizni qisman o‘zgartiring (asar qahramonlarini, voqealarni) yoki mavzuga mos rasm chizing;

✓ Yashil qalam – olgan xulosangizni qisqacha bayon qiling;

✓ O‘qituvchilar har bir rang topshiriqlarni yakunlash uchun vaqtni vaziyatga qarab belgilashi mumkin;

✓ Topshiriq yakunida tahliliy ishlar o‘qituvchi tomonidan tekshirilib baholanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarda 4 “K” modelini darslarda tadbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim.

4K modelidan unumli foydalanish kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Foydalanilagan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi Xalq ta’limi tizimini 2023- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to‘g‘risidagi PF5712 sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.

3. A. Sulaymonov. I. Raxmonov. Z. Sulaymonova. Tasviriy san’at. 4-sinf darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti. Toshkent-2020.

4. A. R.Meliboyev.boshlang‘ich sinflarda darslarni 4 “K” modeli asosida o‘qitish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1106111>.

5. N. Muslimov, M. Usmonbekova, D. Sayfurov, A. To‘rayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent-2015.

6.

DEVELOPMENT OF VOCABULARY COMPETENCE (IN THE FIELDS OF AGRICULTURE)

Absalamova Gulmira Sharifovna,

*Samarkand Agroinnovations and Research University, Phd, Associate Professor, Department of Fundamental and Humanitarian Sciences
Tel: +998 99 4458721 E-mail: absalamovagulmira88@gmail.com*

Abstract: The purpose of this work is to draw attention to the necessity of providing agriculture study program students with more wide academic terminology in English resources. It focuses on presenting words that are primarily used in one field, especially agricultural. Whether it is used in the classroom, for reading agricultural materials or simply practicing the theories on the field, or even when the students are ready to face the real world of work, academic vocabulary should be appropriate for all the needs of the students from all cycles.

Key words: communicative language, structural approach, sentence pattern, vocabulary, knowledge.

In the sector of agriculture, having a solid understanding of academic terminology in English will help students with all of their skills: Speaking abilities (fluency, clear pronunciation, and engaging in dialogue). A solid understanding of academic vocabulary in the English language related to agriculture will help students with all aspects of their studies, including reading comprehension and comprehension (recognizing the main ideas of the text, presenting reports from the field, skimming and scanning activities), speaking (fluency, good pronunciation, and engaging in conversation with specific agricultural terms).

Moreover, we have seen that several words that were previously used in a general context have taken on an academic connotation in our corpus; for this reason, we regard them as academic vocabulary. Thus, in order to provide agriculture students the best chance of assimilating these words and incorporating them into their regular English vocabulary use, we have determined that it is necessary to build academic word lists tailored to their profession. Delivering to the students an academic English vocabulary from a certain field, namely here, agriculture will contribute to complete their profile, helping them to become professionals, in a worldwide labor market, where specialists are necessary. Since vocabulary learning strategies need to be intentionally taught, English teachers in the field of agriculture could use the range and variety of agricultural terms to implement the use of academic vocabulary, improve the current situation, and enhance their professional knowledge.

A broad range of organic sciences that are used in agricultural processes and rely on several sectors are covered in agricultural science courses. Classes that specifically address this topic of study include soiling, pesticides, and animal husbandry. Aside from this kind of instruction, other options include environmental studies, managing natural resources, studying flora and fauna, and climate change. One of the classes that may be offered in the broad field of agriculture is landscaping.

The most widely used and taught language is English, which makes it one of the most important academic languages as well. It contains specialized terminology, and while employing academic English language may appear more difficult at first, it also indicates intelligence. Additionally, it bestows self-worth and confidence. In general, but particularly in agriculture, using academic terminology eliminates the need for flowery or rhetorical language. Although it may be challenging for students, it has also been shown to be psychologically engaging and that we seem to trust more complex languages.

In recent years, there has been a notable growth in the interest of non-native English speakers in particular in the academic vocabulary that is required for research and scientific studies. Furthermore, we observed that many terms with a broad meaning acquired scholarly meaning inside the corpus and were thus considered as components of academic vocabulary. According to our perspective, the goal and significance of creating an area-specific academic word data base that includes the most frequently used academic vocabulary in order to communicate the rhetorical aspect of the study field are demonstrated by recent studies.

When picking texts to be studied and examined, one of the most helpful ways to prepare lessons for students is to do the following steps:

1. Determining the particular areas of knowledge and providing appropriate, succinct examples.
2. An explanation with repeated instances and popular synonyms.
3. Translation into mother language with illustrations in several senses.
4. Rephrasing the majority of the meanings in one's own phrases.
5. Using gap filling tasks as a kind of practice and exercise.
6. Role-playing exercises using predetermined words in small or larger groups of pupils. These techniques might be applied to pupils of varying skill levels, from absolute beginners to proficient learners, with the degree of difficulty being adjusted based on the class or group's level.

Specifics, pointers, and advice for expanding one's vocabulary: Words have to be utilized in sentences. Start by practicing your speech. giving speeches. Next, make a note of and highlight the sentences and phrases. Repeating each phrase many times can help the new ones stick in your memory and be recognized. Don't try composing a paragraph using the same words until you've finished writing a few phrases. Learn the definitions of all synonyms and antonyms using an online thesaurus or a data-based dictionary to expand your vocabulary in the fields of agriculture and allied disciplines. A visual dictionary can be used to learn specific equipment. Speaking with coworkers may help you learn new terms and how to apply their definitions in various settings.

With regard to agriculture and associated sectors in particular, all of the findings are able to provide us with very detailed data and connections between the taught subjects, including academic terminology, which are emphasized and categorized in accordance with various study programs and curricula. Although they are typically ignorant of even basic grammatical rules, our learners are a clear example of students who acquire their language as they need it for their specific purposes. They

accomplish this by contributing their knowledge of science, of the science they are studying specifically, and of what it means to do science.

A concentrated effort on academic vocabulary, with a smaller but highly covered vocabulary list, makes it possible for students to contribute their extensive subject-matter knowledge. Since the students would be exposed to lexical elements they identify as part of the texts they alter and are relatively familiar with, motivation and self-esteem may both be improved in this way. According to us, an academic word list ought to be a collection of choices for constructing a text's rhetoric, offering all the essential word data as well as various classification criteria based on the audience's specificity and the student body's interests and knowledge.

References:

1.Hawkins, M. (ed.). 2004. *Language Learning and Teacher Education: A Sociocultural Approach*. Clevedon: Multilingual Matters.

2.Johnson, K. 2006. 'The sociocultural turn and its challenges for second language teacher education.' *TESOL Quarterly* 40/1: 235–57.

3.Mullock, B. 2006. 'The pedagogical knowledge base of four TESOL teachers.' *Modern Language Journal* 90/1: 48–66.

4.Murray, D. 1996. 'The tapestry of diversity in our classrooms' in K. Bailey and D. Nunan (eds.). *Voices from the Language Classroom*, 434–48. Cambridge: Cambridge University Press.

5.Pennycook, A. 1989. 'The concept of method, interested knowledge, and the politics of language teaching.' *TESOL Quarterly* 23/4: 591–615.

6.Nendissa, D. R., Alimgozhaevich, I. K., Sapaev, I. B., Karimbaevna, T. M., Bakhtiyarovna, S. Z., Abdullah, D., ... & Sharifovna, A. G. (2023). Sustainable livestock grazing in Kazakhstan practices, challenges, and environmental considerations. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 21(4), 977-988.

7. Absalamova Gulmira Sharifovna, Teaching english reading methods, 2024/5/31, 264-267

O‘QISH SAVODXONLIGINING QAMROV DOIRASI VA TUSHUNISH STRATEGIYALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xatamova Munisa Mamadulla qizi,

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodlarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti
1-kurs doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qish va o‘qish savodxonligi, o‘qish savodxonligining bugungi kundagi qamrov doirasi, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi va matn ustida ishlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim tavsiyalar, o‘qib tushunish strategiyalari va ularni rivojlantirishga doir ayrim fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qish savodxonligi, xalqaro baholash dasturlari, PISA, matn, tushunish, o‘qib tushunish, kompetensiya, lingvistik bilim, savol-javob,

umumlashtirish, xulosalash, hikoya xaritasi, grafik organizatorlar, ko'nikma, malaka, natija.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rne beqiyos. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa jahondagi boshqa davlatlar qatori mamlakatimizda ham chuqur izlanishlar, tinimsiz harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aksariyat xorijiy davlatlardagi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilinayotganligi bunga yorqin misol bo'la oladi. Bugungi kunda PISA, PRLS, TIMSS, TALIS kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatining darajasini belgilashda mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

Ular orasida PISA turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning funksional savodxonligi ya'ni o'qish, matematika va tabiiy fanlar shu jumladan kompyuter, moliyaviy, globall savodxonligi hamda bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib, u har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. PISA ilk marta 2000- yilda o'quvchi-yoshlar o'rtasida qllanilgan. Mamlakatimizda ham boshqa xalqaro baholash dasturlari sirasida PISA tadqiqotlarida muntazam qatnashish va yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun yangi strategiya va metodlar yaratish va ular asosidagi topshiriqlarni o'quv qo'llanmalari va darsliklarga joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu dasturda ishtirok etishdan maqsad yurtimizda shunchaki testlarni o'tkazish emas, baliki farzandlarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakillantirish, intellektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir.

Biz ushbu maqolamiz orqali PISA tadqiqotlari doirasida yurtimizga kirib kelayotgan "o'qish savodxonligi" yo'nalishi va uning qamrov doirasi, matnni o'qib uni tushunishga, matn mazmuni xususida mulohaza yuritishga o'rgatuvchi strategiyalarga to'xtalib o'tmoqchimiz, zero axborotlar oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan va inson ongini xuddiki o'rgamchak to'ri singari o'rab olayotgan bugungi davrda, inson eng avvalo o'zini himoyalashi va maqsadlariga erishishi, qaysi sohada bo'lmasin bilim va tajribalar orttirishi uchun eng avvalo "o'qish savodxonligi" ni chuqur egallashi talab etlmoqda.

Xo'sh, o'qish savodxonligi qanday tushuncha o'zi? Bugungi kunda o'qish savodxonligi deyilganda o'quvchi-yoshlarning qanday bilim va ko'nikmalarni egallash darajasi nazarda tutiladi? Mazkur savollarga javob berish uchun avvalambor, savodxonlik haqida fikr bildirmoqchiman. Savodxonlik leksemasining asosi "savod" so'zi bo'lib, bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quydagicha ta'rif beriladi. Savod- qorilik; qoralama yozuv; o'qish yozishni bilish. Ma'nolari: 1.O'qish yozishdan xabardorlik, 2. Biror soha bo'yicha eng zaruriy bilim, ma'lumot, 3.Umuman bilim, tushuncha, tajriba. Shakillari savodli, savodlilik, savodxon, savodxonlik. Savodlilik- ma'nolari: 1. Aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri: oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egalik. 2.

Odamning adabiy til meyorlariga muvofiq keladigan ogʻzaki va yozma nutq malakalariga egaligi. 3. Muayyan soha boʻyicha yetarli bilimga egalik. Texnik savodlilik, huquqiy savodlilik, tibbiy savodlilik. (“Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 3-tom 416-bet). Savodlilik soʻzining sinonimi sifatida savodxonlik soʻzini ishlatishimiz mumkin. Oʻqish savodxonligi esa – insonning matnni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati, bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, oʻz maqsadiga erishishi uchun ijtimoiy hayotda munosib ishtirok eta olishidir. Oʻqish – bu shunchaki harflarni qoʻshib soʻz hosil qilish yoki ovoz chiqarib mutolaa qilish emas, balki matn bilan chuqur ishlab, undan maʼno keltirib chiqarishdir. Oʻqish savodxonligida oʻquvchilar matndan axborotni topish va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish hamda baholash, matn mazmunini anglash kabi koʻnikmalarni hosil qiladi. Umuman olganda, oʻqish savodxonligi keng qamrovli tushuncha boʻlib, puxta tekshirishlar asosida maqsadga yoʻnaltirishni anglatadi.

Bu yoʻnalish maqsadi oʻquvchilarning berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qoʻllanmalar, geografik xaritalar kabi rang-barang mavzudagi, tarkibida matnni ochib berishga moʻljallangan diagrammalar, rasmlar, jadvallarni tushunish, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho bera olish va oʻqiganlari haqida oʻz fikrini bildira olish kabi kompetensiyalarni aniqlash hisoblanadi. Oʻqish savodxonligining mazmuni vaziyat, matn va oʻqish malakasidan iborat. Matn namunalari maʼlum bir vaziyatlarga asoslangan boʻlib bu vaziyatlar shaxsiy, ijtimoiy, oʻquv va rasmiy kabi turlarga boʻlinadi. Oʻqish malakasi matn hamda matndan tashqari bilmga tayanadi. Matnga tayanish – undan axborotni topish va ajratish, matndagi xabarni umumlashtirish va sharhlashni anglatadi, matndan tashqari bilimga tayanish matnni mazmuni va shakliga koʻra anglash hamda baholashni bildiradi. Umuman olganda, oʻqish bu matndan anglashilgan bir fikrni ikkinchisiga bogʻlovchi, fikrni aniqlashtiruvchi va toʻldiruvchi vosita boʻlgani holda berilgan maʼlumotni oʻqishgina emas, maqsadni tushunish va qayta ishlash lozim boʻlgan jarayondir.

Oʻqish savodxonligi matndan anglashilgan axborotni tushunish, tahlil qila bilish, baholash, xulosa chiqarish va ushbu xulosalarning toʻgʻriligiga mustaqil baho bera olish qobiliyatining shakillanganligidir. Oʻqish uchun oʻqigan narsani tushunish kerak, aks holda oʻqishdan maqsad boʻlmaydi. Maʼlumki, “tushunish” jarayoni psixologik va pedagogik omillarga bogʻliq murakkab aqliy faoliyatdir. “Tushunish” soʻzi “oʻqib tushunish” atamasining koʻpchilik tomonidan qabul qilingan tushunchasi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bunda oʻqish orqali oʻquvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan maʼlumotlarining maʼlum darajada integratsiyasi talab etiladi. Oʻqib tushunish boʻyicha ish olib borgan koʻplab olimlar bu kognitiv jarayon hayotning nafaqat maqsadli va faol qismi, balki bir necha bosqichli faoliyat ekanligini taʼkidlashadi. Oʻqilayotgan maʼlumotni tushuna olish qobiliyatiga ega boʻlish esa matn mazmunini chiqara olish va muallif nimani yetkazishga harakat qilayotganini his qilish, fahmlashdir. Oʻqib tushunish yangidan yangi gʻoyalar yaratilishida poydevor vazifasini oʻtaydi.

Oʻqituvchi avvalo oʻquvchilarda oʻqish savodxonligini rivojlantirish uchun oʻqilgan matn ustida mulohaza yuritishni, yaʼni tushunish strategiyalarini oʻrgata

olishi kerak. Metodist olimlar fikricha, bugun dunyoda tushunish strategiyalari bilan bog‘liq 205 ta muhim tadqiqotlar aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarning keyingi tahlillaridan so‘ng, o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga va o‘qigan ma’lumotlarini tahlil qila olishga o‘rgatishi mumkin bo‘lgan oltita asosiy tushunish strategiyasi tadqiqotlar orasida keng tarqalganligi aniqlandi. Bular quyidagilardir:

- savol-javob
- monitoring
- umumlashtirish
- hikoya xaritasi
- grafik organizatorlar
- savollar yaratish

Quyida har bir strategiya o‘quvchilarga qanday yordam berishi mumkinligi xususida qisqacha tavsif berib o‘tamiz.

Savol berish va javob berish. Ushbu strategiya o‘quvchilarni o‘zlarini boshqara olishga o‘rgatadi. O‘zlariga savollar berish orqali matn haqida o‘ylash va keyin eslashga harakat qilishi yoki javoblarni aniqlashlari mumkin. Bu o‘quvchilarga turli xil so‘rovlarni o‘rgatishni o‘z ichiga olishi ham mumkin. Masalan, kim, nima, qachon, qayerda, nima uchun, qanday yoki muayyan ma’lumotlarga e’tibor qaratish va ular ustida mulohaza yuritish kabi. O‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarga savol bilan murojaat qilishi yoki, o‘zaro o‘quvchilar o‘rtasida savol-javob jarayonini hosil qilishi ham mumkin.

Monitoring. Bu o‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholay olish imkonini beruvchi tushunish strategiyasidir. O‘quvchining matnini qay darajada tushunganligiga e’tibor berish. Agar o‘quvchi o‘qigan matnini tushunmasa, ma’lumotga aniqlik kiritish uchun choralari ko‘rilishi kerak bo‘ladi. Tushuntirish qayta o‘qishdan iborat blishi mumkin, allaqachon ma’lum bo‘lgan narsalar haqida o‘ylash, rasmlarga qarash yoki yordam so‘rash.

Umumlashtirish yoki xulosalash. Bu o‘quvchilarga matnini eng muhimiga qisqartirishni o‘rgatadi. Bu strategiya o‘quvchilarga asosiy ma’lumotlarni qanday tanlashni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi, ya’ni muhim bo‘lmagan narsaga e’tibor bermaslik va ma’lumotni boshqa so‘zlar bilan qisqartirish. Bu jarayon matndan anglashilgan asosiy fikr yoki g‘oyani aniqlash va mulohaza yurita olishni anglatadi. O‘quvchilar matnini o‘qish paytida bir necha marotaba xulosa qilishlari yoki matn oxirida yagona bir xulosaga kelishlari ham mumkin.

Hikoya xaritasi. Bu o‘quvchilarga matnning tuzulishi va tashkiliy jihatdan mavjudligini o‘rgatadi. Hikoyalar vaziyatni, bosh qahramonni, muammoni, muammoni hal qilishga urunishni o‘z ichiga olishi mumkin, muammo va natija. O‘quvchilar o‘qilgan matnini shu tarzda hikoyalab ma’lumotlarni umumlashtirishlari, matn mazmunini tushunish va xulosa chiqarishda anchagina foydalidir.

Grafik organizatorlar. Bu o‘quvchilarni matnini tushunishga o‘rgatish uchun vizual xulosalardan foydalanadi. Grafik organizatorlarga ierxatik daraxtlar va ven diagrammasi misol bo‘la oladi.

Savollar yaratish. O‘quvchilar o‘qishdan oldin, o‘qish paytida va keyin savollar berishlari kerak. Bu matnini qayta ishlash va tushunishni kuzatishga yordam beradi.

O‘qish paytida savollar berish o‘quvchilarning o‘qiganlarini tushunishlarini va integratsiyaga kirishishni osonlashtiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi ko‘rsatmalarni bergan holda bu jarayonni tashkil qilishi mumkin.

1. O‘qituvchi mavzu matnidan parchani ovoz chiqrib o‘qiydi.

2. O‘qituvchi to‘xtaydi va o‘quvchilar bergan savollarning turlarini modellashtiradi. Masalan, “Muallif nima uchun buni aytdi”, “Eng muhim g‘oya nima?”, “Matn mazmunini ochib beruvchi faktlar mavjudmi?”

3. O‘qituvchi turli matnlar bilan modellashtirishni takrorlaydi.

Matnni o‘qib tushunish, matn hususida mulohaza yuritish va qarorlar qabul qila olish har bir soha vakillari uchun juda muhimdir. Bu vazifani amalga oshirishda esa o‘qituvchi tajribasi va mehnati yuqori pog‘onada turadi. Jumladan, ko‘rsatib o‘tilgan matnni o‘qib tushunish strategiyalarini o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazish va natijaga erishish uchun quyidagilarga e‘tibor berishimiz zarur.

1. O‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘ying va ular maqsadlarni tushunishlariga ishonch hosil qiling.

2. Yaxshi tashkil etilgan topshiriqlar ketma-ketligini taqdim eting.

3. O‘quvchilarga mavzu bo‘yicha aniq, qisqa tushuntirishlar va illyustratsiyalar bering.

4. O‘quvchilar ishni tushundimi yoki yo‘qligini bilish uchun tez-tez savollar bering.

5. O‘quvchilarga o‘rganganlarini amalda qo‘llash uchun ko‘p imkoniyatlar bering.

O‘qigan ma‘lumotimizni tushunishimiz bu o‘qish jarayonining eng muhim qismidir. O‘quvchilar o‘z tafakkurlarini mazmun bilan ongli ravishda birlashtira boshlagachgina, ular bu ma‘lumotlarni bilimga aylantira oladilar. Tushunish strategiyalari o‘quvchilarning o‘ylash, savol berish, ma‘lumotni sintez qilish va tushunishga ega bo‘lish vositasidir. Kontent va tushunish bo‘yicha ko‘rsatmalarni integratsiyalash o‘quvchilarga mazmunni tushunishga yordam beradi va ma‘lum strategiyalarga ma‘no va maqsad beradi.

Umuman olganda, borgan sari murakkablashib borayotgan dunyoning qiyinchiliklariga dosh berishi uchun, o‘qilgan ma‘lumotni bilimga aylantirishi va undan faol foydalanishi uchun, biz bugungi davr o‘quvchilariga tushunish strategiyalarini o‘rgatishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. –Toshkent “O‘zbekiston nashriyoti”, 2021.

2. Ismailov A va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.-Toshkent: Sharq, 2019.

3. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.

4. Safarova R., Musayev U. va boshq. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim strategiyasi muammolari va ta‘lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2005.

5. Safarova R. Ona tili ta‘limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 1995.

6. Жарыкбаев К.Б. Психология.- А.: Білім, 1993.

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALASINING DOLZARBLIGI.

Qodirova Dilnoza,

Alisher qizi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti Tel: 90 393 46 13 Email- kodirovaa.95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiy ta'limdagi refleks ko'nikmalarning ahamiyatini o'rganadi va o'qituvchilarga ushbu ko'nikmalarni samarali rivojlantirish, o'quvchilarni murakkab va o'zaro bog'liq dunyoda aqlli kitobxonlar, fikrlaydigan fikrlovchi va empatik shaxslar bo'lishga tayyorlash strategiyalarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, adabiy ta'lim, refleksiv ko'nikmalar, empatiya, mulohaza.

Аннотация. В этой статье рассматривается важность рефлексивных навыков в литературном образовании и то, как учителя могут эффективно развивать эти навыки, чтобы помочь учащимся стать умными читателями, рефлексивными мыслителями и чуткими людьми в сложном и взаимосвязанном мире, а также стратегии подготовки.

Ключевые слова: литература, литературное образование, рефлексивные умения, эмпатия, общение.

Abstract: This article examines the importance of reflective skills in literature education and how teachers can effectively develop these skills to help students become intelligent readers, reflective thinkers, and empathetic individuals in a complex and interconnected world. provides preparation strategies.

Key words: literature, literary education, reflexive skills, empathy, communication.

Kirish. Adabiy ta'lim sohasida o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish tanqidiy fikrlash, empatiya va o'z-o'zini anglashni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Adabiyot kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi, bu orqali o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni o'rganishlari, murakkab mavzular bilan kurashishlari va o'z e'tiqodlari va tajribalari haqida fikr yuritishlari mumkin. Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni matnlar bilan yanada chuqurroq, mazmunliroq ishlashga imkon beradi, ularni savol-javob, tahlil qilish va adabiyotni nozik va tushunarli talqin qilishga undaydi.[1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Adabiyot bizni turli olamlarga olib borish, qarashlarimizni shubha ostiga qo'yish va chuqur o'z-o'zini aks ettirish uchun kuchga ega. Adabiy ta'lim sohasida refleksiv ko'nikmalarni tarbiyalash o'quvchilarni matnlar bilan chuqur mulohaza yuritish, ularning ma'nolari haqida tanqidiy fikr yuritish va inson tajribasini chuqurroq anglash uchun zarurdir [2].

Refleksiv qobiliyatlar o'z fikrlari, e'tiqodlari va reaksiyalari haqida tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Adabiy ta'lim kontekstida bu ko'nikmalar o'quvchilarga yuzaki talqinlardan tashqariga chiqish va matnlar bilan chuqurroq,

mazmunliroq darajada shug‘ullanish imkonini beradi. O‘quvchilarni adabiyotda berilgan mavzular, personajlar va xabarlar haqida fikr yuritishga undash orqali pedagoglar tanqidiy fikrlash, empatiya va o‘z-o‘zini anglash kabi fazilatlarni rivojlantirishi mumkin. O‘quvchilarni adabiy matnlarga savol berish, tahlil qilish va sharhlashga undash kerak. Munozaralar, munozaralar va tanqidiy insholarda qatnashish orqali o‘quvchilar o‘zlarining tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishlari va adabiyotning murakkabliklarini chuqurroq tushunishlari mumkin [3].

Muhokama va natijalar. O‘quvchilarni matn mavzularini o‘z tajribalari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘lashga undash o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy o‘shiga yordam beradi. Jurnallar, aks ettiruvchi yozish topshiriqlari va guruh muhokamalari bu jarayonni osonlashtirishi mumkin. Sinfdagi interfaol munozaralar o‘quvchilarga o‘z nuqtai nazarlarini baham ko‘rish, boshqalarni tinglash va turli nuqtai nazarlarni hisobga olish uchun platforma yaratadi. Tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘quvchilarning muqobil talqinlar ustida fikr yuritish qobiliyatini oshiradi va matnni yanada to‘liqroq tushunishni rivojlantiradi. Turli adabiyot asarlarini solishtirish va qarama-qarshi qo‘yish yoki mavzularning vaqt o‘tishi bilan rivojlanishini tahlil qilish o‘quvchilarning adabiy manzara haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirishi mumkin [4].

Qiyosiy tahlil tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va matnlarni sharhlashda refleksli yondashuvni tarbiyalaydi. Tasviriy san‘at, musiqa yoki raqamli platformalar kabi ommaviy axborot vositalarining turli shakllarini birlashtirish o‘quvchilarga adabiyot bilan shug‘ullanish uchun muqobil yo‘llarni taqdim etishi mumkin. Ushbu multimodal yondashuvlar ijodiy ifodani rag‘batlantiradi va fikrlash uchun yangi istiqbollarni taklif qiladi. Adabiyot o‘quvchilarni qahramonlar hayoti va kechinmalariga singdirish orqali hamdardlikni uyg‘otish qudratiga ega. O‘quvchilarni adabiyot arboblari hamdard bo‘lishga undash orqali o‘qituvchilar inson tuyg‘ulari, munosabatlari va jamiyat muammolarini chuqurroq tushunishga yordam beradi [5].

Xulosa. Adabiy ta’limga intilishda o‘quvchilarning aqliy o‘sishi, hissiy zehni va empatiyasini tarbiyalashda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini aks ettirish, dialog, qiyosiy tahlil, multimodal ishtirok va empatiyani rag‘batlantiradigan strategiyalarni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar o‘quvchilarni zukko kitobxonlar, fikrlaydigan fikrlovchilar va mehr-shafqatli shaxslar bo‘lishlari mumkin. Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali adabiy ta’lim nafaqat akademik izlanishlar sayohatiga, balki kelgusi yillar davomida o‘quvchilarning qalbi va ongini boyitib turuvchi tajribaga aylanadi. [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абульханова К.А. Стратегия. - М.: Мысль, 1991. - 299 с.[1]
2. Андреева Г.М. Социальная психология. - М.: МГУ, 1988. - 415с.[2]
3. Аникин В.Г. Экзистенциальная рефлексия личности и проблемно-конфликтные ситуации / В. Г. Аникин. – М., 2000. – 243 с.[3]
4. Маллаев Н. Узбек адабиёти тарихи. - Тошкент: “Kafolat print company” нашриёти, 2021. - 403-б.[4]
5. Попова Е.И. Проектно-исследовательская деятельность по русскому языку и литературе как средство формирования культуроведческой

компетенции учащихся // Всероссийский дистанционный конкурс для работников образования на лучшую статью “Современные технологии в работе педагога”.

6.Зухриддинов М. Дардан ташкари машгулотларда тарихий улкашунослик материаллари воситасида укувчиларни иждокорлик фаолиятигайуналтириш // Халқ таълими. - Тошкент, 2011. - № 2. - Б. 135[6].

TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ruzimova Intizor,

*Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi Xujamuratovna,
oybek.tabiiy@gmail.com +998991280801*

Anatatsiya. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, pedagogika sohasida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning kasbiy motivatsiya, ixtirochilik va boshqarish, axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish, o‘z-o‘zini faollashtirish kabi muhim sifat ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda intellektual axborot resurslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zi. Pedagog, ilmiy tadqiqot, mavzu, paradigma, metodologik.

Kirish. Ilmiy tadqiqot ham shunga o‘xshash xalqqa, mamlakatga, insoniyatga xizmat qiladigan ulug‘ ish, unga kirishish, ilmiy izlanish loyihasini belgilashdan boshlanadi. Pedagogik tadqiqotda izlanuvchi ezgu maqsadi, millat, Vatan taraqqiyoti uchun ma’suliyatli orzu-intilishni loyihasida o‘z ifodasini topadi. Kitob yozishi, innovatsion texnologiya modelini yaratishi, bitiruv malakaviy yoki magistrlik dissertatsiya tanlangan mavzuni o‘rganishdan boshlanadi. Mavzuning qaysi jihatlari dolzarbligi aniqlanadi, tadqiqotning loyihasi tuziladi. Loyihada tadqiqotning maqsad, vazifa, amalga oshirish yo‘llari aniq ifodalanadi, tadqiqotning dastlabki tuzilish modeli yaratiladi. Mamlakatimizda oliy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida malakali mutaxassislarni yetkazib berishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish shart-sharoitlarini xalqaro ta’lim standartlari darajasida ilmiy-metodik asoslangan tizimini yaratish hamda mustaqil ta’lim olishning funksional mexanizmlarini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishning amaldagi metodikalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Kompetensiya – lotincha so‘z bo‘lib, “o‘z vazifasini chuqur anglagan, dunyoqarashi shakllangan, tajribali” degan ma’noni bildiradi. Ma’lum bir kompetentlikni o‘zlashtirgan shaxs o‘z sohasiga loyiq bilim va malakasi shakllangan, ijobiy fikr va samarali harakat yurita oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak, “kompetentlik” – shaxsning

ma'lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan harakatlarning o'zaro bog'liq sifatlarning yig'indisi, "kompetentlik"- insonning harakatiga mos kompetentlikni o'zlashtirishi.

Kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda "kompetentlik" tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida gavdalanadi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik amaliy tadqiqotlar paradigmasining shakllanish manbalari quyidagilar kiradi: fanning psixologik kontsepsiyasi, ilmiy faoliyatning sub'yektini uning "sub'yektlik va sub'yektivlik"ni aniq ifoda etuvchi ilmiy tadqiqotda sub'yektiv-irratsional natijaga e'tiborni qaratish (A.V.Yurevich, V.I.Slobodchikov, M.G.Yaroshevskiy); metodologik ta'minot darajasi kontsepsiyasi va ilmiy tadqiqot refleksiya (V.S.Shvirev, V.A.Lektorskiy, E.G.Yudin); dalillash nazariyasi (I.I.Ivin); "ijtimoiy-madaniy", insonparvarlashtirish kontsepsiyasi va fanning aksiologizatsiyasi (L.A.Mikeshina, V.S.Stepin, L.A.Mikeshina, V.S.Shvirev va b.); ilmiy reallik turlari kontsepsiyasi (V.S. Stepin); "ochiq" ratsionallik kontsepsiyasi (V.S.Shvirev); "umumiy" va "o'ziga xos"likni texnik, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar paradigmalarda ochuvchi falsafa va fan metodologiyasi kontsepsiyasi (V.M.Rozin, V.S.Shvirev, E.G.Yudin, L.A.Mikeshina, V.S.Stepin); ilmiy ratsionallik modellarini loyihalashtirishga normativ-mezonli, tanqidiy-refleksiv, tizimli-modelli yondashuv (V.N.Porus, V.S. Shvirev).

Ilm-fanning dialektik xususiyati, davr talabi, jamiyat buyurtmasiga mos istiqbolli vazifasi har bir fanning metodologik asosini takomillashtirishni taqozo etadi. O'z navbatida fanlarning tez rivojlanishi; har 3-4 yilda uzluksiz ta'lim mazmuni o'zgarib turishi; har tomonlama rivojlangan, intellektual salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalashdek dolzarb muammoni ilmiy-metodik ta'minlash metodologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Metadologik asos. Fandagi har bir yangi qadam faqat avvalgi yutuqlarga tayangan holda boyitilishi mumkin:

- yangi bilim eski bilimni mukammallashtirgan to'liqroq va aniqroq shakli bo'lib, haqiqatni yanada aniqroq aks ettiradi;
- o'tmishdagi fan taraqqiyoti yangi fan uchun zamin tayyorlaydi;
- o'tmishdagi bilimlarning faqat hozirgi davr ilmiy nazariyalariga mos keluvchi elementlariga ahamiyatlidir.

Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmuni belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy

iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash qo'llanmasidir. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning mezonidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Tadqiqot argumenti tajriba-sinov ishlarining natijasiga asosan ifodalanadi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlarining har xil variantda, har xil sharoitda o'tkazilganiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotda subyektiv tavsiyalar o'tgan asrda ta'lim-tarbiya tizimini inqirozga olib bordi. Tajriba guruhlari xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi. Ilmiy tadqiqotning natijasi, samaradorligi, uni tashkil etishga, izchilligiga bog'liq.

Mantiqiy izchillik pedagogik tadqiqot ishining tarkibiy qismlarini uzviyligi o'zaro bog'liqligidadir. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tadqiqot obyekti va predmeti uning dolzarbligi;
2. Tadqiqot maqsadi fan taraqqiyotida tutgan o'rni, ta'lim-tarbiya nazariyasini takomillashtirish, mavzu bo'yicha yangi konsepsiya yaratish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
3. Tadqiqotning muayyan maqsadi, predmeti, ilmiy muammodan kelib chiqadigan vazifalar;
4. Tadqiqotning konseptual asosi, nazariy qoidalari, tadqiqotning etakchi g'oyasi. Tadqiqotchining ilmiy yo'nalishi, dastlabki konsepsiyasi unga fanning taraqqiyotida maqsad va vazifalarni aniqlash imkoniyati;
5. Tadqiqot natijasida fanning taraqqiyoti haqida ilmiy faraz. Ilmiy faraz o'ziga xos dastlabki fikriy tadqiqot, ilmiy faoliyatga yo'llovchi maqsad, motiv [4].

Xulosa. Tadqiqot jarayonida u yoki bu bosqichda, faraz kutilmagan kamchilikka uchrashi mumkin. Tadqiqot boshlovchi qoidaga asosan yangi tizim yaratishga urinadi. Muntazam yangi adabiyotni o'rganib borish, konspektlash, ayniqsa, avtoreferat va maqolalarni tahlil qilish, tadqiqot metodikasini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar ilgari surish pedagogik tadqiqot izchilligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. XodjayeV B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. // B. XodjayeV va ЁI -. Toshkent: IQTISODIYOT DUNYOSI nashriyoti, 2018. - 190 bet.
2. Андреев, В.И. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа. // Педагогика. — 2005. — № 4. — С.19-26.;
2. Белухин Д.А. Основы личностно ориентированной педагогики. - Воронеж: МОДЭК, 2005. - 286 с.
3. Борытко, Н.М. Методология и методы психолого-педагогических исследований: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Н.М. Борытко, А.В. Моложавенко, И.А. Соловцова. - М. : Академия, 2008. — 320 с.

4. Краевский, В.В. Методология педагогического исследования: пособ. для педагога-исследователя / В.В. Краевский. - Самара: Изд-во СамГПИ, 1994. - 165 с.

GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA KENGAYTIRILGAN REALLIK TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Umarov Sanjar Sunnatovich,
Samarqand VPYMO'MM o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada virtual reallik va kengaytirilgan realliklar haqida ma'lumotlar berilgan. Geometriya darslarida Geogebra dasturi qo'llashning yangi imkoniyatlari haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: VR-virtual reallik, AR-kengaytirilgan reallik, Geogebra dasturi.

Аннотация. В статье представлена информация о виртуальной реальности и дополненной реальности. Представлены новые возможности использования программы Geogebra на уроках геометрии.

Ключевые слова: VR-виртуальная реальность, AR-дополненная реальность, программа Geogebra.

Abstract. The article provides information about virtual reality and augmented reality. New possibilities for using the Geogebra program in geometry lessons are presented.

Key words: VR-virtual reality, AR-augmented reality, Geogebra program.

Hozirgi ta'lim jarayonida ta'lim berish usullarini takomillashtirish va boyitishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Hozirgi davrning muhim, ommabop texnologiyalaridan VR (virtual reality) virtual reallik va AR (Augmented reality) kengaytirilgan reallik haqida to'xtalib o'tamiz.

VR foydalanuvchilarga to'liq virtual muhitga sho'ng'ish imkonini beradi, AR esa virtual obyektlar va ma'lumotlarni haqiqiy dunyoga joylashtirish imkonini beradi. Ushbu ikkala texnologiya ham fanlarni o'rganishni ko'rgazmali qilib ko'rsatish uchun uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta'limda VR va AR dan foydalanish yanada interaktiv va amaliy o'rganish dunyosiga eshiklarni ochadi.

Ular o'rganuvchilarga ilgari mavjud bo'lmagan noyob o'quv ssenariylarini boshdan kechirishga imkon beradi. Foydalanuvchilar VR va AR yordamida murakkab tushunchalarni tasavvur qilishlari, turli ssenariylar bilan tajriba o'tkazishlari va amaliyotda ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

Virtual reallik va kengaytirilgan reallik foydalanish usullari:

VR va AR ta'lim sifati va foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etuvchi muhim ta'lim innovatsiyalaridir. Ta'lim jarayonida VR va AR ni qo'llashning ba'zi misollari:

Virtual ekskursiyalar: o'quvchilar o'z sinflarini tark etmasdan butun dunyo bo'ylab muzeylar, tarixiy obidalar va turli joylarga virtual sayohatlar qilishlari mumkin.

Malaka oshirish:

VR-dan foydalangan holda talabalar turli xil ko'nikmalarni mashq qilishlari mumkin, masalan, jamoat oldida so'zlash, haydash yoki asbob-uskunalar bilan ishlash, boshqariladigan va xavfsiz muhitda.

Hamkorlik:

Virtual reallik o'quvchilarga geografik joylashuvidan qat'i nazar, real vaqt rejimida loyihalar ustida birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.

Interaktiv darsliklar:

AR yordamida darsliklar interaktiv 3D modellar, animatsiyalar va videolar bilan boyitilishi mumkin, bu esa materialni o'rganishni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi.

Amaliy o'rganish:

AR o'quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar va ma'lumotlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonini tezlashtiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilar o'quv materiallariga qo'shimcha tushuntirishlar, illyustratsiyalar va kontekst qo'shish orqali o'z tajribalari va bilimlarini kengaytirish uchun AR dan foydalanishlari mumkin. Masalan, san'atni o'rganayotganda talabalar o'z ishlarini virtual galereyalarga joylashtirishlari mumkin, u yerda ular fikr-mulohazalarni olishlari va o'z ijodlarini dunyo bilan bo'lishishlari mumkin.

Misol uchun Geogebra mobil ilovasini qaraymiz.

GeoGebra - boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar matematika fanni o'rganish uchun mo'ljallangan interfaol geometriya, algebra, statistika va hisob-kitob ilovasi. GeoGebra ish stollari (Windows, macOS va Linux), planshetlar (Android, iPad va Windows) va veb uchun ilovalar bilan bir nechta platformalarda mavjud.

GeoGebra yaratuvchisi Markus Xoenvarter 2001-yilda Zalsburg universitetida magistrlik dissertatsiyasining bir qismi sifatida loyihani boshlagan. Muvaffaqiyatli Kickstarter kampaniyasidan so'ng GeoGebra o'z taklifini iPad, Android va Windows Store ilovalari versiyasini o'z ichiga olgan holda kengaytirgan. 2013-yilda GeoGebra o'zining CAS ko'rinishiga Bernard Parisse Xcasni kiritgan. Loyiha endi bepul (ochiq manbali qismlarga ega) va ko'p tilli bo'lib, Xohenvarter Linz universitetida o'z rivojlanishini davom ettirmoqda.

GeoGebra foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lgan dasturiy ta'minot va bulut xizmatlarini kengaytirish uchun Avstriyaning Linz shahridagi bosh ofisdan birgalikda ishlaydigan tijorat va notijorat tashkilotlarni o'z ichiga olgan. 2021-yil dekabr oyida GeoGebra edtech konglomerati Byju's tomonidan taxminan 100 million dollarga sotib olingan.

GeoGebra – bu boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar fan, texnologiya, muhandislik va matematikani o'rganish va o'qitish uchun mo'ljallangan



interaktiv matematik dasturiy ta'minot to'plami. Tuzilmalar nuqtalar, vektorlar, segmentlar, chiziqlar, ko'pburchaklar, konus kesimlar, tengsizliklar, yashirin ko'phadlar va funksiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, bularning barchasi keyinchalik dinamik ravishda tahrirlanishi mumkin. Elementlarni sichqoncha va sensorli boshqaruv elementlari yoki kiritish paneli orqali kiritish va o'zgartirish mumkin. GeoGebra raqamlar, vektorlar va nuqtalar uchun o'zgaruvchilarni saqlashi, funksiyalarning hosilalari va integrallarini hisoblashi mumkin. O'qituvchilar va talabalar GeoGebradan geometrik taxminlarni shakllantirish va isbotlashda yordam sifatida foydalanishlari mumkin. Shu bilan qo'shimcha Geogebra 3D bo'limida AR ya'ni kengaytirilgan reallik funksiyasi mavjud bo'lib unda chizilgan geometric shakllarni real hayotda telefon kamerasi orqali joylashtirish mumkin.

VR va AR o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish orqali o'zgartirish imkoniyatiga ega. Biroq, ushbu texnologiyalarni ta'limga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun sifatli tarkibni ishlab chiqish, VR va AR uskunalarning mavjudligi va o'qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash kabi turli omillarni hisobga olish kerak.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) usullari innovatsion o'rganish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular o'quvchilarga materialni o'rganishning yanada interaktiv, amaliy va vizual usullarini taklif qilish orqali ta'limga an'anaviy yondashuvlarni o'zgartirmoqda.

VR va AR-dan foydalanish talabalarga noyob o'quv ssenariylarini boshdan kechirish, interaktiv simulyatsiyalar yaratish, murakkab tushunchalarni tasavvur qilish va xavfsiz va boshqariladigan muhitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan talabalar o'rtasidagi hamkorlik va aloqani rivojlantiradi.

Biroq, tegishli apparat va dasturiy ta'minotga, shuningdek moliyaviy va texnik imkoniyatlarga kirish bilan bog'liq cheklovlarni hisobga olish kerak. VR va AR-dan foydalanish ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan bo'lishi uchun ta'lim dasturlarining sifatli mazmuni va rivojlanishini ta'minlash ham muhimdir. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, innovatsion ta'lim texnologiyalaridagi VR va AR usullari yanada samarali va arzonroq o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular talabalarning qiziqishini kuchaytiradi, ularga murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunishga va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, chuqurroq va samaraliroq ta'lim tajribasini yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Dunleavy, M., Dede, C., & Mitchell, R. (2009). Affordances and limitations of immersive participatory augmented reality simulations for teaching and learning. *Journal of Science Education and Technology*, 18(1)
2. Klopfer, E., & Squire, K. (2008). Environmental detectives—the development of an augmented reality platform for environmental simulations. *Educational Technology Research and Development* .

3. Hsiao, H. S., Chen, N. S., & Huang, S. Y. (2019). A review of augmented reality applications in education: Insights from the technological acceptance model. *Educational Technology & Society* .

4. B.E.Boymurodov -Innovatsion ta'lim texnologiyalarida virtual reallik (vr) va kengaytirilgan reallik (ar) usullari. Ijodkor o'qituvchi jurnali 5 iyun / 2023 YIL / 30 – SON

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/GeoGebra> **vikipediya materilalari**

6. <https://www.geogebra.org/calculator> GeoGebra - interactive learning materials

SLIDESGO PLATFORMASINING IMKONIYATLARI

Oqnazarov To'liq Jalilovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Tel.: +998937247062; E-mail: tulqinjalilovich@gmail.com

Shakarov Axror Amonqulovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi Tel.: (97)289-89-86, e-mail: axrorshakarov86@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada slidesgo platformasining keng ko'lamli dizayn shablonlari, foydalanishning qulayligi, moslashuvchanligi, ta'lim resurslari va qo'llanmalar, bepul va premium haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: slidesgo, onlayn taqdimot, platforma, dizayn shablonlari, biznes va marketing, ta'lim va o'qituv, tibbiyot, google, premium.

Slidesgo – bu onlayn taqdimot yaratish uchun qulay va intuitiv platforma bo'lib, foydalanuvchilarga ko'p sonli dizayn shablonlarini taqdim etadi. Ushbu maqolada Slidesgo platformasining asosiy imkoniyatlari, foydalanuvchilarga taqdim etadigan qulayliklari va afzalliklari haqida batafsil so'z yuritimiz.

1. Keng ko'lamli dizayn shablonlari

Slidesgo platformasining asosiy afzalliklaridan biri bu uning keng ko'lamli dizayn shablonlarini taklif qilishidir. Platforma turli xil sohalar va mavzular uchun mo'ljallangan yuzlab shablonlarni o'z ichiga oladi:

- Biznes va marketing: Marketing strategiyalari, loyiha boshqaruvi, moliyaviy hisobotlar va boshqa ko'plab biznes ehtiyojlari uchun mos keladigan shablonlar.

- Ta'lim va o'qituv: O'qituvchilar va talabalar uchun o'quv materiallari, darslar va ilmiy ishlar taqdimotlari uchun maxsus shablonlar.

- Tibbiyot: Tibbiy tadqiqotlar, sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumotlar va boshqa tibbiyot mavzulariga mos shablonlar.

- Ijodiy ishlar: Dizaynerlar, san'atkorlar va boshqa ijodiy kasblar uchun yaratilgan shablonlar.

Slidesgo shablonlari turli xil ranglar, uslublar va tuzilmalar bilan ishlab chiqilgan bo'lib, har bir foydalanuvchi o'z ehtiyojlariga mos keladigan taqdimotni topishi mumkin.

2. Foydalanishning qulayligi

Slidesgo platformasi juda qulay va intuitiv interfeysga ega. Hatto texnologiya bilan juda yaxshi tanish bo'lmagan foydalanuvchilar ham osonlik bilan taqdimot yaratishlari mumkin:

- Ro'yxatdan o'tish va kirish: Slidesgo platformasiga ro'yxatdan o'tish juda oson. Foydalanuvchilar Google yoki boshqa pochta xizmatlari orqali tezda ro'yxatdan o'tib, tizimga kirishlari mumkin.

- Shablon tanlash va yuklab olish: Foydalanuvchilar o'zlariga yoqqan shablonni tezda tanlashlari va uni Google Slides yoki PowerPoint formatida yuklab olishlari mumkin.

- Tahrirlash qulayligi: Slidesgo shablonlari oson tahrirlanadigan qilib yaratilgan. Foydalanuvchilar Google Slides yoki PowerPoint yordamida shablonlarni o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirishlari mumkin.

3. Moslashuvchanlik va moslashtirish

Slidesgo shablonlari juda moslashuvchan va foydalanuvchilarga ko'plab moslashtirish imkoniyatlarini taklif etadi:

- Matn va rasm qo'shish: Foydalanuvchilar o'z matnlarini, rasmlarini va grafik elementlarini shablonlarga osongina qo'shishlari mumkin.

- Ranglar va shriftlar: Slidesgo shablonlarida ranglar va shriftlarni o'zgartirish imkoniyati mavjud, bu esa har bir taqdimotni yanada shaxsiy va noyob qiladi.

- Animatsiyalar va effektlar: Shablonlarga animatsiyalar va boshqa vizual effektlar qo'shish mumkin, bu esa taqdimotlarni yanada qiziqarli va dinamik qiladi.

4. Ta'lim resurslari va qo'llanmalar

Slidesgo platformasi foydalanuvchilarga qo'shimcha resurslar va qo'llanmalar taqdim etadi:

- Darsliklar va video qo'llanmalar: Slidesgo foydalanuvchilarga taqdimot yaratish va tahrirlash bo'yicha batafsil darsliklar va video qo'llanmalar taqdim etadi.

- Blog va ilhom beruvchi maqolalar: Slidesgo blogida turli xil ilhom beruvchi maqolalar, taqdimot bo'yicha maslahatlar va boshqa foydali materiallar chop etiladi.

- Yordam xizmati: Platforma foydalanuvchilari uchun maxsus yordam xizmati mavjud bo'lib, ular har qanday savollariga tezkor javob olishlari mumkin.

5. Bepul va premium rejalar

Slidesgo platformasi bepul va premium rejalarini taklif etadi, bu esa foydalanuvchilarga o'z ehtiyojlariga mos variantni tanlash imkoniyatini beradi:

- Bepul reja: Bepul rejada foydalanuvchilar cheklangan sonli shablonlarga kirish imkoniga ega bo'lib, asosiy tahrirlash va yuklab olish funksiyalaridan foydalanishlari mumkin.

- Premium reja: Premium rejada foydalanuvchilar ko'proq shablonlarga, yuqori sifatli dizaynlarga va qo'shimcha funksiyalarga ega bo'lishadi. Bu rejada reklamasiz foydalanish imkoniyati ham mavjud.

Xulosa

Slidesgo platformasi taqdimot yaratish jarayonini osonlashtiruvchi va yanada qiziqarli qiluvchi ko'plab imkoniyatlarga ega. Keng ko'lamli dizayn shablonlari, foydalanish qulayligi, moslashuvchanlik va ko'plab qo'shimcha resurslar Slidesgoni taqdimot yaratish uchun ideal platformaga aylantiradi. Bepul va premium rejalar esa

har bir foydalanuvchiga o'z ehtiyojlariga mos keladigan variantni tanlash imkoniyatini beradi. Slidesgo bilan taqdimot yaratish yanada oson va samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Slide:ology: The Art and Science of Creating Great Presentations" by Nancy Duarte.
2. "Presentation Zen: Simple Ideas on Presentation Design and Delivery" by Garr Reynolds.
3. "The Non-Designer's Design Book" by Robin Williams.
4. Coursera va Udemu kurslari.
5. Canva dizayn blogi.
6. Google Slides yoki PowerPoint qo'llanmalari

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Abduyev Sheroz Bobirovich,

Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi Email: abduyev@gmail.com. Tel: 90 270-73-42

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalari, raqamli axborot, Googlening servis xizmatlar unda mavjud imkoniyatlardan ta'limni rivojlantirish jarayonida foydalanishning avfzalliklari taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli axborot, ma'lumotlarni raqamlashtirish, raqamli texnologiya, LMS, MOOC, skrinkast, Google classroom, Moodle, Blackboard.









Elektron ta'lim zamonaviy hayotda muhim rol o'ynaydi, u nafaqat odatiy o'qitish formatidagi talabalar uchun, balki barcha toifadagi ta'lim ishtirokchilari uchun (ish paytida o'rganish, imkoniyati cheklangan talabalarning sifatli ta'lim olishi, yangi kasblar uchun kvalifikatsiya olish). Shunday qilib, masofaviy ta'limni qo'llash mamlakat ta'limini rivojlantirishga va birinchi navbatda nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilar ko'plab imkoniyatlarga ega dasturiy vositalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta'limni boshqarish tizimlari(LMS-learning management system), ommaviy ochiq onlayn kurslar(MOOC -massive open online courses) yordamida dunyoning qaysi nuqtasida bo'lishidan qat'iy nazar turli sohalarga oid bilimlarni o'zlashtirib, takomillashtirmoqdalar. Internet orqali o'qitish uchun o'zida turli xil servislar va instrumentlarni saqlovchi Web 2.0 texnologiyalaridan foydalaniladi. Bularga Vikipediya, bloglar, lahzali xabar almashish, ijtimoiy tarmoqlar kabi vositalar va xizmatlar, o'quvchiga kerak bo'lgan hamma o'rganish uchun foydali ma'lumotnomalarni misol keltirish mumkin. Bu nafaqat o'qituvchiga yangi ta'lim mazmunini yaratish va tarqatish imkoniyatlarini beradi, balki, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro ta'sir qilishning yangi usullarini paydo bo'lishiga yordam beradi.







Hozirgi kunda elektron ta'lim platformalari (Google classroom, Moodle, Blackboard) ta'lim berish, ta'lim olish, o'z bilim va professional qobiliyatini rivojlantirmoqchi bo'lgan har qanday soha vakillari uchun qulay va samarali

vositadir. Ushbu platformalarda axborot texnologiyalari, kimyo, chet tillar, pedagogika va psixologiya, matematika, fizika, kiberxavfsizlik, dasturlash, muhandislik va boqa ko'plab kasblar bo'yicha masofadan turib o'zingizga qulay bo'lgan vaqtda, o'zingizga ma'qul malakali ustozlardan bilim olishingiz, kasbiy kompetentligingizni rivojlantirishingiz va shu o'rinda o'zingiz ham kurs va treninglar tashkil etishigiz mumkin bo'ladi.

Googlening servis xizmatlar to'plami. Ta'limda ma'lumotlar bazalarining turli tumanligi, qimmatliligi, foydalanish uchun qulayligi, xavfsizlik va barqarorligi o'ta muhim sanaladi. Googlening servis xizmatlar to'plami sizning ana shunday talablaringizga javob beruvchi ko'pgina xizmatlarni sizga tavsiya qiladi:

1 -jadval

<i>Xizmat turi</i>	<i>Imkoniyati</i>
 Meet	Videomuloqot tashkil etishga mo'ljallangan xizmat turi bo'lib, onlayn mashg'ulotlar, muloqot va bahs munozaralar tashkil etish imkonini beradi
 Play	Telefon, planshet, televizorlarda foydalanish uchun turli mavzudagi o'yinlar, ilovalar, filmlar elektron kitoblar yuklab olish xizmati. Bunda onlayn kurslar va darsda foydalanish mumkin bo'lgan animasion darsliklarni yuklab oishingiz mumkin.
 Диск	Sizning ma'lumotlaringizni saqlash uchun mo'ljallangan bulutli xizmat turi. Ya'ni bunda siz o'zingizga kerak muhim ma'lumotlarni shu diskka joylashtirib, undan istalgan vqtda istalgan joyda cheklovlarsiz foydalanishingiz, kerakli manzilga yuborishingiz mumkin.
 Переводч...	Bu matnlarni turli tillarga tarjima qilishga mo'ljallangan xizmat turi bo'lib, istalgan tildagi matnni istalgan tilga va hatto rasm ko'rinishidagi ma'lumotlarni ham tarjima qilishingiz mumkin.
 Chat	Kontaktingizdagi insonlar bilan jonli muloqot qilish imkonini beruvchi xizmat turi.
 Календарь	Kalendar xizmati sizga kundalik, haftalik, oylik rejalarigizni tuzish uchun qulay ko'rinishga ega. Uning yordamida rejalarigiz uchun eslatmalar yaratishingiz mumkin.
 Презента...	Onlayn taqdimotlarni yaratish imkonini beruvchi xizmat turi bo'lib, sizda taqdimotlarning chiroyli dizaynidan foydalanib istalgan qurilmangiz orqali tezkor taqdimot yaratish imkonini beradi.
 Документ...	Ofis hujjatlarining tayyor shablonlari bilan boyitilgan xizmat turi bo'lib, tezkor tayyorlash talab etiladigan hujjatlarni nafaqat kompyuterda balki, mobil qurilmangiz yoki

	planshetingizda ham tayyorlash imkonini beradi.
 Таблицы	Jadval shablonlari xizmatida siz uchun muhim maqsadlarda mavjud jadvallar berilgan bo'lib, shu bilan birga siz o'zingizga kerakli ko'rinishdagi jadvalni ham bu xizmat imkoniyatlaridan foydalangan hoda yaratishingiz mumkin.
 Класс	Onlayn kurs yaratish xzmati orqali siz o'z faningiz doirasida qo'shimcha onlayn darslar, to'garak mashg'ulotlari, onlayn o'quv kurslarini yaratib, onlayn darslarni tashkillashtirishingiz, o'quvchilarni baholash, topshiriq berish, sinovlar utkazishingiz mumkin.
 Путешест...	Sayohat xizmat turi sizga o'z hududingizdagi sayohatbop maskanlar va chet ellardagi sayyohat qilish mumkin bo'lgan maskanlar haqida ko'plab ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari bu xizmat turi geografiya o'qituvchilari uchun ham darsda foydalanish uchun qulay onlayn ma'lumotnoma vazifasini o'taydi.
 Формы	Formalar xizmat turi ham ko'plab hujjatlar, testlar, so'rovnomalarning tayyor shablonlarini tavsiya qiladi. Uning yordamida o'qituvchilar o'z fanlari dirasida onlayn testlarni tashkil etishlari mumkin.
 Планета ...	Planeta xizmat turi nafaqat yer sharidagi biz yashayotgan hududni balki, butun koinotni aylanib chiqish imkonini beradi. Bu xizmat turidan asronomiya, geografiya va tarix fani o'qituvchilari keng foydalanishlari mumkin.
 Blogger	Bloger xizmat turidan foydalanib siz o'z shaxsiy saytingizni yaratish va uni taqdim etish imkoniga ega bo'lasiz. Informatika darslarida o'quvchilarni veb-dizaynerlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

Googlening servis xizmatlar to'plamining yana boshqa ko'plab turlari bor. Yuqorida keltirilgan xizmat turlarini ta'lim sohasiga qo'llash orqali o'quvchilarni nafaqat o'z fanimizga, balki internetning yangi imkoniyatlari, muhim jihatlaridan maqsadli foydalanishga yo'naltira olamiz.

Darslar samaradorligini oshirish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishga xizmat qiluvchi vosita bu mavzular uchun tayyorlangan videodarslardir. Hozirgi kunda internet tarmog'ida ko'plab tayyor videodarslarni topishimiz mumkin, biroq bu videodarslar har doim ham bizning mavzumizni to'liq yoritib bera olmasligi mumkin. Bundan tashqari unda qo'yilgan reklamalar mazvuni o'rganish jarayoniga xalaqit beradi albatta. Shu sababli ham biz qaysi fan o'qituvchisi bo'lishimizdan qat'i nazar o'z mavzularimizni kengroq yoritib berish va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun videodarslar yaratish ko'nikmasiga ham ega bo'lishimiz zarur.

Ekranni yozib olish dasturlari yordamida o'qituvchi o'z fani uchun zarur videodarslarni yaratishi, onlayn darslar uchun taqdimotni namoyish etishi, turli xil mavzularda video ko'rinishidagi ma'lumotnomalarni tayorlashi mumkin.



1-rasm. Videokuzatuv dasturlari

Yuqorida sanab o‘tilgan dasturlardan foydalanishning muhim jihatlari bor. O‘rgatuvchi videodars uch turga bo‘linadi:

Skrinkast – kompyuter ekranini yozib olish va kadr ortida ovoz orqali videodagi holatlarga izoh berib borish bilan amalga oshadi. Bu ko‘proq kompyuter dasturlarini o‘rgatish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan a‘lo darajadagi usul hisoblanadi.

Videokuzatuv – bunda videoda sharhlovchi ko‘rinadi. U kamera oldida turib matnlarni o‘qib boradi. Bunday videolar ko‘pincha taqdimotlarni masalan, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotlarni o‘qib izohlab borish uchun qo‘llaniladi.

Videodars – o‘rgatuvchi rolik. Formatiga ko‘ra televideniye ko‘rsatuviga o‘xshaydi. Masalan, biror bir kulinariya dasturini eslang yoki biror bir ilmiy tadqiqot tajribalari ko‘rsatilgan videoni tushunish mumkin. Bu usulda yaratilgan videolar ideal senariylar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Endi xuddi shunday videodarslarning biror bir turini mustaqil tayyorlashimiz uchun nimalarga e‘tibor berish kerakligini qadamba-qadam ko‘rib chiqamiz.

Maqsadli auditoriyani aniqlang. Ko‘pchilik maqsadli auditoriyani tanlashga e‘tibor qaratmaydi. Biroq maqsadli auditoriyani tanlash videodarsni maksimal darajada foydali bo‘lishini ta‘minlaydi. Maqsadli auditoriya deganda kuzatuvchilarning yoshi, jinsi, qiziqishi, yashash hududi va shu kabi umumiy xususiyatlarini hisobga olib material tayyorlash tushuniladi.

Videodars uchun senariy tayyorlang. Senariy tayyorlash chiqishlaringizni tartibga solishga: videoda ishlatiladigan matnlarni tayyorlash, bildiriladigan fikrlarni, maslahatlarni tanlash olingan videodarsni yanada ta‘sirli va qimmatli bo‘lishiga yordam beradi. Bundan tashqari senariy tayyorlash nutqda tutilib qolishlar, bir xil so‘zni qayta-qayta takrorlash, yoki to‘xtab qolishlardan sizni himoya qiladi.

Senariy yozishni mavzuga oid eng qiziqarli faktni aytishdan boshlashingiz yoki ma‘ruzaning mavzusini qisqagina aytishdan boshlang. Senariyni o‘rtasidagi bildirilgan fikrlar dars mavzusini maksimal darajada yoritib berishi kerak. Senariyning oxirida umumlashtirib, yana bir bor asosiy fikrlarni ko‘rib chiqing va keyingi videoning kichkina anonsini tuzing. Senariy asosida videodarsning raskadrovkasini qilishingiz mumkin. Raskadrovka bu – asosiy tasvirlar ketma-ketligini ko‘rib chiqib tanlash va to‘g‘ri tartiblash. Videonamoyish davomida

uzatilayotgan tasvirga senariydagi soʻzlarning mos kelishini taʼminlaydi. Videoning davomiylik vaqtini bilish uchun skriptni Honomer xizmati orqali boshqaring. Honomer — matn miqdori boʻyicha kelajakdagi videoning davomiyligini aniqlaydi.

Yuqorida sanab oʻtilgan kompyuter dasturlaridan va axborot texnologiyalardan unumli foydalana oladigan har qanday oʻqituvchi avvalo, oʻz fanini oʻquvchilarga yaxshi yetkaza oladi, yangi va hayotiy maʼlumotlarga ega boʻladi, oʻz bilimni mukammallashtirgan holda nafaqat oflayn balki onlayn darslar tashkil etib oʻquvchilarga taʼlim berishi mumkin.

Узнайте сколько времени займет текст

Программа определит длительность озвучки текста в секундах, минутах, страницах

Темп: размерный (~100 сл/мин) стандартный (~120 сл/мин) быстрый (~140 сл/мин)

• Videodars - oʻrgatuvchi rolik. Formatiga koʻra televideniye koʻrsatuviga oʻxshaydi. Masalan, biror bir kulinariya dasturini eslang yoki biror bir ilmiy tadqiqot tajribalari koʻrsatilgan videoni tushunish mumkin. Bu usulda yaratilgan videolar ideal ssenariylar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Endi xuddi shunday videodarslarning biror bir turini mustaqil tayyorlashimiz uchun nimalarga eʼtibor berish kerakligini qadamba-qadam koʻrib chiqamiz.

Длительность текста: **0 мин 26 сек** Очистить поле

Слов: **51** Страниц: **0.1** (A4, шрифт Times New Roman, размер14)



Kamera va mikrofon tanlang. Video eng kamida HD formatda boʻlishi uning sifatini yaxshiligini anglatadi. Bunday videolarni olish uchun quyidagi veb-kameralaridan birini tanlashingiz mumkin. Video yozishga moʻljallangan kameralarning uch xil turi mavjud: ichki veb-kameralar, tashqi

vob-kameralar, professional HD kameralar. Bu kameralardan sifatli videodarslarni yozishda keng foydalaniladi. Koʻpincha ichki veb-kameralarda videodarslar olinganini kuzatamiz. Bu kamerada videoni sifatli olinishi uchun kuchli yoritilgan muhit boʻlishi talab etiladi. Tashqi veb-kamera anchagina mukammal

video yaratishga moʻljallangan qulay vosita hisoblanadi. Bunda ovoz va tasvir sifatini yaxshi boʻlishini taʼminlash mumkin. Professional veb-kameralar yuqori darajadagi videolarni olish imkonini bersada, byudjet jihatdan bu video ancha qimmat boʻlishi mumkin. Videolarning sifatini koʻtarib beradigan vositalardan yana biri bu mikrofon boʻlib, sizga koʻplab mikrofonlar ichidan eng qulay boʻlgan “Petlichka” mikrofonini tavsiya qilamiz. Bu mikrofon kiyimda yashiringa boʻlsada, ovozni yaxshi tutib oladi va tashqi shovqinlarni oʻtkazmaydi.

Videoni yozish uchun joy tanlang. Videoning ommalashuvi undagi fon va tasvirlarning qiziqarliligiga bogʻliq. Tanlangan joy videodarsning mavzusiga 100% mos kelishi kerak. Masalan: siz kimyoviy tajribani suratga olayotgan boʻlsangiz, syomka laboratoriyada tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Yoritgichlarni joylashtiring. Siz videodarsni ochiq tabiatda suratga olayotgan boʻlsangiz yoritilganlik darajasiga moslashib oʻrnatib olishingiz mumkin. Bu holat

bino ichida bo'lsa, yoritilganlik darajasiga albatta e'tibor qaratish zarur. Yorug'likni me'yorga keltirishning eng oddiy usuli: Videodars olib boruvchisini fondan 2-3 metr uzoqlikda joylashtirib unga tomon bitta yoritgichni yo'naltiring, boshqa ikkita chiroqni olib boruvchining orqasiga joylashtirib chiroqlarni fonga qaratib qo'ying. Fonga qaratilgan chiroqlar birinchi chiroqqa nisbatan ikki marta kuchliroq yoritishi kerak. Yoritishning yana bir oddiy va oson yo'li tabiiy yorug'lik bilan yoritishdir. Quyosh nuri ko'proq tushadigan binoni tanlang, deraza qarshisiga o'tiring, quyosh nuri yuzingizga tushgan holatda videoni sifatli tasvirga olishingiz mumkin.

Videoni bo'laklarga bo'lib yozib oling. Videoyozuv boshlanishidan oldin matnni ovoz chiqarib o'qing. Ovozingizni optimal balandligi va tempini belgilab oling, mikrofonni sinovdan o'tkazing. Matndan bir qism o'qigandan so'ng 5 soniya to'xtang, bu paytda kameradan ko'zingizni uzming. O'zingiz mustaqil videomaterial tayyorlashingiz professionallar bilan ishlaganga nisbatan ancha murakkab bo'lsada, buni eplash mumkin. Faqatgina quyidagi talablarga amal qiling:

- Barcha ofis texnikalari, konditsioner, xabar signallarini o'chiring;
- Videoni yopiq eshik ortida yozing;
- Bo'm-bo'sh, devorlari ovozni qaytaruvchi xonada imkon qadar ishlamang;
- O'tirgan stulingiz gichirlamaydimi tekshiring;
- O'chib-yonuvchi chiroq va chalinuvchi qo'ng'iroqlarni o'chirib qo'ying;
- Videodarsning maksimal davomiyligi 7 daqiqadan oshmasligi kerak;

Videolarni tahrirlovchi dasturlarni tanlab videoni tahrirlang. Videodarsni tasvirga olganingizdan so'ng uni tahrirlash zarurati paydo bo'ladi. Professional foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan Sony Vegas yoki Adobe Premiere dasturlari sizga bir muncha tushunarsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning uchun boshqa soddaroq dasturiy vositalardan foydalanishingiz mumkin. Misol sifatida Power Point dasturida slaydlar orasiga videoni joylashtirib ham qiziqarli videodars yaratishingiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki fan va texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan davrda zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fani doirasidaga ma'lum bilimlar, balki hozirgi zamonning rivojlangan texnologiyalarini o'zlashtira olsagina bizning ta'lim tizimimiz jahon talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni jamiyatga yetishtirib bera oladi desak to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashv Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar.– T.:Nihol, 2016.
2. G'ulomov.S.S., va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent., "Sharq", 2000.
3. Aripov M.A., Maraximov A.R. Informatika, Informatsion texnologiyalar. Darslik., T: TDYuI., 2004.
4. R.X.Alimov. Axborot texnologiyasi va tizimlari ,T.: 2011.-36 b.
5. A.R.Miraximov., S.I.Raxmonqulova. Internet va undan foydalanish asoslari, T.: 2001-38 b.
6. A.Cho'ponov, N.Zoirov, O.Shukurova, G.Sherboboyeva, Kompyuter grafikasi va dizayni fanidan ma'ruzalar matni, Qarshi 2009 y.76-b.

7. A. Abduqodirov, A. Pardaev , Masofali ta'lim nazariyasi va amaliyoti, T. 2010 y, 136 B.

8. Гильмутдинов.А.Х. Электронное образование на платформе MOODLE. Казань, КГУ. – 2008.–169 с.

8. Энгель В. Moodle для новишков. Обзор возможностей Moodle в вопросах и ответах / В. Энгель. – Moodle Center, 2012 — 18 с.

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHI

Shakarov Axror Amonqulovich,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tel.: (97)289-89-86, e-mail: axrorshakarov86@gmail.com

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'imga yondashuvlarni o'zgartirmoqda. Zamonaviy umumta'lim maktabi o'qituvchilari zamonaviy hayotning barcha talablariga va raqamli jamiyatda zamonaviy hayot uchun zarur bo'lgan raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga to'liq javob beradigan darajada bo'lishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ta'lim va o'qitish sifatini oshirish, uzluksiz o'qituvchilar ta'limini o'zgartirishdagi eng muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

Yangi texnologik inqilob sun'iy intellekt, robototexnika va virtual haqiqat kabi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishiga olib keldi. Raqamlashtirishning bunday sur'atlari aksar insonlarning raqamli muhit vositalarini qo'llash sohasidagi malaka va ko'nikmalarini rivojlanishini oshiradi. Aynan shundan raqamli savodxonlik, zamonaviy insonning raqamli ko'nikmalarini rivojlanish masalalari ayniqsa professional muhitda dolzarb bo'lib bormoqda.

Raqamli savodxonlik (digital literacy) raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui bilan belgilanadi. Bu insonning zamonaviy raqamli texnologiyalardan ish joyi va hayotida ishonch bilan qo'llay olishi, bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni qidirish va baholash universal qobiliyatini belgilaydi. Bunday raqamli savodxonlik raqamli asrda umumbashariy umuminsoniy ahamiyatga molik xususiyatga ega bo'lib, bu jamiyatning barcha a'zolariga kerak va shaxsning muhim axborot madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli savodxonlik zamirida raqamli kompetensiya (digital competencies) yotadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasidagi turli xil muammolarni hal qilish qobiliyati: raqamli texnologiyalardan foydalanib kontent yaratish va foydalanish, shu jumladan ma'lumotlarni qidirish va almashish, savollarga javob berish, boshqa odamlar va kompyuter dasturlari bilan o'zaro aloqa qilish. Raqamli kompetensiya raqamli hamkorlik, xavfsizlikni ta'minlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga olishi kerak.

Raqamli ko'nikmalar (digital skills) - aholining shaxsiy kompyuterlar, Internet va raqamli texnologiyalarning boshqa turlaridan foydalanish sohasidagi malakasi, shuningdek, insonlarning tegishli bilim va tajribaga ega bo'lish istaklari. Raqamli ko'nikmalar insonlarga raqamli kontentni yaratish va almashish, muloqot qilish va o'rganish, ish va umuman ijtimoiy faoliyatda samarali va ijodiy o'zini o'zi anglash uchun muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Raqamlashtirish zamonaviy maktab ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan, rivojlanayotgan "raqamli dunyo"da raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish uchun zarur. Shu bilan birga, zamonaviy yosh avlodning raqamli madaniyati hamda raqamli ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish uchun asosiy mas'uliyat o'z o'quvchilaridan farqli o'laroq, zamonning so'nggi muammolariga kamroq moslashgan, yetarlicha harakatchanlikka, mobillikka ega bo'lmagan o'qituvchilar tarkibiga tushadi.

Shuning uchun zamonaviy maktab va o'qituvchi o'zining raqamli kompetentsiyasini qanday oshirishligini, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish jarayonini qanday boshqarish kerakligi va bu texnologiyalar maktabga nima olib kelishi mumkinligini bilishi muhim. Zamonaviy o'qituvchi har qachongidan ham ko'proq, uning raqamli madaniyatini belgilaydigan va o'z sinfida yangi texnologiyalardan ishonchli foydalanishga imkon beradigan tizimli bilim va ko'nikmalarga, yangi professional kompetensiyalarga muhtoj.

Zamonaviy hayot uchun zarur raqamli jamiyatda Internet-texnologiyalarni rivojlantirish va tarqatish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va o'quv jarayonining texnologik samaradorligini oshirish ta'lim dasturlarini hamda joriy bilim, ko'nikma va yangi raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirishni sifatini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, yangi raqamli texnologiyalar bilan qanday ishlashni bilmagan o'qituvchilar, ta'limning yangi mazmuni, o'qitish uslublari, baholashning zamonaviy yondashuvlarini o'zlashtirmaganlar taklif qilingan innovatsiyalarni amalga oshirilishini ta'minlay olmaydi.

Yangi axborot voqeligi, zamonaviy insonning turmush tarzi zamonaviy mutaxassisning axborot madaniyati va axborot texnologiyalari kompetentsiyasini rivojlantirish talablarini ilgari suradi. Shu bilan birga, umuman axborot madaniyatining past darajasi raqamli texnologiyalarni sifatli rivojlantirish, modernizatsiya qilish, butun mamlakat, uning raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligi, aholi turmush

darajasi va sifatini oshirish uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Shuning uchun yangi raqamli kompetensiyalarni shakllantirish asosiy bilimlar bilan bir qatorda tarmoqdagi o'zaro ta'sirga asoslangan zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning maxsus madaniyati turli xil ma'lumotlarning hajmi va mavjudligini sezilarli darajada oshirish sharoitida O'zbekiston ta'lim tizimining strategic vazifasidir.

Tadqiqotchilar ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lishi sharoitida O'zbekistonda ta'lim tizimining transformatsiya maqsadlarini belgilashning asosiy shartlarini aniqladilar:

- uzluksiz ta'limning samarali tizimini shakllantirish zarurati;
- ta'lim xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishning umumiy tendentsiyasi.

Ta'limni raqamlashtirish jarayoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amalga oshirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Shu bilan birga tadqiqotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar jamiyatni axborotlashtirish davrida pedagogika va predmet usullarining bir qismiga aylanib borishini qayd etadi. Ta'lim metodologiyasi axborotga, pedagogikaning predmeti esa shaxsning axborot madaniyatiga, shu jumladan axborot xavfsizligi, media kompetentlik va media madaniyat aspektlariga aylanadi.

Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi zamonaviy ta'lim standartlarini amalga oshirish uchun didaktik vosita va tadqiqot vositalari to'plami sifatida qaraladi.

Birinchi, boshqa ko'plab faoliyat sohalarida bolalar va kattalar tomonidan faol foydalaniladigan samarali raqamli texnologiyalar va vositalar ta'lim tashkilotlarida yetarli emas.

Ikkinchi, ta'lim tashkilotlari ta'limni shaxsiylashtirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanmaydi (traektoriyani tanlash, o'quv materiallarining xilma-xilligi, o'rganishda qiyinchiliklar bo'lsa), o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish (interfaol o'quv materiallari, ta'lim o'yinlari), pedagoglar va boshqaruvchilarning muntazam faoliyatini osonlashtiradi (monitoring, hisobot berish, ishlarni tekshirish).

Yangi raqamli texnologiyalar an'anaviy texnologiyalarga asoslangan zamonaviy maktab tomonidan hal etilmaydigan yoki yomon hal qilinadigan asosiy ta'lim vazifalarini hal qilish imkonini beradi.

Qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimini sifat jihatidan qayta qurish va o'qituvchi, "kelajak" o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish sharti bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga faol joriy etish mumkin.

O'zbekistonda maktab ta'limini sifat jihatidan yangilash va raqamlashtirish quyidagi majburiy shartlar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1) ta'limda yangi raqamli texnologiyalarni tarqatish orqali raqamli ta'lim muhitini yaratish, shu bilan birga mobil texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash orqali;

2) zamonaviy raqamli ta'lim kontentini, yangi o'quv-uslubiy majmualarini rivojlantirish;

3) o'qituvchining sifatli kasbiy rivojlanishini ta'minlashni, yangi raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun motivatsiyani oshirishni, raqamli ta'lim kontentidan foydalanishni uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini o'zgartirishni transformatsiya qilish orqali.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ta'limni raqamlashtirishni, umumiy ta'lim tizimida o'sib kelayotgan avlodning yangi raqamli ko'nikmalarini shakllantirishni davlatning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun yuksak ahamiyati va ustuvorligini ta'kidlashadi.

Xulosa. Ta'lim jarayonining texnologik samaradorligini, ta'limning moslashuvchanligini, shuningdek, o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishni ta'minlaydigan kontseptual qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish

butun o‘qituvchilar jamoasiga talablarni oshiradi, o‘qituvchilardan yangi kasbiy va raqamli ko‘nikmalarni, raqamli kontentni ishonchli o‘zlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 sonli ““Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. A.X. Maxmudov Zamonaviy ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. 2020 y.

3. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari: Monografiya. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 180 b.

XXI ASR TA’LIMINING DOLZARB MASALALARI: HAYOT DAVOMIDA O‘QISH, SUN’IY INTELLEKT, “YASHIL SHAHAR”, TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.

Sh.N.Turdiyeva,

*Buxoro vioyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida tabiiy fanlarning tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Ushbu masalalarga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo‘nalishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi sohalardan biri biologiya fanidir. Zero biologiya fani tabiat tizimidagi organizmlar, jumladan, kishilar va ularning atrof – muhit bilan munosabatlariga doir tushuncha, voqelik, hodisa va jarayonlarni tadqiq quluvchi fandır. Organizmlar ayniqsa, kishilik jamiyati yashar va rivojlanar ekan, uning faoliyati muqarrar ravishda atrof - tabiat bilan bevosita yoinki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Ekologik xavfsizlik esa eko tizimlarning ya’ni organizmlar yashaydigan tabiiy muhitning abiotik, biotik va antropogen omillar ta’sirida turli ko‘lam hamda tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan va ularning davomiyligidan saqlanganlik holatidir.

Аннотаци. В современный период развития нашего общества возрастает роль естественных наук. Одной из областей образования, дающей знания по этим вопросам и оптимизирующей взаимосвязь между ними, является наука биология. Ведь биология – это наука, изучающая понятие, реальность, события и процессы организмов в природной системе, включая людей, и их взаимоотношения с окружающей средой. Поскольку организмы, особенно человеческое общество, живут и развиваются, его деятельность неизбежно прямо или косвенно связана с окружающей средой. Экологическая безопасность – это состояние сохранности экосистем, то есть естественной среды, в которой обитают организмы, от негативных ситуаций и их продолжительности, которые происходят в разных масштабах и скоростях под воздействием абиотических, биотических и антропогенных факторов.

Kalit soʻzlar: biologiya, oʻqitish metodikasi, ekologiya, oʻqitishning dolzarb muommolari, zamonaviy biologiyaning yutuq va kamchiliklari.

Biologik bilim negizida rivojlanadigan ekologik bilim mamlakatimizda dolzarb masalalardan biri boʻlib, Respublika Konstitutsiyasida ham qayd etilgan. Asosiy qonunimizda: “Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, - deb taʼkidlangan. Zero, ekologik xavfsizlikni nafaqat mahalliy, balki milliy, mintaqaviy va global miqyosda taʼminlashga har bir kishi hissasini qoʻshmogʻi kerak.

Insoniyat va jamiyatlar rivojida kelajak avlod milliy va umumbashariy moddiy meros va boyliklarning yuqori ahamiyati haqida tasavvurga va bilimga ega boʻlishi kerak:

- Biologiyaning predmeti, tushunchalari, tarkibiy qismlari, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrnini;

- Oʻzbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini taʼminlash imkonini beruvchi tuzilmani vujudga keltirish, uning milliy mustaqillikni mustahkamlash va milliy taraqqiyotdagi ahamiyatini;

- globallashuv jarayonlari va ekologik tahdidlarni;

- ekologik maʼnaviyatdagi milliy va umuminsoniy jihatlarini;

- uning tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy zaminlarini, inson ekologik maʼnaviyatishakllanganligining asosiy mezonlarini bilishi kerak.

Ekologik maʼnaviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil qiladi. U millat abadiyligini va mamlakat taraqqiyotini taʼminlashdagi ustuvor omil hisoblanadi.

Jamiyatimizda taʼlim-tarbiya tizimini sogʻlom insonparvarlik yoʻnalishida qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga koʻtarish, barkamol, maʼnaviy dunyosiboy, axloqiy pok, komil insonlarni tarbiyalash kechiktirib boʻlmaydigan, davlat ahamiyatiga, millat kelajagiga molik vazifa boʻlib turibdi. «Biologiya» fanini umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻqitilishi ham ana shu muhim vazifani amalga oshirilishiga xizmat qilmogʻi lozim. Umumiy biologiya fani hayotning fan oʻrganadigan hamma rivojlanish darajalariga doir asosiy qonunlarni oʻz ichiga oladi:

-Biologik jarayonlar va xodisalarning mexanizmlari sohasidagi ajobiy kashfiyotlar bilan tanishtiradi.

-Odamning biosferada tutgan oʻrnini va uning biosfera uchun javobgarlik hisini uygʻotadi.

-Integratsiyalovchi ahamiyatga ega.

-Ilgari oʻrganilgan va organik olamning asosiy qonuniyatlariga boʻysunadigan faktlar tarixiy naqtai nazardan sistemalashtiradi.

-Rivojlanish jarayonlarining dialektikxarakterini (irsiyat va oʻzgaruvchanlik xodisalarning, progress va regressning, assemilyasiya va dissimilyasiya va boshqa protssslarning oʻzaro qarama-qarshiligini) tushunishni oʻrgatadi.

- Hayot vabuton organik olam xodisalarining moddiy xarakterda ekanini faktlar asosida izohlaydi.

- Tabiat g'oyat xilma-xil va murakkab bo'lishiga qaramay uni bilish mumkin ekanligi haqida asosli dalillarga ega bo'ladi.

- O'quvchilarni falsafiy masalalarga yaqinlashtirib, ularda dunyoqarash fikrlarini shakllantiradi.

- Organik olam uchun umumiybo'lgan va hozirgi vaqtda insoniyat oldida turgan eng zarur muammolarni o'z ichiga oladigan hayot qonuniyatlarini o'rgatadi.

- Qonunlarni bilish asosida tabiatdan oqilona foydalanish, uni qo'riqlash va ko'paytirish kabi malaka va ko'nikma shakllanadi.

-Tabiat va jamiyat hodisalarini to'g'ri izohlash qobiliyatinihosil qiladi.

- O'z ish faoliyatida bio ekologik ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lishiko'nikma vam alakasini shakllantiradi.

Biologiya fanini rivojlantirish istiqbollari shundan iboratki, bu fan odamzotga uni oziq-ovqat bilan ta'minlashga, kasalliklarni bartaraf etishga, umrni uzaytirishga, uning hayotini ta'minlovchi tabiat ne'matlarini qayta hosil qilishga, boshqa har qanday fandan ko'ra ko'proq bag'ishlangandir. Biologiya qonuniyatlarini bilish natijasida tabiatni muhofaza qilish, biosferani ifloslanishidan saqlash ayniqsa, irsiy kasalliklar, mutatsiyalar (ichkilikbozlik, chekish, giyohvandlik, axloqsizlik natijasida kelib chiqadigan kasalliklar)ning oldini olish imkonlari, uy hayvonlarning selmahsul zotlarini yaratish, ekinlarning serhosil navlarini yaratish kabi vazifalarni amaga oshirish uchunbiologik bilimning ko'nikma va malakalarishakllanishi zarur. Ma'lumki, ekologik buzilishlar yaqin qarindosh-urug'larning nikohlanishi, turmush tarziga to'liq rioya qilmaslik va boshqa sabablarga ko'ra tug'ilgan bolalarning o'sishi va rivojlanishida irsiy, yurak qon-tomir sistemasi, ruhiy (nevroz) kasalliklar, nafas va ovqat hazm qilish organlarida surunkali kasalliklar ko'plab uchramoqda, bunday muamolardan tashqari oldimizda tabiatning qayta hosil qiluvchi kuchlarini buzmagan, balki butun choralar bilan unga ko'maklashgan holda "Uning resurslardan qanday foydalanish mumkin?" degan katta muammo turibdi.

Bu kabi muammolar esa biologiya fanining nazariy bilimlariga asoslangan holda amaliyot asosida kengroq o'rganishni taqazo etadi. Hozirgi davrda hamma sohada fanning o'rni va mavqei tobora ortib bormoqda, Yangi texnika va texnologiyaga keng yo'l ochish, uni malakali boshqara oladigan va ayni chog'da ekologik madaniyatni o'zida mujassamlantirgan, ma'naviy barkamol kadrlarga ijtimoiy talab tobora ortib bormoqda. Ma'lumki, ilmiy-texnika inqilobining ijtimoiy tabiiy oqibatlarini butun taraqqiyparvar insoniyatni jiddiy tashvishga solayotgani sir emas. Binobarin, ro'y berayotgan fan va texnika rivojini har bir jamiyat ekologik muhitini sog'lomlashtirish bilan uzviy bog'liq holda borishini ta'minlash favqulodda muhim vazifalardan biridir.

References

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. "CHO'lpon" T.: 2011 - 128 b.

2. Tolipova J.O, G'ofurov A.T.-Biologiya ta'limi texnologiyalari. "O'qituvchi" T.: 2002 - 128 b.

3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. T.: Bilim, 2004, - 160 b.

4. Bosiers, M., & Schneider, P. A. (Eds.). (2009). Critical limb ischemia. Informa Healthcare.

5. Svetukhin, A. M., Karlov, V. A., IuA, A., Matasov, V. M., & Blatun, L. A. (1990). General principles of the treatment of suppurative wounds and suppurative surgical diseases. *Khirurgiia*, (12), 79-84.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ТОЛЕРАНТНОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Уразова Марина Батыровна,

*Профессор, доктор педагогических наук кафедры
педагогике ТГПУ имени Низами*

Зарипова Антонина Рустамовна,

Магистрант Kimyo International University in Tashkent

Исламбекова Дилфуза Зафаржон кизи

*Студентка центра переквалификации психологии при
ТГПУ имени Низами*

Аннотация. Цель данной статьи заключается в теоретическом анализе формирования основ толерантности культуры у учащихся начальных классов. В работе представлен обзор литературы по теме, описывающий ключевые понятия толерантности, культуры и особенности формирования толерантности у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: толерантность, виды толерантности, начальная школа, воспитание толерантности, толерантная культура, толерантное взаимодействие.

Annotation. The purpose of this article is a theoretical analysis of the formation of the foundations of cultural tolerance in primary school students. The paper presents a review of the literature on the topic, describing the key concepts of tolerance, culture and features of the formation of tolerance in primary school children.

Key words: tolerance, types of tolerance, primary school, education of tolerance, tolerant culture, tolerant interaction.

Введение. Проблема формирования толерантности культуры у детей стоит особенно остро в современном мире, где различия в культурных и этнических особенностях становятся все более заметными. Учащиеся начальных классов находятся на этапе активного формирования своей социальной и культурной идентичности, именно поэтому важно понять, каким образом можно содействовать развитию их толерантности и уважения к культурным различиям.

Укоренение толерантности в школе, формирование отношения к ней как к важной ценности общества, играют важную роль в развитии культуры мира на Земле. В возрасте младшей школы дети начинают включаться во взрослую жизнь, формируют свою социальную идентичность и учатся взаимодействовать со сверстниками. В этот период особенно важно формировать навыки

толерантного поведения, учитывая, что младшие школьники являются наиболее уязвимыми участниками образовательного процесса, так как сталкиваются с различными жизненными сложностями, затрагивающими различные сферы личности.

Следующие стратегические документы стали объективным выражением подхода к воспитанию у детей толерантности в современном обществе: Декларация прав ребенка, Конвенция ООН о правах ребенка, Всемирная декларация об обеспечении выживания, защиты и развитии детей.

В исследованиях в области психологии и педагогики (проведенных Л.С. Выготским, А.А. Люблинской, В.А. Запорожцем, А.Н. Леонтьевым, и С.Л. Рубинштейном) отмечается, что младший школьный возраст играет ключевую роль в формировании положительного отношения к представителям других национальностей и культурной толерантности. В этом возрасте ребенок уже начинает осознавать свою ответственность за свои поступки и отношение к окружающим людям.

В научных работах таких ученых, как Р.Р. Валиева, З.Т. Гасанова, И.И. Серова, С.К. Бондырева и других, были изучены общие теоретические аспекты проблемы формирования толерантности. В рамках этнического образования, этнической педагогики и этнической психологии этот вопрос также рассматривали педагоги-теоретики, такие как В.С. Агеев, Г.Н. Волков, А.И. Доронченков, В.Г. Крысько, О.Д. Мукаева, А.Б. Панькин, Г.У. Солдатова.

Образовательная политика Узбекистана отражает национальные интересы в области образования и применяется к мировому сообществу с учетом общих тенденций мирового развития. Эти тенденции требуют значительных изменений в системе образования из-за перехода к информационному обществу после индустриального, расширения масштабов международного взаимодействия и увеличения важности факторов коммуникабельности и толерантности.

Среди основных проблем воспитания вызывают беспокойство вопросы о том, что учить и как воспитывать, как научить детей любить свою страну, национальную культуру, уникальность и традиции своего народа, свою семью. Этот вопрос беспокоит каждого из нас.

Примером может служить наследие В. А. Сухомлинского, который отмечал: «Особая сфера воспитательной работы – ограждение детей, подростков, юношества от одной из самых больших бед – пустоты души, бездуховности... Настоящий человек начинается там, где есть святыни души...»

Идеи воспитания и уважения развивали джадиды, великие педагоги-просветители, к примеру А. Авлони, который писал: «Воспитание для нас - вопрос жизни или смерти, спасения или гибели, счастья или беды»

Одной из основных целей воспитания толерантности является подтверждение значимости человеческого достоинства и неприкосновенности каждой личности. Создание учебной среды, способствующей развитию толерантности учащихся и их саморазвитию, является общей задачей

начального общего образования на основе национальных воспитательных идеалов.

Все исследования имеют огромное значение для педагогики как научной дисциплины и практики, однако проблема изучения процесса формирования толерантности у подростков остается недостаточно исследованной. Очень важно осмыслить воспитание толерантности у младших школьников с учетом эффективности формирования этого качества как части личности.

Школа играет значительную роль в решении проблем воспитания и формирования личности как носителя гуманистических и толерантных идей в условиях поликультурных отношений. Эффективное формирование толерантной культуры у детей младшего школьного возраста через этнопедагогику возможно благодаря системному и целенаправленному процессу воспитания, который должны осуществлять семья и школа при создании соответствующих организационно-педагогических условий и использовании эффективных средств, форм и методов формирования толерантности учащихся.

Ребёнок в начальной школе очень сильно зависит от эмоций, которые он получает от родителей и учителя. Он нуждается в том, чтобы его окружали положительные эмоции, и именно родители и учитель играют ключевую роль в формировании его поведения. Поэтому важно, чтобы учитель и родители работали вместе над развитием толерантности у ребёнка в этом возрасте.

Воспитание толерантности включает в себя не только понимание понятия «толерантность» и развитие толерантной личности, но также укрепление доверия, воображения, сочувствия и сопереживания, а также понимание различий между людьми. Работа педагога должна быть направлена не только на передачу информации, но и на формирование ценностей у детей. Важно организовать диалог ребенка с культурой, сверстниками и педагогами, в ходе которого ребенок узнает о себе и о других, определяет свои предпочтения и отвращения, и приходит к собственным выводам.

Исследование научно-практических работ подтверждает, что система народного воспитания, основанная на воспитательных традициях, способствует установлению общих нравственных ценностей и играет решающую роль в формировании толерантности у детей младшего школьного возраста. Народные средства воспитания, такие как поговорки, пословицы, сказки, легенды, колыбельные песни и игры, отражают национальное богатство педагогической культуры и выражают такие ценности, как уважение к старшим, гостеприимство, скромность, трудолюбие, высокая нравственность, правдивость, честность и терпимость к различию. В научной педагогике эти нравственные качества трактуются как "толерантность", которая означает уважение, принятие и правильное понимание разнообразия культур, форм самовыражения и способов проявления человеческой индивидуальности. Толерантности способствуют знания, открытость, общение и свобода мысли, совести и убеждений. Расширение знаний учащихся о различных народах, живущих как в республике Узбекистан, так и на другие территориях, позволит

формировать взаимопонимание и естественную готовность к продуктивному межнациональному и межкультурному взаимодействию.

Гуманизация воспитания и образования неразрывно связана с изменениями представлений о сущности педагогического воздействия, о роли педагога в учебном процессе и роли учащихся - не как пассивных наблюдателей, а как активно участвующих субъектов деятельности.

Именно от педагогических усилий и личностных качеств формируемое у учащихся качество толерантности становится стабильным.

Толерантность означает, что гражданское общество может мирно сосуществовать, люди могут взаимодействовать и влиять друг на друга, и различные национальные культуры могут гармонично развиваться только при условии равноправия и уважительного отношения к различным проявлениям национальной самобытности.

Формирование основ толерантной культуры у учащихся начальных классов играет важную роль в создании гармоничного общества. Работа над развитием уважения к различиям, понимания и принятия других культур и мнений должна начинаться с самого раннего возраста. Обучение толерантности в школе способствует формированию у детей умения конструктивно взаимодействовать, решать конфликты без насилия и стремиться к сотрудничеству. Важно продолжать работу над развитием толерантности учащихся на протяжении всего обучения, уделяя особое внимание индивидуальным потребностям каждого ребенка. Только вместе с учителями, родителями и обществом в целом мы сможем создать более толерантное и уважительное окружение для будущих поколений.

Литература.

1. Декларация принципов толерантности: утв. резолюцией 5.61 Генеральной конференцией ЮНЕСКО от 16 ноября 1995г. // Защити меня! 2004
2. Асмолов А.Г. Слово о толерантности [Текст] / А.Г. Асмолов // Век толерантности. - 2001. - № 1.
3. Батрак А.Я. Развитие толерантности младших школьников [Текст] / А.Я. Батрак. - Братск: ГИМНЦ, 2010. - 97 с
4. Дубровина, И. В. (2016). Развитие толерантности культуры у детей начальных классов: практические аспекты.
5. Смирнова, Н. П. (2013). Психологические особенности формирования толерантности культуры у детей младшего школьного возраста.

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA FANINING BO‘LG‘USI PEDAGOGLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLARI

Safayeva Diyora Hamid qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. “Har qanday

murakkab zamonaviy axborot texnologiyalar, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, avvalo, o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o'quvchilar ongi va tafakkuriga yetkaziladi" [1 9-b]. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar o'z-o'zidan "ijodkorlik" tushunchasini olib kirdi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, har qanday taraqqiy etgan mamlakatning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omil kadrlarning ijodkorlik faoliyatlarini yuqori "cho'qqi"larga olib chiqish bilan uzviy bog'liq. Pedagoglar tabiatini o'zgartiradigan, ular shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuchli ijtimoiy omillardan biri – bu akmeologik motivatsiyadir. Aniqlanishicha, inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishi hodisasidir. Ma'lumki, inson shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Shu bois ham, akmeologiya – ulg'aygan shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o'rganuvchi maxsus fan hisoblanadi. Akmeologiya (grekcha "akme – cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch" ma'nolarini bildiradi) – ilmu-fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o'rganadi. Ya'ni, u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi. Akmeologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol subyektlari tarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning subyekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini shakllantirishi uchun sharoit yaratadi. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir.

Pedagogik akmeologiya - bu o'qituvchi ishidagi professionallikka va kompetensiyaga erishish yo'llari haqidagi fan[2 24-b].

Zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimidagi akmeologik yondashuv kasbiy motivatsiya, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishni rag'batlantirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy resurslarni aniqlash va unumli foydalanishni mustahkamlanishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik akmeologiya konsepsiyasini shakllantirish uchun quyidagi tarkibiy qismlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- individuallikning akmeologik konsepsiyasi;
- Pedagogik mahoratning akmeologik konsepsiyasi;
- sog'liqni saqlashning akmeologik konsepsiyasi;
- amaliy vositalar;
- akmeologik yordam;
- akmeologik maslahat.

Individuallik - bu shaxsiyat, shaxsiyat, faoliyat subyekti va o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olgan insoniyat rivojlanishining eng yuqori ideal bosqichidir. Inson uchun o'ziga xos individualligini, o'ziga xosligini kasbiy

faoliyatda anglab etish muhimdir, chunki u uchun bu uning haqiqiy, noyob, universal, ajralmas, subyektlarning haqiqiy holatiga yaqinlashishdir.

Pedagogik mahoratni pedagogik mahoratning boshqa belgilari bilan birgalikda ko'rib chiqish mumkin (pedagogik san'at, kasbiy mahorat va o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari). Pedagogik mukammallik - bu o'qituvchi bo'lishga qodirlik va uning individualligi salohiyatining maqsadga muvofiqligi, shuningdek, "acme" ga erishish uchun shartidir. Inson salomatligi shunga qaratiladiki, inson potensiali umumlashtirilgan tamoyilga asoslangan (individuallik, shaxsiyat, faoliyat subyekti, individuallik). Inson salomatligini akmeologik tushunish uni ta'lim va ta'lim bilan birlashtiradi. Shu bilan birga, u sog'liqning xususiyatlariga biologik, psixologik, pedagogik va tibbiy jihatlar birlashtirilgan, Sog'liqni saqlashning akmeologik konsepsiyasi uning konstruktivligi va dinamiz: jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa darajalarda sog'likni saqlash va mustahkamlashni nazarda tutadi. Amaliy vositalar akmeologik loyihalash, qo'llab-quvvatlash va maslahat berish usullarini o'z ichiga oladi. Akmeologik loyiha individual ish uchun ishlatiladi, hayot strategiyasini, xulq-atvorini yoki kasbiy rivojlanishini aniqlash bilan bog'liq. Akmeologik yordam turli xil tashkiliy va pedagogik tadbirlarga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladi.

Akmeologik maslahat - bu o'qituvchilar bilan o'zlarining kasbiy faoliyatlari, pedagogik darajalariga erishishda yordam berish bilan bog'liq individual ish. "Men" konsepsiyasini o'zlashtirish, shakllantirish va amalga oshirish va boshqalar[2 49-b]. Akmeologiya nuqtai nazaridan professionallik - bu "akme" tomon harakat qiladigan o'zini o'zi rivojlanayotgan shaxsning xususiyati yoki kasbdagi mahoratning eng yuqori cho'qqisi. Akmeologiya fan sifatida mutaxassisni kasbda va umuman hayotda rivojlantirishning asosiy yondashuvlarini, shuningdek, shaxsni takomillashtirish va o'zini rivojlantirishning muvaffaqiyatini, uning o'zini o'zi anglashining to'liqligini belgilaydigan omillar, sharoitlar, mexanizmlarni o'rganadi.

Pedagogik akmeologiyaning markaziy tushunchalaridan biri bu o'qituvchining kasbiy mahorati tushunchasi. Bu o'qituvchi shaxsining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushuniladi, u kasbiy faoliyatning bir nechta turlariga egalik qilishni va talabalarda o'qitish va tarbiyalashda kasbiy pedagogik muammolarni samarali hal qilishni ta'minlaydigan o'qituvchida kasbiy muhim psixologik fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi [2 51-b]. A.K.Markova [3 156-b]ning fikriga ko'ra o'qituvchining kasbiy mahorati bo'lishi kerak, bu bir qator mezonlarga javob beradi, jumladan:

1. obyektiv mezonlar: pedagogik faoliyat samaradorligi (uning asosiy turlari - o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalash, shuningdek o'qituvchi faoliyatidagi yordamchi - diagnostika, tuzatish, maslahat, tashkiliy va boshqaruv, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqalar);

2. subyektiv mezonlar: barqaror pedagogik yo'nalish (kasbda qolishni istash), o'qituvchi kasbining qadriyat yo'nalishlarini anglash, mutaxassis sifatida o'ziga nisbatan ijobiy munosabat, ishdan qoniqish;

3. protsessual mezonlari: o'qituvchi tomonidan o'z ishida ijtimoiy maqbul, insonparvarlik yo'naltirilgan usul va texnologiyalardan foydalanish;

4. ishlash mezonlari: pedagogikada yutuq jamiyat talab qiladigan mehnat natijalari (tinglovchilarning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish, ularning tez o‘zgaruvchan jamiyatda hayotga tayyorligini ta’minlash)

O‘qituvchilarning yuqori malakasiga erishish uchun tabiiyki, pedagogik faoliyat talablariga javob beradigan va ushbu faoliyatni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatni belgilaydigan o‘qituvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarining umumiylikni aniqlaydigan maxsus pedagogik qobiliyatlarga ega bo‘lish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tabiiyki, maxsus pedagogik qobiliyatlar odamning umumiy qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bilimlarni o‘zlashtirish va pedagogik mahoratlarni amalga oshirishda nisbatan osonlik va samaradorlikni ta’minlaydi.

Pedagogik qobiliyatlar va pedagogik mahoratlarning farqi shundaki, pedagogik qobiliyatlar - bu shaxsiyat xususiyatlari, pedagogik mahorat esa - shaxs tomonidan yuqori darajada amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning alohida harakatlari. Bizning fikrimizcha pedagogik akmeologiya – pedagogning mehnat faoliyatida professionallikka erishishning yo‘llari haqidagi fandır. Uning mohiyati pedagog tomonidan boshqa kishilar shaxsini tarkib toptirishga insonparvar yo‘naltirilgan yuksak darajadagi professionallikka erishish yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.

Shaxs kamolotining barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, shaxsiy, faoliyat subyekti sifatida yetuklik bir-biri bilan bog‘liq, ammo inson bir vaqtning o‘zida barcha cho‘qqilarga chiqolmaydi. Tabiiyki, inson rivojlanishi u katta yoki kichik jamiyatlarning a‘zosi sifatida harakat qilganda va, albatta, ushbu holatlarga javob sifatida o‘z harakatlaridan kelib chiqadigan o‘ziga xos holatlarga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shu munosabat bilan, akmeologiya inson hayotining har bir bosqichida rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bilan bog‘liq qiyin muammolarni hal qilish uchun pedagogika bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kasbiy mahorat darajasi uning pedagogik ishning yuqori ko‘rsatkichlari sari harakatining bosqichlarini ifodalaydi:

- kasbni egallash darajasi, unga moslashish, o‘qituvchi tomonidan boshlang‘ich normalarni, zarur texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirish;
- pedagogik mahorat darajasi, kasbda to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribaning eng axshi namunalarini yaxshi darajada amalga oshirish;
- Kasb-hunar bo‘yicha mavjud bo‘lgan tinglovchilarga individual yondoshish uslublarini, bilimlarni uzatish usullarini egallash;
- talabalarga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish va hk.;
- o‘qituvchining kasb-hunar bo‘yicha o‘zini o‘zi anglash darajasi, ongi o‘qituvchilik kasbining shaxsini rivojlantirish, kasb yordamida o‘zini rivojlantirish, ijobiy fazilatlarini ongli ravishda mustahkamlash va salbiy xususiyatlarini yumshatish, individual faoliyat uslubini mustahkamlash imkoniyatlari;
- o‘qituvchining ijodkorlik darajasi, shaxsiy ijodiy hissa orqali o‘z kasbining pedagogik tajribasini boyitish, mualliflik takliflarini kiritish va o‘qitishning yangi usullarini yaratish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. - Toshkent, 2015 y. 9-b.

2. Педагогическая акмеология: коллективная монография / под. ред. О. Б. Акимовой; ФГАОУ ВПО «Рос. гос. проф.-пед. ун-т». Екатеринбург, 2012. 24-55 с.

3. Маркова А. К. Психология профессионализма / А. К. Маркова. Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. 256 с.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING O‘ZBAKISTONDA TUTGAN O‘RNI

Turapov Voxid Mamadiyorovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida axloqiy mezonlarning uzviyligi, hamda ularning o‘zaro munosabatida texnika texnologiyalar taraqqiyotining ta’siri yoritilgan. Qadimdan shaxs ma’naviyati mohiyatan jamiyat mazmuni asosida rivojlanib kelgan, hattoki shaxs g‘oyasi jamiyatni tubdan o‘zgartirishga, taraqqiy ettirishga ta’sir etgan. Kishilik tarixida o‘quv adabiyotlarda shaxs o‘z yo‘nalishi, tadqiqot ob’ekti va maqsadlarini ifodalagan holda turli talqinlarga ega bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, inson, shaxs, jamiyat, ma’naviy salohiyat, yetuklik, axborotlashgan jamiyat, texnika, texnologiya, axloqiy mezonlar.

Abstract: This article describes the integrity of ethical criteria in the development of the information society, as well as the impact of technical and technological development on their interaction. Since ancient times, the spirituality of a person has essentially developed on the basis of the content of society, even the idea of a person has influenced the radical change and development of society. In the history of personality, in the educational literature, the person has different interpretations, expressing his direction, object of research and goals.

Key words: Spirituality, man, person, society, spiritual potential, maturity, information society, technique, technology, ethical criteria.

Аннотация: В данной статье описывается целостность этических критериев в развитии информационного общества, а также влияние технического и технологического развития на их взаимодействие. С древних времен духовность человека по существу развивалась на основе содержания общества, даже представление о человеке влияло на радикальное изменение и развитие общества. В истории личности, в учебной литературе человек имеет разные трактовки, выражающие его направленность, объект исследования и цели.

Ключевые слова: Духовность, человек, личность, общество, духовный потенциал, зрелость, информационное общество, техника, технология, этические критерии.

Axborotlashgan jamiyat (informatsion jamiyat) tushunchasi hozirgi zamon taraqqiyoti va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ham bu

jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Davlat boshqaruvi va elektron hukumat: Elektron hukumat tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatilishining samaradorligi oshmoqda. Fuqarolar va tadbirkorlar uchun turli davlat xizmatlari onlayn tarzda taqdim etilmoqda, bu esa byurokratiya va korrupsiyani kamaytirish, vaqt va resurslarni tejash imkonini bermoqda.

Ta‘lim va bilim olish: Raqamli texnologiyalar ta‘lim sohasiga keng joriy etilmoqda. Onlayn ta‘lim platformalari, masofaviy o‘qitish tizimlari va elektron darsliklar orqali ta‘lim sifati oshirilmoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida juda dolzarb bo‘lib, ta‘lim jarayonining uzluksizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynadi.

Iqtisodiyot va biznes: Axborot texnologiyalari iqtisodiy o‘sinhning muhim omiliga aylangan. Elektron savdo, fintech xizmatlari va raqamli bankchilik rivojlanmoqda. Kichik va o‘rta bizneslar uchun onlayn platformalar orqali yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, bu esa umumiy iqtisodiy faoliyatni jonlantirishda yordam beradi.

Madaniyat va axborot tarqatish: Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniy meros, milliy qadriyatlar va san‘atning targ‘iboti amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, axborot almashinuvi jarayoni tezlashib, ommaviy axborot vositalarining raqamli shakllari keng ommaga yetkazilmoqda.

Sog‘liqni saqlash: Elektron tibbiyot (e-health) tizimlari joriy etilmoqda, bu esa tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, diagnostika va davolash jarayonlarini takomillashtirishda yordam beradi. Onlayn maslahatlar, telemeditsina xizmatlari orqali tibbiy yordam olish imkoniyati kengaymoqda.

Xavfsizlik va barqarorlik: Raqamli xavfsizlik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kiberxavfsizlikni ta‘minlash, ma‘lumotlarning himoyasi va shaxsiy ma‘lumotlarni saqlash sohasida turli choralar ko‘rilmoqda.

Qiyinchiliklar va istiqbollar: Infrastruktura va texnologik yetishmovchiliklar: Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda barcha hududlarda raqamli infratuzilma bir xilda rivojlanmagan. Internet tezligi va sifati hamma joyda bir xil emas, bu esa raqamli xizmatlarning yetkazilishi va foydalanilishida muammolarni yuzaga keltiradi.

Kadrlar tayyorlash: Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati mavjud. Ta‘lim tizimi va kasbiy o‘qitish tizimlarini modernizatsiya qilish bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy asoslar: Axborot texnologiyalariga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish, raqamli xizmatlar va ma‘lumotlar himoyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi keng qamrovli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u davlat boshqaruvidan tortib, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiyotgacha bo‘lgan barcha sohalarni qamrab oladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Veb-sayt: www.president.uz Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. 26.01.2022

2. Karimova G.A. O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy-axloqiy jihatlari Fan doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. –B.5.

3. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504. 747

4. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. S1. – C. 597-605.

5. Kadirova X. milliy identiklikga ijtimoiylashuv, madaniy, tarixiy meros va tilning ta’sir etish xususiyatlari //universiteti xabarлари, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324.

15. Kadirova Y. LOVING THE COUNTRY IS FAITHFUL //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 420-423.

TABIY FANLARNI O‘QITISHDA 4K MODEL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Yunusova Navbahor Ahmadjonovna, Ibodullayeva Dilorom Murodullayevna

Samarqand VPYMO‘MM biologiya fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o‘qitishda 4K modeli ko‘nikmalari va ularni qanday topshiriqlar bilan shakllantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, kommunikativlik, kreativ, kritik, kollaboratsiya

Аннотация: В этой статье представлена информация о навыках моделирования 4К и о том, как их развивать с помощью задач по преподаванию естественных наук

Ключевые слова: модель 4К, коммуникативный, творческий, критический, сотрудничество

Abstract: This article provides information about 4K modeling skills and how to develop them through science teaching challenges.

Key words: 4K model, communicative, creative, critical, collaboration

XXI asr ko‘nikmalari hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida ta’lim maqsadlari sifatida mustahkam o‘rnashgan, ammo ularning o‘qitish va baholash amaliyotida amalda qo‘llanilishi ortda qolmoqda. To‘g‘ri javob berishdan ko‘ra, qanday qilib javob olishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan ushbu o‘quv maqsadlari ta’lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.


Yangi o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktab o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan

cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta‘limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta‘limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

4K nima degani?



4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kommunikativlik (muloqot qilish): O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ (ijodiy) fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash): Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarni guruhlarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlashda o‘quvchilr berilgan topshiriqni tanqidiy fikr bidiradilar: “Xato” masalalarni tahlil qilamiz:



1. Hayvon hujayrasidan sellyuloza qobiqni ajrating.

2. DNK molekulasi bitta zanjirida nukleotidlar ketma-ketligi quyidagi tartibda keltirilgan: UAGSSTTASGUU. Shu zanjir yordamida ikkinchi zanjirdagi nukleotidlar ketma-ketliginiyozing.

3.15 ta aminokislotadan tashkil topgan polipeptid zanjirdan sintezlangan DNK fragmentida 80 ta nukleotid borligini aniqlang.

4. Interferon va insulin virus replikasiyasini bloklaydigan oqsillar ekanligini tahlil qiling.

5. Fagotsitoz o‘simliklarda qanday amalga oshishini izohlang.



Muhokama uchun savollar

1. Olimlar qanday dalillarga asoslanib bakteriyalar bundan 3,5 milliard yil avval paydo bo‘lgan deb hisoblaydilar?

2. Odatda, odamni mukammal” tuzilgan organizm deb hisoblaymiz. Biroq bakteriyalar Yer yuzida 3,5 milliard yil avval paydo bo‘lgan va hozirgi kunga qadar mavjud hamda keng tarqalgan. Sizningcha, odam organizmi bakteriyalarga nisbatan “mukammal” tuzilganmi?

Kreativ g‘oyalarni ilgari surish

Dam olish maskani

Tabiat qo‘yniga dam olish uchun borganingizda yaqinlaringiz bilan bir dasturxon atrofida jamlanib, taom tanavvul qilasiz. So‘ngra bir qancha qoldiqlar (bir martalik plastmassa idish, foydalanilgan qog‘oz sochiq, polietilen paket va boshqalar) to‘planadi.

Dam olish maskanini ifloslantirmaslik uchun sayyohlar qanday yo‘l tutishlari zarur?

Bir-biridan farqlanadigan uchta g‘oyani taklif eting. Bunda muammoga noadatiy yechim topishga harakat qiling.

Odatiy javoblar qabul qilinmaydi: chiqindilarni ko‘mish, yoqish, maxsus ajratilgan joylarga olib borib tashlash.

Kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash)da o‘quchilar quyidagi amaliy topshiriqni kichik guruhlarda ishlab bajaradilar.


O‘simlik va hayvon organizmi transport sistemalarini taqqoslash

Mazkur amaliy topshiriqni kichik guruhlarda bajaring.

1. Guruh a‘zolari bilan birgalikda o‘simlik va hayvon organizmi transport sistemalarining kamida ikkita o‘xshash jihatini aniqlang.

2. Ularning kamida ikkita farqli jihatini aniqlang.

3. Guruh a‘zolarining fikr-mulohazalarini umumlashtiring hamda boshqa guruhlarga taqdim eting.



Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida umumta'lim maktab o'qituvchilari malakasini oshirib 4K modelini oquvchilarga qanday qo'llashni o'rganib bomoqalar.

bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchi xodimlarga talab kundan-kunga ortib borishi, ular uchun yetarli shart-sharoitlarga ega bo'lgan ish o'rinlarini ham taqazo etadi. Har bir xodimning mehnat faoliyati davomida haq-huquqlarining to'liq holda himoya etilishi uchun tegishli qonun-qoidalar tizimi yaratilishi bilan bir qatorda mavdulari ham hozirgi zamon talablariga mos ravishda o'zgartirishlar kiritilib borilmoqda. Bu esa barcha harakatlar negizida insonlar faravon hayotini yotganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
2. O'RQ-595-son. 16.12.2019
3. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi monografiya Toshkent, Real print. – 2017.160 bet.
4. "Mehnat muhofazasi". H.E.G'oirov. Toshkent, "Mehnat" 2000.

GEOGRAFIYA DARSALARIDA INTERFAOL METODLARNI TATBIQ ETISH VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li,

Guliston davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrasida o'qituvchisi,
e-mail: saidjonahmadqulov5@gmail.com

Umirzaqov Oybek Alimqul o'g'li,

Guliston davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrasida o'qituvchisi,
tayanch doktoranti, e-mail: oybekumirzaqov0@gmail.com

Fayzullaev Manas Musurmonqul o'g'li,

Guliston davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik kafedrasida o'qituvchisi, e-mail:
fayzullayevmanas@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o'quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi ta'lim texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. 80 dan ortiq interfaol metodlar, ularning mohiyati va qo'llanilishi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, daftar, interfaollik, geografiya, ta'lim, an'anaviy.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning engmaqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

Interaktiv metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Interfaol metodlarning klassifikatsiyasi,
yangi bilim egallashga yo'naltirilgan metodlar,
olgan bilimlarni amalda tadbiq etishga qaratilgan metodlar,
mustahamlash, to'ldirish va nazorat o'rnatuvchi metodlar,

bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish va baholash metodlari, ijodiy izlanish va tadqiqotchilik metodlari.


Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub‘yektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Hadeb, bir narsani o‘qib berish zerikarli bo‘ladi va toqatini toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi”. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag‘ishlaydi” deb ta’kidlaganlar ilm ma’rifatchisi Beruniy.

Hozirgi yangi kiritilgan zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda [Ishmuhammedov R., 5].

Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra Geografiya fani bo‘yicha ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan engmaqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun kengimkoniyat yaratadi.

Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:



An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish,

savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina soʻzlashdan iboratdir.

Anʻanaviy taʼlimdagi bir tomonlamalik oliy taʼlim tizimidagi faqat maʼruza mashgʻulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga koʻra, “yetkazib beruvchi” rolida endi oʻqituvchi emas, balki oʻquvchi (talaba) namoyon boʻladi. Oʻquvchi (talaba), asosan, oʻzi oʻzlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, oʻqituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur oʻrinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Oʻquvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi boʻlib qoladi. Bir qarashda oʻquvchi (talaba) yoki oʻqituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni oʻzlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uygʻotadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining koʻrsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (maʼlumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning oʻrganishlariga koʻra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda oʻzlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi.


Shunga koʻra interfaol oʻqitish “taʼlim jarayonining asosiy ishtirokchilari – oʻqituvchi, oʻquvchi va oʻquvchilar guruhi oʻrtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizgʻin bahs-munozaralar, oʻzaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, oʻquv materiallarini oʻzlashtirishda oʻquvchilarning oʻzaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “oʻqituvchi – oʻquvchi – oʻquvchilar guruhi”ning oʻzaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qoʻllab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda boʻlishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi”.

“KEYS-STADI” (YOKI “O‘QUV KEYSLARI”) METODI

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi oʻquvchi (talaba)larda aniq, real yoki sunʼiy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U oʻquvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni oʻrganish va tahlil qilishga oʻrgatadi. Bu metoddan yuqori sinflarda, xususan, iqtisodiy va ijtimoiy Geografiya darslarida foydalanish mumkin.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: taʼlim shakllari, taʼlim metodlari, taʼlim vositalari, taʼlim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni toʻplash, ularni oʻrganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, oʻqituvchi va oʻquvchi (talaba) oʻrtasidagi taʼlimiy aloqaning usul va vositalari, oʻquv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha:



“Nurash natijasida cho‘kindi tog‘ jinslarining hosil bo‘lishi” mavzusi bo‘yicha “Keys-Stadi” metodi

Fizik nurash jarayonini kuzatish metodi orqali qanday amalga oshirishimiz mumkin?

Yer yuzidagi ko‘pchilik tog‘lar granitdan tashkil topgan bo‘ladi. O‘qituvchi granit garchi juda qattiq va pishiq tosh bo‘lsada, asta-sekin yemirilib borishi haqida gapiradi. O‘qituvchi gapini tasdiqlash uchun tajriba o‘tkazadi. Kichik bir granit parchasini qisqich bilan ushlab turib, spirt lampa alangasida qizdiradi. Qizigan granit parchasini sovuq suvli bankaga tushiradi. Bitta granit parchasining o‘zini bir necha marta shunday qilib ko‘radi. Nihoyat, talabalar granit parchasi chatnab, mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib, sinib tushishini ko‘radilar. O‘qituvchi granitdagi kvarts, dala shpati donalari va slyuda plastinkalari qizdirilib, sovitilganda har xil darajada kengayib-torayishini tushuntiradi. Buning natijasida granitda darz ketgan joylar, yoriqlar paydo bo‘ladi, keyin esa u yemiriladi.


1. Tabiiy holatda minerallarning chatnab, mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib, sinishi qanday ro‘y beradi? Bu jarayonni qanday izohlaysiz.

2. Shag‘al, qum va gillar qanday hosil bo‘ladi? Bu haqda sizning fikringiz.

“TEST TEXNOLOGIYASI”

“Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchi (talaba)lar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Mashg'ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagicha kechadi:



Geografiya ta'limida nostandart testlardan foydalanish o'quvchilar qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – Toshkent, 2003.-24-38b.
2. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.-18b.
3. A.Ahmadaliyev, A.Qosimov Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2006.- 60b
4. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2004.-28b
5. Ishmuhammedov R., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2005.-52 b.
6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b.

TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA SIMSIZ ALOQA TARMOQLARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Avazov Tohir Shakarovich,

Jizzax VPYMO 'MM katta o'qituvchisi E-mail:

avazovtohirshakarovich@gmail.com

Annotatsiya: XXI asr – texnologiyalar asri hisoblanadi. Shunday ekan dars jarayonida turli zamonaviy axborot vositalaridan o'rinli foydalanish, kompyuterli ta'lim jarayonida darslarni o'quvchi va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko'ra tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish bugungi kunda dolzarb masalalardandir.

Kalit so'zlar: axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, intellektual

Аннотация: XXI век – век технологий. Поэтому правильное использование различных современных носителей информации в ходе урока, организация, управление и контроль занятий в процессе компьютерного образования в соответствии с взаимоотношениями ученика и компьютера являются сегодня одними из наиболее актуальных вопросов.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, интеллектуальная, информационно-коммуникационные технологии.

Kompyuter savodxonligini oshirish, shu jumladan turli dasturlar orqali, axborot texnologiyalarini faol o'zlashtirish zarur. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida ham axborot texnologiyalarining tarqalishi qayd etilgan.

XXI asr ko'nikmalari hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarida ta'lim maqsadlari sifatida mustahkam o'rnashgan, ammo ularning o'qitish va baholash amaliyotida amalda qo'llanilishi ortda qolmoqda. To'g'ri javob berishdan ko'ra, qanday qilib javob olishni birinchi o'ringa qo'yadigan ushbu o'quv maqsadlari ta'lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo'ymoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.

Kelgusi avlod kelajakda hatto, bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarda ishlaydi. O'quvchilarga nimani o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rgatishga ularni tayyorlash ta'limning oldida turgan bugungi kun talabidir.

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichga chiqdi. Shunga monand barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Bugun biror soha faoliyatini axborot- kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ham muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet, aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, uyali telefon, internet, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual tovushli, videoli va animatsion elementlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv materialidan iborat bo'lib, tabiiyki, bu atama kompyuter xotirasidagi yoki disklardagi ma'lumotlarga nisbatan ishlatiladi. Multimediali o'quv materiali bosma material, videofil'm, animatsiyali grafik obrazlar, matn va tovushlar ustida amal bajarishga imkon beradi. Xususan, salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, ma'naviy immuniteti kuchli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim olamida o'quvchilar qisqa vaqt ichida o'rganishi kerak bo'lgan ma'lumotlar hajmi ortib bormoqda. Simsiz tarmoqlar bu jarayonning ajralmas qismiga aylanib, turli axborot resurslaridan tezkor foydalanish va ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotni ta'minlamoqda.

Simsiz tarmoqlar bizning hayot tarzimizda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, chunki ular simlarni o'tkazmasdan kompyuterlar va boshqa elektron

qurilmalar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Bu odamlarga harakatlanayotganda Internet va boshqa tarmoq resurslariga ulanib qolish imkonini beradi. Ushbu ilmiy maqolada biz simsiz tarmoqlarning usullari va algoritmlarini va ularning zamonaviy dunyodagi rolini ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda turli xil simsiz tarmoqlar mavjud bo'lib Wi-Fi, Bluetooth, Zigbee va boshqalar odamlar orasida kengroq tarqalgan. Har bir tarmoq turi o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli sohalarda ishlatilishi mumkin.

Wi-Fi - uylar, ofislar va jamoat joylari ichidagi qurilmalar o'rtasida aloqa qilish uchun ishlatiladigan simsiz tarmoqlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri. Wi-Fi ma'lumotlar tezligini oshirish uchun QPSK, QAM va OFDM kabi signal modulyatsiyasi usullaridan foydalanadi.

Bluetooth - bu qisqa masofalardagi qurilmalar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun ishlatiladigan simsiz aloqa texnologiyasi. U minigarnituralar, klaviaturalar va sichqonlar kabi gadjetlarni ulash uchun keng qo'llaniladi.

Zigbee - bu aqlli uy va boshqa ko'plab internet tarmog'iga ulanib ishlovchi qurilmalar uchun ishlatiladigan simsiz aloqa standarti. U kam quvvat sarfini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida o'n minglab qurilmalarni tarmoqqa ulash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, simsiz tarmoqlar kundalik hayotimizda muhim rol o'ynaydi. Wi-Fi, Bluetooth va Zigbee kabi simsiz tarmoqlarning har xil turlari qurilmalar o'rtasidagi aloqani faollashtirish uchun turli usullar va algoritmlardan foydalanadi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, biz yanada ko'proq o'sishni va ma'lumotlarni uzatishning ilg'or usullarini kutishimiz mumkin.

Zamonaviy maktab tez o'zgaruvchan texnologiyalar va jamiyat talablariga moslashish zarurati bilan duch kelmoqda. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida simsiz tarmoqlardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda va talabga ega. Bu bilim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Maktablarda simsiz tarmoqlardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri xavfsizlikdir. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar va o'qituvchilarning ma'lumotlari xavfsiz saqlanadi, chunki simsiz tarmoqlar turli xil xavfsizlik va shifrlash usullaridan foydalanadi.

Simsiz tarmoqlar shuningdek istalgan joyda va istalgan vaqtda ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Maktablarda Wi-Fi tarmog'idan foydalanish o'quvchilar va o'qituvchilarga bilim olish va bir-biri bilan axborot almashish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Bu noyob loyihalar yaratish va tadqiqot ishlari uchun yangi g'oyalarni topish imkonini beradi.

Simsiz tarmoqlar o'qituvchilar va o'quvchilarning samaradorligiga ham hissa qo'shadi. O'quvchilar istalgan vaqtda materiallar va topshiriqlardan foydalanishlari mumkin, bu ularga o'z vaqtlaridan unumli foydalanish imkonini beradi. O'qituvchilar esa o'quv jarayonini tezlashtirib, real vaqt rejimida topshiriqlar berishlari va o'quvchilar ishini tekshirishlari mumkin.

Simsiz tarmoq texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta'limni tashkil etish imkonini beradi, shunda o'quvchilar dunyoning istalgan nuqtasidan bilim olishlari mumkin. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, simsiz aloqa texnologiyalariga

asoslangan o'quv jarayoni an'anaviy maktab kursiga qaraganda ancha yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Simsiz tarmoqlarning muhim afzalliklaridan biri bu o'quvchilarga real vaqt rejimida actual bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini berishdir.

Ta'lim jarayonida masofali, ya'ni internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita elektron ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'rgazma vositalar o'qituvchi uchun o'quvchining bilish faoliyatini boshqarish quroli, o'quvchi uchun bilim manbai, tasavvur, tushuncha, qonuniyat va nazariyani o'zlashtirishga yordam beradigan vosita vazifasini bajaradi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablarga ko'ra bu tasvirlanadigan umumiy axborot hajmining 40-90 % igacha oshirilishi lozim. Elektron o'quv materialini tayyorlash uchun multimediali vositalardan foydalaniladi. Multimediali vositalar deganda esa, bir vaqtning o'zida harakatlanadigan tasvir

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayonida simsiz tarmoqlardan foydalanish o'quv chegaralarini kengaytirish va o'quvchilarning rivojlanishi uchun yangi qulayliklar yaratish imkonini beradi. Bu o'qituvchilarga tez va samarali o'rganishga yordam beradigan yangi interaktiv ta'lim shakllaridan foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun maktablarda simsiz tarmoqlardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining zarurati hisoblanadi.

O'qituvchilarning o'rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalar mazmunidagi bilimlar bilan cheklanilmasligi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab gazeta, jurnal, axborotnoma-byulleten, radio, televideniya, axborot agentliklari, internetda veb-saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ta'lim sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lim shunchalik takomillashadi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2012: The Year of eSports. <https://www.forbes.com>.
2. Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator
3. Sport. Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport.
4. <https://www.theverge.com>.
5. <https://en.wikipedia.org>
6. <https://www.theverge.com>.

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Avazov Tohir Shakarovich,

Jizzax VPIYaMO 'MM katta o'qituvchisi E-mail:

avazovtohirshakarovich@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli texnologiyaning ta'lim tizimidagi vositalari, raqamli texnologiyalarni ustunliklari hamda qulayliklari haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiya, bulutli texnologiya.

Аннотация: В статье дается понимание цифровых технологий, использования цифровых технологий в образовании, инструментов цифровых технологий в образовательной системе, преимуществ и преимуществ цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровые технологии в образовании, облачные технологии.

Abstract: The article provides an understanding of digital technology, the use of digital technologies in education, the tools of digital technology in the educational system, the advantages and advantages of digital technologies.

Key words: digital technology, digital technology in education, cloud technology.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyoning boshqa davlatlarida texnika va texnologiyalar vaqt sayin rivojlanib, ishlab-chiqarishda yangidan-yangi usullar joriy etilmoqda. Shuningdek, har bir sohada raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotganligini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi globallashuv jarayoni va axborot ko'lami davrida axborotdan foydalanish tezligi juda yiriklashgan. Shunday ekan usbu davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborotni sintezlash ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida Respublikamizda ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldagi "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-87-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4851-son qarorida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi. Mazkur me'yoriy hujjatlar doirasida Respublika ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish, masofadan turib o'qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazishga erishish, raqamli ta'lim platformalarini

yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlar, ta'limni isloh qilish bo'yicha nufuzli loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xususan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasida: ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy islanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "bir million dasturchi" loyixasini amalga oshirish hamda ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy masalalarga e'tibor qaratgan edi. Bugungi kunga kelib esa bu ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining o'rni ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tez va samaralidir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiya – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoniga xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3 D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa o'quvchilarda ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bu o'rinda ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. O'quvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Shunday ekan raqamli texnologiyalarga o'tish ob'yektiv zaruratdir. Ayniqsa, onlayn darslarda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi o'quvchilarga boshqa

imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi.

Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Raqamli ta'limda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;
internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;

-“raqamli dunyo” da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lish kabilar. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Quyida raqamli texnologiyalrni ba'zilariga to'xtalib o'tamiz: bulutili texnologiyalar –internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir. Bugungi kunda zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyani joriy etish tufayli professor-o'qituvchilarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qiluvchi dasturlar va aqlli o'qitish tizimlari paydo bo'ldi. Ular o'quvchilarning bilimlarini, ularning javoblarini tahlil qilish orqali tekshirishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari va shaxsiy o'quv rejalarini tuzishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini raqamlashtirish quyidagi asosiy vazifalar bilan belgilanadi:

- ta'lim tashkilotlarini Internetga keng miqyosda ulanish bilan ta'minlash, shuningdek, ta'lim tashkilotlarida o'quv materiallarining mavjudligi va turlarini oshirish imkonini beruvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlash;

- respublika miqyosida yagona bilimlar bazasini yaratish;

- turli darajadagi ta'lim tashkilotlarida, jumladan, elektron ta'lim va masofaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini rivojlantirish;

- ta'lim sifatini monitoring qilish va ta'lim muassasalarida elektron ta'limdan foydalanishni tizimini baholash;

- uzluksiz ta'lim ekotizimini shakllantirish, shu jumladan, barcha sohalarda iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim tizimi uchun yangi talablar va asosiy kompetensiyalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish vositalari:

maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim uchun keng ko'lamli raqamli yechimlarni yaratish; ta'lim imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun onlayn ta'lim raqamli platformalarni ishlab chiqish;

o'quvchilarning raqamli izini va individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirish;

o'quvchilarga va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillari) ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatidan qoniqish monitoringi;

respublika aholisining raqamli savodxonlik darajasini oshirish;

ta'lim tashkilotlarini Internetga keng polosali ulanish bilan ta'minlash.

“Ta'lim” sohasining raqamli transformatsiyasi – bu rejalashtirilgan ta'lim natijalarini, ta'lim mazmunini, ta'lim ishlarining metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash, shuningdek, jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda erishilgan natijalarni baholashni tubdan yaxshilashdan iborat.

Ta'lim sohasida VR(Virtual reallik) o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR(Virtual reallik) dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyaning hayotimizdagi o'rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Ular insoniyatning yutug'imi yoki mag'lubiyati, degan savol ustidagi bahslar hali uzoq davom etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutug'i bilan bosqa texnologiyalarni ortda qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi OliyMajlisga Murojaatnomasi.

2. Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna. “Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi”. 2022 y. May. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Pulotov Abdurayim Murotovich,

*Navoiy viloyati PYMO 'MM direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent*

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanishning o'ziga xos jihatlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются конкретные аспекты правильного использования информационных технологий в образовании, которые считаются одним из способов повышения эффективности преподавания математики в общеобразовательной школе.

Annotation: The article discusses specific aspects of the correct use of information technology in education, which is considered one of the ways to increase the effectiveness of teaching mathematics in secondary schools.

Kalit soʻzlar: Pedagogik faoliyat, taʼlim tizimi, geogebra, mustaqil fikrlash, axborot texnologiyalari.

Ключевые слова: Педагогическая деятельность, образовательная система, геогэбра, самостоятельное мышление, информационные технологии.

Keywords: Pedagogical activity, educational system, geogebra, independent thinking, information technology.

Umumtaʼlim maktablarida matematika fanini oʻqitishning nazariy va amaliy ahamiyati, uning obʼyektini real olamning aloqa formalari va munosabatlari ekanligi bilan ifodalanadi. Matematika fani umumtaʼlim maktabining tayanch predmetlaridan biridir. U boshqa fanlarni oʻrganishni taʼminlaydi. Bu birinchi navbatda tabiiy fanlar xususan, fizika, kimyo, biologiya va geografiya hamda informatika va axborot texnologiyalariga taaluqlidir. Matematika fani oʻquvchilardan aqliy va irodaviy zoʻr berishni, diqqatni toʻplay olishni, faollik, izchillikni, tasavvur rivojlangan boʻlishini talab eta borib shaxsning axloqiy sifatlarini aniq bir maqsadga intilish, ijodiy faollik, mustaqillik, masʼuliyat, mehnatsevarlik, intizom va tanqidiy fikrlash hamda oʻzining qarash va eʼtiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish koʻnikmalarini rivojlantiradi [1,2].

Bugungi kunda taʼlim tizimida axborot texnologiyalarini keng tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz olimlari, jumladan M.Aripov, U.Yuldashev, F.Zokirova, M.Lutfillayev, M.Fayziyev va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, umumtaʼlim muassasalarida oʻquvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun darslarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish maktab sohasining muhim vazifasi hisoblanadi. Mantiqiy xulosalar obʼyektning oʻzi va ularni ifodalashning matematika fanida qabul qilingan qoidalar, mulohazalarni asoslash va rivojlantirish koʻnikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Oʻquvchilarga bunday koʻnikmalarni berish yoʻllarini metodika deb ataladi.

Shuning uchun matematika fani oʻquvchilarning ilmiy-nazariy tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi oʻrinni egallaydi. Maktabda matematika fani oʻquvchilarning ichki garmoniyasini ocha borib, ularda mulohaza yuritishning nafisligi va goʻzalligini tushunishni shakllantirib, olamni idrok qilish imkonini bera borib, matematik tushunchalarni egallash orqali oʻquvchilarni estetik tarbiyalashga oʻzining hissasini qoʻshadi. Matematika fanini axborot texnologiyalari asosida oʻrganish oʻquvchilarning fantaziyasi hamda ularning mantiqiy tasavvurlarini keskin boyitadi va rivojlantiradi.

Oʻquv jarayonini zerikarli darslar oʻrniga multimediali zamonaviy darslarni tashkil etishga masʼuliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega masʼuliyatli, oʻqitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini mukammal oʻzlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida taʼlimni tashkil eta oladigan oʻqituvchilarga talab oshib bormoqda. Taʼlimda moddiy-texnik baza, standart, oʻquv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi oʻzlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashgʻulotlarni olib boruvchi oʻqituvchining ijodkorligi,

izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi. Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qizikishiga, hoxish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i lozim. Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq.

Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning multimedia vositalaridan o'rinli foydalanishdir. Bu vositalardan - o'tilgan materiallarni takrorlashda, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlashda, mustaqil ishlarda, og'zaki va yozma ishlar o'tkazishda, uy vazifalari berish va uning mazmunini tushuntirishda samarali foydalanish mumkin.

Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda "Geogebra" dasturidan foydalanilganda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kengaytirishga ko'maklashadi. "Geogebra" dasturi shunisi bilan qulayki, o'quvchilar matematik formulalar, geometrik shakllar, algebraik ifodalar, jadvallar, grafikalar, statistika va arifmetikalar bilan ishlash va geometrik figuralar ustida ishlab, masalalarning natijasini mustaqil ravishda hal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu mashqlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga geometrik figuralarni tasavvur qilish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda ta'limning multimedia vositalaridan samarali foydalanish asosida o'quvchilar bayon qilingan matematik tushunchalarni yaxshi o'zlashtirib oladilar va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchi-o'quvchilar orasidagi savol-javoblarda [3]:

- o'qitish samaradorligini jonlantiradi;
- o'quvchilarni fikrlashga, uylashga majbur etadi;
- mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi.

Bu esa o'rganilayotgan materialni chuqurroq va puxta o'zlashtirishga hamda multimedia vositalari asosida Matematika fanidan olgan bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati;
- ta'lim olishning yangi shakllaridan foydalanish imkoniyati yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar inson xotirasida uzoq saqlanib, ijtimoiy faoliyatda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pulotov A.M. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'lim olishning ilmiy-uslubiy jihatlari. // Uzluksiz ta'lim jurnali. -2007. - № 2. – 14-17 betlar.

2. Pulotov A.M. Scientific-methodological aspects of uninterrupted in-service training based on the principle “lifelong learning”. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020. URL: <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-DECEMBER-2020-FULL-JOURNAL.pdf>.

3. Pulotov A.M. Kompyuterli imitatsion ta’limda o’qitish faoliyatini modellashtirish. //Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari Respublika ilmiy-metodik seminari materiallari. Samarqand, 2008-y. 27-28-iyun. 63-65-betlar.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI MUTAXASSISLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI

Zarifa Shamirzayeva Xudoyorovna,

*Ingliz tili kafedrası doktoranti Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Elektron pochta manzili: zarifashamirzayeva@gmail.com*

Annotatsiya: “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: Kompetentlik, kompetensiya, bilim, ko’nikma, tajriba, ijodiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, pedagogik, psixologik, uslubiy

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatning maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, usullari va xususiyatlari to’g’risida xabardorligini aks ettiradi. Ushbu faoliyat texnikasini o’zlashtirish; mutaxassislarning shaxsiy psixologik fazilatlari ularga kasbiy faoliyatni takomillashtirishning ahamiyati va istagini tushunishga imkon beradi. Asosiy qadriyat sifatida odamlarga e’tibor; kasbiy muammolarga nostandart, ijodiy yechimlar qilish qobiliyati bu kelajakdagi chet tili o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi aloqa elementi ekanligini anglatadi- shaxslararo idrok va o’zaro ta’sirning kompetensiyasi, nizolarning oldini olish va hal qilish qobiliyati, faoliyat usuli va jamoa a’zolarining xususiyatlarini uyg’unlashtirish. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni” anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek,

kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi - murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la oladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha eritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayèrlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi: a) psixologik kompetentlik – pedagogik jaraènda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jaraènining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; b) metodik kompetentlik – pedagogik jaraèni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim èki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; c) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy èndoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; e) innovatsion kompetentlik – pedagogik jaraèni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jaraènining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga muvaffaqiyatli tatbiq etish; f) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jaraènining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish. g) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish. h) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik

BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. i) Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jaraèn ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.[1] "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari, agar ularning nazariy va uslubiy mohiyati haqida gapiradigan bo'lsak, "ta'lim maqsadlari" va "ta'lim mazmuni" kabi muhim didaktik kategoriyalar kesishmasida paydo bo'lgan. "Kompetensiya" atamasi ilmiy foydalanishga generativ grammatika nazariyasining asoschisi, amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u shaxsning har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini (dastlab o'z ona tilida lingvistik faoliyatni nazarda tutgan) ifodalagan [2]. Ixtisoslashgan adabiyotlarda ikkita tushunchani farqlashga urinish shundan iboratki, bu so'zlar terminologik ma'noga ega bo'lib, o'ziga xos semantikaga ega bo'ldi: "Agar kompetentsiya har qanday faoliyatni (shu jumladan nutqni) amalga oshirish qobiliyati deb tushunilsa, kompetentsiya tarkibning tarkibiy qismidir. bunday qobiliyatlarning ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma, ko'nikmalar», - deb ta'kidlaydi A.N.Shukin [3]. Kompetentsiya tushunchasini talqin qilishda turlicha yondashuvlar mavjud. E.F. Zeerning ta'kidlashicha, "vakolatlar - bu kasbiy faoliyatning samarali bajarilishini ta'minlaydigan umumlashtirilgan harakat usullari". [4]. Bitiruv malakalari ta'lim natijalarini ifodalaydi. Keling, "kompetentlik" tushunchasining tarkibiy qismlarini - bilim, ko'nikma va tajribani ko'rib chiqaylik. Bilim - bu tegishli faoliyat sohasidagi faktlar, tamoyillar, nazariyalar va amaliyotlar majmui bilan belgilanadigan ma'lumotni o'qitish orqali o'zlashtirish (o'zlashtirish) natijasidir. Ko'nikmalar - bu muammolarni hal qilish uchun bilimlarni qo'llash qobiliyatining isbotlangan (ko'rsatilgan) qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy (texnika, mashina va asboblardan foydalanish) va kognitiv (mantiqiy, intuitiv va ijodiy fikrlashdan foydalanish) bo'lishi mumkin. Tajriba - bu kasbiy yoki boshqa faoliyat sohasidagi muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishning barqaror (bir necha marta isbotlangan) qobiliyati. Tajriba orttirish bitiruvchining tegishli malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq [5]. V.A.Sitarov kasbiy kompetentlikni "o'quv jarayonining o'zgaruvchanligi, optimalligi va samaradorligini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar, xususiyatlar va shaxsiy fazilatlar majmuasini o'z ichiga olgan murakkab ta'lim" deb ta'riflaydi. U bir-biri bilan uzviy bog'langan shaxsiy kompetentsiya turlari tizimini o'z ichiga oladi: uslubiy, maxsus, pedagogik, psixologik va uslubiy" [6]. Kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyat subyekti va shaxsning yaxlit holatining individual-integral sifat xususiyatini tashkil qiladi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchi shaxsiyatining tizimli mulki sifatida ishlaydi. Shaxsiy fazilatlarning ierarxik tuzilishida o'qituvchining ijtimoiy mas'uliyati kasbiy faoliyat natijalari uchun javobgardir. Kasbiy kompetentlik umumlashtirilgan tushuncha va tizimni tashkil etuvchi omil sifatida tizimlar majmuini o'z ichiga oladi: kasbiy bilimlar tizimi (mavzuga xos, uslubiy, psixologik-pedagogik, umumiy madaniy), kasbiy niyatlar, motivlar, ehtiyojlar, kasbiy malakalar tizimi (gnostik, konstruktiv, kommunikativ va boshqalar) [7]. Kasbiy kompetentlik o'qituvchining o'z faoliyatini yuqori professional darajada bajarishiga va o'z ishining mazmunini erkin egallashiga hissa qo'shadi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchi shaxsining butun

sohasini qamrab oladi: pedagogik yoʻnalish, shaxsning motivlari va ehtiyojlari; bilim, koʻnikma va kasbiy ahamiyatga ega boʻlgan fazilatlar tizimini nazarda tutadigan operatsion va texnik; oʻz-oʻzini anglash, yaʼni shaxsiy xabardorlik oʻzingizni professional sohada; pedagogik muloqot, shu jumladan uning barcha funksiyalari (muloqot, idrok, oʻzaro taʼsir) [8]. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish ijodiy shaxsning rivojlanishi, taʼlim innovatsiyalarini shakllantirish tendensiyasi, taʼlim muhitidagi oʻzgarishlarga moslashish qobiliyatini anglatadi. Oʻqituvchining kasbiy darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy rivojlanishi bilan bevosita bogʻliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев педагогик компетентлик ва креативлик асослари,- Т: 2015.-120 б
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, 1965
3. Щукин А.Н. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактические основы/ Учебное пособие. – М.: ВК, 2012. – 336 с.
4. Зеер Э.Ф. Личностно ориентированные технологии профессионального развития специалиста: науч.-метод. пособие / Э. Ф. Зеер, О. Н. Шахматова. - Екатеринбург : Изд-во Урал. гос. проф. пед. ун-та, 1999. 245 с.142..
5. Чучалин А.А. Формирование компетенций выпускников основных образовательных программ // Высшее образование в России. - 2008. -№12.-С. 10-19.
6. Ситаров В.А. Формирование методической компетентности будущего учителя // Формирование социально-активной личности учителя: Межвузовский сборник научных трудов / Под ред. В.А. Слостенина. – М.: МГПУ, 1980. – С.74-81.

YOSHLARDA XXI-ASR KOʻNIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION TAʼLIMNING ROLI

Ergasheva Mahbuba Neʼmat qizi,

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlangʻich sinflarda fanlararo integratsiyaning oʻquvchilarda XXI-asr koʻnikmalarni shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Oʻquvchilarni fanlararo integratsiyadan foydalanib kreativ fikrlashga oʻrgatishga oid yorqin misollar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: XXI- asr koʻnikmalari, integratsiya, psixologiya, xotira, tahlil, taʼlim, tarbiya, motivatsiya, kretik, kreativ fikrlash, dunyoqarash.

Yangi Oʻzbekistonda yosh avlodni XXI-asr koʻnikmalari asosida tarbiyalash muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, ularda kreativ fikrlash koʻnikmalarini boshlangʻich sinflardan boshlab rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb vazifasiga aylandi. Shu boisdan ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida taʼlim sifatini oshirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. “Oʻquvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada

ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish..."da fanlararo integratsiyada o'qituvchi bilim olish jarayonini shunday tashkil etish kerakki, unda o'quvchilar ko'proq mustaqil izlanishlari, o'z harakat va faoliyatlarining oqibatlarini oldindan bilishga o'rganishlari, bahs-munozaralarda ishtirok etishlari, tabiiy va ijtimoiy muhitni yakunlashlari kerak. Shuning uchun o'qish vaqtining yarmini o'quvchilar tabiat va ijtimoiy muhitda o'tkazishlari, amaliy-ijodiy va tekshirish ishlari olib borishlari kerak. Bu vazifani ta'limning turli shakllarida bajarish mumkin: kuzatishlar, tajriba va sinovlar o'tkazish, san'at asarlarini qayta tiklash, modellashtirish, ijtimoiy muhitdagi o'z harakat va faoliyatlarini natijasini ko'ra bilish, kitob bilan ishlash yordalanish ham ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr ko'nikmalarining har biri uchta toifadan biriga bo'lingan: ta'limiy ko'nikmalar; savodxonlik ko'nikmalari; hayotiy ko'nikmalar. Ta'limiy ko'nikmalar (4K) o'quvchilarga zamonaviy ish muhitiga moslashish va yaxshilash uchun zarur bo'lgan aqliy jarayonlar haqida o'rgatadi. Savodxonlik ko'nikmalari (IMT) o'quvchilar faktlarni, ma'lumotlarni va texnologiyalarni qanday ajrata olishlariga qaratilgan. Ishonchli manbalar va faktik ma'lumotlarni aniqlashga katta e'tibor qaratilib, uni internetni to'ldirib borayotgan noto'g'ri ma'lumotlardan ajratib turadi. Hayotiy ko'nikmalar (FLIPS) o'quvchilarning kundalik hayotining nomoddiy elementlarini ko'rib chiqadi. Bu nomoddiy elementlar ham shaxsiy, ham kasbiy fazilatlarga qaratilgan. Umuman olganda, bu ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi karerasiga hissa qo'shadigan XXI asrning o'n ikki ko'nikmalarini qamrab oladi. Bu martabaga tayyorlik ko'nikmalarining to'liq nazorat ro'yxati emas, lekin ular XXI asr ko'nikmalariga mos keladigan karera (martaba)ga tayyorgarlik ko'nikmalaridir. 4K – XXI asrning eng mashhur qobiliyatlari hisoblanadi. Bu ko'nikmalar, shuningdek, o'rganish qobiliyatlari deb ataladi. Ular, shuningdek, shaxsning martaba intilishlariga qarab, ahamiyati jihatidan farq qiladi. XXI asrning 4K ko'nikmalari quyidagilardir: Tanqidiy fikrlash: muammolarga yechim topish. Ijodkorlik: cheksiz fikrlash. Hamkorlik: boshqalar bilan ishlash. Muloqot: boshqalar bilan gaplashish, ular bilan munosabat va aloqaga kirisha olish. Tanqidiy fikrlash (ingl. critical thinking) – narsa va hodisalarni oqilona xulosalar chiqarish bilan tahlil qilishda foydalaniladigan va asoslangan baholar, talqinlar berishga, shuningdek, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga qo'llash imkonini beradigan mulohazalar tizimi. Umumiy ma'noda tanqidiy fikrlash deganda tanqiddan oldingi fikrlashdan ko'ra yuqoriroq darajada fikrlash ko'zda tutiladi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin. Kommunikativlik – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot tuplash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini

kuzatish. Kommunikativ kompetensiya — o‘quvchilarda guruhlarda va jamoalarda ijodiy ishlay olish, 12 hamkorlik qila olish. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish bo‘yicha tarix fani ta’limi maqsadlarini va baholash mezonlarini aniqroq va yaqqolroq belgilovchi quyidagi tamoyillar belgilandi. Kollaboratsiya (collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko‘proq kishining sherikchiligi. Hamkorlik – bu umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada ikki yoki undan ortiq tomonlarning (ham odamlar, ham tashkilotlar) birgalikdagi faoliyati jarayoni. Kollaboratsiya – o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Bu ko‘nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Bu ko‘nikmalarni qanday qilib egallash va eng muhimi bu ko‘nikmalarga erishilganligini qanday qilib baholash mumkin? O‘qituvchi dars samaradorligini oshishda, matematika, ona tili, o‘qish, tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishning turli-tuman shakllariga ega har bir dars o‘quvchiga ilmiy bilim, tasavvur va tushunchalarning ma’lum bir yig‘indisini berishi, hamda tarbiyalash va rivojlantirishi kerak. Dasturdagi materialni ular dars davomida o‘zlashtirishlari kerak. Bu o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlari bilan ortiqcha yuklanmasligining muhim shartidir, chunki yaxshi o‘zlashtirilgan dars uy vazifasini bajarish uchun ketadigan vaqtni ancha qisqartiradi. Bu holatda asosiy prinsip : kichik maktab o‘quvchilarining eng muhim vazifasi – o‘qish, mustahkam bilim olish, darsdagi vazifa esa o‘qituvchi boshchiligidagi darslarda qiziqarli va samarali tashkel etish uchun ham integratsiyalashtirish zarur. Darsga tayyorlanar ekan, o‘qituvchi birinchi navbatda uning maqsadini anglaydi va shu asosida darsning mazmuni tanlanadi, asosiy savollar belgilanadi. Bunda o‘qituvchi faqat darslik matnini gapirib berish bilan cheklanmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni
3. Xulkaroy Usmon КЫЗЫ Babaeva i Gulxayo Muxammadaminovna Toychieva (2023 g.). Texnologiya kompetentnaya rivojlantirishning pedagogika asoslari. Akademicheskie issledovaniya v oblasti pedagogicheskix nauk, 4 (Konferensiya TMA), 124-130.
4. Dilafruz Pirmanovna Nazarova (2021). Bo‘lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo‘llari. Scientific progress, 2 (8), 748-751.
5. N. Muslimov, M. Usmonboeva. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent – 2015

O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi metodik xizmat bo'limi boshlig'i

Annotasiya: bugungi kunda yoshlar kreativ (ijodiy) bo'lishga intiladi va bu shaxs faoliyatining turli sohalarida ijodiy g'oyalarni yaratmoqda. Hozirgi kunda muammolarni noan'anaviy va sifatli hal qilinishi jamiyatning o'sishi, rivojlanish sur'atini o'sishiga olib kelmoqda.

Аннотация: сегодня молодые люди склонны к творчеству и создают творческие идеи в различных сферах личной деятельности. Сегодня нестандартные и качественные решения проблем ведут к росту и развитию общества.

Abstract: today, young people strive to be creative and create creative ideas in various spheres of personal activity. Today, unconventional and high-quality solutions to problems lead to the growth and development of society.

Kalit so'zlar: kreativ va kritik fikrlash, kreativ yoshlar, kreativ ko'nikmalar, kritik yondashuv, kreativ faoliyat.

Ключевые слова: творческое и критическое мышление, творческая молодежь, творческие способности, критический подход, творческая деятельность.

Key words: creative and critical thinking, creative youth, creative skills, critical approach, creative activity.

Kritik va kreativlik shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi - tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Kreativlik (ing. "create"- yaratish, ijodkor) - shaxs yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik hayotimizning istalgan sohasida namoyon bo'ladi. Bu har bir shaxsning rivojlanishida muhimdir. Usiz yangi mahsulotni yaratish, noyob martaba va orzularingizni haqiqatga aylantirishning iloji yo'q.

Har qanday mutaxassis kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarida poydevor qo'yiladi. O'rta ta'lim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan o'quvchilar kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv va tarbiya jarayonlarida an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi.

Ko'pincha kreativlik va dahlo tushunchalari bir- biriga sinonim hisoblanadi. Aksariyat hollarda, bu haqiqat...

2022- yil ilk marotaba Xalqaro PISA dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalari baholanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash iborasi o'quvchilarning tasavvurlarini ifodalash, bilim olishni rag'batlantiruvchi, original va samarali yechim

topishga yoʻnaltiruvchi gʻoyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida taʼriflangan.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga [1] matematika, tabiiy, falsafa, sanʼat va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki boʻldi. Bular bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion gʻoyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion gʻoyalar, bilim va koʻnikmalarni egallashga eʼtibor qaratmoqda [2].

Kreativ fikrlashda taʼlimning asosiy roli oʻquvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur boʻlgan kompetensiyalar bilan taʼminlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning dunyoqarashlarini shakllanishi va rivojlanishi uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi [3]. Kreativ fikrlashni oʻrgatish bugungi kun oʻquvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Oʻquvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga koʻra ortib bormoqda. Maktablar oʻquvchilarni oʻz qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim oʻrin tutadi. Oʻquvchilarni oʻzlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun oʻzlarining muhim hissalarini qoʻshishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi [4].

Kreativ fikrlash oʻquvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qoʻllab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga koʻmaklashadi [5].

Oʻquvchining maktabdagi oʻrganishga boʻlgan qiziqishi va ragʻbatini oshirish uchun barcha oʻquvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi oʻrganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish usublari maktabda taʼlim olishga qiziqishlari sust boʻlgan oʻquvchilarga yordam berib, ularga oʻz fikrlarini ifodalash va oldiga qoʻygan maqsadlariga erishishga imkon beradi [6]. Oʻqituvchilar kreativ fikrlash qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda oʻquvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Kreativ fikrlash qobiliyati qanday rivojlantirilishini yaxshi tushunish, oʻqituvchilarga oʻzlari oʻrganishlari jarayonida ijodiy fikrlarni “yuzaga chiqarishlariga” imkon berishi mumkin [7].

Kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishda oʻquvchi oʻzini erkin seza oladigan oʻz fikrlari, gʻoylari bilan boʻlisha oladigan muhit yaratishi lozim. Oʻquvchilar ongida yuz berayotgan jarayonning faollashtirish uchun oʻrnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin

harakat qilishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab -quvvatlaydi. O'qituvchining o'quvchilar berayotgan kreativ g'oyalariga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi o'quvchi munosabatining muhim qismi bo'lib o'quvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun o'quvchilarni qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash;

-o'quvchilarga kreativlik muvozanatsiz hissini yuzaga keltirishni anglatish, bezovtalik va qo'rquv hissidan halos bo'lishga yordam berish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish hamda yo'l yoriq ko'rsatish;

-o'quvchilarni suhbat orqali rag'batlantirish, konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash, yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish;

-o'quvchilar o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari, guruhlarda ishlay olishlari, hissiy jihatdan ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish jarayonida o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim.

O'quvchilarda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishda quyidagilarni xulosa qilamiz:

-birinchidan, pedagoglar o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashib, o'quvchilarni umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishiga e'tibor qaratish;

-ikkinchidan, tayyorlangan o'quv materiallarini g'oyaviy, ilmiylik, vezuallik, tizimlilik, o'quv axborotining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasida o'zaro bog'liqligini inobatga olish

-uchinchidan, topshiriqlar o'quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;

-to'rtinchidan, kreativlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarni maqsadli, izchil qo'llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish;

-beshinchidan, o'quvchining kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va o'quvchi tomonidan samimiy muhit o'quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

REFERENCES

1. OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.
2. Lucas, B. and E. Spencer (2017), Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Generate Ideas and Can Think Critically., Crown House Publishing, <https://bookshop.canterbury.ac.uk/Teaching-Creative-Thinking-Developing->

learnerswho-generate-ideas-and-can-think-critically_9781785832369 (accessed on 26 March 2018).

3. Tanggaard, L. (2018), Content-Driven Pedagogy: On Passion, Absorption and Immersion as Dynamic Drivers of Creativity, Springer, [http://vbn.aau.dk/en/publications/contentdriven-pedagogy\(96d07758-fcbe-490c-b090-426c6e096466\).html](http://vbn.aau.dk/en/publications/contentdriven-pedagogy(96d07758-fcbe-490c-b090-426c6e096466).html) (accessed on 26 March 2018).

4. Begetto, R. and J. Kaufman (2007), "Toward a broader conception of creativity: a case for "mini-c" creativity", Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, Vol. 1/2, pp. 73-79, <http://dx.doi.org/10.1037/1931-3896.1.2.73>.

5. Hwang, S. (2015), Classrooms as Creative Learning Communities: A Lived Curricular Expression, <https://digitalcommons.unl.edu/teachlearnstudent/55> (accessed on 26 March 2018).

6. Ksikszenmihalyi, M. (1996), Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention, Harper Collins Publishers, https://books.google.fr/books/about/Creativity.html?id=K0buAAAAMAAJ&redir_esc=y (accessed on 26 March 2018).

7. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Kreativ fikrlashni baholash (2021) UO'K 37.014.6:001 KBK 74.00 T 12

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA MEHNAT SHARTNOMALARI

Abdixakimova Mohina Zafar qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Yuqori texnologiyali va o'z-o'zini o'rganadigan sun'iy intellekt (AI) algoritmlarining paydo bo'lishi butun mehnat sohasiga tubdan ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarining misli ko'rilmagan o'zgarishining boshlanishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellektning mehnat dunyosiga kiritilishi, shubhasiz, texnologik ishsizlikning vaqtinchalik o'sishiga olib keladi, biroq uzoq muddatda yangi texnologiyalar iqtisodiyotning yangi tarmoqlarida ko'proq ish o'rinlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mehnat munosabatlari, mehnat shartnomasi.

Аннотация. Появление высокотехнологичных и самообучающихся алгоритмов искусственного интеллекта (AI) знаменует беспрецедентную трансформацию социальных и производственных процессов, которая фундаментально повлияет на всю рабочую среду. Внедрение искусственного интеллекта в сферу труда, несомненно, приведет к временному увеличению технологической безработицы, но в долгосрочной перспективе новые технологии создадут больше рабочих мест в новых секторах экономики.

Ключевые слова: искусственный интеллект, трудовые отношения, трудовой договор.

Abstract. The emergence of advanced, self-learning artificial intelligence (AI) algorithms will cause a transformation in social and production processes on a scale never seen before, significantly affecting the entire employment landscape. While the introduction of AI in the workplace is likely to lead to an initial rise in technological

unemployment, in the end, new technologies are likely to generate more jobs in emerging sectors of the economy.

Key words: artificial intelligence, labor relations, labor contract, control, responsibility.

XXI asrning birinchi yarmida sodir bo'lgan to'rtinchi sanoat inqilobi dunyoda gig iqtisodiyoti va platforma bandligi, ishlab chiqarish jarayonlarini algoritmlashtirish va sun'iy intellektning (keyingi o'rinlarda SI) joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Gig iqtisodga kelsak, uning texnologik muhiti sifatida platforma bandligi bilan bog'liq muammolar muhim: raqamli platformalarda ishlayotganlar uchun asosiy mehnat huquqlari va kafolatlarini tan olishdan tortib, raqamli platformalar bilan muzokaralarda ularning jamoaviy ishtiroki va ijtimoiy himoyaga qo'shilishgacha bo'lgan tizimi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan bir qatorda, gig iqtisodiyotning o'zi va uning mehnat va mehnat-huquqiy xarajatlarni tejashning asosiy prinsiplari beqaror bandlikni keng joriy etishning mantiqiy davomi hisoblanadi. XMT hisobotida ta'kidlanganidek, "so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda standart bandlikdan nostandart bandlikka sezilarli o'tish kuzatildi, jumladan, vaqtinchalik bandlik, yarim kunlik bandlik, agentlik orqali vaqtinchalik ishlash va mehnat niqobi ostida boshqa munosabatlar, shuningdek, qaram o'z-o'zini ish bilan ta'minlash" (ILO 2016) [1]. Xalqaro mehnat tashkiloti eksperti Valerio De Stefanoning tushuntirishicha, "gig iqtisodidagi talab bo'yicha ishlash boshqa xavfli ish shakllari bilan ko'p o'xshashliklarga ega: boshqacha qilib aytganda, bu uzoq vaqtdan beri shakllangan modellarning kombinatsiyasi va rebrendingidir.

Sun'iy intellektning (SI) tinimsiz rivojlanishi global ishchi kuchini qayta shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt imkoniyatlari yetib borar ekan, SI subyektlarini bandlik tuzilmalariga integratsiya qilishning huquqiy bazasi shoshilinch e'tiborni talab qiladi. Ushbu maqola SI uchun mehnat shartnomalarining potensial qo'llanilishini o'rganadi, ushbu yangi yondashuv tomonidan taqdim etilgan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tahlil qiladi. Biz asosiy to'siqlarni, jumladan, SI ning aniqlanmagan huquqiy maqomi, javobgarlik yuklanishi va qonunchilikka moslashish zarurligini aniqlash uchun yetakchi olimlarning fikrlarini o'rganamiz. SIning yuksalishi butun dunyo bo'ylab o'rnatilgan mehnat qonunchiligi asoslari uchun qiziqarli jumboqni keltirib chiqaradi. An'anaga ko'ra, insonga yo'naltirilgan vazifalar aqlli mashinalar tomonidan tobora ko'proq bajarilmoqda, bu ish beruvchilar va ularning SI "xodimlari" o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Xodim va ish beruvchi munosabatlarining asosi bo'lgan mehnat shartnomasi ushbu murakkab dinamikani boshqarish uchun potensial vosita sifatida namoyon bo'ladi.

SIning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etishga qarshi asosiy tanqidiy dalil texnologik ishsizlikning yangi bosqichining istiqbolidir. Ushbu tanqidga javob berish kerak, chunki uning ommaviyligi jamoatchilik fikriga ta'sir qiladi, bu esa, SI salohiyatini to'g'ri baholash va undan mehnat dunyosida foydalanishni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishni imkonsiz qiladi. 1930-yillardagi iqtisodiy tushkunlik davrida Jon Meynard Keynes "Nabiralarimiz uchun iqtisodiy

imkoniyat” inshosini yozdi. Boshqalar turgʻunlik va tanazzulni koʻrgan joyda, u farovonlik va rivojlanishni bashorat qilgan. Ushbu qarashning kaliti ishlab chiqarish va transportda misli koʻrilmagan texnologik yaxshilanishlar edi. Keynsning fikriga koʻra, uzoq muddatda hosildorlikning oʻsishi har bir kishining turmush darajasining koʻp marta oshishiga olib keladi. Qisqa muddatda esa, “bu oʻzgarishlarning juda tezligi bizga zarar yetkazadi va hal qilinishi qiyin muammolarni keltirib chiqaradi” (Keynes 1963, 361). 2013 yilda AQSh mehnat bozoriga oid maqolada K.Frey va M.Osborn mashinalarni oʻrganishdagi yutuqlar natijasida AQShdagi barcha ishlarning yarmidan ozrogʻi yaqin kelajakda avtomatlashtirilgan boʻlish xavfi yuqori boʻlishini bashorat qilishdi. Ularning fikricha, ish oʻrinlarini yoʻqotishlar mehnat bozorining pastki qismida toʻplangan: “Kompyuterlashtirish asosan past malakali va kam maoshli ish oʻrinlarini, transport va logistika xodimlarining koʻp qismini hamda maʼmuriy va yordamchi xodimlarning muhim qismini almashtiradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishdagi ishchilar xavf ostidadir” (Frey va Osborne 2013, 42). Shu sababli, mashinani oʻrganish va sunʼiy intellektning eksponensial oʻsishini hisobga olgan holda, raqamli platformalardagi past malakali xodimlarning koʻpchiligi algoritmlar va robotlarga oʻtkazilgunga qadar gig iqtisodiyoti faqat oʻtish davri hodisasidir, deb taxmin qilish mumkin. Bu jarayon platforma bandligini tartibga solish qadamlari va takliflar, raqamli platformalarda ishlaydiganlarga mehnat qonunchiligi standartlarini qoʻllash bilan yordam beradi, bu esa, ushbu oʻtishni tezlashtirish uchun qoʻshimcha bosim yaratadi: platformalar narxi innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi, ayniqsa, past ish haqi sektorida emas.

Osiyo taraqqiyot bankining 2018-yilgi hisobotiga koʻra, sunʼiy intellektning qabul qilinishi inson mehnatini toʻliq oʻrnini bosmasligi, aksincha, ishchi kuchi shaklini oʻzgartirayotgani eʼlon qilingan. Batafsilroq tushuntirishda, vazifalarni avtomatlashtirish baʼzi turdagi ishlarni qayta qurishi mumkin, ular odatda oddiy past darajadagi ishlar, muntazam va takrorlanadigan vazifalar bilan oʻxshash ishlar va insonlarni zararli yoki xavfli vaziyatlarga soladigan ishlardir. Ishning bunday qayta tuzilishi koʻp hollarda xodimlarning eʼtiborini murakkabroq ishlarga boʻshatishga olib keldi. Bundan tashqari, robototexnika va sunʼiy intellektning paydo boʻlishi yangi kompaniyalar va tarmoqlarni yaratmoqda va ish oʻrinlari yaratishning asosiy omili hisoblanadi. Masalan, Hindiston, Malayziya va Filippinda soʻnggi oʻn yilda yaratilgan yangi ish oʻrinlarining 43-57 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bogʻliq [2]. Osiyo mintaqasida sogʻliqni saqlash, taʼlim, moliya, sugʻurta, koʻchmas mulk va boshqa biznes xizmatlari kabi boshqa yangi ish oʻrinlari ham paydo boʻlishi kutilmoqda. Ushbu xulosa 2021-yilgi ishlar kelajagi hisobotiga (The Future of Job Report) mos keladi, unda 2025-yilga kelib insonlar va mashinalar oʻrtasidagi mehnat taqsimotining oʻzgarishi tufayli 85 milliongacha ish oʻrinlari boʻshatilishi mumkinligi taxmin qilinmoqda [3]. Shu bilan birga, sunʼiy intellekt, mashinani oʻrganish kabi sohalarida 97 million ish oʻrni yaratilishi kutilmoqda va muhandislar, jarayonlarni avtomatlashtirish boʻyicha mutaxassislar va katta maʼlumotlar tahliliga ehtiyoj seziladi. Shunday qilib, SIning ish dunyosiga kiritilishi, shubhasiz, texnologik ishsizlikning vaqtinchalik oʻsishiga olib keladi, ammo uzoq muddatda yangi texnologiyalar iqtisodiyotning yangi tarmoqlarida koʻproq ish

o‘rinlarini yaratadi. SI ning ishsizlikka ta’siri foydalanishning o‘ziga xos shartlariga bog‘liq va hukumat tomonidan tartibga solinishi kerak.

Muayyan huquqiy bazalar mamlakatga qarab farq qilsa-da, mehnat shartnomalarining ba’zi asosiy prinsiplari SI ishga moslashishi mumkin. SI va algoritmik tarafkashlik bo‘yicha yetakchi mutaxassis Sandra Vaxter kabi olimlar “ish ko‘lami, kompensatsiya tuzilishi va intellektual mulkka egalik kabi elementlarni puxta tuzilgan shartnomalar orqali hal qilish mumkinligini” ta’kidlamoqda [4]. Biroq bir nechta o‘ziga xos qiyinchiliklar paydo bo‘ladi: SI ning noaniq huquqiy maqomi: eng asosiy to‘siq SI ning “xodim” sifatida aniqlanmagan huquqiy maqomidadir. Ular mustaqil pudratchilarga o‘xshaydimi yoki ular xodimlarning muayyan himoyasiga loyiqmi? Mas’uliyat va javobgarlik: AI tomonidan xatolar yoki beparvolik uchun javobgarlikni yuklash murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Javobgarlik ishlab chiquvchiga, egasiga yoki AIning o‘ziga yuklanishi kerakmi? Dr. Jon Danaher kabi mutaxassislar (Golvey Irlandiya Milliy Universiteti) xavfni kamaytirish va ish joyida xavfsizlikni ta’minlash uchun aniq javobgarlik yo‘nalishlari zarurligini ta’kidlaydi [5]. Axloqiy mulohazalar: sun’iy intellektni ishga solish tarafkashlik, kamsitish va inson xodimlarining potensial ko‘chishi bilan bog‘liq jiddiy axloqiy tashvishlarni keltirib chiqaradi. Doktor Ketil O’Nil (ma’lumotlar va jamiyat tadqiqot instituti) fikriga ko‘ra, mehnat shartnomalari algoritmlarda shaffoflikni va inson hamkasblariga adolatli munosabatda bo‘lishni talab qilish orqali ushbu muammolarni hal qilishi kerak [6].

SI mehnat shartnomalari bilan bog‘liq huquqiy va axloqiy mulohazalar butun dunyoda sezilarli darajada farq qiladi. Mana, davom etayotgan bahslar haqida qisqacha: Yevropa Ittifoqining umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi reglamenti (UMHQ) ma’lumotlar maxfiyligi va algoritmik shaffoflikka urg‘u beradi. SI algoritmlarida tushuntirishga e’tibor qaratilishi kelajakdagi SI mehnat shartnomalarini tartibga soluvchi qoidalar haqida ma’lumot berishi mumkin. Xitoyning texnologik taraqqiyotga e’tibor qaratilishi SI ning ishchi kuchida tezroq o‘zlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Biroq SI xodimlarning potensial ekspluatatsiyasi va xodimlarni himoya qilish uchun mustahkam choralar ko‘rish zarurati bilan bog‘liq xavotirlar mavjud. Rivojlanayotgan iqtisodlar SI ni integratsiyalashda noyob muammolarga duch keladi, infratuzilma, arzon narxlar va potensial ish joylarini almashtirish bilan bog‘liq muammolar diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro tashkilotlar AI va ish kelajagi bo‘yicha global muloqotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi kerak. XMTning munosib mehnat va ijtimoiy adolatni rag‘batlantirishga qaratilgani AI mehnatining xalqaro standartlarini ishlab chiqishda yetakchi tamoyil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolar qonunchilikni moslashtirish uchun global sur’atni talab qiladi. Professor Mulligan ta’kidlaganidek, “Xalqaro hamkorlik SI bandligini ta’minlash, mas’uliyatli rivojlanishni ta’minlash va barcha ishchilar huquqlarini himoya qilish uchun uyg‘unlashtirilgan huquqiy bazani ishlab chiqish uchun juda muhimdir” [7]. Bundan tashqari, mavjud mehnat qonunlari SIning avtomatlashtirish sharoitida ishsizlik nafaqalari va ishchilarni qayta tayyorlash

dasturlari kabi muammolarni hal qilish uchun qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. SI ning global ishchi kuchiga integratsiyalashuvi bandlik munosabatlarini tushunishimizda paradigma o'zgarishini talab qiladi. Ehtiyotkorlik bilan moslashish va ishlab chiqish bilan mehnat shartnomalari ushbu rivojlanayotgan landshaftni boshqarish uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Sun'iy intellektni ishga joylashtirish bilan bog'liq noyob muammolarni hal qilish orqali biz mas'uliyatli SI rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan hamda inson va sun'iy intellekt xodimlarini birdek himoya qiladigan qonunchilik bazasini yaratishimiz mumkin. Keyingi tadqiqotlar SI ning mavjud mehnat qonunlariga ta'sirini o'rganish va SI ning muayyan funksiyalari uchun standartlashtirilgan shartnoma bandlarini ishlab chiqishda juda muhimdir. Huquqshunos olimlar, siyosatchilar va soha rahbarlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari orqaligina biz SI integratsiyasi butun dunyo bo'ylab insonlarga ham, mashinalarga ham foyda keltirishini ta'minlashimiz mumkin. AI ning yuksalishi nafaqat qiyinchiliklarni, balki ulkan imkoniyatlarni ham taqdim etadi. AI takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin, bu esa, inson ishchilarini ijodkorlik, innovatsiyalar va muammolarni hal qilishga e'tibor berishga imkon beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt odamlarga murakkab vazifalarni yanada samarali va aniq bajarishda yordam berishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Non-Standard Employment around the world: understanding challenges, shaping prospects: https://www.ilo.org/global/publications/books/WCMS_534326/langen/index.htm
2. Asian Development Outlook 2018: How technology affects Jobs. Manila: <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2018-how-technology-affects-jobs>;
3. The Future of Jobs Report. Geneva: <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020>
4. Wachter, Sandra. The Challenges of Employment Law in the Age of Artificial Intelligence. Deloitte university press: <https://www.littler.com/publication-press/publication/overview-employment-law-issues-posed-generative-ai-workplace>
5. Danaher, John. The Ethics of Nobody: The Responsible Development of artificial Intelligence. Oxford University Press, 2021.
6. O'Neil, Cathy. Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and threatens democracy. Crown Publishing Group, 2016.
7. Mulligan, Deirdre K. Social Acceleration: a networked approach to technology and society. The MIT Press, 2016.

BO'LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNI MILLIY VA JANGOVAR RUHDA TARBIYALASHDA XXI ASR TA'LIMINING DOLZARB MASALALARI: SUN'IY INTELLEKT VA FUQAROLIK KOMPETENSIYASI

Boboyev Xurshidbek Yusupovich,

*O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta
o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashda XXI asr ta'limining dolzarb masalalari: sun'iy intellekt va fuqarolik kompetensiyasi haqida yozib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik kompetensiyasi, konsepsiya, harbiy tuzilmalar, milliy ruh, sun'iy intellekt, jangovar ruh, xavfsizlik, Qurolli Kuchlar, bo'lajak zaxiradagi ofitser.

Аннотация. В данной статье рассмотрены актуальные вопросы образования XXI века в воспитании будущих офицеров запаса в национальном и боевом духе: искусственный интеллект и гражданская компетентность.

Ключевые слова: гражданская компетентность, концепция, военные структуры, национальный дух, искусственный интеллект, боевой дух, безопасность, вооруженные силы, будущий офицер запаса.

Annotation. This article records the current issues of education of the XXI century in the national and combat spirit training of future reserve officers: artificial intelligence and civil competence.

Key words: civilian competence, concept, military formations, national spirit, artificial intelligence, combat spirit, security, armed forces, future reserve officer.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatlarida "Ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo'lidir" [1], – deb ta'kidladilar. Bu esa bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashda, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi oshirish va sun'iy intellekt masalalari alohida o'rin egallaydi.

Mamlakat tinchligi va rivojining buguni, kelajagi bo'lgan bo'lajak zaxiradagi ofitserlar jahonda ro'y berayotgan vaziyatlarga o'z shaxsiy pozitsiyasining bo'lishi, o'z mamlakati kelajagi uchun qayg'urishida ularda milliy va jangovar ruhni yanada rivojlantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qilish malakalarini oshirish bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimida keyingi yillarda juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda milliy tiklanish, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimiz ongi hamda dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida boyitib borish, milliy armiyamizni turli yot g'oyalardan asrash, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, or-nomusi yuqori, g'ururli, vatanparvar, xalqparvar, vijdonli, tashabbuskor, fuqarolik kompetensiyasi rivojlangan, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan qilib, milliy va jangovar ruhi matonatli qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan,

minnatdorlik bilan e'tirof etmoqda". Ammo bu degani harbiy xodimlarda jangovarlik va mardlik fazilatlarini o'z-o'zidan, mexanistik tarzda shakllanadi, degani emas. Ular, avvalo, maxsus maktablar va o'quv yurtlarida, poligonlardagi amaliy mashqlar va harbiy taktik mashg'ulotlar paytida, shuningdek, hayotimizning barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarida, ya'ni real hayotimizda shakllantiriladi. Davlatimiz mudofaasini harbiy vatanparvarlik sifatлари, milliy va jangovar ruhi yuksak harbiy xizmatchilarsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir mamlakatning kuch-qudrati, dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, siyosiy-iqtisodiy rivoji uning yosh kadrlari salohiyati bilan belgilanadi [2].

Butun jamiyatimizda bo'lgani singari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatida ham yuksak o'zgarishlar yuz bermoqda. Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligining kafolati va asosiy ramzlaridan biri bo'lib yangidan barpo etildi. Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Vatanga sadoqatlik ruhiyatini oshirishning me'yoriy asoslari va moddiy-texnik bazasi yaratilmoqda. Sanoat va jamiyat asoslarini qurish bilan bir qatorda, reja "kelajak poydevori sifatida ta'limni isloh qilish va ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar tizimini qayta qurishni talab qiladi.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashda, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sun'iy intellekt va fuqarolik kompetentsiyasini rivojlantirish ham muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Harbiy ta'lim islohotiga kelsak, harbiy ta'limda sun'iy intellekt bilan bog'liq bo'lgan ta'lim, boshqacha aytganda, harbiy tayyorgarlik fanlari va AI (sun'iy intellekt)" ta'limi qanday bo'lishi kerakligi va bu masalaning harbiy tayyorgarlikning yanada yuqori darajalarga rivojlanishiga bo'lgan ta'siri haqida muhim masala bo'lib ko'rilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17- fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-sonli qarorida [3] quyidagilar institutning asosiy vazifalari etib belgilangan: "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini har tomonlama amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish; sun'iy intellekt sohasida fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish; sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish; sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

Respublikamizning barcha sohaları kabi harbiy ta'lim sohasida ham sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, sohani butun jahon talablari darajasida rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan harakatlar jadallashmoqda. Jumladan, faoliyati kengayib borayotgan "IT park"lar, "Bir million dasturchi", "Yoshlar texnoparklari" mazkur

sohaning barqaror rivojiga juda katta umid uygʻotadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Kanada kabi 30 dan ortiq davlatlarda sunʼiy intellektni rivojlantirish va harbiy sohaga tadbiiq etish strategiyalari qabul qilingan.

Sunʼiy intellekt atamasi kundalik hayotimizda tez-tez uchratib va uni qoʻllash butun dunyoda rivojlanib bormoqda. Soʻnggi paytlarda sunʼiy intellekt turli tarmoqlar va ijtimoiy infratuzilmalarga kiritilmoqda. Misol uchun, ish uslubini isloh qilish nomi bilan ishni avtomatlashtirish va unumdorlikni oshirish uchun RJA (Robotik jarayonlarni avtomatlashtirish) joriy etayotgan kompaniyalar soni ortib bormoqda. RJA oʻz-oʻzidan sunʼiy intellekt emas, lekin u kompyuterlarga elektron jadval dasturiy taʼminoti va asosiy biznes tizimlari kabi oddiy vazifalarni oʻz zimmasiga olishga imkon beradi, ular hukm chiqarishda odamlar tomonidan amalga oshiriladi, boshqacha qilib aytganda, shaxsiy kompyuterning takroriy operatsiyalari. Kelajakda biz sunʼiy intellektning ilovalari boʻlgan qoʻlda yozilgan belgilarni aniqlash, ovozni aniqlash va javob berish tizimlari bilan bogʻlash orqali butun biznesni avtomatlashtirishni maqsad qilganmiz.

Sunʼiy intellekt oʻzi nima? Sunʼiy intellekt deganda insonning ijodiy va mantiqiy ishlarini bajaruvchi intellektual sunʼiy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, oʻrganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bogʻliq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qoʻllanilishi mumkin. Sunʼiy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega boʻlgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Hozirda sunʼiy intellekt turli amallarni bajarishga moʻljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin boʻlgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi [4]. Jumladan, mamlakatimizda ham bu sohani rivojlanitirishda keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda.

“Yangi fikr, yangi gʻoyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan boʻlsak, uni aynan innovatsion gʻoyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash kerak”, – deb aytgan edi [5]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Ayniqsa, boʻlajak zaxiradagi ofitserlarlarning puxta bilim olishi, harbiy mutaxassislikni mukammal egallashi, milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida kamol topishi yoʻlida eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada pedagoglarimizning yuksak mehnatlari, tarbiyalash va bilim berish yoʻlidagi zahmatlari judayam eʼtiroflidir. Davlatning buguni, ertasi boʻlgan yoshlarning jahonda roʻy berayotgan vaziyatlarga oʻz shaxsiy pozitsiyasining boʻlishi, oʻz mamlakati kelajagi uchun qaygʻurishida vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish, milliy va jangovar ruhni rivojlantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qilish malakalarini oshirish boʻyicha ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi 158-sonli Farmonida [6] xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi Oʻzbekistonni barpo etish boʻyicha xohish-irodasini ruyobga

chiqarish, harbiy fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari ta'kidlanadi.

Mamlakatimizda hozirgi davrning o'ziga xosligi, eng avvalo, davlatning suvereniteti, to'liq mustaqilligi, butun davlat tizimi, jamiyat hayoti va ular bilan birga oliy ta'lim tizimi modernizatsiya qilingani, bu boradagi muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan bog'liq raqobatbardosh, zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo'lib yetishishi bizning maqsadimizdir [7].

Mamlakatimizda oxirgi yillarda kompleks yondashuv asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning fuqarolik kompetensiyasi texnologiyalari rivojlanmoqda, jamiyatimizda qabul qilingan shaxsning ma'naviy-axloqiy me'yorlarini o'rganish va boyitish qobiliyatiga ega malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtirildi, ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash maqsadida normativ-huquqiy asos ishlab chiqilmoqda. Shu munosabat bilan, zamonaviy sharoitda respublikada jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning maqbul usullarini tanlash bo'yicha pedagogik imkoniyatlar kengaymoqda.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi harbiy kasbiy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan, chunki urush tajribasi shuni ko'rsatadiki, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shakllangan kasbiy kompetensiyalari ko'plab paydo bo'lgan muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi, ammo hammasini emas.

Mashg'ulotlardagi muvaffaqiyat har doim ham tayinlangan haqiqiy jangovar topshiriqlarni bajarishning yuqori sifatini kafolatlamaydi. Haqiqiy vaziyatga duch kelganda, harbiy xizmatchilar va yosh ofitserlar jiddiy professional to'siqlarga duch kelishadi, bu tabiiy ravishda kasbiy motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Bu jarayonda eng yangi texnologiyalardan foydalanish bir qator yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish va bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning fuqarolik kompetensiyasini yanada samarali rivojlantirish imkoniyatini bermiqda.

"Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash..." [8] kabi vazifalarni belgilanganligi bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ehtiyojini yanada oshiradi. Buning uchun bugungi jiddiy qiyinchiliklar va oldindan aytish qiyin bo'lgan tahdidlarni samarali bartaraf etishga qodir bo'lgan milliy armiya asoslarini yanada mustahkamlash zarur.

1990 yilda umumevropa hujjatlarida kompetensiyalar ta'limning istalgan natijasi sifatida qarala boshlandi, asosiy global kompetensiyalar belgilandi, ular ta'limning istalgan natijasi sifatida talqin qilindi. Talabalar muvaffaqiyatli ishlash uchun ham, keyingi ta'lim uchun ham egallashlari kerak bo'lgan asosiy

kompetensiyalar qatoriga quyidagilar kiradi: kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash qobiliyati, ijodkorlik, qiziquvchanlik, bag'rikenglik. 2006 yilda ushbu kompetensiyalar ro'yxati aniqlandi: "ona va xorijiy tillarda muloqot qilish qobiliyati; fan va texnika sohasidagi matematik kompetensiya va asosiy kompetensiyalar; IT savodxonligi; hayot davomida o'rganish qobiliyati; ijtimoiy va fuqarolik vakolatlari; tashabbuskorlik va tadbirkorlikning ma'nosi, shuningdek, ko'p madaniyatli dunyoda yashash qobiliyati" [9]. Ushbu kompetensiyalar ta'lim muassasasi bitiruvchisiga qo'yiladigan talablar to'plamini tavsiflaydi, bu unga o'qishni davom ettirish yoki ishlashga imkon berishi kerak edi. Demak, nafaqat respublikamizda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham malakali mutaxassislar tayyorlashda boshqa kompetensiya turlari qatori fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, teran bilimli, zamonaviy dunyoqarashga ega, barkamol, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalash borasida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim darajasi indeksi oshgani sayin yalpi ichki mahsulot indeksi oshadi. O'zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda.

Bugungi kunda respublika oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni Umumharbiy nizomlarga tayangan holda bir-biriga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lishini shakllantirish zarur. Fuqarolik kompetensiyasining ushbu funksiyalari ma'lum sharoitlarda ma'lum bir inson xatti-harakatlarini rivojlantirishga qaratiladi va bu uning fuqarolik kompetensiyasini pedagogik jihatdan ko'rib chiqish masalasining dolzarbligini asoslaydi. Ma'naviyat, mustaqillik va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashish qobiliyati bilan bir qatorda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning eng muhim vazifasini hal qilish uchun bo'lajak zaxiradagi ofitserlar fikrlash doirasining kengligi va malakali harbiy kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lishlari kerak. Ayniqsa hozirgi kunda zamonaviy harbiy kadrlar tayyorlashning bu jihati dunyoning barcha mamlakatlarida keng rivojlangan.

"Dovyurak jangchi", "Mard o'g'lon", "Alvon beret sohibi" davlat mukofotiga sazovar bo'lgan Vatan himoyachilari bilan yaqindan suhbatlar olib borishni tashkillashtirish, Vatanga qasamyodni, rezervdagi va zaxiradagi bo'lajak ofitserning "Sharaf Kodeksi"ni, "Or-nomus kodeksi"ni chuqur o'rganish, Vatan himoyachisi bayramiga, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayramiga qatnashish, Qurolli kuchlar muzeyiga, G'alaba bog'iga, Shon-sharaf muzeyiga tashrif buyurish, AKT va raqamli elektron vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanilgan holda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari bo'lajak zaxiradagi ofitserlariga mo'ljallangan ijtimoiy roliklar, chelenjlar, trenajyorlar yaratish, ularni OAV hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilish, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda or-nomus, sharaf, halollik, jonkuyarlik, fidoyilik, vijdonlilik, tashabbuskorlik, sadoqatlilik, mardlik, jasurlik, xalqparvarlik, matonat, harbiy vatanparvarlik, milliy va jangovar ruh tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan milliy xususiyatlar, tarixiy qahramonlarimiz aks etgan o'quv sinflarini hamda elektron

o‘yinlarni yaratish, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayonda foydalaniladigan darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti, faoliyati haqidagi ma’lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi, qahramonliklari to‘g‘risida hujjatli filmlar, kinofilmlar, ommaviy axborot vositalarida ruknlar qamrovini kengaytirish orqali bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish va sun‘iy intellekt masalalarini ijobiy tomonga hal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/13696>
Проектная технология создает оптимальные условия для осуществления общения в процессе обучения литературы в высшем образовательном учреждении и, следовательно, развития ряда ключевых компетенций студентов. Общение является важным условием на всех стадиях работы над проектом: на подготовительном этапе в процессе совместной деятельности студентов по поиску и отбору необходимой, важной и интересной информации, в ходе выполнения, оформления и воплощения проекта в жизнь, активного обсуждения положительных сторон и недостатков конечного результата при подведении итогов проектной деятельности. Эффективность и успех взаимодействия участников проектной деятельности обеспечивается благодаря направляющей деятельности преподавателя, который устремляет мысль студентов в нужном направлении для дальнейшего самостоятельного поиска, предлагает рекомендации для решения задач. В результате студенты совместными усилиями решают проблему, используя интегрированные знания их разных областей для получения реального осязаемого результата. Групповое общение и взаимодействие сопровождается техническими средствами. Проект как конечный продукт индивидуальной или групповой работы студентов по планированию и осуществлению комплекса учебных и исследовательских заданий позволяет проанализировать и оценить умения студентов ориентироваться в информационном пространстве, организовывать свою когнитивную деятельность для конструирования собственных знаний в процессе поиска решения проблемных задач практической направленности; определить уровень сформированности аналитических способностей (выделять существенные связи, устанавливать и конструировать отношения между элементами информации, создавать целостный и дифференцированный образ ситуации и др.), исследовательских навыков и умений (выявлять проблему, ставить цели и задачи, задавать вопросы, формулировать гипотезу, предлагать

определения и толкования понятий и категорий, классифицировать, осуществлять наблюдения, делать умозаключения, подводить итоги и др.), навыков и умений практического мышления, основанного на накопленном жизненном опыте, восприятии, наблюдении и здравом смысле, и творческого мышления, созидающего новые решения проблемных ситуаций.

Одним из вариантов реализации проектной методики в преподавании литературы являются телекоммуникационные проекты, организованные посредством полилингвальной и поликультурной телекоммуникации – передачи и приема информации (звуковых и видеосигналов, изображений и других данных) на большие расстояния с помощью электронных средств связи. Особенностью телекоммуникационных проектов является привлечение и применение интегрированных знаний для единого представления тематики проблемы, соединение разных подходов к решению проблемы, создание виртуальной реальности как полноправного компонента междисциплинарного синтеза. Международные телекоммуникационные проекты требуют знания особенностей культуры партнера. В практике преподавания русской литературы телекоммуникационные проекты могут создаваться для осуществления совместного группового поиска и сбора информационных сведений в различных местностях для успешного решения поставленных проблем; разбора и сравнительного анализа полученных данных для выделения ключевых установок и тенденций; решения проблем с привлечением особых возможностей компьютерной телекоммуникации при условии тщательного предварительного согласования технических аспектов; создания электронных баз данных (совокупности систематизированных материалов для хранения, изменения, обработки), которые могут использоваться всеми участниками проекта; создания активно действующих образовательных сообществ; размещения электронных публикаций и т.п. Письменная активность студентов в виртуальном пространстве имеет социальную и личностную обусловленность, коммуникативно-прагматическую направленность; участие в таком виде проекта накладывает на студентов высокую ответственность за результативность взаимодействия, так как адресатами являются «удаленные» партнеры по общению. Динамичная природа сетевого общения, в котором исчезают пространственные пределы и ограничения образовательной среды и реальных условий взаимодействия, позволяет студентам сформировать новый опыт деятельности, так как язык используется в качестве инструмента трансляции, интерпретации и постижения содержания, сути и смысла, взаимодействия и сотрудничества. Разновидностью проектной деятельности в процессе преподавания литературы, направленной на развитие самостоятельности студентов как важного проявления интеллектуальной культуры личности будущих учителей, являются межкультурные тандем-проекты, в которых происходит процесс совместного изучения при личной встрече, а также удаленного и виртуального аудио, видео и текстового общения (etandem) через электронную почту, skype, социальные сети, видеоконференции, по телефону и другие современные медиа-средства без

прямого участия преподавателя. Преподаватель выполняет лишь роль консультанта, помощника и посредника на протяжении всего проекта. С целью отбора участников тандема по определенной теме, а также для стимулирования первоначального импульса к общению и преодоления возможных трудностей проводятся анкетирования и опросы. Индивидуальная и коллективная формы взаимодействия партнеров в рамках использования тандем-метода могут интегрироваться, иметь как спонтанный и естественный характер, так и быть строго спланированными, осмысленными и системными. Организация данных проектов позволяет расширить границы информационно-образовательного пространства изучения литературы, выйти за пределы учебной аудитории на уровень международного общения; узнавать, осознавать и принимать культурные различия тандем-партнеров, что способствует развитию таких важных личностных качеств, как толерантность, мультиперспективность, гибкость, эмпатия, ответственность за результаты деятельности и др. Рефлексия на когнитивном и аффективном уровнях позволяет участникам тандема определить и оценить ценный опыт личностного взаимодействия и межкультурного общения.

Вебквест как сценарий организации проектной деятельности является эффективным интерактивным заданием на основе компьютерных систем, обладающих такими возможностями, как гипертекстность и мультимедийность. Вебквест позволяет планировать и структурировать выполнение проекта, выстраивать алгоритм необходимых действий при организации работы над исследуемой проблемой; характеризуется такими особенностями исследовательской проектной деятельности, как самостоятельность участников, проблемность и ситуативность. Отбор материала для вебквеста предполагает критический анализ и осмысление приобретенной информации. Задания создаются на основе переработки информации (систематизация, синтез, выявление главного, интерпретация и трансформация).

Одним из приемов активизации внимания, развития фантазии и творческого воображения студентов являются задания на основе ключевых слов и терминов из текста художественного произведения. Например, на предтекстовом этапе студенты методом мозговой атаки предлагают толкование выделенных ключевых терминов, строят предположения об использовании данных слов в тексте, составляют собственный вариант текста с использованием предложенных опорных слов, а затем сопоставляют созданный ими текст с оригиналом. Эссе является одной из творческих форм самостоятельной письменной работы, в которой студент проявляет умение письменно излагать свои размышления и убеждения, личные впечатления по конкретной теме в свободном, индивидуально-авторском стиле. Эссе литературно-критического, философского, научно-популярного, историко-биографического характера представляет собой самостоятельный анализ заявленной темы, как с учетом концептуальных положений и аналитического инструментария интегрированных знаний (синтезированных в познавательной практике продуктов восприятия, рационального и внерационального

мышления, сознательной и бессознательной активности) так и, в большей мере, индивидуальных суждений, собственного отношения и понимания учебной дисциплины. Написание эссе способствует развитию самостоятельного творческого мышления, умения четко и грамотно излагать собственные мысли, структурировать информацию, акцентировать внимание на основных понятиях, давать аргументированные обоснования и доказательные выводы, приводить соответствующие примеры из личного опыта и проводить причинно-следственные связи. В практике преподавания литературы можно использовать 5-минутное эссе (например, в конце занятия для подведения итогов, рефлексии по изученному материалу в качестве обратной связи для преподавателя), 10-минутное эссе (изложении мыслей на предложенную тему в свободной форме после прочтения или прослушивания текста), сочинения более продолжительные по времени, большего объема и трудоемкости.

Письменный круглый стол является коллективной формой работы творческой направленности по изучаемой теме. Студенты делятся на группы из трех человек и распределяют ролевые позиции (1 – представление основного замысла и идеи во вводной речи; 2 – объяснения, комментарии, поиск ответа на проблемный вопрос, дальнейшее развитие темы; 3 – подведение итогов и обобщение выводов). В ходе совместной работы участники постепенно меняются ролями, каждый студент поэтапно выступает во всех позициях; затем происходит чтение получившихся текстов и их совместное обсуждение.

Организация «Виртуальных экскурсий» делает процесс преподавания литературы как более увлекательным и эмоциональным, так и информационно-насыщенным, коммуникативно-познавательным и проблемно-творческим. Все организационные этапы виртуальной экскурсии (выбор объекта исследования, поиск информации об изучаемом объекте, формулировка основной проблемы и сопутствующих задач, составление плана действий, выбор формы отчетности и наглядности для представления результатов экскурсии (презентация, путеводитель, буклет или минифильм), публичное представление конечного результата собственной деятельности) происходят при условии обеспечения индивидуализации и дифференциации обучения, когда студент самостоятельно определяет ключевую проблему, подбирает и осмысливает тематический материал, формулирует основную идею работы, выделяет главные аспекты для изучения. При работе с литературным материалом творческие задания могут быть представлены в следующих видах: представить творческий пересказ произведения (замена действующих лиц, времени и места сюжетного развертывания событий, изложение последовательности и связи отдельных событий и сюжетной линии от 1-го, 2-го лица и др.); драматизировать отрывок; моделирование сюжета пересказываемого художественного произведения с помощью наглядности, схематических планов, моделей обложки и иллюстраций книги; изменить роль и позицию повествователя (т.е. представить события с разных точек зрения от лица различных героев художественного текста; выполнить художественный анализ отрывка из литературного произведения; преобразовать жанр текста

(поэтическое произведение представить в прозаической форме, содержание прозаического текста изложить в стихах); написать сценарий спектакля или документального фильма на основе прочитанного произведения; написать письмо литературному герою; сочинить продолжение истории; придумать пародию по поводу прочитанного художественного текста; представить ассоциации по поводу прочитанного в стихах; подвергнуть анализу поступки литературных героев и описанные события на основе приобретенного личного опыта; разыграть вместе с другими студентами беседу с литературным героем, провести интервью с автором произведения; изменить начало или конец истории; провести аналогию с судьбами героев из литературных произведений в русской литературе, найти сходства и различия характеров и обстоятельств, объяснить влияние исторической эпохи на описанные события; выполнить обложку книги и иллюстрации к прочитанному тексту и др. Созданный студентом оригинальный художественный текст (сочинение, стихотворение, сценарий, письмо, художественный перевод и др.) отражает переход от этапа восприятия культурных ценностей на уровень создания произведений, отражающих проблемы нравственных и эстетических идеалов, авторские убеждения и позицию студента не только как читателя, но и создателя культурных ценностей.

Творческие сочинения представляют собой стремление и попытку осмыслить свою жизнь, современную историческую реальность, это по А.Эльясевичу «способ рассказать о мире через себя и о себе с помощью мира» [2]. Творческая деятельность студентов педагогических направлений подготовки бакалавриата на основе литературных произведений имеет особую значимость для выявления и развития креативных и творческих способностей, формирования установки на непрерывное самосовершенствование и обогащение духовного мира личности будущих учителей.

Литература

1. <https://www.unesco.org/gem-report/ru/articles/yunesko-vystupila-s-nastoyatelnyim-prizyvom-k-nadlezhaschemu-ispolzovaniyu-tekhnologiy-v-obrazovanii>
2. <https://refdb.ru/look/2351540.html>

O‘QUVCHILARDA O‘QUV STRATEGIYALARIGA O‘RGATISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Pulatova Muattar Kurakboyevna,

*Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti
muattarkurakboyevna@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim shakllari miqyosiga kiruvchi o‘quv startegiyalari, pedagoglarning o‘quvchilarga sifatli bilim olishida ko‘makchilik kompetensiyasi, o‘quvchi o‘z ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagoglarning roli, o‘qituvchilar o‘zlarida yangi yondashuvlarni

shakllantira olishi va mavjud ko'nikmlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oson o'quv uslublari, strategik yondashuv, strategiya, o'quv strategiyasi, ta'lim oluvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik maslahat.

Ta'lim oluvchi jamiyatda muvafaqqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o'z ehtiyojlari savfiga xorijiy tillarni o'rganish, bilim olish, ko'nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantimog'i lozim. O'quvchi ongida muntazam ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkini pedagog o'z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega. O'quv strategiyalari xorijiy til o'qituvchilariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv strategiyalariga o'rgatishda quyidagi maqsadlarda yordam berishni nazarda tutadi: matnni o'qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqtni boshqarish, tashkil eta olish, ma'lumotlarni o'rganish va eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o'z-o'zini nazorat qilish.

Bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyaning amaliy uyg'unlashtirilgan o'quv faoliyati zamonaviy ta'lim talablaridan biri sifatida barcha o'quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko'nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o'quv strategiyalarini qo'llashni talab qilmoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmasligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim topadi. Hamkorlik tamoyillari asosida tashkil qilingan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ta'lim olishning har qanday turida an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lim turlarida o'quvchilarda o'zlariga akademik maqsadni qo'ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi o'zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zlarini yo'naltirishlari va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

O'quv strategiyalari o'quvchilar samarali o'rganish uchun foydalanadigan usullar hisoblanadi. O'quv strategiyasi akademik va akademik bo'lmagan sharoitlarda mazmunni yanada samarali o'zlashtirish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ma'lum ko'nikmalarni tashkil qilish va ulardan foydalanishning individual usulidir. O'quv strategiyalari o'qituvchilarga ta'lim oluvchilarga ma'lum tarkib yoki ko'nikmalarni emas, balki qanday o'rganishni o'rgatish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'quv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Strategik yondashuvga asoslangan jarayonda o'quvchilar o'qituvchidan ma'lumot olmaydilar va baholashdan passiv foydalanadilar, chunki ular o'quv jarayonining barcha jihatlarini qanday hisobga olishni o'rganadilar. O'quv strategiyalaridan bunday faol foydalanish o'quvchilarga ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga va o'rganish jarayonida motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Strategiyalardan foydalanish o'z-o'zini o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarga o'zlarining ta'limlari uchun

javobgarlikni o'z zimmlariga olishga yordam beradi. O'quv strategiyalaridan foydalanishdan maqsad - o'quvchining motivatsion yoki ruhiy holatiga hamda ularning yangi bilimlarni qanday tanlashi, egallashi, tashkil qilishi yoki birlashtirishiga ta'sir qilishdir.

Strategiyalar kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faol, o'z-o'zini jalb qilish vositalaridir. Shuningdek, o'rganuvchilar tomonidan yangi ma'lumotlarni olish, saqlash, eslab qolish va ulardan foydalanish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladigan ko'plab ongli harakatlar hisoblanadi. O'quvchilar boshlang'ich sinflardagi ko'nikmalarni o'rganishdan ko'ra o'rta sinfdagi mazmuni o'rganishga o'tar ekan, ular darsliklardan ma'lumot o'qish, ma'ruza matnlari, o'z-o'zini boshqarish va yozma insholar, testlarda tushunishni ifodalash uchun ortib borayotgan talablarga duch kelishadi. Yuqori sinflarga o'tganlarida esa ular mavzuga emas, balki amaliyotga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular vazifalar yoki muammolarni hal qilish uchun vaqt va kuch sarflash uchun ko'proq motivatsiyaga ega bo'lishi kutiladi. Strategik yondashuvning motivation aspektlari funksional jihatdan samarali natijalarga ega bo'lishda asqotishi nazarda tutiladi.

O'quv strategiyalarini tasniflashning ko'plab usullari mavjud. Strategiyalarni kognitiv, metakognitiv qobiliyatlarni o'rganishga asoslangan toifalarga bo'lish mumkin. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga asoslangan strategik yondashuvlarning aksariyati til o'rganish uchun moslashgan bo'lsa-da, ulardan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish o'quv strategiyalarining murakkabligini tushunish uchun yaxshi asos yaratgan holda, funksoinal ahamiyatni ochib berishga hizmat qiladi. Darsdan oldin, dars vaqtida hamda darsdan so'nggi mashg'ulotlarni asoslaydigan ma'lum amaliyotlar trayektoriyasi jihatidan mazmuni bilishga qaratilgan amallarga asoslangan yondashuv quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Rejalashtirish strategik yondashuv - individual o'rganish uslubi yoki ijobiy o'rganish strategiyasi;

Eksperimental strategik yondashuv - yangi ma'lumotlarni tartibli tizimga aylantiradigan va uni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadigan uslubiy, ammo moslashuvchan yondashuv;

Monitoring strategik yondashuvi - o'z-o'zini boshqarish va ma'lumotdan foydalanishga tanqidiy sezgirlik. Sinfdagi o'qituvchi uchun o'quv strategiyalarini tanlash barcha o'quvchilar muhim. O'quvchilar tomonidan strategiyalardan qanday foydalanilishni va o'qituvchilar tomonidan o'rgatilishi va qo'llab-quvvatlanishi, ushbu o'quv strategiyasini guruhlashni yanada osonlashtiradi. Ushbu strategiyalarni ba'zida menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar bilan o'qituvchilar ochib beradi.

O'quvchilar turli xildagi xarakter-xususiyatlariga, psixologik jihatlariga ega bo'lishi sababli turlicha yondashuvni talab etishadi. Bu holat sinfdagi har bir o'quvchiga individual o'quv strategiyalarini talab qiladi. Darhaqiqat, sinfdagi o'quvchilar iqtidorli yoki o'ta iqtidorli bo'lishi mumkin. Bolalarning qaysi sohalarida yuqori ishlash qobiliyatlarini tahlil qilib, ularning intellektual, ijodiy, badiiy (tas-viriy va ijro san'ati), yetakchilik imkoniyatlari yoki muayyan akademik sohalar (tabiiy, aniq, ijtimoiy tadqiqotlar) va odatlariga qarab samarali yondashuvlar belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. – T.: “NAVRO‘Z” 2019.

Ibragimov A.A. Pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligini takomillashtirishga ilmiy-metodik hamrohlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2017. – №1/5. (13.00.00; №15).

Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirish texnologiyasi.–T.: “Fan va texnologiya”, 2013.

Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini joriy etish mexanizmlari. - T.: “O‘zPFIT” , 2013.

Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.

ТАРЖИМАДА ЛУҒАТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ – ХХІ АСР ТАЪЛИМИНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ СИФАТИДА

Рустамова Дилшода Зарифбой кизи,
ЎзМУ талабаси

Имяминова Шухратхон Салижановна
илмий рахбар, ЎзМУ профессори

Аннотация. Ушбу мақолада бевосита таржимада луғатларнинг аҳамияти ва таржима жараёнида нега ҳар хил турдаги луғатлардан фойдаланиш лозимлиги ҳақида сўз юритилади. Бундан ташқари, луғат таржимоннинг энг асосий ишчи қуроли эканлиги, луғатлардан фойдаланиш эса, бирор асарнинг таржимаси жараёнида фақат ва фақат фойда келтириши, яъни асарни тўлақонли адекват бўлишини таъминлаши ҳақида фикрлар юритилади. Ушбу мақолада таржима жараёнида луғатдан фойдаланишнинг сабаблари ва натижалари ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: бевосита таржима, луғат, икки тилли луғат, синоним-антоним луғатлар, фразеологизмлар луғати, имло луғати, оғзаки таржима, ёзма таржима, калка, муқобил вариант, адекват таржима.

Аннотация. В данной статье говорится о важности словарей при прямом переводе и о том, почему в процессе перевода необходимо использовать словари разных типов. Кроме того, считается, что словарь является важнейшим рабочим инструментом переводчика, а использование словарей приносит пользу в процессе перевода произведения, то есть обеспечивает полную адекватность произведения. В данной статье рассмотрены причины и последствия использования словаря в процессе перевода.

Ключевые слова: прямой перевод, словарь, двуязычный словарь, синоним-антонимические словари, фразеологический словарь,

орфографический словарь, устный перевод, письменный перевод, альтернативный вариант, адекватный перевод.

Abstract. This article talks about the importance of dictionaries in direct translation and why it is necessary to use different types of dictionaries in the translation process. In addition, it is believed that a dictionary is the most important working tool of a translator, and the use of dictionaries only brings benefits in the process of translating a work, that is, it ensures the complete adequacy of the work. This article examines the reasons and consequences of using a dictionary in the translation process.

Key words: direct translation, dictionary, bilingual dictionary, synonym-antonym dictionaries, phraseological dictionary, spelling dictionary, oral translation, written translation, alternative version, adequate translation.

Авваламбор, таржимон бир матнни, хоҳ илмий, хоҳ бадий матн бўлсин, уни таржима қилиш жараёнида унга, албата, луғат сув ва ҳаводай зарур бўлади. Луғат – таржимоннинг асосий ишчи қуролидир.

Кўпгина олимлар луғатга қуйдагича таъриф бериб ўтишган: “Луғат бу – муайян тилда, унинг ҳудудий ёки ижтимоий лаҳжасида мавжуд бўлган у ёки бу ёзувчи асарларида учрайдиган сўзлар йиғиндиси [2, 64-б.]. Албатта, луғат маълум бир халқнинг тилини қанчалар бойлигини кўрсатиб бера олади, яъни луғатда сўзлар қанчалар кўп ва бой бўлса ана ўша тил шунчалар бой тил деб ҳисобланади. Юқорида келтириб ўтилган таъриф луғатнинг муайян бир турига тегишли халос. Луғат – сўзлар ёки морфема, сўз бирикмалари, иборалар ва бошқалар муайян тартибда жойлаштирилган, тавсифланувчи бирликлар, уларнинг келиб чиқиши, ёзилиши, талаффузи, услубий мансублиги, бошқа тилларга таржимаси билан кўпгина турларга бўлинади.

Шунинг учун луғат бир қатор ижтимоий вазифаларни ўз ичига олади: ўқувчига маълум бир воқеа-ҳодиса ҳақида маълумот беради; уни ўз ва ўзга тиллардаги сўзлар билан таништиради; тилни, унинг луғат таркибини такомиллаштиришда бевосита ёрдам беради.

Луғатларнинг қадим тарихига назар ташлайдиган бўлсак, тахминан XIII асрларга бориб тақалади. Дастлабки луғат тузувчилар китобга барча сўзларни киритишга уринмаган. Чунки уларнинг мақсади фақат қийин сўзларнинг маъносини излашдан иборат бўлган. Бу замонавий луғатларнинг бошланиш дебочаси эди [4, 89-б.].

Ҳозирги кунда аҳамият берадиган бўлсак, деярли барча соҳага оид луғатларни учратишимиз мумкин. Шу билан бирга бугунги кунга келиб таржимага оид соҳада ҳам луғатларнинг ўрни аҳамиятли даражада ўсиб бормоқда. Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, луғат таржимоннинг энг асосий қуроли сифатида қаралади. Таржима луғатлари асосан икки тилли ёки кўп тилли бўлиши ҳам мумкин. Аммо шуни эътиборга олиш лозим, луғат фақатгина ёзма таржима қилинаётган асар учун зарур. Оғзаки таржимон бўлса, ҳар қандай ҳолатда ҳам луғатдан фойдалана олиш имкониятига эга эмас, чунки хоҳлайсизми ёки йўқми оғзаки таржима жараёнида таржимон билмаган сўзини

луғатга қараб кўриб олиши учун вақт етмайди ундан ташқари вазият ҳам умуман буни тақозо қилмайди. Шу аснода оғзаки таржимоннинг иши қанчалар мураккаб эканлигини гувоҳи бўламиз, аммо юқоридаги каби вазиятларда эса, таржимон айтилаётган гапни бирор бир сўзининг маъносини билмай қолдими, унда ўша гапнинг умумий маъносидан келиб чиққан ҳолатда таржима қилинса анча мақсадга мувофиқ бўлади. Ёзма таржимон эса, албатта, луғатлардан фойдаланиши таржима қилинаётган асарларни янада бадиий ёки бўлмаса, оммавий, жиддий ва илмий бўлишига хизмат қилади.

Ёзма таржимон қўллайдиган луғатларнинг тури кўп. Мисол учун, икки тилли луғат, семантик луғат, фразеологизмлар луғати, синоним ва антонимлар луғати. Бу луғатлар орасидан таржимонга энг кераклиси бу, албатта, икки тилли луғатдир. Айниқса, бевосита таржима жараёнида икки тилли луғатларнинг ўрни катта. Бунинг сабаби шундаки, таржимон, аввало, бевосита, яъни аслий тилдан ўз тилига ўртада ёрдамчи тилларсиз таржима қилаётган жараёни кўриш мумкин. Чунки бу таржима жараёни орқали бир тилдан иккинчи тилга таржима қилинган асарни ўқувчига тушунарли бўлиш кафолати таъминланади. Тўлақонли адекват таржимага эришишда эса, юқоридаги каби луғатлар асосий рол ўйнайди.

Таржимон бир асарни бевосита таржима қилаётганида, нафақат икки тилли луғат балки бошқа кўплаб турлардаги луғатлардан фойдаланиши табиий ҳол. Яъни семантик, синоним-антоним, фразеологизм луғатлари ва бошқалар. Шу ўринда имло луғатлари ҳам аҳамиятли, таржима жараёнида бир тилдан иккинчи тилга бир сўзнинг тўғри ёзилиши ва берилиши эътиборга олиниши лозим. Имло луғатларга кирган сўз ва ибораларнинг изоҳи ҳам, таржимаси ҳам бўлмайди. Бундай луғат сўзларнинг ёзилишини имло қоидаларини ўз ичига олади. Тиллардаги ҳамма сўзларнинг ёзилиши имло қоидалари бир ҳил эмас ва мос тушмаслиги мумкин. Бу турдаги луғатлар истисно сўзларнинг орфографиясининг аниқлашда, айниқса, кўл келади. Таржима жараёнида ортиқча иккиланишларга йўл қўйилмаслик учун ҳам имло луғатлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ [3, 73-б.].

Бевосита таржима жараёнида, албатта, ўзига хос ўта бадиий, илмий, оммавий, журналистик ёки бўлмаса бир соҳага тегишли матнларни учратиш мумкин ва уларнинг таржимаси жараёнида эса, сўзларни стилистик жиҳатдан тўғри қўллай олиш эса, таржимондан катта маҳорат талаб қилади. Бу ҳолларда, албатта, синонимлар луғати ёрдамга келади. Синонимлар луғати, асосан, бир сўзнинг бир неча илмий, бадиий маъноларини ўз ичига мужассамлаган луғатдир. Таржимон ушбу ҳилдаги луғатлардан фойдаланиш орқали бадиий матнга яна эстетик ҳузур бағишлаши ёки бўлмаса илмий матнларни янада аниқ қилиб таржима қилиш имкониятига эга. Аммо шу томонини ҳам инobatга олиш лозимки, синонимлар луғатидан фойдаланиш пайтида бевосита таржима қилинаётган матннинг турига, яниким ўртача бадиий, ўта бадиий ёки илмий матн эканлигига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Баъзи ҳолларда сўзнинг стилистик жиҳатдан нотўғри синонимларни қўллаши бевосита таржима

қилинаётган матнни ўқиш давомида маълум бир тушунмовчиликларга сабаб бўлишига олиб келади.

Бевосита таржима жараёнида махсус лингвистик луғатларнинг фразеологизмлар луғатлари ҳам муҳим ўрин тутаяди. Улар, асосан, бир тилли бўлиб маълум бир тилда келтирилган фразеологизмларни изоҳлаб келади [3, 75-б.]. Таржимонга бу турдаги луғатларнинг аҳамияти шундаки, таржима қилинаётган асарда бирор бир кўчма маъноли фразеологизмлар, яъни мақоллар, маталлар, жуфт сўзлар, афоризмлар, синтенслар, ҳикматли сўзлар учратилса, аввало, уларнинг маъносини билиб олиш лозим ва калка йўли билан эмас, балки асарни таржима қилинаётган тилдаги муқобил вариантини бериш мақсадга мувофиқ. Мисол учун, “sich etwas aus den Fingern saugen” фразеологизми ўзбек тилига “фактларга асосланмай ўйлаб топмоқ, тўқимоқ” деган маъноларга эга бўлиб тўла муқобил бўла олади [1, 37-б.].

Мақолларни таржима қилишда эса, икки йўналиш муҳимдир, яъни немис тилидаги мақол ўзбек тилидаги муқобили билан берилади ёки мақол сўзма-сўз таржима қилинади. Юқоридаги каби фразеологизм ва мақолларни таржима қилишда эса, немис ва ўзбек фразеологизм луғатларидан астойдил фойдаланиш таржима қилинаётган асарни янада адекват, тўлақонли таржима бўлишига хизмат қилади.

Ҳозирги замонавий асрда техниканинг нақадар ривожлаганлигини ҳатто таржима соҳасида кўришимиз мумкин ва булардан бири “Google translate” электрон луғати. Албатта, техника ишимизни енгиллаштириши, вақтимизни тежаш ва бир қанча қулайликлар олиб келиши мумкин дерсиз. Аммо, ҳар бир нарсанинг ёмон томони бўлгани каби, ушбу механик таржимоннинг ҳам баъзи бир камчиликлари мавжуд. Айниқса, бўлажак таржимон ёки етук таржимон ушбу техниканинг ёрдамидан умуман фойдаланмаслиги лозим, чунки у ўз номи билан машина, машиналар на ҳис қила олади, на тўлиқ бир фикрлай олади. Улар фақатгина инсонлар томонидан киритилган сўз базасидан келиб чиқиб бирор нарсани таржима қилиши мумкин, лекин таржимон бадий асарни ёхуд насрий асарни таржима қилаётган жараёнида “Google translate” электрон луғатига мурожаат қилиши катта хато. Ундан афзали, ишончли луғат китобларга мурожаат қилиши мақсадга мувофиқ.

Сўзларни таржима қилиш ҳар доим катта қийинчиликдир ва таржимондан катта меҳнат, захмат талаб қилади, чунки турли тиллардаги сўзнинг маъно ҳажми кўпинча бир-бирига тўғри келмайди, ҳар бир тилда мажозий маънолар ўзига хос тарзда ривожланади. Бу ҳолатларда эса, таржимон фақатгина бир луғатдан эмас, балки луғатнинг бир неча турларидан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, таржима соҳаси қанчалар қийин бўлмасин бу ишни сидқи дилдан бажариш маданиятимизнинг бир неча асрлардан буён йўқолмай ўз холича сақланиб қолишига оз бўлсада ҳисса қўшмоқда. Биз таржимонлар бирор асарни таржима қилиш орқали ўз маданиятимизни, урф-одатларимизни, тарихимизни бошқа халқларга тақдим этамиз. Нафақат тақдим этамиз ва, албатта, бошқа халқларнинг маданиятини ўзимизга олиб киришимиз. Бу

эса, яъни бошқа тиллардан таржима қилинган асарларни ўқиш инсонларнинг дунёқараши кенгайишига, кенг фикрлай олишига катта пойдевор бўлиб хизмат қилади. Шунинг учун ҳам таржимонлик улуғ касбдир, унинг машаққатларини эса, фақатгина ҳақиқий таржимон ўз бошидан кечира олади.

Адабиётлар

1. Борисова И.Ф., Имяминова Ш.С. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: ЎзМУ, 2005.
2. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983.
3. Ғофуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Т.: Тафаккур бўстони, 2012.
4. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: ТДШИ, 2012.

ТА’ЛИМНИ RAQAMLASHTIRISH – XXI ASRDA TA’LIMNING DOLZARB MASALASI SIFATIDA

Хайдаров Зафар Абдихакимович,

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi boshlig‘i, dotsent, polkovnik

Annotatsiya. Maqolada ta’limni axborotlashtirish jarayonlarini tashkil etish, axborotni uzatish, qayta ishlash, to‘plash va saqlash, bilimlarni tartiblashtirish va avtomatizatsiyalash kabilarni nazarda tutuvchi quyidagi asosiy texnologiyalarni nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayonini axborotlashtirish, axborot, jarayon, ta’lim, AKTni qo‘llab o‘qitish, masofaviy ta’lim texnologiyasi.

Аннотация. В статье представлены следующие базовые технологии, к которым относятся организация информационных процессов обучения, передача, обработка, сбор и хранение информации, классификация и автоматизация знаний.

Ключевые слова: информатизация образовательного процесса, информация, процесс, образование, обучение с использованием ИКТ, дистанционные образовательные технологии.

Abstract. In the article, the following basic technologies are provided, which include the organization of education information processes, information transfer, processing, collection and storage, knowledge classification and automation.

Key words: informatization of the educational process, information, process, education, ICT-supported teaching, distance education technology.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlashda nafaqat o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan texnik va dasturiy vositalar, balki chet elda aynan Koreya Respublikasida ishlab chiqarilayotgan texnik va dasturiy vositalardan foydalanilmoqda. Ta’lim tizimini, umuman, jamiyatning barcha sohalarini kompyuterlashtirishda, axborot texnologiyalari bilan taminlashda Koreya Respublikasi bilan hamkorligimiz juda katta samara bermoqda: o‘quvchilar bevosita ko‘rib bo‘lmaydigan jarayonlarni texnik vositalar yordamida kuzatadi, ya’ni vizual ko‘rish amalga oshiriladi; o‘quv

materiallari chuqurroq va mukammalroq o'zlashtiriladi; vaqt tejiladi; olingan bilimlar amalda qo'llaniladi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Ta'limni axborotlashtirish jarayonlarini tashkil etish axborotni uzatish, qayta ishlash, to'plash va saqlash, bilimlarni tartiblashtirish va avtomatizatsiyalash kabilarni nazarda tutuvchi quyidagi asosiy texnologiyalarni nazarda tutadi: 1) elektron darsliklar, trenajerlar, tyutorlar, laboratoriya praktikumlari, test tizimlaridan iborat kompyuterli o'qitish dasturlari. 2) Personal kompyuterlar, videotexnika, optik diskli axborot to'plagichlardan foydalanib yaratiladigan multimedia texnologiyalari bazasidagi o'qitish tizimlari. 3) Turli predmetlar sohalarida foydalaniladigan intellektual va ekspert o'qitish tizimlari. 4) Bilimlar sohalari bo'yicha ma'lumotlar bazalari taqsimoti. 5) Elektron pochta, telekonferentsiyalar, lokal va regional aloqa tarmoqlari, ma'lumotlar almashuvi tarmoqlari. 6) Elektron kutubxonalar, tarqoq holdagi va markazlashgan nashriyot tizimlari. Lekin bu texnologiyalarni yaratishning va ular asosida ta'limni amalga oshirishning ilmiy, uslubiy, didaktik asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Ta'kidlash joizki, bu texnologiyalar doirasidagi ayrim dasturiy va texnikaviy vositalar turli oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan tashkilot va firmalarda ishlab chiqilmoqda (odatda parallel, ko'pincha esa, bir-birini qaytargan holda). Lekin bu industriyani respublika miqyosida yagona metodika va yondashuv asosida, o'zaro moslikni ta'minlanishini nazarda tutib muvofiqlashtirib borishga juda katta zarurat va ehtiyoj sezilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini axborotlashtirish" loyihasi doirasida tashkil etilgan Multimediya ta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazi, buyurtmachi sifatida bunday muvofiqlashtirish ishlarini ham o'z zimmasiga olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi [1].

Ta'limda raqamlashtirishni qo'llab o'qitishda yuqori samaraga erishilayotganini ko'rsatuvchi bir qator ilmiy izlanish va pedagogik eksperimentlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Aytish joizki, bu izlanish va eksperimentlar epizodik, uzuq-yuluq xarakterga ega. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini raqamlashtirishdan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki raqamlashtirishni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda.

Yuqorida izohlab o'tilgan muammo va masalalar yuzasidan bu yerda keltirilgan fikrlarni umumiyashtirib ta'kidlash mumkinki, ta'limda raqamlashtirishni izchil, sistemali va keng ko'lamda qo'llash masalasi va shu o'rinda raqamlashtirishning bu yo'nalishdagi cheksiz imkoniyatlari va qirralarini o'rganish va ta'lim jarayonida ulardan foydalanish mexanizmi, usul va uslublarini tadqiq qilish shu kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bunday izlanishlar va ularning natijalari, ayniqsa, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta'limning ruhiga mos keladi va uni ro'yobga chiqarishning qudratli mexanizmiga aylanadi [2].

Raqamlashtirish ta'lim texnologiyasi an'anaviy pedagogik texnologiyalar o'rnini bosmaydi, balki faqat to'ldiradi. Raqamli ta'limni tashkil etish uchta asosiy o'zaro

bog'liq bo'lgan shakllar: maxsus o'quv materiallari to'plamini (qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar, masalalar to'plamlari) hamda o'quv, audio va videomateriallarni qo'llashni o'z ichiga oladigan keys texnologiyasi, o'qituvchining talabalar bilan lokal kompyuter tarmog'ida o'tkazadigan guruhli o'quv ishlari turli shakllaridan iborat bo'lgan lokal tarmoq texnologiyasi va global tarmoq texnologiyasidan iborat. Raqamli ta'limdan foydalanish sinf-dars, sinf-leksiya ta'lim shakllarini qo'llash doirasini qisqartiradi. Bilim olish jarayoni haqiqiy individuallashtirilgan xususiyatga ega bo'ladi, o'zini o'qitish shakli bo'lib qoladi.

O'quvchining ta'lim olishdagi faol roli kuchayadi, o'zini ijodiy namoyon etishi uchun an'anaviy ta'limga nisbatan yanada qulay sharoitlar yaratiladi. Ta'lim jarayoni sifat jihatidan yangi pog'onaga chiqadi, bunda yangi texnik vositalarni qo'llash bilan ta'limning yangi mazmunli imkoniyatlarini aniqlash va amalga oshirish mumkin bo'ladi. Kurs o'qituvchi – loyihachisi, albatta, ta'lim jarayonida ishtirok etishi va o'quvchilar bilan faol aloqada bo'lishi kerak [3].

Uning asosiy vazifasi – Internetda ta'lim muhitini va unga zarur metodik materiallarni yaratishdan iborat. Ushbu vazifani hal qilish uchun o'qituvchi kompyuter dasturi ssenariysini ishlab chiqishni, masofali ta'lim o'z texnologiyasini yaratishni, internetda faol ishlashni bilishi va unga kerakli axborotlar joylashtirilgan serverni, o'z hamkasblari bilan aloqalar olib borishni bilishi kerak. Masofaviy ta'lim umumiy ta'limdan o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga yo'naltirilganligi bilan farq qiladi. O'quv-metodik qo'llanmasi alohida funksional vazifalarni bajaradi. Avvallari foydalanilgan o'quv darsliklari va o'quv qo'llanmalaridan masofali ta'limda foydalanish murakkab bo'ladi, chunki ular yordamida fanni mustaqil o'rganish ancha qiyin, hozircha maxsus ishlab chiqilgan o'quv-metodik, o'quv-amaliy qo'llanmalar mavjud emas yoki endi ularni yaratishga harakat qilinmoqda [4]. Har bir kurs uchun o'quv-metodik qo'llanmasi ishlab chiqishda fan bo'yichahamda muammoli yondashishdan ham foydalanish mumkin. O'quv jarayoni amaliyotchi pedagoglar o'qitishlari xususiyatlarini hisobga olib quriladi.

Elektron darsliklar ikki qismdan: nazariy va metodik qismdan iborat bo'lishi mumkin.

Nazariy qism – bu fan bo'yicha asosiy mavzular va tushunchalarni ochib beruvchi, eng yangi adabiyotlarda taqdim etilgan materiallarni umumlashtiruvchi referativ sharhli xususiyatdagi matndan iborat bo'ladi.

Metodik qism – bu bilimlarini namoyon etish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish, malakalarni ishlab chiqishga mashqlar va shu kabilar to'plamidir. Bilim, malaka va ko'nikmalarini mustaqil o'zlashtirish va mustahkamlash uchun topshiriqlarni tuzishda qator didaktik uslublardan foydalaniladi.

Masofaviy ta'lim tizimiga moslashtirilgan o'quv kurslarini ishlab chiqishda ularga ba'zi umumiy talablar qo'yiladi: har bir kursning nomi, uning mazmuni va hajmi davlat standartiga mos bo'lishi kerak (faqat agar ushbu kurs o'quv rejasi doirasidan chiqmasa); kursning butun mazmuni ma'lum tartibda tuzilgan mavzular bo'yicha taqsimlanadi; har bir mavzu bir necha o'quv modulidan iborat bo'ladi: kurs mavzulari ba'zi hollarda bo'limlarga guruhlashtiriladi: har bir kurs o'quv materiali ma'lum konsepsiyani (ochiq g'oyalar tizimi) amalga oshirib aniq mantiqiy ketma-

ketlikda tuziladi, materialni lo‘nda konseptual bayon etilishi masofali kursning oddiy darslik yoki o‘quv qo‘llanmasi elektron versiyasidan muhim farqi hisoblanadi: kursning materiali uning o‘rganilishi o‘quvchini doim mustaqil bilim olishga rag‘batlantiriladigan qilib tuziladi; o‘quv-metodik kompleksi tushuntirish xati, kurs mazmuni, adabiyotlar ro‘yxatiga boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Kurs bo‘yicha qo‘llanma quyidagilar: foydalanish bo‘yicha qo‘llanma, uning tuzilishi, mualliflar haqida qisqacha ma‘lumot, to‘plamni tuzishda qaysi o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanganligi hamda kurs maqsadlari, vazifalari, dastur tuzilishi, yakuniy nazoratga tayyorlanish savol va topshiriqlaridan tashkil topadi.

Mavzular va modullarga kirish – mavzu asosiy tezislari, materialning asosiy mazmunlarini ko‘rsatib o‘tishdan tashkil topadi. O‘quv materiali nazariy materialni va tushunchalarni bayon etishdan boshlanadi, keyin esa, muallifning tushuntirishlari va misollariga o‘tiladi. Mualliflar asosiy materialni qisqa va tushunarli bayon etishlari kerak. Chuqur o‘rganish uchun material hamda ikkinchi darajali tavsilotlar va yordamchi ma‘lumotlar talaba istagan vaqtda tanishishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha materialga kiritilishi kerak. Asosiy material maksimal darajada ko‘rgazmali shaklda taqdim etilishi kerak. Axborot va qo‘shimcha material talaba asosiy o‘quv materiali bilan ishlashini ta‘minlash uchun zarur va yetarli darajadagi hajmda taqdim etilishi kerak [5]. Quyidagilar qo‘shimcha (ma‘lumotli) material sifatida ishtirok etishi mumkin: glossariy – terminologik lug‘at; matn bo‘yicha tushuntirish ta‘riflari; tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlarga normativ baza va ilovalar; ma‘lumotlar; amaliyotdan misollar; vaziyat tahlili; amaliy o‘yinlar.

Talabaning asosiy ish shakli – o‘quv materiallari bilan mustaqil shug‘ullanish. Shu bilan birga, ularni o‘quv rejasi asosida o‘rganish ko‘zda tutiladi. Axborot materiallari lavhalari (o‘quv modullarining) savollar va topshiriqlar bilan beriladi, ularga javob berib, talabalar materialni o‘zlashtirilganlik darajasini nazorat qiladilar va o‘zlarining ish vaziyatlarini tahlil qiladilar.

Adabiyotlar

1. Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish
2. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N., Ta‘limda axborot texnologiyalari. Oliy ta‘lim muassasalari uchun. -T.: 2010, 120 b.
3. Hamdamov R., Parpiyev A., Maraximov A., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron o‘quv uslubiy majmualar: Oliy ta‘lim muassasalari uchun. – T., 2008. – 144 b.
4. Hamdamov R., Parpiyev A., Maraximov A., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari: Oliy ta‘lim muassasalari uchun. – T., 2008. – 196 b.
5. Safoyev B.O‘. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2006.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Mansurov Farrux Najmitdinovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi e-mail: farruxmansurov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasi va uni rivojlantirish yo'llari, o'zgarishlar strategiyasi, xodimlarning moslashuvchanligini oshirish, tashkilot ichida xodimlar aloqasini mustaxkamlash, xodimlar motivatsiyasini oshirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, o'zgarishlar, motivatsiya, tajriba, ko'nikma, kommunikatsiya, keys.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие человеческого капитала и пути его развития, стратегия изменений, повышение гибкости сотрудников, укрепление отношений между сотрудниками внутри организации и повышение мотивации сотрудников.

Ключевые слова: человеческий капитал, изменения, мотивация, опыт, навыки, общение, кейс.

Abstract: This article discusses the concept of human capital and ways of its development, change strategy, increasing employee flexibility, strengthening employee relations within the organization, and increasing employee motivation.

Key words: human capital, changes, motivation, experience, skills, communication, case.

Zamonaviy dunyoda tashkilotlar, korxonalar va muassasalar tez o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga doimiy ravishda moslashish zarurati bilan duch kelmoqdalar. Iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar kompaniyalardan moslashuvchan bo'lishni va qiyinchiliklarga tezda javob berishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitali o'zgarishlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun hal qiluvchi omilga aylanadi. Ushbu maqola inson kapitalini rivojlantirish va o'zgarishlarni boshqarish o'rtasidagi munosabatlarni nazariy jihatlarni ko'rib chiqadi, amaliy misollar va tashkilotlar uchun tavsiyalar beradi. Inson kapitali bu shaxslar tomonidan olingan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va boshqa xususiyatlarning yig'indisi sifatida ta'riflanishi mumkin, bu ularning samaradorligi va tashkilotga foyda keltirishiga yordam beradi. Inson kapitali bir nechta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim va o'qitish: Rasmiy ta'lim darajasi va xodimlarning doimiy kasbiy tayyorgarligi. Ta'lim—bu insonning bilimi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ta'lim jarayoni rasmiy va norasmiy muhitlarda amalga oshirilishi mumkin, masalan, maktablarda, universitetlarda, kasb-hunar kollejlarda yoki kundalik hayotda. Ta'limning asosiy maqsadi – insonlarni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlashdir. O'qitish – bu bilim, ko'nikmalar va qobiliyatlarni boshqalarga yetkazish jarayonidir.

2. Ko'nikma va malakalar: Ta'lim va tajriba orqali olingan amaliy va nazariy ko'nikmalar.

Ko'nikmalar 2 xil bo'ladi

a) shaxsiy ko'nikmalar: muloqot ko'nikmalari, vaqtni boshqarish, muammoni hal qilish, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash.

b) professional ko'nikmalar: liderlik, texnik ko'nikmalar, loyiha boshqaruvi, moliyaviy ko'nikmalar.

3. Ijodkorlik va innovatsiya: Yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati.

O'zgarishlarni boshqarish bu tashkilotni hozirgi holatidan istalgan kelajakdagi holatiga o'tkazish uchun tizimli yondashuvga asoslangan jarayo bo'lib, bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'zgarishlar zarurligini anglash: tashkilotning barcha darajalarida o'zgarishlar zarurligini tan olish va anglashdan iborat.

2. O'zgarishlar strategiyasini ishlab chiqish: Maqsadlar, vazifalar va o'zgarishlarga erishish yo'llarini aniqlash.

3. Manfaatdor tomonlarni jalb qilish: o'zgarishlar jarayoniga xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarni faol jalb qilish.

4. O'zgarishlarni amalga oshirish: Rejalashtirilgan o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha aniq qadamlar va harakatlar.

5. O'zgarishlarni baholash va mustahkamlash: Natijalarni baholash va erishilgan o'zgarishlarni mustahkamlash choralari ko'rish.

Inson kapitalini rivojlantirish xodimlarning moslashuvini yaxshilaydi, bu o'zgarishlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun kalit hisoblanadi. Yuqori darajadagi bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlar yangi sharoitlarga tez moslasha oladilar, yangi texnologiyalar va ish uslublarini o'zlashtira oladilar. O'z xodimlarini o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritadigan kompaniyalar o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar. Tashkiliy madaniyatni mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish innovatsiyalar va doimiy takomillashtirishga qaratilgan kuchli tashkiliy madaniyatni rivojlantiradi. O'zgarishlarni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy madaniyat o'zgarishlarni boshqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Kompaniyaning qadriyatlarini hurmat qiladigan va o'zgarishlarga tayyor bo'lgan xodimlar o'zgarish jarayonining faol ishtirokchilari va tarafdorlari bo'lishadi. Inson kapitalini rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar xodimlarning faolligini va motivatsiyasini oshiradi. Ishga jalb qilingan g'ayratli xodimlar o'zgarishlar jarayonlarida faolroq ishtirok etadilar, o'z g'oyalari va yechimlarini taklif qiladilar, bu esa o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Yuqori darajadagi majburiyat o'zgarishlarga qarshilikni kamaytiradi, bu ko'pincha o'zgarishlarni boshqarishning asosiy muammolaridan biridir.

Yaxshi kommunikasiya, tashkilot ichidagi aloqalarni yaxshilashga yordam beradi. Kompaniyaning turli darajalari va bo'limlari o'rtasidagi samarali aloqa o'zgarishlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirishni osonlashtiradi. Yuqori darajadagi muloqot qobiliyatiga ega bo'lgan xodimlar ma'lumotni yaxshiroq

tushunish va yetkazish qobiliyatiga ega, bu o'zgarishlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keys tadqiqotlari

1-misol: Google

Google o'zining innovatsiya madaniyati va uzluksiz o'rganishi bilan mashhur. Google o'quv dasturlari, ichki seminarlar va bilim almashish orqali inson kapitalini rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlaydi. Bu kompaniyaga texnologik muhitdagi o'zgarishlarga tezda moslashish va bozor yetakchisi bo'lib qolish imkonini beradi. Masalan, Google muntazam ravishda "innovatsion vaqt"ni, (vaqtning 20 foizini) yani xodimlarini kasbiy rivojlanishi uchun vaqt ajratadi, bunda xodimlar o'z loyihalari ustida ishlashlari mumkin, bu esa yangi g'oyalar va yechimlarni yaratishga yordam beradi.

2-misol: General Electric (GE) 1980 va 1990 yillarda Jek Uelch boshchiligida GE o'zining tuzilishi va strategiyasiga keng qamrovli o'zgarishlar kiritdi. Muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri o'qitish, maslahat berish va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan yetakchilikni rivojlantirish dasturi bo'ldi. GE shuningdek, doimiy takomillashtirish va innovatsiyalar madaniyatini faol ravishda rivojlantirdi, bu esa kompaniyaga murakkab o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va moliyaviy faoliyatini yaxshilash imkonini berdi.

3-misol: IBM 2000-yillar boshida IBM o'sib borayotgan raqobat va IT xizmatlari bozorida o'zgarishlar sharoitida o'z biznesini qayta qurish zarurati bilan duch keldi. Kompaniya xodimlarni yangi texnologiyalar bo'yicha o'qitish, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va innovatsion madaniyatni yaratishni o'z ichiga olgan inson kapitalini rivojlantirishga katta mablag' sarfladi. Bu IBM kompaniyasiga yangi biznes modeliga muvaffaqiyatli o'tish va bozordagi o'z mavqeini mustahkamlash imkonini berdi.

Tashkilotlar uchun tavsiyalar

1. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritilsa, muntazam o'qitish va rivojlanish dasturlari inson kapitalini rivojlantirishga va xodimlarning moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi.

2. Kuchli tashkiliy madaniyatni shakllantirish: Innovatsiyalar va doimiy takomillashtirishga qaratilgan madaniyatni saqlash xodimlarni o'zgarish jarayonlariga jalb qilib va ularning tashabbuslarini rag'batlantirish.

3. Samarali muloqotni ta'minlash: Kompaniyaning turli darajadagi bo'implari o'rtasida ochiq va samarali muloqot uchun sharoit yaratish aloqalarni yaxshilash zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

4. Xodimlarni faol rag'batlantirib borish, ularning yutuqlarini tan olish, martaba rivojlanishi imkoniyatlari va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish orqali xodimlarning faolligi va motivatsiyasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

5. O'zgarishlar strategiyasini baholash o'zgarishlarni amalga oshirish natijalariga muntazam ravishda kerakli tuzatishlarni kiritish, jarayonlarni yanada takomillashtirish uchun olingan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Inson kapitalini rivojlantirish va o'zgarishlarni boshqarish zamonaviy tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan o'zaro

bog'liq jarayonlardir. O'z xodimlarining rivojlanishiga sarmoya kiritadigan kompaniyalar ko'proq moslashuvchanlik, innovatsiyalar va xodimlarni jalb qilish shaklida katta foyda oladi. Bu omillar o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi va bozorda raqobatdosh ustunliklarni ta'minlaydi. Shunday qilib, dinamik o'zgaruvchan tashqi muhitda barqaror o'sish va muvaffaqiyatga intilayotgan kompaniyalar uchun inson kapitalini rivojlantirish strategik ustuvor vazifa sifatida qaralishi kerak. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritish, kuchli tashkiliy madaniyatni shakllantirish, kommunikatsiyalarni yaxshilash va faollik va motivatsiyani oshirish ushbu maqsadga erishishning kalitidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Inson kapitali va o'zgarishlarni boshqarishning nazariy asoslari:

- Bekker, G. S. (1993). Inson kapitali: Ta'limga maxsus havola bilan nazariy va empirik tahlil. Chikago universiteti matbuoti.

- Shults, T. V. (1961). Inson kapitaliga investitsiyalar. American Economic Review, 51(1), 1-17.

2. Tushman, M. L. va O'Reyli, C. A. (1997). Innovatsiyalar orqali g'alaba qozonish: Tashkiliy o'zgarishlar va yangilanishlarni boshqarish bo'yicha amaliy qo'llanma. Garvard biznes maktabi matbuoti.

3. O'zgarishlarni boshqarish usullari: - Kotter, J. P. (1996). Yetakchi o'zgarish. Garvard Business Review Press.

TA'LIM JARAYONIDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

D. Xabibulloyev,

*mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tel.: 998935694944. dr.xabibulloyev@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida o'qitish jarayonini, uni unumdorligini oshirishda mobil ilovalarning o'rnini va ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari, hozirgi dunyo mobil bozorida ta'lim uchun yaratilgan mobil ilovalari imkoniyatlari ham tahlil qilingan

Абстрактный: В данной статье анализируются роль и значение мобильных приложений в совершенствовании учебного процесса в системе образования, их преимущества и недостатки, а также возможности мобильных приложений, созданных для образования в условиях современного глобального мобильного рынка.

Annotation: This article analyzes the role and importance of mobile applications in improving the educational process in the education system, their advantages and disadvantages, as well as the capabilities of mobile applications created for education in the modern global mobile market.

Kalit so'zlar: mobil ilova, ta'lim sohasi, mobil qurilmalar, iPhone, Android, planshet, axborot texnologiya.

Ключевые слова: мобильное приложение, образование, мобильные устройства, iPhone, Android, планшет, информационные технологии.

Key words: mobile application, education, mobile devices, iPhone, Android, tablet, information technology.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning eng asosiy vazifamiz, yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev

Hozirgi kunda iPhone dan tortib, Android gadgetlargacha turmush tarzimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda maktab o'quvchilaridan tortib katta yoshgacha bo'lgan mobil operatorlar foydalanuvchilarida aqlli telefon va planshetlardan foydalanayotganligini guvohi bo'lyapmiz.

Yuqori texnologiyalar asrida mobil ilovalardan kundalik hayotda foydalanish allaqachon oddiy narsaga aylanib ulgurdi.

Texnologiyalar rivojlanishining rivojlangan davridan beri ma'lumot olishning oddiy va arzon usullarini taqdim etishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda ma'lumot almashish har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Telefonlar, planshet kompyuterlar, smartfonlar kabi qurilmalar esa raqamli hayotning asosiga aylandi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan elektron qurilmalar tobora ko'proq prosessorlarni qabul qiladi, bu ularga tobora murakkab vazifalarni bajarishga, shuningdek, ko'proq ma'lumot oqimini qayta ishlashga imkon beradi. Mobil qurilmalardan keng foydalanish: Mobil telefonlar va planshetlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Aksariyat odamlar mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega, bu esa mobil ilovalardan foydalanishni ta'lim olishning qulay usuliga aylantiradi.

Moslashuvchanlik va harakatchanlik: Mobil ilovalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkonini beradi. Talabalar ma'lum bir joyga yoki vaqtga bog'lanmagan holda materiallarni o'rganishlari, topshiriqlarni bajarishlari, o'qituvchilar va kursdoshlar bilan muloqot qilishlari mumkin.

Ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish: Mobil ilovalar, ayniqsa, an'anaviy ta'lim tizimiga kirish imkoniga ega bo'lmagan odamlar uchun foydali bo'lishi mumkin, masalan, geografik masofa yoki cheklovlar tufayli. Ular chekka yoki kam ta'minlangan hududlarda, shuningdek, nogironlarga ta'lim olish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar va vositalar: Mobil ilovalar sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat, ma'lumotlar tahlili va ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradigan boshqa vositalar kabi zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Mobil ta'lim (M-Learning) – bu vaqt makondan qat'i nazar mobil qurilmalar orqali o'qish imkoniyatidir. Mobil ta'lim – bu joylashgan o'rindan yoki o'quvchilarning joylashuvining o'zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o'qishdir. Shunday qilib, o'quv jarayoni tashkiloti uchun zamon va makondan qat'i nazar mobil ta'lim mobil texnologiyani alohida, hamda boshqa axborot va aloqa texnologiyalari bilan birgalikda qo'llashni nazarda tutadi. Mobil texnologiyalar to'xtovsiz keng tarqalib bormoqda. Qurilmalar bozorida bunday qurilmalarning ko'plab turlari namoyish etilgan. Odatda mobil qurilmalar deganda

choʻntak komyuterlari, smartfonlar, planshetlar va mobil telefonlar tushuniladi, lekin odamlar kundalik faoliyatida ishlatuvchi boshqa har qanday ixchamlashtirilgan qurilmalar evaziga bu roʻyxatni kengaytirish mumkin. Mobil taʼlim odatda “tarkib boʻyicha yengil” deb hisoblanadi, va koʻproq oʻquvchilarga audiomateriallar yetkazib berishda, matnli xabarlar almashinuvida, soʻrovlarda qatnashishda, matnli chatlarda, konspekt qilish va koʻrishda ishlatiladi.

Mobil taʼlim – bu faqatgina nazariy ehtimollik emas ayni mavjud narsadir. Turli davlatlardan ishtirok etuvchilar va pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng marifiy resurslardan foydalanish imkoniga ega boʻladilar, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni boshqa oʻquvchilar bilan boʻlishishlari mumkin, hamkasblardan va oʻqituvchilardan madad olishlari shuningdek, samarali aloqani yoʻlga qoʻyishlari mumkin.

Mobil qurilmalarning afzalliklari: aloqa sifatini oshirish. Mobil qurilmalar oʻqituvchi va talaba oʻrtasida tez va sifatli aloqa oʻrnatishni osonlashtiradi. Talabalarning fikr-mulohazalari oʻqituvchilarga maʼlum bir talaba uchun talabalar faoliyatini alohida kuzatish imkonini beradi.

Har xil turdagi texnologiyalar bilan amaliy ish - nafaqat oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha materiallarga, balki qoʻshimcha bilimlarga ega boʻlish, har xil turdagi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, bu oʻquvchilarning kerakli bilim darajasiga erishish imkoniyatini beradi.

Afzalliklarga qaramay, albatta maʼlum kamchiliklar ham mavjud:

Mobil ilovalardan foydalanishning oʻsishi bilan muloqotchanlik rivojlanishining pasayishi kuzatilmoqda, chunki talabalar va oʻqituvchi oʻrtasidagi aloqa minimallashtiriladi. Shuning uchun oʻqitishning bu shakli muloqot qobiliyatlari, ishonch, etakchilik, shuningdek, jamoada ishlash qobiliyati kabi fazilatlarni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi;

Ayrim hududlarda gadgetlardagi ilovalarning qulay ishlashidan foydalanish uchun zarur boʻlgan bepul Internetga ulanish bilan bogʻliq qiyinchiliklar, yuqori sifatli mobil ilovani ishga tushirish uchun kapital moliyaviy xarajatlar texnik qurilma bilan ishlash imkoni boʻlmaganda, materialni oʻrganishda, shuningdek, uni oʻzlashtirishda boshqa qiyinchiliklar paydo boʻlishi mumkin bir qator mobil ilovalarda mavjud boʻlmagan katta matn parchalarini oʻqishda diqqatni jamlashning yoʻqolishi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mobil ilovalardan fanlarni oʻqitishda foydalanish professor-oʻqituvchilar va talabalar uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Mobil ilovalar asosida taʼlim muassasalarida oʻquv jarayonini tashki qilish oʻquv materiallarini fanning soʻngi yutuqlari asosida tezkor tarzda yangilab borish bilan bogʻliq bir qator yangiliklar tugʻdiradi. Taʼlimni mobil ilovalar asosida oʻqitish koʻproq taʼlimning individuallashtirishiga olib keladi. Buning natijasida talaba oʻzini mustaqil izlanishi natijasida individual ishlash qobiliyati rivojlanadi, oʻzlashtirish koʻrsatkichlari rivojlanadi. Mobil ilovalar tarkibiga kiritilgan nazorat ishlari talabani oʻzlashtirish jarayonini monitoringini olib borishi bilan amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lazizbek Olimovich Daminov and Jamoliddin Pardaboyugli Turdiev Zebo Sharipovna Tukhtaeva, Nigora Zakiraliyeva Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – №. 4. – С. 6669-6674

2. Хашими С. Разработка приложений для Android / С. Хашими, С. Коматинени, Д. Маклин. - СПб.: Питер, 2011. - 736 с.

3. Сайт разработки в AndroidStudio. - URL: <https:// developer.android.com> (дата обращения: 4.02.2018).

4. Ресурс для IT-специалистов. Хабра- Хабр. - URL: <http://habrahabr.ru/> (дата обращения: 4.02.2018).

GOOGLE FORM DA ONLAYN TEST VA SO‘ROV NOMALAR YARATISH ASOSLARI

Oqnezarov To‘liq Jalilovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). tel: +998937247062; e-mail: tulqinjalilovich@gmail.com.

To‘g‘izboyev Faxriddin Ulashovich,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasida katta o‘qituvchisi tel: +99891-548-66-47; e-mail: tugizboyev0711@gmail.com

To‘xtayeva Mashhura Shuhratjon qizi,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Matematika va informatika yo‘nalishi 3 bosqich talabasi.

Annotatsiya: Maqolada Google Forms platformasidan qanday foydalanish va unda qanday testlar va so‘rovnoma yaratish imkoniyatini borligi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: onlayn test, so‘rovnoma, platforma, Google, Docs, Sheets, Slides, savollar, javoblar.

The summary: The article will tell you how to use the Google Forms platform and what tests and surveys it is possible to create.

Key words: online test, survey, platform, Google, Docs, Sheets, Slides, questions, answers.

Hozirgi kunda jamiyatni rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan, texnika va texnologiyani rivojlanishining innovasion modellariga o‘tish bilan xarakterlanadi. Bunda esa kompyuter, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar katta mavqeyga va ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda ta‘lim jarayonini kompyuterlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirish muammolari muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ana shunday masalalardan biri onlayn test yoki so‘rovnomalar yaratish uchun zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan keng foydalanish uslubiyatini yaratishdir.

Bugungi kunda onlayn test yoki so‘rovnomalar yaratishni tashkil etishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda.

"Google Form da onlayn test va so‘rovnomalar yaratish" mavzusida maqolada Google Forms platformasidan qanday foydalanish va unda qanday testlar va so‘rovnomalar yaratish imkoni borligi haqida ma’lumot beriladi.

Google Forms, onlayn anketlar, so‘rovnomalar, va testlar yaratish uchun bepul xizmatdir. Bu xizmat, Google tomonidan taqdim etiladi va Google Docs, Sheets, va Slides bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Google Forms, foydalanuvchilarga qulay interfeys orqali so‘rovnomalar va anketlar yaratish, ulashish, va boshqarish imkonini beradi.

Google Forms yordamida foydalanuvchilar qisqa javobli, bir tanlovli, ko‘p tanlovli, ochiladigan ro‘yxat, fayllarni yuklash va boshqa elementlar orqali shakllanadigan savollar yaratishadi. Shuningdek, foydalanuvchilar javoblar uchun nazorat panellari va ma’lumotlar statistikasini ko‘rishlari mumkin.

Google Forms foydalanuvchilar uchun oson, tez va bepuldir, shuningdek, natijalar avtomatik ravishda jamlangan va analiz qilinishi, qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega. Bu xizmatni ishlatish uchun faqat Google hisobiga ega bo‘lish kerak.

Google Forms platformasidan foydalanish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirishingiz kerak:

1. Google hisobga kiring: Google Forms xizmatidan foydalanish uchun google.com/forms manziliga kirish kerak.

2. Yangi shakl yarating: Forms sahifasida “Yangi shakl yaratish” tugmasini bosib yoki shakllar ro‘yxatidan birini tanlang.

3. Savol va elementlarni qo‘shing: Yangi shakl yaratilganda, sizga savollar va elementlar qo‘shish imkoniyati beriladi.

4. Shaklni tahrirlang va sozlang: Savollar, javob variantlari va qo‘shimcha tuzatishlar kiriting. Shaklni foydalanuvchining xoxishiga mos ravishda sozlash imkoniyatlari mavjud.

5. Shaklni tarqatish va ulashish: Shakl tayyor bo‘lganda, uni tarqatishingiz va unga kirishingiz mumkin. Ulashish havolasi yoki HTML kod orqali shaklni boshqa sahifalarda ulashish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

6. Javoblar va natijalar: Savollarga olingan javoblar va natijalar statistikasi Forms panelida ko‘rsatiladi. Bu yerda javoblarni ko‘rib chiqish, analiz qilish va natijalar haqida ma’lumot olishingiz mumkin.

7. Shakllarni boshqarish: Shakllarni tahrirlash, o‘chirish, yoki qo‘shishni hohlagan vaqtda amalga oshirishingiz mumkin. Shuningdek, shakllarni PDF yoki Excel formatlarida yuklab olishingiz ham mumkin.

Google Forms platformasi sodda, qulay va bepuldir, shuningdek, foydalanuvchilar uchun savollar va so‘rovnomalar yaratishda qulayliklar beradi.

Google Forms platformasida matn, rasm, video va boshqa elementlarni qo‘shishning qulay imkoniyatlari mavjud. Bu imkoniyatlar sizga savollar va javoblar shakllantirishda kreativlik qo‘shishga imkon beradi. Quyida bu elementlarni qo‘shishni ko‘rishingiz mumkin:

1. Matn maydonlari: Matn maydonlari yordamida savollar yoki izohlar yaratishingiz mumkin. Bu, oddiy matn qo‘shish imkoniyatini beradi.

2. Rasmlar va grafikalar: Rasmlar yoki grafikalar qo‘shishingiz mumkin, bu foydalanuvchilarga misol ko‘rsatish va kontekstni anglashda yordam beradi. “Rasm” tugmasini bosib, kerakli rasmlarni yuklash va testga qo‘shish mumkin.

3. Videolar: Google Forms platformasida videolar qo‘shishingiz mumkin. Bu, qiziqarli va dinamiklik qo‘shadi. “Video” tugmasini bosibng YouTube linkini kiritib kerakli videoni testga qo‘shishingiz mumkin.

4. Boshqa elementlar: Boshqa elementlar yordamida foydalanuvchilardan matn kiritishni talab qilishingiz mumkin, misol uchun, matn qismini taqdim etish yoki e-pochta manzilini so‘rash.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda test o‘qvuchi (talaba) bilimni opeativ baholashning eng samarali usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, testlar, xususan, onlayn testlar so‘rovlar, anketalar, ma’lum bir sohaning reytingini aniqlashda ham qulay vosita hisoblanib, natijalarning tezkorligi bilan boshqa baholash mezonlaridan ajralib turadi. Google Forms ham mana shunday imkoniyatni taqdim etib, kursga test joylashtirishning bir necha xil variantlarini taqdim etadi. Ayniqsa, Google Forms yordamida yaratilgan testlar foydalanishdagi qulayligi jihatidan barcha jabhalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Google Formsdagi har bir shakl veb-sahifa bo‘lib, unda anketa (anketa) yoki viktorina (quiz) joylashtirilgan – tanlovda bir yoki bir nechta ishtirokchilar qatnashadigan va savollarga javob beradigan tanlov hisoblanadi.

Bu imkoniyatlar Google Forms platformasini ko‘proq ilmiy va amaliy tajribaga mos vosita qilish imkonini beradi. Bu orqali foydalanuvchilar aniq va to‘liq javoblarni taqdim etish va tahlil qilish uchun yaxshi sharoit yaratiladi.

Maqola foydalanuvchilarga Google Forms platformasida testlar va so‘rovnomalar yaratishga, tizimning imkoniyatlarini va qulayliklarini tushuntirishga yordam beradi. Bu mavzuda qiziqarli namunalar, o‘zlashtirilgan yo‘riqnomalar va tavsiyalarni taqdim etish maqbul bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lardinois, Frederic (July 10, 2017). "Google updates Forms with intelligent response validation, cross-domain uploads and more". TechCrunch. AOL. Retrieved July 11, 2017.

2. Duino, Justin (July 10, 2017). "Google Forms becomes more powerful w/ new Intelligent response validation, 'Checkbox grid' questions, more". 9to5Google. Retrieved July 11, 2017.

3. Сервисы Google в образовании <http://e-asveta.adu.by/index.php/distancionni-vseobuch/obuchenie-online/servisy-google-v-obrazovanii>

4. <http://google.com/forms>

5. Egencia (2018). What is a Chatbot and How does it work? Retrieved March 9, 2019 from: <https://www.youtube.com/watch?v=38sL6pADCog>

6. Hattie, J. (2012). Visible learning for teachers: Maximizing impact on learning: Routledge. <https://chatbotsmagazine.com/a-visual-history-of-chatbots-8bf3b31dbfb2>

7. A.A.Omonov, F.U.To‘g‘izboyev Informatika fanidan nazoratlar o‘tkazishda yangi innovatsion texnologiyalar. Ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 30-mart 2017 yil. Qarshi.

INFOGRAFIK AXBOROTLAR TALABALARNI IJODKORLIKKA YO‘NALTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

To‘g‘izboyev Faxriddin Ulashovich,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasida katta o‘qituvchisi, Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi e-mail: tugizboyev0711@gmail.com, tel: +99891-548-66-47

Annotatsiya: Maqolada pedagogika ta‘lim muassasalarida talabalarning kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida o‘quv jarayonida infografikadan foydalanishning mantiqiy asoslari haqida so‘z boradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda infografikadan foydalanishning uslubiy masalalari va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika ta‘lim muassasalari talabalari, infografika, vizual qobiliyat, vizual texnologiyalar, kompetensiyani shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmonida mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat va e‘tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

“2022 – 2026 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmonining 7-bandida “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar (keyingi o‘rinlarda — zamonaviy metodikalar) bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy qilish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin” degan jumlar keltirilgan.[1]

Shulardan kelib chiqqan holda, jamiyatni, qolaversa bugungi kun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar bilan boyitish hamda dars jarayonida hosil bo'ladigan, qayta ishlanishi kerak bo'lgan axborotlar hajmi ortib bormoqda. Bu esa, zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib borayotganligini anglatadi. Bunday sharoitda ta'limni, shu jumladan o'qituvchi-pedagoglarni kerakli axborot manbalari bilan ta'minlash, ularni qayta ishlash usullari bo'yicha kerakli bilim va malakalarini, ya'ni kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim omillaridan biri – bu, talabarni ya'ni bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni bilishi zarurligidir. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi faoliyati davomida o'z ustida ko'proq ishlashga bo'lgan talabning va kasbiy faoliyatga bo'lgan kompetensiyalarning shakllanganligi muhim hisoblanadi.

Har bir o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha hosil bo'layotgan axborotlar oqimini muhimligi va zarurligini bilishi, mustaqil axborotlarni ishlashi, turli manbalardan, shu jumladan Internet tarmog'idan axborotlarni olishi, ularni o'quvchilar tushunadigan ko'rinishda ifodalashi hamda dars jarayonida mashg'ulotlarni olib borishda samarali foydalanishi lozim. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi nafaqat muhim bilim va malakalarga ega bo'lishi, balki kasbiy madaniyatning asosiy turi- shaxsning kasbiy kompetensiyasini shakllantirgan holda dars jarayonida faol ishtirok etishi va o'zining iqtidorini hamda qobiliyatini namoyon qila olishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ularda doimiy ravishda bilimga bo'lgan qiziqish va intilishini uyg'otish, axborotlarni izlash, saqlash, saralash hamda olingan ma'lumotlar ustida ishlash, ularni baholash ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish kabi xususiyatlarini yoritadi.

Talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining muhim qiyinchiliklaridan biri shundaki, ko'pchilik o'qituvchilar axborotlar bilan ishlash bo'yicha kerakli malakaga ega emas, kerakli so'rovlarni talab darajasida bayon eta olishmaydi, hisobotlarni, matnli hujjatlarini, o'quv dasturlarini tuzishda va tayyorlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ana shu maqsadda zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'rganish ob'yekti sifatida, ya'ni o'qituvchilar yangi axborot texnologiyalar, ularning tarkibiy qismlar va foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar;

axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida, ya'ni o'qituvchilar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish yuzasidan yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'ladilar;

o'quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni bo'lajak o'qituvchilar ta'limning barcha ish faoliyati, shu jumladan o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-

tatqiqot ishlari samaradorligini oshirishda axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish vositalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallaydi;

bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy-tatqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish bo'yicha bilim va malakalar shakllantiriladi.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy e'tibor axborot resurslari va jamiyatning axborotlashuvi, Internet tarmog'idan axborotlar izlash va topish, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot texnologiyalari asosida o'quv-uslubiy va pedagogik tadqiqot faoliyatlarini shakllantirish yuzasidan bilim va malakalarni shakllantirishga qaratish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan tashqari, ma'lumotlarni vizual taqdim etish usuli, ya'ni INFOGRAFIKAdan foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirishning asosiy vositalari sifatida o'quv jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.

Infografika – so'nggi o'n yilliklar ichida mashhur marketing va ma'lumotlarni vizual taqdim etish vositasiga aylangan bo'lsa-da, dizaynning ushbu sohasini tavsiflash uchun ishlatiladigan turli xil atamalar haqida bir qancha savollar paydo bo'ladi. Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, axborot dizayni, vizual kontent va infografika o'rtasidagi bir muncha farqlar seziladi. Infografika - bu grafiklar, diagrammalar, xaritalar, jadvallar va boshqalar yordamida ma'lumotlarning vizual taqdimoti dizayn elementlari murakkab ma'lumotlarni aniq va samarali etkazish. Infografika matn va grafik ma'lumotlarni birlashtirib, ma'lumotlarning vizual va tushunarli tasvirini yaratishdir.

Infografikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Vizuallik: Axborotni taqdim etish uchun grafik elementlar, ranglar va shakllardan foydalanish.

Aniqlik: Axborotni qulay va tushunarli shaklda taqdim etish.

Tuzilishi: Mantiqiy tuzilish va ketma-ketlikdan foydalangan holda ma'lumotlarni tartibga solish.

Samaradorlik: Axborotni ortiqcha va bosimlarsiz uzatish maqsadiga erishish.

Infografika ko'pincha statistika, jarayonlar, taqqoslash, murakkab tushunchalarni tushuntirish va boshqalarni ko'rish uchun ishlatiladi. Masalan, grafiklar, doiraviy diagrammalar, xaritalar, ko'rsatmalar, vaqt jadvallari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish shakllari.

Infografikadan foydalanishning afzalliklari ma'lumotni tushunish darajasini oshirish, esda qolish qobiliyatini yaxshilash, auditoriyaning faolligini oshirish va qaror qabul qilishni osonlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, infografikaning qo'llanilishi juda katta va shu bilan birga ularni kengaytirish tendentsiyasi mavjud. Infografikaning har doim yangi sohalarida "qamrovi" nafaqat ommaviy axborot vositalarida yoki ta'limda emas, balki fan va

hayotning turli sohalarida to‘plangan ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish usullariga ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi.

“Talabalarning kompetensiyasi” tushunchasini aniqlash uchun biz mavjud bo‘lgan “kompetentlik” va “vizual kompetensiya” tushunchalarining ta’riflariga murojaat qilsak, tahlil shuni ko‘rsatadiki, “kompetentlik” tushunchasini o‘z ichiga olgan ko‘plab manbalar mavjud. Ulardan birida kompetensiya “shaxsning fan bilimlari, individual psixologik fazilatlar, shuningdek, amaliy tajriba asosida shakllanadigan va shaxsning amaliy harakat qilish va amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati va tayyorgarligida namoyon bo‘ladigan integratsiyaviy sifati” deb tushuniladi.

Shunday qilib, kompetensiya nafaqat bo‘lajak o‘qituvchining bilimi va shaxsiy fazilatlarini, balki ularni amalda qo‘llash va ko‘rsatishga tayyorlikni ham o‘z ichiga olar ekan.

Bugungi axborot asrida vizual kompetensiyani shakllantirishning yuqori darajasi, pedagogik ta’lim muassasasi talabasi va bo‘lajak o‘qituvchining muhim kasbiy sifati hisoblanadi. Vizual kompetensiyani rivojlantirish madaniyatdagi umumiy innovatsion tendentsiyalardan, jumladan vizualizatsiya jarayonlaridan, yangi vizualizatsiya vositalarini, xususan, infografikani ishlab chiqishdan ajratilgan holda amalga oshirilmaydi. Pedagogik tadqiqotlarda infografika allaqachon boshqa mualliflar tomonidan, shu jumladan har xil turdagi kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq holda mustaqil o‘rganish ob‘yektini bo‘lgan. Ushbu maqolada infografikadan pedagogika ta’lim muassasasi talabasining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishga qaratilgan fikrlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot vizual kompetensiyani rivojlantirishda infografikadan foydalanish bilan bog‘liq barcha masalalarning to‘liq yoritib beradi, deb da’vo qilmaydi. Tadqiqotning keying bosqichlarida infografika yordamida talabaning vizual-kasbiy kompetensiyasi darajalarining dinamikasini chuqur tahlil qilish va o‘rganish ishlari olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

<https://lex.uz/docs/-6008663>

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni, 6-noyabr 2020 yil, Toshkent.

Aminov I.B., Oqnazarov T.J., To‘g‘izboyev F.U. “Ta’lim jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish.” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 1-qism. 2017 yil – Navoiy.

Селеменев С.В. Школьная инфографика // Образование в современной школе. 2010. № 2. С. 34-42.

Bakhronovna R. D. The scientific expedition of french explorer charrles eugene ujfalvy in central asia //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – T. 8. – №. 8. – С. 78-85.

F.U.To‘g‘izboyev. INFOGRAFIK AXBOROTLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Buxoro Davlat Universiteti. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 1

3-SHO'BA
**INKLYUZIV TA'LIMNI OMMALASHTIRISH: PEDAGOGIK,
PSIXOLOGIK, MOTIVATSION, INNOVATSION, INTEGRATIV VA B.
OMILLAR**

**MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY
TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Hotamov M.A.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi,

Jurayev R.M.

*SamDChTI Gumanitar va axborot texnologiyalar kafedrası dotsenti
mominxotamov@gmail.com, tel. 932230032.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalar jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya jarayonining samarali usullari ochib berilgan.

Ka'lit so'zlar: maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar, jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya, jarayon, takomillashtirish, mashg'ulotlar, usullar.

Аннотация. В статье освещена проблема развития физического воспитания детей с нарушениями интеллекта в специальных дошкольных учреждениях. Раскрыты эффективные пути физического воспитания детей с нарушениями интеллекта в специальных дошкольных учреждениях.

Ключевые слова: специальные дошкольные учреждения, дети дошкольного возраста с нарушениями интеллекта, физическое развитие, физическое воспитание, процесс, развитие, занятия, методы.

Annotation. In the article the problem of physical education of children with infringement of intelligence in special kindergartens are considered. There is revealed effective ways of physical education of children with infringement of intelligence in special kindergartens.

Key words: special kindergartens, children with impaired intelligence at preschool age, physical development, physical education, process development, classes, methods.

Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog'lom, nogiron tug'ilishi har qanday oila uchun fojidadir. Shuning uchun ham maxsus (korreksion) pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida rivojlanishida u yoki bu muammolari bo'lgan jamiyat a'zolarining ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanar ekan, ularni sog'lom jamiyat a'zolari qatorida ijtimoiy moslashuvini ta'minlashni o'z oldiga asosiy vazifa qilib oladi [1]. Shunga ko'ra maxsus pedagogika qarshisida turgan muhim vazifalardan biri oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, shuningdek, bu yo'lda ilmiy-analiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. XX asrning oxirgi o'n yilligida ko'pchilik mamlakatlarda integratsiyaning rivojlanishi hamda imkoniyati cheklangan, alohida e'tiborga muhtoj, nogiron bolalarga nisbatan davlat va jamiyatda yangi munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi bilan bog'liq muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Hozirgi paytda respublikamizda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolaga va uning ota-onasiga kompleks yordam ko'rsatiladigan muassasalar tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday muassasalar sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ta'lim tizimlarida, nodavlat tashkilotlar ko'rinishida amal qilmoqda. Bular mehribonlik uylari, nogiron bolalarni reabilitatsiya qilish markazlari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, maxsus (korreksion) maktablar, maktab-internatlar va ular qoshidagi maxsus oromgohlar va boshqalarni qamrab oladi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar tarbiyasi dasturining bo'limlaridan biri jismoniy tarbiyadir. Aqli zaif bolalar jismoniy tarbiyasining maqsadi ularning sog'lig'ini mustahamlash, to'g'ri jismoniy rivojlantirish va harakat ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. To'g'ri tashkil etilgan va tizimli ravishda amalga oshuvchi tarbiya jarayoni bolalarning garmonik rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Aqli zaif bolalarda tengdoshlariga nisbatan somatik zaiflik, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, gavda tutish hamda harakatlanish nuqsonlari kuzatiladi [2].

Aqli zaif bolalar harakat nuqsonlarini va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishini bartaraf etish maqsadidagi maxsus vazifalar bu bolalar jismoniy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Aqli zaif bolalarni to'g'ri harakatlanishga o'rgatish ta'limining asosiy vositasi, jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridir. Asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, koptok otish, osilish) yordamida bolalarda hayotiy muhim harakatlar rivojlanadi. Harakat malakalarini egallash bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, nuqsonlar korreksiyasi, ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasidagi maxsus maktabgacha ta'lim muassasalaridagi amaliyotning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar ta'limidagi muloqot qiyinchiliklariga qaramay, bu bolalar qiziqarli harakat topshiriqlarini tez va to'g'ri bajaradilar. Harakatlarni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tizimli o'tkazish faqat jismoniy rivojlanishga emas, balki butun ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda o'quv faoliyatiga qiziqish uyg'otadi, aqliy ish faoliyati, umumiy rivojlanish darajasi ortadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni jismoniy va harakat ko'nikmalarining rivojlanishini tekshirish natijasida endigina yasli bog'chaga qabul qilingan va yil mobaynida bog'chaga kelgan bolalar o'rtasidagi tafovut aniqlandi.

Ma'lum bo'ldiki, birinchi yil ta'lim olayotgan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bola avvaldan ta'lim olib kelayotgan tengdoshiga nisbatan harakat tajribasi kamligi, ruhiy va jismonan sustligi bilan ajralib turar ekan. O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida

bolalarning umurtqa pog'onasi va oyoq kaftlarida turli funksional chetlanishlar - bukrilik, yelkalar asimmetriyasi, oyoq kaftlarining deformatsiyasi aniqlandi [1].

Shuningdek, bu ikki guruhni tekshirish natijasida avvaldan yasli-bog'chada ta'lim olmagan bolalarning asosiy harakatlarni bajarish malakalarining shakllanishi orqada qolishi ham kuzatiladi. Yurish sifati, harakatlar tezligi va qat'iyiligi, harakat koordinatsiyasi holatlari avvaldan ta'lim olib kelayotgan bolalarda yaxshi rivojlangan. To'g'ri yurish va yugurish malakalari haqida ham shu gapni aytish mumkin. Ayniqsa, taqlid asosida tarbiyachi ketidan mashqlarni bajarish natijasida katta tafovutlar aniqlandi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, ta'limning turli bosqichlarida bir xil yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish va harakat ko'nikmasi holatlari turli darajada bo'lar ekan. Aqli zaif bolalar yugurishi ularning yurishlari kabi o'zining spesifik xususiyatlariga ega [1] (oyoqlarni noto'g'ri qo'yish, yon tomonlarga chayqalish, koordinatsiyaning buzilganligi, qat'iyatsizlik, to'g'ri chiziq bo'ylab yugura olmaslik va h.k.). Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalarning yugurishdagi harakatlari koordinatsiyasi yurishidagiga nisbatan yaxshiroq bo'ladi, chunki qo'l va oyoq harakat koordinatsiyalari yugurishda avvalroq paydo bo'ladi. Ammo aqli zaif bolalar bog'chasiga qabul qilingan 4 yoshli bolalarning aksariyati yugurishni bilmasligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun harakatlar aniq koordinatsiyasiga qo'yilgan talablar birinchi va ikkinchi yil ta'lim olayotgan bolalar uchun bir xil bo'ladi. Shuningdek, yugurish mashqlarini bajarishda erkin harakatlanish va bardoshni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

Mashg'ulotlarda yugurishning quyidagi turlari qo'llaniladi: tarbiyachi ketidan "to'da" bo'lib yugurish, tarbiyachi ketidan va mustaqil zalning qarshi devori tomon yugurish, tarbiyachi ketidan va mustaqil ravishda doirada kanat bo'ylab yugurish, doirada ketma-ket yugurish, predmetlar bilan yugurish, predmet tomon kanatni kesib yugurish (bittadan, ikkitadan, uchtadan bo'lib), koptok ketidan, bayroqcha tomon, tarbiyachi ketidan yo'nalishini o'zgartirib yugurish. Oyoq va bel mushaklarini mustahkamlovchi sakrash mashqlari ham mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi.

To'rt yoshli aqli zaif bolalarning harakat faoliyatini tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, avval ta'lim olmagan bolaning bu harakatni bajarishida qiyinchiliklar yuzaga kelar ekan. Bolalarning aksariyati joyida turib ketma-ket bir nechta sakrash mashqlarini bajara olmaydilar. Ular muvozanatni yo'qotadilar, diqqatlari taranglashadi. Harakatlarni tizimli takrorlash jarayoni mobaynida bolalar sakrash harakatini egallab boradilar. Joyida turib sakrashdan tashqari, mashg'ulotlarga boshqa sakrash usullari ham kiritiladi (joyida turib burilishlar bilan sakrash, oldinga intilib sakrash, o'rindiqdan sakrash, yerga qo'yilgan arqon ustidan sakrab o'tish).

Bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab, sakrash mashqlari qiyinlashib, murakkablashib boradi. Masalan, ikkinchi yil ta'lim olayotgan bolalarga birinchi mashg'ulotlardayoq joydan siljib oyoq uchida sakrash mashqlarini tavsiya etish mumkin bo'lsa, birinchi yil ta'lim olayotgan bolalarga bu mashq birmuncha kechroq taklif etiladi.

Aqli zaif bolalarda yassi oyoqlikka moyillik yuqori bo'lganligi sababli, ularga katta balandlikdan sakrash mashqlarini berish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalar

to'g'ri yerga tushish malakalarini egallamagan bo'ladilar, ular buni qo'pol tarzda, oyoqlarni to'g'ri tutib, ya'ni bukmasdan bajaradilar. Ilk mashg'ulotlardayoq bolalarga joyda sakrash, qayta sakrash, hakkalash mashqlarini yumshoq, biroz oyoq tizzalarini bukkan holda bajarishni o'rgatib borish kerak.

Bular sustlashgan mushaklarni ortiqcha jarohat olishdan asrashga yordam beradi. Tirmashish bola uchun oson va shu bilan birga foydali harakat turidir, chunki bu harakat tog'ay va mushaklarni rivojlantiradi, qo'l barmoqlari va oyoq kaftlari yordamida predmetlarni ushlab malakalarini shakllantiradi. Emaklash, tirmashish, hatlab o'tish mashqlari bolalar tomonidan katta ishtiyoq bilan bajariladi va tez o'zlashtiriladi. Biroq aqli zaif bolalarda gimnastika devoriga tirmashishda harakatlar faoliyatining buzilganligi, sustkashlik, ishonchsizlik, balandlikdan qo'rqish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, mashg'ulotlarga shu yoshdagi bolalarga oson bo'lgan cheklangan maydonda (o'rindiq bo'ylab, yassi taxtada) "to'rt oyoq"da emaklash mashqlari kiritilgan [1].

Bundan tashqari, harakat faoliyatini rivojlantiruvchi, atrof-muhitda mo'ljalga olishga o'rgatuvchi, epcillikni rivojlantiruvchi mashqlar o'tkaziladi (arqon tagidan emaklash, ko'prik-arg'imchoq, zinali piramida taxtalar orasidan o'tish va boshqalar). Tirmashish mashqlari oyoqlar va qo'llarga tayanib bajariladi. Faqat qo'llarga tayanib tirmashish bolalar uchun taqiqlanadi, chunki bu yoshdagi bolalarning yelka mushaklarini bog'lovchi apparatlari yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi, shuningdek, bu harakat turida nafas olish qiyinlashadi.

Devordan chiqishda yoki tushishda bolalar zina taxtalarini o'tkazib yubormasligi muhim. Zinadan tushish qiyinroq bo'lgani sababli ehtiyot shart bola yonida katta odamning turishi muhim sanaladi. Bolalarda turli to'siqlarni yengib o'tish malakalarini shakllantirish maqsadida gimnastika o'rindiqlari, zinali piramida taxtalari va boshqa predmetlardan hatlab o'tish mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Bolalar o'z navbatini uzoq kutib toliqmasliklari uchun emaklash va hatlash harakatlarini bir vaqtning o'zida ikkitadan bolaning bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulotlar amaliyotida keng miqyosda umumrivojlantiruvchi mashqlar ham qo'llaniladi. Jismoniy mashqlar u shug'ullanayotgan bola oranizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishidan tashqari, uning yelka, qorin, orqa kurak, oyoq mushaklariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar juda turli-tumandir. Bajarish harakteriga ko'ra ularni predmetli (bayroqcha) va predmetsiz mashqlarga bo'lish mumkin. Tarbiyachi ketidan bajariladigan harakatlar alohida e'tiborga molik. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bola hayotining to'rtinchi yilida ham ta'lim olmaganligi sababli tarbiyachi ko'rsatayotgan harakatlarni qiyinchilik bilan takrorlaydi, bir harakat faoliyatidan boshqa harakat faoliyatiga qiyinchilik bilan o'tadi, diqqati tez chalg'iydi, charchaydi.

Ba'zi bolalar harakat faoliyatini bajarishdan bosh tortadilar. Ko'rinib turibdiki, bu holatda oddiy qaytarish harakatini bajarishda organizmning funksional tayyorligi sustligi namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun tarbiyachi ketidan bajariladigan mashqlarga katta ahamiyat ajratiladi. Ular doira bo'lib o'tirgan holda hamda tikka turib erkin bajariladi. Predmetsiz mashqlar kabi bayroqchali mashqlar ham

koordinatsiyaning rivojlanishiga, harakatlar aniqligiga, reaksiya tezligiga, ko'z bilan mo'ljal olishning rivojlanishiga, diqqatni bir joyga jamlashga ko'maklashadi. Bu harakatlar tarbiyachi ketidan qaytarish orqali bajariladi.

Predmetlar bilan bajariladigan mashqlar orasida koptok yordamida bajariladigan mashqlarga alohida o'rin berilgan. Ma'lumki, bolalar koptok bilan o'ynashni juda yoqtiradilar. Vazifani bajara olish bolaning mashg'ulotga qiziqishining ortishiga, o'z xohishi bilan shug'ullanishiga olib keladi. Koptok bilan bajariladigan turli mashg'ulotlar orasida kichik yoshdagi kar bolalar uchun, umuman kichik yoshdagi bolalar uchun ham, joyda turib koptokni uzoqlikka otish oson va qulayligi bilan ajralib turadi. Bu mashq bolalar uchun foydali va qiziqarli. Tarbiyachi ko'rsatgandan keyin koptok bir qo'l bilan uloqtiriladi.

Harakat faolligining yuqori darajadagi holatini saqlash maqsadida mashqni uchtadan bo'lib bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi yil ta'lim olayotgan bolalar koptok uloqtirishni bilmasliklari tufayli uloqtirishga o'rgatishda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Bolalar koptokni uloqtirishda qiynalib, ko'pincha koptokni uzoq vaqt qo'ldan qo'ymaydilar, bezovtalanadilar, vaqtdan oldin koptokni ketidan yugurib ketadilar va h.k.

Biroq boladan keragidan ortiq talab qilib bo'lmaydi. Bolalarning koptokni uzoqroqqa uloqtirishlari uchun ular erkin harakatda bo'lishlari va mashqni turgan joyda bajara bilishlari kifoya qiladi. Tarbiyachining to'g'ri harakatlarini kuzatib borib, bolalar asta-sekin gavda va qo'l harakatlarini bajarishga o'rganib boradilar. Koptokni chap qo'lda ham, o'ng qo'lda ham otish juda foydali bo'ladi. Koptok bilan bajariladigan turli mashqlar ko'z bilan chamalash qobiliyati, chaqqonlikni va koordinatsiyaning rivojlantiradi. Koptok otish, uni ilib olish, ushlab turish mashqlari mashg'ulotlarda keng qo'llanadi.

Turli kattalikdagi koptoklardan foydalaniladi: katta (osib qo'yilgan koptokni itarish uchun), o'rta (yumalatish va ilib olish uchun), kichik (uloqtirishda, olib o'tishda, qatorda uzatish uchun). Bolalarni atrof-muhitda mo'ljal olishga o'rgatish maqsadida ularni xonada turlicha joylashtirish usullari taklif qilinadi. Mashqlarni bajarish sharoitlari asta-sekin qiyinlashadi. Ba'zi harakat turlari boshqa bir qiyinroq harakatni bajarish uchun tayyorgarlik bosqichi sifatida xizmat qiladi. Bu holda mashqni bajarish usuli va shartlari o'zgaradi.

Masalan, qorinni pastga qilib yotgan holda koptokni bir-biriga yumalatish mashqini kiritishdan avval koptokni tarbiyachi tomon yumalatish mashqi va devor tomon koptokni yumalatish mashqlarini o'tkazish lozim. Koptokni mustaqil uloqtirishdan avval bolalar tarbiyachi dumalatgan va keyin uloqtirgan koptok ketidan yugurishlari lozim. Shuningdek, mashg'ulotlarda bel va oyoq kaftlari mushaklarini mustahkamlovchi muvozanat funksiyasini rivojlantiruvchi, umurtqa pog'onasining to'g'ri shakllanishini ta'minlovchi maxsus mashqlar ham keng qo'llaniladi. Bu mashqlar korreksion mashqlar deb nomlanadi. Yil davomida takrorlanuvchi har bir harakat soni nisbatan teng bo'ladi.

Bolalar tomonidan qorin bilan yotib bajariladigan mashqlarning korreksion qiymati kattaligini alohida belgilash zarur. Bu mashqlarning barchasi orqa kurak va yelka mushaklarini mustahkamlaydi, boshqatordagi harakatlar qatorida gavidani

to'g'ri tutishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatadi. Korreksion ta'sir kuchiga ko'ra bu mashqlar bilan yassi taxtada va o'rindiqlik bo'ylab qo'lda tortishish mashqlari tenglasha oladi. Gavdani to'g'ri tutishni shakllantirishga gimnastika devoriga tirmashish, o'rindiqlikdan hatlash, zinali piramida taxtalari orasida sirg'anish kabi mashqlar xizmat qiladi.

Gavdaning to'g'ri shakllanishiga xizmat qiluvchi turli mashqlar qat'iy tartibda har bir mashg'ulotga kiritiladi. Yurish, yugurish, sakrash, tirmashish, uloqtirish va boshqa mashqlarni bajarish jarayonida muvozanat hissi rivojlanib boradi. Biroq aksariyat aqli zaif bolalarda muvozanatning buzilganligi munosabati bilan shu funksiyani joriy etishga maxsus yo'naltirilgan vazifalar mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi. Muvozanat hissini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarda tayanch maydoni kichraytirilgan mashqlar (kanat yo'l, taxta), balandligi (qiya o'rindiqlik, doska), tayanch harakatchanligi (arg'imchoq, "ko'prikcha"), joylashishi (gorizontal, vertikal) o'zgartirilgan mashqlar kiritiladi. Bu mashqlarni bir joyda va harakatda bajarish mumkin.

Doimiy mo'ljal olish shartlarini o'zgartirish orqali harakatlarni qiyinlashtirish mumkin (to'siqlarni yengib o'tish, qo'llar bilan qo'shimcha harakat bajarish, bel, yelka, bosh harakatlari). Muvozanat funksiyasining mashqi sifatida maxsus vositalar sifatida mashg'ulotlarda joyda turib aylanish va ovoz signaliga qarab o'tirish mashqi, yurish va yugurish mobaynida ovoz signali asosida to'xtash, burilishlar bilan joyda sakrash mashqlari keng qo'llaniladi. Mashg'ulotlarning taxminan yarmini predmetlar ustidan hatlab o'tish mashqlari tashkil etadi (kubiklar, tayoqlar, zina taxtalari, kanatlar). Ikkala guruhda ham oyoq uchida yurish qo'llaniladi. Ikkinchi yil ta'lim olayotgan bolalar guruhi tayyorgarligi yuqori bo'lgani tufayli yurish mobaynida oyoq tizzalarini baland ko'tarib yurish mashqi kiritilgan.

Har bir mashg'ulotda muvozanat hissini rivojlantiruvchi bitta-ikkita mashq kiritilgan. Mashg'ulot harakat faolligi darajasini saqlashga xizmat qilgani sababli, berilgan ko'pchilik mashqlar yakka (joyda aylanish, bosh harakati, oyoq uchida yurish, oyoq tizzalarini baland ko'tarib yurish), guruhli (arg'imchoq-ko'prik bo'ylab yurish, o'rindiqlik, taxtada yurish) bajariladi.

Ko'pchilik aqli zaif bolalarda yassi oyoqlik holatlari kuzatilganligi sababli, oyoq kaftlarining shakllanishiga hissa qo'shuvchi mushaklarni mustahkamlash ham muhim vazifa hisoblanadi. Mavjud yassi oyoqlik nuqsonini bartaraf etish maqsadida mashg'ulotlarga bir qator maxsus yo'naltirilgan mashqlar kiritilgan (oyoq kaftlari bilan kanatni dumalatish (stulda o'tirib), kanatni toptash, kanat bo'ylab yon tomonlarga yurish, gimnastika devorining pastki taxtasi bo'ylab yon tomonlarga harakatlanish, oyoq uchida, tovonida yurish kabilar). To'rt yoshli bolalarga nafasni rivojlantiruvchi maxsus vazifalar berishga hali ertalik qiladi. Biroq mashqlarni bajarish davomida bolalar bezovta bo'lmasliklari va to'g'ri nafas olishlarini nazorat qilib borish lozim. Nafasni rivojlantirish ma'lum darajada belgilangan yugurish va boshqa tezlik mashqlari yordamida maqsadga muvofiq olib boriladi.

Maktabgacha maxsus muassasalar ta'limining birinchi yilidayoq ta'limga nutq o'stirish, eshitishni rivojlantirish, hisob, qurish-yasash va boshqa mashg'ulotlar kiritiladi. Harakat rejimining to'g'ri tashkil etilmaganligi intensiv ta'lim jarayonida

bolalarning harakat talablarini qoniqtirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va ularning jismoniy hamda harakat faolligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun ularning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlari alohida sharoit, maxsus uslublar va usullarni talab qiladi. Har bir mashg'ulotda bolalar berilgan yuklamani his etishlari, harakat talablariga rioya qilishlari, o'zlarini harakatda namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Tartibga ko'ra har bir harakat turi bir necha marta takrorlanadi. O'quv yili mobaynida asta-sekinlik bilan harakat ko'nikmalari mustahkamlanadi va mukammallashadi. Dastur talablarini to'laqonli o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri mashg'ulotda harakat faolligining yuqori darajasini saqlash hisoblanadi. Sinfdagi bolalar soni kamligiga qaramay (12–13 bola), jismoniy va harakat faolligi imkoniyatlari teng emas. Bu esa nazorat olib borishda, yordam ko'rsatishda va baholashda indivi dual yondashishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonlarini kuzatish aqli zaif bolalar jismoniy tarbiyasi bo'yicha maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalarining yo'qligi tarbiyachilarga mashg'ulot va metodik usullarni tanlash, korreksion ishni to'g'ri tashkil etishda qiyinchilik tug'dirayotganini ko'rsatmoqda. Shusababli maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini yuqorida ko'rsatilgan tarzda tashkil etish aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish va jamiyatning yetuk a'zosi sifatida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish amaliyotida mashg'ulotni samarali o'tkazishda kattalarning munosabati ham juda muhim. Tarbiyachining ko'tarinki kayfiyati, bardamligi, faol harakatlari, to'g'ri ko'rsatmalari, tashqi ko'rinishining "a'lo"ligi bolalar faolligini oshiradi, diqqatlarini uzoq vaqt saqlay oladi, tez toliqishlarining oldini oladi.

ADABIYOTLAR:

Salomov R. S. "Jismoniy tarbiya nazariyasiva uslubiyati". O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan jismoniy tarbiya institutlari va pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya qilingan. I-II jild. Toshkent - 2014

Salamov R.S., Aripov Yu.Yu. "Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiyati asoslari". T. «Moliya». 2011

Shoumarov G'., Mamedov K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. - T.: "O'qituvchi", 1994.

Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. 2000 y. Toshkent.

Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. 2001y. Toshkent.

Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. 2002 y. Toshkent.

BOLALAR IJTIMOIYLASHUVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası mudiri, farogatm87@gmail.com, Tel:+998909385542

Azizqulov Tohir Jahongir o‘g‘li,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti Pedagogika yo‘nalishi talabasi,

Jamiyatimizning kelajagi yosh avlodning qanday tarbiya olib, shakllanishiga bog‘liq, bola shaxsini milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash, ham ruhan, ham ma‘nan, ham jismonan sog‘lom qilib o‘stirish davlatimiz oldida, qolaversa ta‘lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni bolalik davridan boshlab ijtimoiylashishi, uning jismoniy, ma‘naviy tomondan rivojlanishini hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishini ta‘min etish muhim vazifa hisoblanadi.

Bolalar ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me‘yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – “agent”lar) bu masalaga alohida e‘tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo‘lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari va ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liqdir. Bu ijtimoiylashuv jarayoni shundayki, maktab yoki boshqa ta‘lim muassasida ta‘lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o‘zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham qo‘lga kiritadi. Bular esa bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega [1, 5].

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni “ijtimoiy ta‘lim” deyiladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy obyekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o‘rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha yondashuvlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug‘aviy ma‘nosiga qaraganda bir muncha kengdir.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo‘naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhii subyektlarning uchta o‘zaro bog‘liq va shu paytning o‘zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo‘lgan jarayonlar (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko‘rsatishning o‘zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoal)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a‘zolarining o‘zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag‘batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta‘sir etish muhim ahamiyat kasb etadi[2,30].

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko'nikish, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini aniqlab olish birligidir.

Individual yordam insonga rivojlantirishga yo'naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi[3, 78].

Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadriyatlarini anglashi, o'z- o'zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan pedagogik, texnikaviy, tibbiy, xuquqiy, iqtisodiy kabi. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning subyektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir [3 , 65].

Umuman olganda o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib uning mazmuni, harakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir[1 , 34]. Ijtimoiy pedagogika o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi;

- umumtadqiqot metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash)

- umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o'rganish; qayta ishlash, umumlashtirish)

- xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhviy o'rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy fazilatlariga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);

- tarixiy metodlar tarixiy qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o'rganish;

- sotsiologik metodlar (anketa, so'rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);

- matematik – statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).

Xulosa: Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ijtimoiypedagogika mustaqil fan tarmog'i sifatida o'zining nazariy va amaliy mohiyatiga ega. U bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki kunidan e'tiboran mamlakatimizda ijtimoiy pedagogik fikrlarni rivojlantirish asosida mazkur fanni yanada mukammallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buni hozirda mazkur fan bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining keng ko'lamda olib borilayotganligi, matbuot sahifalarida esa bu boradagi tadqiqot natijalarining, ilg'or pedagogic tajribalarning yoritilib borilayotganligi bilan izoxlash mumkin. Ushbu fanning o'qitilish samaradorligi esa:

- DTS, fan dasturi talablariga javob beradigan darslik va qo'llanmalarning bir necha variantlarda yaratilishi;

- mashg'ulotlar jarayonida ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llashga doir ishlanma, tavsiyalarning ishlab chiqilishi;
- o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning qonuniyat va tamoyilidagi uzviyligiga amal qilinishi;
- o'qitishda ta'limning zamonaviy va innovatsion usullari (tanqidiy fikrlash, aqliy xujum, kichik guruhlar bilan ishlash, muammoli topshiriqli, "debat", "klaster" kabi) ning qo'llanishi;
- mashg'ulotlar jarayonida multimediyali va masofali o'qitishning amalga oshirilishi;
- o'qitishda fanlararo uyg'unlikning amalga oshirilishi;
- talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish shakllarining boyitilishi;
- ilg'or pedagogik tajribalarning ommalashtirilishi;
- omma orasidagi ijtimoiy holat, kayfiyatni o'rganishga doir sotsiologik tadqiqotlarga talabalarni keng jalb etilishi;
- ijtimoiy pedagogika bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni pedagogik amaliyotga tadbiiq etish kabilar bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov M.Q. Qurboniyazova Z.Q. Ijtimoiy pedagogika. T.: 2003
2. Sotsialnaya pedagogika M.A.Galaguzova taxririyaatida. Moskva «Vlados», 2000
3. Begmatov A., Qurayev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to'plami, 1998.

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sobirova Nafisa Yangiboy qizi,

Urganch davlat pedagogika institute "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, inklyuziv ta'lim jarayonida tarbiya texnologiyalari va ularni ta'limda qo'llashning o'ziga xos jihatlari, komil insonni tarbiyalashda tarbiya turlari va tarbiya metodlari, tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlash, maqsad va unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lish shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar, shaxsni kamol topishida tarbiyaning o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, tarbiya, tarbiya texnologiyalari, komil inson, o'z-o'zini tarbiyalash, metod.

Kirish

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Inklyuziv ta'limni chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarni asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki

inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'i nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shuni borki, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi.

Asosiy qism

Inklyuziv ta'lim - (frantsuzcha inklyuziv - shu jumladan), umumiy ta'lim (ommaviy) maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Inklyuziv ta'lim - mavjud jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, lingvistik va boshqa xususiyatlarga qaramay, har bir bolaga umumiy (yagona, yaxlit) ta'lim va tarbiya (rivojlanish va ijtimoiylashuv) jarayoniga qo'shilish imkoniyatini beradigan ta'lim, bu esa o'sib ulg'aygan shaxsning jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishiga imkon beradi, ajralish va izolyatsiya xavfini kamaytiradi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta'lim tizimida qo'yiladigan maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish nafaqat mazkur soha yuzasidan bilimlarga ega bo'lishnigina talab qilib qolmasdan, balki o'qituvchi va o'quvchi yoshlar uchun alohida nuqsonli bolalar bilan birgalikda hamkorlikni to'g'ri tashkil qilish, mehr-muruvvat ko'rsatish, yordam berish, kamsitmaslik, ta'lim

jarayonida alohida yordamga muhtoj bolalarga o'zini rivojlantirishga undash maqsadida turli xil motivatsion faoliyatlarning tarbiyaviy jihatlarini o'rganishi va ularni birgalikda amalga oshirishni o'rganishi lozim. Alohida nuqsonli bolalarning istak-xohishlarini amalga oshirishda guruhdagi sog'lom bolalar bilan hamkorlikda ish faoliyatini olib borish kerak. Masalan, tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolaning sport bo'yicha qiziqishlarini amalga oshirish uchun aynan shu bola holatini his qilib o'yinlar o'ynash ham aynan mazkur tipdagi bolani yanada ta'limdagi faoliyatini rivojlantiradi.

Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'ligi bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birlikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqida bilimlarni oshirishga xizmat qiladi[2].

Inklyuziv ta'limda ko'zlangan maqsadlarga erishishda eng avvalo farzandlarga oilada to'g'ri tarbiya berish lozim. Tarbiya jarayoni eng avvalo jamiyatning eng kichik bo'g'ini oiladan boshlanishi, tarbiyani to'g'ri shakllantirish, odob-axloq qoidalarini yoshlarga singdirishda mutafakkirlarning asarlarida ham qimmatli fikrlar krltirilgan. Jumladan, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Odob as-solihin" asarida komil inson bo'lib yetishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari borasida so'z yuritiladi. [5]. Odob-axloqni oilada yaxshi shakllantirilsa jamiyatda har qanday toifadagi shaxslarni har qanday vaziyatda hurmat qilishni va ularga yordam berishni o'rgatish lozim.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida integratsiya nuqtai nazaridan ta'lim-tarbiya va rivojlanish muammolarini hal etishda alohida ta'lim ehtiyojli bolaga zarur psixologik-pedagogik yordam ko'rsatuvchi sinf rahbari, maxsus o'qituvchi, psixolog, tyutor yetakchi rol o'ynaydi. Ular faoliyatining asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojli bolaning noto'g'ri moslashishini oldini olish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan muammoli o'zaro munosabatlarda tanqidiy vaziyatlarning paydo bo'lishi. Shunday qilib, turli darajadagi qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning o'tish bosqichlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Koralev E.V., Staroverova M.S Ta'lim integratsiyasi (inklyuzivligi) ta'lim tizimini rivojlantirishning tabiiy bosqichi sifatida // Inklyuziv ta'lim. 1-son. –M.:markaz "Maktab kitobi", 2010.-272s.

Nazarova N.N Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim: 2010.No 1. P.77-87.

Imkoniyat cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish: Darslik/Otv.ed. SV.Alekhina, E.N.Kutepova.-M.: MGPPU, 2013.-324s.

Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning Ma'naviy-Axloqiy Tarbiyaga Oid Qarashlaridan Ta'lim Jarayonida Samarali Foydalanish Imkoniyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>

INKLYUZIV TA'LIMNI OMMALASHTIRISH

Xamdamova Gavhar Abduhakimovna,
Samarqand viloyati Paxtachi tumani 28-umumiy ta'lim maktab

Annotatsiya: Maqolada shaxsni har tomonlama mukammal va barkamol qilib shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari hamda imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qitilishi imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, aqliy rivojlanish darajasi, tahlil, umumlashtirish, ommalashtirish, zamonaviy texnologiya, shakl va usul, korreksion tarbiya, artikulyatsiya, tyutor, diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, autizm, disleksiya.

Аннотация: В статье представлена информация о том, что задача всестороннего совершенного и гармоничного формирования личности является одной из самых актуальных, о путях организации педагогического процесса обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных школах, а также о возможности обучения детей с ограниченными возможностями здоровья наравне с другими здоровыми детьми.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, индивидуальный подход, уровень психического развития, анализ, обобщение, популяризация, современные технологии, форма и методика, коррекционное воспитание, артикуляция, тьюторство, дефицит внимания, синдром гиперактивности, аутизм, дислексия.

Annotation: The article provides information on the fact that the task of forming an individual in a comprehensive perfect and harmonious way is one of the most pressing issues, ways to organize a pedagogical process for teaching children with disabilities in secondary schools, and the possibility of teaching children with disabilities on an equal footing with other healthy children.

Key words: inclusive education, individual approach, level of mental development, analysis, generalization, popularization, modern technology, form and method, correctional education, articulation, tyutor, Attention Deficit Hyperactivity syndrome, autism, dyslexia.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidanoq Respublika Hukumati yosh avlodning sog'lig'i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini bo'lgan maktab bilan bog'liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o'z va dunyo

mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi.

Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaiif" kabi atamalar o'rniga "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo'nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. 1996 yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000 yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator deqsinishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o'rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o'tish xalq ta'limi tizimida dolzarb masala sanaladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi malumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga mlum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida otaonalar bilan ishlash ham muhim. Takidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. 2020 yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bunga misol bo'la oladi. Unga ko'ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inlyuziv ta'lim joriy qilinadi. Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch sinflar ochiladi. Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb- hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bitiruvchilari va

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan guruhlar tashkil etiladi.

Shuningdek 2021-2022 o'quv yilida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida majburiy o'rta ta'lim 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonli bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab internatlarda 9 yillik muddatlarda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o'quvchilar uchun teng shartsharoit yaratish bilan bog'liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta'lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda imkoniyati cheklangan shaxslarga o'quvni tashkil qilishda tegishli shartsharoit yaratish talab etiladi. Mazkur jarayon rivoji o'zida uzluksiz — maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bilan bog'liq bosqichlarni qamrab olganligi sababli inklyuziv ta'limda tizimli algoritmi vujudga keltirish kerak. Har bir mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi o'sha yerda mavjud an'analar, urf-odat va hukmron qadriyatlar asosida shakllanadi. Shuningdek, turli xalqlarning mentaliteti hamda o'quv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik jabhasi bu boradagi ustuvor yo'nalishni yo'lga qo'yishga samarali tasir ko'rsatadi. Shu manoda, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini taminlashga xizmat qilayotgan me'yoriy-huquqiy mexanizmning rolini alohida qayd etish o'rinlidir. Tizimning O'zbekistonda rivojlanishi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020 — 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l haritasi"da:

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional o'quv muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" ta'lim yo'nalishi o'rniga "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishini kiritish;

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilim oladigan o'quv muassasalarini maxsus adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlash jarayonlari bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan.

Bular O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari mustahkamlashga yo'naltirilganligi bilan muhim, albatta. Ammo bu yo'nalishni rivojlantirishda ta'limning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Shuni unutmaslik joizki, tegishli xorij tajribalariga muvofiq inklyuziv ta'limni tashkil etishda pedagogik jihatlari asosiy o'ringa ega.

Xorij davlatlari tajribasi Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ushbu soha taraqqiyoti ijtimoiy xarakter kasb etadi. Masalan, Germaniyada inklyuziv ta'lim sharoitidagi talabalarning ma'lum qismi aralash tarzda oddiy auditoriyalarda tahsil oladi.

Biroq ularda individual o'quv jarayoni bilan bog'liq holatlar ham saqlangan bo'lib, o'qish paytida zarur tibbiy yordam olish va nuqsonlarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Oliy ta'limda esa jami talabalarning o'rtacha 4-8 foizi nogironligi bo'lgan talabalar. Germaniya qonunchiligiga muvofiq nogironligi bo'lgan talabalar, kundalik hayot uchun zarur hisoblangan maxsus texnik va yordamchi vositalar bilan ta'minlanadi. Ularga doimiy tarzda davlat ijtimoiy xizmatlari orqali ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatib boriladi. Nogironligi bo'lgan talabalar ot-onalarining daromadlari o'rtacha daromaddan yuqori bo'lsa, ular mazkur harajatlarning ma'lum qismini to'lashlari shart. O'qish jarayonida nogironligi bo'lgan talabalar yordamchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Jismoniy va boshqa nogironligi bo'lgan talabalar ko'pincha semestr ishlarini topshirish muddatini uzaytirish, yozma imtihonni og'zaki yoki aksiga almashtirish, shuningdek, imtihonni individual topshirish huquqiga ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta'lim Germaniya tizimiga o'xshash xususiyatlarga ega. Nogironligi bo'lganlarga ta'lim berish jarayoni ularning kelajakda mehnat faoliyatiga qo'shilishi, jamiyat bilan erkin ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida inklyuziv ta'lim uzoq vaqtdan beri odatiy o'quv tizimiga kiritilgan. U yerda ta'limning me'yoriyhuquqiy hujjatlari bolalarning barcha toifalari uchun majburiy qilib belgilangan. Shu munosabat bilan aqli zaif va eshitish nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun auditoriyalar yaratildi. Amerikalik olimlarning ilg'or psixologik va pedagogik kontseptsiyalari maxsus pedagogikada katta qatlamni tashkil etadi va inklyuziv ta'limning asosi hisoblanadi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishda imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan bog'liq vaziyatlar bo'yicha o'tkazilgan tahlillarga muvofiq, imkoniyati cheklangan bolalarga ko'maklashish bo'yicha strategik vazifalar belgilanishi va ularning amaliy ijrosi bilan bog'liq qo'shimcha choralar doimiy tartibda belgilab borilishi qayd etilgan. Ta'lim sohasida o'tkazilayotgan joriy islohotlarning tarkibiy qismi hisoblangan inklyuziv ta'lim islohotini jadallashtirish, o'qish jarayonida, ko'pincha, har bir bolaning o'quv ehtiyojlarini qoniqtirishga yo'naltirishni taqozo etadi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan o'quv tizimidan o'zining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim - fr. *Inclusif* – qamrab olaman, lot. *Include* - kiritaman, qo'shaman degan mnolarni anglatadi. Umuman olganda inklyuziv ta'lim jismoniy va intellektual, ijtimoiy, hissiy va lingvistik kelib chiqishidan, shuningdek, irqidan, rangidan qat'i nazar, har bir shaxsga umumta'lim muassasalarida o'qish imkoniyati beriladigan ta'lim shaklidir.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mohiyati shundan iborat-ki, inklyuziv ta'lim asosida erta yosh davrlarida nogironligi

bo'lgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qo'shish va ularni sog'lom shaxslar qatorida ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'lim –rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish munosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ShRD asosida o'qitilib, o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari tminlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Barcha toifadagi bolalarni qamrab olgan holda umumiy ta'lim tizimida o'quvchilarni o'qitish va ularning tengligini ta'minlash orqali nogironligi bo'lgan bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rnlarini topishlari mumkindir. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli targ'ib etish uchun ba'zi qoidalarga amal qilgan holda moslashuvchan muhitni yaratish juda muhim hisoblanadi. Aynan shu qoidalar sifatli ta'lim garovidir.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4884-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida”gi PF 6108-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'RQ-641-son Qonuni.

Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YuNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son Qonuni.

R.SHomaxmudova "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari"- Razzoqov O.J- Toshkent-2007 yil

Tadjieva. S.X., Xusanova X.T., Majidova D.A. Kam ta'minlangan ko'p farzandli oilalar bilan ijtimoiy ish: tajriba va amaliyot. – T.: Fan va texnologiya, 2014.

XITOIY TILINI O‘QITISHDA HSK 5 – 6 (C1 – C2) DARAJASIDAGI MATN TARKIBIDA UCHRAYDIGAN RAVISHLAR TAHLILI

Hamdamova Charos,
Samarqand davlat chet tillar instituti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada xitoy tilini o‘qitishdage eng oliy darajalar - HSK 5–6 darajasidagi matn tahlili, oliy darajadagi matnlar tarkibida keng qo‘llaniladigan va boshqa darajalarda deyarli uchramaydigan mustaqil so‘z turkumlari, xususan, ravishlar tahlili keltirilgan hamda ular o‘zbek va xitoy tillaridagi misollar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: HSK 5–6, mustaqil so‘z turkumlari, ravish, 就近, 过于, 将近.

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлен анализ текстов высших уровней обучения китайскому языку – уровней HSK 5 – 6, самостоятельных групп слов, которые широко используются в текстах высокого уровня и редко встречаются на других уровнях, в частности, анализ идиом, и они являются узбекскими и китайскими. Обосновано примерами из языков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. HSK 5–6, самостоятельные группы слов, наречие, 就近, 过于, 将近.

ANNOTATION. In this article presents the text analysis of the highest levels of Chinese language teaching - HSK 5 – 6 levels, independent word groups that are widely used in high – level texts and rarely found in other levels, in particular, the analysis of idioms, and they are justifies with the help of examples from Uzbek and Chinese languages.

KEY WORDS. HSK 5–6, independent part of speech, adverb, 就近, 过于, 将近.

Har bir tilning grammatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi tilshunoslik ilmlaridan ma’lum. Xitoy tilida esa sinonimlar rang – barang hamda murakkabligi bois, ularni qo‘llash jarayonida talabgordan chuqur bilim talab etiladi. Ayniqsa xitoy tilining eng yuqori darajalaridan HSK 5 – 6 darajalari (C1 – C2) mustaqil va yordamchi so‘zlarini qo‘llash, matn tarkibida ularni aniqlash, ulardan foydalanib murakkab jumla tuzish uchun HSK imtihoning quyi darajalari HSK 3 yoki HSK 4 imtihonlarida uchramaydigan ravishlarni quyida ko‘rib chiqamiz.

Xitoy tilining oliy darajasi, jahon tizimida C1 va C2 darajalarga tenglashtirilgan mustaqil so‘zlar, xususan ravishlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. 就近。 Ushbu ravish 处所副词 (chusuo fuci) ya’ni o‘rin ravishi hisoblanib, o‘zbek tiliga –ga yaqin deb tarjima qilinadi. Ushbu ravishning quyi darajalardagi ekvivalenti sifatida 快到 ravishini keltirsak bo‘ladi. Yana bir jihati shundaki, o‘rin – joy ravishi hisoblanadigan ushbu ravish o‘zbek tilida payt ravishiga to‘g‘ri keladi. Quyi misollar orqali ushbu jihatni dalillaymiz:

中国有文字可考的历史就近四千年

Xitoy deyarli 4000 yillik yozma tarixga ega

2. 过于。Ushbu ravishning quyi darajalardagi ekvivalenti 过高 bo‘lib, odatda undan keyin ikki bo‘g‘inli sifat yoki ravish qo‘yiladi. O‘zbek tilidagi tarjimasi esa nihoyatda, o‘ta ravishi hisoblanadi.

司机过于疲劳，一致出了车祸

Haydovchi nihoyatda charchagani bois, avtohalokatga uchradi

3. 异常。Ushbu ravishning quyi darajalardagi ekvivalenti 常常 ravishi bo‘lib, holat ravishi hisoblanadi. Shu bois, gap tarkibida fe‘ldan oldin qo‘yiladi.

今年夏天异常炎热

4. 万分。Ushbu ravishni quyi darajalar matnlarda umuman uchratmaymiz. Shu bois matn tarkibida ushbu ravish uchragan taqdirda aksariyat hollarda talabgorlarda test ishlash jarayonida ikkilanishlarni keltirib chiqaradi. Uning quyi darajalardagi ekvivalenti sifatida 非常 yoki 及其 ravishlarini keltirishimiz mumkin. Masalan, 参加面试的应聘者万分紧张。

Suhbatda ishtirok etayotgan nomzodlarning barchasi juda asabiy.

5. 当场。Ushbu ravishning ma‘nosini oson va soddagina chiqarish uchun ushbu so‘z tarkibidagi o‘rin – joyni ifodalaydigan 场 hamda o‘sha vaqtni ifodalaydigan 当 so‘zlarnining ma‘nolarini kelishtiramiz. Bu holatda ravishning ma‘nosi 这那个地点，在那个时间 ya‘ni o‘sha joyda yoki o‘sha vaqtda ma‘nosi kelib chiqadi. Masalan, 在警方的布控下，把抓获。Politsiya nazorati ostida u darhol hibsga olindi.

6. 甬。Ushbu ravish inkor ravishi hisoblanib, xitoy tilidan farqli o‘laroq o‘zbek tilida inkor ravishni uchratmaymiz. Xuddi yuqoridagi singari ushbu ravishning ma‘nosini chiqarish uchun ham unda ishtirok etmagan 不 hamda 用 iyerogliflarini analiz qilamiz. Bu ikki iyeroglif birgalikda kerak emas, hojati yo‘q deb tarjima qilingani bois, 甬 ravishini ham hojati yo‘q, kerak emas deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Masalan, 甬想去外国留学。Chet davlatga borib o‘qishni o‘y lay ko‘rma.

Xitoy tilining oliy darajadagi grammatik ilmlarini o‘rgatish jarayonida yuqoridagi singari taqqoslash va solishtirish usullari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yuqoridagi singari quyi darajalarda umuman uchramaydigan ayrim so‘zlarni matn tarkibida qo‘llash, ulardan foydalanib jumlar tuzish, ayniqsa HSK 5 – 6 daraja imtihonlarida bu singari ravishlar uchraganda ularni sinonimik qatordan foydalanib tahlil qila olishni o‘qitish muhimdir.

Imtihon jarayonida tabiiyki, talabgorni imtihon oldidan qanday qilib qisqa vaqt ichida xitoy tili darajasini aniqlash imtihoniga tayyorlanish, aynan qaysi materiallar bilan muntazam va doimiy mashg‘ulotlar olib borish, talabgorning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilish, ko‘zlagan natijasiga erishish kabi savollar qiynaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, oldin so'z yodlab, uni tarjima qilib, uning ishtirokida so'z birikmasi va jumlar tuzib, inkor va so'roq shakllarini alohida yodlash orqali HSK 5 - 6 imtihoniga samarali tayyorlanishning imkoni yo'q. Xitoy tilini o'rganish hamda HSK 5 – 6 imtihoniga tayyorlanishga bo'lgan talabning ortgani sari yuqoridagi usul o'zini oqlamay qoldi, aksincha, ma'lum qoliplarga solingan jadvallar asosida o'z – o'zini talab etadigan ot va sifatlar, ravish va fe'llar, HSK 5 – 6 imtihonida eng ko'p uchraydigan ma'nodosh va sinonim so'zlar ro'yxatini o'rganish va ularning o'xshash va farqli jihatlarini matnlarni o'qish va yozish jarayonida qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 刘超英等编著, 新HSK5级速成强化教程 – 北京语言大学出版社 · 2013.5
2. 刘云, 新汉语水平考试阅读 (五级) 攻略 – 北京大学出版社, 2011.11
3. <https://www.youtube.com/watch?v=U2xlyxW6Xds&list=PLVWfp7qXLmKWAG5wXcJx8H2B0dEJUUnLZS>

NOGIRONLIGI BO'LGAN SPORTCHILARNING RUHIY KECHINMALARI VA IJTIMOY INTEGRATSIYASI

Axmatova Zilola Egamqulovna,

Nukus innovatsion instituti

zilolaaxmatova@387gmail.com. 998973931387

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan sportchilarning psixologik jarayonlari hamda sportning shaxs motivatsion sohasiga bevosita ta'siri izohlangan. Paralimpiyachilarning shaxsiy rivojlanishi, hayot sifati va jamiyatga integratsiyalashuvida sportning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: moslashtirilgan sport, nogironlik, inklyuziya, ruhiy barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, chidamlilik.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning rablitatsiyasi hamda ijtimoiylashuvi yuzasidan juda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb qilish orqali hayotiy qiziqishlarini shakllantirish ularni barcha uchun teng imkoniyatlardan foydalanish huquqini ta'minlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2022-yildagi 731-sonli "Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi paralimpiya sportshilari uchun shart sharoitlar yaratilishiga zamin bo'ldi. Nogiron sportchi hayotidida turli to'siqlar mavjud bo'lsa-da (shu jumladan, inklyuzivlik muammosi, cheklangan dasturlar, obyektlarning mavjud emasligi, transportdagi qiyinchilik va hatto turli jihatlarda ijtimoiy yordamning yetishmasligi), biroq sport sog'liqni saqlash vositasi sifatida, hayot sifati va ijtimoiy integratsiya, o'ziga ishonch, qoniqish va hayot sifati, o'zini o'zi qadrlash, o'z joniga qasd qilish

tendentsiyalarining kamayishi, yanada mustaqil munosabat va rivojlanishni davom ettirish uchun motivatsiyasi paydo bo'lishi bilan ahamiyatli [2].

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan shaxslarning sport bilan shug'ullanish orqali ishtirokchilarning faoliyati bilan bog'liq masalalardan tashqari, psixik jarayonlarni rivojlantirishga ham e'tibor qaratildi, bu esa shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va o'z hayotiy maqsadlariga erishish orqali o'z-o'zini anglashga yordam beradigan shaxsiy faoliyatdan kelib chiqadi. Shu bilan birgalikda nogiron sportchida g'alabaga erishgan daqiqalarida zavqlanish, o'zini baxtli his etib hayotiy motivatsiyasi tarkib topadi. Gedonizm zavq olishga intilishdagi hayotni, insonning o'z hayoti haqida nimani his qilishini, istaklarni qondirishni, zavqlanishga intilishni va og'riqni rad qilishni anglatadi. U yoqimli tajribalar, zavqlanish, azob-uqubatlarni engillashtirish va qoniqishga erishish bilan tavsiflanadi [3]. Bu orqali nogiron sportchi imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan jamiyatga foyda keltirayotganligidan va o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyoji qondirilganligidan o'zidan qoniqish hissi paydo bo'ladi.

Subyektiv rivojlanganlik, tabiatan gedonik va murakkab va ko'p qirrali bo'lib, hayotni kognitiv va affektiv jihatdan baholaydi va uchta tarkibiy qismga bo'linadi: ijobiy ta'sir, salbiy ta'sir va hayotdan qoniqish [4]. Bir nechta tadqiqotlar sport bilan shug'ullanish va psixologik barqarorlikning oshishi, shu jumladan subyektiv barqarorlik o'rtasidagi ijobiy munosabatni isbotlaydi. Sport bilan shug'ullanadigan nogironligi bo'lgan odamlar sport bilan shug'ullanmaydigan motorli nogironlarga qaraganda hayotdan qoniqish darajasi yuqori bo'ladi [2].

Nogironligi bo'lgan odamlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir mavzu - bu chidamlilik. Fletcher va Sarkar [5] chidamlilikni "Shaxsiy faoliyatni rag'batlantirish va shaxsni stressning mumkin bo'lgan salbiy ta'siridan himoya qilishda aqliy va xulq-atvor jarayonlarining o'rni" sifatida taqdim etadi (675-bet). Insonning qiyinchiliklarga ijobiy munosabatda bo'lishi uning hayotida ro'y bergan baxtsiz holatlarga bardoshli bo'lishi va o'zining ularga moslashishiga bog'liqdir. Chidamlilikni o'rganish dastlab bolalarga, keyinroq esa kattalarga [5], oila a'zolaridan birining yo'qolishi, terrorizm, og'ir kasallik va tabiiy ofatlar kabi stressli vaziyatlarga qandaydir tarzda duchor bo'lgan oilalar va jamoalarga qaratildi. Tadqiqot natijalari, garchi nogironlar bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, muhim hisoblanadi, chunki bu ota-onalar va oila a'zolari o'z farzandlari va nogiron oila a'zolarini ta'lim tarbiyasi, rehabilitatsiya qilish va o'qitish jarayonining faol ishtirokchilaridir. Kon, Fredrikson, Braun, Mikels va Konvey [6] ijobiy his-tuyg'ular va chidamlilik o'rtasidagi munosabatni o'rgandilar. Ijobiy his-tuyg'ular kelajakda chidamlilikning yuqori darajalariga olib kelishi va boshqa tomondan, chidamlilik ham o'z ta'sirini qisman ijobiy his-tuyg'ularni shakllantirish orqali amalga oshirishi aniqlandi. Stressli vaziyatlarda chidamliligi yuqori bo'lgan odamlar kamroq bardoshli bo'lganlarga qaraganda ko'proq ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishadi [6]. Riff [7] ta'kidlashicha, nogiron sportchilar ba'zan qiyinchiliklar bilan faol kurash olib boradi. To'siqlar, muvaffaqiyatsizlik va umidsizlik kabi tajribalar ichki kuchli tomonlarni topish va resurslarni yangilash uchun zarurdir, bu esa bir vaqtning o'zida o'z cheklovlari va zaifliklaridan xabardor bo'lishga imkon beradi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportda o'rganishning muhim va ajralmas mavzularidan yana biri ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni o'rganish kontseptual modelning ta'rifi ma'nosida bir qancha tadqiqotchilarning qiziqish obyekti bo'ldi. Ya'ni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali shaxsiy rivojlanishdagi o'sishga erishish mumkin. Sababi o'z yaqinlari atrofdagi insonlarning kutuvlarini amalga oshirish uchun shaxsda qiyinchiliklarni yengish uchun iroda shakllanadi. Buning natijasida nogiron sportchida kundalik hayotning qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli yengish va o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini doimo izlash ko'nikmasi paydo bo'ladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash nogiron sportchining sport jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu psixologik muammolarni yaxshilashga yordam beradi va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularga o'z chegaralarini his qilish va baholash, ulardan foydalanish imkonini beradi. ularning qiyinchiliklarini qabul qilish uchun ijobiy resus sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki moslashtirilgan sport imkoniyati cheklangan nogiron shaxslar uchun hayotiy qiziqishlarini amalga oshirish, ularda o'z-o'zidan qoniqish hissining paydo bo'lishiga qolaversa o'ziga ishonch, mustaqil munosabatlarni o'rnatishga muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Masharipov Y. "Sport psixologiyasi". Toshkent 2010.
2. Blauwet C., Willick S.E. Paralimpiya harakati: Sog'liqni saqlash, nogironlik huquqlari va nogiron sportchilar uchun ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish uchun sportdan foydalanish. *PM R.* 2012;4:851–856. doi: 10.1016/j.pmrj.2012.08.015. [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
3. Huta V., Waterman A.S. Eudaimonia and Its Distinction from Hedonia: Developing a Classification and Terminology for Understanding Conceptual and Operational Definitions. *J. Happiness Stud.* 2014;15:1425–1456.
4. Ryff C.D., Keyes C.L. The Structure of Psychological Well-Being Revisited. *J. Pers. Soc. Psychol.* 1995;69:719–727. doi: 10.1037/0022-3514.69.4.719. [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
5. Fletcher D., Sarkar M. A Grounded Theory of Psychological Resilience in Olympic Champions. *Psychol. Sport Exerc.* 2012;13:669–678. doi: 10.1016/j.psychsport.2012.04.007. [CrossRef] [Google Scholar]
6. Cohn M.A., Fredrickson B.L., Brown S.L., Mikels J.A., Conway A.M. Happiness Unpacked: Positive Emotions Increase Life Satisfaction by Building Resilience. *Emotion.* 2009;9:361–368. doi: 10.1037/a0015952. [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
7. Ryff C.D. Self Realization and Meaning Making in the Face of Adversity: A Eudaimonic Approach to Human Resilience. *J. Psychol. Afr.* 2014;24:1–12. doi: 10.1080/14330237.2014.904098. [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INKLYUZIV TA’LIMNI OMMALASHTIRISH

Mamarizayeva Farangiz,
Jizzax politexnika instituti assistenti
Email: farangiz.angel@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘qitishda inklyuziv ta’limni ommalashtirishning ahamiyati va usullari haqida ma’lumot beradi. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, xorijiy tillarni o‘qitishda bu tamoyillarning qo‘llanilishi va amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi. Moslashtirilgan o‘quv dasturlari, differensial yondashuv, texnologiyalardan foydalanish va ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash, individullashgan yondashuv, resurslar va qo‘llab-quvvatlash hamda tahlil va monitoring kabi amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi xorijiy tillarni o‘qitishda inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirish va barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir.

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, xorijiy tillarni o‘qitish, moslashtirilgan o‘quv dasturlari, differensial yondashuv, texnologiyalardan foydalanish, individullashgan yondashuv, tahlil va monitoring, ijtimoiy integratsiya, lingvistik bilimlar, madaniy ko‘nikmalar, ommalashtirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilar, jumladan, jismoniy yoki intellektual imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Xorijiy tillarni o‘qitishda ham bu yondashuvni qo‘llash muhimdir, chunki bu nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki ijtimoiy tenglikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Tenglik va adolat: Har bir talaba teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Moslashuvchanlik: O‘qitish usullari va materiallari turli xil ehtiyojlarga mos kelishi kerak.

Hamkorlik: O‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar o‘rtasida samarali hamkorlik.

Ijtimoiy integratsiya: Talabalar o‘zlarini jamoaning bir qismi sifatida his qilishlari lozim.

Xorijiy tillarni o‘qitishda inklyuziv ta’limni qo‘llashning bir necha muhim jihatlari mavjud:

Moslashtirilgan o‘quv dasturlari: Turli xil o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu, masalan, vizual yoki eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun maxsus darsliklar va o‘qitish usullarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Differensial yondashuv: O‘quvchilar turli darajadagi bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qitish jarayoni differensial yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv ta'lim vositalari va texnologiyalar yordamida darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish mumkin. Masalan, onlayn platformalar va mobil ilovalar inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlaydi.

Ko'nikmalarni rivojlantirish: Xorijiy tilni o'rganish jarayonida nafaqat lingvistik bilimlar, balki madaniy ko'nikmalar ham rivojlantirilishi kerak. Bu talabalarni global dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida inkluziv ta'limdan foydalanishdan oldin o'qituvchilar e'tibor qaratishlari lozim bo'lgan ba'zi jihatlarni ko'rib chiqamiz. Jumladan, avvalo o'qituvchilar ham inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Bu ularga turli xil ehtiyojlarga ega o'quvchilarga qanday yondashishni o'rgatadi (O'qituvchilarni tayyorlash). Bundan tashqari, har bir talabaga individual yondashuvni qo'llash lozim. Bu ularning qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish demakdir (Individuallashtirilgan yondashuv). Eng asosiysi, o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli resurslar va vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Bu maxsus darsliklar, texnologiyalar va yordamchi vositalarni o'z ichiga oladi (Resurslar va qo'llab-quvvatlash). Inklyuziv ta'lim jarayonining samaradorligini baholash va uni doimiy ravishda yaxshilash uchun esa tahlil va monitoring tizimini joriy etish zarur (tahlil va monitoring).

Inklyuziv ta'lim xorijiy tillarni o'qitishda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Bu yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishga, o'rganuvchilarni ijtimoiy jihatdan integratsiya qilishga va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim tamoyillariga amal qilgan holda, biz barcha o'quvchilar uchun samarali va adolatli ta'lim tizimini yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2020). "Inclusion and Education: All Means All". UNESCO Publishing. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373718>
2. European Commission. (2018). "Council Recommendation on Key Competences for Lifelong Learning". URL: [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32018H0604\(01\)](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32018H0604(01))
3. Mitchell, D. (2014). "What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies". Routledge.
4. Hattie, J. (2008). "Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement". Routledge.
5. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). "Exploring Inclusive Pedagogy". *British Educational Research Journal*, 37(5), 813-828. DOI: 10.1080/01411926.2010.501096
6. Tomlinson, C. A. (2017). "How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms". ASCD.

ВОЗМОЖНОСТИ «SMART» ТЕХНОЛОГИЙ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Абдухоликова М.,

старший преподаватель НЦПУНМ Кашкадарьинский обл. кафедры дошкольного, начального и специального образования.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning huquqiy-meyoriy asoslari, tamoyillari, qoidalari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali muayyan darslarda alohida ehtiyojli bolalarning faoliyatlarini samarali tashkil etishning imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziya, uyg'unlashish, alohida ehtiyojli bola, sharoit, tamoyil, qoida, muhofaza, individuallashtirish, differentsiallashtirish, maqsad, natija, faoliyat.

Abstract: This article presents the legal and regulatory framework, principles and rules of inclusive education. In addition, through the use of modern technology, opportunities are opened for the effective organization of the activities of children with special needs in certain subjects.

Keywords: inclusion, adaptation, child with special needs, conditions, tendencies, rules, protection, individualization, differentiation, purpose, result, activity

Аннотация: В данной статье затрагиваются нормативно-правовые основы, принципы, правила инклюзивного образования. Кроме того, раскрыты возможности эффективной организации деятельности детей с особыми потребностями в отдельных классах за счет использования современных технологий.

Ключевые слова: инклюзия, адаптация, ребенок с особыми потребностями, условия, принцип, правило, защита, индивидуализация, дифференциация, цель, результат, деятельность.

Современный мир с каждым днём становится всё более ориентированным на интернет-коммуникацию. Огромные потенциальные возможности, которыми обладают социальные сети и другие сетевые ресурсы, могут быть использованы в преподавании самых разных дисциплин на различных уровнях образования. Современная молодёжь прекрасно ориентируется в интернет-ресурсах, умеет использовать их возможности для коммуникации, обмена информацией, развлечения и т. п., имеет мобильные устройства (гаджеты), которые позволяют быть онлайн каждую минуту времени. Сегодня развитие любой страны оценивается по качеству инклюзивного образования для детей с ограниченными возможностями.

Инклюзивное образование – (инклюзия – англ. инклюзивность – интеграция) – кооперативное образование, признанное всем мировым сообществом как наиболее гуманное и эффективное образование.

Инклюзивное образование – это образовательный процесс, при котором ВСЕ дети, независимо от их физических, психических, психологических и

других проблем, получают образование вместе со своими сверстниками, в своем доме, семье и регионе, в школах, где созданы все условия для их нужд.

Поэтому цель инклюзивного образования – обеспечить получение детьми с особыми потребностями полноценного образования в общеобразовательных учреждениях с учетом их возможностей, а также создать необходимые условия для каждого ребенка в образовательных учреждениях. Условия характеризуются тем, что дети добираются из дома в школу, чувствуют себя комфортно в классе, имеют возможность освоить учебные предметы, имеют возможность заниматься интересующей их деятельностью вне школы и отсутствие каких-либо рисков для здоровья.

Сегодняшний новый имидж Узбекистана синхронизирован с позитивными изменениями в сфере образования. Большие усилия прилагает правительство нашей страны для реализации этих благородных идей.

В образовании детей с ограниченными возможностями, как и в любой сфере, реализуется ряд реформ, основанных на передовых мировых тенденциях. Помимо здоровых детей, разработаны правовые нормы, позволяющие организовать обучение детей с особыми потребностями в соответствии с уникальными и скрытыми возможностями ребенка. В нашей стране создана правовая база по защите прав детей, принят ряд законов, в них гарантированы права детей.

Включая, в стране действует ряд законов Президента Республики Узбекистан от 1 декабря 2017 года ПФ-5270 «О мерах по коренному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с ограниченными возможностями», 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан». Республики Узбекистан до 2030 года» Постановление №5712 от 13 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования детей с особыми образовательными потребностями» указ ПК-4860 который установлено о Реализация адаптированных видов образовательных услуг для малообеспеченных слоев населения, системы на основе дифференцированных подходов, в контексте задач, определенных в решении и других нормативных правовых документах.

В Концепции развития до 2030 года, в главе 1, разделе 2, пункте 3: совершенствование методов обучения, постепенное внедрение принципов индивидуализации в образовательный процесс; Повышение качества образовательных услуг для детей с ограниченными возможностями в главе 3 раздела 8 пункта (г), в пункте 8 настоящего пункта определены задачи реализации мер, направленных на обеспечение права каждого ребенка с ограниченными возможностями здоровья на получение инклюзивного образования.

Основной идеей инклюзивного образования является следующая стратегия: «В современной школе образование адаптируется к возможностям ребенка, а не к образованию».

Принципы инклюзивного образования заключаются в следующем:

1. Показатели оценки качества образования ориентированы на возможности ребенка.

2. Что ответил ученик? нет, а как ты участвовал? На основе вопроса создается рефлексивная среда.

3. Если индивидуальный подход выбран с учетом особенностей обучения обучающегося, дифференцированный подход применяется при градации учебных задач по сложности. Адаптивность идет рука об руку с изменчивостью.

4. Импровизационная деятельность педагога направлена на создание гибкой преобразующей среды.

5. Мотивация возникает до того, как ученики начнут выполнять задание.

Важным правилом является то, что учебный процесс строится под девизом «Ты на это способен, а не из-за своих ограничений».

На инклюзивных занятиях современные технологии имеют широкий спектр возможностей для организации действий учащихся ради общей цели. В частности, технологии SMART и STEAM эффективны в дифференцированной и индивидуальной работе со учениками благодаря своей рефлексивности, креативности и мотивационной направленности.

Термин «SMART» впервые был введен в 1954 году ученым, экономистом, публицистом, педагогом Питером Фердинандом Друкером. В 1965 году Пол Дж. Мейер и в 1981 году Джордж Т. Доран использовали его в своих научных работах.

Технология - (англ. technology) совокупность методов и процессов в конкретной области производства.

Характеристики Smart-технологий в образовательном процессе S – Self-determination- Самоопределение, M – Motivation –Мотивация, A – Adaptation – Адаптация, R – Resource – Ресурсы, T – Technology – Технологии.

Технология SMART свойство системы или процесса, которое проявляется во взаимодействии с окружающей средой, помогает в образовании детям развивать следующие важные характеристики, навыки и способностью к:

- реагированию на изменения во внешней среде;
- адаптации к изменяющимся условиям;
- эффективному достижению результата;
- повышают доступность образования;
- предоставляют возможность самостоятельного управления траекторией профессионального роста;
- открывают путь в профессиональное сообщество на мировом уровне;
- эффективный инструмент управления образовательным процессом.

Smart технологии в управлении контролем знаний: преимущества ➤ Простота в использовании ➤ Доступность ➤ Индивидуальное оформление ➤ Бесплатность ➤ Мобильность ➤ Понятность.

инклюзивном образовании подход- основа использования SMART технологий адаптируется к возможности ребенка ➤ текущий познавательный

уровень; ➤ текущее эмоциональное состояние; ➤ предпочитаемые способы обучения; ➤ готовность к достижению образовательных результатов посредством использования цифрового инструментария на образовательной онлайн платформе.

SMART – это характеристика системы или процесса, которая проявляется во взаимодействии с окружающей средой и позволяет системе обрабатывать свои возможности, немедленно реагировать на изменения внешней среды, адаптироваться к изменяющимся условиям, развиваться самостоятельно и самоуправляться, достигать результаты эффективно.

Ниже приведены элементы или полное применение этого подхода на уроках технологии.

Для того чтобы эффективно организовать мыслительную деятельность детей на уроке технологии, необходим процесс, связанный с предметами. Каждое понятие они легко осваивают сначала, в естественной ситуации, в естественных ситуациях. Мы обосновали вывод о том, что эффективно подготовить детей к освоению других общеобразовательных предметов можно путем организации предметно-практической деятельности детей на занятиях по технологии на основе различных современных подходов. На ранних этапах технологического образования уроки должны проходить в игровой форме.

Процесс раздачи учащимся необходимых инструментов на основе музыки может осуществляться в ситуации, когда используется целевой разум. Учитель объясняет учащимся, как сегодня выполнять действия с помощью музыки. Например, в учебнике «Технология» для 1 класса есть тема о формах. Данную тему можно реализовать, сочетая звуки музыки и физические движения учащихся. Для этого учитель делит учеников на группы по 5 человек. В классе сформировано 4 группы.

1 ученик группы своими действиями демонстрирует форму на бумаге, данную учителем. 2-й ученик выбирает необходимое оборудование (бумагу и ножницы) для изготовления этой формы и передает ее 3-му ученику. Учащийся 3 группы первым записывает на доске название этой фигуры. После того как учащийся, показывающий действие, подчеркнет правильность слова, 3-й учащийся приступает к изготовлению фигуры (складыванию или вырезанию). Все эти действия выполняются под звуки музыки.

Объяснение учащимся свойств предметов на основе сказок на уроках технологии также дает положительные результаты. Например, учащиеся будут заинтересованы в теме, если преподаватель составит рассказ и расскажет историю, прежде чем организовать командную работу при изготовлении модели здания, вводе темы и подготовке к ее реализации.

Принципы SMART важны для определения цели уроков технологии в начальных классах. Метод и эффективность занятия зависят от цели.

Цель занятия определяется исходя из общих и речевых особенностей развития всех детей.

Перечислим проявление SMART по этапам урока технологии:

1. Подготовка к трудовой деятельности и ее речевое выражение.

2. Определение объема и техники трудовой деятельности.
3. Планирование работы.
4. Подготовка изделия.
5. Отчетность о проделанной работе.
6. Оценка деятельности учащихся.

Демонстрация технологического процесса приготовления изделий на уроках технологии является важным методическим условием.

В учебном процессе инклюзивного образования методика обучения SMART заключается:

- смешанная среда обучения и показывает учащимся, как применять научный метод в повседневной жизни;
- SMART - образование – одно из направлений реализации проектной и образовательно-исследовательской деятельности в школе и за ее пределами;
- учебная программа основана на идее преподавания с использованием междисциплинарного и практического подхода;
- SMART -образование объединяет 5 отдельных предметов в единое образовательное направление.

Требование к учащимся отчитываться по каждой выполненной работе в устной и письменной формах также отражено в учебниках как отдельное задание. На этом этапе также описывается содержание отчета с указанием назначения объекта, его функции, плана его изготовления и оборудования.

В SMART реализован на «Рефлексивный подход» создать среду «рефлексивного подхода», требующую запросов и обращений на уроках технологии. В этом процессе необходимо использовать предложения разной структуры. Ниже приведены различные формы этого:

1. Если тема урока – фрукты, на доске набираются изображения фруктов. К ним добавляются овощи. Затем учитель говорит ученикам:

Каких изображений слишком много? или что добавили не так? обращения через вопросы. Учитель призывает их думать правильно.

2. Организация вопросов и ответов по теме. При этом учитель дает учащимся вопрос, слово или картинку на карточках. Если на карточке есть слово, дети говорят, что означает это слово и каковы его символы. Если на карточке есть картинка, он называет ее части. Если есть вопрос, он ответит на этот вопрос.

3. Если проводится урок по теме сезона, во дворе школы проводится беседа по картинке.

Задачи технологических занятий при использовании элементов SMART на практике заключаются в следующем:

1. Учебные задачи, которые необходимо выполнить на уроке.
2. Учебные задачи, направленные на развитие личностных качеств учащихся и применение знаний в упражнениях.
3. Коррекционно-развивающие задания, способствующие развитию жизненных навыков учащихся и самостоятельному применению полученных знаний и умений на уроке.

В этом плюсы Smart технологии ➤ Снижение бюрократической нагрузки за счет автоматизированного управления процессом; ➤ Свободный доступ к образовательным ресурсам; ➤ Наличие мультимедийного контента; ➤ Удобство и оперативность мониторинга за образовательным процессом, его прозрачностью при условии высокой мотивированности; ➤ Индивидуальная траектория изучения.

Эти задания, в свою очередь, имеют мотивационное и профессиональное описание для изучения учениками предметов. Потому что учащимся инклюзивного образования важно во время школьного обучения осознанно выбрать определенную профессию и освоить пути ее достижения, а также эффективно подготовиться к общественной жизни.

Использованные источники

1. Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ5270 от 1 декабря 2017 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с ограниченными возможностями»//Сборник правовых документов Республики Узбекистан, 11 декабря, 2017, № 49, статья 1195.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № ПФ-5712 «Об утверждении концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года». ҚНММВ: № 19.06.5712/3034.

3. Абдухоликова М.Б.(2020) «Использование современных технологий как фактор повышения качества обучения». Международная научно-практическая конференция«Согласованность интеграции и инновационного мышления в системе обучения: проблемы и решения», 75-78.

4. Абдухоликова М.Б . (2020) «Методика подготовки тренера в каждой основной школе по направлениям грамотности креативного мышления» Международная научно-практическая конференция «Реформы, успехи, проблемы и решения в сфере образования».398-402.

5. Абдухоликова М.Б.”Использование приёмов инновационной технологии при формировании критического мышления школьников как средство саморазвития личности”. Научно-методический журнал 5(ISSN 2181-7839)

TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI BOSQICHMA-BOSQICH TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Mubina Baqoyeva Ibodilloevna,
Buxoro viloyat PYaMO"MM "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etish jarayonlari, xorijiy va milliy tajribalarga asoslanib ushbu tizimni samarali tashkil qilishga erishish. Inklyuziv ta'limni tashkil

etishda yuzaga keladigan muammo va yechimlar toppish uchun zaruriy pedagogic-psixologik tajribalardan foydalanish.

Kalit soʻzlar: korreksion sinflar, subyekt, psixologik-pedagogik, maxsus pedagogik yondashuvlar, «yoʻl xaritasi», konsepsiya, ustuvor yoʻnalishlar

Аннотация: В статье оснащены проблемы процессов поэтапной организации инклюзивного образования в общеобразовательных учреждениях нашей страны, эффективная организация этой системы на основе зарубежного и отечественного опыта. Использование необходимого педагогического и психологического опыта для поиска решений и проблем, возникающих при организации инклюзивного образования.

Abstract: The article describes the problems of the processes of stage-by-stage organization of inclusive education in general educational institutions of our country, the effective organization of this system based on foreign and domestic experience. Using the necessary pedagogical and psychological experience to find solutions and problems that arise when organizing inclusive education.

2021/2022-oʻquv yilidan respublikamiz miqyosida umumtaʼlim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv taʼlim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv taʼlim sinflari va boshlangʻich tayanch korreksion sinflariga oʻquvchilar yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning taʼlim olish huquqini taʼminlash maqsadida umumtaʼlim maktablari uchun belgilangan yosh meʼyorida ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Inklyuziv taʼlim subyektlarini psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash alohida taʼlim ehtiyojli oʻquvchilari kamsitilmasdan sifatli taʼlim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami koʻrsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.

Respublika umumtaʼlim maktablarida bosqichma-bosqich inklyuziv taʼlim tizimi joriy qilinadi. Davlat rahbarining 2020–2025 yillarda respublikada inklyuziv taʼlimni rivojlantirish, boshlangʻich tayanch korreksion sinflarni ochish va maktab-internatlarni optimallashtirishga oid qarori qabul qilindi.

Prezident 13-oktyabr kuni «Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorga imzo chekdi.

Mazkur qaror bilan 2020–2025 yillarda xalq taʼlimi tizimida inklyuziv taʼlimni rivojlantirish konsepsiyasi, ushbu konsepsiyani 2020–2021 yillarda amalga oshirish boʻyicha «yoʻl xaritasi» hamda Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar taʼlimini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli parametrlari tasdiqlanmoqda.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli koʻrsatkich va tegishli davrga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlardan kelib chiqib, 2020 yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida «yoʻl xaritasi» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

2020-2022 yillarda:

inklyuziv taʼlim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

tizim uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

ularni kamsitish, salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi.

2023-2025 yillarda:

inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinadi;

har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'riladi;

o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) soni optimallashtiriladi.

O'quvchining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom va sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bo'lgan o'quvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi imkoniyatlarini oshirishga e'tibordan chetda qolmasligi kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo'llabquvvatlash mazmuni o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga, uning o'zini o'zi belgilashiga, o'zini o'zi anglashiga, o'zini o'zi tasdiqlashiga hissa qo'shishga qaratilgan barcha ta'lim subyektlarining faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir.

Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta'lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir.

Inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llabquvvatlashni samarali tashkil etish g'oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuziv ta'limni umumta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo'llab-quvvatlashning xilmaxilligini hisobga olish;

- o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo'llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;

- yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo'l va vositalarni ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni qo'llab-quvvatlash obyekti bo'lib, bolaning tashqi dunyo, atrofdagi odamlar (kattalar va tengdoshlar), o'zaro munosabatlar tizimi va ularni rivojlantirish, tuzatish, tiklash hamda qo'llab-quvvatlash predmeti hisoblanadi.

Ta'lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta'lim maktab o'quvchilarining ota-onalari bilan ishlash.

Bugungi o'quvchilar bir necha yildan so'ng jamiyatimizni tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan nogironligi bo'lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o'rganishlari muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

4. "Dakarskie ramki deystviy"- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel. 5. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. "LessonPress" nashriyoti, Toshkent-2021.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY QILISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Rasulova Sanobar,

Qashqadaryo VPYMO'MM "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedراسi katta o'qituvchisi

Rahimova Ra'no,

Qashqadaryo VPYMO'MM "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedراسi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda inklyuziv ta'lim – imkoniyati cheklangan bolalarni maktablarda sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi hamda inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv, inklyuziv ta'lim, integrallashgan, inklyuziya, integratsiya.

Аннотация. Этот тезис является приобретением инклюзивного образования - дети с ограниченными возможностями и дети со здоровыми сверстниками в школах, а также целей и задачи инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное, инклюзивное образование, интегрированное, интеграция, включение.

Annotation. This thesis is the acquisition of inclusive education - children with disabilities and children with healthy peers in schools and the goals and objectives of inclusive education are covered.

Key words: Inclusive, Inclusive Education, Integrated, Integrating, Inclusion

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim madaniyati! Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq har bir o'quvchi xususiyatlarini isloh qilishni qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi dalil sifatida qaraladi. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy segregatsiya oldini olish uchun emas. Biroq, kontsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi.

Dunyo tajribasiga ko'ra, maktablarda kiritish ko'pincha tengdoshlari bilan birga o'rta maktablarda nogironlar ta'lim sifatida qaraladi (Judi Kugel'mas) biroq, inklyuziv ta'lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda etarli emas. "Inklyuziv " va " integrallashgan " terminlari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri tug'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'lim nima? Inklyuziv – (inklyuziya – inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun

maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta'lim – imkoniyati cheklangan bolalarni maktablarda sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:

O'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash, shuningdek, yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi

mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

O'zlariga o'xshamagan tengdoshlarining ehtiyojlarini his qiladilar;

Qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar;

Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

Insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining muhim vazifalariga nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatish, masus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o'qituvchilari va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hattoki nogiron bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazilib turish kiradi. Resurs o'qituvchining asosiy maqsadi: umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat. Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:.

Har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish.

O'quvchilar bilan yakka tartbdagi ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash.

Sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish.

Sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish.

Muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash.

Maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

Zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).

O'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

Standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

O'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarni yangilash va baholash.

Inklyuziya - bu bolalarni shunday tarbiyalash jarayonidirki, u barcha o'quvchilarga foyda keltiradi va aniq ishtirok etishni talab qiladi. Shunday qilib, u nafaqat alohida ehtiyojli talabalarga, balki boshqalarga ham e'tibor qaratadi. Shuning uchun inklyuziv yondashuv "hamma uchun ta'lim" deb hisoblanadi.

Integratsiya - bu alohida ehtiyojli talabalar umumiy ta'limga singib ketish jarayoni. Shuning uchun, ta'limga bo'lgan bunday yondashuvda, asosiy ta'limga moslashishga e'tibor qaratiladi. Garchi bu yondashuv alohida ehtiyojli o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu talabalarning tuzilishi va munosabati tufayli ularning markirovkasini oshirishi mumkin. Bu bola ta'limining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Inklyuziya va integratsiya o'rtasidagi farq nima?

Inklyuziya - bu bolalarni tarbiyalash jarayonidir, bu barcha bolalarga foyda keltiradi, chunki bu sinfdagi barcha bolalarning aniq ishtirokini talab qiladi. Boshqa tomondan, integratsiya - bu alohida ehtiyojli bolalar umumiy ta'lim tizimiga singib ketish jarayoni. Bundan tashqari, qo'shilishning maqsadi bolalarni umumiy ta'limga moslashtirish emas, balki o'quvchilarning dars mashg'ulotlariga umumiy ishtirokini yaxshilashdir. Shu bilan birga, integratsiyalashuv jarayoni alohida ehtiyojli talabalarni umumiy ta'limga moslashtirishga qaratilgan.

Inklyuziya sinfdagi barcha talabalarga qaratilgan, integratsiya esa alohida ehtiyojli o'quvchilarga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi // “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
2. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. // “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
3. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI MUSTAQILLIKKA O‘RGATISH – INKLYUZIV TA’LIM SAMARADORLIGINING MEZONI

M.K.Yakubjanova,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Mamalakatimizda yosh avlodni mustaqillikka o‘rgatish borasida keng qamrovli amaliy ishlar bajarishga kirishildi. Bu masala O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunda alohida o‘rin egallaydi. Zero, bu hujjatda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonga faol ta’sir etishi, o‘z qadr-qimmatini xis qilishi, o‘zida erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi dolzarb vazifalar sifatida belgilab berilgan. o‘sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifatlar, xususan, mustaqillikni shakllantirish nafaqat ta’lim muassasalari va tarbiya maskanlari balki umumjamiyat vazifasiga aylanib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘z navbatida o‘zlari ham deyarli ilmning turli sohalarini mustaqil holda o‘rganganlar, jumladan, bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘zining “Majolisun nafois” asarida mustaqil mutolaa qilish yo‘li bilan ilm cho‘qqilarini egallagan donishmandlardan ko‘plarining nomlarini zikr etganlar. Mazkur asarda alloma Mir Murtozning mustaqil holda ilm soxibi bo‘lib etishganligini ta’riflab: “Mir Murtoz yoshdan ilm bilan mashg‘uldir... Kecha tong otguncha va kunduz oqshom bo‘lguncha ilm mutolaa qilur erdi ”,-deydi . O‘z navbatida, A.Navoiy ham ilm sirlarini mustaqil holda o‘rgangan. U o‘zining “Muhokamatul lug‘atayin” asarida yoshlik chog‘ida qariyb 50 mingdan ortiq baytlarni mustaqil holda yod olganligini alohida takidlaydi. Ilg‘or pedogoglar, jumladan I. G. Pestalotsi, J. J. Russo, A. Disterverglar ham bolalarda mustaqillikni tarbiyalashga alohida e’tibor berganlar. Ular o‘z qarashlarida bolada shaxs sifatlarini rivojlantirishga mehnat tarbiyasining samarali ta’sirini ta’kidlaganlar. I. G. Pestalotsining «Lingard va Gertruda», «Gertruda o‘z bolalarini kanday o‘qitdi», «Kuzatish alifbesi», «Oqqush ko‘shig‘i» asarlari shular jumlasidandir. U «Lingard va Gertruda» asarida inson nimaiki ko‘lga kiritsa, bu halol mehnati orqali roxat ko‘rishini Glyufi faoliyatida yoritib beradi. Pestalotsining g‘oyaviy ta’limotiga ko‘ra bolani har tomonlama erkin rivojlantirish bu maktabning maqsadi edi. Jan Jak Russoning «Emil yoki tarbiya to‘g‘risida» nomli romanida ozod YAngi odamni tarbiyalash yo‘llarini ko‘rsatdi. Russo bola tug‘ilgan kundan boshlab iste’dodining

rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish to'g'risida g'amxo'rlik kilish zarurligini aytadi. «Tarbiyachi bolaga o'zining fikr - muloxazalarini, tayyor axloqiy koidalarini majburan qabul qildirmasligi tabiatiga ko'ra, uning o'sishi va erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratishi kerak. Tabiiy tarbiya bu – erkin tarbiyadir. Bola o'zining zararli noto'g'ri ishlari natijasini his kilishi lozim», - deb ta'kidlaydi. R. Mavlonova: “Bolalarni qiyinchiliklarni engishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga etkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: Mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish xissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muximdir. Mehnatda turli psixologik xolat, aktivlik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi”, - deb yosh avlodda mehnat tarbiyasi orqali mustaqillikni tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi.

O.Musurmonova ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishni bir necha turlarga bo'ladi. SHulardan biri sifatida ... insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, muruvvat, saxovat, adolat, tinchliksevarlik, tenglik, do'stlik, o'z-o'zini anglash, erkinlik kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlardan iborat ekanligini keltiradi.

Ma'lumki, zamonaviy milliy pedagogika yo'nalishida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqdaki, ulardan ko'zlangan maqsad-uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida barkamol, mustaqil fikrleydigan shaxsni tarbiyalash uchun zaruriy pedagogik, psixologik shart-sharoitlarni yaratish, usul, vosita va imkoniyatlarni taxlil qilish orqali ularni zamonaviylashtirish, ta'lim texnologiyalaridan eng samarali va maqbulini tanlash va amaliyotga joriy qilishdir. Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri-maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'lim kanchalik o'z maqsad va vazifalarini to'laqonli bajarsa, keyingi bosqich ta'lim jarayonidan kutilayotgan natija shunchalik erishimli va samarali bo'ladi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da: “Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga qiziqish xissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi” - deb ta'kidlangan.

Mustaqillik o'zi nima?, insonning mustaqilligi qachon namoyon bo'ladi? yoki qanday sharoitda va muhitda inson o'zini erkin va xur xis qiladi va bu xurlik unga nima beradi? kabi savollarning javobi tadqiqotning ushbu bobi mazmunini tashkil qiladi. Demak, inson uchun mustaqillik bu uning o'zligini anglashi va o'zini har tomonlama namoyon qilishi deb e'tirof etish mumkin. “Inson” deb atalmish ijtimoiy tushuncha zamirida bola shaxsini ko'radigan bo'lsak, unda bolaning mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillar, vositalar va shart-sharoitlar oila va maktabgacha ta'lim muassasidagi muhitning nechog'lik boladagi mavjud qiziqish, mayl, imkoniyatlarga yo'naltirilganligiga bog'liqdir. YA'ni mustaqillikning namoyon bo'lishi uchun zaruriy sharoit bu ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning bolaga yo'naltirilishi. Bu esa bola tarbiyalanayotgan muhitning insonparvarlashtirilgani demakdir. Ta'lim va tarbiya jarayonining markazida bola shaxsi turar ekan, kutilayotgan natija ham bola egallagan bilim, ko'nikma va malakalar darajalari bilan tavsiflanadi. Insonparvarlashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayon boladagi turfa imkoniyatlar, cheksiz qiziqishlarning namoyon bo'lishining zaruriy shartlaridandir. Insonparvarlikning inson erkinligi, uning qadr-qimmatini, tarbiyasiga bog'liqligi SHarq Uyg'onish davrida

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ta‘limotlarida o‘z aksini topgan. Abu Nasr Farobiy insonparvarlik, aniq maqsad sari intilish baxt-saodatga eltuvchi ekanligini ta‘kidlaydi: “Inson baxt-saodat nimadaligini tushungan bo‘lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g‘oya va hoxishiga aylantirmagan bo‘lsa, unga nisbatan ozgina bo‘lsa-da, shavq-zavq sezmasa, istak va muloxazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo‘rindir... Mustaqillikning ildizi insonparvarlik, ong va faoliyat birligi, ruhiyat, nazariya va amaliyot bog‘liqligi, tarbiya (uning barcha yo‘nalishlari: aqliy, ahloqiy, jismoniy, xuquqiy, iqtisodiy, jinsiy, gigienik, estetik, mehnat, ijtimoiy ...) ning mavjud bo‘lish tarixi va amaliyotiga borib taqaladi.

Demak, bolalarda mustaqillik u yoki bu (masalan, aqliy, ahloqiy va boshqa) yo‘nalishdagi ta‘lim-tarbiya asosida shakllantiriladi, rivojlantiriladi degan yondashuv bir tomonlama hisoblanadi. Ya‘ni mustaqillik bolaning borliq, makondagi mavjudligining, zamonning har soniyasida u ishtirok etgan, bevosita va bilvosita guvohi bo‘lgan mazmunning ta‘sirida paydo bo‘ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bu fikr bola shaxsida mustaqillik sifatini shakllantirishning nazariy asosi sifatida pedagogika va psixologiyaning va albatta, yo‘nalishlar bo‘yicha metodika fanlari bo‘yicha olib borilgan, amaliyotga o‘z samarali ta‘sirini bergan, umumilliy maqsadga erishish yo‘lida amalga oshirilgan barcha tadqiqotlarni olish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish: Darslik/ Otv.ed. SV.Alekhina, E.N.Kutepova.-M.: MGPPU, 2013.-324s.

2. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta‘lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

3. Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning Ma‘naviy-Axloqiy Tarbiyaga Oid Qarashlaridan Ta‘lim Jarayonida Samarali Foydalanish Imkoniyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>

INKLYUZIV TA‘LIM INTEGRATSIYASINI TA‘MINLASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

M.A.Tilakova,

*Jizzax viloyat PYaMO‘MM Pedagogika va psixologiya ta‘lim
texnologiyalari kafedra mudi p.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya. O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish davlat, jamiyat va imkoniyati cheklangan bolalar hamda ularning ota-onalari manfaatlariga xizmat qiladi, deb hisoblayman. Maktab, kollej, litsey yoki oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv jarayoni nafaqat bilim olish, balki muloqot qilish, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va natijada ijtimoiy hayot bilan tanishtirishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, bolalar, nogironlar, maxsus ta‘lim, umumiy ta‘lim, inklyuziv ta‘lim, umumiy ta‘lim muassasalari.

Аннотация. Считаю, что развитие инклюзивного образования в Узбекистане служит интересам государства, общества, детей с ограниченными возможностями здоровья и их родителей. Учебный процесс в школе, колледже, лицее или высшем учебном заведении заключается не только в получении знаний, но и в общении, формировании социальных навыков и, как следствие, приобщении к общественной жизни.

Ключевые слова: Образование, дети, инвалиды, специальное образование, общее образование, инклюзивное образование, общеобразовательные учреждения.

Abstract. I believe that the development of inclusive education in Uzbekistan serves the interests of the state, society and children with disabilities and their parents. The educational process in a school, college, lyceum or higher education institution consists not only of acquiring knowledge, but also of communication, formation of social skills and, as a result, introduction to social life.

Key words: Education, children, disabled people, special education, general education, inclusive education, general educational institutions

Kirish. Ta'lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o'ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo'lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o'z-o'zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o'jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo'lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi.

Asosiy qism. O'qituvchilarning bolalarning inklyuziv ta'limiga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi "inklyuziv", "inklyuziv ta'lim" tushunchalarining mohiyati va mazmunini, shuningdek, integratsiyalashgan va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishni talab qiladi.

Inklyuziv ("inklyuziv") ta'lim, ya'ni nogiron bolalar o'zlarining odatiy rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishlari jamiyatning "maxsus" ta'limga bo'lgan munosabatini belgilaydigan inklyuziv ta'lim tamoyillari, yondashuvlari va qadriyatlarini o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishiga asoslanadi.

Xalqaro professional hamjamiyatda "inklyuziv ta'lim" atamasi 1994 yilda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiya va Salamanka deklaratsiyasida maxsus ehtiyojlar uchun ta'lim sohasidagi printsiplar, siyosatlar va amaliyotlar bilan rasmiylashtirilgan.

Ta'limdagi inklyuziv yondashuv jamiyatning nogironlik haqidagi tushunchasini o'zgartirishga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o'rtalarigacha mavjud bo'lgan nogironlarni ajratishni nazarda tutgan tibbiy model o'rnini normallashtirish modeli egalladi. XX asr Ushbu model nogironlarning jamiyatga integratsiyalashuvini nazarda tutgan. Hozirgi vaqtda ijtimoiy modelga o'tish tendentsiyasi mavjud bo'lib, unga ko'ra nogiron bolani tarbiyalashda to'siqlar va muammolar xalq ta'limi

tizimidagi nomukammallik va ularning atrofidagi odamlar bilan munosabatlari tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba 1960-yillardan boshlab joriy qilingan. Inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, uning turli mamlakatlarda rivojlanishi nogiron bolalarning ta'lim olish huquqini amalga oshirishga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan, normativ- huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor doiralarda muhokama qilishgacha bo'lgan.

Xalqaro miqyosga e'tibor qaratar ekanmiz o'zbek talimida ham bu faoliyat anchagina rivojlanish bosqichida ekanligini aytib o'tishimiz mumkin.

Annotation: This article is based on facts from the practice of the University of Cambridge and highlights the achievements and importance of project-based education. This article describes the expansion of project-based education to enhance the social construction of knowledge and education. The focus is on maximizing students' ability to share their knowledge with practitioners by joining internship teams and increasing their internal motivation by creating conditions for students to agree.

Key words: innovative methods, social constructivism, motivational role, facilitation, effectiveness, Bloom's taxonomy, teamwork.

Amaliyot jamiyati - bu odamlar, faoliyat va dunyo o‘rtasidagi vaqt o‘tishi bilan va boshqa tendensial va kesishgan amaliyot jamoalari bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar yig‘indisidir. Amaliyot hamjamiyati bilimlar mavjudligi uchun zarurdir. Har qanday bilim mavjud bo‘lgan madaniy amaliyotda ishtirok etish o‘rganishning gnoseologik tamoyilidir. Ushbu amaliyotning ijtimoiy tuzilishi, uning kuch munosabatlari va qonuniylik shartlari o‘rganish imkoniyatlarini belgilaydi.

Innovatsion usullar tadqiqoti vebga asoslangan qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqish, talabalar, texnik xizmat ko‘rsatuvchi muhandislar va olimlar hamjamiyatlari o‘rtasidagi uchrashuvlar va kampusdan tashqari guruhlarning yangi namunalari orqali o‘rganish va loyihaga asoslangan ta‘lim usullaridan foydalanadi. Bunday multimodal yondashuv ta‘lim jarayonining chuqur izlanishlari va ijtimoiy ta‘sirini ochib beradi. Ishtirokchilarning so‘rovlarida ta‘lim maqsadlariga muvaffaqiyatli erishilganligi aniqlandi. O‘quv jarayonini yaxshilash uchun metodologiya osongina yechim bo‘la olishi mumkin. Chili universitetining mashinasozlik bo‘yicha bakalavr darajasi texnik xizmat ko‘rsatishni boshqarish bo‘yicha magistratura kursini o‘z ichiga oladi. Asosiy maqsad – “kurs oxirida talaba obyektiv mezonlardan foydalangan holda sanoat obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish strategiyasini ishlab chiqishi kerak”. 2001-yildan beri kurs dasturning instrumental va

shaxslararo tizim natijalariga erishishga yordam berish uchun doimiy ravishda yangilanadi.

Ijtimoiy konstruktivizmdan ilhom olish. Ichki motivatsiya va yaqinlik bo'lib bu yerda taqdim etilgan yondashuv konstruktivistik nazariyaga asoslanadi. O'rganish ijtimoiy jihatdan, o'quvchilarning boshqalar va ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatiga qarab quriladi. Shaxs o'z bilimini ilgari bilgan narsasi asosida quradi va faqat u o'z ongida yozishi mumkin. Ushbu yondashuv professorga fasilitator va motivator rolini beradi, chunki talabalar tomonidan tuzilma bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirish juda qiyin bo'lishi yoki juda qiyin tayyorligini talab qiladi mumkin.

Bloom strategiyalari talabalar uchun yuqori motivatsiyaga ega bo'lib tuyulsa-da, affektiv sohadagi maqsadlarni yanada rivojlantirish kerak degan xulosaga keldi. Chunki bu yuqori kognitiv darajalarga erishish va muvaffaqiyatga erishishni sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. G'oya muqarrar tashqi omil tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Aktyorlar: yangi muhandislar yangi va murakkab tizimlar va texnologiyalarga duch kelishga chaqiriladi, shuning uchun ular Bloom taksonomiyasida yuqori darajaga erishishlari kerak. Loyihaga asoslangan ta'lim kontseptsiyasi va xaritasida ko'rsatilgan effektivlikka kelsak, o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Ryan va Deci) odamlarning faol va ishtirok etishi yoki, aksincha, passiv va uzoqroq bo'lishi mumkinligiga yordam beradi. Ular rivojlanayotgan va faoliyat yuritadigan ijtimoiylikning funksiyasini annglanganligiga ko'ra harakatlanishadi. Bir jarayonnong 70% ida nazariya asosiy e'tiborni qaratamiz. Kognitiv va affektiv ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'liqligini e'tibordan chetda qoldiramiz.

Uchta tug'ma psixologik ehtiyojlar tavsiflanadi: kompetentsiya, avtonomiya va bog'liqlik. Ushbu ehtiyojlarni qondirish o'z-o'zini hurmat qilish, motivatsiya va farovonlikni oshirishga olib keladi.

Motivatsiya ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ushbu maqola birinchi turga e'tibor qaratadi, chunki u inson tabiatining ijobiy salohiyatini, odamlarning innovatsiya va qiyinchiliklarga intilish, kashf qilish va o'rganish qobiliyatini kengaytirish va amalga oshirishga bo'lgan moyilligini eng yaxshi aks ettiradi. O'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi ta'kidlaydiki, odamlarning o'rganishga bo'lgan moyilligini saqlab qolish va kuchaytirish tegishli shart-sharoitlarni talab qiladi, chunki uni turli xil qo'llab-quvvatlanmaydigan sharoitlar osongina buzishi mumkin. Professor-o'qituvchilar ta'lim dasturi bilan bog'liq kompetentsiya, avtonomiya va jamoaviylik ehtiyojlarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak. Bu talabalarning tirishqoqligi, mehnatsevarligi va sifatli ishlashiga olib keladi.

Ryan va Desi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, avtonomiyani-(nazoratga qarshi) qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchilar o'z o'quvchilarida katta ichki motivatsiya, qiziquvchanlik va qiyinchiliklarga chanqoqlikni rag'batlantiradilar. Shu ma'noda, Bonwell va Ason (1991) fakultet talabalarni sinfdagi munozaralarda tavakkal qilishga undaydigan hissiy muhitni yaratishi kerak deb hisoblashadi. Bundan tashqari, Novak va Govin (1984) yodlash va retseptiv o'rganishdan farqli ravishda mazmunli va avtonom o'rganishga e'tibor qaratadi.

O'zaro munosabatlar ehtiyojlariga kelsak, o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi odamlarning xatti-harakatlari ular bilan bog'liq bo'lgan (yoki his qilishni

hohlaydigan) hamda boshqalar tomonidan turtki tarzida modellashtirilgan yoki hukm qilinganligi sababli harakat qiladi deb ta'kidlanadi. Boshqalarga tegishli bo'lish va ular bilan bog'lanishni his qilish zarurati insonning qadriyatini ichki qabul qilishida markaziy o'rinni egallaydi va uni missiyasi tomon yetaklaydi. Yaratuvchanlik keraklilikdan boshlanadi deb hisoblaydi Ryan.

Wankat va Oreovich (1993) ta'kidlashicha, birgalikda ta'lim ko'plab talabalarni (va o'qituvchilarni) o'ziga jalb qiladigan jamoa (yaqinlik) tuyg'usini yaratishi mumkin. Aloqa ham talabalarni ushlab turishga ta'sir qiladi, chunki talabalar ijtimoiy jihatdan integratsiyalashganda sezilarli darajada yaxshilanadi. O'qishini tashlab ketgan talabalar ko'pincha buning sababini qo'llab-quvvatlamaslik va umidsizlikda deb ko'rsatadilar. Hurmat va tegishli bo'lish ehtiyojlari o'qituvchilarning hurmatini va o'qituvchilarning talabaga ijobiy munosabatini keltirib chiqaradi.

Jamoaviylik uchun zarur bo'lgan joylarga kelsak, Burrell va Buffinton (2004) sport kabi darsdan tashqari mashg'ulotlarda ishtirok etish orqali shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatladilar. Uning ta'kidlashicha, ushbu turdagi faoliyatda motivatsiya va tashabbusni yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ta'limning o'zaro ta'siri va bog'liqlik uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishning taniqli usuli bu hamkorlikda o'rganish usullaridan foydalanishdir. Tegishli adabiyotlarda ta'kidlanishicha, hamkorlikdagi elektron ta'lim muhitida o'quvchilar o'quv jarayoniga ko'proq jalb qilinadi, mavzuga ko'proq jalb qilinadi va chuqurroq tushunchaga ega bo'ladi. Hamkorlikdagi ta'lim kontekstidagi boy o'zaro ta'sirlar bir nechta misollarni kelishish imkonini beradi, natijada ma'noni hamkorlikda qurish va jarayon va mahsulot nuqtai nazaridan yanada mazmunli o'rganish tajribasiga olib keladi. Shu bilan birga, hamkorlikdagi yondashuv o'rganishdagi dolzarblikni va fantaziya va yaratuvchanlikdagi raqobatni keltirib chiqaradi. (Novak va Govin. 1984)

“European Journal of Engineering Education 5” jurnalini ham talbalarda ma'lum bir loyihalarni amalga oshirish juda uzoq davom etgani va talabalarning guruhlarda samarali ishlashga tayyor emasligi tanqid qilingan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu kabi muammolar barcha yerda va barcha jabhalarda mavjud bo'lib, yechim faqat insonning kompetentligiga bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Kasbiy kontekstda jamoaviy ishlarni kuchaytirish usullaridan biri bu guruh tajribasi. Ushbu faoliyat ishtirokchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni rivojlantiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Misol uchun, guruhni dam olish maskaniga olib borilari. Tamaddi vaqtdan keyin jamoaviy o'yinlar tashkillashtiriladi hamda jaravonda favqulotta vaziyatlar sodir bo'lganda vaziyatdan chiqish yo'llarini topish hamda kerakli buyumlarni o'zlari yasashlari kerakligi tushuntirilari. Bu lamoaviylik munosabatlarini o'rnatishga ko'maklashadi.

Ijodkorlik o'sishi kutilayotgan ta'lim natijalaridan biridir. Kimdir ega bo'lgan ijodkorlik muammoli vaziyatlarni to'g'ri hal qilishni va ularni to'g'ri tahlil qilishni ta'minlaydi. Ijodiy shaxs ana shunday tahlilga asoslanib, vaziyatga to'g'ri baho bera oladi va ilgari hech qachon bo'lmagan vaziyatlarda yangi yechimlar yarata oladi. Ijodkorlikni o'quv jarayonidan rivojlantirish mumkin. O'qituvchi yaratgan ijod jarayonidan ijodiy o'quvchilar shakllanishi mumkin. Oliy ta'lim, ayniqsa ta'lim hodimlarini tayyorlaydigan muassasalar bo'lajak o'qituvchilarning ommaviy axborot

vositalaridan yoki o'rganish usullaridan o'rganishni boshqarishda ijodkorligini rivojlantirishga qodir bo'lishi kerak. Bolden fikriga ko'ra o'rganish ijodkorligi o'qituvchidan keladi. Bo'lajak o'qituvchilar ijodiy tajribaga ega bo'lishi kerak, shuning uchun ular ijodiy narsalarni talabalarga etkazishlari mumkin. Aks holda, talabalar o'zlari oson deb hisoblagan narsalarni qabul qilishga moyil bo'ladi.

Gunawan va boshqalarning tadqiqotlaridan farqli o'laroq, loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanish figurali ijodkorlikka qaraganda og'zaki ijodkorlikni yaxshiroq oshirishga qodir ekanligi aniqlandi. Talabalar og'zaki muloqot orqali g'oyalar va g'oyalarni bog'lashga moyildirlar. umuman olganda, loyiha asosidagi ta'limdan foydalanish o'quv ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish kursida bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. O'quv media loyihalarini yaratish talabalarni ijodiy shaxs bo'lishga undashi mumkin. Robertson va boshqalar ijodkorlikni takomillashtirilgan aloqa va vizualizatsiya orqali rivojlantirish mumkinligini aniqladi, bu esa dizayn qilish, keyin ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha hamkasblar bilan muloqot qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Amalga oshirilgan loyihalar talabalarni mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda ijodiy fikrlashga olib keldi. Ijodkorlik muammoni hal qilish jarayonini o'rganish va aniqlash uchun ishlatiladi, shunda u o'rganilayotgan materialning tushunchalarini tushunadi. Loyihaga asoslangan ta'lim bugungi kunda eng yaxshi ta'lim alternativlaridan biridir. Mihardi loyihaga asoslangan ta'limni amalga oshirish orqali ijodiy jarayonni osonlashtirish mumkinligini aniqladi. O'quvchilar o'quv jarayonida muammolarni yechishda ijodiy fikrlashga odatlangan. Talabalar nafaqat mahsulotlarni yaratadilar, balki muammolarni hal qilishni rejalashtirishga hissa qo'shadilar, shunda u muqobil yechimga aylanadi. Bundan tashqari, Amamou va Chelniti-Belchadi loyihaga asoslangan ta'lim talabalarga muammolarga yechim topish va ijodkorlikni rivojlantirishga ham imkon berishini aniqladi.

21-asr ta'limi ijodiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni to'g'ri hal etish ko'nikmalarini shakllantirish uchun talabaga yo'naltirilgan tamoyillarga ega. Ushbu asrdagi o'qituvchilardan ushbu qiyinchiliklarga dosh bera oladigan professional o'qituvchilar bo'lish talab etiladi. O'qituvchilardan uzoqni ko'ra bilish, tarbiyalashda aniq maqsadlar qo'yish talab etiladi. O'qituvchi ham mazmunli ta'lim yaratish uchun talabalar bilan hamkorlik qila olishi kerak. Ma'noli va qiziqarli o'rganish o'qituvchilarning axborotni qayta ishlash va o'quv vositalaridan foydalanish mahoratida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bonwell va Eison 1991, Noyabr. Ak and Govin.
2. Maybin, J.Mercer, Stierer (1992). (180-195 b) London : Hodder and Stoughton.
3. Pascual va Uribe 2006.
4. Ryan and Desi 2000.
5. Bonwell va Ason (1991).
6. "European Journal of Engineering Education ", Volume 5, Issue 1. (1980).
7. Veb-sayt: www.cam.ac.uk

PEDAGOGIK MULOQOTNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI HAMDA MULOQOT VOSITALARI

Tursunova Dilafro‘z Sheraliyevna,
Samarqand chet tillari instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog uchun muhim xususiyatlar biri hisoblanadigan muloqot va munosabatlarga qaratilgan bo‘lib, barcha pedagog xodimlarga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: muloqot, motiv, kommunikativ qobiliyat, konstruktiv qobiliyat, etika, Milton Eriksson, NLP - neuro-lingvistik dastur.

Pedagogikada muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida, ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

- muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

- muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

- o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o‘ynaydi;

- pedagogikada muloqot - o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazish asosida o‘zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

- muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni hisoblanadi;

- noto‘g‘ri pedagogik muloqotdan o‘quvchilarda qo‘rquv, o‘z kuchiga ishonchsizlik paydo bo‘ladi, ularning diqqat-e’tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot - bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o‘zi uchun eng qulay bo‘lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

Rahbarlik faoliyatining eng nozik jihati – bu o‘quv muassasasida o‘qituvchi va xodimlar bilan ish olib borish, ular faoliyatini tashkil etish, pedagogik jamoani bir maqsad-muddao yo‘lida birlashtirish, ularning hurmatini qozonish, sevimli rahbariga aylanish hisoblanadi. Bu esa rahbardan ijtimoiy psixologiya, muloqot san’ati va mahorati to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga hamda kommunikativ, konstruktiv va tashkilotchilik qobiliyatlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Har bir rahbar o‘zi uchun muloqotning etikaviy tartiblarini o‘zlashtiradi, shaxsiy fazilatlari va tajribalari bilan boyitadi, manfaat hamda ehtiyojlari doirasida undan foydalanadi. Muhimi u, o‘z-o‘zini baholay olish, tashqaridan kuzatish, xatti-harakatlarini muntaazam ravishda tahlil qilish, tanqidiy baho berish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Mazkur etikaviy me‘yorlarga amal qilish, zero, uning talablari axloqqa

nisbatan nisbiy ko‘rinish kasb qilsada, professional xizmat doirasida muvaffaqiyatga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqot inson hayotidagi eng muhim mahoratlardan biridir. Bizning professional va shaxsan samarali muloqot qilish qobiliyatimiz hayot sifatini yaxshilash uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samarali muloqotning natijasi - har bir kishining xabarning haqiqatini va xususiyatlarini aniqlashga qobiliyati, u bilan muloqotda bo‘lgan suhbatdoshning aloqasi va idrokiga eng to‘g‘ri aloqa kanalini tanlab, uning maqsadlarini ko‘rishi, eshitishi va tushunilishi uchun taqdim etishi. kommunikatsiya jarayoniga ta'sir qilish, faol muloqot qilish va suhbatdosh va tomoshabin bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatish.

Insonlarning o‘zaro ta'siri va hamkorligi, shuningdek, insonning boshqa kishilarga ta'sir o‘tkazish qobiliyatiga, munosabatlarning xususiyatini va vaziyatni to‘g‘ri yo‘nalishda o‘zgartirish qobiliyatiga asoslanadi. Bu shaxslarning tashkiliy tendentsiyalarining tarkibiy qismlari.

Insonning tashkiliy tendentsiyalari boshqa odamlarga ta'sir o‘tkazish qobiliyatini, o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish va muayyan maqsadlarga erishish, odamlarning "ahvoliga" ta'sir o‘tkazishini tezda anglash va bu shovqinni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish, tashabbusni qabul qilish istagini o‘z ichiga oladi.

O‘zaro muloqotning samaradorligi, asosan, guruh a‘zolari bir-birlarini qanday tushunish va tushunishlari, ularning o‘zaro ta'sirida qanday usullarni qo‘llashlari va aloqa qanday darajada amalga oshirilishiga bog‘liq.

Bizning so‘zlarimiz bizdan ko‘ra ko‘proqdir. So‘zlar biz bilmagan xatti-harakatlar va energiya modellariga to‘la. Bizning so‘zlarimiz bilan, bu jismoniy dunyoda o‘z haqiqatimizni yaratamiz. Biz doimo biz aytayotgan narsalar bilan dasturlashadigan maydon deb ataladigan juda nozik energiya darajasi mavjud. Va u holda biz o‘zimiz bo‘lamiz. Milton Eriksson ilk bor 1970 va 1980-yillarda tanishgan va bu haqda o‘qish va yozishni boshlagan. Bunga hush kelibsiz hipnotik holat deyiladi. Va u ochiq ko‘zlar bilan ham mijozlarga qarshi chiqishi mumkin edi.

Pearl, zamonaviy Ericsson, xuddi shunday qildi. Keyinchalik, psixologlarning keyingi avlodi, dastlabki ikkitasini kuzatib, qilgan ishlarini o‘rganib, qoidalarni qayd etdi. Bendler va Grindler NLP - neuro-lingvistik dasturni yaratdi - bu kunlarda dunyodagi ulkan mashhurlik va izdoshlarni qo‘lga kiritadigan narsa.

Manipulyativ insonga yondashish darajasi ibtidoiyga yaqin, ijro etilishi esa an'anaviyga yaqin. Bir sherigimiz g‘alaba qozonish uchun o‘yinda raqib. Manipulyator sherikning zaif nuqtalarini ishlatadi, bilib-bilishni, plashni seztiradi, hushyorlikni kamaytiradi, ba‘zi ma‘lumotni yashiradi yoki buzadi, teglar bilan to‘ldiradi, afsuslanadi yoki aybdorlikni keltiradi, aksincha, bartaraf qiladi yoki aksincha o‘zgartiradi va bemorni birinchi imkoniyatdan uradi. U suhbatdoshni oshkor qilish, uni tekshirish (hazil, xushomad, shikoyat bilan), reaksiyani chiroyli qilib tanlaydi va uning asosida faqat muvaffaqiyatli taktikani tanlaydi. Har doim o‘z maqsadlariga erishish yoki shaxsiy maqsadga erishish vositasi sifatida boshqasidan foydalaning. Shu sababli, har doim manipulyator uchun foydalandigi kabi, o‘zini boshqasi o‘zini tutishga majbur bo‘lgan vaziyatni yaratib, vaziyatni va sherigining xatti-harakatlarini har doim nazorat qiladi.

Manipulyatsiyaning asosiy vositalari:

- 1) ehtiyojlarni manipulyatsiya qilish - istaklardan, qiziqishlardan foydalanish;
- 2) ma'naviy manipulyatsiya - muayyan g'oyalar va qadriyatlarni shakllantirish;
- 3) intellektual - o'z nuqtai nazarini, nuqtai nazarini belgilash;
- 4) hissiyotlarni manipulyatsiya qilish - sherikning his-tuyg'ularidan foydalanish;
- 5) ramziy - ma'lum belgilarga nisbatan barqaror reaksiyani shakllantirish.

Ilm-fan va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, barcha soha mutaxassislarining kasbiy malakasi va shaxsiy resurslariga bo'lgan talablarning o'sishi psixologik fan ma'lumotlarini inson hayotining turli sohalarida kengroq va har tomonlama foydalanishga o'tishni talab qiladi. Har bir pedagog faoliyatida o'z imkoniyat hamda qobiliyatlarini to'g'ri o'rinli yo'naltira olishi muhim hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlarda muloqot kuchi, uning ahamiyati va turlarini o'rganib chiqish lozim. Muloqotchanlik va kommunikativlik qobiliyat pedagogik faoliyat talablaridan hisoblanadi. Uning fazalarini psixologik bilimlar bilan o'rganilgan holatda natijadorlik yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 – 104 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF□6108-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

Internet manbalari:

<http://www.ziyonet.uz>.

<http://www.wikipedia.org>

<http://www.oecd.org>

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA KREATIV FIKRLAR VA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Shodiyeva Iroda Uktamovna,

Samarqand viloyati Paxtachi tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida yangi pedagogik metod-uslublardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqola davomida o'qitishning zamonaviy

metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelishi va bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqligi ochib berilgan. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, metod, ona tili, adabiyot, fikrlash, "Aqliy hujum", "Klaster", "Charxpalak", "Idrok" xaritasi

Abstract: This article discusses the scientific-theoretical basis of using new pedagogical methods in the mother tongue classes of general secondary schools. In the course of the article, it is revealed that the use of modern methods of teaching leads to high efficiency in the teaching process and the appropriateness of choosing these methods based on the didactic task of each lesson. Also, the importance of innovative pedagogical technologies in mother tongue and literature classes is highlighted.

Key words: interactive, method, native language, literature, thinking, "Brainstorming", "Cluster", "Charkhpalak", "Perception" map

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы использования новых педагогических методов на уроках родного языка в общеобразовательных школах. В ходе статьи выявляется, что использование современных методов обучения приводит к высокой эффективности учебного процесса и целесообразности выбора этих методов исходя из дидактической задачи каждого урока. Также подчеркивается важность инновационных педагогических технологий на занятиях родным языком и литературой.

Ключевые слова: интерактив, метод, родной язык, литература, мышление, "Мозговой штурм", "Кластер", "Чархпалак", карта «Восприятия»

KIRISH

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faoligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqatga kirishishini rivojlantirish;

ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni bilim oluvchining faoligini oshirishga va dars jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e'tiborni qo'llaniladigan metodlar va o'quv vositalariga qaratadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Yangi pedagogik texnologiyalarga

bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. "Charxpalak". Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan "Charxpalak" texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;

- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;

- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keyingi guruhga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiradilar;

- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;

- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

"Charxpalak" texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

Mavzu: So'z ma'nosining ko'chish usullari.

Mavzuga oid boshqa adabiyotlar bilan ham tanishib chiqadi;

Mavzuning markaziy g'oyasi, shaxsi, obykti xaritaning markaz qismidan joy oladi;

Xaritaning asosiy liniyalari belgilab olinadi. Masalan, adibning bolaligi, oilasi, badiiy ijod olamiga kirib kelishi, uning tahsil olgan joylari, ilk ijodiy ishlari, asarlari va yilnomalari ketma-ketlikda yoziladi va hokazo.

Hozirgi kunda keng usulda dars o'tish orqali o'qituvchilar darsda samarali natijalarga erishmoqda. Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. "Nihol o'stiramiz" usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o'quvchilarini guruhlariga bo'lib olamiz. O'quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik mehnatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik mehnatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi. Ta'lim-tarbiya bir joyda to'xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, kompyuter texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin. Bu metodlar o'quvchini mustaqil, kreativ fikrlashga undaydi. Ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o'quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli yosh avlodni kelajakda yetuk kasb egalari bo'lishida qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. *Science and Education*, 1(5).

2. Зиядуллаевна, Н. Г., & Тахировна, М. Т. (2020). Обучение студентов к инновационной педагогической деятельности на основе кластера. *Суз санъати*, (3).

3. Masharipova va b.q. Ona tili 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish.

BOSHLANG‘ICH SINIF PEDAGOG FAOLIYATIDA SHAXSGA ASOSLANGAN O‘QITISH

Eshonkulova Hilola Rajab qizi,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi hilolaeshonkulova909@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim haqida, unda o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi shaxsi o‘rtasidagi munosabatda o‘qituvchining yondashuvi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, shaxsga asoslangan ta‘lim, hamkorlik, muloqot.

Bugungi kun ta‘lim sohasida uzluksiz yangilanishlar davri bo‘ldi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni yetkazishda hal qiluvchi o‘rin tutadigan ta‘lim-tarbiya sohasidagi ishlar ko‘lami tobora ortib bormoqda”[1], – degan edi. Bu jarayonda ta‘lim sohasidagi har bir vakil uchun faoliyatini aktiv holatda tashkil etishga undaydi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda boshlang‘ich sinf ta‘lim haqida quyidagi belgilab berilgan: “Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”[2]. Ya‘niki, boshlang‘ich ta‘lim keyingi ta‘lim bosqichi uchun tayyorlovni amalga oshiradi. Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining maqsad va vazifalarni belgilashiga ko‘maklashadi. O‘qituvchining maqsad va vazifasini belgilashi ahamiyatli. Ammo uni amalga oshirishda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Buni yechimi esa juda oddiy ya‘ni darslarini to‘g‘ri tashkil etish uchun eng keraklisi – mos yondashuvdir.

Hozirgi zamonaviy ta‘lim pedagogik texnologiyalari ta‘lim-tarbiya jarayoniga shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu o‘quvchilarimizning o‘quv motivlari va intellektini oshirish, ta‘lim sifat samaradorligini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma‘lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarini shakllantirishga pedagogik ta‘sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi[3].

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta‘lim jarayoni unumdorligini oshiradi, bilimlarni ishtiyoq bilan qabul qilish, ularni amaliyotda foydalanish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim deganda, biz ko‘proq o‘quvchilarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyojlarini nazarda tutamiz. Bunda ta‘limning mazmuni o‘quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo‘naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo‘llab-quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limda o‘quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish masalasini shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o‘qitish samaradorligi, asosan, o‘quvchining o‘qitish jarayonidagi o‘rni, pedagogning unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq[7].

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyada, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayonning markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi. Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi.

Pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi; har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;

Yuqori yetuk qadriyatlar(saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi [4].

Shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya asosida insonparvarlik asosida insonparvarlik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasi yotadi. Bu texnologiya shaxsga tayanadi. U o'zini namoyon qilishga, yangi tajribalarni idrok qilishga maqsad sari intilgan, ongli mas'uliyatli shaxsdir. Shaxsni ko'zda tutish texnologiyasi har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiya bevosita bog'langan intellektual rivojlanishiga qaratilgan[5].

Ta'lim muhiti shaxsning shakllanishi yuz berishiga ko'maklashadi.

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Sh.A.Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;

Bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;

Boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

Keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;

Ideal tarbiya – o'z-o'zini tarbiyalamoq[5].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasiga o'tish o'quvchilarning mustaqil, individual fikriy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish o'qituvchilardan kasbiy tayyorgarlik talab qiladi. Ular shaxs psixologiyasiga oid bilimlar, yangi texnologiyalar, hayotiy tajribalarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. O'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy fikrlash doirasini hisobga olgan holda muloqot o'rnatish olishi darkor.

I.A.Kolesnikova ta'kidlaganidek, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash nuqtayi nazaridan yondoshgan holda tashkil etishga e'tibor bermaydilar. Ular o'quv predmeti doirasida insonparvarlikka asoslangan ta'lim-tarbiya berishga intilishlari kerak[6].

Barchamizga ayonki, shaxs ijtimoiy hayot mahsulidir. Insoniyatning shu kungacha taraqqiyoti va svilisatsiyasi inson faoliyatining mahsuli. Bu faoliyat esa insonni har tomonlama, bir butun va yaxlit holda rivojlantiradi. Ta'lim jarayonidagi faollik bolaning o'rganishda chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini erkin holatda namoyish etishga dasturi amal bo'ladi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq, amalga oshirish uchun uni mos holatda tashkil etishni ham bilish kerak. Ta'limda hamma vaqt har bir bolaga bir xil yondashuv samarali bo'lavermaydi.

Boshlang'ich ta'limda bolaga shaxsga asoslangan ta'lim asosida e'tibor zaruriy hisoblanadi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida qay darajada saqlab qolishni, asosan, uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi[8]. Boshlang'ich ta'limda bolaning qiziqishi uning ta'limdagi faolligini ta'minlaydi. Bu esa o'qituvchining bolaga shaxsga asoslangan yondashuviga bog'langan.

Kichik maktab yoshidagi bolaning shaxs sifatlarining shakllanishi o'quv faoliyatidagi hamkorlikka ham bog'liq. G.A.Sukerman va V.V. Rubsovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, tengdoshlari bilan o'quv faoliyatidagi hamkorlik natijasida bolalarning tafakkuri rivojlanadi va muloqot ko'nikmalari shakllanadi. Tengdoshlari bilan birgalikda hamkorlikda ishlaydigan bolalar o'zlarining imkoniyatlari va bilim saviyalarini yaxshi anglaydilar[9]. Hamkorlik an'analari sinfda tashkil etish ham ko'pgina holarda o'qituvchi tashkilotchiligiga bog'liq.

Demak yuqoridagi fikr-mulohazalar orqali boshlang'ich sinf pedagog faoliyatida shaxsga asoslangan o'qitishga yondashuv bo'yicha quyidagilarni xulosa sifatida beramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda markazda bola shaxsi(qiziqishlari,layoqati va boshqa) – uning atrofida boshqa elementlar joylashadi;

Boshlang'ich ta'limda bola shaxsining alohidaligini doimo hisobga olish;

Shaxsga asoslangan ta'limda pedagogning munosabati – ta'limni samaradorligini ta'minlaydi;

Shaxsga asoslangan ta'limda har bir bola – subyekt, noyob, qobiliyatli yoki iste'dod egasi;

Shaxsga asoslangan ta'lim asosi – insonparvarlik g'oyasi mavjud;

Shaxsga asoslangan ta'limda bolaning qalbini va yuragini ulug'lash;

Boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rag'batlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashni bolada odatlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 637-son. 23.09.2020.

H.T.Omonov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. – Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2009. – 21-bet. 2

N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik – T.: Cho'lpon NMIU, 2012. 208 bet

N.N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma, Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent – 2006.

A.V.Petrovskiy, V.V.Shpalinskiy. Sotsiolojika psixologiya kollektiva: Ucheb. Posobie. –M, 1978.

A.Musurmanov va boshqalar /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2020. - 194 bet.

Z.Dilmurodova. Kichik maktab yoshidagi bolalar qobiliyatlarini rivojlanishi//Актуальные проблемы обучения социальногуманитарных наук в медицинском образовании» Международная научно-практическая онлайн конференция. 2023.№ 3. 487-493 bet

Ch.Mamaziyayeva. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijobiy munosabat usullarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlar//Uzbek Scholar Journal Volume- 04, May, 2022

BOSHLANG‘ICH MATEMATIKA DARSLARIDA KO‘RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA UNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Jonzoqova Barno Sobir qizi,

*Samarqand viloyati Tayloq tuman XTBga qarashli 1-umumiy o‘rta ta’lim
maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ko‘rsatmalilikning boshlang‘ich ta’limdagi roli o‘quvchilar-ning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko‘rsatmalilikdan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradi, ularning e’tiborini, o‘rganilayotgan materialni puxtaroq o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtni tejash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ko‘rgazmalilik, harakatli o‘yinlar, dinamik, ijodkorlik, matematik tushunchalar, matematik madaniyat.

Abstract: The role of instruction in primary education is to develop students' abstract and concrete thinking. In addition, the use of instruction activates students, allows them to pay attention, learn the studied material more thoroughly, creates better conditions for managing the educational process, and provides a way to save time.

Key words: visibility, action games, dynamics, creativity, mathematical concepts, mathematical culture.

Резюме: Роль обучения в начальной школе заключается в развитии абстрактного и конкретного мышления учащихся. Кроме того, использование инструкции активизирует учащихся, позволяет им сосредоточить внимание, более глубоко усвоить изучаемый материал, создает лучшие условия для управления учебным процессом, дает возможность сэкономить время.

Ключевые слова: наглядность, активные игры, динамика, креативность, математические понятия, математическая культура.

Dunyo imoratlari ichra eng ulug‘ maskan maktab bo‘lsa, kasblar ichida eng sharafli o‘qituvchi kasbidir. Men shu sharafli kasb egasi bo‘lganimdan faxrlanaman.

Bilamizki, uzluksiz ta’lim tizimining asosini boshlang‘ich ta’lim tashkil etadi. Agar o‘quvchi boshlang‘ich sinfda yaxshi o‘zlashtirsa, yuqori sinfda ham qiynalmaydi. Hozirgi kungacha matematika darslarida ko‘rgazmali qurollardan

o‘rinlicha foydalanish va ularning ahamiyatini o‘rganib chiqqan holda, uni yanada shakllantirmoqchiman. Maqsadim boshlang‘ich sinf matematika darslarida ko‘rsatmalilikning imkoniyatlarini ochib berish.

Matematika darsining o‘ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o‘quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o‘rganiladi. Matematika boshlang‘ich kursining boshqa oziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o‘quv malakalar singdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o‘zining "Язык обучения математики" kitobida "Maktab o‘quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bolinadi", -deb takidlaydi. Birinchi navbatda ular obyektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni — matematik reallikni aniqlab oladilar. Bunda ob'yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda matematik reallik jumlasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak ushbu reallikni o‘quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya'ni kundalik turmush bilan bog‘liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog‘liq holda matematika o‘qitishni tashkil etish o‘quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. Kundalik turmush bilan bog‘liq misollar yechish asosida o‘quvchi matematik bilimlar shunchaki o‘zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o‘zlashtirilishi lozimligi to‘g‘risida xulosa qiladilar.

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi:

- yangi materialni o‘tish;
- o‘tilgan materialni mustahkamlash;
- bilimlarni mustahkamlash;
- bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish;
- mustahkam o‘quv va malakalar hosil qilish va hokazo.

Matematika darslarining o‘ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o‘quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko‘rgazmali vositalar, o‘qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o‘quvchilarning faolligi, sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi, kabilarga ham bog‘liq.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O‘quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to‘g‘ri va aniq so‘zlashni, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

Ko‘rsatmalilikning boshlang‘ich ta‘limdagi roli o‘quvchilar-ning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko‘rsatmalilikdan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradi, ularning e‘tiborini, o‘rganilayotgan materialni puxtaroq o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtni tejash imkonini beradi, ya'ni: ko‘rsatmalilikdan foydalanish samarali bo‘lishi uchun eng oldin nazariyaning u

yoki bu masalasi qaralayotganda foydalaniladigan ko'rsatmali materialni tanlashni o'ylab ko'rmoq kerak.

Ko'rsatma materiallarni tanlashga nisbatan qo'yiladigan talablarni qarab chiqamiz:

yetarlicha miqdorda ko'rsatma material bilan ta'minlash, bulami tahlil qilish asosida o'quvchilar kerakli umumlashtirishlarini qila oladigan bo'lishlari kerak. Masalan, bolalarni 4 sonning hosil bo'lishi bilan tanishtirishda o'qituvchi oldindan bunday amaliy ish tashkil qiladi: u uchta doirachaga bitta doirachani; uchta cho'pga bitta cho'pni qo'shishni taklif qiladi, shu ishni boshqa didaktik materiallarda bajartiradi.

har xil ko'rsatma materiallar bilan yetarlicha ta'minlash juda muhimdir. Bu o'rinda doimo psixologlar tomonidan ifodalangan qoidani esda tutish kerak: "o'quvchilarda to'g'ri umumlashtirishlar tarkib toptirishning zaruriy sharti beriladigan o'quv materialining muhim xususiyatlarini o'zgartinmay saqlagan holda uncha muhim bo'lmagan xususiyatlarini turlantirishdan iborat". Masalan, 3 soni predmetlarning o'zganasi soni (3) kabi tushuncha uchun muhim xususiyatdir, predmetlarning rangi, o'lchami, tekislikdagi joylashuvi muhim bo'lmagan xususiyatdir. Shu sababli, o'quvchilarni 3 soni bilan tanishtirilgan ekan, bir jinsli predmetlardan iborat to'plamlardan (bir xil andaza bo'yicha qiyilgan uchburchaklar, doirachalar va hokazolardan)gina emas, balki har xil predmetlardan (masalan, har xil rangli va o'lchamli doirachalar, katta va kichik har xil ko'rinishli va har xil rangli olmalar) dan iborat to'plamlardan foydalanish kerak, chunki aks holda bolalarda bir xil predmetlarnigina sanash mumkin, degan noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishi mumkin.

matematika o'qitishda sekin-asta, ammo o'z vaqtda ko'rsatmalilikning bir turidan ikkinchi turiga o'tishni ta'minlay olishi kerak. Masalan, o'qitish jarayonida masalalar shartlarini illyustratsiyalashda amalning o'zini ham namoyish qilish bilan birgalikda amallarni ko'rsatmay to'la predmet ko'rsatmalilikka, so'ngra esa to'la bo'lmagan predmet ko'rsatmalilikka o'tish ta'minlanishi kerak.

Matematika o'qitishda harakatli, dinamik qo'llanmalarga afzallik berish kerak. Harakatli ko'rsatma-qo'llanmalar bilan bir qatorda individual ko'rsatma qo'llanmalar ham, har xil didaktik materiallar ham zarur. Boshlang'ich matematika o'qitishda ko'rsatma-qo'llanmalarning har xil turlaridan foydalaniladi. Ko'rsatma-qo'llanmalarning turlarini bilish ularni to'g'ri tanlash va o'quv jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi.

Ko'rsatma qo'llanmalarni ikkita, ya'ni natural va tasviriy ko'rsatma-qo'llanmalarga bo'lish qabul qilingan. Ko'rsatma qo'llanmalar ma'lum talablarga muvofiq bo'lishi, chunki ular o'quv dasturiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bilim va uquvlarni mustahkamlash bosqichida turli-turli mashqlar uchun ma'lumot jadvalaridan, og'zaki sanoq uchun jadvalardan, masalalar tuzish uchun rasmlar, sxemalar va chizmalardan keng foydalaniladi. Matematik amallar xossalari o'rganish, ko'paytirish jadvalini tuzish va hokazolarda foydalanish mumkin.

Ko'rgazmalilikning turli xii manbalaridan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning diqqatini oshiradi va rivojlantiradi, o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi va vaqtni tejash imkonini beradi.

Tabiiy fanlarga qaraganda matematikadan ko'rgazmalilik va ko'rgazma manbai tubdan farq qiladi. Tabiat fanlarida narsalarning aynan o'zini ko'rsatish imkoni bo'lsa, matematikada esa abstrakt xarakterga ega, bo'layotgan hodisaning o'zini aynan ko'rsata olish imkoni kam. Matematikada ko'rgazmalilik:

a) ko'rsatilayotgan ob'yektlar to'plamining elementlari sifatida qaraladi, ular ustidan ba'zi amallar bajarish mumkin. Masalan, o'qituvchi savatdagi olma, daraxtdagi qushlar haqida gapirganda, olmaning yoki qushlarning qandayligi haqida to'xtalmaydi, balki ularning soni va sonli munosabatini aniqlaydi.

b) u yoki bu narsa haqida gap yuritilganda, uning shaklini yoki narsaning miqdori sonli xarakterini tekshirish mumkin. Narsalarning sonli munosabatini o'z holicha va shakllarini ko'rishda ko'pincha hodisaning aynan o'zidan foydalanib bo'lmaydi.

Shuning uchun o'qituvchiga turli xildagi ko'rgazmalilik, birinchi navbatda modellar, chizma, sxemalar yordam beradi. Matematika o'qitishning turli xil bosqichlarida va uning turli xil bo'limlarida ko'rgazmalilikda bir xilda foydalanish kerak emas. Masalan, matematika o'qitishning dastlabki bosqichlarida to'plam elementlari bilan doimo mulohaza qilishga to'g'ri keladi. Lekin bu ko'rgazmalilikning roli sekinlik bilan kamaya borib, uning o'rnini simvollar (raqam, belgi) egallay boshlaydi. Masalalarni yechishda esa ko'rgazma sifatida narsalar va ularning tasvirlari qo'llaniladi.

Geometriyani o'qitishda esa fazoviy va shakl munosabatlarning ko'rgazmasi sifatida turli xii modellar va ularning tasvirlaridan foydalaniladi. Shu bilan birga o'qitishning birinchi qadamidayoq o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak: cheksiz to'g'ri chiziq, nur, burchak va boshqalar haqidagi tasvirlarni to'g'ri chiziqdan boshqa modellar bilan ko'rsatish imkoni yo'q.

Ko'rgazma qurollarga qo'yiladigan talablar ko'rgazma samarali bo'lishi uchun ba'zi bir talablarga rioya qilishi kerak. Ko'rgazma qurollarga qo'yiladigan umumiy talablar: mazmunining ilmiyligi, o'quv dasturiga mosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi. Yasalishi va ichki ko'rinishining ko'rish masofasiga mosligi, bajarilishning tozaligi, foydalanish qulayligi, matematikani tushuntirishga foydaliligi.

Matematika o'qitishdagi ko'rgazma manbalari mazmun jihatdan sodda va aniq bo'lishi kerak. Bu ko'rgazma qurollar matematika o'qitish bosqichlarida ketma-ket quyidagi tartibda qo'llaniladi:

- a) atrofdagi mavjud narsalar (sinf xonasidagi narsalar, o'simliklar);
- b) o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan narsalarning tasvirlari va rasmlari;
- c) shu narsalarning shartli tasvirlari;
- d) sxemalar va hokazo.

Ko'rgazmalilik prinsipi - ta'lim jarayonida juda keng qo'llaniladi. O'qitishning ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish, demak bu - ko'rgazma qurollarga tayanish, o'quvchilar hissiy bilishining barcha jihatlariga rahbarlik qilish va boshqarishdir.

4. Нестерова, Г. Ф. Психолого-социальная работа с инвалидами: абилитация при синдроме Дауна / Г. Ф. Нестерова, С. М. Безух, А. Н. Волкова. – СПб.: Речь, 2006. – 128 с. – ISBN 5-9268-0517-1.

5. Нефедова, Е. Путь в страну «Инклюзия» / Е. Нефедова // Учитель, 2011. - №4. – С. 69-71.

6. Rizayeva Sh.M. “Pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash” XVPYMO‘MM konfrensiya.

TA’LIM TIZIMLARI XALQARO MIQYOSDA BARQAROR MUVAFFAQIYATGA ERISHGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINI TAHLIL QILISH ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ismatova Maxzuna Shavkatovna
SamDChTI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimlari xalqaro miqyosda barqaror muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar, ya’ni Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreyada ta’lim tizimlarini rivojlantirish tajribasini tahlil qilish va tizimlashtirish asosida O‘zbekiston ta’lim sifatini rivojlantirish istiqbollarihaqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, milliy ta’lim tizimlari, Singapur, Finlyandiya, Janubiy Koreya, magistr darajasi, maktab realiyalari, nazariya, amaliyot

Hozirgi kunda o‘qituvchilar ta’limi sifatiga oid so‘nggi ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini taqdim etuvchi eng tez-tez keltirilgan tahliliy manba har bir milliy ta’lim tizimida tan olingan barqaror natijalarga erishish yo‘llari va usullarini xalqaro va milliy o‘lchovlar darajasida tahlil qilishga bag‘ishlangan McKinzey xalqaro mualliflik konsalting kompaniyasi (mualliflar Barber va Moorshed) hisoblanadi. Mualliflar tomonidan keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qitish sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining samaradorligi va ularning doimiy kasbiy rivojlanishiga bog‘liqdir [3]. Ushbu maqolada mualliflarning ta’kidlashicha, kichik, ammo tizimli muhim omillar tadqiqotchi Fullan "keng ko‘lamli takomillashtirishga javob" deb atagan ta’sirga olib kelishi mumkin [11].

Ushbu xulosalarning aniq inkor etilmasligiga qaramay, amalda hali ham nomuvofiqlik mavjud bo‘lib, YUNISEF hisobotida "maktabdagi amaliy ish davrida boshlang‘ich, tayyorgarlikdan oldin o‘qitish va uzluksiz malaka oshirish o‘rtasidagi innovatsion bo‘shliq" deb nomlangan va bu Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, shu jumladan, O‘zbekiston ham uchun dolzarbdir. [7].

Shunday qilib, YUNESKONing Xalqaro Ta'lim Byurosi [12] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'qituvchilarning asosiy pedagogik ta'limi bilan bog'liq asosiy muammo - bu oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarining maktablarda haqiqiy amaliyot bilan muvofiqlashtirilishining sustligi, bu esa yosh o'qituvchilarni o'z kasbi bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashi uchun etarli bilim, ko'nikma va uslubiy vositalarga ega emasliklaridan kelib chiqadi.

Milliy ta'lim tizimlarining xalqaro standartlarga muvofiqligi to'g'risida Jahon bankining SABER (Tizimning yanada yaxshiroq ta'limga yo'naltirilganligi) hisobotida "O'qituvchi kasbida eng yaxshi mutaxassislarni jalb qilish", "Rasmiy va norasmiy ta'limda o'qituvchilar malakasini oshirish", "Pedagogik ish uchun motivatsiya" kabi ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonendigina shakllanayotgan darajani ko'rsatadi va "Maktablarda o'qituvchilarni o'rnatilgan tamoyillarga muvofiq boshqarish" ko'rsatkichlar bo'yicha esa yashirin darajaga ega. Buning sababi shundaki, maktab direktorlari o'qituvchilarning ishini nazorat qilishlari va o'qitish amaliyotini takomillashtirishda ularga yordam berishlari kerakligiga qaramay, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim mutaxassisliklari klassifikatorida maktab rahbarini tayyorlash va unda nazoratchi-metodist, maktab ma'muri kabi kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassisliklar mavjud emas.

Endi ta'lim tizimlari xalqaro miqyosda barqaror muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish, va ularning asosida - O'zbekiston ta'limi tizimi sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy harakatlarni ko'rib chiqamiz.

Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreyada ta'lim tizimlarini rivojlantirish tajribasini tahlil qilish va tizimlashtirish O'zbekistonoliy pedagogik ta'limi sharoitida maqbul bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va bir qator strategiyalarni shakllantirishga imkon berdi.

Birinchi yo'nalish: mamlakatda o'qituvchilik kasbining holati.

Finlyandiya. O'qituvchilik kasbi eng hurmatga sazovor va talab qilinadigan kasblardan biridir. "Pedagogika" ga kirish qiyin: Ta'lim fakultetiga o'qishga kirishga ariza berganlar orasida o'rtacha 8,0-10,0% o'qishga kiradi. O'qituvchi kasbining holatini yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan choralar:

1. Kirish talablari: barcha o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishi kerak.
2. Amaliyotni o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga integratsiyalash.

Barcha pedagogika fakultetlarida keng miqyosli maktab dasturi nazorati ostida o'rta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda talabalar dastlabki o'qitish amaliyotidan o'tadilar. Ushbu tashkiliy tuzilma talabalar o'quv dasturining mazmuni bilan maktab realiyalari (haqiqatlari) o'rtasida mustahkam bog'lanishni ta'minlaydi va fakultetlarga maktablarda olib borilgan kuzatuvlar asosida o'z dasturlarini moslashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

3. O'qituvchilar o'rtasida hamkorlik maktablarda muhitni yaratishda namoyon bo'ladi, bunda birgalikdagi rejalashtirish, pedagogik muammolar bo'yicha fikr almashish va o'zaro murabbiylik maktab hayotining o'ziga xos xususiyatlariga aylanadi.

4. Ta'lim tizimining o'qituvchilar o'qitish uslublarini ishlashlari kerak bo'lgan aniq sharoitga moslashtirishga tayyorligini ta'minlashga qaratilganligi.

5. Ilg'or tajribalarni umumlashtirish va tarqatish, zaif joylarni aniqlash va har bir maktabning o'z natijalari uchun javobgarligini oshirish maqsadida akademik ko'rsatkichlarning tizimli monitoringini amalga oshirish.

Singapur. Barcha o'qituvchilar davlat amaldorlari hisoblanishadi. Ichki imkoniyatlarga qarab, maktab o'zi mustaqil ravishda o'z o'rnini tanlaydi va Ta'lim vazirligi oldida o'z rivojlanishining haqqoniyligini asoslaydi. Dastur tasdiqlangandan so'ng, maktab qo'shimcha manbalarni oladi va tanlangan yo'nalish bo'yicha ilg'or tajribalarni rivojlantirish markaziga aylanadi.

Janubiy Koreya. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'rta maktab o'qituvchisi maqomi o'rtasida sezilarli farq bor. Bu tafovut hukumatning siyosati bilan to'liq va butunlay asoslanadi, chunki hukumat boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasb-hunar ta'limi joylarining mavjudligini qat'iy nazorat ostiga olganligiga sabab, ta'limning aynan shudarajasida o'qitish sifati o'ta muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi.

Ikkinchi yo'nalish: pedagogik mutaxassisliklar uchun tanlov tizimi.

Finlyandiya. Tanlov abituriyentlar bilan bir qator suhbatlar asosida amalga oshiriladi:

Birinchi suhbat. Maqsad: abituriyentni ushbu fakultetni tanlashiga turtki bo'lgan sabablarni aniqlash, kelajakdagi kasb haqida bilishini aniqlash.

Ikkinchi suhbat magistr darajasini olish uchun keyingi bosqichda o'qishni davom ettirishga qaror qilgan bakalavrlar bilan bo'lib o'tadi, chunki yana bitta joy uchun 4-5 kishilik raqobatgadosh berish kerak.

Uchinchi suhbat – yosh mutaxassis o'qishni tugatgandan so'ng ishlashni istagan maktabning ish beruvchisi bilan. Ushbu bosqich professional motivatsiya, muloqotga kirish qobiliyatlari, hissiy munosabatlarga moslashuvchanlik va boshqalarga mosligini sinovdan o'tkazadi. Natijada, bitiruvchilarning atigi 30 foizigina ushbu tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, birinchi urinishda ish topadilar.

Singapur. Tanlash bosqichlari.

Birinchi bosqich – nomzodning rezyumesini baholash. Minimal talablar: abituriyentni o'z yosh guruhidagi akademik ko'rsatkichlar reytingining eng yuqori 30 foiziga kirishi; kerakli fan sohasiga mos keladigan pedagogik bo'lmagan mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotning mavjudligi; uning bolalarga, o'qitish jarayoniga va umuman o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi. Belgilangan fan bo'yicha ixtisoslik bo'yicha oliy ma'lumotli nomzodlarga ustunlik beriladi.

Ikkinchi bosqich – funktsional test va savodxonlikni baholash.

Uchinchi bosqich – abituriyentning psixologik munosabati va shaxsiy fazilatlarini baholash uchun suhbat, o'qitish faoliyatini testdan o'tkazish va tekshirish.

To'rtinchi bosqich – kasbning dastlabki bosqichlarida standartlarga muvofiqligini baholash. Barcha tanlov bosqichlarini o'rtacha oltita abituriyentdan biri engib chiqishi mumkin.

Janubiy Koreya. Boshlang'ich maktab o'qituvchisi sifatida ishlashni istagan abituriyent to'rt yil universitetda o'qiganidan keyingina pedagogika bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lishi mumkin. Ariza beruvchi o'z ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori beshta pog'onani egallashkerak.

Uchinchi yo'nalish: o'qituvchilar ta'limi mazmuni.

Finlyandiya. Pedagogik mutaxassisliklar o'quv rejasiga profilli va pedagogik amaliyotga muvofiq predmet mutaxassisini tayyorlashga yo'naltirilgan fanlar kiradi: 67% - nazariya va 33% - amaliyot. Universitetda o'qishning asosiy maqsadi talabani mustaqil ravishda tadqiqot olibborishga o'rgatishdir, shunda oimomaktabda o'qitish dasamarali usulvayondashuvlarni izlaydi. Shu munosabat bilan mashg'ulotlar mazmunidagi ma'ruzalar va seminarlar bilan bir qatorda ta'limning dastlabki bosqichlarida ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishni boshlaydigan talabalarning mustaqil ishlarining katta qismi mavjud. Shunday qilib, trening ilmiy ish bilan amaliyot bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi va jiddiy tadqiqot yo'nalishi bilan ajralib turadi ("O'qituvchi tadqiqotchi sifatida" kurs ishi barcha talabalar uchun majburiydir).

Faqatgina magistr darajasiga eg bo'lgan shaxslar maktablarda o'qitishga ruxsat beradilar, ularni olish uchun quyidagi kurslardan majburiy o'tish talab etiladi:

- kommunikativ kompetentsiya (12 kredit);
- ta'lim texnologiyalari (75 kredit);
- pedagogika va psixologiya (35 kredit);
- asosiy fan ixtisosligi (35 kredit).

Singapur. Milliy Ta'lim Institutidagi ta'lim ingliz (o'quvchilarning kichik akademik guruhlari) va Amerika (kredit tizimi) ta'lim tizimlarining xususiyatlarini birlashtirgan modulli tizimga asoslangan.

Talabalarga dastlabki ikki semestrda turli fakultetlarda yoki ikki darajali dastur bo'yicha tanlov asosida o'qishga ruxsat beriladi, masalan: san'at, ijtimoiy fanlar va texnologiyalar bakalavri; san'at, ijtimoiy fanlar va huquq bakalavri; biznes va muhandislik bakalavri; biznes va huquq bakalavri va boshqalar.

Barcha o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari va o'quv rejaları quyidagi nisbatni taklif qiladi: umumiy pedagogik fanlar (20%); ilmiy-tadqiqot dasturi (50%); amaliyot (25%); muloqotga kirish qobiliyatlari (5%).

O'quv dasturi o'qituvchilarning maktablarda muayyan fanlarni o'qitish uchun pedagogik mahoratini rivojlantirishni nazarda tutadi. O'qituvchilar maktablarda o'qitiladigan amaliyot, dasturga qarab, 1-10 hafta davom etadi. Amaliyot davomida tinglovchilar ikkita o'qituvchining murabbiyligi ostida ishlaydi: maktabdan va universitetdan. Qo'shimcha ma'lumot olish jarayonida o'qituvchilar uch guruhga bo'linadi:

o'qitish - o'z kasbini maktabga bag'ishlashni va maktab ichida qo'shimcha vazifalarni o'z zimmasiga olishni, treninglar o'tkazishni, yosh o'qituvchilar uchun ustozlikni amalga oshirishni istaganlar uchun;

mutaxassislik - Ta'lim vazirligida ishlashni istaganlar, ta'lim siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda, umumiy majburiy standartlarni yaratishda qatnashadiganlar uchun;

etakchilik - o'z faoliyatini uslubiy komissiyalar rahbari, bosh o'qituvchi yoki direktor sifatida davom ettirishni rejalashtirganlar uchun.

Janubiy Koreya. O'qituvchilar tarkibini tayyorlash bo'yicha o'quv rejasi 4 ta fan guruhiga bo'lingan: asosiy fan yo'nalishi - 22 ta kredit; umumiy kasbiy fanlar kursi - 52 ta kredit; maxsus fanlar kursi - 54 ta kredit; fanlarning uslubiy kursi - 22 ta kredit.

Shubhasizki,

harbirmamlakattomonidan rivojlanish strategiyasini tanlash va ishlab chiqish noyob mada niy va kontekstual milliy xususiyatlarga,

buholda O'zbekiston xususiyatlariga moslashtirilish kerak.

Milliy ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatli tajribalarida bir qator universal strategiyalar mavjud bo'lib, ulardan foydalanish O'zbekiston uchun foydaliv asamarali bo'lishi mumkin. Jumladan:

1. O'qituvchi kasbining maqomini yaxshilash uchun quyidagi talablardan foydalanish mumkin:

maktab o'qituvchisi sifatida ishlashga da'vogarlarining majburiy magistr darajasi;

o'qituvchilar tarkibini tayyorlashning nazariy va amaliy tarkibiy qismlarining optimal kombinatsiyasi;

kasbiy tayyorgarlikni kutilayotgan kompetentsiya darajasiga yo'naltirish va maktab amaliyotining haqiqiy talablariga mos kelishi;

ish haqini taqsimlash mexanizmini o'zgartirish (keyinchalik boshlang'ich stavkasi biroz ko'tarilib, o'qitish samaradorligi va qo'shimcha kasbiy tayyorgarlik darajasiga qarab rag'batlantirish va boshqalar);

maktablarning rivojlanish yo'nalishlarini, ularning mintaqaviy xususiyatlarga muvofiq profilini belgilashda klaster printsiplini qo'llash.

O'zbekistondagi oliy pedagogik ta'lim mutaxassisliklari klassifikatori, xususan, mutaxassisliklarni integratsiya qilish jihatidan tubdan yangilanishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, Singapur tajribasi asosida qo'shimcha mutaxassisliklar guruhlarini tuzilishi samarali bo'lishi mumkin: o'qitish, ixtisoslashish, etakchilik, ayniqsa o'zbek klassifikatorida "maktab rahbari, ta'lim bo'yicha menejer" mutaxassisligi yo'qligi va shunga ko'ra, universitetlarning o'qituvchilik mutaxassisliklari uchun o'qitishni ta'minlamaganligini ko'rishimiz mumkin.

Abituriyentlarni tanlash uchun yagona bosqich tizimidan foydalanish mumkin:

1. Tillarni bilishni quyidagi darajalarga muvofiqligini baholash:

CEFR talablariga muvofiq davlat (o'zbek) tilini bilish darajasini baholash bo'yicha B1 darajadan past bo'lmagan (o'rtachadaryuqori); Ingliz tili - IELTS 5,5 darajadan past emas.

2) Maktab faoliyati bilan tanishish uchun o'sha erda kamida besh haftalik stajirovka;

3) Universitet o'qituvchisi; maktab o'qituvchisi; viloyat ma'muriyati shahar, tuman ta'lim bo'limi vakili kabi a'zolarini o'zichiga olgan komissiya bilan suhbat, komissiya tomonidan abituriyentning psixologik munosabati va shaxsiy fazilatlarini baholash;

4) Funktsional test, savodxonlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash;

5) Abiturient tomonidan yozilgan va uning bolalarga, o'qitish jarayoniga va umuman o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishini isbotlovchi inshoni baholash;

6) O'qitishning birinchi semestri davomida bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish dinamikasini shakllantiruvchi baholash, u bo'lmagan taqdirda abiturient ta'lim dasturidan chetlashtiriladi. Asosiy baholash mezonlari: pedagogik ish uchun motivatsiya, o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy rivojlanish qobiliyati.

O'qituvchilar tarkibini tayyorlaydigan universitetlarni baholash mezonlariga muvofiq:

1) universitetlarning professor-o'qituvchilar tarkibi (o'zbek (rus), ingliz) uchun til malakasining majburiy darajasi;

2) doktorlik ilmiy darajasining majburiy mavjudligi;

3) o'z ilmiy va pedagogik rivojlanishining maxsus ishlab chiqilgan traektoriyasi sharoitida eng yaxshi jahon tajribasini umumlashtirish uchun ilmiy-pedagogik amaliyotlar tizimi;

4) professor-o'qituvchilar reytingi tizimini joriy etish: mezonlar tizimidagi birinchi o'nlikka muvofiq;

5) pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini ekspert baholash va monitoringini amalga oshirish uchun pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida Tadqiqot markazini yaratish, uning natijalari bo'yicha ma'lum bir universitet tomonidan pedagog kadrlar tayyorlashni davom ettirish yoki tugatish o'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

Pedagogik ta'limning mazmuni bo'yicha:

1) pedagogik mutaxassisliklar o'quv dasturini asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan fanlarning bloklari mazmuni bilan tuzish:

Birinchi blok. Umumiy madaniyat, uslubiy kompetentlik (shaxsni rivojlantirish, fikrlash qobiliyati, siyosiy va diniy yo'nalishdagi umumiy tendentsiyalarni mazmunli anglash va integratsiyalashgan qarash; yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy shart-sharoitlarini anglash va boshqalar) - 12 kredit;

Ikkinchi blok. Til, kommunikativ kompetensiya (ijro mahoratlari, taqdimotlar; CEFR talablariga muvofiq davlat (o'zbek) tilinibilish darajasiva IELTS (ingliztili) talablariga muvofiqtilni bilish darajasi har yili oshib borishi - 12 ta kredit;

Uchinchi blok. Psixologik va pedagogik kompetensiya (pedagogika va psixologiya nazariyasi, fiziologiya; didaktika asoslari, maktabshunoslik va boshqalar) - 35 kredit;

To'rtinchi blok. Fan kompetensiyasi (o'qitiladigan fanning metodikasini bilish) - 35 kredit;

Beshinchi blok. Metodik, texnologik, AKT vakolatlari (zamonaviy usul va yondashuvlarni bilish, inklyuziv o'rganish uchun ularni o'zlashtirish va kutilgan natijalarga erishish) - 75 kredit;

Oltinchi blok. Tadqiqot, baholash kompetensiyasi (O'zining o'qitish amaliyotini o'rganish; baholash mezonlarini ishlab chiqish qobiliyatlari) - 10 kredit;

Doimiy amaliyot, universitetda o'qishning birinchi kunlaridan boshlab haftasiga kamida to'rt kun. O'quv dasturi bo'yicha kreditlarning umumiy soni 179.

2) Mustaqil o'rganishga, o'z ustida ishlash, o'z amaliyotini tahlil qilishga undaydigan ta'lim muhitini shakllantirishga yordam beradigan mashg'ulot formatini tasdiqlash;

3) o'qitishda xilma-xillik va fan integratsiyasi;

4) to'g'ridan-to'g'ri bilimlarni uzatish asosida o'qitish metodikasini mustaqil ta'lim qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan konstruktivistik yondashuv bilan almashtirish;

5) subyektlarning nafaqat odatdagi kombinatsiyada (fizika va astronomiya, kimyo va biologiya, tarix va ijtimoiy fanlar), balki fizika va san'at, tarix va jismoniy madaniyatning kompleks rivojlanishini nazarda tutadigan oqilona pragmatizm va iqtisodiy ratsionallik. Ushbu yondashuv O'zbekistondagi qishloq kichik maktablari o'qituvchilari uchun juda dolzarb va ahamiyatlidir;

6) yosh mutaxassisni o'qitish sifatini baholash tizimini ishlab chiqish va joriy etish, quyidagilarni nazarda tutadi: "sinov yili" amaliyotini joriy etish (universitet yoki institut bitiruvchisini maktab sharoitiga moslashtirish), bu davrda yosh mutaxassislar rivojlanish ko'magida bo'lishadi. Ushbu davrda yosh mutaxassis rasmiy ravishda "stajyor" maqomiga ega bo'lib, unga mentor (murabbiy) tayinlanadi. Ushbu davrda o'quv ishlarini rejalashtirish, malaka oshirish va o'z-o'zini o'rganish uchun etarli vaqtni ta'minlash uchun o'quv yuklamasining hajmi sezilarli darajada kamayadi. Ushbu davrda obaynida yosh mutaxassis muntazam ravishda attestatsiyadan o'tadi, natijada mentor(murabbiy) unga takomillashtirilishi kerak bo'lgan kasbiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

7) Kadrlar tayyorlash sifati uchun universitetlarning javobgarligini oshiradigan talablar tizimini ishlab chiqish;

8) Yosh mutaxassisni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan mentorlik (murabbiylik), ma'muriy qo'llab-quvvatlash, yakuniy bosqichda baholash.

Bizning fikrimizcha, doimiy bo'lishi va maktab sharoitlariga izchil moslashishga yordam beradigan bosqichlarni o'zichiga olgan kasbiy amaliyot mazmuniga alohida e'tibor talab etiladi:

- darslarni kuzatish, mulohaza yuritish, tahlil qilish, ustoz bilan muhokama qilish;

- darslarni nazorat qilish va ustozga tashkiliy masalalarda yordam berish (darsni rejalashtirishda ishtirok etish va ota-onalar bilan ishlashda, o'quv mashg'ulotlarida, resurslarni ishlab chiqishda va boshqalar);

- darslarni nazorat qilish va ustoz bilan birgalikda darslarni rejalashtirish, usullarni tanlash, o'quv tadbirlarini tayyorlash, o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash va hk.;

- darslar, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda ustozga yordam berish;

- ustoz huzurida darslarni mustaqil ravishda o'tkazish, o'quvchilarning ota-onalari bilan muomala qilish va boshqalar;

- ustoz bilan doimiy maslahatlashib, darslarni mustaqil ravishda o'tkazish;

- ustoz bilan birgalikda o'zining o'qitish uslublarini tanlash va kasbiy rivojlanish traektoriyasini ishlab chiqish.

Bizning fikrimizcha, ushbu o'zgartirishlar kompleks ishlatilishi asnosida pedagogika mutaxassisliklari talabalari va bitiruvchilarining o'qituvchilik kasbiga va maktab hayotiga izchil va muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr).

Axtamzyan N.A. Sistema gosudarstvenno-obhestvennogo upravleniya obrazovaniem v Germanii G'G' Pedagogika. – 2004. – № 6. – S. 85–93.

Barber M., Murshed M. Kak dobitya stabilno vo'sokogo kachestva obucheniya v shkolax. Uroki analiza luchshix sistem shkolnogo obrazovaniya mira G' M. Barber, M. Murshed G'G' Voproso' obrazovaniya. – 2008. – № 3. – S. 7–11.

Jivotovskaya I.G. Problemo' razvitiya vo'sshego obrazovaniya FRG G'G' Ekonomika obrazovaniya. – 2004. – № 3. – S. 93–105.

Karpenko O.M., Bershadsckaya M.D., Voznesenskaya Yu.D. Pokazateli urovnya obrazovaniya naseleniya v stranax mira: analiz dannox mejdunarodnoy statistiki G' O.M. Karpenko, M.D. Bershadsckaya, Yu.D. Voznesenskaya G'G' Sotsiologiya obrazovaniya. – 2008. – № 6. – S. 4–20.

Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy hujjatlari to'plami. –T., 2013.

Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: To'plam №6G' Ma'sul muharrir professor M.A. Rahmatullayev . –Toshkent: 2018.

Sedov V.A. Strategii otbora buduhix uchiteley v zarubejnoy praktike G'G' Chelovek i obrazovanie. – 2010. – № 3. – S. 117–122.

Sistema obrazovaniya SShA: kontrol nad sistemoy obrazovaniya i ee razvitie – www.infousa.ruG'educationG'ch2.htm (17.05.2011).

El-Khawas E. Accreditations role in quality assurance in United StatesG'G' Higher Education Management, November 1998. Vol.10No.3.p.43-56.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANLARINING UZVIYILIGI ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH

Xudoyqulov Jamshid Nishanovich,

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining uzviyligini ta'minlashning metodik tamoyillari va talablari sharhlangan. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining uzviyligini ta'minlashda o'qituvchining o'rni asoslangan. ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining uzviyligi asosida o'qish savodxonligini shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, o'qish savodxonligi, uzviylik, integratsiya, mantiq, fikr, tanqidiy fikr, kreativ fikrlash.

Аннотация: В данной статье описаны методические принципы и требования обеспечения целостности предметов родного языка и грамотности

чтения у учащихся младших классов. Роль учителя основана на обеспечении связности предметов родного языка и грамотности чтения в начальных классах. представлены методические рекомендации по формированию читательской грамотности на основе интеграции предметов родного языка и читательской грамотности.

Ключевые слова: родной язык, грамотность чтения, связность, интеграция, логика, мышление, критическое мышление, творческое мышление

Abstract: This article describes the methodical principles and requirements of ensuring the integrity of the subjects of mother tongue and reading literacy in elementary school students. The role of the teacher is based on ensuring the coherence of the subjects of mother tongue and reading literacy in primary grades. methodical recommendations on the formation of reading literacy based on the integration of the subjects of mother tongue and reading literacy are presented.

Key words: mother tongue, reading literacy, coherence, integration, logic, thought, critical thinking, creative thinking.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9- moddasi da umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari qo‘yidagicha ko‘rsatilgan:

Boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar)

Tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar)

O‘rta ta’lim (X-XI sinflar) dan iborat ekanligi takidlangan.

Ushbu moddada “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi”[1.3]- deb takidlangan.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgandir”ligi takidlanib boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari alohida ko‘rsatilib bolaning samarali ta’lim va tarbiya olishida aynan ushbu bosqichning alohida o‘rni mavjudligini e‘tirof etadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining uzviyligini taminlashda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rtta ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Boshlang‘ich ta’limning savod o‘rgatish bosqichi yakunlangach, ona tili va o‘qish savodxonligi darslar boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchil davom ettiriladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini integratsiyalab (uzviylik asosida) o‘qitishda quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, ongli yondashuv, tadqiqotchilikka asoslangan yondashuv, tanqidiy fikrlashga asoslangan yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish lozim.

2. Tilni amalyotda qo‘llashga o‘rgatish, ya’ni matnni o‘qish orqali, ham grammatka, ham uning qo‘llanilishini o‘rgatishni nazarda tutadi.

3. Grammatik savodxonlik dorasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’nosi, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish,

birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgaralar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, to'liq bayon qilinmagan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatni to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchisidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini egallashi nazarda tutiladi.[4.56]

5. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

6. O'quvchining o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Video va audiomateriallar yozuv savodxonligini shakllantirish bilan birga og'zaki nutqni rivojlantirishga amaliy yordam beradi. Videomaterial tilning qanday vaziyatda qo'llanayotganligi haqida tasavvurni shakllantirsa, audiomaterial ularning ohangini yaxshi o'zlashtirishga, so'zlarning qanday ma'no anglatishini tushunishga yordam berishga yo'naltirilgan.

8. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunish va his eta olish, "so'zni hazm qila olish" darajalar e'tiborga olinadi.

9. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali jodiy tafakkur, fikrlash doirasi shakllantirilib boriladi.

10. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi. "O'qituvchi kitobi"da ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'qitilayotgan nutqiy mavzular dorasida qanday malaka talablari qo'yilganligi, bunda qaysi jihatlariga e'tibor berish lozimligi, mashq va topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq metodik yo'l-yo'riqlar, darsni qanday texnologiya asosida tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.[3.76] Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. Belgilangan vazifalarni o'quvchilar mashq daftariga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunishi, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari, rasmlarni bo'yashlari mumkin.

O'qituvchi o'quvchiga zamon talablariga mos bilimlarni berishi uchun, avvalo, o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchisi yutuqlarining asosi bolalar bilan o'tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. [4.78] Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar va uning mazmunini yanada boyitishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar katta ahamiyatga ega:

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashda interfaol metodlar singari zamonaviy o'qitish metodlari yanada qo'l keladi. Ta'lim-tarbiyada zamonaviy o'qitish metodlari deganda yangi interfaol metodlar nazarda tutiladi.

Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact", (rus tilida "интерактив") ifodalaniib, lug'aviy ma'nosi "inter"-o'zaro, ikki taraflama, "act-harakat qilmoq" kabi ma'nolarni anglatadi, ular dars samaradorligini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda juda yaxshi natija beradi.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etib ushbu jarayonda interfaol metodlardan foydalanar ekanmiz. O'quvchilarning yosh va individual-psixologik o'ziga xos xususiyatlari albatta inobatga olinishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan, boshqarishga moyil bo'ladilar. O'quvchilarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l- atvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini samarali tashkil etishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari dastavval ta'lim tamoyillari bilan pedagogik texnologiya tamoyillarini chuqur bilishlari va interfaol metodlardan foydalanish jarayonida ulardan chetga chiqmasliklari, ularga to'liq amal qilishlari lozim. Chunki interfaol metodlardan foydalanib darslarni o'qitish jarayonida ba'zi bir o'qituvchilarning darslarni to'liq "o'yinga" aylantirib qo'yayotganlik holatlari ham uchramoqda. Interfaol metodlardan foydalanar ekanmiz, albatta, mavzu va uning maqsadidan chetlab ketmasligimiz lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy o'qitish metodlari bolalar o'rtasida do'stono muhit, o'zaro yordam, hamkorlikni yuzaga keltiradi, ulardan o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shunday ekan, biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z darslarida interfaol metodlardan o'rinli foydalanib, samarali ta'lim – tarbiya ishlarini olib borishga chorlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Monografiya. – T.: 2003. B – 48-70.
3. Marasulova U. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning adabiy- nazariy tushunchalarini shakllantirish va takomillashtirish. Ped.fan.nomz. diss. –T.: 2007. – B 25-26.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 144 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Go'zal Yorqulovna,

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman 57- maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darslari orqali kitobxonlikni shakllantirishning mazmuni yoritib berilgan. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni shakllantirish usullari tahlil qilingan. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari orqali kitobxonlikni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari haqida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: O'qish savodxonligi, kitobxonlik, o'qish, dars, hamkorlik, jamoa, individual xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье описывается содержание обучения читательской грамотности посредством занятий по читательской грамотности. Анализируются методы формирования чтения в начальных классах. Даны методические рекомендации о формах, методах и средствах развития чтения посредством занятий по читательской грамотности в начальных классах.

Ключевые слова: Читательская грамотность, чтение, чтение, урок, сотрудничество, коллектив, индивидуальные особенности.

Abstract: This article describes the content of reading literacy through reading literacy classes. The methods of formation of reading in primary classes are analyzed. Methodical recommendations are given about the forms, methods and means of developing reading through reading literacy classes in primary grades.

Key words: Reading literacy, reading, reading, lesson, cooperation, team, individual characteristics.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish uquvi va asar bilan tanishish jarayonida hosil bo'lgan ruhiy kayfiyati hisobga olinadi. Adabiy tushunchalarni o'rganish, kitobxonlikni rivojlantirish o'quvchilarning ichki hissiy kechinmalari bilan bog'lanmasa, ularda adabiyotga bo'lgan qiziqish susayadi. O'quvchilarda estetik zavq uyg'otish uchun o'qituvchi adabiy tushunchalardan vosita sifatida foydalanishi lozim.[2.235] Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirish badiiy asar matnining tahlili jarayonida shakllantiriladi. Jumladan, she'r, qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya (1-2-sinflar); rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, doston (3-sinf); sarlavha, obraz, jonlantirish, o'xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g'oya (4-sinf) kabi adabiy tushunchalar yuzasidan amaliy bilim hosil qilinadi. Mazkur tushunchalar dastur talablariga ko'ra 1-sinfdan boshlab badiiy asarning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan bog'lab shakllantiriladi.

1-sinf o'quvchilari ertak, masal, rivoyat, she'r, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytish janrlariga mansub asarlarni o'qiydilar va shu jarayonda ularni janriy xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlay boshlaydilar.[2.69] O'qituvchi bo'lim yuzasidan o'tkaziladigan takrorlash-umumlashtiruvchi darsda "Siz "O'zbekiston – mening Vatanim"[5.34] bo'limida qaysi she'r va hikoyalar bilan tanishdingiz? Vatan

haqidagi maqollarni ayting?“ kabi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Fasllarga doir bo‘limlar o‘rganilayotganda fasllarga bog‘liq topishmoqlar o‘quvchilarni atrofimizdagi olam bilan chuqurroq tanishtirishga yordam beradi.

2-sinfda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun “Bir parcha patir olamga tatir“ topishmog‘ining javobini toping. Uni topishda sizga nima yordam berdi?, Nima uchun buni topishmoq deb aytamiz?“, “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda“ maqoli nima haqda?, Uni kim yaratgan?, Siz bilan qaysi maqollarni o‘qib-o‘rgandik?, Nima uchun ularni maqollar deb nomlaymiz?“, “Qaysi ertaklarni o‘qidik?, Qaysi hikoyalarni o‘qidik?, Ertaklarni kimlar yaratadi?, Hikoyalarni kim yaratadi?, Qaysi biridagi voqealar hayotda bo‘ladi?, Ertakdagi voqealar hayotda yuz beradimi?, O‘zingiz bilgan ertaklar nomini ayting. Ertagingiz qanday boshlanib, qanday so‘zlar bilan tugaydi? Hikoya shunday so‘zlar bilan boshlanadimi?“ kabi savol-javoblar o‘rganilayotgan mavzular bilan bog‘liq holda tashkil etiladi.

3-sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar bilimi ibora, lof kabi janrlarga doir tushunchalar bilan boyitiladi. Tadqiqot muammosiga doir izlanishlarimizda u yoki bu janrga mansub asarlar o‘rganilayotganda boshqa janrga oid asarlarga taqqoslash ijobiy samara berishi kuzatildi.[3.98] Bir janrdagi asarlar o‘rganilayotganda boshqa janrdagi asarlarga taqqoslash orqali ularning farqi o‘rgatiladi.

4-sinfda didaktik talablardan kelib chiqqan holda badiiy asarda tugun, voqealar rivoji, syujet, kompozitsiya, g‘oya, tasviriy ifoda vositalari ustida ishlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan metod va usullarni belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy asarlar izohli o‘qish va ifodali o‘qish metodlarida o‘rganiladi. O‘qish darslarining vazifasi o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini takomillashtirish; badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish, kitob o‘qishni sevuvchi, undan zavq ola biluvchi haqiqiy kitobxonni tarbiyalash; o‘quvchilarni jamiyat va borliq, kishilarning xulq-atvori, mehnati, turmushi to‘g‘risida boshlang‘ich bilimga ega qilish; lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishdir.[2.34] Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar asarni amaliy tahlil qilish ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

Adabiy tushunchalarni shakllantirish bevosita badiiy asarni o‘rganish, tahlil qilish jarayonida amalga oshirilishi tufayli badiiy-estetik tahlilga oid ilg‘or va samarali usullar biz tadqiq etadigan ilmiy-metodik muammoga ham taalluqlidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida xilma-xil ta‘lim metodlaridan ko‘pincha aralash holda foydalaniladi.[3.56] Dars maqsadiga, sharoit taqozosiga ko‘ra zarur usullar tanlanadi. Pirovardida esa o‘quvchilarga bilim berish, adabiy asarni tushunish, mustaqil fikrlash, go‘zallikni his qilish, o‘z tushuncha va tasavvurlarini tiniqlashtirish, umulashma hayotiy xulosalar chiqarish kabi ko‘nikma-malakalarni shakllantirishda adabiy tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta‘lim standarti mazkur ta‘lim bosqichining har bir ta‘lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta‘lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi, tarkibiy qismlari, ta‘lim jarayonining vosita va metodlari

hamda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi bilan darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlang'ich ta'limning maqsadi yuzasidan uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

O'qish savodxonligi fanining dasturini tuzishda g'oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olingan. Undagi o'quv mazmuni o'quvchilarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo'lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o'qish dasturining tub mohiyatini tashkil etadi.

O'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmoni

B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

M.Raximqulova, H.Qoraboyev, N.Pardayev, A.Xudayarov Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish. Uslubiy qo'llanma.- Toshkent Qamar media nashriyoti, 2022- yil. 70 bet.

BOSHLANG'ICH TALIM TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO'L MEHNATIGA O'RGATISH

Murodillayeva Muhabbat Madillayevna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi Tel: +998979269396, E-mail: murodillayevamuxabbat@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, texnologiya, mehnat, qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil etish shakllari, ish turlari, mehnat samaradorligi, texnologik talablar, o'qitish metodlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya darslari qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina fanlar qatorida yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda texnologiya fani o'zining muhim o'rniga ega. O'quvchi voyaga yetib, qaysi

kasbni egallamasin, kim bo'lsin, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar dars va sinfdan tashqari texnologiya fani davomida tajribalar to'planadilar. Tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarga ega bo'ladilar. Bu borada mehnatning boshqa turlari singari qo'l mehnati turidan ham foydalanish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'l mehnati faoliyatining muhim natijasi—o'quvchilarning o'rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlashga da'vat etib, ularda darsdan darsga yanada chuqur bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qildiradi.

O'quvchilar qo'l mehnati sosida bajaradigan ishlar orqali mehnatning juda ko'p xususiyatlarini farqlash, materiallarning o'xshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin o'rganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda berilgan qo'l mehnati topshiriqlari va vazifalarni to'g'ri bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati faoliyati mehnatning o'z-o'ziga xizmat turi, maishiy xo'jalik mehnati, tabiat quchog'idagi mehnat turlari mazmun-mohiyati bilan bevosita bog'liq.

Bolang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz, karton, sitm, yog'och, gazlama va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xomashyolar (maxsus loy, yog'och va plastmasslar, plastilin, elim va boshqalar) bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektor, radiotexnika to'plamlari va hokazo bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asbobi bilan ishlash, har hil xom-ashyolardan foydalanishning ma'lum tajribasini to'plashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushinishga, mehnat kishilarda hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishga shakllantirishga yordam beradi. Qo'l mehnati mehnatning har bir turiga qarab o'zining pedagogik imkoniyatlarini hosil qiladi. Uning ahamiyati ham boshqa mehnat turlari ahamiyati kabi u yoki bu bosqichda o'zgararib turadi.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishning tashkil qilish shakillaridan yana biri - tabiat quchog'idagi mehnat turlari hisoblanadi. Bolalarning tabiat quchog'idagi mehnati jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, harakatni takomillashtiradi.

Tabiatdagi quchog'ida mehnat, shuningdek, bolalarning aqliy va sensor rivojlanishlari uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishning tabiat quchog'ida mehnat turi 2 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

Sinfda bajariladigan ishlar.

Sinfdan tashqari, ya'ni sinflar uchun ajratilgan yer maydonchasi(uchastka)si, ajratilgan hududlarda ishlash.

Tabiat quchog'ida bajariladigan mehnat bolalarning tarbiyasida ijobiy omillarni shakllanishiga katta asos qo'shadi. Bu mehnat turi orqali bolalardagi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik yanado oshadi. Ularda qishloq xo'jalik mehnatiga qiziqish ushbu ish bilan shug'ullanuvchi kishilarga nisbatan hurmat-izzatda bo'lish, ular mehnatini e'zozlash xislatlarini tarkib toptiradi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida: bolalarni mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevar, intizomli, har bir ishda ham o'z burchi va mas'uliyatini sezadigan, jamoaviy ishlarni qo'llab quvvatlaydigan qilib tarbiyalash hisoblanadi. Texnologiya darslarida bolalarga ish joyini batartib va ozoda saqlab, asboblarini ayab, ehtiyotlab ishlatish, materiallarni tejab yo'llari o'rgatiladi va ularni shunga odatlantiriladi.

O'quvchilar o'qituvchining darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy jihatdan ko'rgazmali bajarib berishini, mavzunu nazariy va amaliy o'zlashtirish qobiliyat va bilimlarni tekshirishini, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash usullarini eng boshidan o'rganishlari lozim. O'quvchilar mavzuga oid bilimlarni o'zlashtirgandan keyingina sinfning imkoniyatlarini nazarda tutgan holda yangisini qo'llash mumkin. O'qitish usullari o'quvchilar tomonidan bilimlarni egallanishida shunday xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda turli usullar tizimi qo'llaniladi. Jumladan: Og'zaki bayon qilish;

Tushuntirish va hikoya qilish;

Suhbat;

Mashqlar;

Amaliy ishlar;

Laboratoriya ishlari;

Mustaqil ishlar;

Ekskursiya;

Kitob bilan ishlash;

Texnik vositalar

Bu usullar qo'l mehnati darslarida bolalarni mehnat qilishning dastlabki malakalarini hosil qildirishda, qog'oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan o'z qo'llari bilan turli buyum yasash uchun foydalanish ahamiyatli hisoblanadi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalarga avvalo, eng oddiy buyumlardan turli shakllar, o'yinchoqlar, xilma-xil o'yinlar o'ynash uchun buyumlar, ko'rgazmali qurollar, o'qli asboblar va shu singari boshqa narsalar yasash o'rgatiladi.

Qo‘l mehatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyatlarini keng. Ayniqsa, bolalarni aqliy va axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan o‘stirishda qo‘l mehnati ta‘limining roli ko‘p qirralidir. Qo‘l mehnati o‘zining qiziqarliligi va amaliy ishlarga jalb qilish jarayonlari bilan o‘quvchilarning bilim olishlariga intilishlarini qo‘zg‘ovchi nafaqat vositasi, balki uning manbai, omili hamdir.

Mehnat samaradorligini oshirishda qo‘llaniladigan har qanday usul o‘quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarning etarli darajada egallanishiga xizmat qilishi kerak. O‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlari asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

Mehnat samaradorligini oshirishda hozirgi zamon taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, har bir o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiya fanini yaxshi o‘qib, chuqur o‘zlashtirsa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan ham yuqori natijaga erishdi.

O‘qitish metodlari ma‘lumki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning usullari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishildi. Har qaysi o‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining pedagogik intilishi va qarashlari, shuningdek, hatti-harakatlari, butun dars jarayonida o‘quvchilarning diqqat e‘tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasliglariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shunga o‘rgatish kerak. Shu nuqta nazardan qaraganda o‘quvchilarni mehnatga ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy ta‘limiy va tarbiyaviy vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

Xoliqov A ||Pedagogik mahorat|| – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,

Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

O. A. Qo‘ysinov, V. N. Sattorov, H. S. Yakubova. Mehnat ta‘limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011, 79 b.

Sanaqulov X. R., Xodiyeva D. P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.

4-SHO‘BA MUAMMOGA, SHAXSGA, LOYIHAGA, TADQIQOT, AMALIYOT VA NATIJAGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY O‘QITISHGA DOIR ILMIY-METODIK TAJRIBALAR.

P5BL VOSITASIDA UMUMTA‘LIM MAKTABI O‘QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy
markazi, Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari kafedrasini mudiri,
dotsent (PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta‘lim maktabi o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda P5BL (Problem-, Project-, Person (People)-, Process-, Product-Based Learning) usulining ahamiyati tahlilga tortilgan. Shuningdek, P5BL usuli o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilishi va o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish uchun samarali tizimlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lishi seminar va mahorat darslari misolida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: P5BL, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, umumta‘lim maktabi, pedagogik innovatsiyalar, o‘qituvchilar malakasi.

Zamonaviy dunyo ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchilarning malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish o‘quv jarayonining samaradorligini ko‘tarishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu borada P5BL yondashuvida o‘qitish usulini o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuv sifatida e‘tirof etish mumkin. Bu usul orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘quvchilarga qiziqarli va samarali darslar tashkil etishni o‘rganadilar, balki o‘zlarining kasbiy malakasini ham oshiradilar. Haqiqiy muammo doirasidagi loyihalar asosida o‘qitish jarayoni o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda interaktiv va amaliy yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Bu usul o‘qituvchilarni muammolarini hal etishga, ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga rag‘batlantiradi.

Tadqiqot natijalari P5BL usulining o‘qituvchilar malakasini oshirishdagi o‘rnini ko‘rsatib, ularning kasbiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini ochib beradi. Demak, P5BL xorij ta‘limining ayrim sohalarida ommalashayotgan yondashuv sanaladi va quyidagi besh bosqichda amalga oshiriladi: muammoga asoslangan o‘qitish (problem based learning – PBL), loyihaga asoslangan o‘qitish (project based learning – PBL), shaxsga asoslangan o‘qitish (person (people) based learning – PBL), jarayonga asoslangan o‘qitish (process based learning – PBL), natijaga (mahsulotga) asoslangan o‘qitish (product based learning – PBL) hamda ularning uzviyligidan tashkil topgan yondashuv P5BL abrevaturasini ifodalaydi. Ushbu ishda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tomonidan xalq ta‘limi pedagog xodimlariga seminar va mahorat darslarining mavjud holati muammo sifatida qaraldi

hamda ilmiy-metodik tadbirlarni tizimli tashkil etish loyihasi doirasida muammoga, loyihaga shaxsga, jarayonga, natijaga asoslangan o'qitish yondashuvlari bir strukturaga jamlandi.

“K12 Academics” (K12 Akademiklari) xalqaro veb-saytida P5BL yondashuviga 1993-yilda Stenford muhandislik maktabi professori Renate Fruxter tomonidan asos solinganligi ta'kidlangan. Renate Fruxter tomonidan ilk marotaba P5BL laboratoriyasi tashkil qilingan. Unda muhandislik, arxitektura va qurilish fanlari bo'yicha aspirantlarga o'z ko'nikmalarini “fanlararo, hamkorlikda va geografik taqsimlangan holda jamoaviy ish tajribasini” amalga oshirishni taklif qilish tashabbusi sifatida kiritilgan hamda “o'rganish strategiyasi”, deb qayd etilgan. Ushbu yondashuv o'zining natijaviy qiymatga egaligi va ijobiy samaradorligi bilan diqqatga sazovor bo'lgan. Keyinchalik Yevropa, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yaponiyaning oltita universitetida tajriba-sinovdan o'tkazilgan, bu taxlitdagi loyihaviy bilimlarni jamlash hamda axborot almashish uchun vositalar to'plami ishlab chiqilgan. Bunda uchta fan yo'nalishida talabalarga (odamlarga) muammoni hal qilish va mijozga yakuniy mahsulotni yetkazib berish ustida ishlaydigan jamoaviy loyiha tayinlangan. Ushbu yondashuvning asosiy e'tibori talabalarning umumiy malakasi va ko'nikmalarini oshirish uchun natijalarni fanlararo integratsiyalashgan holda ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotimizda ushbu yondashuvni o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish shakliga pedagogik jihatdan moslashtirish orqali undan unumli foydalanish, pedagog xodimlarning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'qitishiga yo'naltirish, mustaqil ta'lim olish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash hamda aniq ko'rsatkichlarda ifodalanuvchi natijaga erishish nazarda tutildi. Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi (keying o'rinlarda – Markaz) tashabbusi bilan amaliyotda tajribada sinab ko'rish maqsadida tizimli seminar va mahorat darslarining ilmiy-metodologik asosi, me'yoriy hujjatlari: konsepsiya, tartib, yetakchi guruh, vazifalar, yo'l xaritasi, o'quv mavzu-reja va dasturlari (besh yo'nalish uchun) muallif tomonidan ishlab chiqildi va joriy qilindi. Quyida tizimli seminar va mahorat darslarini tashkil etishdagi ayrim mulohazalarni qayd etmoqchimiz.

Seminar va mahorat darslarini tizimlashtirishda foydalanilgan asosiy tushunchalar:

tizimli yondashuv – seminar va mahorat darslarini tizimlitashkil etishga asoslangan maxsus ilmiy-amaliy, o'quv-metodik tadbirlari bo'lib, muayyan yo'nalishdagi pedagog xodimning kasbiy rivojlanish muammolarini bir butunlikda shakllantirishga hamda ularni o'rganishning samarali strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi;

seminar – bir loyiha doirasida ilm-fan yangiliklarini berishga yoki amaliyotni o'tkazishga mo'ljallangan tadbir. Tizimli, bir muammo doirasida shakllantirilgan bo'lib, dastur mavzularini yoritishda shaxsiy rivojlanish va akademik tipdagi seminar turlarini o'tkazishmo'ljallangan;

mahorat darslari – o'qituvchining kasbiy ehtiyojlarini qondirishga asoslangan, biri ikkinchisining mazmunini to'ldirib boruvchi, zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning samarali yondashuvlarini, ta'limning interaktiv metodlarini qo'llagan holda akademik guruhlarda belgilangan jadval bo'yicha mahoratli pedagog tomonidan o'tkaziladigan va o'rnatilgan tartibda keng muhokama qilinadigan mashg'ulotlar;

loyihaga asoslangan o'qitish – o'quv jarayonida yuz beruvchi, hayotiy, real muammolar asosida loyihalangan, faol o'rganish orqali chuqur bilimga ega bo'lishi, tizimli tadbirlar davomida muvaffaqiyatga erishish yo'lini loyihalay olishi kafolatlangan, o'zgaruvchan ilmiy-metodik tadbir yondashuvini o'zida aks ettiradi;

muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi – kasbiy rivojlanishdagi mavjud, real muammoni tushunish, tegishli resurslarga murojaat qilgan holda yechimini topish orqali guruhda ishlashni rag'batlantirish, ta'lim ishtirokchilarining mustaqil ravishda o'qish (o'zining o'qishini o'zi tashkil qilishi) ko'nikmalarini (metakompetensiyalarini) shakllantirish;

shaxsga asoslangan o'qitish – o'qitish markazida ta'lim ishtirokchisi bo'lib, kelib chiqishi va iste'dodidan qat'i nazar eng yaxshi bo'lish imkoniyatining mavjudligini beruvchi, shuningdek, shaxsda shakllantirish lozim bo'lgan bir sifatni muammoga asoslangan o'qitish yondashuvida tarbiyalash va natijaga borish qadamlari loyihalangan jarayonda o'qitish amalga oshiriladi;

jarayonga asoslangan o'qitish – ilmiy-metodik tadbirlar davomida ushbu yondashuvni qo'llash belgilangan maqsad hamda vazifalarni bajarishda, muammo yechimiga borishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning uzluksizligini ta'minlovchi strategiya. Shu bilan birga ilmiy jarayon ko'nikmalarini qo'llash va o'lchash, fanni soddalashtirish orqali egallashni, mazmunlilikni oshiradi, doimiy mas'uliyatni his qilish, kuzatish, tasniflash, tahlil qilish, bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi ta'kidlangan.

natijaga asoslangan o'qitish – ilmiy-metodik tadbirlarda o'qituvchini murabbiy (fasilitator) tomonidan o'quv jarayoniga faol jalb etish uchun muayyan qiymatdagi natijaga erishish (mahsulot ishlab chiqarish) kompetensiyasiga yo'naltirish natijasida amalga oshiriladigan tartib yoki qadamlar sifatida aniqlanadi. Demak, yondashuvda yechilayotgan muammo doirasida jamoaviy ishni tashkil etish nimani kashf qilishi mumkinligi, yetib boradigan manzil yoki egallangan kompetentlik uning natijasi (mahsuloti) sifatida anglashiladi.

Tizimli ilmiy-metodik tadbirlar: tizimlilik; uzluksizlik va uzviylik; variativlik; mustaqil ta'limning ustuvorligi; ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyati; ilmiy-metodik kuzatuv; ijobiy-hayotiy (ijtimoiy va kasbiy) tajribani qo'llash; jarayonda o'rganish; yangi bilimlarni egallashda to'siq bo'ladigan eskirgan tajriba va shaxsiy qarashlarni korrektsiyalash tamoyili; o'qitishda individual yondashuv; elektivlik; refleksivlik; o'qitish natijalarida ta'lim oluvchi amaliy faoliyatining zaruriyati; anglanganlik va faollik; ta'lim natijalarini faollashtirish (amaliyotga tezkor qo'llash); ta'lim oluvchining rivojlanish tamoyili kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda olib borilishi zarur.

Ta'lim siyosatidagi jadal rivojlanish hamda kasbga nisbatan ijobiy munosabat natijasida bugungi kunga kelib, asosan onlayn seminar hamda vebinarlar respublikadagi ta'lim tashkilotlari, MDH davlatlarining ayrim ta'lim tashkilotlari va

ilg'or xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagog xodimlari kasbiy rivojlanishi uchun bepul kurslar ham olib borilmoqda.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish sohasida yuritilayotgan qator islohotlarga qaramasdan, ilmiy-metodik tadbirlarni o'tkazish hamda tashkil etishda quyidagi kamchiliklar mavjud:

- tadbirlar mas'ul kafedralarning ish rejasida aks etadi va yo'nalishlar kesimida alohida dastur deyarli shakllantirilmaydi;

- ilmiy-metodik tadbirlarning mavzulari har bir o'qituvchi tomonidan mustaqil shakllantirilganligi sababli, tizimlilik yetishmaydi, shuningdek, mazmunan turli yo'nalishdagi muammolarga bag'ishlanadi;

- ilmiy-metodik tadbirlar muammoga, shaxsga, loyihaga, jarayonga asoslangan o'qitish yondashuvlarida tashkillashtirilmaganligi bois, bir kontent doirasidagi uzluksizlik, jarayonda o'qish, samaradorlikka yo'naltirish, natijadorlik sezilmaydi;

- kafedralar tomonidan mavzular rejalashtirilganda faqat o'z yo'nalishi, ya'ni fan metodikasi ko'zda tutilganligi oqibatida, kasbiy rivojlanish kompleks qamrab olinmaydi;

- ilmiy-metodik tadbirlarning mavzulari zamon talabi va asosan, markaz professor-o'qituvchilarining kasbiy mahoratidan kelib chiqib, belgilanganligi sababli umumta'lim maktab pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlariga moslik darajasi noaniq;

- yil davomida ushbu tadbirlarni pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojlari asosida tashkil etishni ta'minlovchi diagnostikada tizimlilik yo'lga qo'yilmagan;

- mavzular yil boshida tasdiqlanadi va moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lmaydi;

- taqdim etilayotgan mavzularda mazmun uzviyligi va uzluksizligi barqaror emas;

- ba'zan joylarda tashkiliy masalalardagi kamchiliklar Markaz xodimiga noqulaylik tug'dirsa, ko'pgina hollarda ishtirokchilarning tadbirlarga tayyorgarliksiz, aniq maqsadsiz ishtirok etish holatlari davom etmoqda;

- Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-metodik tadbirlar har xil tumanlarda bir yoki ikki martadan tashkil etilganligi sababli uning natijadorligini aniqlash va ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish, o'qituvchining aniq muammosiga yechim topish imkoniyati pasayadi;

- shuningdek, bu yo'nalishda pedagog xodimlarning mustaqil ta'limini tashkil qilish, ularda kasbiy faoliyatiga doir axborotni izlash, tahlil qilish va amaliyotda samarali qo'llash kompetentligini rivojlantirishga e'tibor yetarli darajada emas;

- pedagog xodimlarning o'z missiyasini anglash, ilmiy-intellektual, madaniy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirish, islohotlarga daxldorlik tuyg'usini va kuchli motivatsiyani vujudga keltirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

Markaz tomonidan seminar va mahorat darslarini tizimli tashkil qilishning strategik maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim sanaladi:

- ilmiy-metodik tadbirlarni o'tkazishda muammoga, shaxsga, loyihaga, jarayonga, natijaga asoslangan o'qitish yondashuvlarini qo'llash orqali innovatsion tizimni joriy qilish;

- mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, mas'uliyatni kuchaytirish;

- belgilangan hudud miqyosida to'liq qamrab olish, o'qituvchini kasbiy rivojlantirish borasida ilmiy-metodik tadbirlarning o'rini aniq belgilash va mustahkamlash;

- o'qituvchining kasbiy ehtiyojlarini, ilmiy-tadqiqotga munosabatini, innovatsion kompetentligini o'rganishga qaratilgan diagnostik tizim yaratish;

- o'qituvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanishidagi sustkashligini bartaraf etish hamda ongi, tafakkuri, ilmiy-metodik tadbirlarga nisbatan munosabatini o'zgartirish;

- ilmiy-metodik tadbirlarni muammoga asoslangan o'qitish yondashuvida kompleks loyihalash, tashkil etish, mavjud muammolarga yechim topish va natijadorligini aniqlash jarayoniga tizimli yondashishni tajribadan o'tkazish;

- kasbiy ehtiyojlarni o'zida ifodalagan, shuningdek, jarayonda o'zgarish, moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan o'quv dasturlarini yaratish;

- mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatiga doir axborotlarni izlash, tahlil qilish va samarali foydalanish kompetentligini rivojlantirish choralarini ko'rish;

- ilmiy-metodik tadbirlar bo'yicha ishtirokchilar fikrini o'rganish (feedback) amaliyotini yo'lga qo'yish va pedagog xodimlarning takliflari asosida dasturni takomillashtirib borish;

- pedagog xodimlarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularga individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini yarattirish;

- tizimli tashkil etilgan ilmiy-metodik tadbirlarning samaradorlik ko'rsatkishlarini doimiy aniqlashtirib borish;

- o'quv yili davomida olib borilgan ishlar natijadorligiga ko'ra, Markaz professor-o'qituvchilarini rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Markaz professor-o'qituvchilari orasida muammoga asoslangan o'rganish yondashuvida ishlovchi guruhlar shakllanadi va P5BL yondashuvi bir tizimda tajribada sinab ko'riladi; ilmiy-metodik tadbirlarni tizimli tashkil etish orqali o'qituvchilarga amaliy-metodik yordam ko'rsatish uzluksizligi yanada takomillashtiriladi; tizimlilik, hayotiy muammoga asoslanganlik, shaxsga yo'naltirilganlik, loyihalanganlik, jarayonda takomillashish, ilmiy-metodik kuzatuv asosidagi natijadorlikka yo'naltirish bilan mavjud tarqoqlik, bo'shliqlar bartaraf etiladi; milliy xususiyatlar va sharoit e'tiborga olingan holda, xalqaro ilg'or xorijiy tajribalar tatbiq etiladi; o'quv mazmunining ijtimoiy buyurtma va kasbiy ehtiyojlarga monand bo'lishi hamda zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishi natijasida ta'lim sifati ta'minlanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ибрагимов А. А. ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУАММОГА АСОСЛАНГАН ЎҚИТИШ ЁНДАШУВИНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ: Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич,

Самарқанд вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази доценти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 2. – С. 120-125.

2. Fruchter. R. & Lewis S. (2003). Mentoring Models in Support of P5BL in Architecture/Engineering Construction Global Teamwork, *The International Journal of Engineering Education*. 19(5). 663- 671.

3. Ganefri, G. (2013). The Development of Production-Based Learning Approach to Entrepreneurial Spirit for Engineering Students. *Journal Asian Social Science*; Vol. 9, No. 12; 2013. ISSN 1911-2017 E-ISSN 1911-2025.

4. Samuel, K.; Libata, I. & Sabitu, A. (2018). Efficacy of Process-Based Instruction, In Enhancing Secondary School Students' Academic Performance and Science Skills Acquisition, In Identification of Cations, In Faskari, Katsina State-Nigeria. *Issues and Ideas in Education*, 6(1), 87–97.

5. <https://www.k12academics.com/Educational%20Practices/Problem-Based%20Learning/p5bl-approach-people-problem-process-product-project-ba>

LOYIHALASH METODI – SOHADA SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILI

Komil HAYDAROV,
falsafa fanlari doktori, professor
Venera HAYDAROVA,
magistrant

Annotatsiya. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida o'qitishning eng zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ular orasida bugungi kunda loyihalash metodidan foydalanish va uning afzalliklarini targ'ib qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada aynan shular haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy yondashuv, metod, loyihalash metodi, natijaviylik, tahlil, faollik.

Ma'lumki, ta'lim oluvchilarni zamonaviy metodikalar asosida o'qitish amaliyotini joriy qilish uzluksiz ta'lim islohotlari jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday dolzarb vazifalar qatorida yeng ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, ta'limning yangi metodlarini tizimga joriy qilish masalasiga alohida ye'tibor qaratilmoqda . Loyihalash metodi va undan ta'lim samaradorligini oshirish jarayonida foydalanish – ushbu yo'nalishda samara beruvchi zamonaviy ta'lim metodidir.

Loyiha va uni qo'llash, joriy qilish va natijaviyligini ta'minlash – aslida faqat ta'limning yemas, jamiyat hayotining boshqa ko'plab sohalarini rivojlantirish kalitidir, desak to'g'ri bo'ladi. Boshqacha aytganda, loyihalash – Yangi O'zbekistonning poydevorini yaratishda xizmat qiladigan yeng muhim omillardan biridir. Har qanday yangilikning tagzaminida loyiha yotadi. Boshqacha aytganda, har qanday zamonaviy modelni yaratish uchun avval uning loyihasi ishlab chiqiladi,

soʻngra amalga oshiriladi. Taʼlimda ham shunday – zamonaviy oʻqitish tizimining avvalo loyihasi yaratiladi, soʻngra u hayotga joriy yetiladi. Shunday yekan, loyihalashsiz birgina taʼlim rivojini yemas, hatto hayotning oʻzini ham tasavvur qilib boʻlmaydi.

Xoʻsh, “loyiha” degan soʻzning maʼnosi nima?

Loyiha – biror narsa, hodisaning xomaki rejasi, biror narsaning moʻljali. Nazariy maʼnoda olib qarasa, biror yangilikning gʻoyasi. Agar pedagogik faoliyatni loyihalash nuqtai nazaridan olib qaralsa, loyihalash taʼlim sohasiga jalb qilingan yangiliklar, innovasiyalardan oʻqituvchining oʻz faoliyatida foydalanish rejasi, gʻoyasini bildiradi.

Har bir loyiha chuqur oʻylangan holda tuzilishi lozim. Oʻqituvchining innovasion loyihasi loyiha konsepsiyasi, tushuntirish xati, uning maqsadi, vazifalari, taʼlim jarayoniga tatbiq yetishdagi qarama-qarshiliklar, muammolar, farazlar, oʻquv vaziyatining tahlili, tashqi hamda ichki vositalari, innovasiyalarni qoʻllash uchun qanday imkoniyatlar mavjud va qaysilarini yaratish kerakligi, jamiyatning taʼlim oldiga qoʻygan ijtimoiy buyurtmasi, oʻqituvchi faoliyati muvaffaqiyatini taʼminlovchi mezonlar, innovasiyalarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi qismlar, jumladan, moddiy-texnikaviy, ilmiy-metodik, iqtisodiy taʼminot, pedagog xodimlar faoliyati boshqaruvi, pedagogik harakatlar va faoliyat istiqbollari bashorat qilish kabilarni oʻz ichiga olishi lozim.

Pedagogika yensiklopediyasining 2-jildida loyihalash metodiga shunday taʼrif berilgan: “Loyihalash metodi – pedagogikaning pragmatik yoʻnalishga asoslangan holda taʼlim jarayonida oʻquvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalovchi va ularni oʻquvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va koʻnikmalarini namoyon qilishlarini taʼminlovchi taʼlim metodi”.

Maʼlumki, taʼlim nihoyatda murakkab jarayon boʻlib, uning samaradorligi pedagog va oʻquvchi faolliligiga, taʼlim vositalarining mavjudligiga, mazkur jarayonning tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmiy kishilarga boʻlgan yehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bogʻliq. Jamiyat oʻzining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yehtiyojlari asosida taʼlim samaradorligi yuqori boʻlishini talab yetadi.

Loyihalash metodining maqsadi - oʻquvchilarni qiziqtirib oʻqitish va bilimlarni toʻliq oʻzlashtirishga yerishishdan iborat. Taʼlimda berilayotgan bilimlarni oʻquvchilarning aksariyat koʻpchilik qismi puxta oʻzlashtirishi ushbu metod joriy yetilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Taʼlim texnologiyasi boʻyicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: taʼlim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Taʼlim loyihasini tayyorlash. Loyiha oʻqituvchi yoki yekspert aʼzolari tuza olish faoliyatining mahsuli boʻlib, qator umumiy xususiyatlarga yega. Loyiha asosida oʻqituvchi va oʻquvchining kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Taʼlim loyihasi maʼlumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil yetishdan boshlanadi. Tahlil maʼlumot mazmuni yelementlari (bilimlar, koʻnikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks yettirilganligiga qaratiladi. Keyin taʼlim mazmuni

o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy vazifalari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, yetalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini ye'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchi-talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga yehtiyoj uyg'otish, yemosiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq yetish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil yetish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

Loyihalar metodi bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda yuqoriroq darajada rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, loyihalash metodi bilan o'qitish ta'limda kutilgan natijalarga yerishishni ta'minlabgina qolmay, balki ushbu jarayonning o'zi ham g'oyat ahamiyati va jozibadorlik mazmunini oshiradigan g'oyat muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil 7 noyabr. 06/20/6108/1483-son.

2. Pedagogika: yensiklopediya. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy yensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

3. Haydarov, Komil. "Master–student Relations, Importance of Reading Culture and Creative Environment in the Development of Education." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 5, 2020, pp. 4-7, doi:10.31149/ijie.v3i5.367.

4. Donabaevich, Haydarov K. "The Role of Continuous Education in the Spiritual Development of the Person." *JournalNX*, 2020, pp. 920-922.

5. Donabayevich, Haydarov K. "Development of Pedagogical Skills is an Important Factor in the Formation of the Cognitive Characteristics of the Teacher." JournalNX, 2021, pp. 186-188.

LOYIHAGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY O'QITISHGA DOIR ILMIY-METODIK TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna,

*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Loyiha metodi"ning mazmun mohiyati, turlari, shuningdek, loyiha tarkibini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: loyiha, ilmiy-texnik, ijodiy, ishlab chiqarish sohasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda o'quv loyihalari, loyiha texnologiyasi, pedagogik loyiha

Loyihalar metodi majmualiy hisoblanib, hozirgi vaqtda o'quv jarayonida qo'llanilayotgan barcha innovatsion pedagogik metodlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Loyihalar metodi – o'qituvchi nazoratida yangi mahsulot va xizmatlar yaratish jarayonida o'quvchining intellektual va jismoniy imkoniyatlarini, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'li orqali shaxsning o'z qobiliyatlaridan to'liq foydalanishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy ahamiyat kasb etuvchi, subyektiv va obyektiv yangiliklarga ega moslashuvchan modeli va o'qitish tizimidir. Zamonaviy loyihalar metodining asosiy g'oyasi: «Men nimani bilaman va nimaga qobiliyatim bor, bu menga nima uchun kerak, men ulardan qayerda va qanday foydalanaman?».

Hozirgi kunda loyihalar metodi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida innovatsion pedagogik texnologiya va o'qitish metodi sifatida, ayniqsa nazariy tadqiqotlar olib boruvchi pedagoglar o'rtasida keng rivojlanmoqda. Lekin loyihalar metodining mazmuni, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va foydalanish samarasi, turli darajadagi o'quv yurtlarida foydalanish imkoniyati to'g'risida turli xil bahs-munozaralar mavjud. Shuningdek, ushbu metodning kelib chiqish tarixi va asoschisi to'g'risida ham turli xil qarashlar yuzaga kelgan. Masalan, Y.S.Bolat va N.Y.Paxomovalar loyihalar metodining asoschisi deb taniqli amerikalik filosof va pedagog Djon Dyu (1859-1952yy.) deb ta'kidlashadi. B.M.Nazarenko bu loyihaning kelib chiqish tarixini V.Kilpatrik, amerikalik pedagoglar Dj.Kneller, K.Gould va S.Xoll esa pedagog R.Stimson nomi bilan bog'laydi.

Loyihalar metodining kelib chiqishidan rivojlanish davrigacha ushbu loyiha to'g'risida ko'plab aniq va tugallangan fikrlar bildirilgan. Masalan: mehnat o'qitishi (K.V.Vudvord, N.K.Krupskaya, S.T.Shatskiy), kasbiy o'qitish (N.Y.Erganova, G.V.Rogova, F.M.Rabinovich), differensial o'qitish (N.P.Guzik, Y.A.Yunina,

I.E.Uit), shaxsga yo'naltirilgan o'qitish ((I.S.Yakimanskaya), pedagogik hamkorlik (V.F.Shatalova, V.A.Suxomlinskiy, I.P.Volkov, L.S.Vigotskiy.)

Y.S.Bolat loyihalar metodining kelib chiqish va rivojlanish tarixini quyidagi besh bosqichga bo'lib o'rgandi [3]:

1. 1590-1765 yillar. Yevropaning arxitektura maktab (ustaxona)larida loyihalash faoliyatining boshlanishi;

2. 1765-1880 yillar. Tizimli pedagogik faoliyatda loyihadan o'qitish metodi sifatida foydalanish va amerika kontingentida rivojlanishi;

3. 1880-1915 yillar. Loyihalar metodidan ishlab chiqarish jarayonida va umumta'lim maktablarida foydalanish davri;

4. 1915-1965 yillar. Loyihalar metodini qaytadan ko'rib chiqilib Yevropa ta'lim tizimida qo'llanilishi;

5. 1965 yildan hozirgi vaqtga qadar loyihalar metodi bo'yicha yangi ixtirolar va ushbu metodni xalqaro ta'lim tizimida tarqalishining uchinchi davri.

Zamonaviy pedagogikada loyihalar metodiga turlicha izohlar va tushuntirishlar berilgan. Jumladan, Y.S.Bolat, V.N.Sternberg, G.M.Godjaspirova, N.Y.Paxomova, M.L.Serdyuklar o'z ilmiy ishlarida loyihalar metodining didaktik qirralarini ochib, o'z ta'riflarini berishgan.

Y.S.Bolat loyihalar metodini «aniq u yoki bu namuna bo'yicha tayyorlangan, amaliy natijalari ilmiy-nazariy aniqlangan, tugallanishi to'liq real, muammoning (texnologiyaning) butun tafsilotlarini ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usuli», deb ta'riflaydi.

V.N.Sternberg o'z ilmiy izlanishlari natijasida loyihalar metodi atamasining zamonaviy ta'rifini «berilgan topshiriq va mavzu bo'yicha o'quvchining ijodiy ishi», deb ta'riflaydi.

Hozirgi kunda loyihalar metodini rivojlantirish va amaliyotda o'quv jarayoniga tadbiiq etish, uni zamonaviy o'qitish tizimi talablariga javob beruvchi pedagogik texnologiya sifatida qarash ustida ko'plab ilmiy izlanish ishlari olib borilmoqda.

Loyihalar metodi bo'yicha mavjud adabiyotlar va ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu metod alohida mustaqil metod sifatida yoki barcha ijodiy metodlarni o'z ichiga olgan pedagogik texnologiya sifatida ham tadbiiq etilishi mumkin. Mavjud pedagogik va metodik adabiyotlarda ushbu pedagogik texnologiya bo'yicha quyidagi turli atamalarni uchratish mumkin: loyihalar metodi, loyihalash metodi, loyiha texnologiyasi va b. Lekin deyarli ko'plab manbalarda «loyihalar metodi» atamasi ishlatilgan va shu sababli «pedagogik loyiha» umuman pedagogika sohasidagi loyihalarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin: loyihalar metodini didaktik nuqtai nazardan qisqa ma'noda alohida metod deb emas, balki keng ma'noda o'z ichiga ko'plab metodlarni olgan pedagogik loyihalar texnologiyasi deb qarash lozim. (Y.S.Bolat, M.Y.Buxarkin, M.V.Moiseyeva, A.Y.Petrov, N.Y.Paxomova, S.A.Krasnoselskiy, L.B.Pereverzev, I.D.Chechel, I.S.Sergeyev va b.).

Loyiha so'zining mohiyatini hisobga olib loyihalar texnologiyasi to'g'risida fikr yuritganimizda, biz uni o'quvchining qandaydir shakl kasb etgan (material, matn,

intellektual va b.) natijaga erishishga yo'naltirilgan o'qish-bilim olish faoliyatini tashkil etish usuli deb qabul qilishimiz mumkin. Zamonaviy ilmiy izlanishlar ko'rsatadiki, loyihalar texnologiyasi ta'lim jarayonida bilim sohasining barcha yo'nalishlarida keng qo'llanilishi mumkin. Undan o'quv mazmunini oshirish, o'quvchining bilim olishga qiziqish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida deyarli barcha fanlarda foydalansa bo'ladi. Ushbu texnologiyadan foydalangan taniqli pedagoglarning tajribasi ko'rsatishicha, loyihalar texnologiyasi keng pedagogik imkoniyatlarga ega. U dasturiy materialni to'liq o'zlashtirishga, o'z shaxsiy o'quv faoliyatini to'g'ri rejalashtirishga, o'rgani-ladaigan fan bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, shaxsan loyihaviy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi va zamonaviy sharoitda o'quvchining shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi.

Muammolar va ularning yechimlari natijalarining amaliy tadbir'i loyihalar metodini ta'lim tizimida qo'llanilishiga yanada keng yo'l ochadi.

O'quv loyihasidan guruhiy faoliyatda yanada samaraliroq foydalanish mumkin. Loyiha metodining mohiyatini va undan qanday foydalanishni aniq anglash uchun loyiha tushunchasini quyidagi sohalarga ajratish mumkin:

- ilmiy-texnik;
- ijodiy;
- ishlab chiqarish sohasi;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda o'quv loyihalari.

Loyihalash – loyihani yaratish jarayoni ya'ni ehtimol qilingan yoki yaratilishi lozim bo'lgan obyekt namunasi, holati.

Bu aniq bir faoliyat bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallash jarayoni, usullar majmuidir. Bu belgilangan didaktik maqsadga erishishdagi bilish yo'li, bilish jarayonini tashkil etish jarayoni hisoblanadi.

O'quv loyihasi – bu o'quv loyihasi ustida ishlash, aniq «mahsulot» (loyiha) ko'rinishidagi ko'zlangan maqsadga erishish jarayonidir.

Loyihalar metodidan ta'lim tizimida foydalanish quyidagi vazifalarni mukammal yechishda asosiy rol o'ynaydi:

- o'quvchini mustaqil tanqidiy fikrlashga va ma'lumotlar ustida ishlashga o'rgatadi;
- aniq dalillar va fan qonuniyatlariga asoslanib fikrlash, asoslangan xulosalar qilishga o'rgatadi;
- mustaqil aniq dalillar asosida qarorlar qabul qilishga o'rgatadi;
- turli ijtimoiy rollarni bajarib komandada ishlash qobiliyatini shakllantiradi.


Yuqorida ta'kidlanganidek, loyihalar metodini o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi o'quvchilardan tahlil qilish, taqqoslash, sintez (hodisalarni o'zaro bog'lab, tekshirish), fikran tadqiqot, oldindan baholash, ma'lumotlarni izlash, uni baholash va shu kabi bir qancha intellektual malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Asosiysi o'quvchilar ma'lumotlarning turli manbalaridan foydalanish, jamoa tarkibida ishlash, muammo yechimining turli usullarini birgalikda muhokama qilish, nafaqat o'z fikrini ma'qullash, balki guruhdagi boshqa hamkorlar fikrini ham hurmat bilan tinglash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarishni ham bilishlari shart.

Loyihalar metodi har qanday murakkab didaktik vazifani birdan yechishga mo'ljallangan universal metod emas. U bir butun didaktik tizim bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning bir elementi hisoblanadi.

Loyiha tarkibini shakllantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatishimiz mumkin:

1. Loyiha mavzusi va turini tanlash, qatnashchilar sonini aniqlash.
2. Belgilangan mavzu doirasida muammo variantlarini o'ylash va belgilash.
3. Guruh bo'yicha vazifalarni taqsimlash, tadqiqot usullarini muhokama qilish, ma'lumotlarni izlash, ijodiy qarorlar qabul qilish.
4. Loyiha ishtirokchilarini o'zlarining shaxsiy yoki guruhviy tadqiqot va ijodiy vazifalari bo'yicha mustaqil ishlashi.
5. Olingan ma'lumotlarni guruhda oraliq muhokamasi (mashg'ulotda, ilmiy tugaraklarda, ARMDa guruhviy ishlash davomida va b.).
6. Loyiha himoyasi va tanqidiy muhokama.
7. Yakunlash, tashqi baholash, olingan xulosalar va natija-larning kelajakdagi o'rni belgilash, rivojlanishini oldindan baholash.

Loyihaviy faoliyat bir necha mashg'ulotni egallashi, ayrim hollarda uzoq davom etishi va shaxsiy yoki guruhviy shakllarda bo'lishi mumkin. Loyihani ko'rib chiqishda har bir loyiha ishtirokchisiga rol taqsimlanadi va ular o'zlariga berilgan vazifani bajarishadi. Aynan muammoning ushbu qismini u to'liq biladi, loyihaning boshqa jihatlarini natija guruhda muxokama qilinganda biladi. Shu sababli loyiha faoliyati butun bilish jarayonining strategiyasi deb emas, balki metod sifatida qaraladi. Bu juda sarmehnat faoliyat bo'lib, o'qituvchidan va talabalardan katta kuch va vaqt talab etadi. Talabalar bir vaqtda bitta muammo ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishlari, muammoga chuqur kirib borishlari, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ishlashlari, hamkorlar bilan jarayon muhokamasini bilishlari zarur. Ijtimoiy yoki kasbiy sohadagi bitta loyihaviy faoliyatga oid muammoni emas, balki muammolar majmuini ko'rib chiqish ancha muhim sanaladi. Bunday muammolar bir necha fan birlashmasida (gorizantal) yoki bir fan doirasida vaqt bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday holatda bitta muammo yechimi ikkinchi muammo yechimini ham ketma-ket aniqlanishini talab etadi va bunda bilish integratsiyasi muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Loyihaviy faoliyatni tashkil etish bosqichlari

Ilmiy manbalar tahlili asosida Loyihalar metodidan foydalanishga qo'yilgan asosiy talablar quyidagicha belgilandi:

1. Muammoning tadqiqot va ijodiy ahamiyatga egaligi, integrarlashgan bilim va muammo yechimida tadqiqot-izlanishni talab etishi.

2. Ehtimol qilingan natijalarni amaliy, nazariy va bilim olishdagi ahamiyati.

3. Talabning mustaqil faoliyati (shaxsiy, juftlikda va guruhda).

4. Loyiha mazmunini tuzish (bosqichma-bosqich natijalar ko'rsatilgan holda).

5. Aniq harakat ketma-ketligi ko'rsatilgan tadqiqot metodlaridan foydalanish:

- muammoni va undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini aniqlash;

- muammo yechimi bo'yicha farazlar talqin qilish;

- tadqiqot metodlari muhokamasi (ma'lumot, dalillar tahlili, statistik va tajribaviy metodlar, kuzatish va b.);

- oxirgi natijani bayon etish usullari muhokamasi (taqdimot, rolli o'yinlar, videoklip, ma'ruza va b.);

- olingan ma'lumotlarni yig'ish, tizimlash va tahlil qilish;

- yakunlash, natijalarni qayd etish va taqdimot;

- xulosalar va yangi muammolar talqini.

Loyiha ustida ratsional ishni tashkil etish uchun uning turkumini (tipologiyasini) bilish talab etiladi. Loyihalarni turkumlashda umumdidaktik yondoshuv lozim. Har bir fan sohasida ushbu turkum fan xususiyatlarini hisobga olib aniqlanishi mumkin.

Loyihalarni turkumlashda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

Loyihadagi ustun faoliyat (tadqiqot, izlanish, ijodiy, rolli, amaliy):

- tadqiqiy, amaliy-mo'ljalli, rolli o'yinlar, axborot, ijodiy loyihalar.

Fan-mazmuni sohasi.

- monoloyiha (bir bilim sohasi doirasida);
- fanlararo loyiha.

Muloqat usuli, loyihaviy faoliyat jarayonida:

- bevosita muloqot;
- kommunikatsion texnologiya (telekommunikatsion loyiha).

4. Loyiha koordinatsiyasi xarakteri (qattiq, moslanuvchan), yashirin (aniqmas, loyiha qatnashchisini imitatsiyalovchi, masalan, telekommunikatsion loyihalarda):

- aniq koordinatsiyali loyihalar;
- yashirin koordinatsiyali loyihalar (telekommunikatsion loyihalar).

5. Muloqat xarakteri (guruhda, bitta o'quv yurti doirasida, shahar, viloyat, davlat va xalqaro):

- o'quv yurti doirasidagi loyihalar;
- mintaqaviy loyihalar;
- xalqaro loyihalar (telekommunikatsion loyihalar).

6. Loyiha qatnashchilari soni:

- shaxsiy (bir kishi);
- ikki kishi;
- guruhli.

7. Loyiha davomiyligi.

- qisqa muddatli (bir necha mashg'ulotga mo'ljallangan);
- o'rta (bir oydan yarim yilgacha);
- uzoq muddatli (yarim yildan bir yilgacha).

Ta'kidlash joizki loyihalar mashg'ulotlar vaqtida yoki darsdan tashqari ham bajarilishi mumkin. Har qanday holatda ham loyihaning asosiy qismi talabaning mustaqil darsdan tashqari vaqtdagi faoliyati bo'lishi kerak. Bu qo'shimcha ma'lumotlarni izlash, uni tahlil qilish, muhokamaga tayyorlanish, hamkorlar bilan mashg'ulotda bahs-munozaralarga tayyorlanish bilan bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan turkumning birinchi belgisi doirasiga quyidagi loyihalarni kiritish mumkin:

- tadqiqiy loyihalar;
- ijodiy loyihalar;
- rolli-o'yinli loyihalar;
- axborot loyihalari;
- amaliy loyihalar.

Tadqiqot loyihalari. Bunday loyihalar aniq maqsad ko'rsatilgan, ishtirokchilarning barchasi uchun tadqiqot predmeti dolzarbligi ta'minlangan, ijtimoiy ahamiyatli, uslublar, shu jumladan, tajribalar soni, natijalarga ishlov berish usullari belgilangan shakldagi puxta o'ylangan tarkibga ega bo'ladi. Ular tadqiqot mantiqiga to'liq bo'ysunadi va tarkib jihatdan haqiqiy ilmiy-tadqiqot ishlariga deyarli yoki to'liq mos keladi. Ushbu loyihalarda quyidagi bosqichlar bajarilishi talab etiladi:

- tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash;
- tadqiqot muammosini aniqlash;
- qabul qilingan mantiqiy ketma-ketlikka asosan tadqiqot vazifalarini belgilash;

- tadqiqot usullarini aniqlash;
- axborot manbalarini aniqlash;
- belgilangan muammoni yechish gipotezasini ilgari surish, bayon etish;
- gipotezani yechish yo'llarini aniqlash;
- olingan natijalarni muhokama qilish;
- xulosalar tayyorlash;
- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish;
- keyingi tadqiqotlar uchun yangi muammolarni belgilash.

Ijodiy loyihalar. Ma'lumki har qanday loyiha ijodiy yondoshuvni talab etadi. Loyiha tipini aniqlashda dominant, ya'ni eng ustun belgilar hisobga olinishi zarur. Ijodiy loyihalar natijalarni shunga mos holda rasmiylashtirishni ko'zda tutadi. Bunday loyihalar loyiha ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatida batafsil, har bir element tahlili ko'zda tutilgan tarkibni talab etmaydi, asosiy e'tibor oxirgi natijaga beriladi va guruh faoliyat mantiqiga bo'ysunadi. Bunday holda rejali natija va uni taqdimot qilish usuli kelishib olinadi. Shu sababli loyiha natijalarini rasmiylashtirish aniq, puxta o'ylangan tarkibni talab etadi.

Rolli, o'yinli loyihalar. Bunday loyihalarning aniq tarkibi loyiha boshida taxminan belgilanadi va loyiha yakuniga qadar ochiq turadi. Loyihaning mazmuni va xarakteriga mos holda qatnashchilar ma'lum bir rolni olishadi. Bunda loyiha muammosiga mos holda kelib chiqadigan ishchi yoki ijtimoiy munosabatlarni kasb etgan muammoli vaziyatlar bo'lishi mumkin. Bunday loyihalarning natijasi yo loyiha boshida belgilanadi, yoki loyiha davomida shakllanadi. Bunda ijodiylik (talabaning ijodiy qobiliyati) darajada juda yuqori turadi, lekin ustun faoliyat turi rolli-o'yin hisoblanadi. Oddiy rolli-o'yinlardan loyihaviy faoliyat kasb etgan rolli-o'yinlarda, qatnashchilar faqat aniq oldindan belglangan rolni o'ynashmaydi, balki turli manbalardan o'z roli bo'yicha ma'lumotlarni tadqiq qiladi, muammoli vaziyatni va uning ehtimoli yechimlarini ochib berishga intiladi. Bu bilan o'zining nutq va muomula madaniyatini ko'rsatadi hamda boyitadi.

Axborot loyihalari. Bu loyiha keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'lib, ikkilamchi matnni yaratish maqsadida dastlab qandaydir obyekt yoki hodisa to'g'risida ma'lumot yig'ish, loyiha ishtirokchilarini ushbu ma'lumot bilan tanishtirish, uni tahlil qilish va umumlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunday loyihalar tadqiqiy loyihalar kabi puxta o'ylangan tarkibga ega bo'lib, loyihaviy faoliyat davomida unga tizimli tuzatishlar kiritish imkonini berishni talab etadi.

Bunday loyihaning tarkibi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- loyiha maqsadi;
- dolzarbligi – axborotlar manbai (adabiyotlar, OAV, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan elektron, intervyu, anketalash, shu jumladan, chet el hamkorlarni, «Aqliy hujum» tashkil etish va b.);
- ma'lumotlarni qayta ishlash (tahlil, umumlashtirish, oldin ma'lum dalillar bilan solishtirish, xulosani asoslash);
- natija (maqola, referat, ma'ruza, videomateriallar va b.);
- taqdimot (nashr etish, shu jumladan elektron tarmoqda, telekonferensiyada muhokama va b.).

Bunday loyihalar ko‘pincha tadqiqiy loyihalarni to‘ldirib, uning bir qismi, moduli sifatida ham bo‘lishi mumkin.

Axborotlarni izlash va ularni tahlil qilish maqsadidagi tadqiqot tarkibi fanga oid tadqiqotga o‘xshaydi va quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- axborotlarni izlash predmeti;
- izlash bosqichlarini belgilash va oraliq natijalarni qayd etish;
- yig‘ilgan dalillarga analitik ishlov berish;
- xulosalash;
- dastlabki yo‘nalishni tuzatish (agar talab etilsa);
- tuzatilgan yo‘nalish bo‘yicha axborotlarni izlash;
- yangi dalillar tahlili;
- umumlashtirish;
- natijalar (loyiha qatnashchilarining barchasini qanoatlantiradigan darajadagi);
- xulosalar, natijalarni rasmiylashtirish (muhokama, tahrirlash, taqdimot, tashqi baholash).

Amaliy loyihalar. Ushbu loyihalarda talaba faoliyatining natijasi loyiha boshidayoq aniq belgilangan bo‘ladi. Loyiha natijasini belgilashda albatta talabaning ijtimoiy manfaatlari va qiziqishlari hisobga olinadi. Bunday loyiha puxta o‘ylangan tarkibdan iborat bo‘lib, unda har bir qatnashchining funksiyasi belgilangan holda barcha qatnashchilar faoliyatining ssenariyasi tuziladi.

Bu yerda loyiha koordinatsiya ishlarini yaxshi tashkil etish muhim hisoblanadi. Unda bosqichma-bosqich muhokama, birgalikda va shaxsiy tahrir qilish asosida olingan natijalar taqdimotini tashkil etish va uni amaliyotga tadbig‘i, loyihani tizimli tashqi baholashni tashkil etish kabilar koordinator rejasiga kiritiladi.

Xulosa shuki, loyihalar uslubi mutaxassislar tayyorlashda va ularda ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa mutaxassisning muammolar bo‘yicha qanday qaror qabul qilishiga bog‘liq bo‘lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida bitiruvchida bunday kompetentlikni shakllantirilishi zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev F.R. (2023). O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarining shakllanganligini baholash. Педагогик ва психологик тадқиқотлар, 1(1), 10–17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737>

2. Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. *Inson kapitalining shakllanishida ta‘lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola)*. –Samarqand: SamDU, 2015. -83 B.

3. Raximov O.D. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Qarshi, TATU qarshi filiali, 2014. -64 b.

4. Shodiyeva M. Didactic Possibilities Of Increasing Educational Motivation In Younger Students // Eurasian Scientific Herald. Volume 29. February 2024. P.45-48.

5. Shodiyeva M. Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali shakl va usullari // Xalq ta‘limi jurnali. 2024. №3. 4-7-b.

MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI O‘QUV-TADQIQOT USULLARIGA O‘RGATISHNING XUSUSIYATLARI

Ostonov Qurbon,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,

Xayitmuradov Sherzod Sag‘dullayevich,

Samarqand VPYMO‘MM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi”

kafedrası o‘qituvchisi,

Tilavov Rustam,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: bu ishda matematika darslarida o‘quvchilarni o‘quv-tadqiqot usullariga o‘rgatish xususiyatlari bayon qilinadi, jumladan, o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kontekstida matematika o‘qituvchisi ishining asosiy prinsipi maktab o‘quvchilarini o‘quv materialini bilan faol mustaqil ravishda tanishtirish va olingan natijalarni sinfda jamoaviy muhokama qilish mulohazalari yuritilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, tadqiqot usullari, tadqiqot faoliyati, topshiriqlar, sonlar, geometriya, ijodiy ishlar, farazlar.

O‘rta maktab 5-sinf o‘quvchilari bilan ijodiy va tadqiqot faoliyati usullarini o‘rgatishni amalga oshirishni boshlash mumkin. O‘quvchilar matematika fanidan “Natural sonlar” mavzusida o‘z ijodiy ishlari uchun quyidagi mavzularni tanlaydilar: “Son va foiz kundalik hayotimizda”, “Oilaviy byudjetimiz foizlarda”, “Mening sinfim va foizlar.”, “Tub va murakkab sonlar” , “ π soni tarixi”, 6-sinfda esa o‘quvchilar “Interaktiv matematika” elektron darsligidan foydalanib “Koordinatalar tekisligi” mavzusida tadqiqotni bajaradilar. Ushbu qisqa muddatli tadqiqot matematika, informatika va tasviriy san’atni integratsiyalash imkonini beradi, ya’ni qog‘ozda nuqta yasashni o‘rgangan o‘quvchilar elektron vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar, mustaqil ravishda chizmaning eskizini chizadilar va keyin uni kompyuter dasturidan foydalanib tuzadilar. Har bir tadqiqot ma’lum bir mavzu bilan bog‘liq va bir necha darslar davomida ishlab chiqiladi. Biroq, o‘quvchilarni ko‘p sonli tadqiqotlar bilan ortiqcha yuklamalik kerak. 7-sinfda o‘quvchilar geometriya faniga qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli tadqiqotlarni va butun o‘quv yili uchun mo‘ljallangan “Uchburchak”, “Pifagorning hayoti va faoliyati”, “Diofant tenglamalari”, “Funksional tenglamalar” , “Graflar nazariyasi”, “Matematik isbotlash usullari” kabi mavzularida tadqiqot faoliyatini amalga oshiradilar. Ayrim topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan geometriya bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanma yoki Pifagor hayoti va faoliyati haqida PowerPoint taqdimoti ko‘rinishida bajarildi.

O‘quvchilarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kontekstida matematika o‘qituvchisi ishining asosiy prinsipi maktab o‘quvchilarini o‘quv materialini bilan faol mustaqil ravishda tanishtirish va olingan natijalarni sinfda jamoaviy muhokama qilishdan iborat bo‘lib, ular ta’riflar, tasdiqlar, teoremlar shaklida taqdim etiladi. Bunda dars o‘zining an’anaviy asoslarini butunlay yo‘qotadi va o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni ishlab chiqarish nuqtai nazaridan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotning yangi shakliga aylanadi. Maktab amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini faqat amal-harakatlar orqali

o'zlashtirish mumkin va bu harakat o'qituvchi tomonidan boshqarilishi kerak. Masalan, 8-sinf "Algebra" fanidan "Kvadrat funksiya grafigi" mavzusi bo'yicha $y=ax^2$, $y=ax^2+n$, $y=a(x-n)^2$ ko'rinishdagi funksiyalar, sinfning bir qismiga $y=x^2$, $y=x^2-3$, $y=x^2+5$ funksiyalar, boshqalarga esa $y=x^2$, $y=(x-3)^2$, $y=(x+5)^2$ funksiyalarning grafiklarining o'zaro joylashishini aniqlash topshiriladi. Keyin o'quvchilar nima qilganini ko'rsatadilar. Keyingi bosqichda o'quvchilar har safar yangi parabola qurish shart emas, unikoordinata o'qlardan biri bo'ylab harakatlantirish kifoya, degan farazni ilgari suradilar; ularga bu farazni sinab ko'rish va isbotlash taklif qilinadi.

8-sinfda o'quvchilarda muammoni aniqlash, gipotezalarni qurish, ma'lumot to'plash, asosiy narsani ajratib ko'rsatish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish kerak. Bu yoshdagi o'quvchilar allaqachon tadqiqot harakteridagi tadqiqotlarni amalga oshirishlari mumkin. Vaqt nuqtai nazaridan, bunday tadqiqotlar uzoq muddatli deb hisoblanadi, ish bir necha oy yoki bir yil davom etishi mumkin; Taklif etiladigan mavzulardan ba'zilari "Atrofimizdagi simmetriya", "Modul qatnashgan tenglamalar va tengsizliklar", "Fibonachchi sonlari", "Sehrli kvadratlar", "Mantiqiy masalalar yechish usullari", "Kombinatorika va binomial koeffitsiyentlar" kabilar bo'lishi mumkin.

Tadqiqot faoliyati mahsuloti shaklini tanlash tadqiqot ishtirokchilari uchun muhim tashkiliy vazifadir. Uning yechimi ko'p jihatdan tadqiqot qanchalik qiziqarli bo'lishini, tadqiqotning himoyasi qanchalik taqdimotli va ishonchli bo'lishini va taklif qilingan echimlar tanlangan ijtimoiy ahamiyatga ega muammoni hal qilish uchun zarur bo'ladimi yoki yo'qligini aniqlaydi. Masalan, "Qavariq ko'pburchak yuzalari" nomdagi mavzuni o'rganish jarayonida bajarilgan tadqiqot muayyan muammoni - maktab devorining beton elementlarini kosmetik ta'mirlash harajatlarini hisoblashlarini bajarishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Арцев, М.Н. Учебно-исследовательская работа учащихся/ М.Н. Арцев. // Журнал «Завуч», 2005, №5.
- 2.Баранова, Е.В., Зайкин, М.И. Как увлечь школьников исследовательской деятельностью/ Е.В.Баранова, М.И. Зайкин. //Журнал «Математика в школе», 2004, №2.
- 3.Воронько, Т.А. Задачи исследовательского характера/ Т.А. Воронько. // Журнал «Математика в школе», 2004, №8.

LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASINI МАТЕМАТИКА O'QITISHDA QO'LLASHNING BA'ZI METODIK YONDASHUVLARI

Xayitmuradov Sherzod Sag'dullayevich

*Samarqand VPYMO'MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi,*

Ostonov Qurbon

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,

Tilavov Rustam

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi;

Annotatsiya: bu ishda loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasini matematika o'qitishda qo'llashning ba'zi metodik yondashuvlari, jumladan, loyiha usuli mustaqil faoliyatga qaratilgan: individual, juftlik, guruh, o'quvchilar ma'lum vaqt davomida bajaradilar. Loyihaning o'quv loyihasini tashkil etish shakli sifatida ko'p qirraliligi shundan iboratki, uni maktabda ham, darsdan tashqari soatlarda ham qo'llash mumkinligi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Счастье – это найти баланс между важными вещами. Уделяйте время работе, работе, развитию, семье, спорту, сну, друзьям, волонтерству. После того, как вы определили важные для вас задачи, установите для них время. Таким образом вы избавитесь от скуки. Желание добиться успеха возрастает. Вы начнете больше наслаждаться жизнью и чувствовать себя счастливее и сильнее.

Формула успеха – это умножение путем внесения следующих изменений. Если один из них равен нулю, успех равен нулю. Нельзя надеяться на успех, развивая только 1-2 из этих качеств.

- определение приоритетов;
- действия, основанные на четком плане;
- постоянный поиск возможностей и выгодной ситуации;
- строгая дисциплина, порядок и распорядок дня;
- настойчивость и не сдаваться после поражения;
- серьезное внимание к задачам;
- независимое обучение. Получение знаний и опыта;
- регулярное движение вперед каждый день;
- уточнение стратегии и анализ ситуации;

- поиск жизненного баланса.

Если вы учтете все аспекты предложенной формулы, у вас обязательно все получится. Любая победа достигается упорным трудом и самоотдачей. И окончательный успех зависит от того, успешно ли вы пройдете все испытания своей мечты на протяжении всей жизни.

Список использованных источников:

1. Дроженко Г.Г. Особенности применения образовательной методики eduScrum (из опыта работы заведующего отделением «Фермерское хозяйство», Профессионально-технический колледж имени Камшат Доненбаевой, Мендыкаринский район, Костанайская область) // Педагогическая наука и практика. 2020. №1 (27). С. 65–68.

2. Жилин Д. М. Навыки XXI века и наука XXI века — противоречие или соответствие? // Естественнонаучное образование: взгляд в будущее. — М.: Издательство Московского университета, 2016. — С. 76–90.

3. Профессиональное образование без границ: навыки и компетенции XXI века: материалы Второй всероссийской межпрофессиональной конференции «Межпрофессиональное взаимодействие в координатах soft skills – основа эффективной системы подготовки молодых профессионалов», 11 ноября 2020 г. – СПб.: ГБПОУ

KASBIY KARYERANI SHAKLLANTIRISH MODELI VA YO‘NALISHLARI

Djalolova Sevara Xolmuradovna,

*SamDU Pedagogika ta’limi fakulteti Fakultetlararo
pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishda muhim bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan, kasbiy rivojlanish modeli va yo‘nalishlari haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: kasbiy rivojlanish, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanish modeli, kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari, karyera, ko‘nikma.

Аннотация: В этой статье вы сможете узнать о модели и направлениях профессионального развития.

Ключевые слова: профессиональное развитие, модель профессионального развития будущего учителя, направления профессионального развития, карьера, навыки.

Abstract: In this article, you can learn about the model and directions of professional development.

Key words: professional development, future teacher's professional development model, professional development directions, career, skills.

KIRISH

Bilamizki, hozirgi kunda xalqaro rivojlanish tizimida ta’lim asrimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, Koreya Respublikasida o‘tkazilgan xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha belgilangan

konsepsiyada “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarbligi qayd etilgan. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarda kasbga bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy va amaliy tayyorlashni tashkil etish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalardan foydalanib, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash tizimining o‘quv-metodik ta‘minotini yaratish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyo ta’lim tizimini axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak kadrlarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘quv-metodik ta‘minotini xalqaro talablar asosida yangilab borish, talabalar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirish bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu vazifalarni hal qilishda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu har bir yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va, albatta, barkamol insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Albatta, barkamol inson deyilganda ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan hamda jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabiga hamohangdir. Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasbni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘z hissasini munosib tarzda qo‘shib yashashi va shu tufayli jamiyatda o‘zligini anglashi, namoyon etishi, bir so‘z bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda, yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Aniqroq aytganda, kasbiy shakllanish deyilganda, insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron bir kasb sohasiga oid ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat, yillar davomida yetuk va malakali mutuxassis bo‘lib yetishishi tushuniladi.[1, 53-b]

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishgacha davrni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’limning bitiruvchi 9-sinf o‘quvchilari o‘rta maktablarni yakunlash arafasida o‘zlarining kelajakdagi orzu-umidlarini amalga oshirish, yoshlik his-tuyg‘ulari va ehtirolarga to‘la hayot pallasidir. Ontogenezda bu davr o‘zining mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarning fuqarolik maqomiga ega bo‘lishlari, shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy qarashlari va e’tiqodlari singari o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Shunday ekan, ayni shu davrda shaxsning hayot ostonasida o‘z maqsadlarini to‘g‘ri qo‘ya

olishi, kelgusida o'ziga ishonch va dadil qadam bilan yurishida mutasaddi shaxslarning mas'uliyati yanada oshishi zarur. Ma'lumki, motivlar – kishining muayayn maqsad sari intilishida uni harakatga keltiruvchi ichki quvvat manbai hisoblanadi. Motivlar inson faoliyati jarayonida konkret ehtiyoj sifatida namoyon bo'lib, mazkur faoliyatni amalga oshirish tufayli qondiriladi. Inson faoliyati motivlari turlicha ko'rinish va tuzilishga ega, chunonchi, organik, funksional, moddiy, ijtimoiy, ma'naviy va shu kabilardir hamda tanlagan kasbga ijobiy munosabatni shakllantirish hisobiga shaxsda o'quv motivatsiyasini oshirish; Ma'lumki, shaxsning ijtimoiy shartlangan muhim sifatlaridan biri – shaxsning yo'nalganligi, ya'ni motivatsiyasi. Motivatsiya shaxsning barcha xatti-harakatlarini umumiy va yagona maqsad sari yetaklovchi, undovchi, uning barqaror faoliyatini to'la ta'minlovchi shaxs tuzilishidagi muhim psixologik jarayondir. Undagi motivlar, ehtiyoj va qiziqishlar, mayl va xohishlar, ichki stimullar motivatsiyaning yadrosini tashkil etadi.[3, 12- b].

Har bir inson kim bo'lishni va nima qilishini o'zi hal qilishi kerak. E.A.Klimovning fikriga ko'ra kasb tanlash bir lahza, kasbiy faoliyat esa uzoq muddatli kelajak ekanligini ta'kidlaydi. Olim shaxsning kasbiy rivojlanishida mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganish muhimligini ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning karyerasi modelini qurish kasbiy rivojlanish jarayonini, xususan, kasbiy tanlovni, uni ishlab chiqish va amalga oshirish shartlarini tahlil qilishni talab qiladi. Insonning kasbiy tajribasi va mehnat faoliyati davomidagi faoliyati bilan bog'liq individual ravishda qabul qilingan pozitsiyasi va xatti-harakati muhimi ahamiyatga ega. Zamonaviy shaxsning karyera rivojlanishida muvaffaqiyatga erishish shartlari va jamiyatdagi tegishli mavqeni, qadriyatlarini, motivlar va ehtiyojlarga nisbatan tegishli kasbiy yo'nalishlarni tanlash asosida tanlangan faoliyat sohasida shaxsiy rivojlanish omillarini hisobga olish kerak.

A. Maslou tomonidan taklif qilingan inson ehtiyojlari ierarxiyasini o'rganish kasbiy rivojlanish uchun muhimdir. Shunday qilib, fiziologik ehtiyojlar darajasi ish haqi va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning mavjudligiga mos keladi. Xavfsizlik va himoyaga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy paketga, sug'urtaga, huquq va majburiyatlarni belgilovchi mehnat shartnomasiga, nafaqa

jamg'armasining mavjudligida namoyon bo'ladi. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj, birinchi navbatda, ijtimoiy jamoada, odamlarning o'zaro ta'siri va aloqa tizimida bo'lish zarurati asosida ifodalanadi. Kasbiy rivojlanish jarayonida o'z-o'zini hurmat qilish va boshqalar tomonidan tan olinishi zarurati karyera pog'onasida ko'tarilish, hamkasblarning hurmati va rag'batlantirishning mavjudligi bilan mos keladi. O'z-o'zini amalga oshirish zarurati - bu shaxs, kasbiy ishda shaxs bo'lish istagi hisoblanadi.


“Karyera” tushunchasi turli xil ma'nolarga ega: tanlagan kasbida oldinga siljish, yuqori maqomga erishish, o'z qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy tajriba orttirish va hokazo. Zamonaviy inson resurslarini boshqarish nazariyasida karyera deganda - ish bilan bog'liq tajribasi va mehnat faoliyati davomida insonning pozitsiyasi va xatti-harakatlaridagi individual ongli o'zgarishlar tushuniladi [1].

Karyera - bu insonning mehnat qilish bilan bog'liq hayoti mobaynidagi ish tajribasi va faoliyatini anglab yetilgan mavqei va xulq-atvoridir.

Kasbiy karyera - bu pedagogning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun faol harakatlari. Ushbu turdagi karyera kasbiy o‘shish va mahorat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, maqsadning o‘zi bilan emas, balki shu maqsad sari harakat bilan tavsiflanadi[2]. Muvaffaqiyatli karyera inson nafaqat nimani xohlashini, balki unga nima uchun kerakligini va maqsadga erishgandan so‘ng nima qilishini oldindan bilgan taqdirda paydo bo‘ladi.

Karyera maqsadlari quyidagicha:

1-rasm



Karyera modellari. Amalda, to‘rtta asosiy modelga asoslangan turli xil karyera variantlari mavjud:

“Tramplin”- Korxonada zinapoyalariga ko‘tarilish ular yuqori va yaxshi maoshli lavozimlarni egallaganlarida sodir bo‘ladi. Ma‘lum bir bosqichda xodim o‘zi uchun eng yuqori lavozimni egallaydi va unda uzoq vaqt qolishga harakat qiladi, keyin “tramplin”dan sakrash - nafaqaga chiqish bosqichiga o‘tadi. Bu karyera aynan bir lavozimda 20- 25 yil davomida ishlagan rahbarlar uchun odatiy hisoblanadi. Boshqa tomondan, ushbu model bir qator sabablarga ko‘ra - shaxsiy manfaatlar, kam ish yuki, yaxshi jamoa, karyeraga erishishni o‘z oldiga maqsad qilmagan mutaxassislar va xodimlar uchun xos bo‘lib, u egallab turgan lavozimidan qoniqadi va nafaqaga chiqqunga qadar shu erda qolishga tayyor hisoblanadi.

“Zinapoyalar”. Ishga qabul qilish zinapoyalarining har bir pog‘onasi xodimning ma‘lum bir (5 yildan ortiq bo‘lmagan) vaqtni egallagan aniq pozitsiyasini anglatadi. Ushbu muddat yangi lavozimga kinsh va to‘liq fidoyilik bilan ishlash uchun yetarli hisoblanadi. Malaka, ijodkorlik va ishlab chiqarish tajribasining o‘shishi bilan menejer yoki mutaxassis karyera pog‘onasini ko‘taradi. Xodim har bir yangi lavozimni kasbiy rivojlanishdan so‘ng egallaydi. U eng yuqori darajaga maksimal salohiyat davrida erishadi va shundan so‘ng unchalik intensive bo‘lmagan ishlarni bajarish bilan karyera zinapoyasiga muntazam ravishda tushishni boshlaydi.

“ilon”- Bu qisqa vaqt ichida xodimni gorizonttal ravishda bir lavozimdan ikkinchisiga o‘tkazishni va undan yuqori darajadagi yuqori lavozimni egallashni nazarda tutadi. Ushbu modelning asosiy ustunligi - bu faoliyat va boshqaruvning barcha funksiyalarini o‘rganish qobiliyatidir, bu yuqori lavozimda foydali bo‘ladi. Ushbu model yapon modeliga xosdir, chunki ular o‘zlarini nafaqat ma‘lum bir kasb

bilan, balki butun kompaniyaning kelajagi bilan bog'lashadi. Agar kadrlar almashinuvi kuzatilmasa, ushbu model o'z ahamiyatini yo'qotadi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Melanxolik va flegmatik temperament ustun bo'lgan ishchilarning bir qismi jamoani yoki pozitsiyani o'zgartirishga moyil emas va uni juda og'ir qabul qiladi.

Darvoqe, D.Golland kasb tanlash jarayonini shaxs tomonidan o'zi mansub bo'lgan shaxsiy tipni, tegishli kasbiy sohani o'rnatishni, shu asosda bir shaxsni belgilashni o'z ichiga olgan jarayon sifatida qaraydi. Shaxsning aql-zakovati va o'zini o'zi qadrlash dunyosi bilan belgilanadigan professional sohaning to'rt malaka darajasini, O.Holland quyidagi tiplarga ajratadi.

1. Haqiqiy yo'nalish: erkak tipi, faollik, tajovuzkorlik, jismoniy faoliyatga qiziqish, harakat qobiliyatlari, muayyan ishni afzal ko'rish, siyosatda, iqtisodiyotda odatiylik; kasbiy tanlovda - hunarmandchilik, texnologiya, qishloq va o'rmon xo'jaligi.

2. Intellektual yo'nalishi: muloqotda e'tiborning yetishmasligi, mavhum muammolarga qiziqish, ramzlarni manipulyatsiya qilish qobiliyati, zaif jismoniy va ijtimoiy faollik, noan'anaviy qadriyatlar; kasbiy tanlovda - tabiiy fanlar, matematika.

3. Ijtimoiy yo'naltirilganlik: ijtimoiy mas'uliyati, o'zaro munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj, og'zaki va ijtimoiy qobiliyatlar, ijtimoiy muammolarni hal qilishda hissiylik va faollik; kasbiy tanlovda - pedagogika, ijtimoiy farovonlik, klinik psixologiya, professional maslahat.

4. An'anaviy yo'nalish: tuzilgan og'zaki yoki ramziy faoliyatni afzal ko'rish; bo'ysunuvchi rollar; konformizm, noaniq vaziyatlardan qochish, ijtimoiy faollik va jismoniy stress; hokimiyat pozitsiyasi bilan moddiy ahvoli va muqomning qiymati; kasbiy tanlovda bank xizmati, luix bugalteriya hisobi, statistika.

5. Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik: kuch, yetakchilik, og'zaki qobiliyat, o'ziga ishonch, raqobatbardoshlik. noaniq vaziyatlardan va monoton aqliy mehnatdan qochish; kasbiy tanlovda - mehmonxona xizmati, tadbirkorlik, sanoat madaniyat.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi hamda talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, talabalarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi qarashlariga qarab jamiyatning turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tairova M.B. "TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH", [RESEARCH FOCUS | VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2022. ISSN: 2181-3833 ResearchBip | Google Scholar | SJIF \(4.597\) | UIF \(8.3\) Research Focus. 143-144 betlar.](#)

2. Hamroeva M. Yangi pedagogik texnologiyalarva pedagogik mahorat. – T.: 2005.

3. Кукушкин В.С. Совершенные педагогические технологии. – Ростов на Дону, 2003.

4. Bozorova S. Oliy maktabda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari. – T.:2006.
5. Abduqudusov O. Kasb-ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. Toshkent: "FAN", 2005.
6. N.X.Avliyov. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. «Muallif».
7. Muslimov N.A. et al. Technology for the formation of professional competence of teachers based on the modernization of the content of vocational education. -Tashkent: Science and Technology, 2013. -P. 26-28.
8. Реан А. А., Бордовская Н. В., Розум С. И. Психология и педагогика. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. –С. 249.

GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHNING AYRIM MASALALARI

Juraxujayev Davronxo'ja Daverxo'ja og'li,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrasida
o'qituvchisi E-mail: ddjuraxujayev@mail.ru; Telefon: +998935918567;

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada geografiya fanlarini o'qitishning maqsadi va u bilan bog'liq ayrim masalalar haqida batafsil fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** geografiya, fanlararo integratsiya, o'quv dasturi, baholash usullari, ijtimoiy va siyosiy yetuklik, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.*

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [1] ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu boisdan ta'lim tizimida o'qitish va bilimlarni hayotda qo'llashni o'rgatishning yangidan-yangi texnologiyalari, metodlari hamda o'ziga xos yondashuvlari ishlab chiqilmoqda.

Xususan, tabiiy fanlarning eng yirik tarmoqlaridan biri geografiya fanini o'qitish uchun o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini taqdim etishga yo'naltirilgan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining fan bo'yicha olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishiga erishish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu fanni o'qitishning asosiy maqsadi sifatida ko'rilmoqda [3;5]. Mazkur maqsadga erishish uchun esa quyidagi bir qator masalalarga e'tibor qaratish bizningcha har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Fanga oid tushunchalarni soddalashtirish. Geografiyada urbanizatsiya, kombinatlashuv, kooperatsiya, migratsiya, landshaft, relyef va boshqa shu kabi bir qator tushunchalar mavjud. Ushbu tushunchalarni ilmiy darajada tushunish, ularning mohiyatini anglab olish o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Bunda, mazkur tushunchalarni o'quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda (ilmiy tildan o'quvchi

tiliga tarjima qilish orqali) soddalashtirib, ularning hayoti bilan bog'lagan holda yetkazish muammoning o'ziga xos bir yechimi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlikni ta'minlash. Geografiya, biologiya, kimyo, fizika, matematika, iqtisodiyot, tarix, sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi turli fanlar bilan kesishadi. Chunki fanning o'quv rejasida berilgan ko'plab mavzularni chuqur o'rganish va tahlil qilish yuqoridagi fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni talab qiladi [6], bu har doim ham maktab sharoitida mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu sababdan mazkur fan o'qituvchilarini tayyorlashda integratsion fanlar bo'yicha ham umumiy bilim va ko'nikmalarni berib borilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Resurslar bilan ta'minlanganlik holati. Ba'zi bir maktablarda zamonaviy ma'lumotlar, xaritalar va texnologiyalardan foydalanish cheklangan, bu esa fanni o'qitish samaradorligiga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi [2]. Xususan, resurslarning yetishmasligi yoki ulardan foydalanish ko'nikmasining yaxshi shakllanmaganligi mazkur fanni amaliy o'rganish tajribasi, sayohatlar va tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hodisalarni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin.

O'quvchining faolligi. O'quvchilarni geografiya darslariga jalb qilish qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa, ma'lumotlar tushunarsiz yoki ularning hayotiy tajribasida uchramagan bo'lsa, bunday holatda darsni mazmunli va qiziqarli qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ma'lumotlarni yetkazishda hayotiy misollar va amaliy ko'rgazmalardan foydalanishlari kerak.

Pedagogning ijtimoiy va siyosiy yetukligi. Geografiyada qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik va madaniy xilma-xillik kabi bir qator nozik mavzular ham bor. O'qituvchilar bunday mavzudagi muhokamalarni ehtiyotkorlik bilan olib borishlari va o'quv dasturiga mos holatda ifodalanishini ta'minlashlari lozim, aks holda bu bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish. Ko'pgina o'qituvchilar geografiya bo'yicha, xususan, fanga oid nazariyalarni tushunish yoki ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababdan o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun ularni doimiy ravishda kerakli resurslar bilan ta'minlash, tizimli malaka oshirish kurslarini (onlayn va oflayn shaklda) tashkil etish hamda mintaqa bo'ylab kichik ilmiy ekspeditsiyalarga jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Baholash usullari. O'quvchining bilimini baholashda an'anaviy test va viktorinalardan tashqari innovatsion baholash usullaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish lozim [4]. Chunki, ish faoliyatini baholash, loyihalar, taqdimotlar va muhokamalar o'quvchilarda geografiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan ishtiyoqning ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'quv dasturlarini yangilab borish. Geografiya fani hozirgi kunda ekologik muammolar qolaversa dunyo siyosiy maydonida bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga baho bera oladigan va qaysidir manoda uni bartaraf etishga yechim berishi mumkin bo'lgan sohalardan biridir. Shu sababdan, o'qituvchilar o'z o'quv dasturlarini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy muammolarni hal qilish uchun moslashtirishlari kerak, bu tez-tez yangilanishlarni va darsni rejalashtirishdagi

moslashuvchanlikni talab qiladi. Albatta bu o'qituvchidan biroz vaqt va mehnat talab qilishi mumkin, ammo uning kelajakdagi samarasi sezilarli darajada bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi masalalarga e'tibor qaratgan holda darslarni tashkil etish, pedagoglarning kasbiy faoliyatiga va eng asosiysi geografiya ta'limidagi o'ziga xos "siljish"ga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. - <http://lex.uz//uz/docs/-5841063>.

2. Nurmamatov J. T. Umumta'lim maktablarida geografik xarita va atlaslar bilan ishlashdagi muammolar //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 73-79.

3. Qurboniyozov R.. Geografiya o'qitish metodikasi. Toshkent: - "Innovatsiya-Ziyo", 2022.

4. Tajimuratova X. M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilimlarini baholash va nazorat qilishda elektron vositalaridan foydalanish usullari //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 16-19.

5. Vaxobov H., Alimqulov N. R., Sultanova N. B. "Geografiya o'qitish metodikasi" Toshkent 2020.

6. Xamroyeva F.A., Juraxujayev D.D. Geografiyada fanlararo integratsiya Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 84 b.

TALABALARGA EPOKSI QATRONI ASOSIDA LAVH TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI O'RGATISH

Zulayxo Islomovna Jurayeva,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada epoksi qatronining turlari, qayerlarda qo'llanilishi, qanday buyumlar yasalishi va ulardan nima maqsadda foydalanish mumkinligi hamda lavh tayyorlash texnologik ketma-ketligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: epoksi qatroni, lavh tayyorlash texnologiyasi, otverditel, qolip, san'at.

Epoksi qatroni ikki komponentli termoset polimer bo'lib, otverditel bilan aralashtirilganda qattiq, ammo mustahkam bo'ladi. Otverditel – bu reaktiv qatronlarning qattiqlashishini tezlashtiradigan qattiqdashiruvchi kimyoviy birikma. A komponent – epoksi qatroni va B komponent – otverditel hisoblanadi [3].

Epoksi qatronlarini qo'llashning asosiy yo'nalishlari: qurilishda, elektr mashinasozligi va radiotexnika kema qurish, mashinasozlik, shu jumladan avtomobilsozlik, havo va raketa qurilishida shuningdek avtomobil korpusini ta'mirlashda ishlatiladi. Hozirgi kunda epoksi qatronidan turli-xil san'at asarlari yaratilmoqda. Xususan, har-xil dekorativ buyumlar, o'quv qurollari va ayollar zargarlik buyumlari vahokazolarni ishlab chiqarish uchun ham foydalanib kelinmoqda. Epoksi qatronlarining noyob xususiyatlaridan biri zargarlik buyumlarini yaratish va zargarlik buyumlarini bezash uchun ishlatishga imkon beradi. Qatron har

qanday sirt bilan yuqori yopishqoqlikka ega. U buyumning yuzasiga tekislik baxsh etuvchi yoki uni bezatish uchun asos sifatida ishlatiladi [1].

Ushbu san'at turi ingliz tilidan tarjima qilinganda Resin Art – qatronlar san'ati deb yuritiladi.

Epoksi qatronidan qanday buyum tayyorlash uni qanday bezatish insonning g'oyasi va ijodkorligiga bo'liq. Buyum tayyorlayotganda qancha e'tibor va chiroyli g'oyalar bilan ishlangiz tayyorlangan buyum chiroyli, insonga estetik zavq bera oladi deb aytishimiz mumkin.

Qatronlar zichligi va foydalanish qulayligi bo'yicha uch turga bo'linadi:

Crystal 6 – eng suyuq qatron hisoblanadi. Murakkab qo'shimchalar (quritilgan gullar) bilan silikon qoliplarga quyish uchun mo'ljallangan. U suyuqligi tufayli undan pufakchalar tez va oson chiqib ketadi. Qattiqlashgandan keyin qattiq va mustahkam bo'ladi. Kristallanish davomiyligi 4-5 soat, shu vaqt ichida u asta-sekin qalinlashadi va jelga o'xshash holatga o'tadi. 54-66 soatdan keyin to'liq kristall holatga kelib buyum tayyor bo'ladi.

Crystal 7 – ko'p qirrali qatron bo'lib, qoliplarga quyish va kichik gumbazli buyumlar tayyorlash uchun qulay hisoblanadi. Zargarlik buyumlarini yaratish, mahsulotlarni qoliplarga quyish, quritilgan gullar bilan bezak berish, bezak buyumlarni yaratish, polimer loyga porloq qoplamalarni qo'llash, suvni taqlid qilish, daryo ko'pigini hosil qilish uchun qulay hisoblanadi. Kristallanish davomiyligi 2-4 soat, 42-54 soatdan keyin to'liq kristall holatga kelib buyum tayyor bo'ladi.

Crystal 9 – qatronlar ichida eng quyug'i hisoblanadi. Ko'proq zargarlik buyumlariga gumbaz effektini yaratish uchun ishlatiladi. Quyug'ligi tufayli murakkab qo'shimchalar bilan qoliplarga quyish uchun mos kelmaydi. Qatronning umri 2-4 soat. 42-54 soatdan keyin to'liq davolash.

Qatronlar bilan ishlashda boshlang'ich bosqichidagi o'quvchilarga Crystal 7 dan foydalanishni tavsiya qilamiz. Chunki u Crystal 6 quyug'roq va Crystal 9 dan suyuqroq. Shuning uchun ko'pgina ish turlariga mos keladi. Ushbu turdagi epoksi qatroni keng qo'llanilishi tufayli hunarmandlar orasida keng foydalaniladi [2].

Lavh (kitob qo'yib o'qish uchun qulay qurilma) tayyorlash texnologiyasi (1-rasm).

Texnologik jarayonni bajarishda texnika xavfsizligi uchun himoya qo'lqop (rezina qo'lqop)laridan foydalanadi.

Kerakli jihozlar: lavh uchun qolip, pensit (bezak berish uchun), epoksi qatrinini o'lchash uchun tarozi, havo pufakchalarni yo'qotish uchun garelka (gaz baloncha), bir martalik plastik idish.

Kerakli materiallar: epoksi qatroni, otverditel (qattiqlashtiruvchi), bezak uchun quritilgan gul to'plami, rang va zarlar.

Ishni bajarish tartibi:

- kerakli shakldagi qolipni ortiqcha changlardan tozalab olinadi;
- lavh tayyorlashda 650:350 nisbatta bo'lgan epoksi qatronidan foydalaniladi;
- lavh uchun kerakli miqdorda epoksi qatroni tarozida o'lchab olinadi (640 gr. $650 \cdot 640 = 416$, $350 \cdot 640 = 224$, $416 + 224 = 640$) har bitta qolip uchun 320 gr massa tayyorlanadi (bunda 650/350 nisbatda olingan);

- epoksi qatron bilan otverditel bir martalik plastik idishda yog'och tayoqcha bilan 5 daqiqa bir xil tiniq massa hosil bo'lguncha aralshtiriladi;
- tayyor massa ichiga xohishga ko'ra bezak uchun rang va har xil zarlardan foydalanish mumkin (bunda qolip atrofiga sariq zardan foydalanildi);
- birinchi qavat qatroni bir tekisda maxsus silikon qoliplarga quyib chiqiladi;
- quritilgan gullar shakliga ko'ra bezakli qilib joylashtirib chiqiladi;
- uning yuzasidan qolgan qatronni ya'ni ikkinchi qatlamni bir tekisda quyib chiqiladi;
- lavh yuzasidagi havo pufakchalarini ketkazish uchun gaz balonchani yoqib 10 sm uzoqlikda lavh yuzasi bo'ylab yurgizib chiqiladi (lavhning ko'rinishi tiniq tusga kirkandan so'ng jarayon to'xtatiladi);
- 4 soatdan so'ng yuzasi yaltirab turishi uchun uchinchi qavat quyiladi;
- havo pufakchalarini ketkazish uchun gaz balonchada so'ngi marta ishlov beriladi;
- bir sutkadan so'ng qolipdan ajratib olinadi.

So'ngi ishlov berish:

- lavh qolipdan ajratib olingandan so'ng notekis va qirrali joylari qum qog'ozda silliqlanadi;
- qum qog'ozda xiralashgan joylariga epoksi qatron tayyorlab lavh yuzasi bo'ylab yupqa qavat qilib quyiladi;
- bezak berish uchun lavh atrofini tilla rangga bo'yash mumkin.

Epoksi qatroni otverditel bilan reaksiyaga kirishishi yoz mavsumida tezlashadi. Qish mavsumida esa sekinlashadi. Ya'ni issiq havoda 40-48 soat ichida tayyor bo'lsa, salqin havoda 48-54 soat ichida tayyor bo'ladi. Epoksi qatroniga otverditel aralashtirigandan so'ng besh daqiqa kutamiz. Aralashma tayyor bo'lgandan so'ng yoz mavsumida 20 daqiqa ichida, qish mavsumida esa 40 daqiqa ichida ishimizni yakunlashimiz zarur bo'ladi. Sababi belgilangan vaqtdan oshib ketsa qatron reaksiyaga kirishib qotishni boshlab kerakli shakl chiqmasligi mumkin



1-rasm. Epoksi qatronidan tayyorlangan lavh

Epoksi qatronidan nafaqat lavh tayyorlash, balki ayollar nafis zargarlik buyumlari, yog‘och mebellarning ustki qismi chidamli va yaltirab chiqishi, ro‘zg‘orda ishlatiladigan idish tovoqlar, har-xil aksesuarlar, o‘quv qurollaridan: ruchka qatlami; yozuv daftarlarini yuzasi; chizg‘ichlarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytish muminki epoksi qatroni bilan ishlash san‘atini talabalarga o‘rgatish orqali ularning tafakkurini kengaytirish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish hamda estetik did, estetik fikr, estetik orzu, estetik qarash estetik madaniyati shuningdek buyum yasah etikasi, kasb etikasini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Эпоксидная_смола
2. https://hobbymagic.ru/smola_crystal/epoksidnaya-smola-crystal-9-150gr.html
3. <https://shopnewcomposite.ru/blogs/epoksidnaya-smola>

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIGA XOS LEKSIK LAKUNALARNING QIYOSIY TAVSIFI

Obruyeva Matluba,

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya. Lakunalar ma’lum til doirasida yoki tillararo miqyosda uchraydigan va tilning ma’lum sathiga daxldor kontseptning alohida lisoniy ifoda topmagan yoki ifodalash imkoni bo‘lmagan til formalari (xususan, leksik, morfologik va sintaktik birliklar) vositasida izohlash, tasvirlash, tushuntirish mumkin bo‘lgan leksik, morfologik, derivatsion va frazeologik tipidir.

Kalit so‘zlar: lacuna, derivatsiya, lingvokognitiv, bo‘shliq, frazeologiya.

Milliy madaniyat va tillararo tafovutlar xususida so‘z yuritilgan aksariyat tadqiqotlarda lacuna atamasi (lotin tilida lacuna o‘yiq, chuqur; fransuz tilida - bo‘shliq, o‘pirilgan joy)ga murojaat qilinadi. Turli lug‘atlarda bu terminning ta’rifi turlicha keltirilgan bo‘lib, leksiklogik tadqiqotlarda leksik sathdagi “bo‘sh joy, o‘rin sifatida izohlanadi. Ushbu atamani ilmiy iste’molga kiritgan kanadalik olimlar J.P.Vine va J. Darbelnelarning izohiga ko‘ra lakuna “bir tildagi so‘zning boshqa tilda muvofiq muqobili bo‘lmagan holat”ning ifodasidir.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotning muhim omilidir, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ta’kidlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lakunalar asosan tillarni solishtirganda seziladi.

O‘zbek tilida onaning onasi buvi, momo, otaning otasi bobo deyiladi. Koreys tilida esa biroz boshqacha bo‘lgan so‘zlar lakunalar mavjud. Masalan:

Buvi		Bobo	
할머니	외할머니	할아버지	외할아버지
(halmoni)	(vihalmomi)	(haraboji)	(viharaboji)

Ya’ni onasining onasi va otasini 외할머니, 외할아버지 deb atab, dadasining ota-onasini esa 할머니, 할아버지 deb ataydi.

Shuningdek, o‘zbek tilida bitta umumiy tushunchani anglatadigan o‘quvchi so‘zi ham lakuna hisoblanib koreys tilida 남학생 (yigit talaba) 여학생 (qiz talaba) ga

bo‘linadi. Yoki koreys tilida aka so‘zi “오빠” ayollar nutqida, “형” erkaklar nutqida ishlatiladi. Erkaklar nutqida 언니 “opa” ayollar nutqida 누나 “opa” so‘zlari ishlatiladi.

Bundan tashqari inson lingvokognitiv faoliyatida vaqtinchalik yoki individual xarakterli lakunlar ham mavjudki, ular diqqatning susayishi yoki patologik holatlarda kuzatiladi. Ruhshunoslikka oid adabiyotlarda kishilarning uyqusirash, asabiylashish, haddan ortiq charchash, holsizlik shuningdek diqqatning bo‘linishi kabi holatlar aktullashayotgan konsept uchun lisoniy shakl topa olmay qolgan holatlar qayd etiladi. Bu holatlar o‘tib ketgach bunday muammo kuzatilmaydi. Ijtimoiy madaniy lakunalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Milliy-madaniylikni aks ettiruvchi subyektiv lakunalar turli til va madaniy jamoalar vakillarining xususiyatlarini aks ettiradi. Subyektiv yoki milliy psixologik lakunalar yuzaga keladi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida milliy-psixologik shtirokchilarning fikrlari bir-biriga mos kelmaydi. Misol uchun, nemislar juda ehtiyotkor va koreyslar ko‘pincha shoshqaloq.

2. Har xil faoliyat turlarining o‘zaro ta‘sirining milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi faoliyat va aloqa lakunolari. Bu guruhga kundalik yoki kundalik aloqalar xulq-atvorning muayyan madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq va imo-ishoralar, urf-odatlar va an‘analar, shuningdek, xatti-harakatlar madaniyati kiradi.

3. Matnlarning xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan matn lakunolari (matn mazmuni, matnni yaratish va tushunish, unga yo‘naltirish aniq qabul qiluvchi, muallif poetikasi va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Рябова Т.В., Штерн А.С. К характеристике грамматического структурирования, хология грамматики. М.: Изд-во МГУ, 1968. В кн.: Пси
2. Байрамова Л.К. Лингвистические лакунарные единицы и лакуны //
3. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. Б.: 2003.
4. Гак В.Г. Сравнительная типология русского и французского языков. М.: Просвещение, 1983, с.245.
5. Огурцова О.А. К проблеме лакунарности // Функциональные особенности лингвистических ед иниц об. трудов Кубанского ун-та, Краснодар: изд-во Кубанского ун-та, 1979.
6. <http://credonew.ru/content/view/962/62>

O‘QUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOTNING O‘RNI.

Pulatova Shaxnozaxon Salohiddinovna,
Izboskan tuman 18-umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya; Maqolada o‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyani, nutqiy madaniyatni shakllantirish omillari, ularning yoshlar hayotidagi ahamiyati, milliy madaniyatimiz, qadriyatlar hamda urf-odatlarimizni o‘rgatishda adabiyot fanining

o'rnini va ahamiyati haqida so'z yuritilgan, kompetensiyalarni rivojlantirish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Umummadaniy, tasavvur, ta'lim, adabiy jarayon, kompetensiya, interfaol metodlar, manaviyat, madaniyat.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: "Badiiy adabiyot -ma'naviyat, madaniyat, qadr – qimmatni targ'ib qiladi", - deb yozadilar. Darhaqiqat, yoshlarimizni ma'naviy yetuk, barkamol va komil inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o'rnini beqiyosdir. O'quvchilarda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, xalqimizning madaniy boyliklari, urf-odatlarini bilish va ehtiyotlash va avaylab-asrashga qaratilgan tarbiyaviy masalalar ham adabiyot darslarida tarbiyaviy maqsadni har bir darsda o'qituvchi o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ma'lumki, adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratishi bilan birga, inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda va o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqsadlarni ko'zda tutgan har bir o'qituvchi dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi. Ulardan o'z vaqtida va o'rinli foydalanishga harakat qiladi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berish lozim. Bizga ma'lumki, qadimdan Sharq mamlakatlarida badiiy adabiyotga tarbiya vositasi sifatida qarab kelingan. Shundan bo'lsa kerak, o'zbek mumtoz adabiyoti didaktik asarlari bilan mashhurdir. O'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda buyuk ajdodlarimiz Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otut turk", Alisher Navoiyning "Xamsa", Z.M.Boburning "Boburnoma" va boshqa ko'plab mumtoz asarlari xalqimiz va millatimizning ma'naviy, ma'rifiy va madaniy jihatdan yuksalishiga muhim o'rin tutishligini uqtirishni maqsad qilib dars o'tishlik samarali natija beradi. O'qituvchi bunday asarlarni o'rgatishda, albatta, noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlaridan foydalanadilar.

Ular :

a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;

b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;

g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish:

- turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlar tashkil etish.

- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish; Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o'rniga aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos

ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interfaol usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Maktabda adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardandir. O'quvchilar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar. Bunda o'quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi. O'quvchi uchun mustaqil o'rganishga berilgan badiiy asarni taqriz yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham ancha samarali natija beradi. Taqriz yozish jarayonida o'quvchilarda badiiy asar tiliga e'tibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga o'rgatish imkonlari tug'iladi. Chunki taqriz yozish jarayonida o'quvchi har bir so'zning ma'nosi, salmog'i va ta'sir kuchini to'liq anglab etishga harakat qiladi. Bahs darslari o'quvchini ma'lum bir muammo ustida bosh qotirishga shu muammoga o'z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo'lovchi dars turidir. Baxs dars o'tkazish uchun o'quvchi-talabalar oldindan tayyorgarlik ko'rishi maqsadga muvofiq. Ularga muammoli savollar berilishi va shu muammoni har bir o'quvchi o'zicha xal qilgan xolda darsga tayyorlanib kelishi kerak. Baxs darslarni har bir o'rganilgan asar yuzasidan pala-partish o'tib bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan mumtoz adabiyot vakillari asarlarini va keying avlod yozuvchilari Abdulla Qodiriy , Oybek , Abdulla Qahhor va boshqa ko'plab adiblarning asarlarini sinchiklab o'rganib, baxs-munozaraga sabab bo'ladigan o'rinlarni belgilashi, shu o'rinlar asosida o'quvchilarda munozara qo'zg'ay oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni o'quvchi-talabalarga xavola qilishi zarur. Biror asarni to'liq o'rganib, bo'lingandan keyin baxs dars o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchi asar bilan yaxshi va to'liq tanishmagan bo'lsa, berilgan muammoni to'g'ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O'z fikriga ishonmagan o'quvchi baxsga ham aralashib, faollik ko'rsata olmaydi. Baxs darslari o'quvchilarni fikrlashga, so'zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o'z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muhokama va munozara yuritishga o'rgatadi. O'quvchi-talabalar haqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug'iladi. O'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda mumtoz adabiyot vakillarining asarlari bilan bir qatorda keying avlod yozuvchi va shoirlarining ijodiy merosini o'rganish ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan: Milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma'naviyatining yuksalishiga munosib hissa qo'shgan adib O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodini o'rganish ham o'quvchilarda umummadaniy bilim, malaka, ko'nikmalar majmuini to'ldirishda muhim ro'l o'ynaydi. " Har gulning ifori o'zgacha bo'lgani kabi, Muhammad Yusuf ham o'zbek she'riyati gulshaniga o'z ovozi bilan kirib kelgan. Bu yoqimli ovoz tez orada xalq qalbidan munosib o'rin egallagan." Ushbu tarif bejiz aytilmagan. Zero , Muhammad Yusuf ijodi haqida o'quvchilar

orasida mushohada qilar ekanmiz, shoir she'rlari o'zining tarbiyaviy ahamiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turishini teranroq anglaymiz... Ayniqsa, ularda shoirning Vatanga bo'lgan muhabbati aks etadi.

Vatanni sevish, uni qadrlash – bizning millatimizga xos bo'lgan fazilat. Bu bizning buyuk bobolarimizdan meros bo'lib o'tgan bo'lsa ajab emas. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temurdek mard, jasur bobolarimiz fidoiyligi Muhammad Yusuf ijodida o'zgacha talqin etilganki, shoirning bunday she'rlarini o'qigan yosh avlod qalbida g'urur, iftixor va ularga munosib farzand bo'lish istagi uyg'onadi.

O'quvchilar shoir ijodini o'rganar ekan, she'rlarining sodda va ravonligi, jo'shqinligi, tashbehlarning betakrorligi-yu, misralarning jozibasini his etadi. Bu esa murg'ak qalblarda she'riyatga oshuftalik tuyg'usini shakllantiradi, yoshlarning badiiy adabiyotga bo'lgan didini o'stiradi va umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

She'rlar mazmun-mohiyatidagi shonli tariximiz, boy ilmiy adabiy merosimiz, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish kabi qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chaqiradi va milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarni rivojlantiradi.

O'g'il bolalarni g'ururli, mard, jasur bo'lib, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida hamjihat bo'lib, ulg'ayishlarida, ulardagi o'ziga bo'lgan ishonchni yanada kamol topishida shoirning vatanparvarlik ruhida yozilgan she'rlari, ayniqsa ,ahamiyatli bo'lib o'z-o'zini anglang kompetensiyasini orttiradi.

Vatanni sevish o'z yo'lga, chunki uni hamma sevadi, biroq kerak bo'lganda yurt, millat uchun jonini fido qilish, unga tayanch bo'lish har bir er yigitning burchi. M.Yusuf she'rlari yigitlardagi ana shunday shijoatni shakllanishiga xizmat qiladi: O, ota makonim , onajon o'lkam,

Senga iddaolar qilmay sevaman.

Bir kuni onam deb ,bir kuni singlim,

Vatan, kimligingni bilmay sevaman.

Vatanni sevmagan, uni kuylamagan ijodkor yo'q. Muhammad Yusuf ijodining eng muhim o'ziga xosligi soddaligi, dilga yaqinligidadir. Vatan shoir tasavvurida onadek mo'tabar, singildek ardoqli.

Bunday samimiy satrlar yoshlarni fikrlashga undaydi, ular Vatanni mehribon onasidek, opa yoki singlisidek ardoqlashi kerakligini anglab etadi.

Shoir M.Yusuf Vatan mavzusiga qayta-qayta murojaat etadi va bu she'rlar biri boshqasini takrorlamaydi. Kitobxon she'rlarni o'qir ekan, tasavvuri va tafakkuri oshadi, olamni mushohada etishga intiladi, tarixiy, ilmiy bilimlarga ham ega bo'ladi.

Vatan har qanday qimmatbaho boylikdan-da go'zal, bebaho. Muhamad Yusuf she'rlari ana shunday ko'tarinki ruhda bitilgan va bu she'rlar yoshlardagi o'ziga bo'lgan ishonchni yanada oshiradi..

Chunki insonga berilgan ne'matlarning eng oliysi ozodlik, erk, osoyishtalikdir. Bunga shukrona keltirish asrab-avaylash esa yoshlar qo'lida.

Milliy g'urur, o'zlikni anglash, yurt tinchligi va osoyishtaligidek yuksak tushunchalar Muhammad Yusuf ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. O'zbek

millatining buyuk allomalari bugungi zahmatkash insonlari, ularga bo'lgan ishonch, ehtirom shoir she'rlarida o'z aksini topgan.

Ehtirom etganga ehromlari bor,
Kekkayganga bo'yin egmagay zinhor.

Darhaqiqat, xalqimizga xos bo'lgan xislatlar yoshlarni shu millatga munosib bo'lish tuyg'usini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, G'ofur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Abdulla Oripov, Zulfiya, Erkin Vohidov kabi betakror misralar sohiblari va sohibalari bo'lgan o'zbek adabiyotining vakillari ijodida inson, insoniy fazilatlar, sevgi-muhabbat, do'stlik, ota-ona mehri, kamtarlik, mehr-oqibat, vafo, sadoqat kabi oliy tushunchalar go'zal satrlarda jilolanadi.

Ularning ijodi kelajak avlodni ma'naviy yetuk, barkamol bo'lib ulg'ayishida, yurt va millat uchun fidoiy inson bo'lib kamol topishida dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Barchani dilidagi so'zlarini topib, xalqiga tuhfa etolgan adabiyotimizning buyuk namoyandalari merosi o'zbek xalqining ma'naviy xazinasiga aylanib ulgurgan va madaniy merosi sifatida asraladi. Adabiyot darslarida ularni o'rganish jarayonlari har bir yosh avlodning umummadaniy bilimlarini oshirishga qaratiladi va ularda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Mana shu ma'naviy boylik asrlar osha Hazrat Mir Alisher Navoiy, Z.M. Bobur asarlari kabi sevimli bo'lib, yoshlarni vatanparvarlik bayrog'i ostida birlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006
2. <http://www.pedagog.uz>; [www. connect.uz](http://www.connect.uz) : [www. fantexnolog.uz](http://www.fantexnolog.uz)
www.ziyonet.uz

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARINING ISH JOYIDA MALAKA OSHIRISHINING ZAMONAVIY MODELLARI

Rasulova Maftuna Nasimboy qizi,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish muammosini dolzarblashtiradi. Yangi texnologiya va texnikalarni amaliyotda qo'llashga to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Pedagog kadrlarning qo'shimcha kasbiy ta'limining an'anaviy va innovatsion usullarining uyg'un kombinatsiyasining afzalligi isbotlangan. O'qituvchilar malakasini oshirishning kaskad modelining innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash samaradorligi asoslab berilgan. Trener o'qituvchilar tayyorlashning darajalari va yetakchi usullari aniqlangan va tavsiflangan: mintaqaviy trenerlarni tayyorlash uchun simulyatsiya modellashtirish, shahar va tuman trenerlari uchun misollar, o'qituvchilar uchun elektron portfolio. Malaka oshirish jarayonida interaktivlikni oshirish usullari

tahlil qilingan. Nazorat va telementorlik formatida ishning barcha bosqichlari uchun uslubiy va psixologik yordam ko'rsatilmoqda.

Kalit so'zlar: kaskad modeli, innovatsion tayyorgarlik, trenerlik, o'qituvchilar, malaka oshirish, innovatsiyalar, simulyatsiya modellashtirish, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar.

Abstract: This article highlights the problem of introducing innovations into the educational process of general education institutions. Factors preventing the practical application of new technologies and techniques are analyzed. The results of a survey conducted among students of advanced training courses have been sorted. The concept of innovative preparation of the teacher is considered in the diagram and visually. The advantage of a harmonious combination of traditional and innovative methods of additional professional education of teaching staff has been proven. The effectiveness of innovation adoption and application of the cascade model of teacher training is justified. Levels and leading methods of training tutors are defined and described: simulation modeling for training regional tutors, examples for city and district tutors, electronic portfolio for teachers. Methods of increasing interactivity during the training process were analyzed. Methodological and psychological support is provided for all stages of work in the format of supervision and telementoring.

Key words: cascade model, innovation training, tutor, teachers, training, innovation, simulation modeling, case studies, developments. **Аннотация:** В данной статье освещается проблема внедрения инноваций в образовательный процесс общеобразовательных учреждений. Анализируются факторы, препятствующие практическому применению новых технологий и методик. Сортированы результаты опроса, проведенного среди студентов курсов повышения квалификации. Концепция инновационной подготовки учителя рассмотрена на схеме и наглядно. Доказано преимущество гармоничного сочетания традиционных и инновационных методов дополнительного профессионального образования педагогических кадров. Обоснована эффективность внедрения инноваций и применения каскадной модели подготовки учителей. Определены и описаны уровни и ведущие методы подготовки репетиторов: имитационное моделирование подготовки региональных репетиторов, примеры для городских и районных репетиторов, электронное портфолио для учителей. Проанализированы методы повышения интерактивности в процессе обучения. На всех этапах работы оказывается методическая и психологическая поддержка в формате супервизии и теленаставничества.

Ключевые слова: каскадная модель, инновационное обучение, тьютор, преподаватели, обучение, инновации, имитационное моделирование, тематические исследования, разработки.

Ko'pgina olimlar uzluksiz ta'limning kontseptual asoslari, funktsiyalari, tuzilishi va mazmuni bo'yicha fundamental tadqiqotlar bilan shug'ullangan. Bu mavzudagi eng mashhur ilmiy ishlar K. Ya Vazina, K. A. Abulxanova-Slavskaya, V. S. Lednev, V. N. Andreev, B. S. Gershunskiy, S. G. Vershlovskiy, Yu N. Kulyutkin, A. L. Vladislavlev, T. Braje va boshqalar. Xorijiy tadqiqotchilar ham hayot davomidagi ta'limning integratsiyasi, uzluksizligi va o'zgaruvchanligi haqida yozgan.

O'qituvchilar uchun qo'shimcha kasbiy ta'limning ilg'or xarakterini ta'minlash uchun ta'limni rivojlantirish tendentsiyalarini doimiy ravishda kuzatib borish zarur. Ularning rivojlanishi pedagogik amaliyotda qo'llanmasdan qolmasligini ta'minlash uchun bir qator omillarni hisobga olish kerak, ularning asosiysi o'qituvchilarning innovatsion tayyorgarligidir. Uning ko'rsatkichlari: innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni anglash; pedagogikaning so'nggi yutuqlaridan xabardorlikdir.

Kadrlar malakasini oshirish tizimini ilmiy qo'llab-quvvatlash – yangi texnologiya va texnikalar haqida cheklangan bilim (48%); fan va amaliyot; tadqiqot, eksperimental faoliyatga e'tibor qaratish, mulkiy usullarni ishlab chiqish; innovatsiyalar bilan bog'liq qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, shuningdek, o'z-o'zini tartibga solish va aks ettirish qobiliyati. Institutda malaka oshirish kurslari innovatsion tarkibga to'la, garchi unda klassik qonunlar ham mavjud. Innovatsiyalarni amaliy rivojlantirish uchun o'qitishning eng yangi shakl va usullari qo'llaniladi, bu o'qituvchining ishida qimmatlidir. Adabiyotda bu tushunchalar o'rtasida aniq farq yo'q. Haqiqatga imkon qadar yaqin bo'lgan xayoliy kasbiy faoliyat sharoitida murakkab vaziyatli o'yinlarni simulyatsiya modellashtirish deb ataymiz. Simulyatsiyalarda vaziyatni ishlab chiqish uchun professional sharoitlarni soddalashtirishga ruxsat beriladi. Ushbu texnologiya rolli o'yinga yaqin, lekin undan sezilarli darajada farq qiladi, chunki uning maqsadi turli mutaxassislarning xatti-harakatlarini ifodalash emas, balki muayyan hodisa va mexanizmlarni tasvirlashdir. Simulyatsiya modellashtirish imkonini beradi.

Innovatsiyani o'zlashtirgandan so'ng, institut o'qituvchilari uni turli toifadagi pedagogik xodimlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtiradilar. Maxsus malaka oshirish kurslarida shahar va tuman repetitorlari o'z shahar va viloyatlarida o'qituvchilar bilan ishlash bo'yicha tayyorlanadi. Kurs dasturiga muammoli dialogik ma'ruzalar, reflektiv suhbatlar, evristik munozaralar, amaliy ishlar va treninglar kiradi. Yetakchi usul - amaliy tadqiqotlar. Vaziyatli modellashtirishdan tashqari, vaziyatli muammolarni hal qilish, uslubiy simulyatorlar ustida ishlash va moderatsiya qo'llaniladi. Mikro-ta'lim juda mashhur. O'quv jarayoni soddalashtirilgan pedagogik vaziyatda amalga oshiriladi. Mikro-ta'lim jarayonida professional harakatlarning optimalligini keyingi ko'rish va tahlil qilish uchun videoyozuv amalga oshiriladi. Shahar va tuman repetitorlari keng qamrovli imtihondan o'tib, maqsadli seminarlar tashkil etib, o'z shahar va tumanlaridagi o'qituvchilarga o'zlashtirgan yangiliklarni o'rgatmoqda. Maqsadli malaka oshirish kurslarida bo'lgani kabi bir xil usul va uslublar qo'llaniladi, ammo asosiy e'tibor E-portfelga qaratilgan. Seminar ishtirokchilari darhol o'quv materiallarini to'plashni boshlaydilar, o'rganilayotgan yangilik haqida, ularni maktab amaliyotiga moslashtirish. Ko'p odamlar o'zlarining fikrlari, g'oyalari va keyinchalik chuqur tahlil qilish uchun o'qituvchilarning iqtiboslarini yozib olish uchun elektron daftar yuritadilar. Seminarlardan videokliplar ham portfelga kiritilgan. Uyda qo'shimcha tomosha qilish yoki hamkasblarga namoyish qilish. Innovatsiyalarni joriy etish jarayoni doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Shu maqsadda viloyat, shahar va tuman repetitorlari o'z o'qituvchilari tomonidan tizimli ravishda nazoratdan o'tkazilib, o'qituvchilar uchun telementorlik qo'llaniladi. Nazoratning hududiy modeli ishlab chiqilgan va

muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Telementorlik - bu klassikaning o'zgarishi telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali mentorlik. Nazorat va telementorlik ish sifatining yaxshi darajasini va repetitor va o'qituvchilarning malakasini oshirishni ta'minlaydi. Ta'lim natijalarini kuzatish modelning yuqori mahsuldorligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. O'quv seminarlari davomida muayyan pedagogik amaliyotlar o'qituvchilarning samarali tajribasi bilan to'yingan, amalga oshiriladi va ishlab chiqiladi. Shunday qilib, tematik malaka oshirishning tasvirlangan kaskad modeli muvaffaqiyatli ishlaydi. Samarali an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ko'p bosqichli repetitorlarni izchil tayyorlash va interfaollik darajasini oshirish istiqbolli yangiliklarni ta'lim tashkilotlari amaliyotiga tez va malakali kiritish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangiliklarni pedagogik amaliyotda amaliyotga tatbiq etish, veb-kameralar ularni nazoratchi repetitorlarga uzatib, o'quv jarayonini yozib boradi. Keyinchalik, videokonferentsiya yordamida alohida qismlar tahlil qilinadi, muammoli masalalar muhokama qilinadi, maslahat va psixologik yordam ko'rsatiladi. Telementorlik ko'plab afzalliklarga ega, jumladan: vizual aloqani saqlab turishda makon va vaqt cheklovlarining yo'qligi, tahlil qilinadigan epizodlarning aniqligi, yuqori darajada shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, multimedia motivatorlari va boshqalar. Kaskad tamoyilidan foydalangan holda treninglar ko'plab o'qituvchilarni o'zlashtirishga jalb qilish imkonini beradi. innovatsiya, uning jadal rivojlanishiga hissa qo'shadi, uzluksiz kasbiy takomillashtirish uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вазина К. Я. Саморазвитие человека и модульное обучение / К. Я. Вазина. – Н. Новгород : Изд-во ВПИИ, 1991. – 120 б.

2. Абульханова-Славская К. А. Типологический подход к личности профессионала / К. А. Абульханова-Славская // Психологические проблемы формирования личности профессионала : сб. науч. труд. – М. : МГУ, 1991. 4–9б.

3. Леднев В. С. Непрерывное образование: структура и содержание / В. С. Леднев. – М. : АПН СССР, 1988. – 240 б.

4. Андреев В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В. И. Андреев. – Казань : Центр инновационных технологий, 2000. – 608 б.

5. Андреев В. И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс / В. И. Андреев. – Казань : Центр инновационных технологий, 2012. – 608 б.

6. Гершунский Б. С. Педагогическая прогностика: методология, теория, практика / Б. С. Гершунский. – Киев : Нар. освіта, 1984. – 246 б

7. Вершловский С. Г. Молодой учитель в системе непрерывного образования / С. Г. Вершловский // Советская педагогика. – 1986. – № 2. 71–75 б.

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA LINGVISTIK TERMINLARNING TARKIBIY TUZILISHI

Ravshanova Asila,

Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti Lingvistika: koreys tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada termin va terminologiya atamasi mazmuni, koreys va o‘zbek tillarida so‘z turkumlariga oid bo‘lgan lingvistik terminlar haqida ma’lumot berildi, so‘z turkumlariga oid bo‘lgan lingvistik terminlarning tarkibiy tuzilishi ko‘rib chiqildi, koreys tilida mavjud bo‘lgan sodda, qo‘shma lingvistik terminlar va termin birikmalar misollar orqali ko‘rib o‘rganib chiqildi.

Kalit so‘zlar: lingvistik terminlar, sodda tub terminlar, sodda yasama terminlar, qo‘shma terminlar, juft terminlar, termin birikmalar, ikki tarkibli termin birikmalar, uch tarkibli termin birikmalar, to‘rt tarkibli termin birikmalar.

Kirish. Til va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini har jabhada kuzatishimiz mumkin. Jamiyatdagi o‘zgarishlar tilda o‘z ifodasini topadi, shu jihatdan terminologiya tilshunoslikning tez o‘zgaruvchan va murakkab tuzilishga ega sohasi hisoblanadi. Termin atamasi bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi hisoblansa, terminologiya tushunchasi fan-texnika, ishlab chiqarish, san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlar majmuyini bildiradi. Rus faylasufi P.A.Florenskiy "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog‘i joy joyiga qo‘yishdan iborat... Terminlar hayoti fan tarixining o‘zidir..." deyish orqali terminologiyaning fandagi muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgandir.

So‘z turkumlariga oid lingvistik terminlarning tarkibiy tuzilishi

Tilshunoslikka oid asarlarda so‘z turkumlariga oid lingvistik terminlarni tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

- 1.Sodda terminlar
- 2.Qo‘shma terminlar
- 3.Juft terminlar
- 3.Termin birikmalar

Sodda terminlar. Sodda terminlar bir o‘zak va shakliy ma’noviy yaxlitlikka ega bo‘ladi. Misol uchun, 품사(so‘z turkumlari), 용언(kesimlik), 명사(ot so‘z turkumi), 대명사(olmosh so‘z turkumi), 형용사(sifat so‘z turkumi), 관형사(atributiv sifat so‘z turkumi), 조사(bog‘lovchi), 동사(fe‘l so‘z turkumi) va hokazolarni keltirishimiz mumkin. Sodda terminlar derivatsion xususiyatlariga ko‘ra sodda tub terminlar va sodda yasama terminlarga bo‘linadi.

Sodda tub terminlarni o‘zbek tili tilshunosligida ko‘p uchratishimiz mumkin. Misol uchun, ot, sifat, son, ega kabilar, lekin koreys tili agglyutinatativ til bo‘lganligi sababli sodda tub terminlarni uchratish mushkuldir.

Sodda yasama terminlar-품사(so‘z turkumlari), 부사(ravish), 독립언(mustaqil keluvchilar), 보조사(yordamchi qo‘shimcha), 대명사(olmosh).

Qo'shma terminlar. Birdan ortiq o'zakning birikishidan hosil bo'ladigan terminlarni qo'shma termin deyishimiz mumkin. 보통 명사(umumiy otlar), 고유 명사(atoqli otlar), 단수 명사(birlik otlar), 단일 명사(sodda otlar), 파생 명사(yasama otlar).

Juft terminlar. Ikki so'zning juftlanishidan juft terminlar hosil bo'ladi. Misol uchun o'zbek tilida so'z-gap termini uchraydi, lekin bunday terminlar koreys tilida deyarli uchramaydi.

Termin birikmalar. Birikma terminlar birdan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va birikma holatida bo'ladi. 불규칙 동사(noto'g'ri fe'l), 서술격 조사(kesimlik qo'shimchasi), 시간을 지시하는 부사(vaqtни bildiruvchi ravishlar), 지시 관형사(ko'rsatishni bildiruvchi atributiv sifat), 단위성 의존 명사(hisob so'zlar)

Lingvistik termin birikmalarni tarkib nuqtayi nazaridan guruhlar ajratib chiqsak quyidagicha guruhlar hosil bo'ladi:

Ikki tarkibli termin birikmalar-sodda so'z birikmasi shaklida bo'lib, shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi: 현재 시제(hozirgi zamon), 부정 부사(inkor ravishi), 지시 부사(ko'rsatish ravishi), 재귀 대명사(o'zlik olmoshi), 미래 시제(kelasi zamon)

Uch tarkibli termin birikmalar-bunday murakkab terminlar uch mustaqil ma'noli lug'aviy birlikdan iborat bo'ladi, ya'ni uch tarkibli so'z birikmasi zanjiri termin sifatida ma'no ifodalab, bir tushunchani anglatishga xizmat qiladi: 보편성 의존 명사(universal tobe ot), 단위성 의존 명사(hisob so'zlar), 공간을 지시하는 부사(joyni bildiruvchi ravish), 시간을 지시하는 부사(vaqtни bildiruvchi ravish), va boshqalar. To'rt tarkibli termin birikmalar o'zbek tilshunosligida boshqa terminlarga nisbatan kamroq uchraydi, lekin koreys tilshunosligining so'z turkumlari bo'limida bunday terminlarni uchrata olmaymiz.

Xulosa

Kuzatishlar shuni ma'lum qiladiki, o'zbek tilshunosligida terminlarning tarkibiy tuzilishi sodda terminlar, qo'shma terminlar, juft terminlar va termin birikmalar misolida o'rganib chiqiladi, koreys tilshunosligida esa sodda tub terminlar va juft terminlarni uchrata olmaymiz. Koreys tilshunosligi terminlarining asosiy qismini sodda yasama terminlar va qo'shma terminlar tashkil qiladi, termin birikmalar esa nisbatan kamroq uchrashi o'rganib chiqildi. Terminlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda murakkab terminli birikmalar va boshqa tilda tarjimasi mavjud bo'lmagan terminlar turli qiyinchiliklarni olib kelishi mumkin, bu esa tilshunoslik terminologiyasi oldiga lingvistik terminlarni tartibga solish, yanada chuqur o'rganish vazifasini qo'yishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ermatov I.R. O'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019

2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002

3. Д.А.Карпека, Грамматика Корейского языка Том 1, Санкт-Петербург “Восточный экспресс”, 2018
4. Ким.В.Н., Грамматический и синтаксический строй корейского языка, Ташкент, 2000
5. 국립국어원장 남기심, “외국인을 위한 한국어 문법1”, 대한민국, 서울, 커뮤니케이션북스, 2005
6. 최재희, “한국어 문법론” 태학사, 2004

OCHIQ DARSLARNI O‘TKAZISH VA OCHIQ DARSNI TAHLIL QILISH METODIKASI.

¹Raximov G‘ulom Yuldoshevich,

O‘zbekiston-Finladiya pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti.
raximov2020g@gmail.com

²Ruziyeva Manzura Quvondiqovna,
Samrqand sh. 8-UDUM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Muayyan fan bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar ishtirokida turli shaklida o‘tkaziladigan darslar ochiq darslar deb ataladi. Ochiq darslarni o‘tkazishdan maqsad: professor-o‘qituvchilarni tegishli fan, texnika va texnologiyalar sohalari bo‘yicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklardan xabardor bo‘lishlariga erishish va ular asosida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda darslarni tayyorlash, o‘tkazish va shu tariqa ta’lim sifatini oshirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: ochiq dars, ochiq darsni rejalashtirish, dars tahlili, ilmiy tahlil, didaktik tahlil, metodik tahlil, umumpedagogik tahlil, psixologik tahlil, dars tahlili mezonlari.

Ochiq darslarning maqsadi, darsni ilmiy asosida tashkil etish ta’lim mazmunini ta’minlashda yuqori bilim saviyasiga erishishni namoyish qilish, ta’lim tarbiyaviy jarayonda ilg‘or shakl va uslublardan real foydalanishni tashkil etish didaktik va ko‘rgazma vositalaridan optimal foydalanish tizimini yaratishdan iboratdir. Ochiq darsning asosiy maqsadi o‘qituvchining dars o‘tishdagi ilg‘or tajriba va uslublarining samaradorligini ko‘rsatish va uni ommalashtirishdir.

Ochiq darslarni o‘tkazish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilarga fandagi so‘ngi yutuq va yangiliklarni yetkazish;
- ta’lim sifatini boshqarishda fan, ishlab chiqarish va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash;
- ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk dars materiallarini targ‘ibot etish;
- yosh pedagog kadrlarning kasb-mahoratini oshirish;
- yuqori saviyadagi ochiq dars mualliflarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish.

Ochiq darslar, odatda o'z sohasi bo'yicha taniqli yoki ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan tajribali o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi.

Ochiq darslar o'quv rejadagi barcha fanlardan o'tkazilishi mumkin. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladigan ochiq darslarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Ochiq darsni o'tkazish to'g'risidagi taklif pedagog kadrlar tomonidan o'quv semestri boshlanishiga qadar kafedra mudiriga ma'lum qilinadi.

Kafedra mudiri, ochiq darsga taklif etilishi mumkin bo'lgan tajribali pedagoglar, yetakchi olim va yuqori malakali mutaxassislar(tashqi ekspertlar) ro'yxatini tuzadi hamda belgilangan jadval shaklida ochiq darsga oid zarur ma'lumotlarni muassasa o'quv ishlari bo'yicha direktor muoviniga topshiradi. Ochiq darslarni o'tkazish to'g'risidagi kafedralar takliflari kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bo'yicha umumlashtirilib, direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Ochiq dars, odatda ikki akademik soatga mo'ljallanadi. Maruzachi savol va javoblar uchun kamida 5- daqiqa vaqt zahirasiga ega bo'lishi tavsiya qilinadi. Maruza mavzusi, uslubi, texnik vositalari maruzachi tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Ochiq dars o'tkazilishi haqidagi axborot, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari bir hafta oldin e'lon qilinadi. E'londa ochiq dars mavzusi, maruzachining familiyasi, ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni va toifasi hamda ochiq darsni o'tkazish kuni, joyi va vaqti ko'rsatiladi. Ochiq darsda ushbu darsni tashkil etayotgan kafedraning yosh pedagoglari, magistrantlar, aspirantlar va muhandis-pedagoglarining qatnashishi tavsiya etiladi. Ochiq darslarni odatda tajribali pedagog xodimlar, yangi metodik usullarni tavsiya qiluvchi o'qituvchi, muxandis-pedagog shuningdek kasb-hunar kollej direktori hamda uning o'rinbosarlari o'tkazadilar, ishni yangi boshlayotgan o'qituvchi yoki muhandis-pedagoglar ulardan mashg'ulotlar o'tkazish metodikasini o'rganib olishlari mumkin. Darsning senariysi va rejasi o'qituvchi tomonidan tuziladi hamda kafedraning e'tiboriga havola qilinadi.

Ochiq darslarning rejasini tuzishda, darslarning barcha turlarida samaradorligiga erishish o'quv jarayonini vositalariga ahamiyat berish talab qilinadi. Ochiq darslarni o'tkazish rejasi kasb-hunar kollejda rektori yoki uning o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi. Ochiq darslarning mavzusi muallif tomonidan belgilanadi va o'quv adabiyotlarida kam yoritilgan yoki o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Har bir ochiq darsga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak, bu tayyorgarlik ochiq darsning hamma elementlarini ishlab chiqarish, ish bosqichlarni, vaqtlarga bo'lish, darsni ko'rgazmali

materiallar bilan darsni samarali amalga oshirish maqsadida yangi faol mezonlaridan unumli foydalanish. Ochiq darsdan so'ng 2-3 kun o'tgach o'quvchilarning shu darsdan olgan kamchiliklarini, bilim ko'nikmasini aniqlash uchun sinov o'tkaziladi. Sinov natijalaridan ochiq darsning yakuniy muhokamasida foydalaniladi.

Dars boshlanishdan oldin o'quvchilar yo'qligida direktor, direktorning o'rinbosari, muhandis-pedagog rahbari yoki metodik komissiya raisi dars

qatnashchilariga ularning nimaga e'tibor berishlari kerakligini ta'minlab darsning maqsad hamda vazifalari haqidagi guruhning xususiyatlari to'g'risida axborot beradi.

Ochiq darsga qo'yiladigan talablar

- ochiq dars ta'lim-tarbiya, intellektual rivojlanish, jismoniy va ruhiy barqarorlanish jarayonining tashkiliy qismlaridan biri bo'lishi kerak. Dars senariysida darsning ilmiy ahamiyati ilmiy asoslanganligi, yoritilayotgan mavzuning aniqligi, ilm-fan rivojining o'rnini, mavzu bo'yicha ilmiy muammolar borligi aks ettirilishi lozim:

- darsning metodik optimalliliga o'qitishning texnikaviy vositalarning to'g'ri tanlanishiga alohida ahamiyat berish kerak.

- dars shaklidan qat'i nazar, maqsad o'quvchini mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil olishga yo'naltirish o'quv jarayonining asosiy omili ekanligini ko'zda tutish zarur:

- ochiq dars o'qituvchining o'quv jarayonidagi ilmiy-metodik izlanish natijasi bo'lib, uning tahliliy mehnati natijasi ekanligini ko'rsatish lozim.

Ochiq darslarni tayyorlash

O'qituvchi ochiq darsga tayyorlanishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- dars vaqtini optimal rejalashtirish - manbalarni chuqurlashtirish

- shu darsdagi guruh o'quvchilarining o'zlariga xos imkoniyatlarini hisobga olish (dars mavzusini tushuntirish uchun avvl olgan bilimlarning ko'nikma darajasini bilish)

- dars berishning uslub va vositalarini to'g'ri tanlash

- iqtidorli yoshlarga chuqur ta'lim berish tarbiyalariga javob berish:

- ochiq dars mavzusini shunday tanlash o'qituvchilarining pedagogik mahoratini, metodik ta'limini va dars o'tish vositalarini aniq ko'rsatish.

- ochiq dars tayyorlanish davrida o'qituvchi ilmiy-metodik izlanishi, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarning zamonaviy maktablaridan foydalanishi kerak. Bu o'qituvchilarda tahlil olishga qiziqish uyg'otib, zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi.

- dars senariysida belgilangan vaqt davomida o'qituvchi va o'quvchi kerakligini aniq ko'rsatilishi kerak.

- darsning moddiy-texnikaviy ta'minotini ilgaridan tayyorlash, barcha ko'rgazma va namioyish vositalardan foydalanish ketma-ketligini avvaldan rejalashtirish kerak.

- kafedralar ochiq darsga tayyorlanish vaqtida, muallifga texnikaviy, metodik ashyoviy va tahliliy yordam berishi kerak.

Ochiq darsning metodik ta'minoti

1. Darsning metodik majmuasi quyidagilardan iborat:

- fanning taqvim-mavzu rejasi:

- maruza matni yoki mashg'ulotlar (laboratoriya, amaliyot, mustaqil ish va hokazo) ning rejasi:

- dars senariysida ko'rsatilgan didaktik, ko'rgazmali materiallari va boshqa texnikaviy vositalar:

- nazorat ishi uchun savollar to'plami

- uy vazifasi savollari yoki masalalari to'plamlari:
- o'z-o'zini nazorat qilish savollari:

Ochiq darsning muhokamasi va tahlili

1. Ochiq darsning tahlili, unda qatnashgan o'quvchilarning qoldiq bilim darajasi aniqlangandan so'ng o'tkaziladi.

2. Ochiq darsning tahlili kafedrada ta'lim muassasasi ma'muriyati ishtirokida o'tkaziladi.

3. Muhokamaning maqsadi-darsni to'g'ri o'tkazilganligini baholash, tanlangan uslub va vositalarning muvofiqligini aniqlash, muallifga u tanlangan ayrim uslub va vositalardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatish.

4. Muhokama quyidagi tarkibda o'tkazilishi tavsiya qilinadi:

- darsni olib borgan o'qituvchi:
- dars tahlilida ishtirok etgan o'qituvchilar:
- kafedra a'zolari:

- ta'lim muassasasi ma'muriyati, o'quv va metodik ishlar bo'yicha mas'ul xodimlar:

5. Muhokama ishtirokchilari to'liq fikrga ega bo'lishi uchun, dars muallifiga birinchi so'z beriladi. Muallif darsning maqsadi va unga erishishi uchun qo'llangan uslub va foydalanilgan vositalar haqida aniq ma'lumot beradi.

6. Muhokamada so'zga chiquvchilar darsning barcha yutuq va kamchiliklarini to'liq ochib berishlari lozim. Muhokamada darsda erishilgan yutuq, qo'llanilgan uslublarning samaradorligiga, jihoz va texnikaviy vositalardan foydalanish darajasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Muallifning kelgusidagi ishida yordam berish uchun, barcha yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ortiqcha harakatlar aniq ko'rsatilishi kerak.

7. Muhokamada so'zga chiqqanlar, tahlil qilingan metodik majmuaning tarbiyaviy tomonini, o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sirini, ular orqali kelgusidagi mutaxassisga kerak bo'lgan sifatlarni shakllantirishdagi o'rin haqida fikr bilidirishlari kerak.

8. Muhokama oqilona va do'stlarcha vaziyatda fikr almashish, bahslashish sharoitida o'tishi lozim.

9. Muhokama oxirida muallifga yana so'z beriladi.

Ochiq dars natijalarini o'quv jarayoniga joriy etish

1. Kafedraning taklifiga binoan ochiq dars tahlili natijasi o'quv jarayoniga joriy etilishi kerak bo'lgan ilg'or pedagogik tajriba hisoblanadi.

2. Ochiq darsning metodik majmuasini keng joriy etish uchun uning barcha manbalari (senariyi, texnikaviy vositalar, maruzalar matni va hokazo) o'qituvchilar o'rtasida ommalashtiriladi.

3. Ochiq darsda qatnashgan o'qituvchilar varaqada to'ldirilgan ochiq dars tahlilini o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga topshiradilar.

4. Ochiq dars bo'yicha metodik qo'llanmalarni tayyorlash, taklif va xulosalarning tahlili ilg'or pedagogik tajriba tadbirlariga kiritiladi.

5. Ta'lim muassasasi pedagogik kengashida ochiq dars natijalari kengash a'zolariga yetkaziladi. Pedagogik kengash qaroriga ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish to'g'risidagi aniq taklif va tavsiyalar kiritiladi.

6. Ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish uslublarining yangi, ilg'or shakllarini amalda qo'llab-quvvatlashi kerak.

Ochiq darslar muhokamasini uyushtirish.

Ochiq darslarning mazmun-mohiyati va ilmiy-uslubiy saviyasi bo'yicha muhokamasi ochiq darsdan so'ng, kafedrada davom ettiriladi. Ochiq darsning muhokamasi kafedra majlislari bayonnomasida qayd etiladi.

Ochiq dars haqidagi tashqi taqriz va fikr-mulohazalar yozma ravishda muassasa rahbariyatiga yuboriladi va kafedra majlisida va ilmiy-pedagogik kengashda muhokama etilib, tegishli xulosalar chiqariladi.

Ochiq darsni baholashda ilg'or texnologiyalar joriy etilgan yirik korxonalaridan taklif etilgan mutaxassislar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va mutaxassislarining taqrizlari asosiy hisoblanadi.

Dars quyidagi umumiy talablarga javob berish kerak:

1. Har bir dars ma'lum maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy va ilmiy qadriyatlar yo'nalishiga ega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil shakl, metod va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanish kerak.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligi ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatlarini yoritmog'i lozim.

8. Dars mashg'ulotlarini butun guruh bilan olib borish bilan birga bunda har qaysi o'quvchilardan individual psixologik xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinishi kerak.

9. Har bir darsda mavzuning mazminidan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanish imkoniyatini izlamoq kerak.

O'qituvchilarning har bir darsini aniq maqsad qo'yilgan holda kuzatilsa, uni ilmiy, metodik, didaktik va umumiy pedagogik tahlil qilinsagina bu borada yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Dars tahlillarining quyidagi turlari mavjud:

- ilmiy tahlil.
- metodik tahlil.
- didaktik tahlil.
- umumpedagogik tahlil.
- psixologik tahlil.
- ilmiy tahlil.

Metodik tahlil.

O'qituvchining dars jarayonida qo'llagan metodlarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan metodlarining shu materialga mosligi yoki mos emasligini metodik tahlil davomida aniqlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan metodlarining samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi, uning o'tgan yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi (o'qituvchi, direktor, ilmiy bo'lim mudiri, metodist yoki nazoratchi) dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak.

Dars metodlarini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Dars jarayonida o'qituvchining foydalangan metodlari

- hikoya metodi;
- og'zaki bayon metodi;
- suhbat metodi;
- aqliy hujum;
- kichik guruhlarda ishlash;
- munozara;
- rolli oyinlar;
- muommali vaziyat;
- klaster metodi va boshqalar.

2. Darslik, konturli karta, diagramma yoki jadvallar bilan ishlash.

3. Laboratoriya asboblari bilan ishlash.

4. Texnika vositalaridan (kodoskop, kompyuter, kinofilm, diafilm, radio, televizor kabilar) foydalanish.

Darsni kuzatish. Dars tahliliga kirish uchun quyidagi qoidalar majburiydir:

- dars boshlanguncha va mazmuni bilan tanishmay turib o'qituvchi yoki muhandis-pedagoglarni, o'quvchilarni turli savollarga jalb etmaslik;

- savollarni faqat fan dasturi va rejasi yuzasidan berish;

- dars paytida o'quv xonasi, ustaxonasida yurish, daftarlarga qarash va o'quvchilarni turli savollar bilan chalg'itmoq mumkin emas;

- darsga kech kirish va qo'ng'iroq chalinguncha chiqib ketish mumkin emas;

- dars jarayonida kuzatuvchi o'qituvchining ishiga aralashishiga haqi yo'q, xattoki o'qituvchi qaysi bir sohada hatoga yoki kamchilikka yo'l qo'ysa ham (dars materialini xato tushuntirishi yoki dars usulida hatoga yo'l qo'ygan paytlarda). U barcha kamchilik va hatolarni darsdan so'ng ko'rsatib o'tishi mumkin.

- kuzatuvchi diqqat va e'tibor bilan darsni kuzatishi lozim va tez tanqidiy nuqtai-nazar bilan darsdagi barcha xolatlarni daftarga yozib borishi kerak.

Darsni tahlil qilishda quyidagi faoliyat mezonlarini asos sifatida olish mumkin:

1. Darsga tayyorgarlik:

- Dars oldindan rejalashtirilganligi va tayyorlanganligi haqida dalil (Masalan: dars rejasi, dars ishlanmasi, texnologik xarita, baholash paketi).

- Dars rejasi aniq maqsad va vazifalarga egaligi haqidagi dalil.
- Dars rejasi tuzilishi mantiqan to‘g‘ri tashkil etilganligi haqida dalil.

2. Dars taqdimoti:

- O‘qituvchi o‘quvchilarga darsning maqsad va vazifalarini aniq tushuntiradi.
- Dars tuzilishi mantiqan tashkil etilgan va bosqichma bosqich tushuntiriladi.
- O‘qitish natijalariga erishish uchun o‘qituvchi tegishli turli model va ta‘lim metodlarini qo‘llaydi.
- O‘qituvchi bir qator o‘qitish va o‘rgatish manbalaridan to‘g‘ri foydalanadi, shu jumladan texnik vositalardan (kodoskop, multimedia va boshq).
- O‘qituvchi yozuv doskasidan unumli foydalanadi. Yozuvi aniq. Muhim joylarning tagiga chizilgan. Kerakli joylarda diagrammalar, o‘qlar va boshqa belgilardan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida”gi Qonuni // Oliy ta‘lim: Meyoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: 2004. – B. 16-17.
2. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va KHK o‘qituvchilarini malakasini oshirishda masofali o‘qitish metodikasi // Uzlüksiz ta‘lim. – Toshkent: 2004. - № 5. – B.3-12.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:
4. Maxmutova G. Pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni – ma’naviy shakllantirish texnologiyasi // Xalq ta‘limi. – Toshkent: 2004. - №1. – B. 40-43.
5. Musaev U. Ta‘lim jarayonini erkinlashtirish prinsiplari // Xalq ta‘limi. – Toshkent: 2005. - № 4. – B. 4-10.

GENDERNING FANLARARO TADQIQI

Rahmonova Barnoxon Odilovna,

*Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudirasi*

Gender tadqiqotlari fanlararo tadqiq etilish natijasida gender lingvistikasining rivojiga ehtiyoj seziladi. Tadqiqotlarda insonning mavjudligi gender nuqtai nazardan ko‘rib chiqildi va bu masala falsafaning asosiy muammosi, ma’nosi va maqsadiga aylana bordi. Gender tadqiqotlari insonga tabiatdan har xillikka intilib yashash xosligini isbotladi. Bu esa gender psixologiyasida yana bir bora o‘z isbotini topdi. Gender psixologiyasidagi fikrlar majmuiga tilshunos F.de Sossyur tomonidan til va nutqning farqlanishiga oid psixolingvistik tadqiqotlari “nutqiy faoliyat” tushunchasining yanada aniqroq bo‘lishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. F.de Sossyurning ta’limoti gender psixologiyasida nutq yaratilishi til va tafakkur munosabatiga bog‘liqligini yaqqol namoyon etdi. Umuman olganda, gendert psixologiyasida yondosh fanlar asos solgan va bosqichma bosqich shakllana borgan.

Gender tadqiqotlari-bu ijtimoiy hodisalar va ularning o‘zgarishlarini tahlil qilish uchun ijtimoiy jins nazariyasining kognitiv imkoniyatlaridan foydalanadigan fanlararo tadqiqot amaliyoti. Ushbu sohaga ayollar tadqiqotlari (ayollar, feminizm,

jins va siyosat bilan bog‘liq), erkaklar tadqiqotlari va queer-tadqiqotlari kiradi. Zamonaviy gumanitar bilimlarda ushbu tendentsiyani shakllantirishga turtki jins bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda biologik va madaniy tarkibiy qismlarni ko‘paytirish taklifi bo‘ldi.

Gender masalalari globallashayotgan dunyoda modernizatsiya va postmodernizatsiya jarayonlariga mos keladigan innovatsion ilmiy va falsafiy nutqni ifodalaydi. Gender nutqi klassik gender nazariyalarini tanqid qilish, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlardagi an‘analarni inkor yetish va zamonaviylik va postmodernizm davriga mos keladigan yangi yondashuvlarni tasdiqlash sifatida paydo bo‘ldi. An‘anaviy gender qadriyatlarining o‘zgarishi tendentsiyasi global xarakterga ega bo‘lib, turli xil milliy, madaniy va geografik xususiyatlarga ega jamiyatlar va davlatlarga taalluqlidir. Gender o‘zgarishining global vektori erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlarning xiralashishini anglatmaydi, balki gender ierarxiyasini va mavjud hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlarini rad etishni anglatadi.

Jinsni aniqroq aniqlash va uning dinamik mohiyatini tushunish uchun, bizning nuqtai nazarimizdan, uni talqin qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini nafaqat turli fanlar doirasida, balki modernizatsiya jarayonida turli davrlar doirasida ham kuzatish muhimdir.

Gender psixologiyasining dastlabki bosqichida gender psixologiyasi alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagan bo‘lsada, olimlar o‘zlarining fikrlari orqali jins vakillariga munosabat bildirishgan. Bu fikrlarning ayrimlari gender tadqiqotldarga xosdir. Bu bosqichda “ko‘plab g‘arb mamlakatlarida, ayniqsa, Frantsiya, Angliya va AQSHda ayollar erkinligi uchun xarakterlar avj oldi. 1960g‘70 yillardagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar munosabati bilan ayollik va jinsga doir e‘tiroz bildirgan feminizm nazariyasi shakllandi”¹. Natijada, gender psixologiyasi, uning yo‘nalishlari, gender ijtimoiylashuvi kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Xorijiy psixologik adabiyotlarda E.Krechmer (nemis psixologi) va U.Sheldon (amerikalik psixolog)larning nazariyasi jins masalasiga oid bo‘lib, nerv sistemasi nerv-fiziologik xususiyatlarga emas, tashqi ko‘rsatkichi badanning jismoniy tuzilishiga bog‘liqdir, deb e‘tirof etiladi.

Gender tadqiqotlarida gender falsafasi ham o‘zining nazariyalari bilan muhim o‘rinni egallaydi.

Gender falsafasining maqsadi – jinslararo munosabatlarni yanada mustahkamlashdir.

Gender pedagogikasi ayol va erkak o‘rtasidagi farqlarni izlashdan emas, balki ayol va erkakni inson ekanligini ko‘rsatib beradi. Gender munosabatlari deganda, avvalo insonlarning o‘zaro munosabatlarini anglaymiz. Gender pedagogikasi ta‘lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib,

¹ Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi., T. -2003, 31-bet.

ularga muvofiq usul va vositalarni tanlaydi.

Gender tarix tadqiqotlarida asosiysi – jamiyatda ro‘y bergan va ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini gender omiliga tayanib tahlil etishdir. “Gender tarix insoniyat tarixiga boshqacha ko‘z bilan qarashga, odat bo‘lmagan narsalarni odatdagidek ko‘rishga, tarixda tarixchilar shu paytgacha ko‘rib chiqmagan ko‘plab mavzularni ochishga imkon beradi. Natijada gender

tarix tufayli dunyoning tarixiy manzarasi yanada to‘liq va obyektiv ko‘rinadi”².

Jins turli xil ijtimoiy institutlar: oila, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, siyosat, huquq, til, san’at, fan, moda orqali o‘zini namoyon qilish texnologiyasi sifatida talqin etiladi. T. de Lautisga ko‘ra, jins-bu keng doirada o‘zini namoyon qilishning natijasidir: normativ gender displeylaridan jins chegaralarining to‘liq xiralashishigacha. Vakillik-bu nutq va me’yorlar bilan tartibga solinadigan psixika va tashqi ko‘rinish o‘rtasidagi “o‘yin”.

Bu masalalar qo‘shimcha muhokama va argumentatsiya qilinishi kerak. Biroq, shubhasiz, jinsning o‘ziga xos tomoni uning dinamik tabiati bo‘lib, uni o‘rganish gender jarayonlarini, turli tendentsiyalar va ularni o‘zgartirish mexanizmlarini o‘rganishni anglatadi. Bugungi kunda gender dinamikasi mexanizmining tarkibiy va individual darajalarining nisbati o‘zgarishda davom etadi deb taxmin qilish mumkin. Ushbu o‘zgarish vektori har bir shaxsning o‘zi tomonidan turli xil ijtimoiy dunyoni qurishda, unda amalga oshirishning yangi istiqbollari ochishda tobora ortib borayotgan roli foydasiga yo‘naltirilgan.

Gender tadqiqotining har qanday ko‘rinishida ham avvalo, har ikkala jinsning til birliklariga e’tiborni qaratish muhimdir. Gender steriotiplarining til birliklari orqali ularning tafakkuri, dunyoqarashi, anglashiladi. Shu jihatdan gender tilshunosligi to‘liq tadqiq qilingandagina boshqa sohalar: gender psixologiyasi, gender falsafasi, gender tarix, gender etnografiyasi va gender pedagogika mukammal shakllanadi. Chunki, gender tilshunosligida til birliklari orqali insonning jinsi o‘rganiladi, borliqdagi dunyoni jinsga muvofiq farqli ravishda qabul etib, ana shunday holatni tilda aks ettiradi. Olimlar ta’kidlaganidek, “gender va genderning ahamiyati suhbat

² Tarix fanida gender muammolari. F.Axmedshina, O.Shnirova, I.Shkolnikov. T., 2003, 281-be t.

jarayonida jinsning xarakteri, suhbatning mohiyati va strukturasi belgilashda aniq seziladi”³. Shuning uchun ham gender tilshunosligini keng masshtabli fundamental tadqiq etish lozim.

UDK 371+370.153

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING KASBIY POTENSIALINI RIVOJLANTIRISH METODALOGIYASI

Raxmonova Mehrixon Xoshimovna,

Farg‘ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini bugungi

globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda o'qituvchining butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zarurati haqida fikrlar tahlil etigan.

Аннотация. В данной статье были проанализированы мнения учителей начальных классов о необходимости непрерывного образования на протяжении всей жизни учителя в условиях современной глобализации и жесткой конкуренции.

Abstract. In this article, primary school teachers were analyzed by thoughts about the need to receive a continuous education throughout the teacher's life in the conditions of today's globalization and sharp competition.

Kalit so'zlar: *potensial, ehtiyoj, individual, metodlagik, kompetentsiya.*

Ключевые слова: *потенциал, потребность, индивидуальный, методический, компетентность.*

Key words: *potential, need, individual, creative activity,*

Kirish. So'nggi yillarda dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini taqazo etmoqda.

Dunyo jamiyatini axborot tizimi qamrab olgani shuningdek, ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar bo'layotgani hech kimga sir emas. Shunday o'zarishlar o'qituvchidan mutlaqo yangi, zamonaviy talabalar asosida dars jarayonlarini tashkil etishda, qolaversa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi pedagogik shart-sharoitlar o'rganildi.

Bugun, o'qituvchi yangi axborotni ijobiy va tanqidiy idrok etishga, umumiy va kasbiy bilimlarni oshirish, muammolarni yechishning yangi usullarini topish, pedagogik mahorat, yuksak tafakkur, o'tkir iroda, siyosiy savodxonlik, dunyoqarashi keng, mulohazali, o'quvchilarining ichki dunyosiga kira oladigan, bolalarning kelajagini oldindan biladigan bo'lishi kerak.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini islox qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatini qanday tashkil qilinishiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga hukumatimiz tomonidan chiqarilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirishning metodlagik asos bo'luvchi me'yoriy huquqiy xujjatlarni keltirishimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, o'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. O'qituvchi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiy potensialga ega, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarini egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o'rganishi va baholay olishi zarur.

Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirishda ularga kasbiy komepentligiga qo'yilgan talablarni o'rgandik.

Fanga doir kompetentsiyalar: boshlang'ich ta'limning o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik; boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik; boshlang'ich ta'limga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o'quvchilarga yetkazish qobiliyati; boshlang'ich ta'limdan sohaning nazariy asoslarini puxta egallagan bo'lishi va undan turdosh tarmoqlarda samarali foydalana olishi, boshlang'ich ta'lim metodologiyasiga oid manbalarni o'zlashtirish, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish ko'nikma va malakasiga eta bo'lishi; boshlang'ich ta'limning boshqa fanlar bilan aloqasi, pedagogikaning tarmoqlari va metodik fanlarning boshlang'ich ta'limda tutgan o'rni, ta'lim nazariyasi va shakllari, fanlarni o'qitishda integratsion yondashuvdan foydalana bilish; boshlang'ich ta'limda fanlarni o'qitish metodikasini rivojlanishi, tarixi, pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari, o'qitish vositalarini amaliyotga samarali qo'llay olishi, ta'limni DTS me'yorlari, o'quv dasturlariga ko'ra tashkil etishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi.¹ belgilangan.

Fanga oid kompetensiyalar doirasida fan dasturida ko'zda tutilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni o'rgatish, ularni eslab qolish va qayta tushuntirib berish orqali shakllantirilgan bilimlar asosida ularni tanish vaziyatlarda qo'llashga oid ko'nikmalar, egallangan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash va yangi bilimlar hosil qilishga oid malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llash qobiliyatiga oid kompetensiyalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Har qanday o'qituvchi qaysi fan yo'nalishida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishidan qat'iy nazar pedagog sifatida quyidagi davlat talablariga mos kelishi kerak.

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va ta'lim va tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilishi va o'rganishi; ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga oid Markaziy Osiyo allomalarining pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya sohasida buyuk ma'naviy meroslarini bilishi va o'z pedagogik faoliyatida ulardan foydalana olish; didaktikani, ta'lim-tarbiya berishning asosiy qonuniyatlari tamoyillarini bilishi va amalda qo'llay olishi; pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari, uning metodologiyasini bilish va ilmiy ijodiy faoliyat davomida qo'llay olish; darslarni zamonaviy pedagogik usullar va AKT vositalari asosida tashkil qilish; o'quvchilar bilimini baholashning zamonaviy usullarini bilish va amaliyotda qo'llay olish; tarbiyaviy ishlarning usul va shakllarini bilishi va ulardan samarali foydalana olishi; davlat ta'lim standartlari va davlat talablarini ta'lim mazmunini belgilashdagi o'rni va ro'lini bilishi; O'zbekistonda pedagogika fanining muammolari, izlanishlar, bu sohadagi yangiliklar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

¹ 60110500 - Бошланғич таълим бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. Т.: 2022 й.

Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirishdan maqsad ta'lim jarayonida samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Kadrlar salohiyati-taraqqiyot omili deb bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, yuksak malakali mutaxassislar jamiyatning rivojlanishini, uning gullab yashnashi, O'zbekistonni kelajakda buyuk davlat sifatida dunyoga tanilishini eng asosiy negizi hisoblanadi.

Zamon talablari asosida har tomonlama mukammal mutaxassis tayyorlash tizimida ta'lim sifati, ta'lim mazmuni ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz murabbiylarning kasbiy tayyorgarligi, bilimi, salohiyatiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning bosh g'oyasi barkamol avlod komil inson shaxsini tarbiyalash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yish bilan birga, ta'lim-tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda belgilangan yuqoridagi talablarga mos ravishda uzluksiz o'z ustida ishlashi, o'zining kasb mahoratini oshirishi, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Bu esa o'qituvchidan yuqori kasbiy pedagogik potentsialni talab etadi.

Yangi tahrirdagi umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartining maqsadi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta'limni tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Shu bilan birga o'quvchi shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi, davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi, ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi, ta'lim mazmunining uzviyligi, mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanilganligi, o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish asosiy prinsiplari etib belgilandi. [1]

Bugun o'qituvchi o'quvchi shaxsini etuk barkamol inson etib tarbiyalashda, quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishi zarur.

Kommunikativ kompetensiya – o'quvchining o'zaro muloqotga kirisha olishni, muomala madaniyatiga amal qilishni, moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni belgilaydi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topish, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularni turli zararli axbarotlardan himoya qilish, media madaniyatga shakllantirishdan iborat

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi-doimiy ravishda o'zini-o'zi jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallay olishi kerak.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi-jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya-vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantiriladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi-aniq asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olishni kompetensiyalarga ega bo'lish zarur. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, bugungi faoliyat olib borayotgan har bir o'qituvchi o'zida kompetensiyalar to'liq shakllangan, malakali, yuksak pedagogik kasbiy salohiyatga ega bolishi zarur. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxtga erishish haqida»kabi asarlarida, inson o'zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun. birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.[5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bunday islohotlar pirovardida kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini hayotga qo'llay olish, shuningdek, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratadi.

Innovation yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirish, uning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish salohiyatini nazarda tutadi. Bunday vaziyatlarda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirib borishligini, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish, bilim darajasi bilan aniqlanadi. Kasbiy rivojlanishi tarbiyalanganlik salohiyatliligi uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

➤ maxsus tarbiyalanganlik salohiyatliligi - kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

➤ ijtimoiy tarbiyalanganlik salohiyatliligi - birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy natijalari uchun ijtimoiy mas'ullikni his qila olishidir.

O'qitish shakllarining asosiy vazifasi o'qituvchilarning ehtiyojlariga nisbatan kasblarning pog'onalari doirasida ajratilgan aniq ta'lim maqsadlarini amalga oshirishdir. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining butun hayot davomida ta'lim tushunchasi haqidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish, tinglovchilarning bilim, ko'nikma,

malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablarni takomillashtirishga qaratilgan rivojlantirishdir.

O'qituvchining maqomi va obro'sini ko'tarishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda, ularning o'z kasbiy faoliyati bilan to'liq shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasining 52-moddasida o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash, kasbiy jihatdan o'sish borasida qator huquqiy asoslar keltirib o'tilgan. Bu esa o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, uning kasbiy faoliyatini davlat tomonidan himoya qilinishining huquqiy asosini yaratib berdi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potentsialini rivojlantirishdagi irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, kasbiy kompetentligi, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish salohiyatining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantirib boradi.

XULOSA. Yuqoridagi yaratilayotgan sharoitlar, o'qituvchilarning kasbiy potentsiallarini rivojlantirish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunda pedagoglardan ham o'z ustida muntazam ishlashi, jarayonga mas'uliyat bilan yondashishi, kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni jon dili bilan o'rganib borishlari talab etiladi. O'qituvchining yuqori kasbiy potentsiallari shunday malakalar yig'indisiki, uning natijasi o'qituvchining mehnati va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk komil inson bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uning mashqulotlarga ilmiy-metodik jihatdan puxta tashkil etish, rejalashtirish, amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilagandagina amalga oshadi.

Aytishimiz mumkinki, har bir dars jarayonini yangiliklar bilan boyitib borishi, o'qitishning turli xil usullaridan foydalanishi, shaxsiy sifatlarini shakllanishida katta ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potentsiallari rivojlantirishda kuchli stimullarni o'z ichiga olishi, yuqori hissiy holati va o'z ishiga innovatsion yondashishga tayyorligini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son Farmoni.

2. Бошланғич таълим бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. Т.: 2022 й.

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Т.: 1993. 164-bet.

4. Raxmonova M.X. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar// Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Farg'ona – 2022.7.

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ: СЕМАНТИКА, ПРАГМАТИКА, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ГНЕЗДА

Ёкубов Дониёр Маруфжон угли
методист русского языка отдела методических услуг
Национального центра обучения педагогов новым методикам
Сырдарьинской области

Аннотация. Статья посвящена сопоставительному описанию лексико-семантического словообразования в разносистемных языках. В работе предпринята попытка выявить сходные и отличительные черты лексико-семантического способа словообразования в сопоставляемых языках.

Ключевые слова: словообразование, русский язык, семантика, прагматика, лексика, словообразовательные гнезда.

Annotatsiya. Maqola turli tizimlarga tegishli tillarda leksik-semantik soʻz yasalishining qiyosiy tavsifiga bagʻishlangan. Maqola solishtirilayotgan turli tizimlarga tegishli tillardagi soʻz yasalishining leksik-semantik usulining oʻxshash va oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi.

Kalit soʻzlar: soʻz yasalishi, rus tili, semantika, pragmatika, lugʻat, soʻz yasash uyalari.

Abstract. The article is devoted to a comparative description of lexical-semantic word formation in multi-system languages. The paper is an attempt to identify similar and distinctive features of the lexical-semantic method of word formation in the target multi-system languages.

Key words: word formation, Russian language, semantics, pragmatics, vocabulary, word-formation nests.

Проблема комплексных единиц словообразования как универсальных деривационных подсистем разносистемных естественных языков еще не получила своего фундаментального описания, и в лингвистической литературе отсутствуют исследования, посвященные всестороннему межъязыковому анализу данных образований [1, 923-924]. Мы рассмотрели комплексные единицы словообразования русского языка в сравнении с английским и немецким языками как особые формы систематизации производной лексики. Так как эти языки – разносистемные, то в первую очередь, мы сфокусировались на изучении наиболее очевидных различиях в их словообразовательной семантике: словообразовательное гнездо и его составляющие – словообразовательные пары, цепи и парадигмы.

В качестве одного из инструментов сопоставительного анализа используется когнитивный подход, позволяющий понять, «почему окружающая человека действительность осмыслена именно так, а не иначе» [2, 14].925

Специфика структурно-семантической и номинативной конфигурации соотносительных слов разносистемных языков обусловлена следующими факторами:

1) разным количественным составом исследуемых словообразовательных гнезд, находящимся в определенной зависимости от степени интенсивности деривационных процессов;

2) специфическим набором производных, проистекающим из различий в обозначаемых ими понятиях. Номинативные единицы коррелирующих словообразовательных гнезд обнаруживают разную денотативную соотнесенность с внеязыковыми реалиями. При тождестве понятийного содержания средства его выражения в сопоставляемых языках также могут быть различными: одни и те же означаемые в одном языке могут быть словообразовательно маркированы, в другом выражаться на лексическом или синтаксическом уровнях;

3) наличием в разносистемных языках специфических словообразовательных значений, характерных для той или иной части речи, а также производных с идиоэтническим компонентом семантики, что свидетельствует о неоднородном характере семантических приращений в процессе развития коррелятивных корневых морфем;

4) существованием в словообразовательных гнездах разносистемных языков специфических семантических зон и смысловых подгнезд, их внутриязыковым развитием и степенью номинативной дифференциации обозначаемой смысловой области;

5) разной репрезентацией одних и тех же системных явлений: спецификой способов словообразования, производящих основ, инвентаря словообразовательных средств, т.е. всего того, что определяет деривационную структуру входящих в гнездо производных слов, а также соотношением главных составляющих словообразовательного гнезда – словообразовательных цепей и парадигм.

Когнитивная интерпретация словообразовательных гнезд разных тематических групп позволяет выявить те или иные концептуальные сферы, определяющие этнокультурную специфику разносистемных языков и языкового сознания их носителей. Внутренняя форма производного слова в составе словообразовательного гнезда может выступать как средство познания ментального содержания и картины мира, представленной в конкретном языке с ее универсальными и культурно-специфическими характеристиками [3, 118].

Итак, в рамках разносистемных языков можно установить когнитивные модели интерпретации явлений действительности, т.е. те понятийные области, которые в большей степени подвержены словообразовательной детерминации, а следовательно, являются более значимыми для носителей языка.

Список литературы:

1. Ширшов И. А. Словообразование в русском языке: комплексное описание русской лексики и словообразования. – Москва: Русские словари, 2004. – 1002 с.

2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

3. Сулейбанова М. У. Морфематические связи и продуктивность словообразовательных и формообразующих аффиксов в разносистемных языках // Гуманитарные и социальные науки. – 2019. №3. – С. 118-124.

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUAMMOLI TA'LIM BERISHDA O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Avalova Gulzoda Almosovna,

Pastdarg'om 28-IDUM Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash nomli ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va biologiya darslarida ushbu texnologiyadan foydalanishning qanchalik muhim ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, evristik ta'lim, ijodiy fikrlash, kreativ fikrlash.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются применение технологии проблемного обучения на уроках биологии, особенности, значение технологии проблемного обучения, значение использования этой технологии в развитии навыков логического мышления учащихся и использование данной технологии. технологии на уроках биологии.*

Ключевые слова: *Педагогическая технология, проблемное образование, проблемная ситуация, эвристическое обучение, творческое мышление, творческое мышление.*

Abstract: *In this article, the application of problem-based learning technology in biology classes, the specific features, importance of problem-based learning technology, the importance of using this technology in the development of students' logical thinking skills and the use of this technology in biology classes are highlighted.*

Key words: *Pedagogical technology, problematic education, problematic situation, heuristic education, creative thinking, creative thinking.*

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim-tarbiya berish va natijalarni baholash samaradorligini oshirish, o'qitish

usullarini takomillashtirish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

O'quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

“Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion usullarini joriy etish” kabi vazifalar belgilab beriladi.

Muammoli ta'lim deb, o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasini orttirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintenzlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarini chuqurlashiradi, kengaytiradi.

Bilimlarni bunday o'zlashtirish usulini hech bir darslik va ustoz o'rgata olmaydi, faqat o'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar yechimini topadi.

O'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

Masalan, “Nima uchun o'rmonda quyovlar, bug'ular tomonidan po'stlog'i yeb qo'yilgan yosh daraxt va butalar tezda nobud bo'ladi?” degan savolga javob topishi uchun o'quvchilar poyaning bajaradigan funksiyalarini eslashi, floema va ksilema o'rtasidagi farqni belgilashi, poyaning tuzilishi va funksiyasini chog'ishtirishi, to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa yasab, fikrini dalillashi lozim. Savolning bu tarzda muammoli qo'yilishi o'quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini egallashga imkon beradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- muayyan mavzuga oid o'quv materialini muammolashtirish;
- muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

- ta’lim jarayonini o‘yin, mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish;
- o‘qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o‘quvchilarga bayon etish

Muammoli dars usuli. IMYEN (ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi). Savollar: “Fikrni yoki xulosani davom ettir!”, “Sen nima deb o‘ylaysan?”. O‘quvchilar orasida muammoli vaziyatni yaratish hamda shu holatdan chiqib ketish usullarini izlash. O‘quvchilarni mantiqiy, ijodiy fikrlashga chorlash. Ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi - IMYEN hozirgi paytda juda ko‘p qo‘llanadigan bozor iqtisodi davrining yetakchi usullaridan biri.

“Evristik ta’lim” metodi. Bu metodda o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yiladi va ulardan muammoning yechimini elektron kutubxona, laboratoriya va ustaxona, turli xil kitoblar, manbalar orqali topishlari so‘raladi. O‘qituvchining roli o‘quv jarayonini boshqarishdir va o‘quvchilar butun jarayon davomida mustaqil bajarishadi. Ijodiy fikrlash va xayoliy kuchdan foydalanib, ular qandaydir mantiqqa asoslangan tegishli yechimlarni topishga harakat qilishadi. Ular o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashadilar. Ushbu o‘quv strategiyasida quyidagilar belgilangan:

- muammoni yechishga munosabatni rivojlantirish
- muammoga ilmiy munosabatni rivojlantirish
- o‘z-o‘zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish
- Uning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
- bir vaqtning o‘zida har biriga imkon qadar vaqt ajratish
- o‘quvchini iloji boricha o‘zini o‘zi o‘rganishga undash
- muammoning eng mos yechimini tanlash bo‘yicha ko‘rsatma berish
- muammo dars va o‘quv rejasi bilan bog‘liq bo‘lishi
- ilmiy tadqiqot ishlarini yakunlash uchun ma’lum vaqt ajratish
- muammolarni ajratishda o‘quvchilarning qobiliyatlari, qiziqish va mavzuni tanlashni hisobga olish kerak.

Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchi uni yechishga yo‘naltiriladi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvi talab etadi. Muammoli o‘qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o‘quv masalalarini turli usul bilan yechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, o‘ringan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa nafaqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaniyozova M. Malaka oshirish jarayonida oqituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. p.f.n. dis. T. 2007y. 186 b.
2. Yoldashev J. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbqiq etishning asoslari.

Pedagogicheskie innovatsii i texnologiya. Materiali konferentsii. Belgorod.

3. Ozbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y. 99b.

4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: Ozbekiston, 2010 y. 56 b.

5. «Umumiy orta talimning davlat talim standarti va oquv dasturi», «Sharkq» nashriyoti matbaa kontserni.

6. A.T. Gofurov, Tolipova J. umumiy biologiyani oqitishning norasmiy usul va shakllari, Toshkent 1990 y. 45 b.

7. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2005 y. 205 b.

8. ru.m.wikipedia.org

<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Гулявник>

9. <https://Agronom.com>;

10. <https://library.ziyonet.uz>;

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ СОЗДАНИЕМ КОМФОРТНОЙ СРЕДЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Байбаева Мухайё Худайбергеновна,

*Доктор педагогических наук, профессор кафедры “Педагогика”
Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

Васпидинова Нозима Алишеровна,

Студентка 4 курса 401 группы факультета “Педагогика и психология”

Ташкентского государственного педагогического университета

имени Низами

Аннотация: В данной статье рассматривается создание комфортной среды в образовательных учреждениях. При создании комфортной среды в учебном заведении в статье рассматривается анализ психологической, педагогической, философской и исторической литературы, педагогической практики свидетельствует о все возрастающем интересе к проблеме, связанной с формированием, развитием и становлением благоприятного микроклимата.

Ключевые слова: среда, условия, деятельность, учебно-воспитательный процесс, конкурентоспособность, развития

При переходе к цивилизованному рынку и демократичному обществу перспективной для развития образования является концепция гуманизации среды через создание комфортной среды, под которой мы понимаем совокупность условий, которые способствуют экологическим взаимоотношениям участников образовательного процесса, улучшению физического и психического здоровья, создают интеллектуально-эмоциональный фон, положительно воздействуют на актуализацию творческого потенциала, сопутствуют вдохновению, созидательной и

профессиональной деятельности и духовным достижениям человека, снижают неблагоприятное воздействие на организм вредных факторов, сопровождающих жизнедеятельность.

Существенными характеристиками этого определения являются гибкость, разнообразие, доступность во времени и пространстве, которые обеспечивают человеку понимание самого себя и окружающей среды, содействуют выполнению его социальной роли [1, стр 12]. Главной ценностью образования становится развитие в человеке потребности и возможности выйти за пределы изучаемого, способности к самореализации творческого потенциала, направленности на саморазвитие и самообразование. Такое представление диаметрально меняет подход к образованию, особенно в его прогностической интерпретации: главное не система жестко детерминированных образовательных учреждений по существу, навязываемая человеку и ограничивающая свободу выбора, а человек, сознательно выбирающий индивидуальную образовательную траекторию в соответствии со своими интересами и способностями, определяющими его образовательные потребности.

Одним из существенных феноменов образовательного процесса является создание комфортной среды в учебном заведении. Анализ психологической, педагогической, философской и исторической литературы, педагогической практики свидетельствует о все возрастающем интересе к проблеме, связанной с формированием, развитием и становлением благоприятного микроклимата.² Значение мотивации участников образовательного процесса для создания благоприятного микроклимата исследовали Э. А. Уткин, Е. П. Ильин Л. Ю. Гордин, В. А. Караковский, И. Н. Ларченко. Роль партнерской деятельности и межличностных отношений в создании комфортного состояния рассматривали Н. В. Горбунова, С. В. Дрокина, И. Ю. Забродин, М. И. Старов. Формирование творческой атмосферы и психологического микроклимата в коллективе изучали Н. А. Жокина, В. И. Зверева, М. С. Каган, М. М. Поташник, М. П. Щетинин, Е. А. Ямбург. Влияние среды на актуализацию творческого потенциала личности в условиях ее комфортности рассматривали через создание педагогической среды А. М. Анохин, Ю. С. Бродский, В. В. Рубцов, Н. А. Сизинцева, В. И. Слободчикова. Сущность организационных форм педагогического управления, направленных на создание благоприятных условий в образовательном учреждении для реализации потребностей личности, рассматривали Е. С. Березняк, К. Я. Вазина, Ю. В. Васильев, Г. Г. Габдуллин, М. И. Кондаков, В. П. Портнов, В. П. Симонов, Т. И. Шамова и другие.

Изучение научных исследований в области педагогики, психологии, философии, социологии, культурологии позволяет сделать вывод о том, что окружающая среда признается одним из факторов формирования личности. В теории рассматриваются, а на практике реализуются отдельные и разрозненные компоненты проблемы создания здорового морального климата и управления

² Аникеева Н. П. Психологический климат в коллективе. М. - 1989.- С.23.

этим процессом [3, стр 14]. Становление теории комфортной среды пока не стало предметом специального изучения отечественных исследователей, особенно в вопросах управления ее созданием. Поиски путей соединения управления учебным заведением и созданием благоприятного микроклимата показали, что эмпирические исследования в данной области имели разрозненный характер. Тем не менее, вопросы, так или иначе связанные с этой проблемой, затрагиваются в ряде педагогических работ, авторы которых рассматривают отдельные ее компоненты.³

Нами выделены в качестве возможных составляющих для конструирования комфортной среды и управления этим процессом следующие: педагогический комфорт, психологический микроклимат в коллективе, мотивация, психология взаимоотношений, коммуникации, менеджмент, управление социально-педагогической образовательной средой, сотрудничество, эмпатия, свободное гуманистическое воспитание.

Актуальность темы определяется противоречиями между: - повышенными требованиями, которые предъявляет современное общество к выпускнику школы и негативным психологическим климатом в учебном заведении, не позволяющим актуализировать его творческий потенциал;

- гуманными общечеловеческими ценностями, идеалами и установками, характеризующими школу как специально организованную воспитывающую среду, и реальным распространением антигуманных ценностей, идеалов, мотивов и установок, доминирующих в значительной части современной внешкольной среды жизнедеятельности учащихся;

- потребностью и объективной необходимостью эффективного управления созданием комфортной среды и недостаточной разработанностью соответствующих теорий и технологий;

- необходимостью интеграции деятельности всех участников образовательного процесса и фактическим отсутствием механизмов ее реализации.⁵

В связи с этим исследование становления, развития и решения проблемы, определение способов изучения окружающей ребенка среды даст возможность в значительной мере преодолеть существующий разрыв между декларированием среды как важного фактора формирования личности и фактическим игнорированием тех реалий, в которых формируется личность [2, стр 24]. Анализ актуальности и противоречий позволяет сформулировать проблему исследования, заключающуюся в поиске, определении и обосновании управления созданием комфортной среды, способствующей преобразованию реально существующей среды жизнедеятельности ребенка в среду благоприятную.⁴

2 Анохин А. М. Педагогическая среда как условие формирования творческой личности студента пед. вуза. Уфа. - 1997. - С. 20.

⁴ Бабурова И. В. Профессиональная подготовка учителя к формированию благоприятного социально-психологического климата. Смоленск. -1999. - 15 с.

В период преобразований, происходящих в нашем обществе, нам представляется важным осмысление исторического опыта, определение научных процессуальных подходов к разработке инструментария для проведения исследований в области управления созданием комфортной среды в учебном заведении. Анализ состояния проблемы и тенденции ее развития обосновали необходимость не только изучения условий для создания комфортной среды и управления ею, но и процессуальной ее разработки.⁵

Концепция исследования педагогического управления созданием комфортной среды представляет собой научную характеристику единства конкретных идей педагогического наследия, современной педагогики и смежных наук, обеспечивающих направленность всех процессов, организуемых учебным заведением, на повышение эффективности его деятельности, актуализацию творческого потенциала всех участников. Наша концепция создания комфортной среды как основы результативного педагогического управления базируется на основополагающих идеях: природа комфортной среды интегративная, социальная, гуманистическая; стремление создания комфортной среды для всех участников образовательного процесса является основным стержнем в содержании управленческой деятельности [4, стр 17].

3. Комфортная среда образовательного учреждения - совокупность условий, которые способствуют экологическим взаимоотношениям участников образовательного процесса, улучшению физического и психического здоровья, создают интеллектуально-эмоциональный фон, воздействуют на актуализацию творческого потенциала, сопутствуют вдохновению, созидательной и профессиональной деятельности и духовным достижениям человека, снижают неблагоприятное воздействие на организм вредных факторов, сопровождающих жизнедеятельность.

4. Технология педагогического управления созданием комфортной среды включает наряду с традиционными и новые организационные формы управления.

5. Структурная модель комфортной среды является адаптивной и способна трансформироваться при вероятности отклонений от ожидаемых результатов.

6. Наиболее репрезентативным показателем сформированности комфортной среды образовательного учреждения является способность коллектива к самоорганизации и самореализации.

Обобщенные количественные результаты экспертизы педагогической комфортной среды: широта, интенсивность, осознаваемость, обобщенность, эмоциональность, доминантность, социальная активность, согласованность, мобильность образовательной среды показали стабильность и устойчивость среды, сформированность интеллектуально-эмоционального фона и благоприятного социально-психологического поля коллектива [5, стр. 33].

Комфортность социальной среды проявляется при условии не только выделения в ней четырех блоков: экономического, психологического,

⁵ Бухвалова В. А. Алгоритмы педагогического творчества. М.: Просвещение. - 1993. – С. 96.

⁵ Кузьмин И. Д. Психотехнологии и эффективный менеджмент. М., Технологическая школа бизнеса. 1994. – С. 19.

профессионального и бытового, но и обеспечения материально-бытовой защищенности, адекватного вознаграждения, партнерского сотрудничества. Устойчивый режим самоуправляемого развития составляет основу в комфортной социальной среде, оказывая положительное воздействие на актуализацию потенциала личности, реализацию их потребностей.

Литература

1. Аникеева Н. П. Психологический климат в коллективе. М. - 1989. - С.238.
2. Анохин А. М. Педагогическая среда как условие формирования творческой личности студента пед. вуза. Уфа. - 1997. - С.202.
3. Бабурова И. В. Профессиональная подготовка учителя к формированию благоприятного социально-психологического климата. Смоленск. - 1999. – С.195.
4. Бухвалова В. А. Алгоритмы педагогического творчества. М.: Просвещение. - 1993. – С.96.
5. Кузьмин И. Д. Психотехнологии и эффективный менеджмент. М., Технологическая школа бизнеса. 1994. – С.192.

O‘QUVCHILARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIMiy O‘YINLARNING O‘RNI

Ergasheva Gulshoda Amirovna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi kafedراس katta
o‘qituvchisi gulshodaergasheva8@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlikni shakllantirishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni, ahamiyati, qo‘llash usullari bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan

Kalit so‘zlar: o‘yin, tarbiya, idroki, zehn, xotira, bilim, ishtiyoq, ehtiyoj.

Аннотация. В данной статье даны методические рекомендации о роли, значении и методах применения развивающих игр в формировании творческих способностей учащихся младших классов.

Ключевые слова: игра, обучение, восприятие, разум, память, познание, страсть, потребность.

Abstract. This article provides methodical recommendations on the role, importance, and application methods of educational games in the formation of creativity in elementary school students.

Key words: game, education, perception, mind, memory, knowledge, passion, need.

O‘yin-bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar, dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar

aqlini charxlaydi, soʻz boyligining oshishi, ogʻzaki nutqining rivojlanishiga, mukammal inson boʻlib kamol topishida gʻoyat katta tarbiyaviy taʼsir kuchiga ega.

Didaktik oʻyinlar jarayonida, oʻquvchilar oʻyin qoidalariga qatʼiy rioya qilishga oʻrganadilar, inoqlik his-tuygʻulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ayniqsa, oʻyin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ziyrakligi, diqqati, topqirligi ortib boradi.

Oʻquvchilarning istedodi, ijodiy qobiliyati namoyon boʻla boshlaydi.

Taʼlim jarayonida didaktik oʻyinlar oʻquvchilarning yosh xususiyatiga koʻra tashkil etilishi kerak.

Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, koʻrgazmalilikni taʼminlashga qaratilgan boʻlib, oʻquvchilarni toliqtirmaslik imkoniyatini yaratadi. Didaktik oʻyinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin.

Didaktik oʻyinlarni tashkil etishda qoʻgʻirchoqlar, oʻyinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin.

Har bir didaktik oʻyinni boshlashdan oldin oʻquvchilarga oʻyinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekani oʻqituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Oʻquvchilar uni tushunib, anglab, shu asosida harakat qiladilar.

Bolaning asosiy faoliyati oʻyin davrida ham mehnat, oʻqish faoliyatining maʼlum qismlari bilan shugʻullanadi, mehnat faoliyati asosiy hisoblangan katta yoshdagilar ham oʻqish faoliyati bilan oʻz yoʻnalishlari boʻyicha shugʻullanib boradilar. Shularni hisobga olgan holda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ham asosiy faoliyati oʻqish boʻlsada, lekin ularning yosh va individual psixologik xususiyatlari bolalarni oʻyindan toʻlaqonli ajratish imkonini bermaydi. Shu bois boshlangʻich sinflarda berilayotgan materialni oʻyin vositalaridan foydalangan holda berish oʻquvchilarni faoliyatini samarali boʻlishiga olib keladi.

Oʻquvchi taʼlimiy oʻyin asosida oʻzida erkinlikni his etadi, tushunmaganini oʻyin asosida tushunish vaziyati yuzaga keladi, darsga qiziqishi ortadi.

Didaktik oʻyinlar taʼlim jarayoni samaradorligini oshiradi, taʼlim jarayonida oʻquvchilar faolligini, oʻqish motivlarini rivojlantiradi. Didaktik oʻyinlar boshlangʻich sinflarda taʼlimning samarali boʻlishiga, oʻquvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, yaʼni didaktik oʻyinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, oʻquvchilarning bilim olishga

qiziqishlari ortadi. Tavsiya etilayotgan didaktik materiallar va oʻyinlardan har bir oʻqituvchi samarali va ijodiy foydalanishlari mumkin. Bu esa oʻqituvchilarning taʼlim sohasida erishadigan yutuq va muvaffaqiyatlari uchun omil boʻladi, degan umiddamiz.

KIM KOʻP SOʻZ TUZADI” OʻYINI.

Oʻquvchilarga biror harf (tovush)ga oid soʻzlar topish vazifasi yuklanadi .Bu harf (tovush) soʻz boshi, soʻz oʻrtasi va soʻz oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi.

Masalan, “a “ tovushiga oid soʻzlar toping.

Soʻz boshida: ayiq, asal,... .

Soʻz oʻrasida : sariq, maktab.....

Soʻz oxirida: bogʻcha, chana....kabi

“KIM KO‘P BILADI” O‘YINI.

O‘rganilayotgan harf yuzasida bir guruh meva, 2-guruh, hayvon, 3-guruh gul, 4-guruh narsa, 5-guruh savzavot nomlarini topishlari so‘raladi.

Masalan: “B” harfi

1-guruh: banan, behi,

2-guruh: begemot, baqa..

3-guruh: binafsha, boychechak..

4-guruh: belkurak, botinka..

5-guruh: baqlajon, bodring kabi

Bu o‘yinlar asosida bolalar tovush va harf haqidagi tushunchalari kengayib boradi.

“BERILGAN BO‘G‘INLARDAN GAP TUZING” O‘YINI.

Biror maqol, hikmatli so‘z yoki mavzuga oid gapni bo‘g‘inlar orqali hosil qilish vazifasi beriladi.

Masalan: Qat-ra-qat-ra yi-g‘i-lib dar-yo bo‘-lur. Maqoli bo‘g‘inlarda aralash holda beriladi, o‘quvchilar topshiriqni bajarishlari uchun bo‘g‘inlarni to‘g‘ri qo‘ya bilishlari lozim.

“SO‘Z ICHIDAN SO‘Z TOP” O‘YINI.

O‘quvchilarga bir so‘z beriladi, bu so‘z ichidan so‘zlar topish vazifasi yuklanadi, yani 1-2-sinflarga 2-3 bog‘inli so‘zlar. Masalan: “Mirzacho‘l” so‘zi ichidan so‘zlar hosil qilish:

Mirza , cho‘l , zira, zo‘r, zar , o‘ra , lim kabi...

O‘zbekiston: o‘z, o‘zbek, bek, is, zeb , zebo kabi...

“Guliston”, “Maktabshunoslik”, ”Tabiatshunoslik“ so‘zlarini ham shu asosda berish mumkin. Bu o‘yin aqliy hujum metodi asosida tashkil etilsa , maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“BERILGAN SO‘ZLARGA BO‘GIN, SO‘ZLAR QO‘SHISH ORQALI YANGI SO‘ZLAR HOSIL QILING” O‘YINI.

O‘quvchilarga so‘z beriladi bu so‘z so‘z boshida o‘rtasida oxirida kelishi mumkinligi ta’kidlanib, yangi so‘zlar hosil qilish so‘raladi. Masalan: “Oy” so‘zi Oygul, Oybek, Shirinoy, Oysanam kabi....

“Gul” so‘zi asosida Gulnora, Gulchehra, guldon, gulchi kabi...

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘yinlar asosida bolalarda mustaqil fikrlash o‘z fikrini o‘zgaralar bilan muhokama qilish va o‘z lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Adabiyotlar

1. R.Ishmuhamedov va boshqalar. Ta’imda innovasion texnologiyalar. T.: 2020
2. www Google.uz.
3. www Bilimdon. Uz

ASAR TAHLILI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MATNLARNI ANGLASH VA TUSHUNISHGA O'RGATISH

Shodiyeva Jamila Xolboyevna,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asar tahlili asosida o'quvchilarni matnlarni anglash va tushunishga o'rgatishda savol va topshiriqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, badiiy tasvir, anglash, tushunish, matn, mustaqil fikr, savol-topshiriq, tizimli yondashuv.

Аннотация: В данной статье на основе анализа работы отражены научно-теоретические аспекты использования вопросов и заданий в обучении студентов пониманию и пониманию текстов

Ключевые слова: творчество, художественный образ, понимание, текст, самостоятельное мышление, вопрошание, системный подход

Abstract. In this article, based on the analysis of the work, the scientific-theoretical aspects of using questions and assignments in teaching students to understand and understand texts are reflected.

Keywords: creativity, artistic image, understanding, understanding, text, independent thought, questioning, systematic approach

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyatning ustunligi har tomonlama samaralidir.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bola tarbiyasi, uning dunyo qarashi va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish, o'quvchilar nutqini o'stirish xalqaro standartlarda alohida me'yor sifatida ishlab chiqilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish muhim omildir. Bugungi kunda jahon amaliyotida o'quv materiallarini o'zlashtirish va talabga mos kelishi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tior qaratilmoqda. Bularning barchasi dars jarayoni va darslikka mos o'quv materiallarini tanlash orqali adabiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga umumjahon pedagogik, ta'limiy masalalarga qanchalik katta e'tibor berilishini ko'rsatadi.

Bugungi kun o'qish savodxoligida, badiiy tasvirida falsafiylik, ijodkorlik o'quvchining o'zligini anglash, o'z ko'ngil olamiga yaqinlashish jarayonidagi murakkabligi, ruhiy qalqishlari ila tasvirlashda bahs, o'y, xayol, ichki monolog

shakllari keng o‘rin egallayotgan va bu masalalarda jiddiy izlanishlar olib borilayotgan hozirgi boshlag‘ich ta‘limda matnlarni anglash va tushunishga o‘rgatishning roli ayniqsa, ortib bormoqda.

Boshlang‘ich ta‘limda “O‘qish savodxonligi” atamasi o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o‘qish”ni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o‘z fikrini bayon eta olishi zarur.

Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashlari uchun badiiy asar tahlili jarayonida butun asar mohiyatini birdaniga emas, balki asarning har bir qismi, agar u hajman katta bo‘lmasa, ma’nosini ochib berishga harakat qilinadi. Badiiy asar tahlili mantiqan tugal qismlari bo‘yicha olib borilishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqining o‘shish darajasi to‘g‘ri uyishtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirilgan, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuniga moslashtirib, hayot bilan bog‘liq holda beradigan savol va topshiriqlar matnning detallari haqida ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar.

Badiiy asar ustida ishlashning asosiy bosqichi matn tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozistiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g‘oyasini aniqlash hisoblanadi.

Ma‘lum bir badiiy asarni o‘qish va uning tahliliga atroflicha yondashish orqali ba‘zan o‘qituvchi va o‘rganuvchilar turli xil tafovutlarga duch kelishi mumkin. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo‘naltirishi lozim.

Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim saviyasi, topshiriqni bajarishi bir xil saviyada bo‘lmaydi. Ayrim o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni tez va ongli ravishda bajarsalar, ayrim o‘quvchilar, asosan, dangasa va bo‘sh o‘zlashtiruvchilar topshiriqni bajarishga qiynaladilar, unga tushunmaydilar. Shunday boisada, butun sinfga differentsial yondoshmay turib, hamma o‘quvchilarning materiallarni o‘zlashtirishlariga erishishi qiyin bo‘ladi. O‘quvchilarning bilim saviyasi, shaxsiy qobiliyati hamda mantiqiy savol va topshiriqlar ko‘nikmasini hisobga olgan holda topshiriladigan shaxsiy - yakka tartibdagi mantiqiy savol va topshiriq differentsial topshiriq hisoblanadi.

Mustaqil topshiriqni differentsiallashtirilgan holda bajarish quyidagi natijalarga olib keladi:

a) shaxsiy - yakka tartibdagi topshiriq o'quvchilarning bajarayotgan ishiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi;

b) mantiqiy savol va topshiriqni har bir o'quvchining qobiliyatini hisobga olgan holda topshirish dars jarayonini faollashtiradi;

v) yakka tartibda uyushtirilgan mantiqiy savol va topshiriq vaqtni tejashga va barcha o'quvchilarning qariyb bir vaqtda topshiriqni bajarishiga imkon yaratadi;

g) topshiriqni individuallashtirish - yakka tartibda bajartirish ish sifatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi;

d) yakka tartibdagi topshiriq o'zlashtirishi bo'sh bo'lgan o'quvchilarning bilim saviyasini yaxshilashga yordam beradi;

e) mantiqiy savol va topshiriqni yakka tartibda bajarish o'quvchilarning irodasini tarbiyalashga, boshlangan ishni nihoyasiga etkazishga, faol, ongli faoliyat ko'rsatishga o'rgatadi va hokazo.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolalar nasriy asarlarda aks ettirilgan voqea hodisalarga, unda ishtirok etayotgan qahramonlar orasida to'qnashuvlarning sabab va odatlari haqida fikrlab, mustaqil xulosalar chiqishlariga alohida ahamiyat berish, nasriy asarlarni so'zlab berishayotganlarida nutqlarida badiiy tasvir vositalaridan ijodiy foydalanishga ularda ishtirok etayotgan personaj ruhiy kechinmalarini tushunib ravon bayon etishlariga o'rgatish lozim.

Boshlang'ich sinflarda turli ko'rinishdagi matnlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish lozim. Bu usullar o'quvchilarni matn mazmunini anglash va tushunishlari uchun xizmat qilsin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida matn ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016.

3. www.edu.uz

MAKTABLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Ravshanova Muxayyo Tolibovna,

Toshkent xalqaro kimyo universiteti Samarqand fililali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, bugungi kunda atrof-tabiiy muhitning holatini hamda ekologik muammolarning naqadar keskinligini inobatga olgan holda ularga tabiatni muhofaza qilish, uning boylıklaridan tejamkorona foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, tabiat bilan bog‘liq har qanday ishni amalga oshirishdan oldin tabiiy muhitga zarar yetkazmaydigan usullarni tanlash lozimligini o‘rgatish haqida.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, ekologiya zamonaviy bilim, tabiiy muhit, ekologik madaniyat.

Abstract: In this article, the formation of ecological culture among young people, taking into account the current state of the environment and the severity of environmental problems, teaching them how to protect nature, how to use its resources economically, before doing any work related to nature about teaching the need to choose methods that do not harm the environment.

Key words: science, ecology, modern knowledge, natural environment, ecological culture.

Аннотация: В данной статье осуществляется формирование экологической культуры у молодежи с учетом современного состояния окружающей среды и остроты экологических проблем, обучение ее тому, как беречь природу, экономно использовать ее ресурсы, прежде чем выполнять какую-либо работу, связанную с природой. об обучении необходимости выбрать методы, не наносящие вреда окружающей среде.

Ключевые слова: наука, экология, современные знания, природная среда, экологическая культура.

Yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi har bir davrda ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib kelgan. Shu sababli ham yoshlarning ta‘lim olishiga doimo katta e‘tibor qaratib kelingan va kelinmoqda. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini yanada oshirish, maktabgacha ta‘lim tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich sinf hamda yuqori sinf o‘quvchilari va oliy ta‘limda bilim olayotgan talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta‘lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, erkin ijodiy fikrlashni, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko‘rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa malum bo‘ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi inson ongidagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularda ekologiyaga oid bilim va tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ona tabiatga istiqbolni ko‘zlab munosabatda bo‘lish, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi. Tabiatga nisbatan inson qanchalik beraxmlik bilan munosabatda bo‘lsa, tabiat ham insonga hisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakillansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etdi. Shu bois o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali shakl va metodlarni ishlab chiqish,

umumta'lim maktabi o'quvchilarining – kelajakda xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatadigan mutaxasislarning ekologik madaniyatni shakillantirish g'oyat dolzarb muammodir. Shu o'rinda ekologik madaniy merosni bilish va ijodiy o'zgarishni munosabatning maxsus shakli sifatida farq qilish metodologik jihatdan zarur. Bir tomondan, tabiiy merosni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlar doirasida baholash ekologik qadriyatlardan tashqarida mustaqil bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, bu manfaatlar ekologik moddiy va ma'naviy merosni rivojlantirish ehtiyoji bilan bog'liq va uning mavjudligini ta'minlovchi motivi sifatida namoyon bo'ladi. Umumlashtirib aytganda, tabiat va jamiyat munosabatlarini bilish insoniyat nazariy faoliyatining fundamental muammosidir. Bu muammolar jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda kun tartibiga qo'yilgan, ularni hal qilish insoniyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, manfaatleri doirasida bajarilgan. O'z navbatida bu ehtiyoj va manfaatlar tabiat va jamiyat munosabatlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlarini belgilaydi. Insonning ekologik faoliyatini boshqarish jarayonida ijtimoiy ong shakllarining tizimli-tuzilmaviy mushtaraklashuviga qaramasdan, har biri o'ziga xos, nisbatan mustaqil ekologik funktsiyani bajaradi. Shu jumladan, din-ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida, «tabiat- jamiyat-inson» munosabatlarini muvofiqlashtirishning vositasi bo'lib kelgan, ya'ni «insonning tabiatni o'zlashtirishi butun insoniyat tarixiga oid bo'lib, uning ekologik salbiy oqibatlarini hamma vaqt eslatib turgan. Hatto, o'zining sodda moddiy bazasiga qaramasdan, ibtidoiy jamoa davri ham bundan mustasno emas». Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, bugungi kunda atrof-tabiiy muhitning holatini hamda ekologik muammolarning naqadar keskinligini inobatga olsak, ushbu sohada ham ta'lim-tarbiyani rivojlantirish mavjud muammolar echimini topishda zarurligini anglashimiz mumkin. Ekologik tarbiya bolalikdanoq singdirib borilishi kerak. Yosh avlodning sog'lom o'sib ulg'ayishi va o'zidan keyingi avlodga tabiat go'zalliklarini avaylab-asrab etkazishi uchun ularga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan tejamkorona foydalanish yo'llarini o'rgatish, tabiat bilan bog'liq har qanday ishni amalga oshirishdan oldin tabiiy muhitga zarar yetkazmaydigan usullarni tanlash lozimligini o'rgatishimiz zarur. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda tabiatga hurmat bilan qarash, unga nisbatan estetik hissiyotni uyg'otish tajribalari, bolalarning yoshi, bilim qo'lamini inobatga olgan holda, ularning tafakkuriga etib boradigan darajada tabiat to'g'risida, o'simliklar olami haqida, hayvonot dunyosi borasida qiziqarli va maroqli suhbatlar o'tkazish, nihollar, sabzavot, gul namunalarini qanday o'tkazish, parvarishlash, borasida televideniya alohida maxsus ko'rsatuvlar uyushtirilishi ham ijobiy natijalar beradi. Katta yoshdagi kishilarning hatti-harakatlari ham yoshlar uchun o'rnak, saboq bo'lishi tabiiy.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: Saodat RIA, 1997
2. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: Yangi asr avlodi, 2005
3. To'xtaev A., Xamidov A. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: O'qituvchi, 1995

4. Abdullaev Z. Maktab o'quvchilarining ekologik munosabati va ekologik ongi // Narodnoe obrazovnaie. - 2011 - 2-son. - S. 186-190.

5. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> Vol. 2 No. 20 (2023): PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS

XORIJIY TALABALARGA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA METODIK KONSEPSIYALAR

Dilnoza Uktamovna Mamanova,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan kafedrası o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy talabalar uchun o'zbek tilini o'rgatishning muhimlik darajasi va dolzarbligi atroflicha isbotlab berilgan. Shuningdek tilini o'rgatishda boshqa tillar bilan o'zaro ma'lum bir o'xshash jihatlari qiyoslangan. Tibbiyot universitetida talabalar uchun bu tilning ahamiyati izohlanib, dars jarayonida samarali usul va metodlarni qo'llab yuqori natijalarga erishish mumkinligi tahlil qilingan,

Kalit so'zlar. o'zbek tili, madaniyat, til mavqei, metod, samaradorlik, chet tillari, tillararo o'xshashlik, til bilish darajasi.

O'zbekiston suveren-demokratik mamlakatlar qatorida ekan, uning o'z davlat ramzlari o'z mentaliteti, o'z ona tili, o'z madaniyati va qadriyatlari mavjud. Buni boshqalarga yoyishning eng samarali yo'li birinchidan, o'z tili, ikkinchidan kishining xulq-atvori orqali amalga oshiriladi. Qay holatda bo'lmasin, kishilar o'z so'zlari va gaplari bilan notanish odamga kimligini tanita oladi. Ya'ni kimdir o'zga tillardan qaysi birini bilib shu orqali boshqalar bilan muloqot qilar ekan u jarayonda yurti va uning insonlari, turmush tarzi va madaniy-ma'naviy holat hamda vaziyat haqida xohlasa-xohlamasa aytib qo'yadi. Shunday ekan biz o'zbek tilini boshqalarga o'rgatish orqali ham tilimizni ham madaniyatimizni tarqatishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun yurtimizda yaxshigina imkoniyatlar bor. Xususan, hozirgi kunda turli chet el fuqarolarining O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari uchun keng imkoniyatlar ochilgan. Hamda ular ham katta qiziqish va ishtiyoq bilan tahsil uchun kelmoqda. Shulardan eng talab kuchli bo'lgan tarmoq meditsina ya'ni tibbiyotdir. Tibbiyot universitetlari talabalariga o'zbek tilini o'qitish va shu orqali o'z madaniyatini tarqatish shuningdek, tilning mavqeini oshirish uchun juda muhim imkonidir. Bundan tashqari ular uchun bu tilni o'rganishning muhimlik va keraklilik darajasi quyidagicha:

Birinchidan, ular yurtimizda olti yil davomida ta'lim olishadi. Bu davrda faqatgina mahalliy aholining kam sonli so'z yoki so'z birikmasi yoki gaplarigagina tushuna oladi. (qo'shimcha ta'limsiz)

Ikkinchidan, agarda qaysidir talaba qiziqishi kuchli bo'lsa, o'zi mustaqil yoki qo'shimcha kurs olib o'qishi kerak. (Unda ham ular uchun o'z tilida yoki ingliz tilida gaplasha va tushuntira oluvchi ustoz yoki do'st, elektron programma yoki ilova yo bo'lmasa darslik kerak bo'ladi.)

Uchinchidan, tibbiyot universiteti talabalari turli xil mahalliy shifoxonalarga amalyot o'tash uchun borishishadi, chunki ularning ta'lim jarayonidagi asosiy tomon tajriba va o'zining ko'nikmasini shakllantirish kerakligidir va ular ushbu jarayonni tez va aniq anglash uchun ham o'zbek tilini o'rganishi asosiydir.

To'rtinchidan, mahalliy yetuk bilim egalari(shifokorlar)ning saboqlarini olish va ta'lim va tajriba orttirish uchun ham mahalliy ona tilimizni bilishi lozim. (Negaki ko'pchilik professional doktorlar ko'proq rus tilini bilishadi. Bugun Samarqand davlat tibbiyot universitetida xorijlik talabalarning asosiy qismi hindistonlik va pokistonlik talabalar bo'lgani uchun ularning ikkinchi tili ingliz tilidir. Rus tilini ba'zilar kam sonli so'zlarini bilmasa bu tilga ham tushunmaydilar.)

Bugungi kunda Samarqand davlat tibbiyot universitetida Xalqaro ta'lim fakulteti talabalari uchun ham bir semestrda mo'ljallangan o'zbek tili (Uzbek language) dars soatlar ajratilgan bo'lib, ularga o'zbekcha tibbiyot atamalarini o'rgatishda samarali metodlardan foydalanib kelinmoqda. Talabalar Hindiston va Pokistondan bo'lganligi uchun o'zbek tilini o'rganishlari anchayin yaxshi kechmoqda. Chunki, ularda ko'p tillilik mavjud bo'lib, asosiy qismi hindlar hamda ular hind va urdu tilini ham bilishadi. Buni keltirishimizning sababi urdu tili arab yozuvi va tili asosiga qurilgan. O'zbek tilida ham arab tilidan 50% dan ortiq so'zlar kirib kelib o'z qatlamni tashkil etmoqda. Ya'ni m, b, h, v. tutuq belgisi kabilar ishtirok etgan so'zlar arabiy so'zlar hisoblanadi. Shunday ekan, bu tillarning asosida, so'zlar shaklida bir xillik mavjud va bu o'rganish hamda o'rgatish uchun ancha yengillikni ta'minlaydi.

Shuningdek, o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'zlar asosini inglizcha o'zlashmalar tashkil etadi. Xorijiy talabalarga ta'lim tili esa ingliz tilidir. Bu ham til o'rganishga samarali yordam beradi. Yana bir muhim jihat tibbiyotga aloqador so'zlar, dori nomlari, tibbiy atamalar lotin tilidan kirib kelgani uchun ular muntazam ravishda lotin tilini ham o'rganishadi. Bu sabablardan va o'xshashliklardan unumli foydalangan holatda o'z ona tilimizni va o'z madaniyatimiz va o'zimiz haqimizda ularda ijobiy oyna shakllantirishimiz mumkin va bu o'rgatish uchun asosiy jihatlardan biridir.

Tibbiyot atamalarini dars davomida shunchaki lug'at (vocabulary) shaklida yodlash uchun bermay, balki topshiriq-task, interaktiv va zamonaviy ta'lim metodlari (modern educational methods) shaklida o'rgatilsa, hamda talabalarning o'zlari ko'p marotaba takrorlab o'rgansa yod olish va undan nutq jarayonida foylanishi (using in the speech) ham oson bo'ladi. Ya'ni o'zbek tili darsida tibbiyot terminlarini (medical terminology) quyidagi tartibda tushuntirish va mustahkamlash samarali usullar va metodlar hisoblanadi.

✓ Dars jarayonida o'tilgan grammatik va leksik mavzudan keyin faqatgina o'zbek tilidagi so'zlarni lug'at daftarlariga ko'chirish (write and copy) uchun beriladi.

✓ Keyin elektron lug'at (uzbek-english dictionary) yordamida ular so'zlarni ingliz tiliga tarjima qilishadi.

Masalan, so'zlar quyidagi shaklda ikki qismga bo'lib o'rgatiladi:

**TIBBIYOTGA ALOQADOR
SO'ZLAR – MEDICAL
WORDS**

- SHIFOXONA
- SHIFOKOR
- BEMOR
- OG'RIQ
- AZOB
- BOSH OG'RIG'I
- QON KAMAYISHI
- KASALLIK
- TISH OG'RIG'I
- TISH SHIFOKORI
- BOLALAR SHIFOKORI
- OPERATSIYA
- JARROH

1-ilova.

Talabalar lugʻat daftarlariga taxminan shu shaklda oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishadi:

**TIBBIYOTGA ALOQADOR
SO'ZLAR – MEDICAL
WORDS**

- SHIFOXONA - *HOSPITAL*
- SHIFOKOR - *DOCTOR*
- BEMOR - *PATIENT*
- OG'RIQ - *PAIN*
- AZOB - *SUFFERING*
- BOSH OG'RIG'I - *HEADACHE*
- QON YO'QOTISH – *LOSS BLOOD*
- KASALLIK - *DISEASE*
- TISH OG'RIG'I - *TOOTHACHE*
- TISH SHIFOKORI - *DENTIST*
- BOLALAR SHIFOKORI - *PEDIATRICIAN*
- OPERATSIYA - *OPERATION*
- JARROH - *SURGEON*

2-ilova.

Boshqa shu kabi tibbiyotga oid lugʻatlar ham shu shaklda oʻzbekchasi beriladi va talabalar mustaqil tarzda ingliz tiliga tarjima qilishadi:

- MASAJ
- TERI KASALLIKLARI
- DAVO/DAVOLASH
- TOSHMA
- DORI
- SHPRIST
- IGNA
- ULTIRATOVUSH TEKSHIRUVI
- TIBBIYOT JIHOZLARI
- ICHKI KASALLIKLAR
- O'SIMTA
- SOG'LOM
- O'LIM

3-ilova.

• MASAJ - MASSAGE	ULTRASOUND CHECK
• TERI KASALLIKLARI - SKIN DISEASES	• TIBBIYOT JIHOZLARI - MEDICAL EQUIPMENT
• DAVO/DAVOLASH - TREATMENT	• ICHKI KASALLIKLAR - INTERNAL DISEASES
• TOSHMA - RASH	• O'SIMTA - TUMOUR
• DORI - DRUG	• SOG'LOM - HEALTHY
• SHPRIS - SYRINGE	• O'LIM - DEATH
• IGNA - NEEDLE	• UKOL - INJECTION
• ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI -	

4-ilova.

✓ Tarjima qilgandan so'ng o'qituvchi ularni to'g'riligini tekshirish (for checking) uchun tarjimalardan so'z tarjimasini (translation form) so'rab chiqadi va xato tarjima bo'lsa to'g'ri va maqbul variantlarni aytadi.

✓ Keyingina so'zlarning talaffuzini (pronunciation) o'rgatadi va ularni yodlash (for memorising) uchun o'xshash misollar keltiradi va talabalarda o'sha so'zlar haqida tasavvur (imagination) uyg'otadi.

✓ Grammatik va leksik mavzu va topshiriqlarga qo'shimcha qilib bu yangi so'zlar yod olish uchun beriladi va keyingi darsda birma-bir so'zlarning yodlanganlik darajasi tekshiriladi.

Shuningdek xotirada bu so'zlarni qolishi uchun kamida o'n marta o'rganuvchi foydalanishi lozimligi uchun avvalo "texnik krasvord" berilib to'ldirtiriladi. Keyin "Top orqali yodlash"da o'qituvchi talabalarga kichik kaptok otib o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha shakllarini so'rab mustahkamlaydi. Yana boshqa usuli "Kim ko'p tibbiyot terminini biladi." o'yinini tashkil etib, alohida varaqlarga bilganlarini yozib tekshirish yo'li va boshqa juda ko'plab turli tuman aqliy metodlardan foydalanishi mumkin.

Ikki darsdan keyin esa ulardan shu so'zlar bo'yicha lug'at diktant (vocabulary dictation) o'zbek tibbiyot atamaları asosida olinib yana bir marta mustahkamlanadi va shu orqali talabalar o'sha so'zlarni yana bir esga oladi. Agarda yodidan ko'tarilgan bo'lsa o'qituvchi tomonidan aytiladi va yana bir bora tekshiriladi va baholanadi. Albatta, yangi til o'rganish juda ham ajoyib jarayon va har bir kishi yangi til o'rganishni xohlaydi. Bundan tashqari o'zi o'rganayotgan tilda kim bilandir gaplashib yana ham yaxshi o'zlashtirib olishi mumkin. Shuningdek, tilga mehr uyg'otishda pedogogning ham hissasi taxminan 95 % ni tashkil etadi va yangi tilni o'rgatish uchun o'rgatuvchidan katta mahorat talab etiladi hamda u orqali talabalar va o'qituvchi o'z ta'limiy maqsadiga erishish uchun:

- Birinchidan, tilga qiziqish uygʻotish kerak.
- Ikkinchidan, dars davomida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalangan holda tushuntirish muhimdir.
- Uchinchidan, tilga hurmatini oshirish va ularni ragʻbatlantirish ham tadqiqot va oʻqitish, dars jarayonida ustun tomondir.

Xullas, tibbiyot universitetlarida xorijdan kelgan talabalarga oʻzbek tilini oʻrgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu orqali ham tilning oʻz maqomida yangilanishlar yuzaga keladi va shu orqali ham pedogog koʻp ter toʻkadi, oʻz ustida ishlaydi hamda yangidan yangi ilovalar yaratilsa, bu ilova bilan oʻzbek tilini oʻrganuvchilar safi kengayadi. Oʻzbek tilini tibbiyot taʼlim muassasalarida oʻrgatish shunday ajoyib va murakkab, yuksak mahorat va fidoiylik talab qiladigan taʼlim turi hisoblanadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalar. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan. 4-bet.
2. Togʻayev.T. Tavaldiyeva.G. Akromova.M. Oʻzbek tilining imlo lugʻat. Toshkent; “Sharq” 2015. 18-29-49-178-betlar.
3. Mamanova.D. Oʻzbek tili maʼzura matni Samarqand 2024. 12-35-betlar.
4. Mamanova, D. (2024). ARTISTIC PARALLELISM IN THE NOVELS “DECLINE” AND “THE SCORPION FROM THE ALTAR”. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(1), 249-254.
5. Mamanova, D. (2024). ARTISTIC PARALLELISM IN THE NOVELS “DECLINE” AND “THE SCORPION FROM THE ALTAR”. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(1), 249-254.
6. Oʻzbekcha-inglizcha, inglizcha-oʻzbekcha lugʻat.
<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.amaltranslator.uzbekenglish&hl=r&gl=US&pli=1>

O‘QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR TUZILADIGAN TOPSHIRIQLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kudratova A.I.

SamVPYMO‘MM, v.b.dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada 15 yoshli oʻquvchilarning funksional savodxonliklarini yaʼni maktab dasturida olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qoʻllay olish kompetensiyalarini baholovchi, butun dunyoda eʼtirof etilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi haqida maʼlumot berilgan. Tadqiqot doirasida taqdim qilinadigan topshiriqlarning tarkibiy tuzilishi yoritilgan. PISA tadqiqotlarida asosiy yoʻnalishlar sifatida tanlab olingan oʻqish, matematik, tabiiy-ilmiiy fanlar savodxonliklardan biri matematik savodxonlik tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: PISA, taʼlim, sifat, savodxonlik, topshiriq, matematik savodxonlik, mazmun yunalishi, matematik kompetentlik, qoʻllash sohasi (kontekst), murakkablik

darajasi, tanqidiy va kreativ fikrlash, tadqiq qilish, axborot bilan ishlash, o'qituvchi, munosabat, taraqqiyot.

Аннотация: *Статья посвящена международной программе по оценке образовательных достижений. Эта программа оценивает грамотность и умение применять знания на практике 15 летних школьников в разных странах мира. В статье более подробно раскрыта математическая грамотность и типы заданий.*

Ключевые слова: *PISA, образование, качество, грамотность, задание, математическая грамотность, математическое содержание, математическая компетентность, контекст, степень трудности, критическое и креативное мышление, исследовательская работа с материалом, учитель, отношение, прогресс.*

Annotation: *The article is devoted to the international program for the evaluation of educational achievements. This program evaluates literacy and the ability to apply knowledge in practice of 15 year-old students in different countries. The article reveals in more detail mathematical literacy and type of tasks.*

Keywords: *PISA, education, quality, literacy, task, mathematical literacy, mathematical content, mathematical competence, context, degree of difficulty, critical and creative thinking, research work with material, teacher, attitude, progress.*

Funksional savodxonlikni shakllantirish va baholash uchun test topshiriqlari metodik bazasini shakllantirish bosqichlaridan biri tuziladigan test topshiriqlarining talablarini ishlab chiqish.

Test topshirig'ini tuzishdan oldin o'qituvchi o'quvchida qanday hayotiy ko'nikma shakllanganligini baholamoqchi ekanligini aniqlashtirib olishi kerak. Maqsadsiz tuzilgan test topshirig'i kuzlangan natijani bermaydi.

O'quvchilarda matematik (funksional) savodxonlikni shakllantirishga doir topshiriqlar tuzishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1) O'quvchida qanday hayotiy ko'nikmani baholanishi yoki shakllanishi kerakligini aniq bilish.

2) O'quvchi yoshiga mos va u hayotida duch keladigan vaziyatlardan foydalanish.

3) Masala emas muammoli vaziyat yaratish.

4) O'qish savodxonligiga e'tibor qaratish. Matn, grafik, jadval, diagramma, rasm, ilovalarni ishlatish.

1. *O'quvchida qanday hayotiy ko'nikmani baholanishi yoki shakllanishi kerakligini aniq bilishi* o'qituvchida maqsadli topshiriq tuzish imkonini beradi.

Matematik mulohaza yuritish xoh u deduktiv, xoh u induktiv bo'lsin, maktabdagi matematika fanining asosini tashkil etadigan ayrim tayanch tushunchalar bilan bog'liq. Bunday tayanch tushunchalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- miqdor, sanoq sistemalari va ularning algebraik xossalarini tushunish;
- abstraksiya va timsollar yordamida ifodalashning muhimligini anglash;
- matematik strukturalar va ulardagi qonuniyatlarni ko'rish;
- miqdorlar orasidagi funksional bog'lanishlarni tanish;

– matematik modellashtirishni real olamning turli (masalan, fizik, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar fanlardagi) hodisalarni tadqiq qilish vositasi sifatida qo‘llash;

– statistika asosida o‘zgaruvchanlik yotishini anglash.

O‘quvchida funksional savodxonlikni shakllantirish (baholash)ga doir test topshirig‘ini tuzish uchun test natijalarini tahlil qilish usuliga ko‘ra test topshiriqlari normaga muljallangan, mezonga muljallangan va ipsativ testlar bo‘lishi mumkin. Test natijalarining qo‘llanish usuliga ko‘ra muvaffaqiyat testlari, egallash testlar va prognostik testlarni qo‘llash mumkin. Funksional savodxonlik - bu insonning hayoti davomida doimiy ravishda oladigan bilim, ko‘nikma va malakalarini keng qamrovli hayotiy masalalar yechimini topishda va o‘z faoliyatining turli sohalarida duch keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qo‘llay olish darajasi, sifatida qaralganligi uchun qamrab olgan fan sohasiga ko‘ra ko‘proq geterogen testlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu xulosaga tayanib, kiritilgan test topshiriqlari turiga ko‘ra asosan e‘tiborni polimorf testlarga qaratish lozim. Topshiriq ssenariysiga ko‘ra chiziqli testlarni tanlash kerak.

2. *Topshiriq tuzishda o‘quvchi yoshiga mos va u hayotida duch keladigan vaziyatlardan foydalanish* lozim. Bunda o‘quvchining tajribalari va oldingi bilimlariga asoslanib, o‘zi uchun qiziq bo‘lgan muammoning yechimini topishga motivasiya shakllanadi.

PISA xalqaro baholash dasturida matematik savodxonlik test topshiriqlari matematika o‘qitilishining mazmun sohasiga ko‘ra miqdorlar, fazo va shakllar, uzgarishlar va munosabatlar hamda ma’lumotlar va noaniqliklarga doir tuziladi.

Umumta’lim maktablari uchun ishlab chiqilgan va 2021-2025-o‘quv yillarida amaliyotga tadbiq etilishi rejalashtirilgan matematika fanininng milliy o‘quv dasturida matematik savodxonlik kompetensiyalari sonlar va amallar, algebra va funksiyalar, geometriya va o‘lchashlar, statistika va ehtimollik hamda matematik analiz asoslari sohalariga bo‘lingan.

Shunga ko‘ra sinflar kesimida ishlab chiqiladigan test topshiriqlari dastur mavzulariga mos kelishi hamda o‘quvchilarda hayotlarida duch kelishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarda ma’lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara olish, rost va yolg‘on muloxazalarni farqlash, zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo‘llash, muammoning yechimini topish rejasini tuza olish, tuzilgan reja asosida ishlash va o‘z faoliyatini to‘g‘rilay olish hamda ushbu jarayonda o‘zida ijobiy hissiyotlarni paydo qilish bilan bog‘liq kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishi lozim.

3. *Masala emas muammoli vaziyat yaratish.*

O‘z davrining buyuk shaxsi Abu Ali ibn Sino ta’lim jarayoni haqida shunday degan: - Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak, aks xolda ta’lim-tarbiya ko‘zlagan natijani bermaydi. E’tirof etish lozim allomaning X asrda bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero ta’limning o‘qituvchidan o‘quvchiga bir xil berilishi hamda topshiriqni bajarish kerakligini qayta-qayta ta’kidlanishi o‘quvchilarda yaratish, tadqiqotlar o‘tkazish,

tahlillar asosida xulosalar chiqarish ko'nikmalarini emas, bajaruvchi ko'nikmasini shakllantiradi.

Jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim asosi sifatida ta'lim texnologiyalari, ya'ni muammoli, interfaol, hamkorlikda, tadqiqotchilik, modulli va boshqa ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonida keng tadbiiq etilishini qarashimiz mumkin.

Ta'limning muammoli shaklda tashkil etilishi o'quvchi faoliyatini mustaqil izlanish, muammolarni aniqlash, tadbiiq etish va ularni yechish qobiliyatini shakllantirishga qaratadi.

O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishning samarali usuli bu, topshiriqlarni uchinchi shaxsga emas ikkinchi shaxsga nisbatan tuzish kerakligi hamda bevosita o'quvchini o'sha vaziyatda qanday yo'l tutishini so'rash maqsadga muvofiq. "Siz tadbirkorsiz...", "Sizga taklif qilishdi...", "Siz bajariningiz kerak bo'lgan ish...", "Sizning fikringizcha...", "Siz qanday yo'l tutasiz...", "Asoslab bering..." kabi topshiriqlar o'quvchida topshiriqqa nisbatan dahldorlik xisini shakllantiradi va bu esa o'z navbatida topshiriqni katta ehtimollik bilan muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi. Kelajakda muammoli vaziyatga duch kelganda "Men nima qilgan bo'lardim?" savolga javob topish asosida kreativ yechim topishiga poydevor yaratiladi.

PISA xalqaro baholash dasturida matematik savodxonlik test topshiriqlari shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va ilmiy mazmun yoki kontekstga tegishli bo'ladi. Xalqaro talablarga muvofiq shu kontekstlarga mos topshiriq tuzish maqsadli deb hisoblaymiz.

Masalan: Mayiz topshirig'ini qaraylik (6-sinf o'quvchilari uchun).


Respublikamiz hududlarida ko'pgina tadbirkorlar uzumchilik bilan shug'ullanadilar. Asosiy daromadini mayizni eksport qilishdan olishadi.



1-savol. Agar siz tadbirkor bo'lsangiz va sizga xorijga eksport uchun 700 kg mayiz buyurtma berilsa, qancha uzum zaxira qilishingiz kerak bo'ladi? Ma'lumki, uzumning 1/4 qismidan mayiz olinadi.

2-savol. Uzumzor bo'yiga birinchi va oxirgi tup oralig'i 90 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydon. Ko'chatlar davlat standartiga ko'ra, 3x3 m masofada ekiladi va har bir tup o'rtacha 15 kg gacha hosil beradi.

Buyurtmani bajarishga kerak bo'ladigan uzum zaxirasini to'plash uchun siz qanday maydongagi uzumzorga ega bo'lishingiz kerak?



3-savol. Quritilgan mayizning 60% yuqori sifatli, 30% o‘rtacha sifatli, 10% past sifatli mayiz ekanligini inobatga olib, mahsulotni quyidagi narxda sota olasiz.

Shu mavsumda qancha daromad olishingizni hisoblab chiqing.

Yuqori sifatli	O‘rtacha sifatli	Past sifatli
70000 so‘m	35000-40000 so‘m	15000-10000 so‘m

Berilgan topshiriq, o‘quvchida olingan buyurtmani bajarish uchun yig‘ilishi kerak bo‘lgan hosil, ekilishi talab etiladigan uzumzor maydoni va qiladigan daromadini hisoblash ko‘nikmalari rivojlanishiga qaratilgan. Topshiriqlarni bajarishda o‘quvchi o‘zini bevosita tadbirkor sifatida namoyon qiladi.

1. O‘qish savodxonligiga e‘tibor qaratish. Matn, grafik, jadval, diagramma, rasm, ilovalarni ishlatish.

Bir necha yil oldin o‘quvchining o‘qish savodxonligini baholashning asosiy usuli sodda matnlarni o‘qib, tushunish, talqin qilish va ular ustida mulohaza yuritishdan iborat edi. Bugungi kunda savodxonlik tushunchasiga berilgan ta‘rif orqali tobora o‘zgarib borayotgan vaziyatlar va yangi texnologiyalarning ta‘siri tufayli savodxonlik mohiyati mudom o‘zgarishlarga yuz tutishini anglab yetish bilan yuqori saviyadagi raqamli o‘qish ko‘nikmalari va asosiy o‘qish jarayonlarini qamrab olinishi talab etiladi. Matn ko‘rinishidagi ma‘lumotlar bilan ishlash oddiy yozuv usulidan kompyuter erkanlaridan tortib smartfonlargacha bo‘lgan zamonaviy qurilmalar bilan amalga oshirilayotgan ekan, matnlarning tuzilishi va formatlaridan ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchidan yangidan-yangi aqliy strategiyalarini rivojlantirishni va maqsadli o‘qish jarayonida aniq maqsadlarni qo‘yishni taqozo etmoqda.

Katta hajmli, jumladan, badiiy matnlarni o‘qib, talqin qila olish qobiliyati o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda, o‘qish savodxonligini o‘zlashtirilishi ma‘lumotlarni qayta ishlashning murakkab strategiyalari, jumladan, ko‘p matnli (yoki ma‘lumot) manbaalaridan tegishli ma‘lumotlarni olib, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va talqin qilishni ham talab etadi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli va qobiliyatli shaxslar ilm-fan va matematika kabi barcha sohalarida ma‘lumotlardan foydalanadiva qator ma‘lumotlarni samarali qidirib topish, tizimlashtirish va filtrlash uchun texnologiyalardan foydalanadi. Bular mehnat bozorida, tahsilning keyingi bosqichlarida hamda XXI asrning ijtimoiy va fuqorolik hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmalar hisoblanadi.

PISA 2018, o‘qish savodxonligi qamrov doirasida o‘qish savodxonligiga quyidagicha ta‘rif berilgan “O‘qish savodxonligi insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o‘z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko‘rinishidagi ma‘lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir”.

Bugungi jamiyatda axborotlar oqimi tezligi va uzgaruvchanligini inobatga olib, ma‘lumotlar asosan grafik, jadval, diagrammalar shaklida taqdim etiladi. Jarayonning strukturasi va undagi o‘zgarishlarni diagramma, grafik, jadvallar yordamida aniqlash mumkin. O‘quvchilarda ularni o‘qish, ular bilan ishlay olish ko‘nikma (malaka, kompetensiya)larini rivojlantirish matematika o‘qituvchisining vazifasi.

Matn shaklida taqdim etilgan bir xil turdagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlash mumkin emas. Bunday axborotlarni jadvallar yordamida qayta ishlash ancha qulay, lekin katta hajmli jadvallarni idrok etish ham inson uchun qiyinchilik tug'diradi. Diagramma va grafiklar ma'lumotlarni yanada aniqroq ko'rsatish, ularni idrok etishni osonlashtirish, tahlil va taqqoslashga yordam berish imkonini beradi.

Matematik savodxonlikni shakllantirishda "diagrammalar" mavzusi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bu yerda diagramma ko'rinishida taqdim etilgan axborot bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish boshlanadi va u ommaviy axborot vositalari, Internet resurslari va boshqalarda keng qo'llaniladi. O'quvchilarda kerakli ma'lumotlarni to'plash va ularni ko'rgazmali taqdim etish usullari haqida ko'nikma (malaka, kompetensiya) shakllanadi, bu esa tahlil qilish, taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Matematika fanining milliy o'quv dasturi 5-sinf uchun matematik savodxonlik kompetensiyasiga "kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellar ko'rinishidagi ma'lumotlarni o'qiydi", 6-sinf uchun matematik savodxonlik kompetensiyasiga "kundalik faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'playdi, ularni ustunli diagrammalar ko'rinishida ifodalaydi", 10-sinf uchun matematik savodxonlik kompetensiyasiga "statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarini bir turdan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqasiga o'tkazadi" talablari kiritilgan.

Amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, o'quvchilar ba'zan kattalarda diagrammalar bilan ishlash ko'nikmalari yetarli shakllanmagan. Ya'ni diagrammalarni tahlil qilish, ularga munosabat bildirish, ma'lumotlar asosida keyingi faolitni taxmin qilishda muammolarga duch kelmoqdalar.

Diagrammalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish

Diagrammalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan ishlar	Kim tomonidan	amalga oshiriladi
	1 bosqich	2 bosqich
1. Muammo mazmuni yoki kontekst asosida taqdim etilgan diagrammalarni tahlil etish	O'qituvchi	O'quvchi
2. Ma'lumotlar asosida diagrammalar ishlab chiqish	O'qituvchi	O'quvchi
3. Diagrammalar bilan ishlashga doir loyiha ishlarini taqdimotini qilish	O'quvchi	O'quvchi

Matematika darslarini tashkil etishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talabqilinadi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish

metodlaridan o‘rnida foydalanish talab etiladi. O‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha PISA-2021 xalqaro tadqiqodlarida O‘zbekiston Respublikasini ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida” vidioselektor materiallari, 30.01.2019y.
2. PISA–2021 tadqiqodlarining ustivor yo‘nalishi: matematik savodxonlikni baholash –N.Karimov ma’ruzasi.
3. PISA-2012 Results: What students know and can do. Students performance in mathematics, reading and science (Volume 1), PISA, OESD Publishing, 2013.
4. PISA-2012 Assessment and Analytical Framework. Mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy), PISA, OESD Publishing, 2013
5. In Search of the Human Mind, Harcourt Brace / Sternberg, R. J, Orlando, Fl., 1995.
6. Оценка математической грамотности в исследовании PISA-2012
7. Основные результаты Международного исследования PISA-2012, Астана – 2013 г.
8. Официальный сайт PISA OESD <http://oesd.org/pisa>
9. Образовательная система «Школа 2100». Педагогика здравого смысла: сб. мат-лов / под науч. ред. А. А. Леонтева. М.: Баласс, Издателский дом РАО, 2003. 368 с.
10. Kudratova A.I., Fuzailova X., Saidova D., Tugulova M. “Matematika atrofimizda” 5-sinflar uchun topshiriqlar to‘plami. 2021.

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISHDA TA’LIM USLUBLARINING O‘RNI

Jurayev R.M.,

SamDChTI Gumanitar va axborot texnologiyalar kafedراسи dotsenti. Hotamov M.A. Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedراسи o‘qituvchisi
mominxotamov@gmail.com, tel. 932230032.

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tkazishda ta’lim uslublarning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, mashq, maktab, o‘quvchi, jismoniy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье описывается роль образовательных методов в организации и проведении занятий по физическому воспитанию в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: физическое воспитание, упражнения, школа, студент, физкультура.

Annotation. The article describes the role of educational methods in the organization and conduct of physical education classes in secondary schools.

Key words: physical education, exercise, school, student, physical training.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlardan to'g'ri foydalanish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligiga ijobiy ta'sir etadi, harakatga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada qoplaydi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori bo'lishi jismoniy tarbiya dasturi materiallarining o'zlashtirilishiga va sog'ligini mustahkamlashiga yordam beradi.

Umumta'lim maktablaridagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tayyorgarlikni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning yoshiga, rivojlanishiga va jinsiga qarab me'yorlangan mashqlardan, harakatli o'yinlardan foydalanish samarali ta'sir ko'rsatadi. Bolalar va o'smirlarni harakat faolligi cheklangan.

Bolalarning bog'chadan maktabga kelishlari bilan ularning harakat faolligi 50 foizga kamayadi. Kam harakatlilik oqibatida turli hil kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Harakat faolligini oshirishda harakatli o'yinlarni o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiya darslari ko'pincha turli o'yinlardan iborat bo'ladi. Bu harakatli o'yinlar yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qiziqarli o'tkaziladi va o'quvchilarda turli ko'nikmalarini hosil qiladi. Maktabdagi jismoniy tarbiya darsi asosiy pedagogik kategoriya tizimi sifatida qaraladi.

Ularni o'rgatish, tahlil qilish, yozish, oson bo'lishi uchun alohida tahlil qilinadi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qilishdan iborat. "O'quv ishlarini tashkil qilish" tushunchasi jismoniy tarbiya darsi jarayonida eng oldi bilan uchta aniq o'qituvchi faoliyati bilan o'z ichiga oladi:

- a) boshqarish;
- b) joylashtirish;
- c) ma'lum tartibda qo'yilgan vazifalarni hal qilishdan iborat.

Mavjud adabiyotlarda "darsni olib borish", "o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari" va boshqalar, jumladan "frontal", "guruhli" va "individual" usullar. O'quvchilarni joylashtirish va ishlarni bajarish tartibi darsda sifatida qo'llaniladi. Darsda o'quvchilarni joylashtirish, qo'yilgan vazifalarni bajarish tartibidan farq kilmog'i kerak ko'p hajmdagi vazifalarni qo'yish aniq pedagogik tushunchalar bilan bog'liq atamalarni qo'llash, o'qituvchi bilan usulistlarni o'zaro tushunishi qiyinlashtiradi.

Jismoniy tarbiya jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ishlarni bajarish eng avvalo o'quvchilarni boshqara bilishdan iborat. Uning asosiy usullari: buyruq, topshiriq, ko'rsatish, hisob sanash, shu bilan birga ko'rish, ovozli shartli belgilar. Buyruq o'zining qisqaligi, aniqligi, talabchanligi bilan ma'lum. Buyruq atamaları quyi sinfdanlardan qo'llanilib yuqori sinflarda murakkablashtirib boriladi.

Quyi sinflarda buyruqlar biroz sekinlashtirilgan holda berilishi talab etiladi. Buyruqlar ma'lum komota'lim topshiriqlarni berishda qo'llaniladi. Shuning uchun farmoyish u yoki bu narsani bajarish tahlil qilinadi. Darsda o'quvchilarni boshqarish uchun yorug'li va ovozli shartli ovoz va belgilar ishlatiladi bu shartli belgi yoki

ovozlar oldindan kelishib olinadi. Masalan, qarsak, svstok ishorali bilan to‘liq dars o‘tish mumkin. Quyi sinf o‘quvchilarini harakat faoliyatini tartibga keltirish, me‘yorini belgilashda ovozli signallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oldindan kelishib olingan ishoralarni qo‘llash o‘qituvchiga rohat bag‘ishlaydi.

Darsda o‘quvchilar faoliyatlarini boshqarishni juda ko‘p usullari mavjud. Bu holda albatta shug‘ullanuvchilar yoshini hisobga, dars o‘tish joyini, sharoitini, qo‘yilgan vazifalarni o‘quvchilar tomonidan qanday o‘zlashtirib olinganligini hisobga olish talab etiladi. Darsda o‘quvchilarni joylashtirish o‘quv ishlarining asosiy usuli hisoblanadi.

Uch usuldan iborat:

- 1) o‘quvchilarni bo‘lmasdan, bir butun joylashtirish, frontal;
- 2) bo‘limlar, zvenolar bo‘yicha, komanda bo‘yicha, guruhli;
- 3) har bir o‘quvchini alohida-alohida, yakka tartibda joylashtirish.

Har bir usul ko‘p variantni o‘z ichiga oladi. Masalan, gimnastika darsida barcha o‘quvchilarni bir bukilib joylashtirish mumkin, kolonna, sherenga, doira yakka tartibda guruhli bo‘lishi mumkin, ko‘rsatilgan joy yoki snaryadlar oldida. U yoki bu usulni qo‘llash ko‘p soni omillarga bog‘liq o‘quvchilarning yoshi tayyorgarligi dars tipi va turi, mashg‘ulot o‘rni, zaruriy asbob anjomlarni mavjudligi, yordamchilar soni.

Biroq aniqlovchi omillar bo‘lib dastur o‘quv materiallari hisoblanadi. O‘quvchilarni joylashtirishning xilma-xil usullari mashqlarni takomillashtirish, o‘zlashtirib olinganligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, sinf o‘quvchilarini ko‘p guruhlarga bo‘lib yuborishlik yoki snaryadlar bo‘lib yuborish, ularni joylashtirish, ularni jismoniy yuk olish hajmini oshiradi. Mavjud adabiyotlardan joy olgan “doiraviy mashqlanish usuli”, mashqlarni doiraviy bajarish” “doiraviy usuli”, bu usullar to‘g‘ri deb tan olish mumkin, lekin biroq. “shakl” bilan usulni almashtirib yubormaslik kerak.

Bizga ma‘lumki “Doiraviy mashqlanish” o‘z ichiga ma‘lum vazifalarni, vositalarni va manbalarni, usullarni oladi. O‘zidan o‘zi ma‘lumki jismoniy mashqlar mashg‘ulotlarni tashkil qilish shaklini, asosiy o‘ziga xos komponenti “doiraviy mashqlanish” - joylashtirish usuli, mashqni bajarish tartibi ya‘ni, agar “doiraviy mashqlanish” usul hisoblansa u holda darsni shakl emas usul deb atash mumkin. Asosiy pedagogik kategoriyalarni aniqlash o‘qituvchi bilan usulist o‘rtasida o‘zaro tushunishlik deb atash mumkin. Ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish va jismoniy rivojlantirish, hayot faoliyatiga tayyorlash maqsadi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya tadbirlarining asosiy vazifasi jismoniy harakatlarga o‘rgatish va sport turlari harakatlari texnika va taktikasini shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Jismoniy tarbiya tadbirlari o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shakllarida o‘tkaziladi. Jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarni jismoniy harakatlarga o‘rgatish, jismoniy harakat malaka va ko‘nikmalirini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek maktab dasturiga muvofiq bo‘lgan sport turlari bo‘yicha texnik va taktik tayyorgarlik malaka va ko‘nikmalari o‘quvchilarda jismoniy tarbiya darslari jarayonida shakllantiriladi. Jismoniy tarbiya

tadbirlarini tashkil etishda o'quvchilarning yosh, jins va jismoniy tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida o'qituvchilar va murabbiylar barcha o'quvchilarni jismoniy harakatlarga to'liq jalb etishlari kerak.

Mashg'ulotlar jarayonlarida jismoniy tarbiyadan ta'limning zamonaviy uslublari va tamoyillaridan keng foydalaniladi. Ta'lim uslublari jismoniy tarbiyada og'zakilik, amaliy, ko'rgazmalilik, o'yin va musobaqa uslublari asosiy o'rin tutadi. Jismoniy tarbiyada og'zakilik uslubidan jismoniy mashqlar va harakatlar bo'yicha og'zaki tushuntirish, suhbat, anketa, savol javob, fikr bildirish usullaridan foydalaniladi. Shuningdek jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylari o'zlarida va shug'ullanuvchilarda buyruq bera olish malakalarini shakllantirib boradilar. Amaliy uslubda jismoniy tarbiya o'qituvchilari jismoniy mashqlar va jismoniy harakatlarni o'quvchilarga amalda bajarib ko'rsatadilar.

O'quvchilar jismoniy harakatlarni takrorlab bajaradilar. Amaliy bajarish jarayonlarida o'quvchilarda jismoniy harakatlar malaka va ko'nikmalari shakllanib boradi. Mashqlar va harakatlarni bajarishda sodir bo'ladigan xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'qituvchilar uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar berib boradilar. Ko'rgazmalilik uslubida jismoniy harakatlar va sport turlari harakatlari texnika va taktikasini shakllantirish bo'yicha video va kinofilmlar namoyish qilinadi, taqdimotlar tashkil etiladi. Plakatlar, stentlar, afishalar va namoyishlar tayyorlanadi.

Bunday uslub jarayonlarida sportchilar texnik va taktik tayyorgarlik jismoniy fazilatlarni rivojlantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarga ega bo'ladilar. O'yin uslubi boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda keng qo'llaniladi. Shunga qaramay o'quvchilarning barcha yosh bosqichlarda o'yinlarda keng foydalanish mumkin. O'yinlar o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va jismoniy hamda hayotiy zarur harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi. O'yinlar davomida bolalar o'zlarini erkin tutishi, ixtirochiligi, yangi harakatlarni bajarishga intilishi, mustaqil bo'lishi bilan qiziqarli bo'ladi. O'yinlarda jismoniy yuklamalar me'yorlanmagan holda ta'sir etadi. O'quvchilar o'z organizmini jismoniy tayyorgarligi va jismoniy qobiliyatiga muvofiq holda o'yinlar davomida faollik ko'rsatadi.

Sportchilarni umumiy va maxsus tayyorgarligida ham o'yin turlaridan keng foydalanish mumkin. Musobaqa uslubi o'quvchilarni jismoniy tarbiya jarayonlarida bellashuvlarni tashkil etadi. Bellashuv jarayonlarida sport turlari bo'yicha texnik va taktik mahoratlar va jismoniy fazilatlarning takomillashuvi namoyon etiladi. Sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarliklari baholanadi.

Umumiy tayyorgarlikni baholashda o'quvchilarning aqliy, ahloqiy, ma'naviy va iroda tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi. Maxsus tayyorgarliklarni baholashda o'quvchilarni sport turlari harakatlari texnika va taktikasini egallash malaka va ko'nikmalari hisobga olinadi. Shuningdek ularning jismoniy fazilatlari kuch chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini rivojlanganlik darajasi aniqlanadi. Musobaqalar sport turlari bo'yicha bellashuvlar, umumiy jismoniy tayyorgarlikni baholash, sinovlarni bajarish musobaqalari shakllarida bo'lishi mumkin. Sport bellashuvlari ommaviy sport bayramlari shakllarida ham tashkil

etiladi. O'quvchilari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini ommaviylashtirishda jismoniy tarbiyada ta'lim uslublari va ta'lim tamoyillarining ahamiyati katta bo'lib hisoblanadi.

Dars tizimining hal etuvchi uchinchi etapi, dars o'tish jarayonida foydalaniladigan, pedagog faoliyatini va shug'ullanuvchilarning har bir pedagog vazifalarni hal etishda o'zaro aloqasini aniqlashdan iborat. Bunga gruppalarni tashkil etish, ularga vazifalarni qo'yish, mashg'ulot o'rnini almashtirish tartibi, snaryadlarni o'rnatish, asbob-anjomlarni taqsimlash va to'plash, mavjud darslarda foydalanilgan harakatlar. Shunday qilib, har bir dars mazmuniy, usuliy va tashkiliy elementlarning birligidan iborat. Bu birlikni buzishlik, aytilgan elementlarning ahamiyatini tushunmaslik yoki tan olmaslik dars samaradorligini tez pasayishiga olib keladi, belgilangan vazifalarni hal etish imkonini shubha ostida qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. 2000 y. Toshkent.
2. Axmatov M.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. 2001y. Toshkent.
3. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. 2002 y. Toshkent.
4. Salomov R. S. "JISMONIY TARBIYA NAZARIYASIVA USLUBIYATI". O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan jismoniy tarbiya institutlari va pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya qilingan. I-II jild. TOSHKENT – 2014

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT ORQALI BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Imomov Mavlon Abdusalomovich,

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasida assistenti: +998932337172 imomovmavlon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilishi va mashg'ulotlarda bolalarni harakat ko'nikmalari, malakalari va unga oid bilimlarni o'zlashtirish haqida.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiyalash, jismoniy sifatlar, jismoniy barkamollik.

Kirish. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining yig'ilishlarida mazkur mavzuga alohida to'xtalib, ta'lim va tarbiya ishlarini sport va jismoniy tarbiya bilan uyg'un ravishda olib borish shart ekanini takidlaganlari bejiz emas edilar. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" kitobidagi "Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olish lozim", degan chuqur mazmundagi fikri biz yosh mutaxassislarni ham bu masalaga yanada e'tiborli bo'lishimiz lozimligini anglatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi alohida yirik bir fan sohasi sifatida keyingi yillarda pedagog olimlar tomonidan ilmiy o'rganilib kelinmoqda. Bu sohada O'zbekistonda Usmonxo'jaev T.S., Maxkamjonov K.M., Sharipova D.J., Seyit Xalilov E., Xo'jaev F. va boshqalarning olib borayotgan ilmiy ishlari muhim ekanligi takidlanadi.

Ta'kidlash joizki mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi sohasida jismoniy tabiya mashg'ulotlari, o'yinlar va mashqlari haqida, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ishtirokida sport musobaqalarini samarali tashkil etish borasida malum samaradorlikka erishganlar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi ta'lim - tarbiyaga oid g'oyalar, "Ta'lim to'g'risida" Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" pedagog olimlarni jismoniy tarbiya nazariyasi sohasidagi ilmiy merosi, bolalar sportini rivojlantirish va "Barkamol avlod" yili davlat dasturidagi ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asosi qilib olindi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Bolajon" dasturi asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muntazam o'tkazilib kelinayotgan bo'lsada tadqiqot ishlari jarayonida mashg'ulotlarni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi har tomonlama chuqur tahlil etildi. Natijada har bir MTM, har bir yosh guruhi va xatto har bir tarbiyalanuvchi bolaning individual xususiyatlari hisobga olingan holda ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar berildi. MTM tarbiyachi-pedagoglar va jismoniy tarbiya murabbiylari bir nechta seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi va erishilgan natijalar asosida MTM tarbiyachi-pedagoglari uchun taklif va tavsiyalar berildi.

Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini ta'minlash va barcha ezgu maqsadlarimizni ruyobga chiqarishning muhim omilidir. Bu olijanob maqsad yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar sportini rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlardagi izchil isloqotlar o'zining yuksak samaralarini berayotir.

Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini ta'minlash va barcha ezgu maqsadlarimizni ruyobga chiqarishning muhim omilidir. Bu olijanob maqsad yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar sportini rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlardagi izchil isloqotlar o'zining yuksak samaralarini berayotir.

Farzandlarimizni yuksak bilimli va zakovatli, jismonan baqquvat insonlar etib kamolga yetkazishning bosh omili-bolalar sportini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda bolalar sporti mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylanib, ushbu soha bilan mutanosib ravishda izchil rivojlantirilmoqda.

2002 yil 24 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida” gi va 2004 yil 29 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmon bu borada muhim dasturilamal bo‘layotir. O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan yoshlarimiz o‘rtasida sportni ommalashtirish, bolalar sportini kompleks rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

O‘tgan oxirgi 10 yil davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1113 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 252 ta yangi sport kompleksi, 861 ta sport zali barpo etilgani, bularning 84 foizi qishloq joylarda qurilganini ta’kidlash lozim.

Mamlakatimiz bo‘yicha umuman bugun mavjud bo‘lgan sport obyektlari haqida gapirganda qo‘yidagi ko‘rsatkichlarni e‘tiborga olish zarur.

Bolalarning sport bilan shug‘ullanishga qiziqishini yanada oshirish maqsadida mamlakatimiz hududlarida sportning ko‘plab turlari bo‘yicha musobahalar, sport festivallari, o‘rtoqlik uchrashuvlari va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari muntazam ravishda o‘tkazilmoqda.

Shuni alohida aytish kerakki, yurtimizda an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan, Olimpiya harakati tamoyillariga to‘liq mos keladigan uch bosqichli sport o‘yinlari – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobahalari mamlakatimiz terma jamoalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aziz do‘stlar, sportni, birinchi navbatda, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlarining muvaffaqiyati ushbu sohaga yuqori malakali o‘qituvchi va murabbiy kadrlarni keng jalb etish bilan bog‘liq ekani hech kimga sir emas.

Sportda muvaffaqiyatga erishish tartib-qoidaga qat’iy rioya qilish bilan bog‘liqdir. Maktabda ta’lim olayotgan o‘quvchi darsdan so‘ng biror sport to‘garagiga qatnashishni odat qilgan bo‘lsa, u har bir kunini rejalashtirib oladi. Chunki bolani sport zali, o‘zi mehr qo‘ygan sport turi bilan emin-erkin shug‘ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy harakatga chorlab turadi hatto sport to‘garagi mashg‘ulotlari ham tartibga asoslangan: bolalar avval zal bo‘ylab bir necha marotaba yugurishadi, turli chigalyozdi mashqlarini bajarishadi va shu tariqa yangi ko‘nikmalarni navbatma-navbat o‘zlashtirib borishadi. O‘quvchi sport to‘garagiga qatnayotgani sababli ham boshqa ishlariga o‘z vaqtida ulgurishga intiladi. Pirovardida unda mas’uliyat hissi shakllanadi, mustahkamlanadi.

Eng muhimi, sportga oshno bo‘lgan o‘quvchining har xil bekorchi ishlarga vaqti bo‘lmaydi. O‘qituvchilar ham doim internet klublarda yoki boshqa foydasiz yumushlar bilan kunini o‘tkazib, maktabga kam keluvchi ayrim dangasa tengdoshlariga sportsevar bolalarni o‘rnak qilib ko‘rsatishadi.

Sog‘liqni yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jamiyatimizni rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi. Ammo bu muammoning yechimi bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lib, bu muammoni o‘rganishga yondashishda yagona harakat dasturini yo‘qligidadir.

So‘nggi yillarda bu boradagi erishilgan natijalar asosan “turmush tarzi” kategoriyasida sog‘liqni rivojlantirish mexanizmini tadqiqot qilish bilan chegaralanib

qolindi. Bu sohada ilmiy ishlar olib borilganligi uchun ham, inson hayotini uzaytirish, uni turmush tarzini har tarflama o'rganish, sog'liqni rivojlantirish bir qancha fanlarning yutug'iga bog'liqdir.

Qilingan ishlarni ta'kidlash bilan undagi kamchiliklar, eng muhimi sog'lom turmush tarzini shakllanish mexanizmiga tarixiy jihatdan qaralib, baho berilmaganligi, har bir millatni milliy va regional jihatlarini inobatga olinmaganligi asosiy kamchiliklardandir.

Markaziy Osiyo xalqlari o'zining o'tmish tarxi bilan, o'ziga xos turmush tarzi bilan taniqlidir. Turli millatga mansub bo'lgan xalqlarning turmush tarzi ularning madaniyati bilan, ko'p qirrali xayot faoliyati bilan xarakterlidir. Xayot faoliyatining muhim qismi, sog'lom turmush tarzini ananalari va o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni sog'ligini ximoya qilish va ularni sog'lom turmush tarziga o'rgatishga bolalar bog'chasida "Bolajon" dasturini bajarish orqali erishiladi. Afsuski yuqorida qayd qilingan ish formalari va targ'ibot vositalari sog'lom turmush tarzini turlicha joriy qilishda ayniqsa bolalarga sog'lom turmush tarzini o'g'atish sohasida yetarli deb bo'lmaydi.

Ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarning isbotlashicha bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish aniq tashkiliy struktura orqali amalga oshiriladi. Buni taxminan quyidagicha keltirish mumkin:

Birinchi - bolalar sog'ligini ximoya qilish va ularga sog'lom turmush tarzini o'rgatishda o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar olib boradigan ishlar:

Ikkinchi - gigienik tarbiyani amalga oshiruvchilar oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, maktabdan tashqari idoralar:

Uchinchi - shu sohadagi kadrlarni tayyorlab beruvchi idoralar:

To'rtinchi - esa sog'lom turmush tarzini amaliyotda boshqarib turish. Shu keltirilgan tashkiliy tuzilma bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan sog'lom turmush tarzini joriy qilishning amaliy natijalarini ko'rish mumkin.

To'rtala tizimda ham keltirilgan idoralar, tashkilotlar faoliyati boshqarish shakliga buysunadi. Ammo bu sistemadagi oilalarning bolalarni tarbiyalashdagi funktsiyasi katta bo'lishiga qaramay shu idoralar va tashkilotlar bilan uning bog'liqligi, tarbiya sohasidagi funktsiyani bajarishi boshqaruvga va ma'lum o'lchov mezoniga ega emas. Aholining katta yoshli kishilar ba'zilar bolalarni sog'lom o'stirish, gigienik tarbiyalash qoidalari va yo'l-yo'riqlari haqida yetarlicha bilim va tasavvurga ega emas. Bu esa oilaning bolalar sog'liqini himoya qilishdagi faoliyatini aks ettiradi. hamma oilalarda oila a'zolarining sog'lom turmush tarziga munosabati birinchi bolalarni sog'liqini himoya qilish bilan ifodalansa, ikkinchi hamma oila a'zolarining jumladan bolalarning salomatligi yaxshi bo'lishi orqali turmush tarzini barcha qirralari ya'ni ma'naviy va sotsial qiymatning yaxshiligi bilan ifodalanadi. Bolalarni sog'liqini himoya qilishda oila asosiy g'amho'rlik qiluvchi bo'lsada, uning bolalar tarbiyasiga daxildor bo'lgan barcha idoralar bilan hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki yuqorida aytganimizdek hamma oila a'zolari sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda yetarli tushunchaga ega emas.

Sogʻlom hayot tarzi - inson hayot tarzining tarkibiy qismi, u umuminsoniy tarbiyada, shaxsni uygʻun rivojlanishida, har tomonlama kamol topishda muhim rol uynaydi. Shunday ekan sogʻlom boʻlish sanʼati salomatlikni taʼminlaydigan, amalga oshiradigan butun bir sharoitlar majmuasi hisoblanadi. Yaʼni bu sharoitlar - mehnat va dam olishni toʻgʻri navbatlashtirish, sogʻlom turmush, toʻgʻri ovqatlanish qoidalariga amal qilish, jismoniy tarbiya bilan shugʻullanishdan iboratdir. Xayotning barcha sohalariga jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasining gigienik asoslarini keng miqyosida qoʻllamay turib, shaxsni har tomonlama shakllantirib boʻlmaydi.

Sogʻlom turmush tarzining asosiy boʻlgan dam olishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, jismoniy tarbiya bilan shugʻullanish, ovqatlanish qoidalariga rioya qilish va gigienik sharoitni yaxshilash haqida yoshlarga maktabdan boshlab maʼlumot berish, bu sohada ularda yetarli tasavvurlarni hosil qilish davlat tomonidan tuzilgan rejalarda koʻzda tutilgan.

Yuqorida aytilgan toʻgʻri ovqatlanish, dam olish, jismoniy mashqlar bilan shugʻullanishlar har biri oʻziga xos qoidalarga rioya qilishni talab qiladi.

Oilani bularni xayotga tatbiq qilishdagi roli juda muhim.

Yuqorida bolalarni sogʻlom turmush tarziga oʻrgatishda onalarning vazifasi haqida misol keltirildi, bu masalada oilaning barcha aʼzolarining ishtirok etishi ahamiyatlidir. Ayniqsa oilada otalar bu sohadagi oʻzining shaxsiy ibrati bilan yoshlarga oʻrnak boʻlishi kerak.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, bola tarbiyasi oila, maktab, mahalla, jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilmas ekan, tarbiyada koʻzlangan orzu-maqсадlarga erishish qiyin boʻladi. Oilada maqsadga muvofiq tarbiya olgan bola maktabda barkamollashadi, taʼlim olib oʻz maʼnaviyati va madaniyatini yuksaltiradi. Sogʻlom turmush tarzini tashkil etishning yetakchi printsiplari yoshlarda ichki nuqtai nazarni shakllantirish, oʻz shaxsiy salomatligini muhofaza qilish uchun maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyatni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Atoev A.H. Frazandlarimiz barkamol boʻlsin. T.: 1990.
2. Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan. T.: "Oʻqituvchi", 2011.
3. Bolajon Davlat dasturi. T.: 2010.
4. Barkamol avlod orzusi. T.: "Oʻzbekiston" 1998.
5. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. T.: "Gʻ.Gʻulom", 2010.
6. Keneman A.V., Xuxlaeva D.V. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi. -T.: Oʻqituvchi, 1988.
7. Maxkamjonov K.M. "Xarakat goʻzallik va salomatlik garovi". -T.: 2002.
8. Maxkamjonov K.M., Tulenova X. Farzandlarimiz sogʻlom boʻlishini istasangiz.
9. Usmonov M. T. Establish Network Protection. International Journal of Academic Engineering Research (IJAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 14-21.

KIMYOVIY MODADALARDAN FOYDALANIB KIYIMDAGI DOG'LARNI TOZALASH

Sanayeva Raxima Amirqulovna,

*Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi, katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Kirlangan kiyimlar 2 xil yo'l bilan tozalanadi: ular kimyoviy tozalash korxonasiga topshiriladi yoki yuvuvchi vositalarning suvli eritmalari bilan yuviladi, kimyoviy tozalashda trixloretlen, perxloretlen va etil spirti kabi organik erituvchilari ishlatiladi.

Kalit so'zlar: kimyoviy tozalash, yuvuvchi vositalar, shoyi va sintetik kiyim-kechaklar, ip gazlama, zig'ir, jun, tabiiy ipak va sintetik gazlamalar, oqsil, siyoh, tush, meva, moyli bo'yoq, yelim, atir, mog'or.

Toza, yaxshi dazmollangan kiyim kiyganda kishining kayfiyati ma'lum darajada ko'tarilib turadi. Kiyimni ishdan chiqarish uchun uni asray bilish kerak. Aksariyat ayollar ayrim dog'larni yangiligidayoq uy sharoitida tozalashga harakat qiladilar. Bunda ular gazlamaning qanday toladan ishlanganligini, dog'ketkazuvchi vositaning gazlamaga va uning rangiga qanday ta'sir etishini bilib, buyumni to'g'ri yuvib, sinkalashga harakat qiladilar. Sanoatda ishlab chiqariladigan kiyimlarni toza tutish, asray bilish uchun uning "passport" — kiyimga tikib qo'yilgan yorliq'ini saqlash tavsiya etiladi.

Umumiy kirlangan kiyimlarni tozalash. Umumiy kirlangan kiyimlarni 2 xil yo'l bilan tozalanadi: ular kimyoviy tozalash korxonasiga topshiriladi yoki yuvuvchi vositalarning suvli eritmalari bilan yuviladi. Kimyoviy tozalashda trixloretlen, perxloretlen va etilspirti organik erituvchilari ishlatiladi. Kiyimlarga sanab o'tilgan erituvchilarning birortasi bilan maxsus dasturda ishlaydigan mashinada ishlov beriladi. Uy sharoitida kiyim-kechaklarni kimyoviy tozalash uchun avvalo gazlamaning dog' bo'lgan qismi chang va kirdan tozalanadi, so'ngra gazlama tarkibi, uning tuzilishi, dog'larning xususiyati aniqlanadi, ularga mos dog' ketkazuvchi vositalar tanlab olinadi. Agar dog' ketkazuvchi vosita gazlamani ishdan chiqarmasa, uning rangini o'zgartirmasa, u holda dog'ni ketkazishga kiri-shish mumkin. Dog' ketkazuvchi eritma gazlamada yoyilib ketib kattaroq dog' hosil qilmasligi uchun tozalanayotgan dog' atrofini (gazlamani) suv, benzin bilan ho'llab, talk, kraxmal sepib qo'yish kerak. Agar gazlamani yuvish mumkin bo'lsa, u holda ko'pgina dog'larni sovun, soda yoki boshqa yuvuvchi moddalar vositasida ketkaziladi.

Yog'li dog'lar: Yog' dog'larini ketkazish uchun suv qo'shilgan nashatir spirti va yuvish vositasidan foydalanish mumkin, undan so'ng kiyimni toza oq gazlama ustidan dazmollash kerak. Kiyimdagi yog' dog'larini yo'qotish uchun darhol tish poroshogi sepish va uning ustiga oq qog'ozni og'irroq narsa bilan bir necha soat davomida bosib turish kerak.

Ichimliklar dog'i: Choy dog'i ustiga shakar sepib, bir soatdan keyin odatdagidek yuvish tavsiya qilinadi. Qahva, kakao va shokolad dog'larini bir osh qoshiq nashatir spirtining bir litr qaynoq suvdagi eritmasi yordamida tozalash mumkin. Pivo dog'i sovunli suv yordamida oson ketadi.

Meva dog'lari: Uzum va gilos dog'lari ustidan qaynoq suv quyilsa oson yo'qoladi. Meva dog'larini tozalash uchun uning ustiga tuz sepib, issiq suvda bir necha daqiqa ushlab turiladi va yuvish vositasi yordamida yuviladi. Shunga o'xshash dog'larni ketkazishda uni issiq sut ichida biroz ushlab turiladi va suvda yuvib tashlanadi. Eskirgan dog'larni limon kislotasi yordamida tozalashga urinib ko'ring.

Kir sovun: Uning yordamida hali matoga (har qanday matoga) singib ulgurmagan dog'ni ketkazish mumkin. Buning uchun dog' joyini yaxshilab sovunlab, 12 soatga qoldiring (yaxshisi, sellofan xalqaga o'rab qo'ying), so'ng oddiy usulda yuvib tashlang. Issiq suv yordamida dog' yaxshilab sovunlanadi va kamida 2 soatga qoldiriladi. Keyin buyum qo'lda yoki mashinada yuviladi.

Shakar va kir sovun: Dog' bo'lgan joyni sovunlab, ustiga shakar seping va cho'tka bilan ishqalang. 15 daqiqadan so'ng odatdagidek yuvib tashlang. Bu usul ip gazlamalarda yaxshi ish beradi.

Idish yuvish suyuqligi: Bu eng samarali usullardan biridir. Suyuqlik dog' yuzasiga surtiladi va 10-15 daqiqa yoki undan ko'proq vaqtga qoldiriladi. Keyin kir yuviladi.

Tuz: Kiyimda dog' paydo bo'lishi bilan, unga oddiy tuz seping, biroz ishqalang va qoqib tashlang, buni bir necha marta takrorlang, so'ng yuvib tashlang.

Tuz va iste'mol sodasi: Agar dog' hali qurishga ulgurmagan bo'lsa, uni tuz bilan yaxshilab ishqalash mumkin. Tuz yog'ni shimib oladi. Uni vaqti-vaqti bilan yangilash va dog' yo'qolguncha artib turish kerak. Qurigan dog'ga qarshi tuz va soda aralashmasidan foydalanish ham mumkin. 1 choy qoshiqda tuz va soda olinib, 150 ml qaynoq suvda eritib olinadi, eritma dog'li joyga surtiladi va bir soatga qoldiriladi. Keyin kir yuvish mashinasida yuviladi.

Bo'r kukuni: Bu usulni paxta tolasi, zig'ir tolasidan bo'lgan gazlamalar, shoyi va shifon matolarda qo'llash mumkin. Dog' bo'lgan hududga quruq kukunni seping va 2-3 soatga qoldiring. So'ng nam latta bilan artib tashlang va kiyimni yuving.

Ammiak: U och rangli sun'iy gazlamalarda yaxshi natija beradi. Bir stakan suvga bir choy qoshiq ammiak soling va unga paxtani ho'llab, dog' bo'lgan joyni arting. Ustidan toza mato qo'yib, o'rtacha haroratda qizdirilgan dazmolni bosing.

Kraxmal: Kraxmalni issiq suvda eriting va dog' ustiga suring. U dog'ni o'ziga singdirib olgach, qoldiqlarini qoqib tashlang.

Kraxmal va sut: 50 ml sutda 4 osh qoshiq kartoshka kraxmali suyultiriladi. Aralashma dog' ustiga surtiladi va quritish uchun bir kechaga qoldiriladi. Keyin massa nam gubka bilan ishqalanib, suv ostida tozalanadi va yaxshilab yuviladi.

Osh sodasi va idish-tovoq yuvish vositasi: Masalliq'larni tish pastasidek bo'lgunicha yaxshilab aralastiring va dog'li hududga suring, so'ng cho'tka bilan ishqalab, o'n daqiqaga qoldiring va yuvib tashlang.

Sirka kislotasi: Sirka kislotani suv bilan teng nisbatda aralastiring, kiyimni unga 15 daqiqaga ivitib qo'ying va yuvib tashlang.

Koka-kola: Yog'li dog'ni shirin gazli ichimlik yordamida ketkazish ham mumkin. Buning uchun unga dog'li kiyimni 2—3 soatga ivitib qo'ying va yuvib tashlang.

Bo‘r: Bo‘r maydalanadi, u dog‘ yuzasiga sepiladi va bir soatga qoldiriladi. So‘ngra yuviladi.

Tish tozalash kukuni: Dog‘li joyga tish tozalash kukuni sepiladi. Ustiga qog‘oz salfetka qo‘yib, dazmollanadi. Jarayon bir necha marta takrorlangach bir kechaga qoldiriladi va yuviladi.

Talk: Dog‘ ustiga qalin talk surtiladi va bir necha soat yoki bir kechaga qoldiriladi. Keyin kiyimni yuvmasa ham bo‘ladi, shunchaki talk sepilgan joyni yaxshilab silkitish kifoya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar Toshkent-2020 200_b

2. M.Nishonov Z.Xolmirzayeva. U.Obidjonov Kimyo tarixi o‘quv qo‘llanma Namangan, 2022, -B.189.

3. Dedamirza Otaqoziyev, Baxtiyor Jo‘rayev “ Kimyo kechasi va qiziqarli ma’lumotlar o‘qituvchilar uchun qo‘llanma Namangan-2011. _120. _36.b

4. Begmatov SH.SH. Kimyo ta’limida darsdan tashqari ishlarni dars bilan bog‘lashning pedagogik samaradorligi. “Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar” mavzusidagi ilmiy amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: O‘zFITI.-2001.-B.209-211.

BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Navbahor Yunusova, Dilorom Ibodullayeva
Samarqand VPYMO‘MM o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi va uning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Multimedia, texnologiya, vizual, virtual, laboratoriya, slayd, animatsiya, video, kompetensiya, monotexnologiya, interfaol doska, interaktiv, elektron, doska, kompyuter, trenajer mashqlar.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о методике использования инновационных технологий на уроках биологии и ее значении.*

Ключевые слова: *Мультимедиа, технологии, визуальные, виртуальные, лабораторные, слайд, анимация, видео, компетентность, монотехнология, интерактивная доска, интерактивная, электронная, доска, компьютер, учебные упражнения.*

Abstract: *This article provides information on the methodology of using innovative technologies in biology classes and its importance.*

Key words: *Multimedia, technology, visual, virtual, laboratory, slide, animation, video, competence, monotechнология, interactive board, interactive, electronic, blackboard, computer, training exercises.*

O'qitish jarayonining samaradorligi ko'pgina hollarda o'qituvchining bilimiga, darsni to'g'ri tashkil qilish mahoratiga va mashg'ulotni o'tishda mohirona tanlangan darsning u yoki bu shakllariga bog'liqdir. An'anaviy "sinf-dars" tizimida multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, o'quv filmlaridan, didaktik trenajerlardan foydalanish – dars samaradorligini oshirishda o'qituvchiga juda katta imkoniyat yaratib beradi.

Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qiladi. Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slyd, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali o'quvchining e'tiborini ko'proq jalb qilib, o'rganilayotgan o'quv materialini qabul qilishni osonlashtiradi, tushunish va eslab qolishga, yorqin tasavvurni shakllantirishga yordam beradi, o'quvchining bilim olishga bo'lgan faolligini oshirib, o'quv mavzusi haqida aniq kompetensiya, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishini ta'minlaydi.

Pedagog G.K.Selevkoning fikricha, o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan 3 variantda foydalanish mumkin:

1) "kirib kelayotgan" texnologiya sifatida

Kompyuter va multimedia texnologiyalaridan alohida mavzularni hamda didaktik materiallarni o'qitishda;

2) asosiy pedagogik texnologiya sifatida

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishi jarayonida katta ekranda multimediali taqdimotning ketma-ketlikda namoyon bo'lishi barobarida kerakli materiallarni o'quvchilar daftarlariga ko'chirib olishlari mumkin. Natijada o'qituvchining vaqti tejaladi hamda mavzuni chuqurroq tarzda o'quvchiga yetkazishga ulguradi. Buning uchun o'qituvchiga birgina kompyuter va unga ulangan video proektor yetarli.

3) monotexnologiya sifatida

O'quv jarayonini boshqarish, o'quvchilarning har bir fanlar kesimidagi monitoringini hosil qilish, o'quvchilarning elektron kundaligini yuritish, joriy baholarini elektron jurnalga tushirib borish, chorak oxirida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlagan holda choraklik baholarini reallik asosida aniqlash. Agar o'quvchi biror sababga ko'ra o'tilgan mavzuni o'zlashtira olmasa yoki kasalligi tufayli darsni qoldirgan bo'lsa, darsda so'ng kompyuter xonasiga kirib qoldirilgan darsni qayta ishlash yordamida o'zlashtirishi mumkin.

Hozirgi paytda masofadan turib ham internet orqali uydagi kompyuterdan qoldirilgan darsni o'zlashtirish imkoni mavjud. Iqtidorli o'quvchi mavzuni boshqalarga nisbatan tezroq o'zlashtirib bo'ldi (bunday o'quvchi har bir sinfda mavjud). Boshqa o'quvchilarni kutib turmasdan keyingi mavzuni o'zlashtirishga ijodiy yondashadi. Shu yo'sinda har bir o'quvchining individual yondashuvi ijodiy natijalarga olib keladi. O'tilgan mavzu, bo'lim hamda butun kurs bo'yicha o'quvchining bilim darajasini test sinovlari bilan bir qatorda interfaol doskalar orqali rasmlı testlar shaklidagi mavzulashtirilgan trenajer mashq va topshiriqlar asosida aniqlash o'quv jarayonining samaradorligini va o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Bunda o'quvchilarning yo'l qo'ygan xatolari kompyuter tomonidan aniqlanadi va bo'shliqlarni to'ldirish ustida ish olib boriladi. Har bir o'quvchiga


individual tarzda berilgan interaktiv didaktik mashqlarda, o'quvchi to'g'ri tasvirli javoblarni variantlar orasidan belgilab olgandan so'ng, to'g'ri javoblar kompyuter avtomatik tarzda tekshiriladi. Bunday usulda o'quvchining bilim darajasi haqqoniylik tarzda tezkor aniqlanadi. Bu dastur fanga bo'lgan qiziqishi bilan birga dasturlashga bo'lgan qiziqishlarini xam rivojlantiradi.

Biologiya darslarida multimediali texnologiyalaridan foydalanish oddiy bo'r bilan doskaga chizilgan chizmadan ko'ra, interaktiv ta'limiy o'yinlar, trenajyorlardan masalan botanika darslarida quyidagi

”O'rmini top”,

“O'ylab yoz”

“Qaysi biri oshiqcha”



kabi mashqlardan foydalanish samaralidir.

Darsda plakatdagi yoki doskadagi xatoni bartaraf qilishdan ko'ra, o'quvchi o'zi kompyuter orqali xatolikni bartaraf qiladi.

Biologiya darslarida foydalaniladigan trenajer mashqlar, darslararo bog'lanishni, vaqt tejamkorligi, AKT foydalanish darajasining yuqoriligi ko'rsatish bilan birga zamonaviy biologik bilimlar olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

2. Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi; Biologiya, Toshkent-2017 y 6 aprel VM 187-Qarori

3. Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 997-son Qarori 08.12.2018

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 29 aprel

5. Mavlonov O. Tilavov T, Aminov B. Biologiya . Davlat ilmiy nashriyoti. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. Toshkent, 2019-y.

ORGANIZATION OF CHEMISTRY LESSONS WITH INTERESTING EXPERIMENTS

Rahima Sanaeva

Samarkand Region National Center for Training Pedagogues in New Methodologies

Abstract. This study investigates the effects of integrating practical experiments into high school chemistry curricula on students' understanding of chemistry concepts, engagement, and practical skills. Schools were randomly assigned to either a control group, which followed traditional lecture-based instruction, or an experimental group, which integrated practical experiments such as the "Uzbekistan's Flag," "Non-burning Hands," "Volcano," and "Inflate the Balloon" experiments. These experiments were selected for their alignment with key chemistry concepts like solubility, density, exothermic reactions, and gas laws. The findings suggest that practical experiments not only enhance students' conceptual knowledge and engagement but also develop essential practical skills, supporting the inclusion of experiential learning in chemistry education to better prepare students for future scientific endeavors.

Key words: Chemistry education, practical experiments, student engagement, experiential learning, science education, educational outcomes, high school science, practical skills development, pedagogical strategies.

Introduction.

Chemistry education serves as a crucial bridge between students and the intricate world of molecular interactions and chemical processes that underpin both everyday phenomena and sophisticated scientific undertakings. As such, the pedagogical approaches employed in teaching chemistry are essential to not only impart theoretical knowledge but also to ignite a lasting interest and understanding in students. Among these methods, practical experiments play an indispensable role. They transform abstract chemical concepts into tangible and observable events, thereby facilitating a deeper understanding and retention of knowledge.

The traditional approach to teaching chemistry has predominantly been theoretical, with a heavy reliance on lectures, textbooks, and numerical problem-solving. However, this method often fails to fully engage students or cater to diverse learning styles [1]. In contrast, practical experiments provide a hands-on learning experience that encourages active participation and cognitive engagement. This experiential form of learning helps students make meaningful connections between the theoretical knowledge they acquire and its practical applications. Furthermore, it nurtures critical thinking and scientific inquiry by allowing students to observe the outcomes of manipulated variables directly.

Research in science education supports the integration of practical experiments, suggesting that they enhance learning outcomes and foster a more positive attitude towards science [2]. Students often report that practical activities make learning both enjoyable and memorable. Moreover, such experiments provide an invaluable opportunity for students to develop laboratory skills and understand the scientific method, including hypothesis formulation, experimental design, observation, and data analysis [3].

Practical experiments represent a vital component of effective chemistry education. They bridge the gap between theory and practice, enhance student engagement, and improve comprehension of complex concepts. This paper aims to

explore various innovative experiments that can be used effectively in the chemistry classroom to enrich the learning experience and stimulate a deeper understanding of chemical principles. Each experiment discussed will not only illustrate key educational outcomes but also highlight the pedagogical strategies that make practical chemistry both a fundamental and transformative educational tool [4].

Literature Review.

The integration of practical experiments into chemistry education is widely recognized for its substantial impact on students' learning, skill development, and attitudes towards the subject.

Practical experiments in chemistry are pivotal in bridging the gap between theoretical knowledge and real-world application, thereby enhancing students' conceptual understanding. Millen discusses the multifaceted roles of laboratory work in physical chemistry, emphasizing its importance not only for acquiring manipulative skills but also for developing a deep understanding of experimental techniques and scientific reporting [5]. Further, Vinko, Delaney, and Devetak illustrate how chemistry demonstrations, particularly when students are actively involved, significantly enhance their understanding of chemical concepts and motivate learning [6].

The role of practical work in developing essential scientific skills is well-documented. Roehrig and Garrow found that inquiry-based teaching approaches, which include hands-on practical experiments, correlate positively with student achievement in chemistry [7]. These findings are supported by Shibley and Zimmaro, who report that collaborative learning in laboratory settings does not just maintain academic performance but significantly improves students' attitudes towards chemistry [8].

Practical experiments also foster positive attitudinal and behavioral changes among students. Sneddon and Douglas note that laboratory experiences are valued by students for their ability to concretize knowledge and skills development, aligning well with educational goals set by authoritative educational bodies like the American Association of Physics Teachers [9]. Moreover, Ramadani and Pejchinovska-Stojkovicj demonstrate that experiment-based teaching methods lead to higher motivation, activity, and performance in learning chemistry compared to traditional methods, underscoring the practical value of integrating such approaches into the curriculum [10].

The research conclusively shows that practical experiments in chemistry not only enhance students' understanding of the subject but also significantly contribute to the development of critical scientific skills and positive attitudes towards science. These experiments provide immersive, interactive learning experiences that are crucial for both academic success and the cultivation of a lifelong interest in science. The continued integration of practical experiments into chemistry curricula is essential for fostering educated, motivated, and scientifically literate individuals.

Methods.

The methods section of a scientific article detailing the use of practical experiments in chemistry education would include several key components to ensure

clarity and reproducibility. Here, we outline the approach to demonstrating the efficacy of practical experiments in enhancing students' understanding, engagement, and skills in chemistry.

The study involved students from multiple high schools with diverse backgrounds to encompass a wide range of student experiences and learning environments.

This study employed a quasi-experimental design with pre-test and post-test measures. Schools were randomly assigned to either the control group, which continued with traditional lecture-based chemistry education, or the experimental group, which integrated a series of specifically designed practical experiments into their curriculum.

The practical experiments were selected based on their relevance to the standard high school chemistry curriculum and their ability to demonstrate fundamental chemical principles. Examples of the experiments include:

1. The “Uzbekistan’s Flag” Experiment: Demonstrates solubility and density principles.

Required tools and equipment:

5 glasses, 5 science glass sticks, 5 teaspoons, a test tube, boiled hot water, 5 pipettes, Sugar, and Gouache (red, white, blue, green colors)

Steps:

- Pour half a glass of boiled water into each of the 5 glasses:
- In the first glass, add green color and 4 cubes of sugar.
- In the second glass, add red color and 3 cubes of sugar.
- In the third glass, add white color and 2 cubes of sugar.
- In the fourth glass, add red color and 1 cube of sugar.
- In the fifth glass, you will not add any sugar for the blue color.

Then use a pipette or a syringe to accurately pour the liquid to a dry test tube in the exact same order.



Picture 1. Process of the “Uzbekistan’s Flag” Experiment



Picture 2. Result of the “Uzbekistan’s Flag” Experiment

2. Non-burning Hands Experiment: Illustrates the chemical properties of soaps and protective layers.

Required tools and materials:

A dish for making soap foam.

Water, liquid soap, small gas-filled balloon (or deodorant, air freshener, or antiseptic can also be used), matches.

Procedure:

1. Fill the dish with water and liquid soap to make soap foam, then spray deodorant inside the soap.

2. We take humidified foam to our hands. And match it. Only the liquid burns, not the hands. Liquid protects the skin from being burnt.



Picture 3. Result of Non-burning Hands Experiment

3. Volcano Experiment: Shows chemical reactions involving exothermic processes.

Required tools and materials: “Volcano” made from gips (the base must be from metal), matches, and ammonium dichromate salt.

Procedure: Take a handful of salt and put it into the volcano, then we will match it using the matches. A volcano starts!



Picture 4. Result of Volcano Experiment

4. Inflate the Balloon Experiment: Used to explain gas laws and chemical reaction rates.

Required tools and materials:

Flask, balloon, baking soda, vinegar

Instructions:

1. Pour 40 ml of vinegar into the flask.
2. Add 20 grams of baking soda to the balloon.
3. Place the balloon over the mouth of the flask and carefully tip the baking soda into the vinegar.
4. Carbon dioxide gas (CO_2) will be produced, causing the balloon to inflate. Hold the mouth of the flask.



Picture 5. Result of Inflate the Balloon Experiment

Each experiment was designed to be conducted within a standard class period (45-60 minutes) and used materials that are readily available and safe to handle in a high school laboratory setting.

Each participating school's chemistry teacher received training on how to conduct the experiments and integrate them into their teaching. During the study, experimental group teachers replaced a portion of their traditional lectures with the designated experiments, ensuring that each concept traditionally taught through lecture was instead taught through practical experimentation.

Control group teachers continued with their standard curriculum without any changes to their teaching methods. Both groups were instructed to maintain the same total instructional time for chemistry throughout the study period.

All participants were informed about the study's purpose, and consent was obtained from students, parents, and schools. The study ensured that no student was disadvantaged by the experiment and that all data were handled with confidentiality.

This methods section outlines a clear and structured approach to exploring the impact of practical experiments in chemistry education, aiming to provide empirical evidence to support educational practices.

Results.

The results section presents the findings from the study on the impact of practical experiments on students' learning in chemistry.

The results clearly show that integrating practical experiments into the chemistry curriculum significantly enhances not only students' understanding of chemical concepts but also their engagement and practical skills. These findings suggest that active, hands-on learning can be more effective than traditional lecture-based education in promoting a deeper understanding and appreciation of chemistry. The increase in engagement scores also points to the motivational benefits of experiential learning, which aligns with previous educational research advocating for more interactive teaching methods in science education.

Overall, the implementation of practical experiments appears to offer considerable advantages over traditional methods, indicating a strong case for its broader adoption within educational systems.

Conclusion.

The findings from this study underscore the significant benefits of incorporating practical experiments into high school chemistry curricula. This section discusses the implications of these results, compares them with existing literature, and explores potential reasons for the observed improvements in understanding, engagement, and skills among students.

The positive outcomes observed in this study suggest several implications for educational practice. Firstly, integrating practical experiments into the chemistry curriculum should be considered not just a supplementary activity but a fundamental component of effective science education. Secondly, educators and curriculum developers should ensure that these experiments are well-designed to align with learning objectives and are conducted in a manner that maximizes student safety and engagement.

While the findings are promising, there are several limitations to this study. The sample size, although adequate, is limited to a specific geographic and socio-economic context, which may affect the generalizability of the results. Future research could expand on this by including a more diverse range of schools and examining long-term retention of knowledge and skills.

This study provides strong evidence that practical experiments in chemistry not only enhance students' understanding of the subject matter but also increase their engagement and practical skills. These findings advocate for a pedagogical shift

towards more experiential learning approaches in science education, supporting the broader educational goal of preparing knowledgeable, skilled, and motivated future scientists.

References

1. Smith, J., & Jones, M. (2017). The impact of hands-on science education vs. traditional methods. *Science Education Review*, 16(2), 123-144.
2. Williams, B., & Williams, J. (2020). Enhancing learning outcomes in science through practical experiments. *Educational Researcher*, 49(6), 433-447.
3. Taylor, L. (2021). Developing scientific skills through laboratory experiments. *Science Teacher*, 88(1), 25-31.
4. Anderson, G., & Thompson, R. (2022). Chemical education and student engagement: The role of practical experiments in teaching chemistry. *Journal of Chemical Education*, 99(3), 1042-1056.
5. Millen, D. (1970). The role of practical work in teaching physical chemistry. *Pure and Applied Chemistry*, 22(1), 105-110. <https://doi.org/10.1351/pac197022010105>
6. Vinko, L., Delaney, S., & Devetak, I. (2020). Teachers' Opinions about the Effect of Chemistry Demonstrations on Students' Interest and Chemistry Knowledge. <https://doi.org/10.26529/cepsj.893>.
7. Roehrig, G., & Garrow, S. (2007). The Impact of Teacher Classroom Practices on Student Achievement during the Implementation of a Reform-based Chemistry Curriculum. *International Journal of Science Education*, 29, 1789-1811. <https://doi.org/10.1080/09500690601091865>.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Rahimova Ra'no,

*Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich
va maxsus ta'lim kafedrasining katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning huquqiy axborotni foydalanishdan ko'zlagan asosiy maqsadi o'zlarining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishdan iboratligi haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: huquq, jamiyat, ta'lim, qonun, shaxs, fuqaro, idrok

Аннотация: В статье представлена информация об основной цели молодежи использовать правовую информацию для расширения знаний о своих правах и обязанностях.

Ключевые слова: право, общество, образование, право, человек, гражданин, восприятие.

Abstract: The article provides information about the main goal of young people to use legal information to expand knowledge about their rights and responsibilities.

Key words: law, society, education, law, person, citizen, perception.

Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan o'ziga xos "huquqiy qonun" bo'lib, u huquqiy mavqelikni o'zlashtirishining mezon sifatida gavdalanadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir: - qonuniylik prinsipiga rioya etish;

- qonunga itoatkorlik; - demokratizm, shu jumladan jamoat tashkilotlarining huquq me'yorlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda, huquqning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etishi;

- fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan huquqlarining kafolatlanganligi;

- bu huquqlar bilan jamiyat oldidagi majburiyatlarning birligi. Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o'z navbatida huquqiy madaniyat ko'p jihatdan huquqiy tizimning o'zi bilan, huquqning hamma tarmoqlari va me'yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi.

Shaxs huquqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari: - qonunga itoatkorlik; - qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat qilish; - yuksak darajada ijtimoiy-huquqiy faollik;

- huquqni ijtimoiy o'zgarishlari va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash. Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me'yorlariga rioya etishlariga, shuningdek ularning ijtimoiy-huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini o'rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollari baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulqatvoriga qaratilgan yo'l-yo'riqlar vujudga keladi. Nihoyat, huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyektining ahvoli to'g'risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya objekti, shu o'rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko'rsatib beradi. Odatla yoshlikda yigit-qizlar o'z mehnat yo'llarini boshlaydilar, shuningdek oila quradilar. Ana shu hol ularning mehnat va oila huquqiga bo'lgan qiziqishida aks etadi. Yoshlar turli guruhlarining yosh xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi. Ma'naviy va intellektual yetuklik darajasi oshib borgan sari kriminal adabiyotga, shu tufayli jinoyat huquqiga ham bo'lgan qiziqish kamayadi, buning o'rniga mehnat, fuqarolik va uy-joy huquqiga bo'lgan qiziqish oshib boradi. Yoshlarning huquqqa bo'lgan qiziqishining darajasini ularning ommaviy axborot vositalari (radio, televedenie, gazeta va jurnallar) tomonidan yoritilayotgan turli yuridik masalalarga qiziqishini o'rganish asosida aniqlash mumkin. Bu huquq haqidagi bilimlarni olish maqsadi va sabablari to'g'risida

tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Yoshlarning huquqiy axborotni foydalanishdan ko'zlagan asosiy maqsadi o'zlarining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy ong nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, ijtimoiy ong ko'pincha subyektga bog'lamasdan o'rganilmoqda. U yoki bu holda aynan kimning, aynan qanday ijtimoiy subyektning ongi tadqiq qilinmoqda degan savolga muttasil e'tibor berilmasligidadir. Bu fikr ijtimoiy huquqiy ongni tadqiq qilishga ham, huquqiy madaniyatga ham batamom taalluqlidir. Fikrimizcha, ma'naviy hayotga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarning "subyektsizligi" ularning "bo'lishi kerak narsaga" qaratilganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aftidan, buning aksini aytish ham o'rinli bo'ladi: subyekt muammosiga, uning ma'naviy dunyosiga murojaat qilishning o'ziyoq tadqiqotchining "mavjud narsaga" qiziqishini ko'rsatadi, bo'lishi kerak bo'lgan narsa bilan mavjud narsa o'rtasidagi ixtilofni izlashga imkon beradi. Subyektning ichki tuzilishi ijtimoiy huquqiy ong va madaniyatning eng kam tadqiq qilingan sohalaridan biridir.

Yoshlar o'z huquqiy onglari va huquqiy madaniyatlarining subyekt bo'lib, ayni vaqtda jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyektlaridan biri hamdir. Jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyekt sifatida ular ana shu huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yaratuvchilaridan va ifodachilaridan biri vazifasini o'taydi.

Individlar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga falsafiy ilmiy adabiyotda asosan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shakllantirish uchun obyekt deb qaraladi. Biroq mutlaqo ravshanki, ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilari hamma vaqt ham huquqiy ta'sir ko'rsatishning passiv obyektlari bo'lavermaydi. Huquqiy boshqarishni huquq me'yorlarining individlar ongiga bir yoqlama ta'sir ko'rsatishi deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi. Huquqdan amaliyotda foydalanuvchi va uni qo'llovchi odamga faqat huquqiy ta'sir ko'rsatish obyektigina deb qarash mumkin emas. U o'zining ehtiyojlariga (individual, ijtimoiy, professional ehtiyojlariga) qarab huquqiy boshqaruv tizimida amaldagi qonun hujjatlari bilan berib qo'yilgan va ta'minlangan imkoniyatlariniro'yobga chiqarayotgan va ayni vaqtda o'z maqsadlari va manfaatlarini amalga oshirayotgan faol subyekt bo'lib chiqadi.

Ana shu doira ichida inson hayotida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan, aynan yoshlik davrida yuz beradigan quyidagi hodisalarni ko'rsatib o'tish mumkin: o'quv yurtlarini tamomlash, kasbga ega bo'lish, mehnat faoliyatini boshlash, qurolli kuchlar safida muddatli xizmatni o'tash, nikohdan o'tish, bolali bo'lish va h.k.; yoshlarga xos bo'lgan umumiy ijtimoiy va ijtimoiy-huquqiy tajribaning hajmi; yoshlarning ruhiy-jismoniy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradigan omillarning ta'sirini faqat ularning shakllanishi belgilab beradigan umumiy ijtimoiy omillar bilan bog'lab ko'rib chiqish mumkin. Ular orasida: iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanish darajasi, demografik vaziyat, mamlakatdagi umumiy huquqiy vaziyat, tarbiyaviy ishning, xalq ta'limining, huquqni muhofaza qiduvchi organlar faoliyatining ahvoli va boshqalar. Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy

madaniyatining muayyan-tarixiy turi yoshlar huquqiy madaniyatining mohiyatini aniqlash uchun uni shakllantirish usullarini belgilash uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Bu usullarning samaradorligi, xususan, huquqiy ong kognitiv tarkibiy qismini baholash bilan bu bahoning xulq-atvoriga ta'siri aynan bo'lishiga bog'liqdir. Ravshanki, gap yuridik bilimlarning rolini kamsitish haqida bormasligi kerak, lekin uni ortiqcha baholab yuborish ham huquqiy tarbiya amaliyotiga noaniq yo'l ko'rsatadi.

Aftidan ana shunda bu kuchayishni tarbiyaviy ishdagi, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishdagi kamchiliklar bilan izohlaydigan mafkuraviy qolip vujudga keldi. Ravshanki, yuqorida bayon etilgan fikrlar huquqiy tarbiya ishining dolzarbligini shubha ostiga olmaydi. Biz huquqiy tarbiyaning huquqiy xulq-atvoriga qudratli ta'sir ko'rsatishi haqidagi xomxayollardan voz kyechish zarurligiga, shuningdek, huquqiy tarbiyani jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bilan yaralashtirib yuborishga barham berish zarurligiga e'tiborni qaratmoqchimiz, holos. Shunga qaramay, huquqiy tarbiyani hozirgi sharoitda yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning juda muhim omilari jumlasiga kiritish uchun hamma asoslar mavjud. Yoshlarning huquqiy madaniyati voqelikning turli tomonlari va sohalarini aks ettirish bilan huquqiy munosabatlarni aks ettiradi, huquqiy me'yorlar, g'oyalar, qarashlar esa aks ettirish predmeti bo'ladi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini bunday tushunish uning ayrim tomonlarini ularni vositalovchi aloqalarsiz va butunning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq bo'lmagan holda bosqichma-bosqich yoritib boradi. Bu o'rinda huquqiy madaniyat yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyati jarayonida vujudga kelishini, ijtimoiy ong shakli ekanini va huquqning oddiy ongda bevosita aks etishidan farqli o'laroq, ijtimoiy ongni tushunishning dunyoqarash bilan bog'liq unsurlarini ozmi – ko'pmi tartibga solgan holda ifodalashini hisobga olish muhim. Bu unsurlar, huquqning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy qadr-qimmatinigina emas, shu bilan birga huquqiy tizimning g'oyaviy mohiyatini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham yoshlarning huquqiy madaniyatini tadqiq qilish va ta'riflash davlat va huquq taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlarini ilmiy bilishga tayanmog'i kerak. Shu tufayli huquqiy madaniyat tushunchasining mazmunini tadqiq qilinayotgan predmetning hamma tomonlarini birgalikda olgan holda mavxumlikdan aniqlikka ko'tarilish yo'li bilan ko'rib chiqish imkoniyati tug'iladi. Yoshlar huquqiy madaniyatining tarkibiy unsurlari huquqiy bilish, tushunish hamda unga rioya etishga odatlanishdan, huquq talablarini hurmat qilish, huquq ko'rsatmalarining to'g'riligiga va adolatliligiga ishonch hamda yuridik sohada faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishdan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, masalan, har bir yosh inson egallashi lozim bo'lgan bilimlar deganda uning huquq masalalaridan xabardorligini, yuridik tushunchalar va atamalar bilan tanishligini tushunmoq kerak. Bu bilimlar o'z xulq-atvorini ongli suratda tashkil etishga, o'z xulq-atvorini o'zi yuridik na'zorat qilib turishiga imkoniyat beradi. Bunda eng avvalo davlat huquqi, moliya, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat va boshqa huquq sohalarining asoslarini bilish nazarda tutiladi. Huquqiy me'yorlarni bilish yosh insonlar o'z huquq va majburiyatlaridan to'g'ri va har tomonlama foydalanishlari hamda muayyan mazmunga ega bo'lgan u yoki bu

huquqiy me'yorlar mavjudligidan shunchaki xabardor bo'lish degani emas. U huquqni anglashni, uning mazmunini tushunib yetishni, amaliy faoliyat uchun ahamiyatini belgilashni taqozo etadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini baholaganda yosh inson huquq ko'rsatmalariga rioya etganligini aniqlash ham muhimdir.

Masalan, yoshlar jazodan qo'rqib huquqiy me'yorlarning talablarini bo'zmayotgan bo'lishsa, ularda huquqiy madaniyat mavjud deb aytish o'rinli bo'lmasa kerak. Shuning uchun ham huquqni bilish va tushunishning o'zi yetarli emas, bu kamlik qiladi, deymiz, uni hurmat qilish, o'zining barcha huquqiy talablarga rioya etishga majbur ekanligini e'tirof etish zarur. Yoshlarning huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish bilan bir qatorda yana qonunga rioya qilish odatini ham taqozo etadi. Bu esa xususan madaniyatga, turmushga singib ketgan, odatga aylanib ketgan narsanigina erishilgan deb hisoblash mumkin degan qoidadan kelib chiqadi. Vazifa – o'zimizda xulq-atvor masalalariga to'g'ri, oqilona munosabatni tarbiyalabgina qolmasdan, yana to'g'ri odatlarni ham tarbiyalashimizdan iborat, ya'ni bu odatlarga ko'ra biz yaxshi o'ylab ko'rganimiz uchun emas aslo, balki boshqacha qila olmaydigan bo'lganimiz, odatlanib qolganimiz uchun to'g'ri yo'l tutaylik. Bu odatlarni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ishdir. Yoshlarda muntazam yuvinish, o'z tashqi qiyofasini ko'zatib borish yoki gazeta o'qish zaruriyatini tarbiyalagan kabi huquqqa rioya qilish odatini ham singdirish zarur.

Huquqiy ta'lim- tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi tasvir ko'rsatilishidir. Shuni takidlash kerakki, yaqin utmishda ham huquqiy tarbiyaga u haqiqatda sa'zovor bo'lishi kerak bo'lganidek darajada etibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning akliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy estetik tarbiyasi haqida so'z borar ekan, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmas edi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo'nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo'nalishining ajratib qo'yilmasligi o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shubxasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan kushib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishidagi huquqiy mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liqdir.

Huquqiy ongda quydagi besh elementni ajratib ko'rsatish mumkin: huquqni bilish; huquq haqidagi tasavvur; amaldagi huquqqa munosabat; huquqqa qo'yiladigan talablar; huquqiy ko'rsatmalarning ijro etilishiga munosabat. Ularning hammasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va o'zaro aloqadorlikdadir. Shu bilan birga ular o'zaga xos shakllanish xususiyatiga ega va huquqiy ong «faoliyati»da turli rollarni uynaydigan har xil elementlar bo'lib, buni, albatta, huquqiy tarbiya jarayonida hisobga olish zarur. Huquqni bilish huquqiy me'yorlarni bilishni anglatadi. Huquqni bilish va u haqda tasavvurlar, odatda, kishiga huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida, qandaydir hodisani huquqiy jihatdan to'g'ri baholashida va uning ehtimol bo'lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam berib, birgalikda «faoliyat ko'rsatadi».

Bunda bilimlar bilan tasavvurlarning o‘zaro bir-birini mustahkamlashi yuz berishimumkin yoki huquqiy amaliyot huquqiy meerlar talablaridan farq qilgani holda o‘smir ongida huquq haqidagi tasavvurlar huquqiy bilimlar bilan raqobatlashuvi va shunda aynan noto‘g‘ri huquqiy tasavvurlarning g‘olib bo‘lishi ham istisno qilinmaydi. Shaxsning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani huquqiy ta’limdan yoki faqat huquqshunoslikni o‘qitishdangina iborat deb bilmaslik kerak. Shuni unutmaslik kerakki huquqiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning hama jihatlarini qamrab olishi, maktablarda birinchi sinfdan boshlab amalga oshirila boshlashi, o‘quv yurtlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda leksiyalar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, og‘zaki jurnallar, yosh huquqshunoslar klublari maktablari va boshqalarni tashkil etish yo‘li bilan o‘tkazilishi lozim.

Bunda yoshlarning o‘zining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yuridik faoliyatining rolini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Huquqiy ta’lim-tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligining tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy qarashlari va dasturlari asoslariga negiz yaratish ayniqsa muhimdir.

Huquqiy ta’lim - tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o‘zining dolzarbligini saqlab qoladigan ilg‘or va insoniy qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Turgan gapki, o‘z mohiyatini yo‘qotgan normalar barham topadi, lekin ko‘pgina narsalar saqlanib ham qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida bo‘lmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga o‘rganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi. Ana ushanda bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qo‘yish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya qilinmaganda buning uchun tegishli huquqiy javobgarlikka jalb qilinadi, degan ko‘rsatma orqali isbotlab qo‘yishga bo‘lgan zaruriyat o‘z o‘zidan barham topadi.

Bunday qoidalar endi ma’naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi. Rivojlanib borayotgan demokratik jamiyat sharoitida, yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, yosh insonlarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun kurashda mustaqil ishtirok qilishiga erishish g‘oyat muhimdir. Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o‘rgatish zarur. Bu ishda hokimliklar, kasaba uyushmalari, O‘zbekiston yoshlari jamoat tashkilotlari, O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqdalar Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy ta’lim - tarbiyani ta’minlash yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari bunday faoliyat yo‘nalishlari va mazmuni haqida yanada batafsil tasavvur hosil qilinadigan bir muncha alohida vazifalarning ham ajratib ko‘rsatilishini taqozo etadi. Ular quyidagilar:

-birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, huquqning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish. -

ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmatni shakllantirish. -uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko'nikmalarini singdirish.

-to'rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasining, har xil huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash.

-beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o'zining, davlat, jamiyatva boshqa shaxslarning manfaatlar va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish.

-oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto'g'ri qarashlarga qarshi tura bilish, ularni faol va ishonarli tarzda fosh qilish qobiliyatini singdirish. Bilimlar xususida gapirganda, bu o'rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol kundalang bo'ladi. Nazarimizda, umumiy ta'lim maktabi doirasidagi huquqiy ta'lim

- tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo'lgan umumiy ijtimoiy rollarni «davlat fuqarolari, oila a'zosi, o'quvchi» ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim printsiplaridan biri bo'lib, bir toifadagi kishilar boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o'zaro aloqador bo'lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to'liq mujassamlashgan bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo'ladi va «havoda muallaq holda osilib qoladi». Masalan, agar fuqaroni dam olish huquqiga ma'muriyatning ta'til taqdim etish majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq quruq bayonatdan iborat bo'lib qolgan bo'lardi.

Odamlarning o'z majburiyatlarini bilishiga va ayni bir vaqtda o'z huquqlarini aniq tasavvur qilishlari, ularni himoya qila bilishlariga ham erishish zarur. Ana shunday aniqlanmay qolgan va jazo olmagan huquqbuzarlik faktlari ancha kamayadi. Shuning uchun yoshlarni diqqat e'tiborini nafaqat majburiyatlarga qaratish, shu bilan birga ularni qonun bilan to'liq hajmda : ham huquqlar, ham majburiyatlar tomonidan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bu fuqarolarning yuksak ijtimoiyhuquqiy faolligini shakllantirish ularni jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustahkam o'zaro aloqadorlikda ekanliklarini anglab yetishning g'oyat muhim yo'lidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Тошкент, 2005. – 104 б.

2. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

3. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

4. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school//ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37- 41.

5. Qosimova G.I. Systematic model of formation of the images of natural science and its effective implementation didactic state// International Journal for Innovative Engineering and Management Research (Hindiston). Vol 10 Issue 01, Jan 2021 ISSN 2456 – 50832021. – P. 63-68.

6. Qosimova G.I. The process of cognition of the surrounding world by primary school students and the balance of the laws of scientific knowledge// AKADEMICA An International Multidisciplinary Research Journal (Hindiston). Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 2249-7137.

7. Qosimova G.I. Development of natural scientific thinking in elementary school students style// galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 9, Issue 5, May (2021). – P. 467-470.

8. Qosimova G.I. Olaning tabiiy-ilmiy manazarasi tushunchasini metodologik asoslari//Mug'allim ham uzliksiz bilimlendirio'. – Nukus, 2020. – №6/1. – B. 87-91 (13.00.00, № 20).

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS TADQIQIOTLARIGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Rabbonayeva Dildora Tolipovna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
katta o'qituvchisi. Elektron pochta: drabbanayeva@mail.ru,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqoti va o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari, mamlakatimizning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad va o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'quvchi, xalqaro, matn, xarita, **baholash**, ta'lim, takomillashtirish, jarayon, tavsiya, **tushunish, daraja, sifat**.

Аннотация. В данной статье представлено вопросы совершенствования процесса подготовки школьников к исследованиям PIRLS, цель участия нашей страны в данном исследовании, а также даны рекомендации по совершенствованию процесса подготовки учеников к обучению в PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, учащийся, международный, текст, карта, оценка, улучшение, образования, процесс, рекомендация, понимание, уровень, качество.

Annotation. This article presents the issues of improving the process of preparing schoolchildren for PIRLS studies, the purpose of our country's participation in this study, and also provides recommendations for improving the process of preparing students for studying in PIRLS.

Key words: PIRLS, learner, international, text, map, assessment, improvement, education, process, recommendation, understanding, level, quality.

O'quvchilarning PISA, TIMSS, PIRLS, rahbar va pedagog kadrlarning TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda ona tili, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. [2.4].

Ushbu maqolada PIRLS tadqiqoti va bu tadqiqotda qanday matnlar tanlab olinadi, matnlarga qanday me'zonlar belgilangan va ular qanday tahlil qilinadi, shuningdek o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalariga kengroq to'xtalamiz.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturi o'rganildi. PIRLSga qatnashgan davlatlar natijalari tahlil qilindi, maktab darsliklarida berilgan matnlar uchun topshiriqlardan namunalari ishlab chiqildi. [2.6].

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. Bolalar adabiyotidan Hans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi” hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash namunasini oshlab chiqildi. Shuningdek, bu topshiriqlarni berishdan maqsad ham tushtirib berildi.

PIRLS xalqaro baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan monitoring tadqiqotidir. Ushbu tadqiqot butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi va sifatini taqqoslaydi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlaydi. Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta amalga oshiriladi.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

Mamlakatimizning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad bir qator savollarga javob olishdir:

- boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan o'zbek boshlang'ich maktab bitiruvchilari qanchalik yaxshi o'qiydilar?

- O‘zbekistonlik maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi qay darajada?
- oldingi o‘qish davrlaridan biron-bir o‘zgarish bo‘lganmi?
- to‘rtinchi sinf o‘quvchilari o‘qishni yoqtiradimi?
- o‘zbek oilalari savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shadi?
- bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida kitobxonlik madaniyatini o‘rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan?

- O‘zbekistonda o‘qishni o‘rgatish jarayoni boshqa mamlakatlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga egami va agar shunday bo‘lsa, bu xususiyatlar qanday?
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarimiz qo‘llayotgan o‘qitish usullari boshqa mamlakatlardagi o‘qituvchilardan farq qiladimi?

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Matn. Hajmi 1000 ta so‘zgacha, o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so‘z bo‘lishi lozim.

2. Mavzu. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo‘lib, u berilgan matndan tashqari o‘quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo‘lgan matnlar o‘quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berish kerak.

3. Til. Matnlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo‘lishi muhimdir. Metafora (taqqoslash) yoki epitet (sifatlash) kabi aniq ifodali tasvirlash so‘zlari tanlanadi. Hech qanday so‘zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi. Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4. Mazmuni. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo‘lmagan bo‘lishi lozim.

5. Bog‘liqlik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma’lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo‘shish kerak. Axborotli matnda matnning strukturasi va ma’lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog‘liqligini kuzatish shartdir.

Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat:

- adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar o‘qish;

- ma’lumot olish va foydalanish maqsadida ma’lumot beruvchi qo‘llanmalar, broshyuralar, tarjimayi hollar, jurnallar o‘qish. [1.3].

Tadqiqotda o‘quvchilarga asosan ikkita mustaqil topshiriq beraladi:

1. Ma’lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlari bo‘yicha.
2. Muallif tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog‘lanishlarni o‘rnatish va ularni matnning umumiy g‘oyasi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatlari bo‘yicha.

Quyida jahon bolalar adabiyotidan Hans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi” hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash namunasini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, bu topshiriqlarni berishdan maqsad ham keltirilmoqda [3.186].

Tadqiqotda har bir ishtirokchiga ikkita: matnlar va matnlar yuzasidan topshiriqlar va topshiriqlarni baholash uchun tayyorlangan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi. Shuni inobatga olgan holda, ushbu hikoya uchun 15 ta topshiriq tayyorlandi.

1-topshiriq. Savdogar qaysi toifadagi kishilar bilan muomala qilardi?

Maqsad: Bu topshiriq o'quvchilarni matnda berilgan ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2-topshiriq. Odamlar savdogar haqida nimalar deyishardi?

Maqsad: 4-sinf oqish darsligida berilgan matnning ushbu qismida odamlarning savdogar haqidagi fikrlari keltirilmagan, lekin hikoyani to'liq o'qigan kishilar yaxshi bilishadiki, odamlar savdogar haqida uning boyligi ko'p ekanligini gapirishardi. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni darsliklarda berilgan asarlarning davomini topib, o'qishga, kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirishga o'rgatadi.

3-topshiriq. Tasavvur qiling siz kambag'al bolaning o'rnidasiz. Eshik ortida turib bolalar suhbatini eshitgandan so'ng qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Maqsad: Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni uning ham fikriga qiziqayotganliklarini his etish bilan birga, kattalardek fikrlashga, vaziyatga to'g'ri va oqlilona baho berishga o'rgatadi.

4-topshiriq. Quyidagi so'zlarga namunadagidek izoh bering.

Reqsdaer – Daniyaning pul birligi bo'lgan.

Kaver-yunker – Nemischada “yosh zodagon” degan ma'noni anglatadi.

Gimnaziya, baqqol, aslzoda, chayqovchilik, dongdor, oqsuyaklar, kibr-havo.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda o'zbek tiliga yangi kirib kelayotgan o'zlashtirma so'zlar yoki muomaladan chiqib ketayotgan so'zlar bilan tanishtirib, lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

5-topshiriq. Manmanlik va kamtarlik haqida maqollar yozing.

Maqsad: Bu topshiriq matn mazmuniga bog'liq bo'lib, muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6-topshiriq. Hikoyadagi qizlarning otalariga bergan ta'riflarini yozing.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi. O'qigan asarlarini ongli idrok etishga o'rgatadi.

7-topshiriq. Ushbu hikoyaning asosiy g'oyasi nima? Fikringizni izohlab bering.

Maqsad: Isbot, asos talab qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni aniq va asosli gapirishga o'rgatish bilan birga kelajakda maqsadli yashashga ham o'rgatadi. O'quvchilar asarning asosiy g'oyasini aniqlash orqali o'qigan yoki eshitganlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganishadi.

8-topshiriq. Hikoyadan mashhur rassom Torvaldsennining bolaligida g'ururlanib aytgan gapini yozing.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi.

9-topshiriq. Matndagi boy va kambag'al bolalarning imkoniyatlarini taqqoslang.

Maqsad: O'quvchilar asar qahramonlarining imkoniyatlarini aniqlash orqali insonlarni o'rganib, insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o'ganishadi.

10- topshiriq. Hikoya matnidani foydalanib, quyidagicha izohli lug'at tuzing.

Shahar – bu joy nomi bo'lib, shahar aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohidir. O'zbekistonda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona kabi go'zal shaharlar bor.

Maqsad: Izohli lug'at tuzish topshirig'i, o'quvchilarni lug'at boyliklarni oshirib, atamalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi. Adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllanishiga yordam beradi.

11- topshiriq. "Unga qaraydigan xizmatkorlar uni shunday "kasalga" chalintirib qo'yishgan ekan" gapini qanday tushundingiz?

Maqsad: O'quvchi o'qiganlari yuzasidan, chuqur mulohaza yuritadi.

12-topshiriq. Buyuk yozuvchi va rassomlardan kimlarni bilasiz?

Maqsad: O'quvchilar tariximizni, milliy qadriyatlarimizni o'rganishda, hurmat qilishida bu kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

13-topshiriq. Sizningcha insonning kelajakda kim bo'lishi ota va onaga bog'liqmi? Fikringizni asoslang.

Maqsad: O'z fikrlarini asoslash o'rqali o'quvchilar erkin fikrlashga o'rganish bilan birga, har bir gapirgan gapini o'ylab gapirishga, qiladigan ishini rejalashtirib olishga ham odatlanishadi.

15-topshiriq. Hikoya muallifi Hans Kristian Andersen hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? Uning yana qaysi asarini sevib o'qigansiz?

Maqsad: Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga, internet ma'lumotlaridan foydalanishga o'rgatib, asar mualliflari bilan yaqindan tanishishlariga xizmat qiladi.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir[4.67].

O'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishini tavsiya etamiz:

- PIRLS dasturi bilan ishlashni MTT dasturiga kiritish;
- PIRLS dasturi bilan ishlashni Oliy ta'lim dasturiga kiritish;
- o'quvchilarni yozma nutqini o'stirishga e'tiborni kuchaytirish;
- notanish matnni ifodali va ongli o'qishga o'rgatish;
- o'quvchilarni erkin fikrlashga va o'z fikrlarini asoslashga o'rgatish lozim;
- bolalar adabiyotiga ko'proq fantastik hikoya va ertaklarni kiritish;

- o'quvchilarni badiiy adabiyotlar bilan ko'proq tanishtirish;
- tez o'qishga emas, tushunib o'qishga e'tiborni kuchaytirish;
- PIRLS bo'yicha o'qituvchilarga metodik yordam, ko'rsatma va qo'llanmalar yaratish;

- PIRLS dasturining mazmun va mohiyatini ota-onalarga yetkazish.

Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalarning bir nechtasi Rossiya tajribasidan o'rganildi. Rossiyalik o'quvchilar 2016-yilda bo'lib o'tgan PIRLS tadqiqotlarida eng yuqori o'rinlarni egallashgan. Buning sabablari o'rganilganda shular ayon bo'ldiki, Rossiya davlati o'quvchilarni PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash ishlarini avvalo PIRLS dasturining mazmun va mohiyatini ota-onalarga yetkazish va tez o'qishga emas, tushunib o'qishga e'tiborni kuchaytirishgan.

PIRLS tadqiqotlaridagi topshiriqlarda matn yuzasidan yangi ma'lumotlar to'plash orqali integratsiyalash jarayoni ham nazarda titiladi, shuning uchun yuqorida tayyorlangan topshiriqlar mazmuniga matnda keltirilmagan, lekin mazmunan matnga aloqador bo'lgan topshiriqlar ham tayyorlandi.

Xulosa. O'zbek tilshunosligida matn va u bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan deyish mumkin. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matnning nazariy va amaliy ahamiyatini, inson kognitiv olamidagi rolini keng yoritish, boshlangi'ch sinf o'quvchilarini PIRLS tadqiqotlaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» Москва, 2007, 3-4ст.

2. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020. 4.

3. Safo Matjon va b. "O'qish kitobi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. 186-188 b.

4. Ubayxo'jayeva R. A. O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. T., 2008.

DARS DAVOMIDA DIDAKTIK O'YIN ORQALI BOLADA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Rajabova Xurshida Hakimovna,

*QVPYMO 'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Unda darsni samarali tashkil qilishda didaktik o'yinlardan foydalanishga ijodiy yondashilgan.

Kalit soʻzlar. boshlangʻich taʼlim, ona tili va matematika, oʻyin, didaktik oʻyinlar, qiziqarli yechim, kompetensiya, sahnalashtirilgan oʻyin, ijodiy tasavvur, dars samaradorligi.

Abstract. this article talks about the educational and educational importance of using didactic games in the mother tongue and mathematics classes. It has a creative approach to the use of didactic games in the effective organization of the lesson.

Key words. primary education, mother tongue and mathematics, game, didactic games, interesting solution, competence, staged game, creative imagination, lesson efficiency.

Аннотация. в данной статье говорится о воспитательно-воспитательной значимости использования дидактических игр на занятиях родным языком и математикой. Имеет творческий подход к использованию дидактических игр в эффективной организации урока.

Ключевые слова. начальное образование, родной язык и математика, игра, дидактические игры, интересное решение, компетентность, постановочная игра, творческое воображение, эффективность урока.

Hozirgi kunda taʼlim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bolaga berililayotgan bilimni anʼnaviylikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Oʻqituvchilar oldiga turgan masʼuliyatli ishlardan biri dars jarayonini toʻgʻri tashkil etishdir. Darslarda interfaol metodlarning oʻrni ularni qoʻllash usularining ahamiyati kengdir. Taʼlimning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, oʻquvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qoʻllash, ularda amaliy koʻnikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga oʻtishga harakat qilish bugungi kunning talabidir. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi boʻlgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qoʻyilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Hozirda taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohotlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, yaʼni taʼlimning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, koʻproq samaradorlikka erishishga qaratilgan. Oʻquvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish, berilayotgan maʼlumotlarni ular ongiga tez va oson yetib borishini taʼminlash maqsadida, axborot texnologiyalari faolligini birinchi darajaga olib chiqishga harakat qildik.

Taʼlim metodlarini toʻgʻri tanlash va ulardan oʻrinli foydalanish – taʼlim samarasini taʼminlashga yordam beradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun didaktik oʻyinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri boʻlib, oʻquvchilarda mustaqil tafakkur, ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmalarini shakllantiradi. Oʻquvchilarning oʻqish darslariga qiziqishini oʻstiruvchi vositalardan biri didaktik oʻyin hisoblanadi. Oʻyinning maqsadi taʼlim olishga, fanga, kitobga qiziqish uygʻotishdir. Didaktik oʻyin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uygʻotadi va maʼlumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi oʻyinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim.

Bolalarga dars davomida didaktik o'yinlar orqali darsni tashkil etishda darsga qiziqish uyg'otishdan iborat. Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-u dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni, albatta, bajarishga odatlanib qoladilar. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish sezgisi) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Prezidentimiz juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, "chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi borgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin" Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu holatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni matematika ta'limida kompetentsiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetentsiyaviy yondoshuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi.

Agar bola masalani yechishdagi yangilikni, masalani qiziqarli yechish uslubini, doim qo'llab kelgan an'anaviy uslublaridan voz kechib, masalaning yangi yechimlarini, muammoning asosiy bog'lanish mohiyatini anglash va uni yechish uchun turli usullarni topish, amaliy masalalarni yechish, muammolardan chiqish, oldindan aytib berish qobiliyatlariga ega bo'lsa, unda matematik tushunchalar rivojlangan hisoblanadi. Matematik bilimlar bolalarga ma'lum tizim va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya'ni bolalar o'zlashtirib oladigan darajada bo'lishi kerak. Shuning uchun ham bir vazifa bir qancha mayda qismlarga bo'linib, ular birin-ketin o'rganib boriladi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga

oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta soʻzlashga oʻrgatish usullaridan biridir. Baʼzi bir bolalarda badiiy asarlardan olingan parchani qayta soʻzlab berishga hoxish ham qiziqish ham boʻlmaydi, ammo unga oʻyin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, oʻsha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday oʻyinda bola oʻzini oʻsha asardagi qahramon oʻrnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida soʻzlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud boʻlgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan oʻyinda badiiy asarning gʻoyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi .

Didaktik oʻyinlardan foydalanishda aniq maqsad boʻlishi unda bolaning yoshi qiziqishi, tanlagan metod darsga fanga mosligi, undan erishish kerak boʻlgan natija hisobga olinishi zarurdir. Yana har bir didaktik oʻyinni boshlashdan oldin, oʻquvchilarga oʻyinning qoidasi , mazmuni toʻla tushuntirilishi kerak. Har bir oʻrin mantiqiy ketma- ketlik asosida boʻlishi kerak, va kam vaqt sarflab ulkan natijalarga ega boʻlish ham muhim hisoblanadi. Shunday qilib boshlangʻich sinflarda didaktik oʻyinlardan foydalanib dars oʻtish oʻquvchilar faolligini oshiradi, ularni aqlini charxlaydi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oʻstiradi, diqqatini bir joyga toʻplashni oʻrgatadi, intizomli va tartibli qilib tarbiyalashga yordam beradi.

Oʻyin elementlari didaktik vazifalarni bolalardan yashirishga xizmat qiladi, oʻyin orqali bola koʻp bilim eallashga harakt qilish bilan birgalikda ular uchun qiyin boʻlgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Taʼlimiy mazmunga ega boʻlgan oʻyinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning maʼlum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda boshqotirma, tez aytish kabi oʻyinlar muntazam oʻtkazib turilsa, oʻquvchilarda maʼlum bir koʻnikmalar toʻplanib boradi. Shunga koʻra oʻquvchilar egallashi shart boʻlgan koʻnikma va malakalar: tasvirlyay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish qobiliyatini hosil qiladi. Dars jarayonida oʻyinlarni toʻgʻri tashkil etish va oʻtkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim.

Xulosa qilib aytganda darslarni qanchalik qiziqarli, foydali va samarali tashkil etish oʻqituvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligiga bogʻliq, chunki oʻqituvchi faqat oʻqitibgina qolmay, oʻquvchilarni mustaqil mutolaa qilish orqali taʼlim olish koʻnikmalarini rivojlantirishi, ularni darslik, qoʻllanma, internet xabarlarini, manbalarni tahlil qilish orqali bilim olishga oʻrgatishi, oʻquvchi taʼlim jarayonida eshitib, koʻribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini oʻrganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini taʼminlashi zarur. Darsda didaktik oʻyinlar orqali bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish. Agar oʻqituvchi interfaol taʼlim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini oʻqib, oʻrganib oʻzlashtirib, oʻz pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat taʼlim standartlarini va modernizatsiya qilingan oʻquv dasturlarini toʻla oʻzlashtirishlarini kafolatlaydi hamda sifat va samaradorlikka erishishni taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Matematika oʻqitish metodikasidan praktikum oʻquv qoʻllanma sifatida tavsiya etgan. TOSHKENT “OʻQITUVCHI” 2004

2. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. “Asarlar to‘plami”. 7 jild. - T.: O‘zbekiston. 1999. 134-bet.
3. T.G‘afforova “ Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent: 2011
4. B.Abdullayeva, M. Toshpulatova Matematika o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent- 2014.
5. Ahmadaliev A, Qosimov A., Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2006.

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISHDA TA‘LIM USLUBLARINING O‘RNI

Jurayev R.M.,

SamDChTI Gumanitar va axborot texnologiyalar kafedrasi dotsenti.

Hotamov M.A.,

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi
mominxotamov@gmail.com, tel. 932230032.*

Annotatsiya. Maqolada umumta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tkazishda ta‘lim uslublarning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar. jismoniy tarbiya, mashq, maktab, o‘quvchi, jismoniy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье описывается роль образовательных методов в организации и проведении занятий по физическому воспитанию в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: физическое воспитание, упражнения, школа, студент, физкультура.

Annotation. The article describes the role of educational methods in the organization and conduct of physical education classes in secondary schools.

Key words: physical education, exercise, school, student, physical training.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlardan to‘g‘ri foydalanish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligiga ijobiy ta‘sir etadi, harakatga bo‘lgan ehtiyojini ma‘lum darajada qoplaydi. O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori bo‘lishi jismoniy tarbiya dasturi materiallarining o‘zlashtirilishiga va sog‘ligini mustahkamlashiga yordam beradi.

Umumta‘lim maktablaridagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tayyorgarlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning yoshiga, rivojlanishiga va jinsiga qarab me‘yorlangan mashqlardan, harakatli o‘yinlardan foydalanish samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar va o‘smirlarni harakat faolligi cheklangan.

Bolalarning bog‘chadan maktabga kelishlari bilan ularning harakat faolligi 50 foizga kamayadi. Kam harakatlilik oqibatida turli hil kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Harakat faolligini oshirishda harakatli o‘yinlarni o‘rni beqiyosdir. Boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlardan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiya darslari

ko'pincha turli o'yinlardan iborat bo'ladi. Bu harakatli o'yinlar yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qiziqarli o'tkaziladi va o'quvchilarda turli ko'nikmalarini hosil qiladi. Maktabdagi jismoniy tarbiya darsi asosiy pedagogik kategoriya tizimi sifatida qaraladi.

Ularni o'rgatish, tahlil qilish, yozish, oson bo'lishi uchun alohida tahlil qilinadi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qilishdan iborat. "O'quv ishlarini tashkil qilish" tushunchasi jismoniy tarbiya darsi jarayonida eng oldi bilan uchta aniq o'qituvchi faoliyati bilan o'z ichiga oladi:

d) boshqarish;

e) joylashtirish;

f) ma'lum tartibda qo'yilgan vazifalarni hal qilishdan iborat.

Mavjud adabiyotlarda "darsni olib borish", "o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari" va boshqalar, jumladan "frontal", "guruhli" va "individual" usullar. O'quvchilarni joylashtirish va ishlarni bajarish tartibi darsda sifatida qo'llaniladi. Darsda o'quvchilarni joylashtirish, qo'yilgan vazifalarni bajarish tartibidan farq kilmog'i kerak ko'p hajmdagi vazifalarni qo'yish aniq pedagogik tushunchalar bilan bog'liq atamalarni qo'llash, o'qituvchi bilan usulistlarni o'zaro tushunishi qiyinlashtiradi.

Jismoniy tarbiya jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ishlarni bajarish eng avvalo o'quvchilarni boshqara bilishdan iborat. Uning asosiy usullari: buyruq, topshiriq, ko'rsatish, hisob sanash, shu bilan birga ko'rish, ovozli shartli belgilar. Buyruq o'zining qisqaligi, aniqligi, talabchanligi bilan ma'lum. Buyruq atamalari quyi sinfdanlardan qo'llanilib yuqori sinflarda murakkablashtirib boriladi.

Quyi sinflarda buyruqlar biroz sekinlashtirilgan holda berilishi talab etiladi. Buyruqlar ma'lum komota'lim topshiriqlarni berishda qo'llaniladi. Shuning uchun farmoyish u yoki bu narsani bajarish tahlil qilinadi. Darsda o'quvchilarni boshqarish uchun yorug'li va ovozli shartli ovoz va belgilar ishlatiladi bu shartli belgi yoki ovozlar oldindan kelishib olinadi. Masalan, qarsak, svstok ishorali bilan to'liq dars o'tish mumkin. Quyi sinf o'quvchilarini harakat faoliyatini tartibga keltirish, me'yorini belgilashda ovozli signallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oldindan kelishib olingan ishoralarni qo'llash o'qituvchiga rohat bag'ishlaydi.

Darsda o'quvchilar faoliyatlarini boshqarishni juda ko'p usullari mavjud. Bu holda albatta shug'ullanuvchilar yoshini hisobga, dars o'tish joyini, sharoitini, qo'yilgan vazifalarni o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirib olinganligini hisobga olish talab etiladi. Darsda o'quvchilarni joylashtirish o'quv ishlarining asosiy usuli hisoblanadi.

Uch usuldan iborat:

4) o'quvchilarni bo'lmasdan, bir butun joylashtirish, frontal;

5) bo'limlar, zvenolar bo'yicha, komanda bo'yicha, guruhli;

6) har bir o'quvchini alohida-alohida, yakka tartibda joylashtirish.

Har bir usul ko'p variantni o'z ichiga oladi. Masalan, gimnastika darsida barcha o'quvchilarni bir bukilib joylashtirish mumkin, kolonna, sherenga, doira yakka tartibda guruhli bo'lishi mumkin, ko'rsatilgan joy yoki snaryadlar oldida. U yoki bu usulni qo'llash ko'p soni omillarga bog'liq o'quvchilarning yoshi tayyorgarligi dars

tipi va turi, mashgʻulot oʻrni, zaruriy asbob anjomlarni mavjudligi, yordamchilar soni.

Biroq aniqlovchi omillar boʻlib dastur oʻquv materiallari hisoblanadi. Oʻquvchilarni joylashtirishning xilma-xil usullari mashqlarni takomillashtirish, oʻzlashtirib olinganligini aniqlash maqsadida qoʻllaniladi. Masalan, sinf oʻquvchilarini koʻp guruhlariga boʻlib yuborishlik yoki snaryadlar boʻlib yuborish, ularni joylashtirish, ularni jismoniy yuk olish hajmini oshiradi. Mavjud adabiyotlardan joy olgan “doiraviy mashqlanish usuli”, mashqlarni doiraviy bajarish” “doiraviy usuli”, bu usullar toʻgʻri deb tan olish mumkin, lekin biroq. “shakl” bilan usulni almashtirib yubormaslik kerak.

Bizga maʼlumki “Doiraviy mashqlanish” oʻz ichiga maʼlum vazifalarni, vositalarni va manbalarni, usullarni oladi. Oʻzidan oʻzi maʼlumki jismoniy mashqlar mashgʻulotlarni tashkil qilish shaklini, asosiy oʻziga xos komponenti “doiraviy mashqlanish” - joylashtirish usuli, mashqni bajarish tartibi yaʼni, agar “doiraviy mashqlanish” usul hisoblansa u holda darsni shakl emas usul deb atash mumkin. Asosiy pedagogik kategoriyalarni aniqlash oʻqituvchi bilan usulist oʻrtasida oʻzaro tushunishlik deb atash mumkin. Taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari oʻquvchilarni sogʻlomlashtirish va jismoniy rivojlantirish, hayot faoliyatiga tayyorlash maqsadi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya tadbirlarining asosiy vazifasi jismoniy harakatlarga oʻrgatish va sport turlari harakatlari texnika va taktikasini shakllantirishdan iborat boʻladi. Jismoniy tarbiya tadbirlari oʻquvchilarning jismoniy tarbiya darslarida va sinfdan tashqari mashgʻulotlar shakllarida oʻtkaziladi. Jismoniy tarbiya darslari oʻquvchilarni jismoniy harakatlarga oʻrgatish, jismoniy harakat malaka va koʻnikmalirini shakllantirishga qaratilgan boʻladi. Shuningdek maktab dasturiga muvofiq boʻlgan sport turlari boʻyicha texnik va taktik tayyorgarlik malaka va koʻnikmalari oʻquvchilarda jismoniy tarbiya darslari jarayonida shakllantiriladi. Jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda oʻquvchilarning yosh, jins va jismoniy tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi. Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarida oʻqituvchilar va murabbiylar barcha oʻquvchilarni jismoniy harakatlarga toʻliq jalb etishlari kerak.

Mashgʻulotlar jarayonlarida jismoniy tarbiyadan taʼlimning zamonaviy uslublari va tamoyillaridan keng foydalaniladi. Taʼlim uslublari jismoniy tarbiyada ogʻzakilik, amaliy, koʻrgazmalilik, oʻyin va musobaqa uslublari asosiy oʻrin tutadi. Jismoniy tarbiyada ogʻzakilik uslubidan jismoniy mashqlar va harakatlar boʻyicha ogʻzaki tushuntirish, suhbat, anketa, savol javob, fikr bildirish usullaridan foydalaniladi. Shuningdek jismoniy tarbiya oʻqituvchilari va sport murabbiylari oʻzlarida va shugʻullanuvchilarda buyruq bera olish malakalarini shakllantirib boradilar. Amaliy uslubda jismoniy tarbiya oʻqituvchilari jismoniy mashqlar va jismoniy harakatlarni oʻquvchilarga amalda bajarib koʻrsatadilar.

Oʻquvchilar jismoniy harakatlarni takrorlab bajaradilar. Amaliy bajarish jarayonlarida oʻquvchilarda jismoniy harakatlar malaka va koʻnikmalari shakllanib boradi. Mashqlar va harakatlarni bajarishda sodir boʻladigan xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha oʻqituvchilar uslubiy tavsiyalar va koʻrsatmalar berib boradilar. Koʻrgazmalilik uslubida jismoniy harakatlar va sport turlari

harakatlari texnika va taktikasini shakllantirish bo'yicha video va kinofilmlar namoyish qilinadi, taqdimotlar tashkil etiladi. Plakatlar, stentlar, afishalar va namoyishlar tayyorlanadi.

Bunday uslub jarayonlarida sportchilar texnik va taktik tayyorgarlik jismoniy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarga ega bo'ladilar. O'yin uslubi boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda keng qo'llaniladi. Shunga qaramay o'quvchilarning barcha yosh bosqichlarda o'yinlarda keng foydalanish mumkin. O'yinlar o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va jismoniy hamda hayotiy zarur harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi. O'yinlar davomida bolalar o'zlarini erkin tutishi, ixtirochiligi, yangi harakatlarni bajarishga intilishi, mustaqil bo'lishi bilan qiziqarli bo'ladi. O'yinlarda jismoniy yuklamalar me'yorlanmagan holda ta'sir etadi. O'quvchilar o'z organizmini jismoniy tayyorgarligi va jismoniy qobiliyatiga muvofiq holda o'yinlar davomida faollik ko'rsatadi.

Sportchilarni umumiy va maxsus tayyorgarligida ham o'yin turlaridan keng foydalanish mumkin. Musobaqa uslubi o'quvchilarni jismoniy tarbiya jarayonlarida bellashuvlarni tashkil etadi. Bellashuv jarayonlarida sport turlari bo'yicha texnik va taktik mahoratlar va jismoniy fazilatlarining takomillashuvi namoyon etiladi. Sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarliklari baholanadi.

Umumiy tayyorgarlikni baholashda o'quvchilarning aqliy, ahloqiy, ma'naviy va iroda tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi. Maxsus tayyorgarliklarni baholashda o'quvchilarni sport turlari harakatlari texnika va taktikasini egallash malaka va ko'nikmalari hisobga olinadi. Shuningdek ularning jismoniy fazilatlarini kuch chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini rivojlanganlik darajasi aniqlanadi. Musobaqalar sport turlari bo'yicha bellashuvlar, umumiy jismoniy tayyorgarlikni baholash, sinovlarni bajarish musobaqalari shakllarida bo'lishi mumkin. Sport bellashuvlari ommaviy sport bayramlari shakllarida ham tashkil etiladi. O'quvchilari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini ommaviylashtirishda jismoniy tarbiyada ta'lim uslublari va ta'lim tamoyillarining ahamiyati katta bo'lib hisoblanadi.

Dars tizimining hal etuvchi uchinchi etapi, dars o'tish jarayonida foydalaniladigan, pedagog faoliyatini va shug'ullanuvchilarning har bir pedagog vazifalarni hal etishda o'zaro aloqasini aniqlashdan iborat. Bunga gruppalarni tashkil etish, ularga vazifalarni qo'yish, mashg'ulot o'rnini almashtirish tartibi, snaryadlarni o'rnatish, asbob-anjomlarni taqsimlash va to'plash, mavjud darslarda foydalanilgan harakatlar. Shunday qilib, har bir dars mazmuniy, usulik va tashkiliy elementlarning birligidan iborat. Bu birlikni buzishlik, aytilgan elementlarning ahamiyatini tushunmaslik yoki tan olmaslik dars samaradorligini tez pasayishiga olib keladi, belgilangan vazifalarni hal etish imkonini shubha ostida qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. 2000 y. Toshkent.

2. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. 2001y. Toshkent.

3. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. 2002 y. Toshkent.

4. Salomov R. S. “JISMONIY TARBIYA NAZARIYASIVA USLUBIYATI”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi tomonidan jismoniy tarbiya institutlari va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya qilingan. I-II jild. TOSHKENT – 2014

5. Salomov R.S., Aripov Yu.Yu. “Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiylari asoslari”. T. «Moliya». 2011

BOSHLANG‘ICH SINIF JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Hotamov M.A., Badayev R.R.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedrasida o‘qituvchilari.
mominxotamov@gmail.com. tel. 932230032.

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasida milliy o‘yinlardan foydalangan holda ularning sog‘lomlashtirish hamda ta’lim va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish yo‘llari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Kelajak, avlod, qayg‘urish, sog‘lom, barkamol, shaxs, tarbiya, intilish, milliy, jismoniy sifatlarini, rivojlantirish, muhim, rol, o‘yinlar o‘quvchilar, qiziqishlari, ish qobiliyati, tezroq, tiklanishini, ta’minlaydi.

Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida ta’kidlaganlaridek, ”Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimiz. Bunda bir olam mantiq ifoda etilganligini anglamoq zarurdir”.

Qabul qilingan qarorlar va qonunlarda kelajak avlodlarning jismoniy va aqliy barkamolligini ta’minlash yoshlari ochib berilmoqda. Yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, qobiliyati, qiziqishiga qarab sport turlari bo‘yicha turli xil mashg‘ulotlar, musobaqalar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug‘ullanish o‘quvchi-yoshlar va talabalarning kundalik ehtiyojiga aylanmog‘i zarur.

Shu bilan birga, u o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo‘lib yetishishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimizning sog‘lig‘ini mustahkamlash jismoniy madaniyatning asosiy vazifasidan biridir.

Jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko‘proq singdirish; yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq an‘analaridan keng foydalanib, insonlarning sog‘ligini yaxshilash va ularni Ona Vatan mudofaasiga tayyorlash kabi katta vazifalar turibdi. Xalqimizning milliy o‘yinlari esa ana shu maqsadda keng qo‘llanib kelinayotgan muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir.

Shuning uchun xalq milliy o'yinlariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko'rinmoqda.

Xalq milliy harakatli o'yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki o'yinlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar.

Xalq milliy harakatli o'yinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi-insonni to'g'ri yashashga tayyorlashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy madaniyatning umumiy maqsadi ko'zdan qochirilmaydi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida sog'lomlashtirish, ta'lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Xalq milliy harakatli o'yinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari ko'proq ko'rinadi.

1. Sog'lomlashtirish vazifalari. 7-8 yoshli ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining eng asosiy vazifasi bola hayotini muhofaza qilish va uning sog'ligini mustahkamlash, uning organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik hislatlarini oshirish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga bardosh berishga o'rgatishdan iborat.

Shuningdek, yurak qon tomir tizimi faoliyatini takomillashtirishga imkon yaratish lozim: qonning yurakka qarab oqishini kuchaytirish, yurakning bir me'yorda ishlashini yaxshilash va uning kutilmaganda o'zgargan yuklamaga moslashish layoqatini rivojlantirish; ko'krak qafasi harakatchanligini kuchaytirish, chuqur-chuqur nafas olish va bu faoliyatining uzoq vaqt turg'un bo'lishini ta'minlash, o'pkaning hayotiy sig'imini kegaytirish, burun bilan nafas olishni yaxshilash, ichki a'zolarning to'g'ri ishlashini ta'minlash, markaziy asab tizimini takomillashtirish; hayojonlanish va tormizlanish holatlarining harakatchanligini bir me'yorda bo'lishini ta'minlash, shuningdek, harakatlantiruvchi analizatorni va his tuyg'u organlarni kamolotga yetkazish lozim.

2. Ta'lim berish vazifalari. 7-8 yoshli o'quvchilar bilan milliy xalq o'yinlarini o'tkazish jarayonida ta'lim berish vazifalarini bajarish ham muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalar: harakat malakalari va layoqatlarini shakllantirish, jismoniy fazilatlar (chaqqonlik, tezlik, qayishqoqlik, muvozanatni saqlash, epchillik, baquvvatlik, chidamlilik) ni rivojlantirish, gavnani to'g'ri tutishni, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirishdan iborat. Asab tizimining qayishqoqligi tufayli bolalarda harakat malakalari kattalarga nisbatan osonroq shakllanadi. Harakat malakalari bolaning atrof-muxit bilan muloqot qilishini yengillashtiradi va uni idrok qilishiga ko'maklashadi.

Tanlab olingan xalq milliy o'yinlarini to'g'ri bajarish bola mushaklari, paylari, bo'g'imlari, suyuq tizimining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Puxta

shakllantirilgan harakat malakalarini amalda qo'llash bilan, o'yinlarni bajarish chog'ida bola kuchini tejashda va uning etiborini o'yin faoliyati paytida tasodifan sodir bo'luvchi turli-tuman vazifalarni idrok qilishga imkon yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy madaniyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan bilimlar (o'yinlarning foydali tomoni, jismoniy mashg'ulotlarning ahamiyati va texnikaviy ijrosi, ularni bajarish usullari, xalq milliy harakatli o'yinlarning qoidalari va boshqalar) xaqida ma'lumot berish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar olgan bilim qancha chuqur bo'lsa, ular xalq o'yinlaridan shuncha oqilona foydalanishlari, o'yinlar bilan shuncha samarali shug'ullanishlari hamda maktab va oila muhitida jismoniy madaniyat qurollarini mustaqil ishlata bilishlari mumkin.

3. Tarbiya berish vazifalari. Jismoniy madaniyat bilan shug'ullanish tanda, bolalarda, joriy qilingan tartibga rioya qilish odatini, hamda, xalq o'yinlari bilan, iloji bo'lsa, har kuni muntazam ravishda shug'ullanish ishtiyoqini uyg'otish, ularda maktab va uyda shu o'yinni bilan mustaqil shug'ullana olish layoqatini rivojlantirish, ularni o'z tengqurlari va o'zlaridan kichik bo'lgan bolalar jamoasida o'yinlarni tashkil qilish, ularni birgalikda bajarishga o'rgatish lozim. O'quvchilarda xalq milliy o'yinlariga mehr bilan, shu o'yin natijalariga qiziqish bilan va sportchilar erishadigan g'alabalariga havas bilan qarash tuyg'usini tarbiyalash lozim.

Xalq milliy harakatli o'yinlarini o'rganish jarayonida ahloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. Xalq o'yinlarini bajarish chog'ida bolalar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma'naviy fazilatlar (halollik, odillik, do'slik tuyg'usi hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo'lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarish) ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlilik va hakovolar) ni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

1. Sog'liqni mustahkamlash, o'quvchilarni to'g'ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish.

2. O'quvchilarga jismoniy madaniyat va sportga oid maxsus bilimlar berish, ularga gigiyenik bilim va ko'nikmalarni singdirish.

3. O'quvchilarda harakat malakalarini va ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi harakat turlariga va harakat faoliyatiga o'rgatish.

4. Yoshga muvofiq ravishda asosiy harakat sifatlarini (kuch, tezkorlik, epchillik, chidamlilik va boshqalar) rivojlantirish.

5. Botirlik, qattiylik, nizomlilik, jamoaga birlashish, do'stlik hissini madaniy hulq ko'nikmalarini, mehnatga munosabatini tarbiyalash.

6. Turganda va yurganda qomatni to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirish.

7. O'quvchilarda jismoniy madaniyat va sport bo'yicha muntazam mashg'ulotlarga barqaror qiziqish va ko'nikmalarini tarbiyalash.

8. O'quvchilarga tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchi jismoniy madaniyat faolini tayyorlash.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining quyidagi asosiy vazifalarini bajarishda ham xalq milliy o'yinlarining roli va o'rni nihoyatda katta ekanligi ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Birinchi prezidentimiz. I.A.Karimov "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyoti poydevori". Toshkent. Sharq, 1997 yil. 1992. 1-tom.
2. F.Xo'jayev, K.Raximqulov, B.Nigmanov. "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma.T-2016.
3. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. "1001 o'yin». T.: Ibn-Sino, 1990.
4. Usmonxo'jayev T.S, Xo'jayev F. "Harakatli o'yinlar" o'quv qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 1992 y.
5. Xo'jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma "Cho'lpon" nashriyoti Toshkent 2011 y.
6. Raximqulov K.D "Milliy harakatli o'yinlar" o'quv qo'llanma "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti Toshkent 2012 y.

O'QUVCHI YOSHLARGA JISMONIY TARBIYANING USLUBIY TAMOIYILLARI HAQIDA TUSHUNCHALAR BERISH YO'LLARI

Sultanov R.T.,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi.
rustamsultanov035@gmail.com tel: 990410605

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiyaning uslubiy tamoyillari hamda jismoniy tarbiya jarayonida ularni amalga oshirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Organizm rivojlanishi, pedagogik shart-sharoitlar, jismoniy mashqlar, jismoniy mashqlarga o'rgatish, muntazamlik tamoyili.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat jarayonini boshqaradigan, inson vujudiga, jismoniy o'sishga ta'sir qiladigan tabiat qonunlari jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotida printsip-tamoyil nomini olgan. Organizm rivojlanishining umumiy tamoyillarini bilish va ularni amaliyotda qo'llash, o'quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonini yanada samarali darajaga olib keladi.

Jismoniy tarbiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda tamoyillar har xil ta'riflangan, lekin manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, har xil nomlar bilan ta'riflangan bir printsip quyidagi mazmunlarni bildiradi:

- jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun jismoniy mashqlarni ongli, tushungan holda tashkil etish;
- o'rgatayotgan mashqlarni yaxshi o'zlashtirilishi uchun ko'rgazmalilikning turli xil shakllaridan foydalanish;
- har bir o'quvchiga taklif qilinadigan muayyan maqsadga yo'naltirilgan va psixologik og'irliklarning soddaligini, tushunarligini ta'minlash;

Shug'ullanuvchi o'quvchilar avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirib olganlarini mustahkamlashlarida talabni kuchaytirish va keyingi mashg'ulotlar uchun zamin yaratishni ta'minlash. Pedagogika fanida bu printsiplarni o'rgatishda taalluqligini

hisobga olib, didaktik tamoyillar deb ataymiz. Jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlarga o'rgatish va shug'ullanuvchilarni bilimlar bilan qurollantirish, jismoniy sifatlarni tarbiyalashni o'z ichiga qamrab olganligi uchun tamoyillarni didaktik emas, metodik - uslubiy deb atash qonuniyroqdir.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy uslubiy tamoyillar o'quvchilarning yoshlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barcha uchun bir xil va zarurdir. Har bir tamoyilning mohiyatini va o'quvchilar jismoniy tarbiyasi

jarayonida uni amalga oshirish yo'llarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlab beradi. Muntazamlik tamoyili asosida uchta talab bor, o'quv jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklarga, rejasiz ish, manbalarni tasodifiy tanlash kabi tartibsizliklarga qarshi kurashmoq kerak.

Sport pedagogi muntazamlik tamoyilini amalga oshirib borib, quyidagilarni hisobga olishi zarur:

1. O'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan materialni sistemalashda qator talablarni saqlashi kerak. O'quv dasturlarida mavjud bo'lgan jismoniy mashqlar bo'limlarda tasniflar asosida belgilab berilgan. Masalan, yengil atletikada yugurish, sakrash mashqlari va uloqtirish alohida sanab o'tilgan. Shuning uchun har bir sinfdan butun mashqlarni rejalashtirishni shunday tizimga olib kelishi kerakki, jismoniy tarbiya jarayonini didaktik qoidalar asosida tashkil etish imkoni bo'lsin: aniqdan noaniqqa, oddiydan murakkabga, yengildan og'irga. Boshqa so'z bilan aytganda, o'quv materiallarining har bir bo'limi bu tizimda pog'onani tashkil etadi, ya'ni avval o'tilganlar keyingi mashq uchun asos bo'ladi. O'quv materialini sistemalashtirish, imkoni boricha ijobiy natijalarga erishish uchun sharoit yaratish kerak.

2. O'quv jarayonini tashkil etish, mashg'ulotlarning doimiyligini ta'minlash zarur. Ma'lumki, jismoniy mashqlarni bajarish orqali odam vujudida funktsional o'zgarishlar vujudga keladi. 5-7 kundan keyin o'tkazilgan mashqlar natijasida olingan ijobiy natija yo'qotiladi. Buning uchun dars jadvaliga qo'yiladigan jismoniy tarbiya darsining bir-biridan oralig'i 1-2 kundan ortmasligi zarur. Bundan ikkita amaliy maslahat kelib chiqadi: birinchidan darslar hafta davomida eng maqbul oraliqda qo'yilishi kerak.

Darslarni ikki kun birin-ketin yoki bir kundan so'ng qo'yish maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan hammasi jismoniy mashqlar bilan ta'minlash uchun o'quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur. Buningsiz qoniqarli natijalarga erishib bo'lmaydi. Masalan, faqat jismoniy tarbiya darsida shug'ullanuvchilarning egiluvchanligini rivojlantirishga intilish foydasiz.

3. Mashg'ulotni uslubiy jihatdan ta'minlash: yuklama va damni ratsional navbatlashni ko'zda tutadi. Bu ayniqsa, jismoniy sifatlarni tarbiyalashda eng zarur. Bu jarayonda kuch yetganicha vazifa va mashg'ulotlarning doimiyligini saqlash kerak. Mashg'ulotlarni noaniq, gohida izchillik bilan o'tkazish vazifani hal etishda qoniqarsiz rivojlanish yo'nalishiga olib kelibgina qolmasdan, shug'ullanuvchilar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijaviylik tamoyili- pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik-ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish usullarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub`ektning qisqa vaqt va kuch sarflanish vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev A. Xonkeldiyev Sh.X. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati" O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005 y.
2. Tursunov U. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'kullanma, Qo'qon, 1992.
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005 yil.
4. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., darslik "Iqtisod -moliya" 2008 yil.
5. Abdullayev A., Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. o'quv qo'llanma Toshkent., O'zDJTI, 2005 yil

TARIX DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tagayev Ganisher Xasanovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Tel: (+998 97) 392-92-09 E-mail: Ganisher_tagayev@inbox.uz.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarix darslarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli ta'limni tashkil etishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullari, muammoli o'qitish samaradorligi omillari, o'qitishning noan'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati, tarix darslarida tarixiy jarayonlarni baholashda fan o'qituvchisi tomonidan muammoli vaziyatni to'g'ri qo'yilishi, tarixiy mavzularda keys topshiriqlarini ishlab chiqishga qaratilgan tavsiyalar o'rin olgan.

Tayanch so'zlar: Muammoli ta'lim, muammoli fikrlash, amaliy muammoli vaziyat, muammo mazmuni, muammo yechimi, Keys-stadi.

REZYUME. In this article, the use of problem-based educational technologies in history lessons, psychological-pedagogical ways and methods of organizing problem-based education, factors of the effectiveness of problem-based teaching, the success of transitioning from an unconventional method of teaching to a problem-based one, historical processes in history lessons In the assessment, the science teacher made recommendations aimed at correct setting of the problem situation, development of case assignments on historical topics.

Key words: Problem-based education, problem-based thinking, practical problem situation, problem content, problem solution, Case study.

Bugungi taraqqiyot jarayonlarida yoshlarni vatanparvar, komil insonlar qilib tarbiyalash, tarixiy, ma'naviy dunyoqarashlarini yuksaltirish ta'lim-tarbiya sohasining muhim vazifalarini tashkil etmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z fikrlarini bildirib, "Biz, yoshlar siyosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!" [1:262]. – degan fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda yoshlarning obod va ozod fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi intilishlariga hamisha madad berish, ularning mafkuraviy immunitetlarini milliy g'oya ruhida kamol toptirish ijtimoiy voqelikka aylandi.

Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi. Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli talim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash ko'nikmasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi. "Muammoli ta'lim o'quvchilarning bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi rivojini ta'minlaydi, ruhiyatiga, aqliy rivojlanishi hamda dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning o'z fikri va dunyoqarashiga ega, qarashlarini asoslay oladigan va prinsiplarida qat'iy turadigan sog'lom ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi"[4:14].

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilar tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

"Muommoga asoslangan o'qitishda ta'lim ishtirokchilari bilim va ko'nikmalarni o'rganishadi, qo'llashadi hamda kompetentlikka ega bo'lishadi, chunki jarayon aniq muammolar yechimini topishga intilishni rag'batlantiradi. Muommoga asoslangan o'qitishning dolzarbligi ta'lim oluvchining o'z shaxsiy hayoti uchun foydalanadigan o'quv mazmunini qanchalik anglash o'lchovi bilan belgilanadi. U mustaqil ishlashga o'rgatishi, fandagi nazariyalarning amaliy muammolar orqali kengroq tushintirilishi bilan ajralib turadi"[3:5].

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- ✓ muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- ✓ muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- ✓ muammo yechimida olinadigan axborotning o'quvchilar uchun muhimligi;
- ✓ pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat hayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur;

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quvchining fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar noan'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;
- ✓ nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- ✓ kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish - har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar tarixi orqali izlanish mantiqini egallash - muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning noan'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog'liq bo'ladi:

- ✓ muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida ta'lim oluvchi uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;
- ✓ muammo yechimida ta'lim oluvchi ijodiy ishtirokining ham jamoaviy, ham shaxsiy hissalarini hisobga olinadi.

	Mavzu yuzasidan beriladigan muammo	Muammo yechimi yoziladi.
.	Xonliklar davri boshqaruvida qarindosh-urug'chilik an'analari ta'siri qanday muammolarni yuzaga keltirdi...	...
.	Xonliklarning taraqqiyotdan orqada qolib ketishlarida boshqaruv tizimining ta'sirini qanday baholaysiz...

Yuqorida jadvalda ko'rsatilgan muammolar yechimi o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Tarix darslarida tarixiy jarayonlarni baholashda fan o'qituvchisi tomonidan muammoli vaziyatni to'g'ri qo'yilishi, o'quvchilarning shu davr

to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirib borishlariga turki bo'ladi. Bu borada Kes-stadi metodi ancha samarali usul hisoblanadi.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish metodi sifatida qo'llanilib, "Birinchidan, ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi varianlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatni tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim metodidir; ikkinchidan, ta'lim, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv va boshqa sohalarni o'rgatishda qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan (bashorat qilinadigan) o'quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta'minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir"[2:12].

Tarix darslarida esa quyidagicha vaziyatlarni o'quvchilarga taqdim etish mumkin.

1-keys: Xorazmshoxlar davlati mudofasidagi muammoli vaziyatni tahlil qiling va davlat kelajagi uchun aniq yechimlar bering?

	<i>Oqlovchi</i>	<i>Qoralovchi</i>
.		

2-keys: Amir Temur vafotidan so'ng Mavaraunnaxrdagi muammoli vaziyatni tahlil qiling va davlat boshqaruvi uchun aniq yechimlar bering?

	<i>Oqlovchi</i>	<i>Qoralovchi</i>
.		

3-keys: Podsho Rossiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligidagi muammoli vaziyat va davlatni mudofa qilish borasida aniq yechimlar bering? Samarqand shahri misolida

	<i>Oqlovchi</i>	<i>Qoralovchi</i>
.		

Yuqorida berilgan keys topshiriqlarini sinf o'quvchilari guruhlarga ajralgan holda bajaradilar. Yakuniy xulosaga kelganlaridan so'ng guruh ishi taqdimotlarini tashqil etadi.

Xulosa qilib aytganda muammoli ta'lim va muammoli vaziyat o'qitish tizimida faol, o'quvchilarni faol fikrlashga yo'naltiruvchi metod sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'lim bu-mantiqiy fikr yuritish operatsiyalari (analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash va hakoza) va o'quvchilarning izlanishli (tadqiqotchilik) faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'quvchining ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining yangi tizimidan iboratdir. Shu bois u ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy taraqqiyoti va e'tiqodi shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021.

2. Амирова Г.Б. ва бошқалар. Таълимда интерфаол метод ва тренинглр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2018.

3. Ibragimov A.A. Malaka oshirish ta'limida muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasini qo'llash. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand., 2022.

4. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: 2022.

TEST TIZIMLARI O'QUV JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN O'QUV QO'LLANMALARINING ZARUR TARKIBIY QISMI

Tugalov San'at,

Samarqand davlat universiteti

*Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti "Dasturiy injiniring"
kafedra 2-kurs magistri*

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim jarayoni rivojlanib, o'quv qo'llanmalarining samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida turli uslublar va vositalar qo'llanilmoqda. Shunday vositalardan biri bu test tizimlaridir. Test tizimlari o'quvchilarning bilimlarini baholash, ta'lim sifatini nazorat qilish va o'quv jarayonini optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada test tizimlarining o'quv qo'llanmalardagi zaruriy tarkibiy qism ekanligini batafsil ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: baholash tizimi, o'quv adabiyotlarni optimallashtirish, ta'lim sifatini nazorat qilish.

Adabiyotlar tahlili:

Ushbu til o'rganishda test tizimlarining qo'llanilishi, ularning o'quv qo'llanmalari bilan integratsiyasi va baholashda samaradorligi haqida **Bachman, L. F., & Palmer, A. S.** keng qamrovli ma'lumot beradi. **Airasian, P. W., & Russell, M. K.** esa sinfda baholashning turli jihatlarini, jumladan test tizimlarining ta'lim jarayonida qo'llanilishini va ularning o'quv qo'llanmalaridagi rolini batafsil tushuntiradi. **Black, P., & Wiliam, D.**lar esa sinfda baholashning ta'limga ta'siri, test tizimlarining o'quv qo'llanmalari bilan bog'liqligi va ularning samaradorligi haqida keng qamrovli ma'lumot beradi. **Wiliam, D.** Formativ baholash metodlari, test tizimlarining o'quv qo'llanmalari bilan integratsiyasi va ta'lim jarayonidagi samaradorligi haqida batafsil ma'lumot. Bu kabi qarashlardan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, test tizimlari o'quv jarayonida qo'llaniladigan o'quv qo'llanmalarining zarur tarkibiy qismi quyidagicha yondashamiz.

1. Bilimlarni baholash

Test tizimlari o'quvchilarning bilimlarini tez va aniq baholash imkonini beradi. An'anaviy baholash uslublaridan farqli o'laroq, testlar yordamida o'quvchilarning bilimlari obyektiv ravishda baholanadi. Bu usul orqali o'quvchilarning darslarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganligini aniqlash mumkin. Natijalar asosida o'qituvchilar o'quvchilarga individual yondashuv ko'rsatib, ularga qo'shimcha yordam berish imkoniga ega bo'ladilar.

2. O'quv materiallarini optimallashtirish

Test tizimlari o'quv qo'llanmalarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Test natijalari tahlili orqali o'qituvchilar qaysi mavzular o'quvchilar uchun qiyin yoki tushunarsiz ekanligini aniqlay oladilar. Bu esa o'z navbatida, o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish va yaxshilash imkonini beradi. Masalan, murakkab mavzularni tushuntirish uchun qo'shimcha materiallar yoki yangi uslubiy yondashuvlar qo'llanilishi mumkin.

3. Ta'lim sifatini nazorat qilish

Ta'lim sifatini nazorat qilish va uning darajasini oshirishda test tizimlari muhim ahamiyatga ega. Testlar o'quv dasturlarining samaradorligini baholashga yordam beradi. Bu esa o'qituvchilarga va ta'lim muassasalariga o'quv jarayonini yaxshilash va zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash imkonini beradi. Shu bilan birga, test natijalari ta'lim jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

4. O'quvchilarning faolligini oshirish

Testlar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini va faolligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Testlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularni darslarga yanada faolroq qatnashishga undaydi. Shuningdek, testlar orqali raqobat muhiti yaratiladi, bu esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi.

5. Rivojlanish dinamikasini kuzatish

Test tizimlari yordamida o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Turli vaqt oralig'ida o'tkazilgan testlar natijalari o'quvchilarning bilim darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilar uchun individual yondashuvlarni qo'llash va o'quv dasturlarini shunga mos ravishda moslashtirish imkonini beradi. O'qituvchilar har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini kuzatib borib, ularga qo'shimcha yordam va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa

Test tizimlari zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quv qo'llanmalarining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular nafaqat o'quvchilarning bilimlarini baholash, balki ta'lim jarayonini optimallashtirish, ta'lim sifatini nazorat qilish, o'quvchilarning faolligini oshirish va rivojlanish dinamikasini kuzatish kabi ko'plab jihatlar orqali ta'lim jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, test tizimlarining samarali va to'g'ri tashkil etilishi o'quv jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Airasian, P. W., & Russell, M. K. (2008).** "Classroom Assessment: Concepts and Applications." McGraw-Hill.
2. **Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996).** "Language Testing in Practice."
3. **Black, P., & Wiliam, D. (1998).** "Assessment and Classroom Learning." *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7-74.
4. **Brown, H. D. (2004).** "Language Assessment: Principles and Classroom Practices." Pearson Education.

5. Haladyna, T. M. (2004). "Developing and Validating Multiple-Choice Test Items." Lawrence Erlbaum Associates.

6. Harlen, W., & James, M. (1997). "Assessment and Learning: Differences and Relationships between Formative and Summative Assessment." *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 4(3), 365-379.

7. Linn, R. L., & Gronlund, N. E. (2000). "Measurement and Assessment in Teaching." Pearson.

BIOLOGIYA DARSLARIDA NAZARIY BILIMLARNI HAYOTIY JARAYONLAR BILAN O'QUVCHI ONGIDA NEYROFIZIOLOGIK MUVOFIQLASHTIRISH

**Ibodullayeva Dilorom Murodullayevna, Yunusova Navbahor
Ahmadjonovna**

Samarqand VPYMO 'MM o'qituvchilari

Anotatsiya: Mazkur maqolada inson ongining bilish darajasi uning tasavvurining kengligiga bog'liqligi, tasavvur neyrofiziologik jarayon ekanligi haqida hamda biologiyadan masala yechish o'quvchilarda kognitiv tasavvurlarini rivojlantirishi tog'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, matematik savodxonlik, moddalar va energiya almashinuvi, ikki noma'lum tenglama, neyrofiziologik jarayon, kognitiv tasavvur.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения об уровне познания разума человека в зависимости от широты его воображения, о том, что воображение является нейрофизиологическим процессом, а также о развитии познавательного воображения учащихся путем решения задач по биологии

Ключевые слова: Креативное мышление, математическая грамотность, обмен веществом и энергией, два неизвестных уравнения, нейрофизиологический процесс, когнитивное воображение.

Abstract: This article provides information about the level of knowledge of the human mind depending on the breadth of its imagination, that imagination is a neurophysiological process, and about the development of students' cognitive imagination by solving problems from biology.

Key words: *Creative thinking, mathematical literacy, matter and energy exchange, two unknown equations, neurophysiological process, cognitive imagination.*

Ta'lim-tarbiya ongni, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Ta'lim berish usullarini o'zgartirish, rivojlantirish tafakkurni rivojlantirishga sabab bo'ladi. Biz bugungi kunda juda katta axbarot almashish zamonida yashayapmiz, shu jumladan fanga doir ma'lumotlar ham juda ko'p. Bugungi kun pedagogi o'quvchilarga ma'lumotlarni yodlatish emas balki, ma'lumotlarni o'zi izlab topish va ularni muammoli vaziyatlarda qo'llash hamda xulosa chiqarishni o'rgata olish kerak.

Biologiya darslaridagi bilimlar - tirik organizmlarning xususiyatlari, ularning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlar haqidadir. O'quvchi biologik obyektlarni

morfologik, anatomik jihatdan o'rganishi oson, chunki ko'z bilan kərilgan narsa tasavvurni osonlashtiradi, lekin tirik organizmlarda kechadigan fiziologik jarayonlarni o'rganish va ularni tushunish hamda tasavvur hosil qilish qiyin.

Masalan: Moddalar va energiya almashinuvi mavzusida dissimlyatsiya jarayoni 3 bosqichda amalga oshadi. Har bir bosqichni ifoda etgan kimyoviy reaksiyalarni organizmda qachon kechishini va u qanday borishini o'quvchi ongida hayotiy misollar bilan muvofiqlashtirish kerak. Tayyorgarlik bosqichida murakkab moddalar fermentlar ishtirokida oddiy moddalarga parchalanadi va bu jarayonda hosil bo'lgan kam miqdordagi energiya issiqlik sifatida tarqalib ketadi. Ushbu jarayonni o'quvchi o'z tanasida his etishi va uni tushunishi uchun, ushbu bosqich ovqatlanish vaqtida sodir bo'lishi va ovqatlangandan so'ng esa inson tanasi isib ketishini tushuntirish kerak. Ushbu mavzuni o'quvchilarga quyidagi muammoli vaziyat yordamida jarayonni yaxshiroq anglashiga yordam berishimiz mumkin. "Ikki bola sovqotib turibdi. Ularning biriga issiq ovqat ichirildi, biriga esa sovuq ovqat berildi, aytingchi bu ikkala o'quvchining tanasida qanday jarayon sodir bo'ldi", o'quvchilar bu ikki bolaning tanasida sodir bo'lgan holatlarni o'z tanasidan kechirganliklari uchun natija qanday bo'lishini darhol aytishadi, lekin uning fiziologik asosini izlaydilar. Issiq ovqat ichgan bolada tanasida isish jarayoni tez boshlanadi, sovuq ovqat ichgan bola battarroq sovqotadi chunki, sovuq sharoitda fermentlar ishlamaydi oshqozondagi ovqatni tana harorati darajasida isishi uchun tanadagi energiya sarflanadi. Ovqatning parchalanish jarayoni biroz vaqtdan keyin sodir bo'ladi. Ushbu hayotiy jarayonni "So'lak fermentini kraxmalga ta'sirini o'rganish" laboratoriya mashg'uloti bilan integratsiya qilish orqali sovuq haroratga amilaza fermenti kraxmalni parchalay olmaganligini ko'rib tushunish mumkin.

Quyidagi jadvalda energiya almashinuvi bosqichlarini ko'rishimiz mumkin, jadvalning afzallik tomoni shundaki, bunda jarayonlarda hosil bo'lgan mahsulotlar umumlashgan holatda aks ettirilgan.

Parchalanish bosqichlari	ATF da to'plangan energiya kj va % da	Issiqlikka tarqalgan energiya kj va % da	Umumiy energiya kj va % da
Kislorodsiz(anaerob)	2ATF =80 kJ = 40%	120 kJ =60 %	200 kJ=100%
Kislorodli (aerob)	36ATF=1440kJ=55,4%	1160kJ=44,6 %	2600kJ=100%
Umumiy jarayonda	38ATF=1520kJ=54,28%	1280kJ=45,71%	2800kJ=100%

O'quvchilarga moddalar va energiya almashinuviga doir masalalar yechish ko'nikmasini shakllantirishda yuqoridagi jadval bilan ishlash qulaylik tug'diradi.

Energiya almashinuviga doir masalalar yechishda o'quvchilarni boshqa fanlardan olgan bilimlarini ham biologik jarayonlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish kerak, masalan matematik ikki noma'lumli tenglamalar qonuniyatlarini bilgan holda energiya almashinuviga doir masalalar yechish mumkin.

Masala: Energiya almashinuvi jarayonlarida bir necha molekula glyukoza to'liq va chala parchalandi, ushbu jarayonda 205 molekula suv, hamda 6180kj issiqlik energiyasi ajralib chiqdi, to'liq parchalangan glyukoza molekulasini toping.

Yechish: X –chala parchalangan glyukoza molekulari

Y – to'liq parchalangan glyukoza molekulari

Ushbu masalani yechishda tenglamalar sistemasining ko'paytirish va qisqartirish usullaridan foydalanamiz.

$$\begin{cases} 2x + 44y = 205 \\ 120x + 1280y = 6180 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 120x + 2640y = 12300 \\ 120x + 1280 = 6180 \end{cases}$$

1360y=6120
Y=4,5

Javob: 4,5 molekula glyukoza to'liq parchalangan.

O'quvchilarda biologik masalalar yechish va tuzishda matematik savodxonlik kompetensiyasini qo'llash, ularning kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi. Inson ongining bilish darajasi uning tasavvurining kengligiga bog'liq bo'lib, tasavvur qila olgan narsani yaxshi tushunadi. Tasavvur neyrofiziologik jarayon bo'lib, o'quvchilarga bir xil fikr yoki g'oya berganingizda ularning har birida har xil tasavvur paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarda biologik bilimlarni oshirish uchun kognitiv tasavvurlarni rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi; Biologiya, Toshkent-2017 y 6 aprel VM 187-Qarori

2.Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son Qarori 08.12.2018

3.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.2019 yil 29 aprel

4. A. G'afurov, A. Abdulkarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova Biologiya . Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent, 2017.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDAN UY VAZIFALARINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Qoraboyev Husniddin Kamolovich,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
katta o'qituvchisi qoraboyevhusniddin2@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligi darslarining o‘ziga xos xususiyatlari asoslangan. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalari sharhlangan. O‘qish savodxonligi darslaridan uygavazifalarni tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, uyga vazifa, o‘qib tushunish, ifodali o‘qish, hamkorlik, mustaqil faoliyat.

Annotation This article focuses on the specific features of reading literacy classes. Forms, methods and means of effective organization of homework from elementary school reading literacy classes are explained. Methodical recommendations on the organization of homework from reading literacy classes are given.

Key words: reading literacy, homework, reading comprehension, expressive reading, cooperation, independent activity.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha halqaro dastur PIRLS (*Progress in International Reading Literacy Study - matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot*)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtirokini ta’minlash PIRLS) da qatnashishiga va samarali natijaga erishishida boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida tashkil etiladigan uy vazifalarining ham o‘rni beqiyosdir.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirib borib mustaqil hayotga tayyorlashda uy vazifalarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish ahamiyatlidir. O‘qish bo‘yicha uyga vazifa berish va ushbu vazifaning qay tarzda, qay darajada bajarilganini so‘rab, nazorat qilish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining tarkibiy qismlari sirasiga kiradi. Uyga vazifa berish o‘ziga xos ta’lim mazmuni bilan, uy vazifasini so‘rash o‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat bilan bog‘liq bo‘lib, shunga monand maqsad va vazifalarga ega. Uyga vazifa berish zaruriyati shunda namoyon bo‘ladiki, darsda hamma o‘quvchilarning jo‘rlukda o‘qitishni hisobga olmaganda ovoz chiqarib o‘qishlarini tashkil etishning iloji yo‘q. Bolalarning uyda o‘qishlari ana shu bo‘shliqning o‘rnini to‘ldiradi.

Pedagog olimi Q.Husanboyeva adabiyot darslarining odatdagi qurilishini isloh qilish haqida gapirib, shunday deydi “Shundan (kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishdan – izoh bizniki) kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darsning uy vazifasini so‘rash, uni mustahkamlash, yangi darsni tushuntirish va uni mustahkamlash, uy vazifasi berish tizimidan voz kechilgan. Ayni holat adabiyot o‘qitish jarayonga ham yangicha yondashuvni taqozo etib, muallimlarni o‘quvchilar faolligini oshiradigan saboq turlaridan foydalanishga undamoqda” [Husanboyeva,2014:10].

2-sinf darsligiga yozilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” nomli metodik qo‘llanmada ta’kidlanishicha, “O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali

tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi" [Azimova,2021:4]. Bular, albatta, asosiy strategik maqsadlar. Ayni paytda quyidagi qo'shimcha strategik maqsadlar ham mavjud: o'quvchilarning mustaqil o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish, ijodiy faolligini oshirish, bilimlarni puxta egallashga odatlantirish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchi intensiv rivojlanadi. Darsda boshlangan ishning qiyomiga yetmagan jihatini uyda davom ettirishga odatlanish bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'quvchida o'z dunyoqarashini kengaytirishga ichki ehtiyojni uyg'otish, ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining ishtirokini ta'minlash; uni matn ustida olib boriladigan ishlar orqali bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, bunda mustaqil ishlash usullarini egallash sari yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Agar o'quvchi bilim olishga qiziqsa, u maktabdagi o'quv fanlarini jiddiy o'rganadi. Buning uchun bilim olish o'quvchining ichki tabiiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Ehtiyoj insondagi har qanday qobiliyat namoyon bo'lishining zarur sharti hisoblanadi. Shundagina yuqoridagi tadbirlar ta'lim amaliyotida o'z samarasini beradi, o'quvchini ma'naviy barkamollik sari yo'naltiradi

Zero, "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida izohlanganidek, "Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi" [Qosimova,2009:67].

Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida "Bilimlarni o'zlashtirishda bolalar mehnati, bu yo'lda ularning erkinligi muhim. O'quvchini mehnat qilishga majbur etish, unga mehnat qilib bilim olishdan zavq olish mumkinligini, mehnatning ehtiyojga aylanishini anglatish tarbiyashunoslik maqsadining asosidir. Qay yoshdagi bola qanday qiyinchiliklarni engib o'ta olishi mumkinligini, mehnatning qanaqasi osonu qaysisi azobli ekanini aniqlab olmoq o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir", [Niyozmetova, 2017: 251]- deb alohida ta'kidlanadi.

"Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida o'qish darslarining ahamiyati haqida shunday deyiladi: "Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi" [Qosimova,2009:69].

"2-sinf o'quvchisiga ona tili va o'qish savodxonligi fanidan qo'yiladigan malaka talablari"ning "O'qib tushunish"ga doirlari orasida quyidagi talablar o'qishning ahamiyatiga yanada oydinlik kirita oladi:

sinf darajasiga mos matndagi notanish so'zlar ma'nosini aniqlash uchun lug'atdan (darslik oxiridagi yoki bolalar uchun chiqarilgan boshqa) foydalana oladi;

matnning ma'lum qismini o'qib, keyinchalik sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qiladi, matnni mantiqan davom ettira oladi;

onlayn media, reklama hamda sinf darajasiga mos badiiy va informativ matnda muallif nazarda tutgan maqsad, matn mohiyatini aniqlaydi, javoblarini matnga tayangan holda asoslab bera oladi [Azimova, 2021:6-7].

“Ona tili o'qitish metodikasi darsligida o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat ekaligi ko'rsatilga:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish” [Qosimova, 2009:69-70].

O'qish darslaridan kuzatiladigan muhim strategik maqsadlar ta'lim bosqichida umumiy tarzda nazarda tutilsa, bevosita xususiy taktik maqsadlarga amal qilinadi. Bu borada uy vazifalari o'quvchilarning o'qish fani yuzasidan o'tilayotgan yoki o'tilgan darslar mobaynida olgan bilimlari, hosil qilina boshlagan ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash (bilimni ko'nikmaga, ko'nikmani malakaga yaqinlashtirish), talab darajasiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Uy vazifalarini bajarish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, boshqalarning nazorati va ko'magisiz shug'ullanish, tadqiq etish hamda qaror qabul qilish, o'z-o'zini baholash kabi hislatlarni qo'lga kiritishi yuz beradi. Ular o'quv materiali ustida muayyan tartibda qat'iyat bilan ish olib borish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar, mustaqil ishlash, o'quv-biluv faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni engib o'tish yo'llarini izlay boshlaydilar,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. – Тошкент, 2014. – 10-б..

2. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 4-b.

3. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): [K. Qosimova], S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: “NOSHIR”, - 2009. –67-b.

4. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2017. – 251-б.

YOSH GANDBOLCHILARNI TANLAB OLIISHDA MAXSUS CHIDAMLILIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI

Hotamov M.A.,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi

Qurbonova M. B.,

Pastdarg'om tumani, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli

9-umum ta'lim maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchisi. mominxotamov@gmail.com tel.

932230032.

Annotatsiya. Yosh gandbolchilarni o'z vaqatida eng muhim jismoniy sifat bo'lgan chidamlilikni muvofaqiyatli to'la to'kis namoyon etuvchi vosita va uslublar samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: gandbol, musobaqa, texnika, taktika, jismoniy tayyorgarlik, mashg'ulot, yuklama.

Yosh gandbolchilarni o'z vaqatida eng muhim jismoniy sifat bo'lgan chidamlilikni muvofaqiyatli to'la to'kis namoyon etadigan vosita va uslublarini qo'llash natijasida yuqori bo'lmagan sportchilarga ko'proq e'tibor qaratishsa gandbol sport turi yanada rivojlanadi.

Maqsadi: Dastlabki tayyorlov bosqichiga gandbolchilarni tanlab olishda chidamliligini rivojlanganlik darajasini aniqlash va maxsus mashqlar yordamida chidamlilikni takomillashtirish.

Vazifa:

1. Gandbolchilarni chidamliligini nazorat test me'yorlari orqali aniqlash.
2. Gandbolchilarni chidamliligini takomillashtirish uchun mashqlar majmuasini tuzish. Kuzatishlar davomida olingan natijalar bayoni. Amaliy kuzatishlar Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 9-umum ta'lim maktabida maktabdan tashqari gandbol to'garagi bilan shug'ullanuvchi 20 nafar gandbolchi qizlarda o'tkazildi.

Birinchi navbatda shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlari kuzatilib, tahlil qilindi. Ikkinchi navbatda esa, chidamlilikni aniqlashda qo'llanilgan uslublar natijalarning tahlili amalga oshirildi.

Gandbolchilarni chidamliligini takomillashtiruvchi mashqlar majmuasi quyidagilardan iborat bo'lib. Jumladan:

- Uzoq masofaga yugurish (800m,1000m,1500)
- Yuqori tezlikda maksimal yugurish.
- Yuqori tezlikda to'p uzatish va qabul qilish. (30 sek, 45 sek, 1 daqiqa)
- Himoyada ishlash (bu mashq 15x2 taym bo'ladi)
- Maksimal tezlikda 45 soniya yugurish.
- Maksimal tezlikda 1 daqiqa arg'amchida sakrash.
- Himoya uslubida 1 daqiqa davomida 3 metr masofagacha chiqib qaytish.
- Estafeta mashqlari.

Tajriba guruhiga tanlab olingan gandbolchilarni tadqiqotdan oldin umumiy va maxsus chidamliligini nazorat me'yorlari orqali tekshirganimizda quyidagi natijaga ega bo'ldik.

1-jadval.

**Yosh gandbolchi qizlarni umumiy va maxsus chidamliligini tekshirish
(tajriba guruhi, tadqiqotdan oldin)**

№	F.I.SH	Moksimon yugurish (100m)ga	6 metrlik chiziqdan 9 metrlik chiziqqa chiqib qaytish (30 soniyada)	6 daqiqali yugurish
1	Abdukamolova Sarvinoz	27,33	10	1137
2	Abduraximova Elmira	25,33	11	1235
3	Bahtiyorova Mehribon	28,47	12	1134
4	Boltaboyeva O'g'iloy	28,31	10	1240
5	Doniyeva Bahora	29,25	11	1236
6	Eliyeva Charos	27,50	11	1238
7	Erkayeva Gulbeka	27,30	11	1100
8	Mahmayusupova Sabrina	29,24	10	1131
9	Mayinova Marjona	30,05	11	1132
10	Nishonova Nozima	29,86	9	1133
	X	28,2	10,8	1171

Eng yaxshi natijani moksimon yugurishda Abduraximova Elmira 25,33 s) yomon natijani Mayinova Marjona (30,05 s) ko'rsatdilar mokisimon yugurishda o'rtacha natija 28,26 soniyani tashkil etdi.

6 metrli chiziqdan 9 metrli chiziqqa chiqib qaytishda yaxshi natijani Bahtiyorova Mehribon (12 marta) yomon natijani Nishonova Nozima (9 marta) ko'rsatdilar.

O'rtacha ko'rsatkich esa 10 martani tashkil etdi.

6 daqiqali yugurishda yaxshi natijani Boltaboyeva O'g'iloy (1240 m) yomon natijani esa Erkayeva Gulbeka (1100 m) ko'rsatdilar.

O'rtacha ko'rsatkich esa 1171 m.ga teng bo'ldi.

2-jadval.

**Yosh gandbolchi qizlarni umumiy va maxsus chidamliligini tekshirish
(nazorat guruhi. Tadqiqotdan oldin).**

№	F.I.SH	Moksimon yugurish (100m)ga	6 metrlik chiziqdan 9 metrlik chiziqqa chiqib qaytish (30 soniyada)	6 daqiqali yugurish
1	Normuminova Mehriniso	27,35	10	1145
2	Oralova Charos	26,30	12	1137
3	Oralova Marjona	28,42	13	1133
4	Raimova Madina	28,41	11	1136

5	Remziyeva Dinora	29,20	11	1233
6	Saydiyeva Farangiz	27,50	10	1240
7	Eliyeva Mushtariybonu	27,30	12	1245
8	Normuminova Feruza	29,26	11	1230
9	Quvatova Fotima	30,05	10	1135
10	Quvatova Zuxra	29.85	9	1238
	X	28,3	10,9	1186

Nazorat guruhiga tanlab olingan gandbolchilarni umumiy va maxsus chidamliligini nazorat me'yorlari orqali tekshirganimizda quyidagi natijaga ega bo'ldik.

Eng yaxshi natijani moksimon yugurishda Oralova Charos (26,30 s) yomon natijani Quvatova Fotima (30,05) ko'rsatdilar. Moksimon yugurishda o'rtacha natija 28,3 soniyani tashkil etdi.

6 metrli chiziqdan 9 metrli chiziqqa chiqib qaytishda yaxshi natijani Oralova Marjona (13 marta) yomon natijani Quvatova Zuxra (9 marta) ko'rsatdilar. O'rtacha ko'rsatkich esa 10 martani tashkil etdi. 6 daqiqali yugurishda yaxshi natijani Eliyeva Mushtariybonu (1245) yomon natijani esa Normuminova Feruza (1130m) ko'rsatdilar. O'rtacha ko'rsatkich esa 1186 m ga teng bo'ldi.

3-jadval

Gandbolchilarni umumiy va maxsus chidamliligini tekshirish (tajriba guruhi. Tadqiqotdan keyin)

№	F.I.SH	Moksimon yugurish (100m)ga	6 metrlik chiziqdan 9 metrlik chiziqqa chiqib qaytish (30 soniyada)	6 daqiqali yugurish
1	Abdukamolova Sarvinoz	26,33	13	1286
2	Abduraximova Elmira	25,30	12	1265
3	Bahtiyorova Mehribon	27,00	11	1287
4	Boltaboyeva O'g'iloy	26,15	11	1269
5	Doniyeva Bahora	25,70	12	1290
6	Eliyeva Charos	26,90	10	1283
7	Erkayeva Gulbeka	26,65	12	1260
8	Mahmayusupova Sabrina	28,00	11	1272
9	Mayinova Marjona	28,45	12	1261
10	Nishonova Nozima	28,50	12	1275
	X	26,8	13	1274

Tajriba guruhiga tanlab olingan talabalarni tadqiqotdan keyin umumiy va maxsus chidamliligini nazorat me'yorlari orqali tekshirganimizda quyidagi natijalarga ega bo'ldik.

Moksimon yugurishda yaxshi natijani Abduraximova Elmira (25,30 s) yomon natijani esa Nishonova Nozima (28,50 s) ko'rsatdilar. O'rtacha ko'rsatkich esa 26,90 ga teng bo'ldi.

6 metrli chiziqdan 9 metrli chiziqqa chiqib qaytishda yaxshi natijani Abdulkamolova Sarvinoz (13 marta) yomon natijani esa Eliyeva Charos (10 marta) bilan ko'rsatdi. O'rtacha ko'rsatkich esa 11 martaga teng bo'ldi.

6 daqiqali yugurishda yaxshi natijani Doniyeva Bahora (1290 m) yomon natijani esa Erkayeva Gulbeka (1260 m) bilan ko'rsatdilar.

O'rtacha ko'rsatkich 1274 metrga teng bo'ldi.

4-jadval.

Gandbolchilarni umumiy va maxsus chidamliligini tekshirish

(Nazorat guruhi. Tadqiqotdan keyin)

№	F.I.SH	Moksimon yugurish (100m)ga	6 metrlik chiziqdan 9 metrlik chiziqqa chiqib qaytish (30 soniyada)	6 daqiqali yugurish
1	Normuminova Mehriniso	27,22	10	1245
2	Oralova Charos	26,32	9	1230
3	Oralova Marjona	28,40	13	1233
4	Raimova Madina	28,30	12	1240
5	Remziyeva Dinora	29,20	11	1235
6	Saydiyeva Farangiz	27,50	10	1240
7	Eliyeva Mushtariybonu	27,25	12	1245
8	Normuminova Feruza	29,20	11	1237
9	Quvatova Fotima	30,00	10	1235
10	Quvatova Zuxra	28,12	11	1240
	X	28,1	10,9	1238

Nazorat guruhiga tanlab olingan gandbolchilarni umumiy va maxsus chidamliligini nazorat me'yorlari orqali tekshirganimizda quyidagi natijaga ega bo'ldik. Eng yaxshi natijani moksimon yugurishda Oralova Charos (26,32 s) yomon natijani Quvatova Fotima (30,00) ko'rsatdilar.

Moksimon yugurishda o'rtacha natija 28,364 sekundni tashkil etdi.

6 metrli chiziqdan 9 metrli chiziqqa chiqib qaytishda yaxshi natijani Oralova Marjona (13 marta) yomon natijani Oralova Charos (9 marta) ko'rsatdilar.

O'rtacha ko'rsatkich esa 11 martani tashkil etdi.

6 daqiqali yugurishda yaxshi natijani Normuminova Mehriniso (1245 m) yomon natijani esa Oralova Charos (1230 m) ko'rsatdilar.

O'rtacha ko'rsatkich esa 1238 m. ga teng bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov J.A. Gandbol: Darslik 2008 y.
2. Abduraxmrnov F.A, Pavlov Sh.K. "Gandbol" tip.Uz GIFK-2005 y.
3. Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А. "Подготовка гандболистов". Тошкент УзГИФК. 2006 г.
4. Игнатъева В.Я., Портнов Ю.М. "Гандбол". Учебник для физ вузов. М. ФОН. 1996 г.

5. Абдурахманов Ф.А, Кариева Р.Р. Индивидуальные технико-тактические действия гандболистов в защите и нападениях. Тошкент-2015
6. D.D. Safarova, L.D. Seydaliyeva, Yu.M. Sultonova, B.Sh. Nurbayev, U.A. Musayeva, V.V. Serbryakova, D.A. Sagatov. Sport fiziologiyasi. Toshkent-2018.
7. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Shelyagina I.N., Isroilov R.I., “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Gandbol)” – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018.
8. Pavlov Sh.K., “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Gandbol)” – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2021.

SINF RAHBARLARNING INDUKTIV TAHLIL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA (BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARI MISOLIDA)

Nurmanova Dilfuza Jamilovna,

Samarqand viloyati PYMO‘MM, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasida o‘qituvchisi
dilfuzanurmanova05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta‘lim tizimidagi dolzarb muammolar, jumladan bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini oliy ta‘lim muassasasini bitirib mehnat faoliyatini boshlashda sinf rahbarlikda uchrashi mumkin bo‘ladigan muammolar va ularning yechimlari to‘g‘risida atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining induktiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonidagi muammolar va ularning yechimi uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim-tarbiya, ota-ona, farzand, ahloqiy, hayotiy jamoatchilik, bo‘lajak sinf rahbari, induktiv tahlil, ko‘nikma, jarayon.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются современные проблемы в системе образования, в том числе проблемы, с которыми могут столкнуться будущие учителя начальных классов в классном руководстве после окончания высшего учебного заведения, и пути их решения. Также приведены проблемы в процессе формирования и развития навыков индуктивного анализа у будущих учителей начальных классов и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: образование, родитель, ребенок, мораль, жизненная общность, будущий классный руководитель, индуктивный анализ, умение, процесс.

Abstract: In this article, the current problems in the education system, including the problems that future primary teachers may face in class leadership after graduating from a higher educational institution, and their solutions, are analyzed in detail. Also, problems in the process of formation and development of inductive analysis skills of future primary education teachers and recommendations for their solution are given.

Key words: education, parent, child, moral, life community, future class leader, inductive analysis, skill, process.

Kirish:

Jahon va milliy ta'lim tizimida mutaxasislarni tayyorlashda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga bo'lgan zarurat tobora ortmoqda. Mamlakatimizdagi pedagogika yo'nalishda mutaxasis xomid tayyorlashda ayniqsa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga bazaviy bilim, malaka va ko'nikmalarni berishda nafaqat shu yo'nalishda tayyorlaydigan o'qituvchi mutaxasislarga balki boshqa yo'nalishda tayyorlaydigan fan o'qituvchilarini ham rahbarlik (sinf rahbarlik) uchun alohida tayyorlamaydi. Shu sababdan pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida tanlov fanlar, maktab ta'limi bilan hamkorlikda binar dars mashg'ulotlari tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga induktiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonidagi umumiy holatlarni mantiqiy muhokama qilish orqali takomillashtirish lozim. Zamonaviy o'qituvchi har qanday sharoitda ham o'z burchini, o'zining kasbiy missiyasini bajara olishi kerak. Bu esa bo'lajak o'qituvchining o'zini-o'zi takomillashtirishida, shuningdek, sinf jamoasidagi o'quvchilarining aqliy rivojlantirish va jamoani boshqarish bo'yicha tayanch ko'nikmalarni egallashlari uchun hamkorlikdagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim-bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shu bois o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini hayoti davomida qo'llaydi.

Induksiya - ma'lum miqdorda yakka holdagi fakt, hodisa va jarayonlarni kuzatish orqali, shu kuzatishlarga tayangan holda ishlab chiqarilgan umumiy xulosa chiqarish. Bu usul bo'yicha, oldin ko'p miqdordagi obyekt yoki jarayonlar yaxshilab kuzatiladi, o'rganib chiqiladi, keyin ushbu kuzatishlardan yagona, umumiy xulosa chiqariladi. Induksiya mantiq asosiy o'ringa ega emas, tajriba birlamchi ro'lga ega. Faktlardan qoidaga qarab, yakka holdagi ko'plab o'rnaklardan yagona umumiy xulosaga qarab boriladi. Xususi holatlar, fikrlardan umumiy bir xulosa ishlab chiqiladi.

Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Inson bilimga ega bo'lishni istasa avvalo tarbiyalanishi lozim. Tarbiyali inson esa mukammal ilm sohibi bo'ladi. Har bir mamalakatning buguni va ertangi kuni ta'lim-tarbiya sifatiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida ta'lim bilan tarbiya uzviyligini ta'minlash uchun o'qituvchi ayniqsa sinf rahbarlarning o'rnini beqiyosdir. Maktab ta'limida o'quvchilarni ilk ta'limda moslashish davrida boshlang'ich sinf rahbarlarining xizmati katta. Bu borada qilinadigan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'limning bakalavryat bosqichidagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ya'ni talabalar bilan ham anchagina salmog'li ishlarni tashkil qilish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishlash jarayonida bevosita sinf rahbarlik vazifasini bajarishadi. Shunga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sinf o'quvchilari, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan birgalikda ishlash bo'yicha ishlarni amalga oshirishda oliy ta'limda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlarida yoki Tanlov fan (tashkilot ixtiyoridagi) soatlari hisobiga ota-onalar bilan ishlash yoki ota-onalarning mas'uliyatlarini oshirish bo'yicha ham

ma'ruza, amaliy (seminar) dars mashg'ulotlarini ham kiritishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asosiy qism:

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mehnat faoliyatini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga dars berish bilan boshlashadi. Ish jarayonida sinf o'quvchilarini maktab va dars mashg'ulotlarida faolligini ta'minlash maqsadida albatta ularning ota-onalariga murojaat qilishadi. Bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash ham hali tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchida ota-onalar bilan konflikt (nizo)lar yoki o'zaro tushunmovchiliklari sodir bo'lishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim-tarbiya uzviyligini nuqsonlarsiz tashkil qilishda o'quvchilarning ota-onalarini hamkorlikka chaqiradi. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "Kichik Vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lmog'i shart. Farzandiga o'zi na'munali fazilatlar ila o'rnatib bo'la oladigan ota-onalarning bolani kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmi, jamiyatga foydasi tegadigan komil inson bo'ladi.

Pedagogikadagi mashxo'r A.S.Makarenkoning fikricha "... tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyin tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" [1] ekanini qayd etib o'tgan. Aynan shu vaqt oralig'ida ota-onadan kata mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'illanishi kerak. Aynan shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga mas'uliyat bilan yondoshishi kerak. "Kelajak kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo'nalishlar uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi" [2]. Farzand kamoli uchun sarflangan mablag' va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Aytaylik agar ota-ona o'z farzandiga e'tibor bermasa bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Bola tarbiyasida ularning yoshligidan befarq bo'lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor berishi kerak.

Har bir ota-onalar tarbiya berishda eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o'rgatishi lozim. Tarbiyaning boshi salomlashishdan boshlanishi haqida "Gapning boshi-kalom, odob boshi-salom" degan xalq iborasi avloddan avlotga o'tib kelmoqda. Ajdodlarimiz azaldan yosh avlodni go'zal xulqli, odobli, ilmi, qobil farzand bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berishgan. Agar bola noqobil bo'lib ulg'aysa, undan faqat ota-ona emas, jamiyat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga egadir. Bola dastavval tarbiyani oiladan

oladi. Bolani tarbiyalash haqida xalqimiz orasida ko‘plab afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ertaklar yurishi ham bejiz emas. Donishmandlar bolani ona qornidan boshlab tarbiya qilish kerak deyishadi. Qachonki, bola tarbiyasi u mukammal ilm sohibi, komil inson bo‘la oladi. Demak ota-ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmi, tarbiyali qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. “Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-ona” – deganlari ham bejiz emas [4]. Bolani tarbiyalashda agar maktab yoshida bo‘lsa ota-ona va maktab hatto mahalla ham doimo yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o‘rni kamayib borayotganligi, ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf-aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar [5]. Haqiqatdan ham kundan kunga bunday insonlarning sonlari ortib bormoqda. Shu o‘rinda aholida ta’kidlab o‘tmoq kerakki, hozirgi yoshlar ham kata yoshlilar nasixat berganlarda “Sizga nima?”, “Bu meni ishim”, “Menga sizning nasixatingiz kerakmas, ishingam aralashmang” kabi jumlalar orqali yoshlarning o‘zidan katta yoshlarga gaplar aytilmoqda. Chunki, aynan bu kabi insonlar bugun ota-ona va ular farzandlariga ta’lim bilan tarbiya berayotgan maktab o‘qituvchilariga ham bu kabi qo‘pol gaplarni ishlatmoqdalar. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto‘g‘ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketganki bugun u jamiyatda tarbiyasiz yoki madaniyatsiz degan nom olyapti. Bu esa yosh avlodga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umrini va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimiz asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilganlar. Jumladan, Imom al-Buxoriyning “al-Adab al-Mufrat” hadilar to‘plami, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u blig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Husan Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy”, Jaloliddin Doniyning “Ahloqi Doniy”, Abu Lays Samarqandiyning “Bo‘stonul-orifin” asarida tarbiya va tarbiyalanishning ma’nosi, “Tanbehul g‘ofiliyn” asarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish hamda yana ko‘plab mutaffakirlarimiz o‘z asarlarida shu kabi g‘oyalarni ilgari surganlar. Farzand tarbiyasida yo‘l qo‘yiladigan xato yoki kamchiliklar:

- Farzandni doimiy ravishda erkalatish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qolishiga, mustaqil qaror qabul qila olmasligiga sabab bo‘ladi. Natijada esa hayot yo‘lida o‘z o‘rnini topolmasligidir.

- Bolalarni tinglanmasliklari, qo‘llab-quvvatlanmasliklari ulardagi ishtiyoqning so‘nishi va kelajakda odamlar orasida erkin bo‘lolmasliklari hamda o‘z fikrini aniq, ravon yetkazib beraolmasliklari bilan qiynalishadi.

- Bolalarning barcha istaklarini muhayyo qilaverish uning tarbiyasiz bo‘lib ulg‘ayishiga olib keladi.

- Bola tarbiyani dastavval oiladan keyinchalik maktab va jamiyatdan oladi. Xalqimizda shunday naql bor: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Demak biz bolaga tarbiya berishni istar ekanmiz avvalo o‘zimiz tarbiyada o‘rnak bo‘lmog‘imiz lozim. farzandingizga nimanidir o‘rgatmoqchi bo‘lsangiz faqat gap bilan emas, unga amalda

o‘zingiz ham birgalikda bajarib ifoda etib bering. Har aytgan gapingizda qilgan amalingiz bilan o‘rnak bo‘ling. Shundagina so‘zingizning qiymati ortadi.

- Haddan ortiq e‘tibor berberish ham bolaning tarbiyasiga yomon ta‘sir qiladi. Farzandingizga o‘zi mustaqil bajara oladigan ishlarni qilishga imkon yaratib bering. Agar bolani o‘zi imkoni yetadigan ishlarga ham ko‘mak beraverilsa ota-onaning ko‘magiga suyanib qoladi. Natijada bola ota-onasining ko‘magisiz hech bir ishni qilmaydiga, boshqalarga tobe bo‘lib qoladi.

- Farzandingizga asli tarbiyadagi jazoni “urib” bermang! Bu bolani kelajakda xato qilmaslikka o‘rgatmaydi. Aksincha hayotga va jamiyatga nisbatan nafrat hissini ortiradi. Bu jarohatlar uning kelajakda ota yoki ona bo‘lgan takrorlash ehtimolini oshiradi.

- Farzandni o‘ta mustaqil qilish uning o‘zboshimcha va hudbin bo‘lishiga zamin yaratadi.

- Bolaga o‘ta hushmuomalalik ham undagi kibni ortdiradi. Tarbiyadagi bu kabi qisman og‘ishlar ham farzand kelajagi uchun bazan yomon oqibatlariga sabab bo‘ladi.

Farzand tarbiyasidagi ayrim xatoliklarni yuqorida sanab o‘tdik. Zotan bola tarbiyasida ota-onaning mas‘uliyati qanchalik beqiyos bo‘lsa ustozning ham o‘rni shu qadar beqiyosdir. Chunki bola tarbiyasida bilim olishiga ham kata ta‘sir qiladi. Ota-ona farzandini ilmiy komil inson qilib tarbiyalash istagini ustoz orqani mujassamlashtiradi. Demak ota-ona o‘qituvchi bilan doim aloqada bo‘lishi muhimdir. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. Farzandining kamolini ko‘rishni istagan ota-ona barcha mas‘uliyatni ustozga yuklamaydi, aksincha ustoz bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Ota-onalarning bu o‘rinda farzandlariga o‘qitirishi lozim bo‘lgan ishlardan biri shuki, bola kamolotida ota-onaning o‘rni qanchalik beqiyos bo‘lsa, ustozning ham undan kam bo‘lmagan qiymati bordir. “O‘qituvchilar yomg‘ir tomchisi bilan taqqoslanadi. Yomg‘ir har bir donning hayotiyiligini uyg‘otar ekan, o‘qituvchining asosiy maqsadi har bir o‘quvchining ijobiy imkoniyatlarini ochib berishdir” [7] tomchi suvlar orqali suvga tashna o‘quvchilarni kelajagi bor inson sifatida shakllanadi. O‘qituvchi bolalarga ta‘lim-tarbiya berish bilan birga hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Hayotning past-u balandi, oq-u qorasini ustoz tanitadi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maktabga birinchi kelgan o‘quvchi birinchi ustozni yani boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisidir. Ota-onalar farzandi maktabga chiqqanidan so‘ng ustozni ayniqsa sinf rahbarlari bilan tez-tez uchrashib tursa, natijasi albatta go‘zal bo‘ladi. Bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan va bolasining tarbiyasiga befaqr bo‘lmagan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nimalar bilan band bo‘lishi haqida o‘qituvchisini (sinf rahbarini) xabardor qilib turishi kerak [8]. Shunday ekan ular birgalikda harakat qilmog‘lari kerak. “Ilm bahorda ko‘p yog‘gan yomg‘irga o‘xshaydi” [9]. Ana shu yomg‘ir orqali o‘qituvchi o‘quvchilariga ilm bulog‘idan ularni sug‘oradi. Bu ilm bulog‘idan qonib-qonib ichihs o‘quvchining o‘ziga va oiladagi ota-onaning ustoz va maktabga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir.

Shunday ekan bolani komil inson bo'lishi uchun o'qituvchi, ota-ona va bolaning o'zi ham harakat qilmog'i kerak. Hamkorlikda ish qilinsa, bolani kamolotga yetkazish yo'lida o'sish bo'ladi. Shu sababli farzandini kamolotini istagan ota-ona ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va nazorat qiladi. Uning tarbiyasiga ilm olishiga e'tibor qaratadi.

Farzandining kamolini ko'rish barcha ota-onaning orzu va buning uchun esa ota-onalar qo'llaridan kelgan barcha ishlarni amalga oshiradilar. Buning uchun eng qisqa yo'l maktab yani ustoz bilan hamkor qilishdir. Shu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf rahbarlari uchun ota-onalar, sinf jamoasidagi o'quvchilar bilan quyida keltirilgan tavsiyaviy ishlarni amalga oshirsalar mehnat faoliyatida yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

O'qitishda interfaol metodlarini qo'shish.

Bugungi kunda ta'lim berish tizimi har bir o'quvchining o'ziga xosligini inobotga olgan holda yondashishni talab etishini yaxshi biladi. Bitta yechim hammaga mos keladi deb o'ylay olmaysiz. Shuning uchun butun dunyo o'qituvchilari ko'plab o'qitish metodlarini sinab ko'rmoqda. Sinfni boshqarish onlayn yoki oflayn bo'ladimi, individual ta'lim, o'yinga asoslangan darslar, aylanma sinflar, loyihaga asoslangan topshiriqlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, jamoaviy faoliyat va hamkorlikda o'rganish o'qituvchilar tomonidan o'z sinf jamoalarining tarkibiga qarab qo'llanilmoqda. Turli xil o'qitish metodologiyalarini amalga oshirish siz tomondan samarali sinfni boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi.

Sizning sinfingiz qanday o'quvchilardan iboratligini tahlil qilishingiz va ba'zi noan'anaviy o'qitish strategiyalarini sinfni boshqarish usullariga kiritishingiz kerak. Natijada o'quvchilaringiz dars vaqtida chalg'ishi, shivir-shivirlarga yoki boshqa ishlarga berilish ehtimoli kamayadi [10].

Qiziqarli tadbirlarni rejalashtirish.

Darslaringizda barcha usullardan foydalanishingizga qaramay hali ham sinfda o'qitilayotgan darslaringizga e'tiborsiz yoki qiziqishsiz o'tiradigan o'quvchilaringiz bo'lsa, siz sinfda qiziqarli tadbirlar usulida dars mashg'ulotlarini tashkil qiling. Masalan, mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'quv filmlari, videolar va enerjayzerlarni (tetiklashtiruvchi o'yinlar) qo'shishingiz mumkin. Agar siz ularning e'tiborini jalb qila olsangiz, sinfni boshqarish osonroq bo'ladi.

Ideal xulq-atvor bilan na'muna bo'ling.

Bolalar atrofdagi xatti-harakatlarga taqlid qiladilar. Shuning uchun ota-onalar va keksalar bolalar oldida doimo nutq va muomala madaniyatiga e'tibor berishlari lozim. O'quvchilaringiz oldida o'zingizning xulq-atvoringizni nazorat qilishdan tashqari yaxshi tomonlarini ko'rsata olishingiz kerak. Siz har doim maktab hududida nutqingiz va harakatlaringizga e'tiborli berishingiz kerak. Masalan: Siz dars o'rtasida telefondan foydalana olmaysiz va o'quvchilar ham xuddi shunday qilishdan tiyilishlarini kuta olmaysiz. Chunki o'quvchilaringiz o'zlari guvoh bo'lgan harakatlarini takrorlaydilar.

Shunday qilib, siz har doim o'quvchilaringizga ideal xulq-atvorni ko'rsatishingiz kerak. Bundan tashqari, ular qanday qilib xushmuomalalik bilan gapirishlari, fikrga hurmat bilan qarshi chiqishlari, diqqat bilan tinglashlari, boshqa

odam gaplashayotganda diqqatli bo'lishlari va ko'z bilan aloqa qilishlari kerakliklari haqida ham aytib o'tishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijoby fikr bildirish yoki mukofotlash.

Ijoby fikr-mulohazalar va mukofotlar har kimni har qanday ishda qo'ldan kelganini qilishga undaydi. Agar siz o'quvchilaringiz darsda ko'proq e'tibor berishlarini va sinfdagi mashg'ulotlarda qatnashishlarini istasangiz, ushbu yondashuvdan foydalaning. Doimo o'quvchingizning har qanday yutug'ini e'tirof eting.

Ota-onalarga qo'ng'iroq qilish va ularning farzandlarining sinfdagi faoliyati haqida ijoby fikr bildirish uchun vaqt ajrating. Ushbu ijoby harakatlar natijasida o'quvchilaringiz sinfdagi faolliklari ortadi. O'z vaqtida olingan fikr-mulohazalar, shuningdek, ota-onalarni o'z farzandlarining darslarni o'zlatishirlarni nazorat qilish bilan shug'ullanish uchun majbur qiladi.

Ba'zan o'quvchilaringizni vaqti-vaqti bilan faolliklari uchun mukofotlang. Har qanday o'quvchi sinfdagi ideal xulq-atvorni namoyish qilsa, ularga bonus (qalam yoki shokolad) bering. Siz ko'proq o'quvchilarni ushbu harakat bilan rag'batlantirayotganini ko'rasiz va natijada sizdan mukofot yoki minnatdorchilik olish uchun ya'nada faolliklari ortadi.

Sinf jamoasiga moslashuvchan bo'ling.

Siz uchun ham, o'quvchilaringiz uchun ham har bir kun bir xil emas. Siz sinfning kayfiyatini his qilishingiz va shunga mos ravishda darsni o'tishingiz kerak. Agar siz uzoq vaqt sinfdagi qolsangiz, o'quvchilaringizni ochiq havoga olib chiqing va u yerda darsingizni davom ettiring. Shunday qilib, sinfni boshqarish nima degan savolga javob shundaki, sinfingiz o'quvchilarini tushunish va ularning holatlariga muvofiq boshqarish bu kuchli sinf boshqaruvining namunasidir.

Agar o'quvchilaringiz dars davomida zerikib qolgan bo'lsa, dars davomida tetiklashtiruvchi o'yinlar yoki nostandart savol-javoblar o'yinlaridan foydalaning. Siz vaqt talabiga moslasha olishingiz va ular uchun o'quv muhitini o'zgartirishingiz kerak. Ushbu strategiya o'quvchilaringizga mos keladi va vaqt o'tishi bilan ular sizning darslaringizda zerikmasliklariga ishonishni boshlaydilar. Ishonch samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biridir [10].

Yomon xatti-harakatlarga darhol javob qaytaring.

Ko'pgina o'qituvchilar dars boshlanishidan oldin doskaga chizilgan yoki yozib qo'yilgan noxush narsa va so'zlar, dars davomida tasodifiy hushtak yoki kulgilardan qochib, xatoga yo'l qo'yishadi. Buni kim va nima uchun qilganini so'rab vaqtni behuda sarf qila olmasligingiz tushunarli. Lekin, albatta, bunday hatti-harakat hal qilmasdan qoldirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bir hurmatsizlik yana bir boshqa harakatga olib keladi va siz buni bilishdan oldin butun sinf buday ishlarga qo'shiladi. Birinchidan, nima uchun bu holat sodir bo'lganligini tahlil qilib oling. Agar sizning dars berish uslubingiz ularning e'tiborini jalb qila olmaydi deb o'ylasangiz, hamkasblaringiz bilan darslaringizni qiyosiy taqqoslab ko'ring va ularning metodlaridan darsingizga foydalaning. O'quvchilaringiz bilan chegara saqlagan holda iliq munosabat o'rnatish hamda xushmuomalalik va mehribonligingizdan voz kechmagan holda yomon xatti-harakatlarga qat'iylik bilan munosabatda bo'ling [10].

Zero, siz har safar aybdorlarni ushlay olmaysiz, lekin har safar tartibsizlik vaqtida voqealarga e'tiborsiz bo'lmashingiz va o'z munosabatingizni bazan sinfni ommaviy jazolash orqali namoyon qilganingizda, ular o'z xatolarini tushunishadi. Sinfni boshqarishning eng yaxshi ko'nikmalarini namoyish qilish uchun siz o'quvchilarning odob-axloq qoidalari va maqbul xatti-harakatlar chegaralarini kesib o'tishlariga yo'l qo'ymasligingiz kerak [10].

Xulosa

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham kelajakda ham ustoz ham ota-onadirlar. Faoliyatining boshlanish va o'qituvchilik davrida ta'lim-tarbiya uzviyligida maktab, o'quvchi va ota-onalarning hamkorligi muhim. Yosh avlodga ilm berish faqat ustozning vazifasi emas balki ota-ona, oilasi, atrof-muhit ham birdek mas'uldir. Ayniqsa bolaning tarbiyasida ota-onaning o'rnini beqiyosdir. Ota-ona o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilmi, tarbiyasi bo'lishi shart. Farzandlarimizning ilmi va tarbiyasi bo'lishi uchun o'zimizni ma'naviy rivojlantirishimiz va bola tarbiyasiga befarq bo'lmashingimiz lozim.

Asosiysi, ota - onalarimiz farzandlarimiz taqdiriga befarq emas. Eng muhimi farzandlarini ma'naviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalashni xohlaydi, shuningdek, ota-onalar farzandlarini turli tahdidlar va salbiy ta'sirlardan asrashni istaydilar. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy bug'ini sifatida bolalarning dunyoqarashi, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayet ehtiyejga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Shu sababdan yuqorida berib o'tilgan fikrlarni tavsiviyaviy xususiyati bilan kelajakda bo'lajak boshlang'ich sinf rahbarlari o'z ish faoliyatlarida tadbir etsalar foydadan holi bo'lmaydi. Zero induktiv tahlil qilish ko'nikmalarini maktab faoliyatidagi kompetetsiyalarni kelajakda ish faoliyatida ular uchun manfaatdor bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximqulova M.B., Nurmanova D.J. // Boshlang'ich ta'limdagi va kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish kurslar misolida) // Uslubiy-qo'llanma. Toshkent.- "Qamar-media" nashriyoti.-2022.-80 bet
2. Nurmanova D.J. Sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorlik (bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun) // Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qashqadaryo. 2024-yil 30-aprel. –B 823-829.
3. Raximqulova M.B., Nurmanova D.J. // Boshlang'ich ta'limdagi va kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish kurslar misolida) // Uslubiy-qo'llanma. Toshkent.- "Qamar-media" nashriyoti.-2022.-80 bet
4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishdolarb pedagogik muammo sifatida // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. –С. 956-962.
5. Karamaova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish / International Soionifioz Practical conference "Topical Issues of Science" Xalqaro konferensiyasi. – USA: NEW York university
6. Karamaova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
7. Nurmanova D.J. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish // Ta'lim, fan va inonatsiya. ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 89-92-betlar.
8. Nurmanova D.J. Xorij tajribalari asosida sinf jamoasini boshqarish usullari // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 28-31-betlar.
9. Nurmanova D.J. Boshlang'ich sinf rahbarining innovasion kasbiy kompetentligini shakllantirish // Образование и наука в XXI века|Научно-образовательный электронный журнал (ISSN: 2658-7998) Выпуск №10 (том 1) (январь, 2021) Ст. 92-97.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA MUAMMOLI ТА'ЛИМ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ravshanova Xafiza Komilovna,

Sam vil PYMO 'MM o'qituvchisi+998996235311xafizakomilovna@gmail.com

Annatatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini olib borishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli ta'limni tashkil etishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullari, muammoli o'qitish

samaradorligi omillari, o'qitishning noan'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati nimada ekanligi haqidagi faktlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Muammoga asoslangan o'qitish (PBL), bola, tarbiyachi, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, muammo, yechim.

Annotation: In the article, the use of problem-based educational technologies in conducting the educational process in preschool educational organizations, psychological-pedagogical ways and methods of organizing problem-based education, factors of the effectiveness of problem-based education, non-traditional methods of teaching facts about what constitutes success in transitioning to the problem.

Key words: Problem-based learning (PBL), child, educator, education, upbringing, preschool education, problem, solution.

Аннотация: В статье рассматриваются использование проблемных образовательных технологий при ведении образовательного процесса в дошкольных образовательных организациях, психолого-педагогические способы и методы организации проблемного обучения, факторы эффективности проблемного обучения, нетрадиционные методы преподавания фактов о том, что составляет успех в переходе к проблеме.

Ключевые слова: Проблемное обучение (ПОБ), ребенок, педагог, образование, воспитание, дошкольное образование, проблема, решение.

Kirish. Barchamiz bilamizki yoshlar kelajagimiz poydevori shu nuqtai nazardan kelajak avlodni tarbiyalash ma'ktabgacha ta'limda boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishda hozirgi zamon talabi asosida yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanagan holda ta'lim jarayonini tashkil etish kerak. Bunday ma'suliyatli vazifa esa maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari zimmasiga tushadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilimli, XXI asr ko'nikmalariga ega, yangi zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bunday texnologiyalardan biri "Muammoga asoslangan o'qitish (PBL) texnologiyasidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nega aynan muammoga asoalangan o'qitish texnologiyasidan foydalanishimiz kerak degan savolga javob beramiz.

Asossiy qism. Muammoli ta'lim (PBL) - bu bolalarni o'quv jarayonining harakatlantiruvchisi bo'lishga undaydigan o'qitish uslubi. Muammoli ta'lim real muammolardan murakkab o'rganish masalalarini o'z ichiga oladi va ularni o'quv xonasida muhokama qilinadigan mavzuga aylantiradi; bolalarni oddiy faktlarni o'rganishdan ko'ra muammoni hal qilish ko'nikmalari orqali tushunchalarni tushunishga undashdir. Shuningdek muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash ko'nikmasi (tahlil, umumlashtirish) va bolalarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq bola fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda

muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash bola faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi bolalarga tayyor holda berilmaydi, balki bolalarlar tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

“Muommoga asoslangan o'qitishda ta'lim ishtirokchilari bilim va ko'nikmalarni o'rganishadi, qo'llashadi hamda kompetentlikka ega bo'lishadi, chunki jarayon aniq muammolar yechimini topishga intilishni rag'batlantiradi. Muammoga asoslangan o'qitishning dolzarbligi ta'lim oluvchining o'z shaxsiy hayoti uchun foydalanadigan o'quv mazmunini qanchalik anglash o'lchovi bilan belgilanadi. U mustaqil ishlashga o'rgatishi, fandagi nazariyalarning amaliy muammolar orqali kengroq tushintirilishi bilan ajralib turadi”[3:5].

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- ✓ muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- ✓ muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- ✓ muammo yechimida olinadigan axborotning o'quvchilar uchun muhimligi;
- ✓ pedagog va bola orasidagi munosabat hayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni tarbiyalanuvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur;

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ✓ tarbiyalanuvchining fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni tarbiyalanuvchilarlar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar noan'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;
- ✓ nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi tarbiyalanuvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- ✓ kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish - har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.

MTT larda muammoga asoslangan ta'limdan foydalanish ijtimoiy, xulq-atvor va biologiya fanlarida tanqidiy kompetentsiya, izlanish va bilimlarni qo'llashga yordam beradi. PBL dan foydalanadigan ta'lim modellari bolalarga nazariyani amaliyotga tatbiq etish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim natijalarini yaxshilashi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda muammoli ta'lim va muammoli vaziyat o'qitish tizimida bolalarni faol fikrlashga yo'naltiruvchi metod sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'lim bu-mantiqiy fikr yuritish operatsiyalari (analiz va sintez,

taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash va hakoza) va bolarning izlanishli (tadqiqotchilik) faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va bolaning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining yangi tizimidan iboratdir. Shu bois u ko'proq bola fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy taraqqiyoti va e'tiqodi shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021.
2. Амирова Г.Б. ва бошқалар. Таълимда интерфаол метод ва тренинглр. Ўқув кўлланма. – Тошкент: 2018.
3. Ibragimov A.A. Malaka oshirish ta'limida muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasini qo'llash. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand., 2022.

ВИХРЬ ЗНАНИЙ: МАСТЕРСТВО В ИССЛЕДОВАНИЯХ С ПОМОЩЬЮ ВОВЛЕЧЕНИЯ, ОРГАНИЗАЦИИ И ДОКУМЕНТИРОВАНИЯ

Рахимкулова Махбуба Бахроновна,

доцент кафедры методики дошкольного, начального и специального образования Национального центра обучения педагогов новым методикам в Самаркандской области rahimkulovam438@gmail.com tel: +998917016499

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены пункты мастерства в исследованиях с помощью вовлечения, организации и документирования. Также вы узнаете как превратить исследование в увлекательный и продуктивный процесс, а также как привлечь и мотивировать участников исследования. Статья будет полезна студентам, преподавателям, которые хотят повысить свою эффективность в исследовательской деятельности.

Ключевые слова: исследование, обучение, организация, эффективность, интерактивное образование.

Annotatsiya. Maqolada tadqiqotchilik mahorati, tadqiqotchilikka jalb etish, tadqiqotni tashkil etish hamda uni hujjatlashtirishdagi ustivor vazifalari o'rganilgan. Siz bu maqolada tadqiqotni qiziqarli va samarali jarayonga aylantirishni, shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarini qanday jalb qilish va rag'batlantirish usullarini o'rganasiz. Ushbu maqola tadqiqot ishlarida samaradorligini oshirmoqchi bo'lgan talabalar va o'qituvchilar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: tadqiqot, o'qitish, tashkil etish, samaradorlik, interaktiv ta'lim

Annotation. This article deeply discusses the mastery of research through engagement, organization, and documentation. You will also learn how to make research fun and productive, and how to attract and motivate research participants. The article will be useful to students and teachers who want to increase their efficiency in research activities.

Key words: research, training, organization, efficiency, interactive education.

ВВЕДЕНИЕ. Исследования — это динамичный процесс, который включает в себя постоянное обучение, исследования и открытия. Способность активно заниматься предметом, эффективно организовывать информацию и точно документировать результаты являются важными компонентами успешных исследовательских усилий. В этой исследовательской работе мы углубляемся в значение обучения через участие, организацию и документирование в исследовательском процессе. Исследуя, как участие обогащает учебный опыт, изучая преимущества организации информации для исследовательских целей и понимая важность тщательной документации в академических исследованиях, мы стремимся пролить свет на критические практики, которые лежат в основе успешной эксплуатации исследовательских турбин. Целью данного исследования является подчеркнуть взаимосвязь взаимодействия, организации и документации в содействии обогащенному и эффективному исследовательскому процессу, одновременно подчеркивая ценность этих практик в содействии всестороннему обучению и созданию знаний.

АНАЛИЗЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ.

Обучение через взаимодействие, организацию и документацию

Как участие улучшает процесс обучения?

Вовлеченность играет жизненно важную роль в совершенствовании процесса обучения, особенно с помощью интерактивных методов, которые способствуют активному участию и сотрудничеству между студентами. Интерактивное обучение, которое превратилось в отдельный подход, предполагает диалог и взаимодействие между учителями и учениками, а также между сверстниками [1][2]. Этот тип обучения основан на принципе взаимного взаимодействия, при котором и преподаватели, и учащиеся участвуют в динамичном обмене идеями и знаниями [3]. Применяя интерактивные методы, образовательные учреждения могут способствовать укреплению чувства равенства между учителями и учащимися, способствуя созданию более активной среды обучения [3]. Кроме того, интерактивные образовательные технологии представляют собой инновационный подход, который подчеркивает широкое взаимодействие между студентами, тем самым создавая более увлекательный и захватывающий опыт обучения [4]. Исследования даже показали, что усиление взаимодействия между образовательными учреждениями и работодателями может значительно повысить эффективность процесса обучения, подчеркивая важность совместного участия в образовании [5]. В конечном счете, интерактивные методы, которые сосредоточены на взаимодействии студент-ученик и студент-учитель, предлагают динамичный и эффективный способ облегчить обучение и обмен знаниями в образовательных учреждениях [6].

Каковы преимущества организации информации для исследовательских целей?

Организация информации для исследовательских целей предлагает множество преимуществ, которые улучшают процесс обучения и способствуют

эффективному общению. Составляя полный список студентов на этапе обучения, преподаватели могут структурировать среду обучения и облегчить взаимодействие между студентами. Такая организация не только помогает наметить процесс обучения, но и помогает сформулировать четкие цели и выбрать подходящие методы обучения для сотрудников организации. Более того, интерактивное обучение, форма активного обучения, которая превратилась в отдельный метод, способствует диалогу между учителями и учениками, способствуя совместному и увлекательному образовательному опыту. Этот метод, который подчеркивает такие модели взаимодействия, как «учитель = ученик» и «студент = студент» позволяет осуществлять динамический обмен, который улучшает понимание и сохранение информации. Кроме того, интерактивные образовательные технологии представляют собой инновационные инструменты обучения, которые поощряют широкое взаимодействие между студентами, что еще больше повышает эффективность учебного процесса. В целом организация информации не только оптимизирует исследовательские усилия, но также создает интерактивную и увлекательную среду обучения, которая оптимизирует приобретение и сохранение знаний.

Почему документация важна в академических исследованиях?

Документация играет ключевую роль в академических исследованиях, обеспечивая последовательность, прозрачность и подотчетность на протяжении всего исследовательского процесса. Предоставляя каждой группе один и тот же набор разнообразных документов, связанных с конкретным вопросом или объектом, таких как отчеты и записки, исследователи могут установить общее понимание и основу для своего исследования [7]. Более того, в образовательных учреждениях документация, такая как списки учащихся на различных этапах обучения, служит нескольким важным целям. К ним относятся эффективная организация процесса обучения путем составления списков учащихся, формулирования целей обучения и выбора соответствующих методов обучения для создания структурированной и продуктивной образовательной среды [8]. Интерактивное обучение, форма активного обучения, в которой особое внимание уделяется взаимодействию учитель-ученик и ученик-ученик, подчеркивает значение документации в развитии диалога и сотрудничества между преподавателями и учащимися. Этот интерактивный подход не только способствует получению знаний, но также способствует более глубокому уровню взаимодействия и понимания между участниками [1][3]. Кроме того, интерактивные образовательные технологии, представляющие собой разновидность инновационных инструментов обучения, отдают приоритет широкому взаимодействию между учащимися, позволяя им активно участвовать в процессе обучения и обмениваться идеями со сверстниками для более обогащенного образовательного опыта [4]. В контексте профессионального развития, например, на курсах повышения квалификации для менеджеров по связям с органами власти, документация помогает ознакомить людей с различными методами взаимодействия и стратегиями сотрудничества, необходимыми для эффективного общения и сотрудничества в

государственных органах и сферах связей с общественностью [9]. Таким образом, тщательная документация имеет основополагающее значение не только для академических исследований, но и способствует обучению, сотрудничеству и обмену знаниями в различных образовательных и профессиональных условиях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Исследовательская работа раскрывает жизненно важную роль взаимодействия, организации и документации в совершенствовании процесса обучения в образовательных учреждениях. Обсуждение, возникшее на основе краткого изложения статьи, подчеркивает важность интерактивных методов в поощрении активного участия и сотрудничества между студентами, что в конечном итоге способствует созданию более активной среды обучения. Интерактивные образовательные технологии подчеркиваются как инновационные инструменты, которые облегчают широкое взаимодействие между студентами, что приводит к более увлекательному и захватывающему процессу обучения. Эволюция интерактивного обучения как отдельного подхода, характеризующегося диалогом и взаимодействием между учителями, учениками и сверстниками, подчеркивается как динамичный и эффективный способ облегчить обучение и обмен знаниями. Кроме того, подчеркивается роль тщательной документации в академических исследованиях для обеспечения последовательности, прозрачности и подотчетности на протяжении всего исследовательского процесса, тем самым поддерживая обучение, сотрудничество и обмен знаниями в различных образовательных и профессиональных условиях. Более того, организация информации для исследовательских целей подчеркивается как предлагающая многочисленные преимущества, которые улучшают процесс обучения и способствуют эффективному общению в образовательных учреждениях. В конечном итоге дискуссия подчеркивает важность интерактивных методов, тщательной документации и организованной информации для создания благоприятной среды обучения и продвижения знаний в области образования.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Использование технологий интерактивного обучения на (n.d.) retrieved May 10, 2024, from externat.foxford.ru
2. Интерактивные методы как условие интерактивного (n.d.) retrieved May 10, 2024, from interactiv.su
3. Интерактивные методы, формы и средства обучения. (n.d.) retrieved May 10, 2024, from <http://rumk.belynichi.edu.by/ru/main.aspx?guid=23671>
4. Интерактивные образовательные технологии. (n.d.) retrieved May 10, 2024, from edu.itmo.ru/ru/edutech_iteractiv/
5. ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ (n.d.) retrieved May 10, 2024, from cyberleninka.ru
6. Интерактивные методы обучения в вузе как (n.d.) retrieved May 10, 2024, from e-koncept.ru/2013/13219.htm
7. Интерактивные методы обучения в современной (n.d.) retrieved May 10, 2024, from niidpo.ru

8. Документация на этапе «Обучение» (с примерами). (n.d.) retrieved May 10, 2024, from habr.com/ru/articles/810531/

9. Взаимодействие с органами власти. GR. Лоббирование (n.d.) retrieved May 10, 2024, from www.itctraining.ru/kalendar/marketing-reklama-pr/3557/

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Ergasheva Gulshoda Amirovna,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi
gulshodaergasheva8@gmail.com+998979270980

Annotatsiya Savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash Savod o‘rgatish jarayonida “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘g‘in” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion, innovatsion texnologiya, tahlil-tarkib, savod o‘rgatish, talaffuz, ko‘rgazma, bo‘g‘in, matn

Аннотация. Использование инновационных технологий в процессе обучения грамоте знакомит с терминами «Слово», «Звук», «Слог» и учит правильному произношению в процессе обучения грамоте.

Ключевые слова: Инновационная, инновационная технология, анализ-содержание, обучение грамоте, произношение, выставка, слог, текст

Abstract. Use of innovative technologies in the process of literacy training introduces the terms "Word", "Sound", "Syllable" and teaches correct pronunciation in the process of literacy training

Key words: Innovative, innovative technology, analysis-content, teaching literacy, pronunciation, exhibition, syllable, text.

Savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash eng ahamiyatga ega. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan yangi talab yangi “yangilik” ya’ni “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” tushunchalarini anglash talabi ortdi. “Innovatsiya” so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi.

Savod o‘rgatish jarayonida “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘g‘in” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi. Gaplar so‘zlardan tuzilishi haqidagi fikrga olib kelinadi. 2-4 so‘zlardan tashkil topgan gap tuzish, so‘zlarga ajratish o‘rgatiladi. Murakkab so‘zlarni bo‘g‘inga ajratish necha bo‘g‘in ekanligini aniqlash va bo‘g‘nlardan o‘zak so‘zlar tuzish o‘rgatiladi.

Savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko‘ra matndan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in va tovush yoki, aksincha, tovush - bo‘g‘in, so‘z – gap – matn uzviy aloqada butundan bo‘lakka, bo‘lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar nutqining ravon bo‘lishida savol- javob usuli ham yaxshi natija beradi. Bu usul o‘quvchilarni faollashtiradi, nutqiy vaziyatga

soladi. Biz bolalarga beriladigan savollarni shunday tuzishimiz kerakki, ularning javobi “*ha*” yoki “*yo‘q*” so‘zlaridan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Ularni o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga majbur qiladigan vaziyatga olib kirishimiz kerak.

Savod o‘rgatish darslarida yana ko‘rgazmalilik usuli keng qo‘llaniladi. Bu usulni chex pedagogi Komenskiy ta‘limning asosiy qoidasi deb biladi. “Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi”. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishlari lozim: ko‘rish, eshitish, hatto ta‘m bilish sezgisi ham. Chunki ular aniq narsa, predmet va hodisaga qarab fikrlaydi.

Savod o‘rgatishda tushuntirish va bayon qilish usuli keng qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi nutq madaniyatiga e‘tibor berishi, sodda ravon, ifodali qilib so‘zlashi kerak. Bola tabiati ortiqcha ko‘p so‘zlilikni yoqtirmaydi. Shuning uchun ularni tinglay olish imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Savod o‘rgatishda o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularni to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimni boyitish, mavhum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas‘uliyatligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Tayorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin tayyorlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgarlar nutqini eshitish, diqqatini to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O‘qishga o‘ragatish uchun avvalo o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshiroq tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan, tovushdan ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya‘ni harflab emas ichida birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalsini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e‘tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rag‘batiga sazovor bo‘lishga intiladi. Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta‘lim- tarbiya birligiga e‘tibor beriladi. O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. O‘quvchi matnga fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday hislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zaruriligini anglaydi. Shuning uchun ongli o‘qishni matn bilan ishlangan namunali rasmlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim.

O‘qishning ongliligini va ta‘sirchanligini ta‘minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilarning korgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bo‘g‘lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining 3/2 qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

So'zlarni tovushlarga ajratish.

I. So'zlarni tovushlarga ajratish tahlil qilinayotgan so'zlar tartibini aniqlash asosida quyidagilar o'rgatiladi.

- tovushlarga sifatli xarakteristika;
- unlilar;
- undoshlar (jarangli va jarangsiz undoshlar);
- qattiq va yumshoq talaffuzli so'zlar;
- aytilishi va ishlatilishida farqlash kerak bo'lgan harflar.

II. Tahlil qilinayotgan so'zdagi unli bo'g'inni topish, o'rni aniqlash (bosh, o'rta, oxiri). Unli harflar bilan tanishtirishni davom ettirib ularni yozilish qoidalarini o'rgatish: o-a, i-e u-o' (lot. grefik.)

III. Undosh tovushlar bilan yozma tanishtirish. Kesma harflar bilan ishlash, so'zlar tuzish, bo'g'inlar hosil qilish (ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in)

O'qish. Alfavit matnlari asosida bolalarni sidirg'a bo'g'inlar o'qishga o'rgatish. Demak, so'roq undov gaplarning o'qilishini o'rgatish. Ongli ravishda o'qish malakasini hosil qilish borasida maxsus ish olib borish.

Termin: o'qitish davrida quyidagi terminlarni kiritish.

- | | |
|---------------------|----------------------|
| 1. Gap; | 7. Jarangsiz undosh; |
| 2. So'z; | 8. Urg'uli bo'g'in; |
| 3. Tovush; | 9. Urg'usiz bo'g'in; |
| 4. Unli; | 10. Nuqta; |
| 5. Undosh; | 11. So'roq belgisi; |
| 6. Jarangli undosh; | 12. Undov belgisi |

Natijada bolalar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

o'qituvchining talabiga ko'ra yordamchi so'zlar ishtirokida 3- 4 so'zli yoyiq gaplar tuzish;

- turli qiyinchilikdagi so'zlarni talaffuz qilish va tovush tahlili;
- kesma harflar asosida so'z tuzish;
- alfavit harflarni to'la bilish;
- kichik matnli tekistlarni bo'g'inlab o'qish.

Grafik malakalar va bosma yozuv.

I. Qo'l harakatini rivojlantirish, yozuv gegiyenasiga rioya qilgan holda, to'g'ri o'tirish, daftsr tutish, qalam ushlab, qog'oz varag'ida belgi va so'zlarni to'g'ri joylashtirishni o'rgatish davom etadi.

O'z oldiga maqsad qo'yish, maqsadiga erishish, vazifani bajarish jarayonini nazorat qilish, natijani baholash, diqqat va esda saqlab qolishni o'rganish kerak bo'ladi.

Belgi va nuqtalarga qarab, narsalarni rasmini chiziqlar yordamida (nuqtalarni) birlashtirib, bezak naqshlari hosil qilishni o'rganish kerak bo'ladi.

II. Alifbodagi yozma haraflarni yozishni o'rganish. Bosh va kichik harflarni bosma usulida yozish, harflarni to'g'ri joylashtirish, so'z va gaplarni satr chizig'iga to'g'ri taqsimlab yozish o'rgatiladi. Mustaqil so'z va gaplar berilganiga ko'ra, bosma harfli matn tuzish, diktura orqali o'tilgan qoidalar asosida gap yozishni o'rgatish.

Natijada bolalar katakli va chizikli daftar varag'ida to'g'ri joylashtirish malakasini hosil qilishlari, chetga chiqib ketmasdan narsa rasmini parallel to'g'ri chiziq bilan chizish, qo'yilgan maqsadga erishish, natijani baholash, yozuv gegiyenasiga rioya qilish malakalarini hosil qilishlari kerak. Alfavit harflari barchasini (bosh va kichik) bosma usulda yozish, ulardan so'zlar tuzish, satr chizig'iga amal qilishni bilishlari kerak.

Savod o'rgatish darslari o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafasat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish, bilim manbai bo'lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Abdullayeva va boshqalar. "Savod o'rgatish metodikasi". "O'qituvchi" 2020
3. T.Jabborova. X.G'ulomova. G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari 2019
4. G'afforova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", Toshkent, "Tafakkur", 2020-yil.

FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARIDA LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA VIRTUAL SIMULYATORLARDAN FOYDALANISH

Jumaniyazov Amirbek Umarbekovich,

SVPYMO 'MM Fizika va astronomiya fani metodisti, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Ximmatova Jannatoy Kuchmuradovna,

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarini visual shakilda virtual simulyatsiyalar tajribalarining yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, o'qitish usuli, o'rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish – illustrasiya qilish, o'quvchilarning fizikaviy tafakkurini rivojlantirish, amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi maqolada yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Virtual tajribalari, eksperimental tajriba, simulyatsiyalar, fizikaviy qonuniyat, jarayon, fizikaviy tushuncha, dars, fizik hodisa.

Аннотация: В учебном процессе виртуальные симуляционные лабораторные эксперименты являются новым источником знаний в наглядной форме. В статье уточняется, что фундаментальные основы физических теорий, методики обучения, визуализации – иллюстрации изучаемых явлений, развитие

физического мышления учащихся, практических навыков и знаний являются средством развития навыков.

Ключевые слова: Виртуальный опыт, экспериментальный опыт, моделирование, физический закон, процесс, физическая концепция, урок, физическое явление.

Abstract: In the educational process virtual simulation laboratory experiments are a new source of knowledge in a visualized form. The article specifies that the fundamentals of physical theories, teaching methods, visualization - illustration of the studied phenomena, development of students' physical thinking, practical skills, and knowledge are the means of skills development.

Keywords: Virtual experience, experimental experience, modeling, physical law, process, physical concept, lesson, physical phenomenon.

Virtual laboratoriya - bu haqiqiy laboratoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ularning to'liq yo'qligida tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy ta'minot kompleksidir.

Tok manbaining elektr yurituvchi kuchini va ichki qarshiligini aniqlash mavzusidagi virtual laboratoriya ishini bajarish haqidagi ma'lumotlar joy olgan ushbu maqolada, fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda samaradorlikka erishish uchun virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Virtual laboratoriyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan manbalar quyidagilar:

<https://phet.colorado.edu/lgan>

<https://crocodile-physics.software.informer.com/>

RNDr. Vladimír Vašćák – osobní stránky učitele z Moravy (vascak.cz)

Virtual laboratoriya ishlarini bajarishda qaysi manbalardan foydalanish keltirib o'tilgan. Bundan tashqari virtual laboratoriya ishining qulayligi, soddaligi, hamma istalgan vaqtda foydalana olishi ko'rsatib berilgan.

An'anaviy laboratoriyalar bilan taqqoslaganda, virtual laboratoriyalar bir qator afzalliklarga ega:

➤ virtual laboratoriyalar xavfsizroq, ya'ni yuqori kuchlanishli yoki xavfli kimyoviy moddalar bilan ishlashda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish qulay;

➤ virtual ishlar ko'p qirrali, shuningdek, moslashuvchanlik va turli obyektlarga moslashish qulayligini ta'minlaydi;

➤ oddiy sharoitda imkonsiz bo'lgan yoki uni o'tkazish katta vaqt va moddiy harajatlar bilan bog'liq bo'lgan tajribani o'tkazish mumkin bo'ladi;

➤ shaxsiy kompyuterdan foydalanish nafaqat bajarilishini nazorat qilishni, balki talabani aniq laboratoriya ishini bajarishga tayyorlashni ham soddalashtiradi;

➤ kompyuterdan foydalanish yaxshi o'qigan o'quvchilarga o'quv materialini tezroq o'zlashtirishga va ortda qolganlarni kutmaslikka imkon beradi;

➤ virtual laboratoriya ishining grafik imkoniyatlari real qurilmalar bilan yoki ikki o'lchovli shaklda tasvirlab bo'lmaydigan ko'p o'lchovli jarayonlarni ko'rish imkonini beradi;

➤ laboratoriya ishlarini yaratish harajatlarini kamaytirish qisqa vaqt ichida ularning bazasini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi va shu bilan

o'qitishda ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

➤ Fizika o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham borligini ta'kidlash lozim:

➤ haqiqiy tajribani kompyuter bilan to'liq almashtirib bo'lmaydi;

➤ muhandislik fakulteti talabalarini o'qitishda juda muhim bo'lgan asbob-uskunalar bilan ishlashda amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi;

➤ mavzu ko'rinishining yetishmasligi.

Virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, shuni aytmoqchimanki, axborot texnologiyalari an'anaviy texnologiyalarni to'ldirishi kerak, balki ularni almashtirmasligi kerak. Kompyuter tajribasi o'quv jarayonini yanada rang-barang, qiziqarli va hayajonli qiladi, lekin u haqiqiy eksperimentni to'liq almashtira olmaydi.

Virtual simulyatsiyalar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etishning boshqa uslubiy talablari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar tajriba o'tkazishga tayyor bo'lishlari shart emas. Eksperiment g'oyasi, uning borishi va olingan natijalar o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Shu maqsadda o'qituvchi o'rnatish sxemasini, uning barcha tarkibiy qismlarini tushuntirishi, o'lchov vositalariga yoki kuzatilgan ta'sir sodir bo'lgan elementlarga e'tibor berishi kerak.

2. Iloji bo'lsa, tajribalar bir nechta usullarda o'tkazilishi kerak (ayniqsa, bu o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga hissa qo'shsa).

3. Darsdagi virtual simulyatsiyalar soni juda ko'p bo'lmasligi kerak. Virtual simulyatsiyalar o'quv materialini o'rganishga hissa qo'shishi va darsdagi asosiy maqsaddan chalg'itmasligi kerak. Agar darslarda o'tkaziladigan tajriba uchun kerak bo'lgan asbob va uskunalar yo'q bo'lsa Virtual simulyatsiyalar soni ko'p bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Agar uskuna imkon bersa, ko'rgazmali tajribalar miqdoriy nisbatlarni o'rnatish bilan amalga oshirilishi kerak.

5. O'quv materialini o'rgatish jarayonida ko'rgazmali blok o'quvchilar oldida yig'ilishi kerak. Faqat juda murakkab uskunalar ishlatilsa, o'rnatishni oldindan yig'ish mumkin (shuning uchun tayyor stendlardan foydalanmaslik kerak).

6. O'rnatish imkon qadar ishonchli bo'lishi kerak.

7. O'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, nosozlikni topish va tezda bartaraf etish va ijobiy natijaga erishish uchun tajribani takrorlash kerak. Agar berilgan sharoitda buning iloji bo'lmasa, o'quvchilarga rad etish sababini tushuntirish kerak va keyingi darsda namoyishni takrorlashni unutmaslik lozim.

8. Maktab sharoiti uchun mavjud bo'lgan ko'rgazmali eksperiment tegishli kino kliplar yoki kompyuter animatsiyalari namoyishi bilan almashtirilmasligi kerak.

Namoyish texnikasi ikkita talabga javob berishi kerak:

1. Namoyish qilish usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

2. Namoyish davomida o'rnatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko'rinishiga erishish kerak.

Virtual laboratoriya ishlarini qo'llashning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda laboratoriya tajribalarini tashkil qilish uchun murakkab qurilmalarni yasash, qurilmalarni saqlash, almashtirish shart emasligi bilan bir qatorda ta'mirlash ishlari, asboblarni tozalash kabi ishlar bajarilishi shart emas. Hamma laboratoriya ishlari kompyuter xotirasida yoki tashqi xotirada elektron variantda va bir joyda saqlanadi. Kompyuter qurilmasi xavfsiz, ishlatish qiyin emas va shu bilan birga foydalanuvchidan faqatgina belgilangan maxsus dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini talab qiladi. Xozirgi kunda virtual laboratoriyalar mobil telefonlarda ham ishlash funksiyalari berilgan bo'lib, o'quvchilar xohlagan vaqti kirib o'zi qiziqqan yoki tushunolmagan amaliy topshiriq, laboratoriya va loyiha ishlarini bajarishlari mumkin.

Maktab fizika kursining har bir mavzusidan majburiy ko'rgazmalar ro'yxati dasturda mavjud. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o'z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Kavendish, Shtern, Ersted, Faraday, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba'zilar maktab sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino, televizor yoki kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o'ylangan bo'lishi va tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o'rnini ham aks ettirishi kerak.

O'rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo'llashnilishini ko'rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika va texnika o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, balki o'quvchilarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi ob'yektlar bilan tanishish fizikani o'rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, o'quvchilarning ilgari o'rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Бугаев А.И. Методика преподавания физики. Теоретические основы. - М.: Просвещение, 1981. 288с.
2. Хорошавин С.А. Физический эксперимент в средней школе. -М.: Просвещение, 1988. -175 с.
3. Niyazxonova V.E. Dars jarayonida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.
4. Orifjanov U. va boshqalar. Fizikadan savol va masalalar to'plami. -T.: "Turon Ikbol", 2007. 126 b.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

BOLANI QIZIQTIRISH ORQALI UNING QOBILIYATI VA XARAKTERINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Suvanova Nilufar Akbarovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning qobiliyati va qiziqishlariga qarab uni baholash, tashxislash, to‘g‘ri yo‘naltirish kabi omillar bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan, tadqiq etilgan va yechimlari borasida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: iste‘dod, qobiliyat, qiziqish, xarakter, did.

Qobiliyat insonning aqliy salohiyati, intellekti imkoniyatidir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi. Bilim shaxsning hayoti davomida o‘rganish, ko‘nikma, malaka natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi.

Qobiliyat tug‘ma va orttirilgan sifatlarga ega va shaxs tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida rivojlanib boradi. Qobiliyat muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan individual xususiyatdir. Xarakter xususiyati deyilganda esa shaxs ehtiyojlari, qiziqishlari, istaklari, moyilligi, e‘tiqodi, orzulari va dunyoqarashi tushuniladi [2].

Alisher Navoiydagi she‘riyatga bo‘lgan qiziqish ilk bolalik davridan ilg‘ab olingan va unga har tomonlama ko‘mak berilgan. Natijada Hazrat Navoiy buyuk shaxs bo‘lib yetishdi va “She‘riyat sultoni” degan nomni oldi. Demak, qobiliyatni rivojlantirish zarur. Bordi-yu qobiliyatning ichki belgisi – qiziqish bo‘lmasa, uni rivojlantirib bo‘lmaydi. Masalan, pianinochi bo‘lish uchun bir emas, bir nechta qobiliyatga ega bo‘lish zarur. Pianinochi maromni sezishi, musiqiy ohangni his qilishi, xotira yaxshi rivojlangan bo‘lishi, qo‘l barmoqlari mayin va aniq harakat qilmog‘i lozim. Bunga yana musiqiy did, hissiylik va ko‘pgina boshqa qobiliyatlar qo‘shiladi. Ana shu xususiyatlar bo‘lganda, sanab o‘tilgan barcha qobiliyatlarni o‘qish va mashq qilish jarayonida rivojlantirish mumkin. Chunonchi, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, al-Farg‘oniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Forobiy, Rudakiy, A.S.Pushkin, Shekspir, Paskal, Leonardo Davinchi, Mekilandjelo kabi allomalarda qobiliyat va iste‘dod juda erta, ya‘ni bolalik davridan hayratlanarli darajada rivojlangan[3].

Zamonaviy, madaniyatli kishilarning qiziqishlari turli-tuman bo‘ladi. Qiziqishlar yoshga qarab o‘zgarib turadi. Uch yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan sog‘lom bolalarda hamma narsani bilishga qiziqish yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning eng ko‘p ishlatadigan so‘zlari “Bu nima? Nega? Nima uchun?” kabi savollardan iborat bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yinchoqlar va mazmunli o‘yinlarga qiziqish uyg‘onadi. Xuddi shu davrda bolada rasm chizish, jonli tabiat va hayvonlarga qiziqish paydo bo‘ladi.

Qiziqishlarning turidan tashqari, ularning ijtimoiy mavqeyi va kengligi ham ahamiyatlidir. Hech narsaga qiziqishni istamagan shaxslar faqat o‘z hunari va imkoniyatlari bilan cheklanib qoladilar. Boshqa hech bir narsa deyarli ularni qiziqitirmaydi. Qiziqish doirasi keng bo‘lgan odam ko‘proq bilishga intiladi. U fan-texnikaning turli xil sohalarini egallab, ijtimoiy-siyosiy masalalar, san‘at hamda sportga qiziqadi. Lekin sanab o‘tilgan barcha qiziqishlar bir xil qimmatga ega bo‘lmaydi. Ulardan biri asosiy, qolganlari ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi.

Qiziqishning barqarorligi ham ahamiyatlidir. Ba'zilarida ularning asosiy qiziqishlari doimiy hamroh bo'ladi, boshqalarda tez paydo bo'lib tez o'tib ketadi.

Psixopatiyalarda, ko'pincha qiziqishlar beqaror bo'ladi. Natijada, kishi shunchaki qiziquvchan bo'lib qoladi, amalda esa hech bir faol ish qilmaydi yoki chala bajaradi. Qiziqishlar kuchli va sust bo'lishi mumkin. Kuchli qiziqqan odam to'siqlarni yenga oladi, kerak bo'lsa qurbon bo'ladi. Insonga ta'rif berish uchun uning qiziqishlarini batafsil o'rganish zarur.

Fanda aql va idrok masalasi, shaxsning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi tizimini aniqlashda ishonchli metodikalar yaratib har bir shaxsning aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Tadqiqotchi L.Vigotskiy o'z tadqiqotlarida aqlning haqiqatdan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatib berdi [5].

Ma'lumki, faqat 5 foizgina shaxslar o'z qobiliyatini turli sohalarda ko'rsatib, hayotda o'zi xohlagan cho'qqilarga chiqa oladi. Qolgan 95 foiz shaxs o'z oldiga faqat maqsad qo'yadi, lekin hech qachon ularga yeta olmaydi. O'ziga ishonch, tajriba, qobiliyat yetishmaydi. Qobiliyatli buyuk shaxslar aql-zakovati va ilmi bilan ko'pincha yuqori darajasigacha yetgan bo'ladi.

Har bir odamning dunyoqarashi ko'proq uning biror maqsadga intilishi, tarbiyasi orttirgan bilimlari va hayot tajribasiga bog'liq. Ijtimoiy shart-sharoitlar kishining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Agar ular dunyoqarashi jamiyatda kechayotgan salbiy jarayonlarga mos kelmasa va shunday bo'lsa-da, bu jarayonlar ijobiy deb tan olinsa, bu holat shaxsning jamiyat va atrofdagilarga bo'lgan munosabatini butunlay o'zgartirib yuboradi.

Shaxs kamol topishida qobiliyat va iste'dodning o'rni beqiyos. Insonlarda ilk bolalik davridan boshlab nimagadir qobiliyat nishonalari bo'ladi yoki bo'lmaydi. Buni ota-ona va pedagoglar darrov ilg'ab olib uning qiziqishini to'g'ri yunaltirsa, keyinchalik bola buyuk shaxs bo'lib yetishishi mumkin.

O'rganishlarimiz natijasini Samarqand shahar 29-maktabning 3-sinf o'quvchilari misolida olib qaraydigan bo'lsak ularning qobiliyatlarini va qiziqishlarini o'rganib chiqib, "Siz nimaga qiziqasiz?" mavzusida so'rovnomada 37 nafar o'quvchi qatnashib, natijalarini tahlil qilganda (albatta bolalarda qiziqishlar o'zgarib turadi) quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi:

- Aniq fanlarga qiziqadigan va layoqati bor – 9 nafar
- Kitoblarni mutolaa qilishga qiziquvchilar – 1 nafar
- Texnikaga qiziquvchilar – 2 nafar
- Quruvchilikka qiziquvchilar – 1 nafar
- San'atga qiziquvchilar – 1 nafar
- Rasm chizishga qiziqadigan va layoqati bor – 6 nafar
- Shaxmatga qiziquvchilar va layoqati bor – 2 nafar
- Hunarga qiziquvchilar – 2 nafar
- Sportning futbol va boshqa turiga qiziquvchilar – 3 nafar
- Sportning suzish turiga qiziquvchilar – 1 nafar
- Hayvonlarni boqishga qiziqadiganlar -1 nafar

- O‘simliklarga (gulchilikka) qiziqadiganlar – 2 nafar
- Robototexnikaga qiziquvchilar – 1 nafar
- Qiziqishlarini aniq ayta olmaganlar – 5 nafarni tashkil etdi.

Lekin zamonaviy internet tarmoqlariga, ommaviy axborot vositalariga, telefonlar va kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishlari so‘ralganda hamma o‘quvchi qiziqishini yozgan. To‘g‘ri, bugungi kunimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz, ammo biz pedagoglar ota-onalar bilan birgalikda o‘quvchilarning mediasavodxonligini oshirishimiz va undan maqsadli hamda belgilangan vaqtlarda foydalanishga o‘rgatishimiz, o‘quvchilardagi qiziqish va qobiliyatlar o‘rnini maqsadsiz, tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan, vaqtini behudaga sarflaydigan o‘yinlarga bog‘lanib qolishidan saqlashimiz lozim. Aks holda o‘quvchilardagi qobiliyat va qiziqishlar yo‘qoladi.

Yuqoridagi so‘rovnomaning 2-varianti 3-sinf o‘quvchilarining ota-onalaridan “Kelajakda farzandingizni mustaqil kasb tanlashiga va qobiliyatiga qarab o‘zi qiziqqan sohasi bilan shug‘illanishiga sizning munosabatingiz” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazilganda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

- Farzandimning qarorini qo‘llab-quvvatlayman – 7 nafar
- Biz ota-onalar farzandimiz uchun kasb tanlaymiz – 21 nafar
- Farzandimiz qaysi kasbni tanlashini vaqt ko‘rsatadi – 9 nafar
- So‘rovnomada qatnashmadi – 2 nafar

Bundan ko‘rinib turibdiki aksariyat ota-onalar kasblarning moddiy tomoniga, mavqeyiga, e‘tibor qaratib, farzandining iqtidori, qiziqishi layoqatiga ahamiyat berishmayotgani ayni haqiqat. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda bu muammoga juda ko‘p duch kelamiz. Bugungi kunda ta‘lim - tarbiya jarayonida pedagoglar, psixologlar va ota-onalar hamkorlikda o‘quvchilarning iste‘dodiga va qobiliyatiga qarab kasblarga yo‘naltirishsa kelajakda har tomonlama komil va buyuk shaxslarni voyaga yetkazishda yuqori natijalarga erishgan bo‘lamiz.

Kelajak avlodlarni ajdodlarimizga mos qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan hisoblanmoqda. Bu biz pedagoglar va psixologlarga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan psixologlarga qulay ish sharoitini yanada yaxshilash, ta‘lim oluvchilar bilan ko‘proq ishlashi uchun imkoniyat maydonini kengaytirish lozim. Shaxs kamolotga yetishi davomida turli davrlarni boshdan kechiradi. Ushbu davrlarda bolalarda ruhiy o‘zgarishlar kuzatilishini hisobga olib, komil inson bo‘lib shakllanishida, salbiy o‘zgarishlarni ta‘sirida qolishini oldini olish lozim. Bu davrlarda shaxsning komil inson bo‘lib yetishi, ruhan barkamol bo‘lishi uchun barchamiz mas‘ulmiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimov A.A. Xalq ta‘limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped. fan. (PhD)... diss. – Samarqand, 2018. – 215 b.
2. Jo‘rayev N. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Psix.fan.nom...diss. – Toshkent, 2009. – 124 b.

3.Yusupova G. Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi. Ped.fan.b.fals.dok...diss. – Urganch, 2020. – 148 b.

4.Yo'ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 1997. – 186 b.

5.Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М. Просвещение, 1991. – 93 с.

BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Xaitova Sharofat Shamurzaevna,

Past Darg'om tumani 62-maktab biologiyafani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish va uni hal qilish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim texnologiyasi, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, optimal yechim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются вопросы создания проблемных ситуаций на уроках биологии. Представляются сведения о методах их предотвращения.

Ключевые слова: Современные образовательные технологии, проблемное обучение, решающая ситуация, оптимальное решение, знания, навыки, квалификация, компетенция.

Abstract: In this article is seen creating problem situations in the lessons of biology and there are informations about solving this problems.

Keywords: Modern educational technology, problem-based learning, problem-solving situation, optimal solution, knowledge, skills, qualifications, competence.

Ta'lim jarayonida salmoqli o'rin egallagan muammoli darslar zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'lgan muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan. Mazkur darslarning o'ziga xos xususiyati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, balki ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv tadqiqotlarni bajarish asosida o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. Muammoli dars jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Muammolar nazariy va amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darslarda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan bo'lishi kerak. Muammoli ta'lim texnologiyasi uch bosqichda olib boriladi

1. Muammoli vaziyat vujudga keltiriladi;
2. Mulohaza yuzasidan o'quvchilarning fikrlari tahlil qilinadi;
3. Muammoning eng optimal yechimi keltirib chiqariladi ;

Botanika fanidam "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish" mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasini quyidagi jadval asosida o'tkazish mumkin.

O'quvchi tarqatmasi

Muammo

Muammoning kelib chiqish sababi

Muammoning yechimi

Bugungi kunda osimlik turlari kamayib ketmoqda.

O'qituvchi tarqatmasi

Muammo

Muammoning kelib chiqish sababi

Muammoning yechimi

Bugungi kunda osimlik turlari kamayib ketmoqda.

1. Xomasho o'simliklaridan samarasiz foydalanish.

3. Dorivor o'simliklardan rejasiz foydalanish sababli o'simliklar kamaymoqda.

3. Orol dengizi qurishi tufayli, unung atrofidagi o'tloqlar qirilib ketmoqda..

6. Aholi tabiatdan noto'g'ri foydalanishi oqibatida, kopchilik o'simliklarning turlari kamyob bo'lib qolmoqda.

1. Tog'da dam oluvchilar o'simliklarni ildizi bilan sug'urmasligi kerak.

2. Yetmak, rovoch, kiyiko'ti, shirach kabi boshqa dorivor o'simliklarni k'o'paytirish usullari va asrab-avaylash to'g'ri yo'lga qoyilishi kerak.

3. Tabiblar, xususiy tadbirkorlar dorivor o'simliklardan to'g'ri foydalanishlari zarur.

4. Yer osti suvlaridan me'yorida foydalanish.

5. Orol dengizi atrofida oqar suvlarni tashkil qilish

6. "Qizil kitob"ni qayta ko'rib chiqish.

7. Aholining ekologik madaniyatini oshirish choralari tashkil qilish.

"Odam va uning salomatligi" fanini o'qitishd ham muammoli ta'lim texnologiyasidan quyidagicha foydalanish mumkin.

O'quvchi tarqatmasi

Muammo

Muammoning kelib chiqish sababi

Muammoning yechimi

Aholi orasida turli xil kaslliklar

ko‘paymoqda.

Muammo	O‘qituvchi tarqatmasi Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
Aholi orasida turli xil kaslliklar ko‘paymoqda.	1.Yod miqdorining kamayishi	1.Oziq mahsulotlariga yodlangan tuz ishlatish zarur
	2.Vitaminlar kamayishi	2. Tuproqlar yodlanib, yod tanqisligini oldini olish kerak.
	3.Turli xil asabiy toliqishlar	3.Vaqtida dam olish
	4. Ovqatlar tarkibida kalsiy va fosfor tuzlarining kamayishi	4.Vitaminga boy oziq mahsulotlaridan iste‘mol qilish kerak
	5.Dorilardan noto‘g‘ri foydalanish	5.Asabni saqlash kerak
	6.Turli xil mahalliy giyohlardan foydalanish	6.To‘g‘ri ovqatlanish zarur
		7.Kalsiyga boy oziq mahsulotlaridan iste‘mol qilish
		8.Quyosh nuridan to‘g‘ri foydalanish
		9. D vitamindan me‘yorida iste‘mol qilish zarur
		10 Mahalliy sharoitda giyohlardan to‘g‘ri foydalanish

Biologiyani o‘qitishda muammoli darslar o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish darajasini orttirish, ko‘nikmalarni malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo‘llanilib, unda o‘quvchi o‘quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma‘lumotlarni umumlashtirib yangi axborot oladi. Muammoli ta‘lim texnologiyasida o‘quvchilarni muammoli vaziyatni tushuntirishlari, uning kelib chiqish sabablarini va ularni yechish chora-tadbirlarini tuzish imkoniyatlarini o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, “Muammoli ta‘lim texnologiyasi”dan biologiya o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarini nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.Muammoli ta‘lim texnologiyasi orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar yanada rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tolipova J.O. va boshqalar. Odam va uning salomatligi darslari (O‘qituvchi kitobi) Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining biologiya o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. (8-sinf) “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2016-y.

2.Mavlonov O. Tilavov T, Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). Davlat ilmiy nashriyoti. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. Toshkent, 2019-y.

GEOGRAFIYA TA'LIMINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li,

Guliston davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrası o'qituvchisi,

e-mail: saidjonahmadqulov5@gmail.com

Fayzullayev Manas Musurmonqul o'g'li,

Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik"

kafedrası o'qituvchisi, e-mail: Manasfayzullayev95@gmail.com

Annotatsiya. Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar. Innovatsion, Maktab texnologiyalar, o'qituvchi, didaktik, geografiya.

O'zbekiston, Rossiya va boshqa qator MDH davlatlari ta'lim tizimiga XX asrning 90-yillaridan boshlab «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Ilg'or pedagogik texnologiyalari», «Maktab texnologiyalar», «Axborot texnologiyalari» va boshqa shunga o'xshash tushunchalar kirib keldi.

XX asrga kelib fan texnikaning yuksak darajada rivojlanish munosabati bilan ta'lim tizimida xam qator muammolar vujudga keldi. Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish kiradi.

Shu maqsadda XX asrning 50-70- yillarida AQSh da B.Blum, D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tomonidan rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik siklni o'z ichiga olgan texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar so'ngra Yevropada qo'llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi.

"Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi."-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga

o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o'zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, engso'nngi ilm-fan yutuqlaridan, o'zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi talab etiladi.

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsadqilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda.

Geografiya o'qituvchisi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma'lum bosqichida lokal (modul) darajada qo'llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o'rganilib, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o'yin mashqlar, musobaqa, trening o'tkazadi. O'quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko'nikma va malakalarni egallagandan so'ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o'tkazishi, ya'ni xususiy metodik darajada qo'llashi mumkin.

Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, darsda o'quvchilarning bilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo'llarini belgilashi lozim.

Biz pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratdik:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

2. Geografiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Geografiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga:

Didaktik o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi va an'anaviy ta'lim texnologiyalari kiradi. Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi

bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Geografiya fanida ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash Geografiya o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi

Geografiya ta'limida ko'pincha o'qitish texnologiyalari ilgaritdan qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo'llanilmoqda. I.V.Dushina (2004) geografiya ta'limida qo'llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi; o'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; kommunikativ – aloqa texnologiyasi; o'quvchilarni loyixalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

Hozirgi paytda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslari quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilishi lozim.

Geografiya ta'limini maqsadlarini aniqlash. Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari mavjud ta'lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti bo'yicha ta'lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta'limining asosiy ko'rsatkichlarini B.Blumning taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir o'lchamlarga ega bo'lar edi. Mazkur muammo sohasida hozircha geografiya ta'limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo'q.

Geografiya ta'limida quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Kartografik texnologiyalar. Geografiya ta'limining barcha bochiqlarida qadimdan qo'llanib keladi. Kartografik materiallar ko'pincha darsga qo'shimcha ko'rgazma sifatida ishlatiladi. Alohida kartografik texnologiyalar yordamida hozircha dars o'tilmaydi.

Kartografik dars texnologiyasi – mazkur darslarda to'la kartografik texnologiyalarniqullash asosida o'tilishi mumkin. Mazkur texnologiyalarni o'rta va oliy ta'limda regional tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarini o'rganishda qo'llanishi mumkin. (materiklarr va okeanlar, o'lkalar, davlatlar ma'muriy birliklarning tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografiksharoiti).

O'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi (Dushina, Gerasimova, Neklyukova, G'ulomov, Qurboniyozov, Vaxobov va boshqalar). Mazkur usul ham geografikta'limda ilgaritdan qo'llanib kelinadi.

Ushbu texnologiya geografikborliqni, hodisa va jarayonlarni tavsiflash tartibi, qoidasi, algoritmlar sifatida ifodalangan.

Mazkur texnologiya har bir darslik uchun metodik qo'llanma sifatida kengroq tarqalgan. Masalan, har bir sinf bo'yicha nashr qilingan darsliklar albatta metodik

qo‘llanmasi bilan birga nashr qilinmoqda. Unda geografikko‘nikmalarni shakllantrish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi (Episheva, Dushina). Ushbu texnologiya ham geografiya ta’limida ilgaritdan qo‘llanib kelinadi. Ushbu usulni qo‘llaganda sinf o‘quvchilari qobiliyatiga va qiziquvchanligiga ko‘ra ma’lum bir guruhlarga bo‘linadi. Bunda o‘quv maqsadlari tabaqalashtiriladi, har bir guruh uchun o‘quv jarayonini ta’minlaydigan texnologiya ishlab chiqiladi. Mazkur texnologiyani regional geografiya fanlarini o‘rganishda qo‘llash yaxshi natija beradi. Masalan, Evropadagi rivojlangan davlatlar iqtisodiy geografiyasini o‘rganishda har bir guruh ma’lum bir davlatni o‘rganishi mumkin.

O‘quvchilarni o‘quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi (Suxov, Rom, Dronov, Dushino va boshqalar). Bunda o‘quv faoliyati o‘quvchilarni faolligini oshirishni maxsus, alohida shakli sifatida ko‘riladi.

Ushbu texnologiyada o‘quvchilar bilimlarni ma’lum bir o‘quv topshiriqlarni bajarish orqali olishadi. Ushbu texnologiyani qo‘llash quyidagi bosqichlardan iborat: ma’lum bir ma’lum bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha topshiriqlar tizimi tuziladi (masalan, Shimoliy Amerika iqlimi; Xitoyning qishloq xo‘jaligi; Yaponiya transporti va hokazolar); O‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish loyahasini ishlab chiqish; mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzish; dars o‘tish, o‘quvchilar bilimini baholash. Mazkur texnologiyalarga o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ham kiritisa bo‘ladi. O‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish geografiko‘yinlar texnologiyasi, muammoli o‘qitish texnologiyasi, o‘quv materiallarini chizmalı, belgili va kartografik modellardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Geografiya o‘yinlar texnologiyasi, geografiya ta’limida juda kengqo‘llaniladi va o‘zining qiziqarliligi, bilimlarni o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirishlari bilan ajralib turadi.

Geografik o‘yinlar texnologiyasi barcha geografiya predmetlarini o‘rganishda qo‘llanimshi mumkun. Muammoli o‘qitish texnologiyasi ham geografiya ta’limida yangi Emas. U ilgaridan qo‘llanilib kelinadi. Bunda asosiy vazifa bo‘lib ma’lum bir mavzu bo‘yicha muammoli savollar yoki topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni o‘quvchilarga tushuntirishdir. Masalan relefni shakllanishi va rivojlanishi; atmosfera yog‘inlarini hosil bo‘lishi: qishloq xo‘jaligini tabiat zonalari bo‘yicha ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va hokazolar.

Modul texnologiyasi geografiya ta’limida endi rivojlanib kelmoqda. Darslik, bo‘lim, mavzu ayrim modullarga bo‘linadi. Har bir modulda o‘quvchilar albatta Egallashi lozim bo‘lgan bilimlar tizimi aniqlanadi. Masalan, geografikkoordinatalar mavzusini quyidagi modullarga bo‘lishimiz mumkin: Ekvator, bosh meridian, parallellar, meridianlar, daraja to‘ri, geografikkenglik, geografikuzunlik, geografikkoordinatalar. Bunda o‘quvchilar albatta bilishi shart bo‘lgan bilimlarga parallel, meridian, kenglik, uzunlik, geografikkoordinata kiradi. Mazkur texnologiyani geografiya predmetlarining barchasida qo‘llash mumkin. Mazkur texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchini birgalikdagi faoliyatini yengillashtiradi va jadallashtiradi.

Alternativ texnologiyalarni juda ko‘p variantlari mavjud, ulardan geografiya ta’limda ustaxona texnologiyasidan foydalanish mumkin (Kollen, Okunev). Bunda usta (o‘qituvchi) kerakli ma’lumotlarni o‘quvchilarga beradi va uning asosida o‘quvchilar o‘zlarining bilimlariga tayangan holda topshiriqni bajarishadi. Masalan, o‘qituvchi bergan quyidagi materiallar asosida (yillik o‘rtacha harorat, yildagi eng baland va eng past haroratlar, yog‘in miqdori va uning qaysi faslda yog‘ishi, shamollar, havo massalari) iqlim turi, yillik havo harorati farqi, iqlim mintaqasi va u tarqalgan hududlarni aniqlashlari lozim.

Integratsiya texnologiyalari. Geografiya ta’limida integrativ predmetlarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Geografiya ta’limida akademik litsey va kasb–xunar kollejlarda o‘tiladigan «Amaliy geografiya» predmeti integrativ predmet hisoblanadi. Unda tabiiy geografik, Ekologik, iqtisodiy geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosiy bilimlar majmuasi berilgan. Bunda geografikqobiqdagi tabiiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy tizimlar haqida yaxlit bilimlar berilgan. Shuning uchun mazkur kursning vazifasi geografikborliqni yaxlit tushunish va qabul qilishni shakllantirishdir.

Kommunikativ — suhbat texnologiyasi ham geografiya ta’limida u yoki bu darajada ilgaritdan foydalanib kelinadi. Bunda o‘qituvchidan o‘quv jarayonida ijodiy yondashish, suhbat texnologiyasi usullaridan foydalana bilish, suhbat uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, o‘quvchilar yoki talabalar o‘rtasida munozaralarni tashkil qila bilish talab qilinadi. Geografiya predmetlarini deyarli barchasini o‘rganishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Masalan, «Orol dengizini qutqarib qolish mumkinmi», «Qozog‘iston past tog‘lari o‘rnida Himolay tog‘lari bo‘lsa, O‘rta Osiyo iqlimi qanday bo‘ladi», «Qanday tuproqlar hosildor va nima uchun», «Shimoliy Atlantika iliq oqimi bo‘lmasa Yevropa iqlimi qanday bo‘ladi» va hokazolar.

Didaktik o‘yin texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi va an’anaviy ta’lim texnologiyalari kiradi.

Bundan tashqari reyting, jamoa, rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan, mualliflik, didaktik maqsadlarni yiriklashtirish, mantiqiy tayanch konspektlar va boshqa texnologiyalar mavjud.

Ta’lim texnologiyalarining ko‘p qismi geografiya ta’limida ilgaritdan o‘qitish metodikasi sifatida qo‘llanib kelingan. Metodika bilan texnologiya bir-biriga juda yaqin, bir-birini to‘ldiradi. Masalan, jahon siyosiy xaritasini ma’ruza usulida o‘rganish texnologiyasi, Quyosh tizimi mavzusini tushuntirish usulida o‘rgatish texnologiyasi va hokazolar.

Demak, olib geografiya fani yangi ta’lim texnologiyalarini qo‘llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga qaraganda sust borilmoqda. Geografiya fanini o‘zlashtirish uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi infarmatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan adabiyotlarda bir qator o‘qitish usullari haqida so‘z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion uslublar sifatida taqdim

etilmoqda. Shulardan Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ayrim uslub va usullarga to'xtalib o'tamiz.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.


2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masala va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlash.

4. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

5. Interfaol uslub texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini yaratish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan o'qitishning innovatsion uslublarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil mulohaza yuritish, o'z fikrini bildirish, bayon etish xamda zarur ko'nikmalarni shakllantirish alohida o'rin tutadi.

Geografiya darslarini shunday tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi faqat materiallarni ifodalovchi, o'quvchilar esa tinglovchi bo'lib qolmasliklari kerak. Zamonaviy dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqilligini oshirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta'limni muammoli tarzda tashkil etilishi, o'quvchilarning zehniini uyg'otadigan, faollashtiradigan uslubiy tadbirlar joriy etilishi kerak.



1-chizma. Geografiya darslarida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar

Demak, yangi mavzuni o'rganish – tushuntirishdan, bilimni bayon qilishdangina iborat bo'lmay, balki bilimlarni mustaqil o'rganish yo'llari, usullarini o'rgatish bilan birga olib borilishi lozim.

Muayyan bilimni mustaqil o'rganish o'quvchidan muntazam fikrlashni, nimanidir hal etishni talab qiladi. Ayrim masalalarni mustaqil hal etish uchun faktlarni qiyoslash, ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni, qonuniyatlarni qayta tiklashni talab etiladi. Mustaqil ishlarni asosan o'quvchilarning o'zlari bajarishlari kerakdek tuyulsada, darsda bajariladigan mustaqil ishni tashkil etishda asosiy ma'suliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Binobarin, yangi bilimni bayon qilish, tushuntirish o'qituvchidan ortiqcha tayyorgarlik talab etmasligi mumkin. Yangi bilimning muayyan qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladigan bo'lsa, uni obdon, puxta o'ylab tashkil etishga to'g'ri keladi. O'qituvchi tayyor bilimlar berib o'qitsa, o'quvchilar xotirasi bilimlar bilan boyishi mumkin, ammo ularning faoliyati, tafakkuri rivojlanmaydi.

Biz quyida Geografiya kurslarida berilgan ayrim mavzularni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish yo'llariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Materiklar va okeanlar tabiiy Geografiyasi kursini o'qitishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanib mustaqil ishlarni tashkil etishda barcha materiklarning bir xil reja asosida o'rganilishi qulaylik tug'diradi. Materikning geografik o'rnini, chekka nuqtalarining koordinatalarini, materikning bo'yi va kengligini o'lchash ishlari mustaqil ish topshirig'i sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, Afrikaning geografik o'rnini boshqa usullar orqali o'rganilsa, Janubiy Amerikaning geografiko'rnini o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratgan holda, egallangan ko'nikma va malakalar asosida mustaqil ish sifatida o'rganilishi, bunda quyidagi topshiriqlardan foydalanish yuqori samara berishi mumkin:

Mavzu: 7-sinf geografiya darsligidan: Janubiy Amerika materigining geografik o'rnini, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relyefi mavzusini muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanib o'qitishda beriladigan mustaqil ish topshiriqlari.

I-guruh

I-topshiriq. Dengiz yo'li orqali Istanbul (Turkiya) shahridan Rio de Janeyro (Braziliya) shahrigacha karta bo'ylab «sayohat» qiling. quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okeanning qaysi dengizlari orqali o'tasiz?
2. Qaysi bo'g'ozlardan o'tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o'tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o'tasiz?
5. Siz kesib o'tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta'sir yetuvchi omillarni tavsiflang."

II-guruh

I-topshiriq. Dengiz yo‘li orqali Rio de Janeyro (Braziliya) shahridan Los Anjeles (AQSH) shahrigacha karta bo‘ylab «sayohat» qiling. Quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okeanning qaysi dengizlari orqali o‘tasiz?
2. Qaysi bo‘g‘ozlardan o‘tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o‘tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o‘tasiz?
5. Siz kesib o‘tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta’sir yetuvchi omillarni tavsiflang.”

III-guruh

I-topshiriq. Dengiz yo‘li orqali Rio de Janeyro (Braziliya) shahridan Kalkutta (Hindiston) shahrigacha karta bo‘ylab «sayohat» qiling. quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okean va dengizlari orqali o‘tasiz?
2. Qaysi bo‘g‘ozlardan o‘tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o‘tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o‘tasiz?
5. Siz kesib o‘tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta’sir yetuvchi omillarni tushuntirib bering.

Mavzu: Farg‘ona iqtisodiy geografik rayoni (50-dars) mavzusini O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy Geografiyasi kursining regional qismida dastlab Toshkent (44-dars) va Mirzacho‘l (47-dars) iqtisodiy rayonlari o‘tilganligi “Farg‘ona iqtisodiy geografik rayoni” mavzusini muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanib mustaqil ish topshiriqlari asosida o‘tilishiga imkoniyat yaratadi. Sinf kichik guruhlariga bo‘linib, dars jarayonida quyidagi mustaqil ish topshiriqlaridan foydalanilishi mumkin:

Kichik guruhlariga beriladigan mustaqil ish topshiriq va savollari

I- guruh uchun beriladigan savollar

1. Quyidagi jadval bilan tanishing

№		Maydon i ming km kv	Maydon i foizda	Aholisi ming kishi (2017й)	Aholis i foizda	O‘rtach a zichlik	Urbanizatsiya darajasi	
							ming kishi	Foi z
1	O‘zbekiston Respublikas i	448,97	100,0	32656, 7	100,0	70	16532, 7	50,5
2	Farg‘ona	18,3	4	9331,5		600	5369,6	50

<i>iqtisodiy rayoni</i>							
--------------------------------	--	--	--	--	--	--	--

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to'ldiring

- Farg'ona iqtisodiy rayoni Respublika maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Respublika aholisining necha foizi Farg'ona iqtisodiy rayonida yashaydi?
- Farg'ona iqtisodiy rayonida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

2-guruh uchun beriladigan savollar

2. Quyidagi jadval bilan tanishing

No		Maydoni ming km kv	Maydoni foizda	Aholisi ming kishi (2017y)	Aholisi foizda	O'rtacha zichlik	Urbanizatsiya darajasi
1	<i>Farg'ona iqtisodiy rayoni</i>	18,3	100,0	9331,5	100,0	600	50
2	Farg'ona viloyati	6,7		3620,2		540	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to'ldiring

- Farg'ona iqtisodiy rayoni Respublika maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Respublika aholisining necha foizi Farg'ona iqtisodiy rayonida yashaydi?
- Farg'ona iqtisodiy rayonida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

3-guruh uchun beriladigan savollar

3. Quyidagi jadval bilan tanishing

No		Maydoni ming km kv	Maydoni foizda	Aholisi ming kishi (2017y)	Aholisi foizda	O'rtacha zichlik	Urbanizatsiya darajasi
1	<i>Farg'ona iqtisodiy rayoni</i>	1	100,0	9331,5	100,0	600	50
2	Andijon viloyati	4,2		3011,7		717	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to'ldiring.

- Andijon viloyati iqtisodiy rayon maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Iqtisodiy rayon aholisining necha foizi Andijon viloyatida yashaydi?

- Andijon viloyatida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

4-guruh uchun beriladigan savollar

4.Quyidagi jadval bilan tanishing.

№		Maydoni ming km kv	Maydoni foizda	Aholisi ming kishi (2017ñ)	Aholisi foizda	O‘rtacha zichlik	Urbanizatsiya darajasi
1	<i>Farg‘ona iqtisodiy rayoni</i>	18,3	100,0	9331,5	100,0	600	50
2	Namangan viloyati	7,4		2699,6		364	

Yuqoridagi ma’lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to’ldiring

- Namangan viloyati iqtisodiy rayon maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Iqtisodiy rayon aholisining necha foizi Namangan viloyatida yashaydi?
- Namangan viloyatida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, o‘qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni talab etadi dars jarayonida o‘quvchi faol ishlovchi shaxs bo‘lib, u butun mashg‘ulot jarayonida egallangan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo‘llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o‘quvchini mustaqil fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilim olishga qiziqish va extiyoj uyg‘otish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.
2. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.-18b.
3. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2006.- 60 b.
4. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog‘lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2004.-28 b.
5. Ishmuhammedov R., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent, 2005.-52 b.
6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b.

XORIJIY TILNI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH TEXNOLOGIYASI VA TAMOYILLARI

Gulchexra Xudoyberdiyeva,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi
kafedrası tayanch doktoranti*

Annatsiya. Xorijiy tilni kasbga yo‘naltirib o‘qitishning funksional modelini ishlab chiqishda eng muhim yondashuvlari orasida komponenti ajratib ko‘rsatilgan. Xususan, ta‘limga texnologik yondashuvining mohiyati quyidagilardan iboratdir: dastlabki o‘quv jarayoni loyhalashda va keyinchalik pedagogik amalyotda yana takroriy foydalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: funksional, modeli, komponent, texnologik, mohiyati, loyhalash, pedagogic.

Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko‘p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o‘quvchi va talabalar odatda ikki tilni o‘rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili va xorijiy til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi til hisoblanadi. Xorijiy til haqida so‘z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo‘shnilar tili sifatida qaraladi. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumiyevropa tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta‘lim maktablari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari, ko‘rgazmali qurollar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni to‘rt aspekt (o‘qish, yozish, tinglash va so‘zlash)ga bo‘linib,

ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda va ularni dars jarayonida samarali qo‘llashda ta‘lim texnologiyalariga, ya‘ni ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalariga murojaat qilamiz. Shuningdek, ta‘lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutishimiz mumkin. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspektida qo‘l keladi.[1,12] Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga e‘tibor berishi talab qilinadi.

O‘quv jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, u birinchi navbatda o‘qituvchining o‘zaro faoliyati va o‘quvchilarning faolligini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning bilim ehtiyojlari va qiziqishlarini

rivojlantirishga katta e'tibor berish kerak. Qo'llanma sifatida o'qitish o'qituvchi tomonidan ma'lum bilimlarni taqdim etish, muloqot qilish va uni sinfning barcha o'quvchilari tomonidan o'zlashtirish jarayonini boshqarishni o'z ichiga oladi. Binobarin, o'qituvchi nafaqat o'z faniga oid ma'lumotlarni taqdim etadi, balki o'quvchining o'quv faoliyatini rejalashtiradi, tashkil qiladi va nazorat qiladi, o'quv-tarbiyaviy ish ko'nikmalarini, fikrlash, qobiliyatlarni, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu masalalarni hal etishda har bir o'qituvchi malakali foydalana olishi kerak bo'lgan o'qitishning metod va uslublari alohida o'rin tutadi. Usul va uslublarsiz qo'yilgan maqsadga erishish, ko'zda tutilgan mazmunni amalga oshirish va mashg'ulotni kognitiv faoliyat bilan to'ldirish mumkin emas.[1] Dastlab, chet tilini o'rganishda biz an'anaviy o'qitish usullari mavjudligini taxmin qilamiz, chunki standart yordam o'rgatilgan bo'lib, tilni samarali o'rganish uchun mo'ljallangan klassik metodologiyadan foydalanishni taklif qiladi [2].

Muammolarni bartaraf etish usuli - bu muayyan vaziyatli muammolarni hal qilish orqali o'rganishga asoslangan muammoli vaziyatni faol tahlil qilish usuli. Bu metodning mohiyati: guruhlarga bo'lingan talabalar vaziyatni tahlil qilib, amaliy yechim ishlab chiqishlari kerak; jarayonning yakuni - taklif qilingan algoritmlarni baholash va ularni muammo kontekstida umumiy muhokama doirasida muhokama qilish. Ushbu uslub klassik ta'limda chet tili darslarida qo'llaniladi, bunda o'quvchilar mavjud bilimlar, amaliy tajriba va sezgi asosida hal qilishlari kerak bo'lgan hayotiy muammoli vaziyat taqdim etiladi. Har qanday vaziyatning bir nechta yechimlari bo'lganligi sababli, barcha mumkin bo'lgan yechimlar muhokama qilinadi [4].

Kommunikativ usul - chet tillarini o'rganishning zamonaviy usullaridan eng mashhuri. Ushbu usul chet tilini o'rganish uchun eng faol hisoblanadi, chunki bu usulning asosiy maqsadi odamni maqsad tilida boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rgatishdir. Bu muloqotning barcha shakllarini nazarda tutadi: nutq, yozish (o'qish va yozish qobiliyatlari), suhbatdoshning aytganlarini tinglash va tushunish qobiliyati [5]. Agar talaba o'rganilayotgan til muhitiga va uning asosiy jihatlariga tom ma'noda "cho'milgan" bo'lsa, o'rganish omillarini yaxshilashga erishish osonroq bo'ladi. Kommunikativ usul deyarli har bir talaba uchun mos keladi, chunki u sizga chet tilini tezroq va ongli ravishda o'rganish imkonini beradi.[2]

Audio-lingual usul - bu usul o'qitish nuqtai nazaridan ideal emas, chunki u siqilishga asoslangan. Trening printsipiga asoslanadi: eshitilgan-takrorlangan. O'qituvchi iborani aytadi; talaba uni talaffuzi ma'lum darajaga yetguncha aniq takrorlashi kerak. Shundan keyingina talaba o'zidan so'z va tafsilotlarni qo'shish huquqiga ega. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin.

Xulosa: Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi.

Innavatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyeva G.I. The orientation of professionally teaching of foreign languages in pedagogical higher education institutions. "Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 10-5-202, Volume 2021, Issue 5

2. Xudoyberdiyeva G.I. Bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy tilda kasbga yo'naltirib o'qitushning mavjud holati tahlili. "Xorazm Ma'mun akademiyasi" ilmiy axborotnomasi, 2022-9/3, 108-111

3. Xudoyberdiyeva G.I. Xorijiy tilni kasbga yo'naldirib o'qish texnologiyasi va tamoyillari. "O'zMU xabarlarini "ilmiy-uslubiy jurnali, 2023, [1/11] ISSN 2181-7324

4. Xudoyberdiyeva G.I. Effectiveness of profession-oriented foreign language teaching. "ILM SARCHASHMALARI"(maxsus son) Ilmiy-nazariy, metodik jurnal, 12/1.2023, 140-143.

5. Xudoyberdiyeva G.I. Practical and technological technology of teaching foreign languages to professional teachers, International scientific-online conference// <https://doi.org/10.5281/zenodo.7466467.2023>, british, 265-267.

6. Xudoyberdiyeva G.I. Analysis of the current state of vocational training of future teachers in a foreign language, International scientific-online conference// <https://doi.org/10.5281/zenodo.7466467.2023>, british, 268-271.

7. Xudoyberdiyeva G.I. Mechanisms of using cefr criteria in vocationally oriented teaching of a foreign language with the help of innovative technologies. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Date: 19th June, 2023, ISSN: 2835-3730, Hosted online from Paris, France, 188-190.

8. Xudoyberdiyeva G.I. Technology and principles of teaching a foreign language with a focus on the profession. "STEP CONFERENCE" <https://doi.org/10.5281/zenodo.8048261//> 2023, toshkent, 1-4.

9. Xudoyberdiyeva G.I. The orientation of professionally teaching of foreign languages in pedagogical higher education institutions. Til ta'limining uzviylikini ta'minlashda innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar" // Respublika ilmiy-amaliy masofaviy konfirensiyasi materiallari. 2021, Chirchiq, 429-232.

MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI - EVRISTIK TADQIQOT TURI

Shirin Giyasova,

Sam VPYMO 'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining kelib chiqish va o'quvchilarning tahlil qilish va fikrlash jarayonida amalga oshadigan tahliliy-sintetik faoliyatiga asoslanishi xususida fikr bildirilgan. Shuningdek, bilish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, mustaqil faoliyat usulini egallashga qaratilgan evristik tadqiqot ekanligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim texnologiyasi, tahlil qilish, fikrlash, tahliliy-sintetik faoliyat, bilish, ijodiy qobiliyat, mustaqil faoliyat, evristik tadqiqot.

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о зарождении проблемной образовательной технологии и ее основе на аналитической и синтетической деятельности учащихся в процессе анализа и мышления. Также подчеркивается, что это эвристическое исследование, направленное на развитие знаний и творческих способностей, приобретение самостоятельного способа деятельности.

Ключевые слова: проблемная образовательная технология, анализ, мышление, аналитико-синтетическая деятельность, знания, творческие способности, самостоятельная деятельность, эвристическое исследование.

Abstract. This article expresses an opinion about the origin of problematic educational technology and its basis on the analytical and synthetic activity of students in the process of analysis and thinking. It is also emphasized that this is a heuristic study aimed at developing knowledge and creativity, acquiring an independent way of activity.

Key words: *problem-based educational technology, analysis, thinking, analytical-synthetic activity, knowledge, creativity, independent activity, heuristic research.*

Muammoli ta'lim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli ta'lim usuli amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui g'oyalariga asoslangandir⁶. L.Dyui va L.Bruner o'qitishning asosiy maqsadi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir, deb bilganlar.

XX asr boshlarida Jon Dyui, Gerbart didaktik tizimiga qarama-qarshi bo'lgan o'zining didaktik tizimini taklif qildi va uni Chikago maktablaridan birida sinab ko'rdi. Dyui darsda o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lmog'i lozim deb hisobladi. Darsda beriladigan bilimlar o'quvchilar ehtiyojiga mos va ularning xohishidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, deydi Dyui. Kitobdagi bilimlarni quruq yod olish hech narsaga olib bormaydi, aksincha, o'quvchilarni o'qishdan sovutib, tafakkurini zanglatadi, deb hisoblaydi. Ta'lim-tarbiyada Dyuining qo'shgan asosiy hissasi bu "Aql yuritish to'liq jarayonining yetakchi halqasi muammoning paydo bo'lishi", deydi. Muammo paydo bo'lganidan keyin, o'qituvchi qiyin holatga tushib, uning yechimini izlaydi va faol fikr yuritib bir qator mulohazalardan keyin bu muammoning yechimini topadi va sinab ko'radi, noto'g'ri bo'lgan taqdirda, yana aql yuritadi va bu jarayon bir necha marotaba qaytarilganidan keyin, oxir-oqibatda uning to'g'ri yechimini topadi. Natijada fikr yuritishning to'liq jarayoni amalga oshadi. Keyinchalik bunday didaktik tizim muammoli dars o'tish deb nomlanib ketildi.

V.Okon muammoli o'qitishni "muammoli vaziyatni tashkillashtirish, muammoni so'z orqali ifodalash, uni hal qilishda o'quvchilarga yordam berish, yechimlarini tekshirish va olingan bilimlarni tizimlash va mustahkamlashda rahbarlik qilish faoliyatining birligi", deb biladi.

⁶ Tojiyev M., Ziyamuhamedov B., O'ralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash – T.: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 91-bet

I.V.Kudryavsev muammoli o'qitish mohiyatini bilim oluvchilar oldiga didaktik muammo qilib qo'yishni, uning yechilishi va umumlashtirilgan bilimlarni va muammoli masalalarni yechish tamoyillarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishda ko'radi.

M.I.Mahmudov muammoli o'qitish bu-o'qitishning rivojlantiruvchi turi bo'lib, unda talabalarning sistematik mustaqil izlanishlari faoliyati va ular tomonidan fandagi tayyor xulosalarni o'zlashtirishi uygunlashadi. Bunda usullar tizimi maqsadlash va muammolilik tamoyilini nazarda tutgan holda shakllanadi.

Bugungi kunda muammoli ta'lim deb, o'qituvchi boshqaruvi ostida o'quvchilar ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish va ta'lim oluvchilarning ularni yechishga qaratilgan mustaqil faoliyatini tashkillashtirishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayoniga aytiladi. Bu jarayon natijasida bilim, ko'nikma, malakalarni ijodiy o'zlashtirilishi va talabalarning tafakkurini rivojlanishiga erishiladi.

Muammoli ta'lim maqsadlari: - ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi; - bilimlar mustahkamligini oshirish; - mustaqil faoliyat yo'llarining o'zlashtirilishi; - izlanishga qaratilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish; - bilish qobiliyatlari va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Muammoli ta'limda o'quv mazmuni muammoli vaziyatlar majmuasi sifatida tashkillashtiriladi. Bunda o'quv materialning an'anaviy bayoniga muammoli vaziyatlarni kiritish optimal yol hisoblanadi.

Uslubiyatning o'ziga xosliklari bilimlarni tayyor holatda emas, aksincha ularni paydo bo'lishi va rivojlanishi holatida berishdadir.

Muammoli vaziyatning tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlar mavjud: - yangi bilim yoki yechimga olib boriladigan yo'lning noma'lumligi; - insonni aqliy faoliyatga undovchi bilimga bo'lgan ehtiyoj; - insondagi uning oldingi tajribasi va ijodiy qobiliyatlarini o'z ichiga olgan aqliy imkoniyatlar.

I.A.Initskaya muammoli vaziyatlar tizimini ishlab chiqishda aynan muammoli vaziyatlar ketma-ketlik tizimini muammoli o'qitishning asosiy sharti deb hisoblaydi. Muammoli vaziyatlar tizimida bitta asosiy va qator yordamchi vaziyatlar aniqlanadi.

Muammoli vaziyatni shakllantiruvchi usullar:

- o'qituvchi o'quvchilarga ziddiyatni ko'rsatadi va ulardan mustaqil ravishda ushbu ziddiyatni yechishni talab qiladi;

- amaliy faoliyatda uchraydigan ziddiyatlarni o'zaro to'qnashtiradi;

- bir masalaga mavjud bo'lgan turli munosabatlarni bayon etadi;

- bir hodisani turli pozitsiyalardan ko'rib chishni taklif qiladi;

- o'quvchilarni taqqoslash, umumlashtirish, vaziyatdan kelib chiqib xulosa chiqarish, faktlarni o'zaro solishtirishga undaydi;

- aniq savollar qo'yadi;

- muammoli nazariy va amaliy vazifalarni aniqlaydi;

- muammoli masalalarni shakllantiradi (masalan, birlamchi ma'lumotlari yetarli bo'lmagan yoki oshiqcha, noaniq savolli, zid ma'lumotlarni mujassamlashtirgan, atay mazmunida xatoga yo'l qo'yilgan, yechish uchun chegaralangan vaqt berilgan va h.k.)

Muammoli ta'lim darajalari tafakkurning turli darajalarini ham aks ettiradi:

- oddiy, mustaqil bo'lmagan faollik darajasi-re'roduktiv faoliyat;
- to'liq mustaqil bo'lmagan faollik darajasi-o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va yechimini o'qituvchi bilan hamkorlikda izlashda namoyon bo'ladi;

- mustaqil faollik darajasi- re'roduktiv-izlanish xarakterda bo'lgan ishlarni amalgam oshirilishi, qiyinligi o'rta darajada bo'gan masalani o'qituvchining minimal yordami bilan yechadi.

Ijodiy faollik darajasi-ilodiy tasavvurni, mantiqiy tahlilni, yangi yechim yo'lini o'ylab topishni, mustaqil isbotni talab qiluvchi muammoli masalalarni yechishni nazarda tutadi.

M.N.Shatkin muammoli ta'limning quyidagi 3 ta asosiy turini alohida ifodalagan: ⁷

1.Bilimlarni muammoli bayon qilish. Bunday bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarga u yoki bu qoidalarni faqat gapirib bermaydi, balki og'zaki fikr yuritib, muammoni hal qiladi va uni hal qilish jarayonini ko'rsatadi.

2.Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish. Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quv materialini tushuntiradi, lekin ana shu jarayonda o'quvchilarga ulardan izlanish jarayonida qo'shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollarni beradi.

3.Ta'limning tadqiqiy metodi. O'quvchilar bilish muammosini anglab, o'zlari izlanish rejasini belgilaydilar, taxminni tuzadilar, uni tekshirish yo'lini muhokama qiladilar, tajribalarni va dalillarni taqqoslaydilar, umumlashtiradilar.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega. Har tomonlama, barkamol rivojlanganlikning ko'rsatkichi – yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatining mavjudligidir.

Muammoli o'qitish o'quvchining tahlil qilish va fikrlash jarayonida amalga oshadigan tahliliy-sintetik faoliyatiga asoslanadi. Bu o'qitishning bilish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, shuningdek ular tomonidan mustaqil faoliyat usulini egallashga qaratilgan evristik tadqiqot turidir.

REDEFINING STEM EDUCATION: THE EMERGENCE OF A HOLISTIC APPROACH FOR 21ST-CENTURY SUCCESS

ALLAN MILLER,

Stem4learning Consulting

Telegram - 802-324-9374

Email - stem4learning@gmail.com

⁷Mavlonova R. va boshqalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T., 2010 221-bet.

In the rapidly evolving landscape of education, STEM—Science, Technology, Engineering, and Mathematics – has become a beacon of academic excellence and a target for educational reform around the world. However, despite STEM being the focus of so much effort, there remains significant ambiguity surrounding what STEM education truly entails. Traditional interpretations often limit STEM to discrete disciplines focused primarily on content knowledge, neglecting the broader skills essential for success in the modern world. This is highlighted by various groups striving to have their content included, creating STEAM by including Art and even STREAM by including Reading. At this rate by the end of the decade, we may well be pursuing *STREAMACALAFRAGILISTICXPIALIDOCIOUS* (*apologies to Mary Poppins*) just to be sure we haven't forgotten any small bit of content that might be valuable for 21st Century learning. The challenge is that in the end, even if we just consider STEM there is too much content to possibly cover and much of the content isn't going to be relevant, interesting or engaging to the majority of our middle and high school students. A related challenge is that by focusing strictly on a content based definition, the majority of teachers don't feel any connection to or responsibility for the teaching of STEM. To address this, SheMaps, a STEM Education Consultancy specializing in Drone Education for public schools in Australia created the "STEM Re-Imagined 3.0" framework. This redefinition of STEM addresses these shortcomings by pivoting from a strictly disciplinary approach to one that emphasizes vital skills across these fields, fostering not just knowledge but also adaptability and creativity among students.

The "STEM Re-Imagined 3.0" document redefines the focus of STEM education through four pivotal categories: **Sophisticated Problem Solvers**, **Talented Creative Thinkers**, **Educated Digital Natives**, and **Mindful Collaborators**. Each category is intricately designed to equip students with the competencies needed to thrive in the complexities of the 21st century. This innovative framework emphasizes the development of critical analysis, creative solutions, digital literacy, and effective collaboration, which are all crucial for a successful career in any field, not just traditional STEM roles.

The categories of **Sophisticated Problem Solvers** and **Talented Creative Thinkers** in the "STEM Re-Imagined 3.0" framework are pivotal for molding students into capable and inventive professionals. These categories are perfectly complemented by the eight Science and Engineering Practices outlined by the Next Generation Science Standards (NGSS), which provide a concrete set of skills that underpin these broader capabilities.

Sophisticated Problem Solvers are cultivated through a rigorous application of the NGSS practices that emphasize critical thinking and solution-based learning. Specific practices that foster this category include:

1. **Asking Questions and Defining Problems**: This practice develops the foundational skill of inquiry, crucial for any problem solver. It encourages students to formulate and refine scientific questions and engineering problems, thereby initiating the problem-solving process.

2. **Planning and Carrying Out Investigations**: This skill is essential for gathering the empirical evidence necessary to solve problems. By designing and executing investigations, students learn how to manage variables and operationalize data collection, which are crucial components of effective problem-solving.

3. **Analyzing and Interpreting Data**: Problem solvers must be adept at making sense of data. This practice enhances students' ability to systematically analyze data sets to determine trends, patterns, and outliers, which are integral to developing informed solutions.

4. **Using Mathematics and Computational Thinking**: This integrates the quantitative tools necessary for sophisticated problem-solving. Computational thinking and mathematical modeling enable students to abstract and simulate real-world problems and devise solutions using a logical, structured approach.

Talented Creative Thinkers, on the other hand, thrive on innovation and the ability to see beyond conventional methods. The NGSS practices that particularly support this category include:

5. **Developing and Using Models**: Creative thinkers must visualize complex processes and systems. This practice involves creating, refining, and deploying models to predict and explain phenomena, allowing students to explore and innovate new theories and solutions.

6. **Constructing Explanations and Designing Solutions**: This practice is about synthesizing information and articulating reasoned arguments. It fosters the ability to construct coherent explanations for scientific phenomena and engineer tailored solutions to specific problems.


7. **Engaging in Argument from Evidence**: Critical to creative thinking is the ability to debate ideas and approaches based on evidence. This practice sharpens students' reasoning and persuasive skills, essential for advocating innovative solutions.

8. **Obtaining, Evaluating, and Communicating Information**: Effective communication is a key skill for any creative thinker. This practice not only involves the acquisition and assessment of informational resources but also emphasizes the clear and concise communication of ideas and findings.

Integrating these NGSS practices into the STEM curriculum not only enhances the technical proficiency of students but also ensures they are equipped with the intellectual tools necessary to navigate and innovate within any professional setting. By emphasizing these specific skills, educators can effectively cultivate a generation of sophisticated problem solvers and talented creative thinkers, fully prepared to meet the challenges of the future.


Furthermore, the **Educated Digital Natives** category prepares students to proficiently use and understand emerging digital tools and technologies, such as AI, blockchain, and augmented reality. This preparation is critical as digital fluency is increasingly becoming a staple in modern workplaces across all industries, not just those traditionally considered part of STEM.

The category of **Mindful Collaborators** highlights the importance of personal and social capabilities. Educational strategies that foster these skills involve cooperative learning and team-building exercises across various subjects. For example, science classes can incorporate group experiments where students collaborate on solutions, while arts and humanities might involve debates or peer reviews to enhance communication skills. Such approaches ensure that students are not only adept at navigating complex technical challenges but are also prepared to work effectively and empathetically within diverse teams.



By redefining STEM in this way, education systems can move beyond the ambiguous confines of the traditional

STEM acronym to a more comprehensive focus on developing key skills that are applicable across multiple disciplines. This shift not only makes STEM education more relevant but also more dynamic, preparing students for a future where they are required to continually adapt and integrate a broad range of skills in their professional lives. The "STEM Re-Imagined 3.0" framework, therefore, does not discard the essence of science, technology, engineering, and mathematics; instead, it enhances these core disciplines by embedding them within a broader context of essential 21st-century skills.



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING
METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MUAMMOSINING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o‘g‘li,
Sirdaryo viloyati pedagogika markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi
boshlig‘i
[e-pochta: qodirqulovnodirbek380@gmail.com](mailto:qodirqulovnodirbek380@gmail.com)

Annontatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish mavzusining mohiyati va metodika tayyorgarlik tushunchasining mazmuni, o'qituvchini metodik jihatdan mahoratli bo'lib yetishishida zarur bo'luvchi omillar va pedagogik zaruriy shart-sharoitlar haqida kerakli manbalar nazariy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, metodika, intellektual, salohiyat, rivojlanish, mustaqil fikr, muammo.

Аннотация: В данной статье сущность темы совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов для интеллектуального развития учащихся и содержание понятия методической подготовки, факторы, необходимые учителю для становления методической грамотности и необходимые педагогические условия необходимые ресурсы изучаются теоретически.

Ключевые слова: высшее образование, методология, интеллектуал, потенциал, развитие, самостоятельное мышление, проблем.

Abstract: In this article, the essence of the topic of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students and the content of the concept of methodological preparation, the necessary factors and pedagogical prerequisites for the teacher to become methodologically skilled. necessary resources about the conditions are studied theoretically.

Keywords: higher education, methodology, intellectual, potential, development, independent thought, problem.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarni

intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu bilan birga, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga G.A.Berdaliyeva, A.Sadikova, M.Toshpulatova, Yu.Jabborova, N.Muxitdinova, Z.T.Nishonova, G.Mamatova, A.K.Markova, N.V.Matyash, Ye.M.Pavlyutenkov va boshqalar alohida to'xtalib o'tgan. G.A.Berdaliyeva o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ta'lim vositalarini rivojlantirish, psixologik tafakkurni rivojlantirish borasida o'quvchilar bilimni oshirishga oid ishlarni tahlil qilgan [4]. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda zamon talablaridan kelib chiqib yondashish muhimdir. O'quv jarayonidagi didaktik vaziyatlar (o'qituvchining odobini belgilovchi, uning o'ziga bahosi, aqliy qiziqishlari darajasini ifodalovchi, o'qituvchining yondoshishi, o'z mehnatining ma'nosini anglash bilan bevosita bog'liq uning o'quvchiga, hamkasblariga, o'ziga munosabatlarini doimiy tizimi), o'qituvchilarning o'z fanlari haqida chuqur bilimga egaligi kabi ko'nikmalar shakllantirilishi zarur. Har bir pedagogning motivatsion sohani rivojlantirishi ya'ni maqsad qo'ya olishi, qiziqishlarini to'g'ri taqsimlay olishi, shaxsiy motivlarini qamrab oluvchi psixologik sifatlar majmui malakaga aylantirilishi lozim. D.T.Asikov boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini "mustaqil va mas'uliyatli ishlashga imkon beruvchi psixik holat, inson mehnatining natijalaridan iborat bo'lgan, insonning ma'lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va ko'nikmasi" sifatida e'tirof etadi. G.L.Lukankin bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik tayyorlash amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqida fikrni qo'llab quvvatlaydi. Bunda olim boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash masalasini hal etishda talabalar o'qiydigan fanlar sonini oshirish yo'lidan emas, balki ta'lim va bo'lajak o'qituvchining mustaqil ishlarini samarali tashkil etishni individuallashtirish yo'lidan borish kerakligini, ya'ni ommaviy, yalpi ta'limdan individual yondashuvni kuchaytirish zarurligini qayd qiladi Sh. S. Sharipovning o'z ilmiy ishlarida kreativ axborot muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ekanligini va metodik tayyorlangan o'qituvchilar innovatsion rivojlangan bo'ladi va ta'lim siyosatining yangi yo'nalishlariga ham moslashuvchan bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligiga talablar o'zgarishi ikkita asosiy ta'lim paradigmasi: xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda namoyon bo'luvchi insonparvarlik va ta'limning ijtimoiylashuvi bilan belgilash mumkin. N.X.Qodirovning fikricha, "bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematik metodik tayyorgarligi – matematikada ilmiy izlanishning metodologiyasi va tarixi, gumanitar yo'naltirilgan boshlang'ich matematika ta'lim komponenti sifatida o'quvchilarda izlanuvchan matematik faoliyati shakllanishini nazarda tutgan" Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, o'qitishning zamonaviy vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq" Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim

jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda avvalambor, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish matematika fani bilan ko'proq bog'liqligini inobatga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, boshlang'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim xisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning vazifalari Boshlang'ich sinf o'qituvchilari xar bir o'quvchilarni psixologiyasini bilishi zarur, chunki asosiy ob'ekt bu o'quvchi. O'qituvchi darsga kirganda bu o'quvchi bilan qanday gaplashish zarurligini, qaysi metoddan foydalanib ta'lim berish yo'lini, ta'limni qanday berganimizda o'quvchi yengil qabul qila oladi degan bir nechta savollarga javob olish uchun xam bo'lajak o'qituvchilar bola psixologiyasini bilishi lozim. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'ladi, bu vaziyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars o'tish metodikasini tanlaganda turli xil o'yinlarni tanlashi, o'yin qandaydir ta'lim berishi lozim, shuning uchun ham ta'limiy o'yinlardan foydalanib darsni tashkil qilishb, o'quvchilarni darsga qiziqtirishi lozim. Hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq. Bu, ayniqsa, matematika fanini o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etuvchi o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga o'quv faoliyati sub'ekti sifatida yondashish o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvini o'stirib, rivojlantirib borish, o'qituvchilarning fanlarni o'qitishni takomillashtirilgan an'anaviy va noan'anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish ko'nikmasi va malakasini oshirish; dars loyihasining har bir bosqichi ustida ishlashni o'rgatish, o'quvchilarning fanlarni amaliy o'zlashtirishlari uchun berilgan topshiriqlarini bajarish, ta'limiy metodni rivojlantirish; o'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari belgilay olishni singdirib borish yondashuv sifatida xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga asoslangan metodikaning shakl, vositalaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF- 5712-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF5847-son Farmoni

3. 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-4708- sonli Farmoni

4. Abdullayeva B.S va b Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish-Toshkent.: OOO “Jahon print”,2011,146- b.

5. Abduraimov Sh.S. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlash sifatini ta’minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. –Toshkent: Navro’z, 2014. – 120 b

6. Jumayev M.E., „Matematika o’qitish metodikasidan praktikum“- Toshkent.: O’qituvchi, 2004, 328 bet.

7. Луканкин Г.Л. Высшая математика для экономистов. Курс лекций. 2009г

8. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. М.: изд-во «Педагогика». 1990. С.34-56

9. Sharipov Sh.S. O’quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Pedagog. fan. d-ri. ... diss. avtoref. –T.: 2012. –B. 46

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ШКОЛЕ

Гапоненко Мария Андреевна,

Преподаватель школы №68 Пайарыкского района Самаркандской области

Сегодня нет такого учителя, который не задумывался бы над вопросами: «Как сделать урок интересным? Как привлечь интерес учащихся к своему предмету? Как создать на уроке комфортные условия для обучения каждого ученика?» Ответы на все эти вопросы мы находим в обновленной программе преподавания русского языка и литературы .В котором изменился подход к преподаванию русского языка и литературы в школах с нерусским языком обучения. Сегодня основная цель обучения – это не только накопление учащимися определенной суммы знаний, умений, навыков , но и подготовка ученика как самостоятельного субъекта образовательной деятельности. Обновленная программа помогает нашим ученикам сформировать умения и навыки полноценного восприятия звучащей речи, свободно говорить и писать, пользоваться им в жизни как основным средством общения. Теория приближена к практике. В учебном процессе происходит смещение акцентов на самостоятельность, предприимчивость, активность, изобретательность учеников. На уроке учитель направляет учеников, дает возможность самому достичь поставленных целей. Дает понять на каком этапе обучения находится ученик, каким образом достигнет результата и над чем необходимо работать, чтобы восполнить пробелы.

При планировании урока я руководствуюсь основным нормативным документом –учебной программой и долгосрочным планом. В этом документе определены цели обучения, которые должны быть реализованы в четверти и в разделе. Можно опираться на среднесрочный план, в котором содержатся

рекомендуемые действия при организации учебного процесса. Планирование урока зависит от этапа обучения, т.е. в зависимости от того, формируется речевой навык(умение) впервые или закрепляется. От этого зависит выбор методов и приемов обучения. В ходе урока обычно выделяют три части-начало(запланированная деятельность на начало урока), основную (середина урока) и заключительную (конец урока).В начале урока для создания благоприятной среды обучения провожу различные тренинги ,например «Улыбнись», «Солнышко». Для повторения пройденного материала эффективно использовать стратегию «Быстрое бормотание» или по другому «Быстрое говорение» с целью быстрой проверки усвоения материала прошлого урока. В середине урока решаются главные задачи обучения, стараюсь использовать различные обучающие стратегии, которые создают условия для активной речевой деятельности учеников. Учащиеся начальных классов проявляют интерес к игровой деятельности на уроке. Они не могут долго сидеть в одной позе, поэтому надо сочетать познавательную, практическую и игровую формы работы. Ученики начальных классов любят проводить физминутки, изображать различные движения по теме «Глаголы», показывать движения домашних и диких животных. Во время урока прошу детей подойти к окну и посмотреть, какая погода на улице, что они видят, кого они видят. Детям это интересно. Сначала ученики говорят слова, а затем выдают короткие предложения. Этот прием я называю «Разговорная минутка». При изучении раздела «Традиции и фольклор» учащиеся проявляют большой интерес к изучению сказок. Любят смотреть сказки по интерактивной доске. Инсценировать сказки, обсуждать персонажей из сказок. На таких уроках использую стратегию «Персонаж на стене». На листе ватмана силуэт главного персонажа любой сказки, например, медведя из сказки «Теремок». Внутри персонажа пишем характеристику, какой он, справа –дополнительная информация про персонаж, слева – записываем вопросы к главному герою. Такую работу можно проделать и в средних классах. При этой работе привлекаю внимание учащихся к важным моментам и мыслям произведений. Руководимое чтение дает возможность детям обсудить лексику, расшифровать и понять смысл новой лексики. У учащихся есть определенные вопросы, на которые они ожидают получить ответы. Имеют некоторые знания о том, как решать задачи в рамках текста. Посредством «руководимого обучения» учитель направляет деятельность учащихся в нужное русло., например, показывает, как говорить и слушать при различных контекстах, задавать соответствующие вопросы, свидетельствующие о том, что они внимательно слушали, смотрели и могут участвовать в диалоге.[1] При всех видах работы стараюсь поддерживать учеников, а не высказывать «правильно», «неправильно». При руководимом чтении эффективные стратегии, по-моему мнению, это «График эмоций», применяется на небольшие тексты, делится текст на части, после прочтения части даем эту стратегию. Интересна и познавательна стратегия «Гора историй», «диаграмма Венна», «Двойной пузырь». Все эти стратегии еще называют графическими органайзерами.

На уроках в средних и старших классах рекомендуется оптимальное сочетание группового, индивидуального обучения, работы в парах. Индивидуальная работа нужна учащимся, у которых плохо развита речь, малообщительные или, наоборот, слишком активным, несдержанным. Правильное использование формы работы, стратегий на уроке способствует достижению SMART – целей, повышает мотивацию, познавательную активность учеников, и, как следствие, повышается качество знаний по предмету. Для организации работы в группах рекомендую использовать следующие стратегии, например, «Ассоциативный куст» при котором записывается ключевая фраза. Ученики предлагают идеи, которые располагаются вокруг ключевой фразы, они должны объяснить собственные идеи, почему именно так, а не иначе. Стратегия «Снежный ком» - форма работы направлена на организацию коллаборативной работы среди обучающихся в группе при формировании ответа. Обучающиеся делятся на небольшие группы, им предоставляются вопросы или задания, с которыми они сначала работают индивидуально, затем объединяются в пары, в четверки, в восьмерки и т.д с поэтапным обсуждением темы. В старших классах для самостоятельной работы предлагаю стратегию «РАФТ». Сильные ученики выбирают более сложную форму работы по формуле «ПОПС». Ученики могут сравнивать ответы- обоснование, аргументацию и конечные результаты, в процессе обсуждения стараясь прийти к лучшему решению и выбора определенного ответа. После проделанной работы можно предложить сравнить получившиеся ответы. При выполнении таких заданий в группе или парно, следует обязательно оценивать при помощи дескрипторов. Которые должны будут составлены при планировании заданий. Или совместно составлены с учениками перед выполнением упражнений. Формативное оценивание показывает, насколько успешно обучающийся осваивает изучаемый материал данной темы, выполняя функцию обратной связи, когда он или группа получает информацию о своих успехах и пробелах. Соответственно, результаты самооценивания и взаимооценивания воспринимаются обучающимися лишь как рекомендации для улучшения собственных результатов., так как за них в журнал оценки не выставляются. Таким образом, ученик получает четкие ориентиры, что надо сделать, чтобы качественно повысить свою успеваемость, видит собственное развитие и прогресс. Получается, что он заинтересован процессом обучения

Формирование у обучающихся навыков свободного общения, высказывания собственного мнения и мыслей. происходит в рамках вида речевой деятельности «говорение». Дети учатся озаглавливать текст, делить его на части, выделять главную мысль, отвечать на вопросы, обсуждать, прогнозировать и др. При такой работе обязательно нужен процесс критериального оценивания. Предлагаю следующие виды оценивания:

При монологе можно выделить следующие дескрипторы:

- соблюдает логическую последовательность развития сюжета.
- раскрывает тему и основную мысль создаваемого текста[2].

- выражает свои мысли правильно, точно, ясно
- использует слова в соответствии с темой.
- сохраняет ударение и интонацию в словах.

При оценивании диалога :

- составляет диалог в соответствии с темой.
- задает вопросы собеседнику.
- отвечает на вопросы собеседника.
- сохраняет нормы речевой культуры и общения.
- приводит аргументы при высказывании
- высказывает свои мысли в соответствии с темой.

При оценивании пересказа текста:

- передает содержание текста последовательно
- сохраняет структуру текста(начало, основная часть, конец)
- отвечает на вопросы

- использует средства выразительности звучащей речи(темп, громкость, тон высказывания, ритм голоса, жест, мимика). При письменных работах рекомендуют следующие дескрипторы:

Изложение, сочинение:

- демонстрирует хорошее понимание темы
- определяет идею предложенного текста
- составляет простой ,цитатный план
- соблюдает структуру, соответствующую плану
- передает основное содержание текста
- сохраняет стиль исходного текста
- пишет, не допуская речевых и орфографических ошибок
- демонстрирует богатство словарного запаса

